ISSN 2091-5659

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОНУНЧИЛИК ТЎПЛАМИ

СОБРАНИЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

№ 28

2026 йил 13 - 18 июль

Расмий нашр

Официальное издание

Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами беш бўлимдан иборат:

биринчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорлари эълон қилинади;

иккинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари эълон қилинади;

учинчи бўлимда Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари эълон қилинади;

тўртинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг қарорлари жойлаштирилади;

бешинчи бўлимда вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларининг Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида давлат рўйхатидан ўтказилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари эълон қилинади.

МУНДАРИЖА

БИРИНЧИ БЎЛИМ

720. «Тошкент халқаро молия маркази тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 13 июлдаги ЎРҚ-1158-сон Қонуни

ИККИНЧИ БЎЛИМ

721. «Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 августдаги «Ҳарбий-маъмурий секторларни ривожлантириш жамғармасини ташкил этиш тўғрисида»ги ПҚ-3897-сон қарорига ўзгартиришлар киритиш ҳақида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 14 июлдаги ПҚ-264-сон қарори

722. «Аҳолига кўрсатилаётган давлат хизматларини такомиллаштириш ҳамда фуқаролар учун қўшимча қулайликлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 15 июлдаги ПҚ-265-сон қарори

723. «Республикада халқаро таълим стандартлари асосида ўрта махсус, касбий ва олий таълим дастурларини жорий этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 17 июлдаги ПҚ-269-сон қарори

724. «Маданий тадбирларнинг халқаро жозибадорлигини ошириш ва соҳага замонавий бошқарувни жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 17 июлдаги ПҚ-270-сон қарори

УЧИНЧИ БЎЛИМ

725. «Вояга етмаган шахсларга айрим давлат хизматларини кўрсатишнинг маъмурий регламентларини тасдиқлаш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2026 йил 13 июлдаги 380-сон қарори

726. «Қишлоқ хўжалиги соҳасида рақамли хизматларни жорий қилишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2026 йил 13 июлдаги 381-сон қарори

727. «Бонд омборлари фаолиятини ташкил этиш ва улар орқали товарларни сотиш тартиби тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2026 йил 16 июлдаги 388-сон қарори

728. «Солиққа оид давлат хизматларини электрон шаклда кўрсатиш қамрови янада кенгайтирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2026 йил 16 июлдаги 389-сон қарори

БЕШИНЧИ БЎЛИМ

729. “Budjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomaga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug‘i *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 13-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2146-21-son)*

730. “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzuridagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha maslahat markazining namunaviy nizomiga o‘zgartirishlar kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining, O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 13-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2499-5-son)*

731. ““Yangi O‘zbekiston” universitetida davlat oliy ta’lim tashkilotlari rektori (direktori) lavozimiga nomzodlarni tayyorlash bo‘yicha “Rektorlar maktabi” dasturi doirasida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 13-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3897-son)*

732. “Sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) va sug‘urta vositachilari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 13-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3898-son)*

733. “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug‘i *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 15-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2634-10-son)*

734. “Birinchi guruhga eritilgan hayvon yog‘ini yetkazib berish, qabul qilish, saqlash va berib yuborish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaning 30-bandiga o‘zgartirish kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 15-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2641-1-son)*

735. “Birinchi guruhga polietilendan tayyorlangan bosimga chidamli quvurlarni yetkazib berish, qabul qilish, saqlash va berib yuborish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga o‘zgartirishlar kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 15-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2819-1-son)*

736. “Auditorlik tashkilotlari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 15-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3101-4-son)*

737. “Diniy ta’lim muassasalari hamda “Umra” tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish, diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 15-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3899-son)*

738. “Birinchi guruh moddiy boyliklarini mas’ul saqlovchi tashkilotlarda maqbul harorat-namlik darajasini saqlab turish, laboratoriya va sanitariya nazoratini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga o‘zgartirishlar kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 16-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2482-1-son)*

739. “O‘zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarining 28-bandiga o‘zgartirish kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 16-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3281-6-son)*

740. “Temir yo‘l transporti hamda metropolitenda harakat va tashishlar xavfsizligi talablarining buzilishi bilan bog‘liq hodisalarni tasniflash, xizmat tekshiruvini olib borish va hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi transport vazirining buyrug‘i *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 16-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3376-2-son)*

741. “Yer usti suvidan oqilona foydalanish va suv iste’moli qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirining buyrug‘i *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 16-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3900-son)*

742. “Қаттиқ ва суюқ радиоактив чиқиндиларни тўплаш, қайта ишлаш, сақлаш ва кондициялашда ҳамда газсимон радиоактив чиқиндилар билан муомалада бўлишда хавфсизлик талабларини тасдиқлаш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Саноат, радиация ва ядро хавфсизлиги қўмитасининг қарори *(Адлия вазирлиги томонидан 2026 йил 16 июлда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3901-сон)*

743. “Kredit byurolarini ro‘yxatga olish va ularning faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomning 19-bandiga qo‘shimcha kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 17-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3042-7-son)*

744. “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 17-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3252-7-son)*

745. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo‘naltiriladigan mablag‘larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozni qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 18-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2111-1-son)*

746. “Birinchi guruhga yodlangan osh tuzi yetkazib berish, qabul qilish, saqlash va berib yuborish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaning 22-bandiga o‘zgartirish kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 18-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2484-2-son)*

747. “Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 18-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2709-9-son)*

748. “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risidagi nizomga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 18-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3254-1-son)*

749. “Bir qarz oluvchi, o‘zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori to‘g‘risidagi nizomga qo‘shimchalar va o‘zgartirish kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 18-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3283-3-son)*

750. “Kafolatlar berish tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 18-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3662-1-son)*

751. “Banklar tomonidan Omonatlarni kafolatlash jamg‘armasiga badallar to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 18-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3663-1-son)*

752. “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘shimchalar kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 18-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3902-son)*

753. “Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug‘i *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 18-iyul ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3903-son)*

754. “Автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлашда лаборатория синовларини амалга ошириш тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” Ўзбекистон Республикаси Транспорт вазирининг буйруғи *(Адлия вазирлиги томонидан 2026 йил 18 июлда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3904-сон)*

БИРИНЧИ БЎЛИМ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОНУНЛАРИ

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

28 (1256)-сон
720-модда

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
QONUNI

Тошкент халқаро молия маркази тўғрисида

Қонунчилик палатаси томонидан 2026 йил 1 июлда қабул қилинган
Сенат томонидан 2026 йил 9 июлда маъқулланган

1-модда. Ушбу Конституциявий Қонуннинг мақсади

Ушбу Конституциявий Қонуннинг мақсади Тошкент халқаро молия марказининг (бундан буён матнда Молия маркази деб юритилади) белгиланган алоҳида ҳудуд сифатидаги мақомини ва унинг ҳудудида амал қиладиган махсус ҳуқуқий режимни белгилашдан ҳамда Молия марказининг фаолият кўрсатиш соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат.

2-модда. Асосий тушунчалар

Ушбу Конституциявий Қонунда қуйидаги асосий тушунчалар қўлланилади:

идентификация рақами – Молия марказининг шахсларига улар тўғрисидаги маълумотларни ҳисобга олиш ва сақлаш мақсадида бериладиган ноёб рақам;

молиявий бозор инфратузилмаси фаолияти – ушбу Конституциявий Қонун 7-моддасининг иккинчи қисмида назарда тутилган хизматлар ҳамда Молия марказининг қарорида молиявий бозор инфратузилмаси фаолияти сифатида белгиланиши мумкин бўлган бошқа хизматлар;

Молия марказининг иштирокчилари – Молия марказининг қарорига мувофиқ рўйхатга олинган ёки таъсис этилган ёхуд Молия маркази томонидан эътироф этилган шахслар;

Молия марказининг муҳим аҳамиятга эга қарори – Молия марказининг шахслари учун янги мажбуриятлар, чекловлар ёки талаблар жорий этадиган, Молия марказида қўлланиладиган йиғимларни,

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

жарималарни ёки бошқа тўловларни жорий этадиган ёки уларнинг миқдорини сезиларли даражада оширадиган, Молия марказининг иштирокчиларига нисбатан амал қилаётган мавжуд тартибга солиш режимига жиддий ўзгартириш киритадиган ёхуд Молия маркази органининг бошқарувига, тузилмасига ёки ваколатларига тааллуқли бўлган Молия марказининг ҳар қандай қарори;

молиявий хизматлар – ушбу Конституциявий Қонуннинг 7-моддасида назарда тутилган тартибга солинадиган молиявий хизматлар, молиявий бозор инфратузилмаси фаолияти ҳамда рақамли активлар билан боғлиқ фаолият, шунингдек Молия марказининг қарорлари билан молиявий хизматлар сифатида белгиланиши мумкин бўлган бошқа фаолият ва хизматлар мажмуи;

Молия марказининг ходими – Молия марказидаги фаолият билан боғлиқ ҳолда меҳнат шартномаси ёки унга тенглаштирилган бошқа келишув асосида Молия марказининг иштирокчиси ёки Молия марказининг органи томонидан ишга қабул қилинган ёхуд уларнинг ихтиёрига хизматга юборилган жисмоний шахс;

Молия марказининг шахслари – Молия марказининг органлари, шунингдек Молия марказининг иштирокчилари, ходимлари, инвестициявий солиқ резидентлари ва уларнинг оила аъзолари;

Молия марказининг қарори – Молия марказининг ушбу Конституциявий Қонун 22-моддасининг биринчи қисмида кўрсатилган органи томонидан ўз ваколатлари доирасида қабул қилинган ҳамда белгиланган тартибда эълон қилиниши натижасида ҳуқуқий кучга ва юридик таъсирга эга бўлган норматив ҳужжат;

оила аъзолари – Молия маркази иштирокчисининг, ходимининг ёки инвестициявий солиқ резидентининг турмуш ўртоғи ва 18 ёшга тўлмаган фарзандлари;

рақамли активлар билан боғлиқ фаолият – ушбу Конституциявий Қонун 7-моддасининг учинчи қисмида назарда тутилган хизматлар ҳамда Молия марказининг қарорида рақамли активлар билан боғлиқ фаолият сифатида белгиланиши мумкин бўлган бошқа хизматлар;

фонд биржаси – Молия марказининг қарорларига мувофиқ берилган лицензия асосида юритиладиган, дискрецион бўлмаган қоидаларга мувофиқ молиявий воситаларни сотиб олиш ва сотиш бўйича бир нечта учинчи шахслар манфаатларини ўзаро бирлаштирадиган ёки бирлаштиришга кўмаклашадиган ҳамда натижада шартнома тузилишига олиб келадиган кўп томонлама тизим.

3-модда. Молия маркази, унинг мақсади ва вазифалари

Молия маркази ушбу Конституциявий Қонунда белгиланган махсус ҳуқуқий режим амал қиладиган, дастлабки чегаралари Молия маркази ташкил этилиши муносабати билан қабул қилинадиган Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони билан белгиланадиган ҳудуддир.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия марказининг дастлабки ҳудудий чегаралари белгиланиб, Молия маркази ушбу ҳудудда ўз фаолиятини бошлаганидан кейин мазкур ҳудуднинг чегаралари қисқартирилишига йўл қўйилмайди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти ўз фармони билан Молия марказининг ҳудудини кенгайтириши ёки унинг чегараларига аниқлаштирувчи ўзгартиришлар киритиши мумкин.

Матннинг мазмуни тақозо этган тақдирда, Молия маркази атамаси ушбу Конституциявий Қонун асосида ташкил этилган ҳуқуқий, тартибга солувчи ва институционал тизимни ва (ёки) Молия маркази органларини ўз ичига олади.

Молия марказининг мақсади халқаро молиявий хизматлар секторига самарали ҳисса қўшиш ва Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётининг барқарор ривожланишини, диверсификация қилинишини ҳамда халқаро майдонда унинг рақобатбардошлилигини қўллаб-қувватлашга қаратилган етакчи халқаро молия марказига айланишдан иборат.

Молия марказининг органлари ушбу Конституциявий Қонун, Молия марказининг қарорлари ҳамда айрим ҳолларда Ўзбекистон Республикасининг қонунчилик ҳужжатлари билан белгиланган ваколатлар ва ҳуқуқларга эга бўлади.

Молия маркази ҳуқуқий аниқлик, тартибга солишни олдиндан кўра билиш, суд мустақиллиги ҳамда инвесторларни жалб этиш ва ҳимоя қилишни таъминлаш мақсадида, етакчи халқаро молия марказларининг энг яхши амалиётлари инобатга олинган ҳолда ташкил этилади ҳамда бошқарилади.

Молия марказининг вазифалари қуйидагилардан иборат:

молиявий хизматлар учун жозибадор, рақобатбардош ва шаффоф муҳитни яратиш ҳамда ушбу молиявий хизматлардан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш орқали Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётига, шу жумладан миллий стратегик лойиҳаларга, инфратузилмага, энергетикага, давлат-хусусий шериклик лойиҳаларига ва биргаликдаги инвестиция лойиҳаларига маҳаллий ва хорижий инвестицияларни жалб қилиш;

Ўзбекистон Республикасида қимматли қоғозлар бозорларини ва бошқа капитал бозорларини ривожлантириш ҳамда уларнинг халқаро капитал бозорлари билан интеграциялашувини рағбатлантириш;

молиявий хизматларни, шу жумладан банк хизматларини, суғурта, исломий ва исломий бўлмаган молия фаолиятини, молиявий технологияларни, рақамли активларни, Молия марказининг қарорларида рухсат этилган доирада технологияларга асосланган бошқа молиявий маҳсулотлар ва хизматларни, электрон тижоратни ҳамда бошқа инновацион молиявий фаолият турларини ривожлантириш ва диверсификация қилиш;

халқаро миқёсда эътироф этилган энг яхши амалиётларга мувофиқ, шу жумладан хорижий молиявий хизмат кўрсатувчиларни ва Молия марказининг инвестициявий солиқ резидентларини жалб қилган ҳолда молиявий хизматларда ва профессионал хизматларда инновацияларни рағбатлантириш;

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия марказининг халқаро молия маркази сифатида эътироф этилишига эришиш ҳамда Ўзбекистон Республикасини самарадорлик, очиқлик ва ҳалоллик принципларига асосланган илғор халқаро молиявий юрисдикция сифатида тарғиб қилиш;

Ўзбекистон Республикасининг иқтисодий ўсиш бўйича истиқболини амалга оширишда иштирок этиш;

молиявий хизматлар ва тегишли фаолиятга самарали ҳисса қўшиш орқали Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётини ривожлантириш ҳамда диверсификация қилиш, шунингдек молиявий хизматлар секторининг ва тегишли фаолиятнинг Ўзбекистон Республикаси ялпи ички маҳсулотидаги улушини ошириш;

Молия марказини, шу орқали Ўзбекистон Республикасини низоларни ҳал этиш ва келишув бўйича халқаро марказ сифатида тарғиб қилиш.

Молия марказининг қарорлари билан Молия маркази мақсадларига мувофиқ келадиган бошқа вазифалар ҳам белгиланиши мумкин.

4-модда. Молия маркази фаолиятининг асосий принциплари

Молия маркази ва унинг шахслари фаолияти халқаро стандартларни ҳамда энг яхши амалиётларни қўллашга асосланган бўлиб, у, хусусан, қуйидаги принципларга асосан амалга оширилади:

самарадорлик;

шаффофлик;

ҳалоллик;

касбий маҳорат.

Молия марказининг фаолиятини тартибга солиш, шунингдек Молия марказининг органлари ҳамда бошқа давлат ҳокимияти органлари ва ижро этувчи ҳокимият органлари ўртасидаги ҳамжиҳатлик ва ҳамкорлик Молия маркази ва унинг органлари мустақиллигини, мақсадларини ҳамда уларнинг муносиб фаолият юритишини ҳурмат қилган ва сақлаган ҳолда амалга оширилади.

5-модда. Молия марказининг иштирокчилари ва Молия марказида амалга ошириладиган фаолият

Шахсларни Молия марказининг иштирокчилари деб эътироф этиш талаблари ва тартиб-таомиллари, шунингдек Молия маркази ҳудудида юридик шахсларни таъсис этиш, рўйхатдан ўтказиш ҳамда уларнинг ташкилий-ҳуқуқий шаклларига нисбатан қўйиладиган талаблар ва унга доир тартиб-таомиллар Молия маркази кенгашининг қарори билан белгиланади. Молиявий хизматларни, қўшимча хизматларни ва рухсат этилган бошқа фаолият турларини лицензиялаш ушбу Конституциявий Қонуннинг 7-моддаси ҳамда Молия марказининг унга мувофиқ қабул қилинадиган қарорлари билан тартибга солинади. Молия марказининг

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

қарорларига мувофиқ Молиявий хизматлар бошқармаси томонидан тартибга солинадиган молиявий хизматларга ва қўшимча хизматларга тааллуқли масалаларга нисбатан Молиявий хизматлар бошқармаси томонидан қабул қилинадиган ҳужжатлар қўшимча равишда қўлланилади.

Юридик шахслар чет эл ҳуқуқига, Ўзбекистон Республикасининг қонунчилигига ёки Молия марказининг қарорларига мувофиқ ташкил этилганлигидан қатъи назар, Молия марказининг иштирокчилари сифатида эътироф этиш ҳамда рўйхатдан ўтказиш учун қўлланиладиган талабларга риоя этиш шарти билан Молия марказининг иштирокчилари мезонларига мос келиши, эътироф этилиши ва рўйхатдан ўтиши мумкин.

Молия марказининг иштирокчиларига, ходимларига, инвестициявий солиқ резидентларига ва уларнинг оила аъзоларига берилган идентификация рақамлари Ўзбекистон Республикасининг бошқа қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ берилган идентификация рақамлари билан бир хил тартибда Ўзбекистон Республикасининг бутун ҳудудида тан олинади ҳамда қўлланилади.

Идентификация рақамларини бериш, юритиш ва улардан фойдаланиш тартиб-таомиллари, шу жумладан тегишли идентификация рақамлари реестрини яратиш ҳамда унинг фаолият кўрсатиши Молия марказининг маъмурияти томонидан белгиланади.

Молия маркази ҳудудида қимматли қоғозларнинг ва бошқа молиявий воситаларнинг чиқарилиши, таклиф этилиши, листинг қилиниши, савдоси, сотиб олиниши, сўндирилиши ҳамда бошқа муомаласи Молиявий хизматлар бошқармасининг қарори билан тартибга солинади.

Қимматли қоғозлар ёки бошқа молиявий воситалар фонд биржасида листингдан ўтган ёки савдога қўйилган тақдирда, мазкур фонд биржасининг листинг ва савдо қоидалари Молиявий хизматлар бошқармасининг мутлақ назорати ва тартибга солиш ваколати сақланган ҳолда қўшимча равишда қўлланилади.

Ўзбекистон Республикаси ҳудудида, бироқ Молия маркази ҳудудидан ташқарида тадбиркорлик фаолиятини амалга оширувчи Молия марказининг иштирокчиларига, ходимларига, инвестициявий солиқ резидентларига ва уларнинг оила аъзоларига нисбатан Ўзбекистон Республикасининг мазкур турдаги фаолиятга оид қонунчилиги ҳамда тартибга солиш талаблари қўлланилади. Ушбу фаолиятнинг Молия маркази ҳудудига ёки Ўзбекистон Республикасининг бошқа ҳудудига тааллуқлилиги мезонлари ва тартиб-таомиллари Молия маркази маъмуриятининг Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан келишилган ҳолда қабул қилинган қарорлари билан белгиланади.

Молия марказининг иштирокчилари Молия маркази ҳудудидан ташқарида бўлган Ўзбекистон Республикасидаги шахсларга ўз маҳсулотлари ва хизматларини қуйидаги ҳолларда таклиф этиши ҳамда тарғиб қилиши мумкин, агар:

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия марказининг ҳудудидан ташқаридаги шахсларга таклиф этиладиган, маркетинг қилинадиган ёхуд йўналтириладиган ҳар қандай тартибга солинган молиявий хизматлар Ўзбекистон Республикасининг молиявий хизматлар, қимматли қоғозлар, солиқ тўғрисидаги қонунчилигига ва бошқа қўлланиладиган қонунчилигига мувофиқ бўлса;

Молия марказининг иштирокчилари Молия маркази ҳудудидан ташқарида бўлган Ўзбекистон Республикасидаги шахсларга чакана хизматларни оммавий оферта орқали амалга оширмаса, бундан бу турдаги оферта шартномалари учун Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида белгиланган бошқа ҳоллар мустасно.

Молиявий хизматлар бошқармаси Молия марказининг иштирокчилари томонидан Молия маркази ҳудудидан ташқаридаги Ўзбекистон Республикаси резидентларига молиявий хизматлар кўрсатиш шарт-шароитларига оид тартиб-таомилларни Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки ёки бошқа ваколатли давлат органи билан биргаликда белгилаши мумкин.

Ушбу модданинг тўққизинчи қисмига мувофиқ ишлаб чиқилган ҳар қандай тартиб-таомилда Молия марказининг қарорларига мувофиқ фаолият юритаётган Молия маркази иштирокчилари учун Ўзбекистон Республикасининг бошқа қонунчилигига мувофиқ шу турдаги хизматларни кўрсатишга доир лицензияга эга бўлган шахслар билан тенг имкониятлар назарда тутилиши лозим.

6-модда. Инвестицияларни, мол-мулкни ва мулк ҳуқуқини ҳимоя қилиш

Молия маркази органларининг, иштирокчиларининг, ходимларининг, инвестициявий солиқ резидентларининг ва улар оила аъзоларининг Молия маркази ҳудудида жойлашган ёки Молия марказининг қарорларига мувофиқ шакллантирилган маблағлари, активлари, мол-мулки ва ҳуқуқлари мусодара қилинишига, национализация қилинишига, экспроприация қилинишига, секвестрлаштирилишига, музлатилишига ёки уларга эгалик қилинишини ёхуд уларнинг эркин тасарруф этилишини ҳар қандай тарзда чеклашга йўл қўйилмайди, бундан ушбу Конституциявий Қонунга ва Молия марказининг қарорларига мувофиқ чиқарилган Тошкент халқаро тижорат судининг якунловчи ва мажбурий кучга эга бўлган ҳал қилув қарорлари ёки ажримлари ёхуд жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш, санкциялар, жиноий даромадлар ёки тўловга қобилиятсизлик (банкротлик) масалаларига оид амалдаги қонунларга ёки Молия марказининг қарорларига мувофиқ қабул қилинган чекловлар мустасно.

Ушбу моддага мувофиқ кўриладиган ҳар қандай чора қонуний, мутаносиб, тегишли процессуал кафолатларга риоя этилган ҳолда амалга оширилиши керак ҳамда ушбу Конституциявий Қонунга ва Молия марказининг қарорларига мувофиқ суд тартибида қайта кўриб чиқилиши мумкин.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Ушбу моддада белгиланган ҳимоя чоралари Молия маркази ҳудудидан ташқаридаги Ўзбекистон Республикаси давлат ҳокимияти органининг ёки ижро этувчи ҳокимият органининг ҳеч бир ҳужжати билан камайтирилиши ёки чекланиши мумкин эмас, бундай камайтиришни ёки чеклашни назарда тутувчи ҳар қандай ҳужжат эса шундай камайтиришга ёки чеклашга оид қисми бўйича Молия маркази ҳудудида юридик кучга эга бўлмайди ва қўлланилмайди.

7-модда. Молиявий хизматлар ва рухсат этилган бошқа фаолият

Ушбу Конституциявий Қонунга, Молия марказининг қарорларига, шунингдек ҳар қандай тегишли лицензия, рўйхатдан ўтказиш ёки бундан озод қилиш шартларига мувофиқ Молия марказининг иштирокчилари Молия маркази ҳудудида ёки у орқали қуйидаги тартибга солинадиган молиявий хизматларнинг бирини ёки бир нечтасини амалга ошириши мумкин:

банк ва молия фаолияти, шу жумладан молиялаштириш хизматлари ва фаолияти, қисқа, ўрта ва узоқ муддатли таъминланган ва таъминланмаган молиялаштириш ҳамда кредитга оид хизматлар, шу жумладан кредит маҳсулотлари, кредит линиялари ва молиялаштириш механизмларига доир келишувларни ташкил этиш, тақдим этиш, уларда воситачилик қилиш ёки улар бўйича маслаҳат бериш;

инвестиция фаолияти, шу жумладан принципал ёки агент сифатида инвестиция фаолиятини амалга ошириш, тижорат, инвестиция ва банк хизматлари, молия ва инвестиция компаниялари фаолияти, улгуржи савдо ва электрон банк фаолияти, шунингдек инвестицияларни бошқариш, улар билан операцияларни амалга ошириш ҳамда инвестиция битимларини ташкил этиш;

ушбу Конституциявий Қонунга ва Молия марказининг ҳужжатларига мувофиқ учинчи шахслар учун омонатларни қабул қилиш, барча турдаги банк ҳисобварақларини очиш ва юритиш;

молиявий воситалар, валюталар, товарлар, металлар ва ҳосилавий (дериватив) молиявий воситалар билан савдо қилиш ҳамда улар бўйича битимлар тузиш, шу жумладан Молиявий хизматлар бошқармаси томонидан рухсат этилган доирада маржинал савдо, спот ва форвард шартномалари, фьючерслар, опционлар ҳамда қисқа сотувлар бўйича операцияларни амалга ошириш;

молия ва пул бозори брокерлиги, шу жумладан прайм-брокерлик билан шуғулланиш;

барча турдаги валюталар, товарлар, металлар, молиявий воситалар, облигациялар, сукук ва ҳосилавий (дериватив) молиявий воситалар бўйича сотиш ҳамда сотиб олиш таклифларини тақдим этиш орқали маркет-мейкерлик фаолиятини юритиш;

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

пул ўтказмаларини амалга ошириш, тўлов хизматларини ва валюта айирбошлаш хизматларини кўрсатиш;

исломий молия, исломий банк хизматини ва у билан боғлиқ фаолиятни амалга ошириш;

инвестиция жамғармаларини, инвестиция портфелларини, жамоавий инвестиция схемаларини, пенсия жамғармаларини, хедж-жамғармаларни, трастлар ва фидуциар тузилмаларни ташкил этиш, яратиш, уларнинг фаолият юритишини таъминлаш, уларни бошқариш ва маркетинг қилиш ҳамда улар билан боғлиқ активларни бошқариш бўйича хизматлар кўрсатиш, шу жумладан бундай активларнинг ишончли бошқарувчиси ёки фидуциар бошқарувчиси сифатида фаолият юритиш;

лойиҳавий молиялаштириш ҳамда компаниялар ва бошқа ташкилотлар учун капитал тақдим этиш;

акцияларни, облигацияларни, сукук, бошқа молиявий воситаларни, барча турдаги молиявий маҳсулотларни, валюталарни, товарларни, барча турдаги металларни ва ҳосилавий (дериватив) молиявий воситаларни, шу жумладан улар билан боғлиқ фьючерс шартномалари ва опционларни чиқариш, таклиф этиш, листингга киритиш, тарғиб қилиш, сотиб олиш, сотиш ҳамда савдо қилиш, шунингдек ликвидлиликни таъминлаш ва пул бозорига оид бошқа фаолият ҳамда хизматларни амалга ошириш имконини яратиш мақсадида уларни гаров сифатида таклиф этиш ёки уларнинг таъминоти остида қарз олиш;

суғурта, қайта суғурта ва суғурта воситачилиги билан шуғулланиш, шу жумладан суғурта брокерлиги хизматларини, жумладан мол-мулкни, ҳаётни ва бахтсиз ҳодисалардан суғурта қилиш, суғурта фаолиятини бошқариш хизматларини кўрсатиш, суғуртанинг бошқа турларини амалга ошириш ҳамда улар билан боғлиқ тегишли хизматларни кўрсатиш;

молиявий, инвестициявий ва банк маслаҳат хизматларини кўрсатиш;

оммавий молиялаштириш (краудфандинг) платформаларини юритиш;

Молия марказининг қарори билан белгиланган бошқа молиявий хизматларни кўрсатиш ва фаолият турлари билан шуғулланиш.

Молия марказининг иштирокчилари Молиявий хизматлар бошқармаси томонидан рухсат берилган тақдирда, Молия маркази ҳудудида ёки у орқали қуйидаги молиявий бозор инфратузилмаси фаолиятини амалга ошириши мумкин:

кастодиал, клиринг, ҳисоб-китоб ва депозитарий фаолияти ҳамда хизматларини кўрсатиш, шу жумладан марказий клиринг ташкилотлари ва марказий қимматли қоғозлар депозитарийларини юритиш;

молиявий бозор инфратузилмаси хизматларини тақдим этиш, уларга эгалик қилиш, уларни бошқариш ва юритиш, шу жумладан қимматли қоғозлар, металлар, товарлар ҳамда барча турдаги ҳосилавий (дериватив) молиявий воситалар учун савдо платформалари, клиринг хизматлари, кастодиал хизматларни, ҳисоб-китоб ва депозитарий хизматларини тақдим этиш;

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

акциялар, облигациялар, валюталар, сукук, қимматли қоғозлар, металлар, товарлар, форвард ва фьючерс шартномалари, опционлар ҳамда барча турдаги ҳосилавий (дериватив) молиявий воситалар бўйича биржаларга ва молиявий бозорларга эгалик қилиш, уларни бошқариш ҳамда юритиш;

муқобил савдо тизимларини юритиш;

Молия марказининг қарорида белгиланган молиявий бозор инфратузилмаси фаолиятининг бошқа турлари билан шуғулланиш.

Молия марказининг иштирокчилари Молиявий хизматлар бошқармаси томонидан рухсат берилган тақдирда, Молия маркази ҳудудида ёки у орқали қуйидаги рақамли активлар билан боғлиқ фаолиятни амалга ошириши мумкин:

рақамли активларни, шу жумладан улар билан боғлиқ ҳосилавий (дериватив) молиявий воситаларни, фьючерс шартномаларини ва опционларни чиқариш, таклиф этиш, листингга киритиш, тарғиб қилиш, сотиб олиш, сотиш ва савдо қилиш;

рақамли активлар ва рақамли активларга оид ҳосилавий (дериватив) молиявий воситалар билан битимлар тузиш ҳамда улар бўйича маркет-мейкерлик фаолиятини амалга ошириш, шу жумладан Молиявий хизматлар бошқармаси томонидан рухсат этилган доирада маржинал савдо қилиш;

рақамли активларга нисбатан кастодиал сақлаш, хавфсиз сақлаш, клиринг, ҳисоб-китоб бўйича хизматлар ва депозитарий хизматларини кўрсатиш;

рақамли активлар жамғармаларини ва улар билан боғлиқ активларни бошқариш хизматларини ташкил этиш, уларнинг фаолият юритишини таъминлаш, уларни бошқариш ҳамда маркетинг қилиш;

рақамли активлар биржаларига ҳамда савдо платформаларига эгалик қилиш, уларни бошқариш ва юритиш;

Молия марказининг қарорида белгиланган рақамли активлар билан боғлиқ фаолиятнинг бошқа турлари билан шуғулланиш.

Молия марказининг иштирокчилари ушбу Конституциявий Қонунга ва Молия марказининг қарорларига мувофиқ, Молия маркази ҳудудида ёки у орқали қуйидаги қўшимча хизматларни кўрсатиши мумкин:

Молия маркази иштирокчиларининг, Молия марказида ташкил этилган фондларнинг ёки Молия марказининг ҳар қандай биржасида листингга киритилган компанияларнинг молиявий ҳисоботлари бўйича ҳисобварақларни аудит қилиш ҳамда аудит ҳисоботлари ва хулосаларини тақдим этиш хизматларини;

Молия маркази иштирокчиларининг мувофиқлигини текшириш мақсадида ҳисобварақларни аудит қилиш ҳамда аудит ҳисоботлари ва хулосаларини тақдим этиш хизматларини;

ушбу Конституциявий Қонунга ва Молия марказининг қарорларига мувофиқ рухсат этилган доирада молиявий фаолиятга ва банк фаолиятига қўшимча хусусиятга эга бўлган аудит, бухгалтерия, юридик, рейтинг хизматларини ва ахборотга оид хизматларни, шу жумладан кредит рейтинг агентликларини юритиш бўйича хизматларни;

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

товарларга, металларга ёки бошқа активларга оид сақлаш, қайта ишлаш, ташиш, етказиб бериш ва логистика хизматларини, бироқ бунда ушбу хизматлар фақат Молиявий хизматлар бошқармаси томонидан рухсат этилган тартибга солинадиган товар савдоси, кастодиал хизматлар, клиринг, ҳисоб-китоб, депозитарий ёки бозор инфратузилмаси фаолиятига боғлиқ бўлса ёки унга қўшимча хусусиятга эга бўлса;

Молия марказида ёки у орқали тақдим этиладиган ёки амалга ошириладиган, Молия марказининг қарорлари ёки Ўзбекистон Республикасида ва Молия марказида амал қиладиган бошқа қонунчилик ҳужжатлари бўйича молиявий хизмат деб таснифланмайдиган ҳамда жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш мақсадида Молиявий хизматлар бошқармаси томонидан назорат қилинадиган бошқа ҳар қандай хизматларни, бизнесларни, касбларни ёки фаолиятни.

Молия марказининг маъмурияти тартибга солинадиган молиявий хизматлар, молиявий бозор инфратузилмасига оид фаолият, рақамли активлар билан боғлиқ фаолият ёки қўшимча хизматлар ҳисобланмайдиган қуйидаги рухсат этилган бошқа фаолиятни лицензиялаши ёки рўйхатдан ўтказиши мумкин:

холдинг компанияларини, махсус мақсадли ташкилотларни (SPV), ғазначилик компанияларини ва бош қароргоҳ ташкилотларини ташкил этиш, уларнинг фаолият юритишини таъминлаш, уларни бошқариш ҳамда тасарруф этиш;

фондларни, трастларни ва фидуциар тузилмаларни ташкил этиш ҳамда бошқариш;

корпоратив хизматларни тақдим этиш, шу жумладан компанияларни ташкил этиш, корпоратив бошқарув бўйича хизматлар, рўйхатдан ўтган офис хизматлари ва шу каби бошқа хизматлар;

профессионал хизматлар, шу жумладан юридик, консалтинг, баҳолаш, бухгалтерия, солиқ маслаҳати, бошқарув бўйича маслаҳат, технологияларни ривожлантириш, дастурий таъминотни ишлаб чиқиш, финтех хизматларини ва шунга ўхшаш хизматларни кўрсатиш;

ваколатхоналар ташкил этиш ва уларнинг фаолият юритишини таъминлаш;

чакана савдо, озиқ-овқат ва ичимликлар савдоси, меҳмонхона, конференция, таълим, маданий, соғломлаштириш хизматлари ёки Молия маркази экотизимининг фаолиятини қўллаб-қувватлаш учун мўлжалланган қулайликларни ҳамда шунга ўхшаш бошқа қулайликларни ташкил этиш;

Молия марказининг маъмурияти томонидан Молия маркази доирасида рухсат этилган, тартибга солинмайдиган фаолият сифатида белгиланган бошқа ҳар қандай фаолият.

Ушбу моддада назарда тутилган тартибга солинадиган молиявий хизматлар, молиявий бозор инфратузилмаси фаолияти, рақамли активлар билан боғлиқ фаолият, қўшимча хизматлар ва рухсат этилган бошқа

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

фаолият Молия маркази доирасида фақат тегишли лицензия, рўйхатдан ўтказиш ёки бундан озод қилиш билан рухсат этилган доирада ҳамда Молия марказининг қўлланиладиган қарорларига мувофиқ амалга оширилиши мумкин. Молиявий хизматлар бошқармасининг қарорларида лицензиялаш талабларига нисбатан истиснолар ва улардан озод қилиш ҳоллари, шу жумладан Молиявий хизматлар бошқармаси белгилайдиган шартларга риоя этган ҳолда, Молия маркази ҳудудидан ташқарида жойлашган шахслар томонидан Молия маркази иштирокчилари билан ёки улар учун трансчегаравий асосда молиявий хизматлар ёки қўшимча хизматлар кўрсатилишига нисбатан истиснолар ва улардан озод қилиш ҳоллари назарда тутилиши мумкин.

Агар Молиявий хизматлар бошқармасининг қарорларида бевосита бошқача ҳолат назарда тутилган бўлмаса, ушбу модданинг биринчи, иккинчи ва учинчи қисмларида назарда тутилган молиявий хизматларни ҳамда фаолият турларини амалга ошириш учун лицензиялар қуйидаги талабларга жавоб берадиган юридик шахсга, шериклик шаклидаги тузилмага, чет эл юридик шахсининг филиалига, шуъба жамиятига, қўшма корхонага ёки Молия марказининг қарорларида рухсат этилган бошқа ташкилий тузилмага, шунингдек Молия марказининг қарорларида рухсат этилган ҳолларда ва доирада жисмоний шахсга берилади:

мустаҳкам молиявий ҳолатга эга бўлиш;

амалга оширилиши таклиф этилаётган фаолиятнинг табиатига, кўламига ва мураккаблигига мос келадиган комплекс тизимларга ҳамда назорат механизмларига эга бўлиш;

бундай фаолият бўйича етарли билим ва малакага, яхши ишчанлик обрўсига эга бўлган шахслар томонидан бошқарилиши.

8-модда. Молия марказида қўлланиладиган ҳуқуқ

Молия маркази ҳудудида ушбу моддада белгиланган қуйидаги устуворлик тартибидаги махсус қонунчилик амал қилади:

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси;

ушбу Конституциявий Қонун;

ушбу Конституциявий Қонунга мувофиқ Молия марказини ташкил этиш, фаоллаштириш, унинг чегараларини ўзгартириш, стратегик бошқарув, асосий мансабдор шахсларни тайинлаш ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг ушбу Конституциявий Қонунда Президент ваколатига бевосита тааллуқли бошқа масалалар юзасидан қабул қилинган фармонлари ва қарорлари;

ушбу Конституциявий Қонунга асосан ва унга мувофиқ қабул қилинган, Молия марказининг ўз юрисдикциясига кирадиган масалаларни тартибга соладиган қарорлари;

зарур ҳолларда Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига, ушбу Конституциявий Қонунга ва Молия марказининг қарорларига зид бўлмаган тақдирда, Англия ва Уэльснинг умумий ҳуқуқи ва адолат принциплари ҳамда қоидалари.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия марказининг кенгаши Англия ва Уэльс ҳуқуқини қўллаш тўғрисидаги Молия марказининг қарорини қабул қилади. Ушбу қарорда Молия марказида қўлланилиши лозим бўлган Англия ва Уэльснинг қонунчилик ҳужжатлари, уларнинг қайси сана ҳолатига кўра қўлланилиши ҳамда қандай ўзгартиришлар билан қўлланилиши белгиланади. Бундай қарор ҳамда, зарур ҳолларда, унга киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар ушбу модданинг биринчи қисми мақсадлари учун Молия марказининг қарори сифатида эътироф этилади.

Етакчи глобал молия марказларининг халқаро миқёсда эътироф этилган стандартлари Молия маркази органлари томонидан Молия марказининг қарорларини шарҳлашда, талқин қилишда ҳамда улардаги ҳуқуқий бўшлиқларни тўлдиришда ёрдамчи восита сифатида қўлланилиши мумкин.

Ўзбекистон Республикасининг қонунчилик ҳужжатлари Молия марказининг юрисдикциясига кирмайдиган масалаларга нисбатан, шунингдек Молия маркази ҳудудида уларнинг қўлланилиши ушбу Конституциявий Қонунда ёхуд Молия марказининг қарорларида бевосита белгиланган ҳолларда қўлланилади.

Молия марказининг қарорларини ишлаб чиқиш, рўйхатдан ўтказиш, амалга киритиш, эълон қилиш, уларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек уларни бекор қилиш тартиби Молия маркази маъмурияти томонидан тақдим этиладиган ва Молия марказининг кенгаши томонидан тасдиқланадиган Молия маркази қарорлари билан белгиланади, бундан қуйидагилар мустасно:

ушбу моддага биноан Молиявий хизматлар бошқармасининг ваколатлари жумласига кирадиган муносабатлар тоифалари доирасида Молиявий хизматлар бошқармаси томонидан қабул қилинадиган тартибга солиш қоидалари ва кўрсатмалари;

ушбу Конституциявий Қонуннинг 29-моддасига мувофиқ Тошкент халқаро тижорат судининг Бош судьяси томонидан чиқариладиган, Молия маркази кенгашининг тасдиғисиз кучга кирадиган қоидалар, фармойишлар ва йўриқномалар.

Молия марказининг ҳеч бир органи ушбу Конституциявий Қонунга мувофиқ ўз ваколати доирасига кирмайдиган масалалар бўйича Молия марказининг қарорини қабул қилиши мумкин эмас.

Молия марказининг органлари ўз ваколатлари доирасида Молия маркази шахсларининг ўзаро ва (ёки) орасидаги, Молия марказининг юрисдикциясига кирувчи қуйидаги муносабатларни тартибга соладиган, бажарилиши мажбурий бўлган қарорларни қабул қилиши мумкин:

фуқаролик, корпоратив ва тижорат ҳуқуқи, молия, банк, инвестициялар, солиқ, меҳнат муносабатларини ҳамда маълумотларни ҳимоя қилиш;

фуқаролик ва иқтисодий процессуал муносабатлар;

маъмурий тартиб-таомиллар, шу жумладан лицензиялаш ва рўйхатдан ўтказиш;

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

давлат харидлари;

Молия марказининг кенгаши Молия марказининг мақсадларига эришиш учун зарур деб топган бошқа масалалар.

Молиявий хизматлар бошқармаси ушбу Конституциявий Қонуннинг 7-моддасида назарда тутилган хизматларни ва фаолият турларини тартибга солувчи ҳамда мувофиқлаштирувчи Молия марказининг қарорларини, шунингдек:

Молия марказининг қарорларига риоя этилиши устидан назоратни, мувофиқликни (комплаенс) ва ҳуқуқни қўллаш амалиётини таъминлашга;

ушбу Конституциявий Қонунга мувофиқ Молиявий хизматлар бошқармаси ўзининг тартибга солиш мақсадлари ва функцияларини самарали бажариши учун зарур ёки мақсадга мувофиқ деб ҳисоблайдиган бошқа масалаларга оид бажарилиши мажбурий бўлган қарорларини қабул қилиши мумкин.

Тошкент халқаро тижорат суди Молия маркази шахсларининг ўзаро ва (ёки) улар орасидаги, Молия марказининг юрисдикциясига кирувчи қуйидаги муносабатларни тартибга соладиган бажарилиши мажбурий бўлган қарорларни қабул қилиши мумкин:

кўриб чиқилиши ўз ваколатлари жумласига кирадиган низоларни ҳал этиш билан боғлиқ масалаларни;

Молия марказида фаолият юритувчи юридик хизмат кўрсатувчи ташкилотлар фаолиятини ва адвокатлик фаолиятини тартибга солишни, бу соҳадаги мутахассисларнинг малакасини оширишни ва уларнинг одоб-ахлоқ қоидаларини;

ушбу Конституциявий Қонунга мувофиқ Бош судья одил судлов маъмуриятчилигини самарали амалга ошириш учун зарур ёки мақсадга мувофиқ деб ҳисоблайдиган бошқа масалаларни.

Ушбу Конституциявий Қонунда тўғридан-тўғри назарда тутилган ҳолларда, Молия марказининг тегишли органи ушбу модданинг юқоридаги қисмлари билан қамраб олинмаган муносабатларни тартибга солувчи қарорларни ҳам қабул қилиши мумкин.

Молия марказининг қарорлари Молия марказининг юрисдикцияси доирасида бажарилиши мажбурий бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжат деб ҳисобланади.

Молия маркази ҳудудида тузилган, Молия марказининг иштирокчиси томонидан тузилган ёхуд Молия марказининг фаолияти билан бевосита боғлиқ бўлган шартномалар ва битимлар, агар тарафлар бошқа ҳуқуқни қўллаш тўғрисида келишмаган бўлса ҳамда бундай келишув ушбу Конституциявий Қонунга ёки Молия марказининг қарорларига зид бўлмаса, Молия марказининг қарорлари билан тартибга солинади.

Ўзбекистон Республикасининг давлат хавфсизлигига таҳдид солиши мумкин бўлган шарт-шароитларни истисно этиш мақсадида Молия марказининг кенгаши томонидан тасдиқланган Молия марказининг қарорларида Молия марказининг иштирокчилари учун чекловлар белгиланиши мумкин. Бундай чекловлар бартараф этилиши лозим бўлган

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

таҳдидга мутаносиб бўлиши, уларда ушбу Конституциявий Қонун 6-моддасининг қоидалари инобатга олинган бўлиши керак ва улар Тошкент халқаро тижорат суди томонидан қайта кўриб чиқилиши мумкин.

Молия маркази ҳудудида Молия марказининг қарорлари ушбу қарорларга зид бўлган ҳар қандай норматив-ҳуқуқий ҳужжатлардан устун туради, бундан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, ушбу Конституциявий Қонун ва Ўзбекистон Республикаси томонидан ратификация қилинган халқаро шартномалар мустасно.

9-модда. Молия марказининг қарорларини эълон қилиш ва ушбу қарорларнинг расмий реестри

Молия марказининг ҳар бир қарори кучга киргунига қадар Молия маркази қарорларининг расмий реестрида эълон қилиниши шарт. Агар Молия маркази қарорининг ўзида кечроқ сана назарда тутилмаган бўлса, у эълон қилинган санадан эътиборан кучга киради.

Молия марказининг маъмурияти Молия марказининг расмий веб-сайтида Молия марказининг рақамли шаклда омма учун очиқ бўлган қарорларининг расмий реестрини ташкил этади, юритади ва доимий равишда янгилаб боради.

Молия маркази қарорларининг расмий реестри қуйидагилардан таркиб топади:

Молия маркази ҳар бир қарорининг у эълон қилинган санадаги дастлабки матнидан;

Молия маркази ҳар бир қарорининг у қабул қилингандан бошлаб унга киритилган барча ўзгартиришлар акс эттирилган амалдаги жамланма матнидан;

Молия маркази ҳар бир қарорининг қабул қилинган санасидан, кучга кирган санасидан ҳамда унга киритилган барча ўзгартиришлар қайдидан.

Молия маркази қарорларининг расмий реестри инглиз тилида юритилади. Молия маркази қарорларининг ўзбек тилидаги ва бошқа тиллардаги расмий таржимаси чоп этилиши мумкин.

Молия марказининг Молия маркази қарорларининг расмий реестрида ушбу моддага мувофиқ инглиз тилида чоп этилмаган қарори юридик кучга ва таъсирга эга бўлмайди ҳамда Молия марказининг шахсига нисбатан мажбурий ҳисобланмайди.

10-модда. Молия маркази қарорларининг жамоатчилик муҳокамаси

Молия марказининг муҳим аҳамиятга эга қарори қабул қилингунига қадар Молия марказининг тегишли органи ушбу моддага мувофиқ жамоатчилик муҳокамасини ўтказиши шарт.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия марказининг муҳим аҳамиятга эга қарори бўйича жамоатчилик муҳокамаси жараёни қуйидагиларни ўз ичига олиши керак:

Молия марказининг таклиф этилаётган қарори, унинг сиёсий-ҳуқуқий асослари, фикр-мулоҳазалар билдириш сўралаётган асосий масалалар ва муҳокама муддати кўрсатилган муҳокама ҳужжати эълон қилинишини;

келиб тушган барча фикр-мулоҳазалар кўриб чиқилишини;

қабул қилинган фикр-мулоҳазалар қандай ҳисобга олинганлиги тушунтирилган, муҳокама натижаларига доир жавоб эълон қилинишини.

Молия марказининг тегишли органи шошилинч ҳолатлар сабабли қарорни дарҳол қабул қилиш зарур деб ёзма равишда белгилаган тақдирда, Молия марказининг муҳим аҳамиятга эга қарори олдиндан жамоатчилик муҳокамасисиз қабул қилиниши мумкин. Бунда Молия марказининг тегишли органи шошилинч ҳолатларнинг сабабларини қарор матнида кўрсатиши, қарор қабул қилинган кундан эътиборан олтмиш кун ичида жамоатчилик муҳокамасини ўтказиши ва жамоатчилик муҳокамаси натижаларига кўра, зарур деб топилган ҳолларда, мазкур қарорни тегишинча ўзгартириши шарт.

Молия марказининг кенгаши Молия марказининг қарори билан жамоатчилик муҳокамаси муддатининг давомийлигига, жамоатчилик муҳокамаси ҳамда тартибга солиш таъсирини баҳолашнинг шаклига ва қамровига, шунингдек Молия марказининг муҳим аҳамиятга эга қарори лойиҳасининг муҳимлик даражасидан келиб чиқиб, ушбу модда ва ушбу Конституциявий Қонуннинг 11-моддаси талабларини мутаносиб тарзда қўллашга доир қўшимча талабларни белгилаши мумкин.

Мазкур Конституциявий Қонуннинг ушбу моддаси ва 11-моддаси қоидалари Молия марказининг ушбу Конституциявий Қонун кучга кирганидан кейин ўн икки ой ичида қабул қилинадиган қарорларига нисбатан татбиқ этилмайди.

11-модда. Тартибга солиш таъсирини баҳолаш

Молия марказининг муҳим аҳамиятга эга қарори таклиф этилишидан олдин Молия марказининг тегишли органи қуйидагиларни таҳлил қилувчи тартибга солиш таъсирини баҳолашга доир ҳужжатни тайёрлаши ва эълон қилиши шарт:

Молия марказининг таклиф этилаётган қарорида ҳал этишга эътибор қаратилган муаммони ёки мақсадни;

таклиф этилаётган чоралар ҳамда кўриб чиқилган муқобил вариантлар бўйича харажатлар ва фойдани;

таклиф этилаётган чоранинг Молия марказининг рақобатбардошлигига ва жозибадорлигига нисбатан эҳтимолий таъсирини;

таклиф этилаётган чоранинг Молия марказининг шахсларига нисбатан эҳтимолий таъсирини;

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

таклиф этилаётган чорани амалга ошириш муддатини ва ўтиш даврининг тартиб-таомилларини.

Жамоатчилик муҳокамаси жараёни якунланганидан кейин Молия марказининг тегишли органи муҳокама давомида олинган муҳим маълумотларни акс эттириш мақсадида тартибга солиш таъсирини баҳолашга оид ҳисоботини қайта кўриб чиқиши мумкин.

Тартибга солиш таъсирини баҳолашга оид ҳужжат ушбу Конституциявий Қонуннинг 10-моддасига мувофиқ тақдим этиладиган жамоатчилик муҳокамаси ҳужжати таркибида ёки у билан бир вақтда эълон қилинади.

Тартибга солиш таъсирини баҳолашнинг мазмунига нисбатан қўйиладиган талаблар, унинг услубияти ва шакли Молия марказининг кенгаши томонидан қўшимча равишда белгиланади.

12-модда. Миллий қонунчиликнинг умумий қоидаларини қўллашнинг ўзига хос хусусиятлари

Молия маркази ҳудудида Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларидан келиб чиқадиган мажбуриятлар ва қуйидаги қонунчилик ҳужжатлари қўлланилади:

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси;

ушбу Конституциявий Қонун 14-моддасининг қоидаларига мувофиқ жиноят тўғрисидаги ва жиноят-процессуал қонунчилик;

ушбу модданинг иккинчи қисми қоидалари инобатга олинган ҳолда маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги қонунчилик;

миллий хавфсизлик, мудофаа, жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш, иммиграция назорати, оила, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, фавқулодда ҳолат, санитария-эпидемиологик осойишталик ҳамда фуқаролар соғлиғини сақлаш тўғрисидаги қонунчилик;

Молия марказининг шахсларига нисбатан тўғридан-тўғри қўлланиладиган даражада Ўзбекистон Республикаси томонидан ратификация қилинган халқаро шартномалар;

ушбу Конституциявий Қонунда ёки Молия марказининг қарорларида Молия маркази ҳудудида қўлланилиши тўғридан-тўғри назарда тутилган бошқа қонунчилик ҳужжатлари.

Агар Молия маркази ҳудудида Молия марказининг шахслари томонидан содир этилган, Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига мувофиқ жавобгарлик белгиланган валюта қимматликлари, божхона, солиқ, қимматли қоғозлар бозори, рақобат ҳамда крипто-активлар айланмаси тўғрисидаги қонунчиликни, шунингдек савдо ёки хизмат кўрсатиш қоидаларини бузиш билан боғлиқ хатти-ҳаракатлар (ҳаракатсизлик) ўз моҳиятига кўра тижорат низоси, иқтисодий, фуқаролик-ҳуқуқий низо, Молия маркази органи

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

талабларининг бузилиши, молия бозоридаги ножўя хатти-ҳаракатни ташкил этса, ундан келиб чиқса ёхуд у билан боғлиқ деб ҳисобланса ҳамда ушбу Конституциявий Қонун ёки Молия марказининг қарорлари доирасида ҳал қилиниши мумкин бўлса, Молия марказининг тегишли органи Молия марказининг юрисдикцияси доирасида мавжуд бўлган иқтисодий, фуқаролик-ҳуқуқий чораларни, тартибга солиш ёки маъмурий таъсир чораларини қўллайди.

Молия марказининг ҳеч бир органи ушбу модданинг иккинчи қисмида назарда тутилган ҳолатлар бўйича иш материалларини маъмурий ишни қўзғатиш учун Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органларига юбормайди.

Молия марказининг шахсларига нисбатан ушбу модда биринчи қисмининг бешинчи хатбошисида кўрсатилган Ўзбекистон Республикаси қонунчилик ҳужжатларида белгиланган жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашишга доир талаблардан ташқари Молия марказининг қарорлари билан қўшимча ёки кенгайтирилган талаблар белгиланиши мумкин.

Ушбу модданинг биринчи қисмида назарда тутилган ҳоллардан ташқари, ушбу Конституциявий Қонун ва Молия марказининг қарорлари билан унинг юрисдикциясига кирадиган масалаларга оид Ўзбекистон Республикасининг тегишли қонунчилиги ёки ҳар қандай давлат органининг ёхуд идорасининг маъмурий ҳужжатлари Молия марказининг шахсларига нисбатан амал қилмайди, бундан ушбу Конституциявий Қонунда ёки Молия марказининг қарорларида бевосита назарда тутилган махсус ҳоллар мустасно.

13-модда. Молия марказининг инвестициявий солиқ резидентлиги дастури

Молия марказининг инвестициявий солиқ резидентлиги дастурида (бундан буён матнда Дастур деб юритилади) Ўзбекистон Республикасига инвестицияларни жалб этиш мақсадида Молия маркази кенгашининг қарори билан белгиланган шаклларда, ҳажмларда ва воситаларда инвестициялар киритган жисмоний шахсларга ҳамда уларнинг оила аъзоларига Молия марказининг инвестициявий солиқ резиденти мақоми берилиши назарда тутилади.

Дастур давлат хавфсизлиги, ички ишлар, иқтисодиёт ва молия, инвестицияларга кўмаклашиш борасидаги давлат сиёсатини амалга ошириш учун масъул бўлган давлат органлари билан келишилган ҳолда қабул қилинади. Молия маркази кенгашининг Дастурни жорий этиш тўғрисидаги қарорида инвестицияларнинг шакллари, ҳажмлари ва воситалари, инвестициявий солиқ резиденти мақомини эътироф этиш мезонлари ҳамда Дастурда иштирок этиш тартиб-таомиллари белгиланади.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия марказининг қарорлари билан қуйидаги минимал талаблар назарда тутилган Молия марказининг инвестициявий солиқ резиденти деб эътироф этиш мезонлари белгиланади:

Дастурда иштирок этиш тўғрисидаги ариза билан мурожаат қилишдан олдинги уч йиллик давр мобайнида шахс Ўзбекистон Республикасининг солиқ резиденти бўлмаганлиги;

Дастурда иштирок этиш тўғрисидаги ариза билан мурожаат қилишдан олдинги ўн йиллик давр мобайнида шахснинг Ўзбекистон Республикаси фуқаролиги тугатилмаганлиги.

Агар Дастурда иштирок этишнинг асосий мақсади ёки асосий мақсадларидан бири Ўзбекистон Республикаси билан сезиларли даражада боғлиқ бўлган даромадларга, активларга, фойдага ёки фаолиятга оид солиқдан қочишдан ёхуд солиқни камайтиришдан иборат бўлса, шахс Молия маркази маъмуриятининг асослантирилган хулосасига кўра Молия марказининг инвестициявий солиқ резиденти деб эътироф этилмайди.

Молия марказининг қарорларида Дастурнинг шаффофлигини ва ишончлилигини таъминлаш мақсадида бенефициар мулкдорлар тўғрисидаги маълумотларни, маблағлар манбаини, мол-мулк манбаини, солиқ резидентлиги тарихини, санкциявий мақомни ҳамда зарур бўлган бошқа ахборотни ошкор этиш талаблари белгиланиши мумкин.

Молия марказининг инвестициявий солиқ резиденти мақомини олиш қуйидаги ҳуқуқлар ва имкониятларни беради:

ушбу Конституциявий Қонуннинг 18-моддасида белгиланган солиқ имтиёзларини қўллаш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг солиқ резиденти деб эътироф этилишни;

ушбу Конституциявий Қонуннинг 20-моддасида белгиланган визага оид ҳуқуқларни;

ушбу Конституциявий Қонуннинг 29-моддасига мувофиқ Тошкент халқаро тижорат судига мурожаат қилиш ҳамда васиятномалар ва ворислик реестрига кириш (ундан фойдаланиш) ҳуқуқини.

14-модда. Молия маркази ҳудудида жиноий юрисдикцияни амалга ошириш

Агар Молия маркази ҳудудида Молия марказининг шахслари томонидан содир этилган, Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига мувофиқ жиноий жавобгарлик белгиланган валюта қимматликлари, божхона, солиқ, рақобат ва крипто-активлар айланмаси тўғрисидаги қонунчиликни, шунингдек савдо ёки хизмат кўрсатиш қоидаларини бузиш билан боғлиқ хатти-ҳаракатлар (ҳаракатсизлик) ўз моҳиятига кўра тижорат низоси, иқтисодий, фуқаролик-ҳуқуқий низо, Молия маркази органи талабларининг бузилиши, молия бозоридаги ножўя хатти-ҳаракатни ташкил этса, ундан келиб чиқса ёхуд у билан боғлиқ деб ҳисобланса ҳамда ушбу Конституциявий Қонун ёки Молия марказининг қарорлари доирасида ҳал қилиниши мумкин бўлса, Молия марказининг

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

тегишли органи биринчи навбатда Молия марказининг юрисдикцияси доирасида мавжуд бўлган иқтисодий, фуқаролик-ҳуқуқий чораларни, тартибга солиш ёки маъмурий таъсир чораларини қўллайди.

Ушбу модданинг биринчи қисмида назарда тутилган хатти-ҳаракатлар (ҳаракатсизлик) рўйхати ва улар учун қўлланиладиган таъсир чоралари Молия марказининг тегишли органи томонидан белгиланади.

Молия марказининг ҳеч бир органи ушбу модданинг биринчи қисмида назарда тутилган ҳолатлар бўйича иш материалларини жиноят ишини қўзғатиш, тергов қилиш ёки жиноий таъқиб қилиш масаласини ҳал этиш учун Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органларига юбормайди.

Ушбу модда Ўзбекистон Республикасининг қонунларига мувофиқ жиноят ҳисобланадиган ҳамда Молия маркази доирасида фуқаролик-ҳуқуқий чоралар, тартибга солиш ёки маъмурий таъсир чоралари орқали етарли даражада ҳал қилиб бўлмайдиган хатти-ҳаракатлар юзасидан Ўзбекистон Республикасининг ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ваколатли органлари юрисдикциясини чекловчи қоида сифатида талқин этилмаслиги керак. Бундай ҳолларда Молия марказининг тегишли органи ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ваколатли органлар билан тўлиқ ҳамкорлик қилади ҳамда тегишли масала бўйича терговни ва жиноий таъқиб қилишни амалга ошириш учун зарур ёрдам кўрсатади.

Молия марказининг органлари ушбу моддага мувофиқ фуқаролик-ҳуқуқий чораларнинг, тартибга солиш ва маъмурий таъсир чораларининг устуворлигини таъминлаш, шунингдек Молия марказининг юрисдикциясига ҳамда миллий жиноий юрисдикцияга тааллуқли бўлиши мумкин бўлган масалаларни кўриб чиқиш бўйича мувофиқлаштирилган тартиб-таомилларни белгилаш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ваколатли органлари билан ҳамкорлик тўғрисида келишувлар тузиши мумкин.

15-модда. Тақиқланган фаолият ва хизматлар

Молия маркази ҳудудида қуйидаги фаолият турларини амалга ошириш тақиқланади:

ушбу Конституциявий Қонун, Молия марказининг қарорлари ёки Молия марказининг қарорлари асосида Молия марказининг иштирокчиларига берилган лицензиялар, рухсатномалар, ваколатлар ёки рўйхатдан ўтказиш талабларига зид бўлган ҳар қандай фаолият;

Ўзбекистон Республикасининг қонунчилиги билан белгиланган жамоат тартибига ёки ижтимоий ахлоққа зид бўлган ҳар қандай фаолият;

Молия марказининг ҳудудидан ташқарида резидент бўлган ёки жойлашган шахслардан Ўзбекистон Республикасининг миллий валютасидаги чакана омонатларни қабул қилиш билан боғлиқ фаолият, бундан Молия марказининг Ўзбекистон Республикаси Марказий банки билан келишилган ҳолда ишлаб чиқилган қарорларида йўл қўйилган ҳоллар мустасно;

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Ўзбекистон Республикасининг қонунчилигига биноан тақиқланган ҳамда ушбу Конституциявий Қонунга ёки Молия марказининг қарорларига мувофиқ Молия марказида рухсат этилмаган товарларни ишлаб чиқариш, сотиш ёки тарқатиш ва хизматлар кўрсатиш билан боғлиқ фаолият.

Молия марказининг органлари тақиқланган фаолиятни амалга ошираётган Молия марказининг ҳар қандай шахсларига лицензиялар беришни ва уларни рўйхатдан ўтказишни тўхтатиб туриш, бекор қилиш чораларини ёки ушбу Конституциявий Қонунда ва Молия марказининг қарорларида назарда тутилган бошқа мажбурий чораларни кўриши мумкин.

16-модда. Жарималар ва мажбурлов чоралари

Ушбу Конституциявий Қонуннинг ёки Молия маркази қарорларининг қоидаларига зид равишда тижорат фаолиятини ёки молиявий фаолиятни амалга оширган Молия марказининг ҳар қандай иштирокчиси қуйидагилардан ошмайдиган миқдорда жаримага тортилади:

ўн миллион АҚШ долларидан ошмайдиган миқдорда;

қоидабузарликка сабаб бўлган тегишли битим, ўзаро боғлиқ битимлар йиғиндиси ёки фаолият қийматининг ўн фоизидан ошмайдиган миқдорда.

Молия марказининг кенгаши ўз қарори билан ҳуқуқбузарликлар рўйхатини ва улар учун қўлланиладиган санкцияларни тасдиқлайди. Бундай санкциялар қуйидагиларни ўз ичига олади:

расмий огоҳлантириш ва билдиришномалар беришни;

муайян ҳаракатларни амалга ошириш ҳақида ёки муайян ҳаракатларни амалга оширишдан тийилиш тўғрисида кўрсатмалар беришни;

етказилган зарарнинг ўрнини қоплаш ёки ҳуқуқбузарликдан олдинги ҳолатни тиклаш бўйича чоралар кўришни;

ҳуқуқбузарлик натижасида олинган фойдани қайтаришни;

оммавий тарзда ёки хусусий танбеҳ беришни;

махсус билим ва малакага эга бўлган шахсларни жалб этишни ёки тайинлашни;

тадбиркорлик фаолиятини чеклашни;

айрим жисмоний шахсларга назорат қилинадиган функцияларни бажаришни тақиқлашни ёки уларни бундай функцияларни бажаришдан муайян муддатга четлаштиришни;

лицензия бериш ёки рўйхатдан ўтказиш учун шартлар қўйишни;

лицензияни ёки рўйхатдан ўтганликни муайян муддатга тўхтатиб туришни;

лицензияни ёки рўйхатдан ўтганликни тўлиқ бекор қилишни;

шошилинч ҳимоя чораларини қўллашни;

Молия маркази кенгашининг қарорида назарда тутилган бошқа санкцияларни.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Ушбу модда қоидалари Молиявий хизматлар бошқармасининг қарорларига мувофиқ пруденциал чораларни, назорат ёки ҳимоя чораларини қўллаш юзасидан Молиявий хизматлар бошқармасининг ваколатларини чекламайди.

Молия марказининг тегишли қарорида белгиланган ҳолларда, бундай санкциялар жарималарга қўшимча равишда ёки уларнинг ўрнига қўлланилиши мумкин. Ҳуқуқбузарликлар рўйхатида назарда тутилган ҳеч бир жарима ушбу модданинг биринчи қисмида белгиланган энг юқори миқдордан ошиб кетмаслиги керак.

Жарималар ва санкциялар Молия марказининг ваколатли органлари томонидан қўлланилиши мумкин.

Ушбу моддага мувофиқ жарималарни қўллаш Молия марказининг қарорларида белгиланган тартиб-таомилларга, шу жумладан эҳтимолий ҳуқуқбузарлик тўғрисида огоҳлантириш, тушунтириш бериш ва Тошкент халқаро тижорат судида қайта кўриб чиқишни талаб қилиш ҳуқуқларига риоя этилган ҳолда амалга оширилади.

17-модда. Молия маркази иштирокчиларининг пул мажбуриятлари ва валютани тартибга солиш

Молия маркази иштирокчиларининг пул мажбуриятлари уларнинг шартномаларида келишилган чет эл валюталарида, шу жумладан Молия марказининг қарорларида ҳамда Молиявий хизматлар бошқармасининг тегишли қоидаларида рухсат этилган доирада рақамли активларда ифодаланиши ва бажарилиши мумкин.

Фонд биржасидаги савдолар иштирокчиларининг пул мажбуриятлари Фонд биржасининг қоидаларида белгиланган валютада ифодаланади ва бажарилади.

Молия маркази ҳудудида молиявий хизматлар ҳамда профессионал хизматлар кўрсатиш билан боғлиқ валюта операцияларининг шартлари ва тартиби Молия марказининг қарорлари билан тартибга солинади.

Агар Молия марказининг Ўзбекистон Республикаси Марказий банки билан биргаликда ишлаб чиқилган қарорларида бошқача қоида назарда тутилмаган бўлса, Ўзбекистон Республикасининг умумий валюта тўғрисидаги қонунчилиги билан боғлиқ валюта шартномаларини, капитал ҳаракати бўйича операцияларни рўйхатдан ўтказишга ёки улар ҳақида хабар беришга, хорижий банк ҳисобварақларини очишга ёки юритишга ҳамда валюта операциялари тўғрисида хабар беришга оид талаблар Молия марказининг иштирокчилари томонидан Молия марказининг юрисдикцияси доирасида амалга ошириладиган валюта операцияларига нисбатан қўлланилмайди.

Молия марказининг Ўзбекистон Республикаси Марказий банки билан биргаликда ишлаб чиқиладиган қарорларида тўлов баланси, молиявий барқарорлик учун, жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш ҳамда

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

макроиқтисодий мониторинг мақсадлари учун зарур бўлган ахборотнинг Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан олинишини таъминлайдиган соддалаштирилган ҳисобот бериш, ахборот алмашиш ва назорат қилиш механизмлари белгиланади.

Молия марказининг иштирокчилари номидан валюта операцияларини амалга оширувчи банклар ва айрим турдаги банк операцияларини бажарувчи бошқа ташкилотлар томонидан валюта операцияларининг амалга оширилиши тўғрисидаги ахборотни тақдим этишга нисбатан қўйиладиган талаблар ҳамда ахборотни тақдим этиш тартиби Молиявий хизматлар бошқармасининг Ўзбекистон Республикаси Марказий банки билан келишилган ҳолда қабул қилинадиган қарорларида белгиланади.

Молия марказининг Ўзбекистон Республикаси Марказий банки билан келишилган ҳолда қабул қилинадиган қарорларида Молия марказининг иштирокчиларига нисбатан чет эл валютасидаги операциялар тўғрисидаги ахборотни тақдим этишга доир талаблар, Молия марказининг органлари ва Ўзбекистон Республикаси Марказий банки ўртасидаги ахборот алмашиш тартиби, шунингдек Молия марказининг иштирокчилари томонидан Молия маркази ҳудудидан ташқарида Ўзбекистон Республикасининг резидентларига молиявий хизматлар кўрсатиш тартиби, шу жумладан Ўзбекистон Республикасининг миллий валютасида омонатларни қабул қилиш, фаолият юритиш қоидалари, истеъмолчиларни ҳимоя қилиш ва ҳисобот бериш тартиби белгиланади.

Ушбу модданинг қоидаларини амалга ошириш мақсадида Молия маркази ва Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан биргаликда қабул қилинадиган ҳужжатларда Молия марказининг иштирокчилари, Ўзбекистон Республикасининг фуқароси бўлмаган ходимлар, инвестициявий солиқ резидентлари ҳамда уларнинг оила аъзолари учун капитални эркин репатриация қилиш ва валютани эркин конвертация қилиш тартиб-таомиллари акс эттирилиши ҳамда уларга риоя этилиши таъминланиши керак.

18-модда. Молия маркази ҳудудидаги солиқ ва божхона режими

Молия маркази ҳудудида қўлланиладиган солиқ ва божхона режими ушбу Конституциявий Қонун ҳамда Молия марказининг Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан келишилган ҳолда қабул қилинадиган қарорлари билан тартибга солинади. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси нормалари Молия маркази ҳудудида фақат ушбу Конституциявий Қонунда ёки Молия марказининг қарорларида тўғридан-тўғри назарда тутилган ҳолларда қўлланилади.

Молия марказининг органлари ва Молия маркази органлари томонидан ташкил этилган ёки уларга тўлиқ эгалик қилинадиган ҳамда улар томонидан назорат қилинадиган ташкилотлар юридик шахслардан олинадиган фойда солиғини ва ижтимоий солиқни тўлашдан Молия марказининг ушбу модданинг биринчи қисмида назарда тутилган қарорларида белгиланган шартларга риоя этилган тақдирда, 2076 йил 1 январга қадар бўлган даврда озод қилинади.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия марказининг қарорларида назарда тутилган шартларга жавоб берадиган Молия марказининг малакали иштирокчилари Молия марказининг ушбу модданинг биринчи қисмида назарда тутилган қарорларида, шунингдек ушбу моддада ҳамда Молия марказининг қарорларида белгиланган талабларга ва шартларга мувофиқ молиявий хизматлардан олинган даромад бўйича фойда солиғини ҳамда ижтимоий солиқни тўлашдан 2076 йил 1 январга қадар бўлган даврда озод қилинади, бундан Молия марказининг қарорларида белгиланган иқтисодий моҳият, корпоратив бошқарув шартларига, жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш, киберхавфсизлик шартларига ҳамда бошқа шартларга жавоб бермайдиган рақамли активлар биржалари мустасно.

Молия марказининг малакали иштирокчиси деганда Молия марказининг қуйидаги барча шартларга жавоб берадиган иштирокчиси тушунилади:

Молия марказида етарли иқтисодий моҳиятга эга бўлиш;

тегишли даромадни Молия марказида кўрсатиладиган ёки экспорт қилинадиган молиявий хизматлардан олиш;

Молия маркази ҳамда Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан биргаликда қабул қилинган қарорларда белгиланадиган бошқа талабларга жавоб бериш.

Ушбу модданинг тўртинчи қисмида белгиланган шартларга жавоб бермайдиган Молия марказининг иштирокчиси ёки Молия марказининг қарорларида белгиланган иқтисодий моҳият, корпоратив бошқарув шартларига, жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш, киберхавфсизлик шартларига ҳамда бошқа шартларга жавоб бермайдиган рақамли активлар биржаси ушбу модданинг биринчи қисмига мувофиқ қўлланиладиган Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодексига биноан солиққа тортилади ҳамда ушбу модданинг олтинчи қисмида белгиланган шартлар бажарилган тақдирда, мазкур қисмда назарда тутилган солиқдан озод этиш ҳуқуқини сақлаб қолади.

Молия марказининг иштирокчилари Молия марказининг ушбу модданинг биринчи қисмида назарда тутилган қарорларида белгиланган шартларга риоя этган ҳолда, Молия марказининг ҳудудида кўрсатилган қўшимча хизматлардан олинган даромад бўйича юридик шахсларнинг фойда солиғини ҳамда ижтимоий солиқни тўлашдан 2076 йил 1 январга қадар бўлган даврда озод қилинади.

Ушбу модда тўртинчи қисмининг мақсадлари учун фойда солиғидан озод қилинадиган даромадларни ва солиқ солинадиган даромадларни, шунингдек чегирилиши мумкин бўлган харажатларни алоҳида-алоҳида ҳисобга олиш тартиби Молия марказининг маъмурияти ҳамда Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан биргаликда белгиланади.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия марказининг иштирокчисида ёки органида меҳнат шартномаси асосида фаолият юритадиган Молия марказининг ходимлари Молия марказидаги фаолиятдан олинган даромадлар бўйича жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғини тўлашдан 2076 йил 1 январга қадар бўлган даврда озод қилинади, бундан Ўзбекистон Республикасининг резидентлари мустасно. Ушбу қисмда назарда тутилган солиқни тўлашдан озод қилиш фақат Молия марказининг иштирокчиси ёки Молия марказининг органи томонидан тўланадиган меҳнатга ҳақ тўлаш тарзидаги даромадларга нисбатан қўлланилади ҳамда бошқа ҳар қандай шахс томонидан тўланадиган шундай даромадларга нисбатан татбиқ этилмайди. Ўзбекистон Республикасининг резидентлари бўлган Молия марказининг ходимларига нисбатан белгиланган тартибда жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи бўйича имтиёз белгиланиши мумкин.

Жисмоний ва юридик шахслар қуйидагилардан олинган даромадлар бўйича жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғини ва юридик шахслардан олинадиган фойда солиғини тўлашдан 2076 йил 1 январга қадар бўлган даврда озод қилинади:

Фонд биржасининг расмий рўйхатига киритилган қимматли қоғозларни сотишдан олинган даромад, шу жумладан капитал ўсишдан олинган даромадлар;

Молия маркази иштирокчиларининг акцияларини ёки капиталидаги улушларини сотишдан олинган даромад, шу жумладан капитал ўсишдан олинган даромадлар;

ҳисобланган кунда Фонд биржасининг расмий рўйхатига киритилган қимматли қоғозлар бўйича дивидендлар ва фоизлар;

Молия маркази иштирокчиларининг акциялари ёки капиталидаги улушлари бўйича дивидендлар;

агар жисмоний шахслар Молия марказининг инвестициявий солиқ резидентлари бўлса, уларнинг Ўзбекистон Республикасидан ташқаридаги манбалардан олинган даромадлари.

Ушбу модда тўққизинчи қисмининг тўртинчи хатбошиси қоидалари Молия маркази маъмуриятининг ҳамда Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг қўшма қарорида белгиланган мезонларга мувофиқ Фонд биржасида муомалада бўлган қимматли қоғозлар бўйича дивидендларга нисбатан қўлланилади.

Ушбу модда тўққизинчи қисмининг олтинчи хатбошисини қўллашда Молия марказининг инвестициявий солиқ резиденти солиқ солиш мақсадида шахс Ўзбекистон Республикасининг резиденти эканлигини тасдиқловчи ҳужжат берилиши учун Молия марказининг маъмурияти томонидан Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан келишилган ҳолда белгиланган тартибда ва миқдорда мажбурий тўловни амалга ошириши шарт. Ушбу модда тўққизинчи қисмининг олтинчи хатбошисида назарда тутилган солиқни тўлашдан озод қилиш тегишли активлар Молия марказининг инвестициявий солиқ резиденти мақоми эътироф этилгунига қадар ёки ундан кейин қўлга киритилганидан

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

қатъи назар, Ўзбекистон Республикасидан ташқаридаги манбалардан олинадиган даромадларга нисбатан қўлланилади, бунда Молия марказининг маъмурияти томонидан Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан келишилган ҳолда қабул қилинадиган Молия марказининг қарорида белгиланиши мумкин бўлган резидентликнинг энг кам муддатларига ва бошқа шартларга риоя этилади.

Молия марказининг органларига ёки иштирокчиларига тегишли ёхуд уларнинг фойдаланишида бўлган Молия маркази ҳудудида жойлашган кўчмас мулк мол-мулк солиғидан ва ер солиғидан озод қилинади.

Қуйидагилар қўшилган қиймат солиғи солинадиган товарларни (хизматларни) реализация қилиш бўйича айланма ҳисобланмайди:

Ўзбекистон Республикасининг бюджет тўғрисидаги қонунчилигига мувофиқ Молия марказининг органлари томонидан мақсадли трансферт шаклида олинган Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари;

Молия марказининг органлари томонидан Молия марказининг маъмуриятидан мақсадли трансферт шаклида олинган пул маблағлари.

Молия маркази иштирокчиларининг ушбу Конституциявий Қонунга мувофиқ кўрсатилган хизматлари ва фаолияти қўшилган қиймат солиғини тўлашдан озод қилинади.

Норезидент томонидан Молия марказининг органи ёки ташкилоти учун ҳақ эвазига бажарилган ишлар ёки кўрсатилган хизматлар, агар реализация қилиш жойи деб Ўзбекистон Республикаси эътироф этилган бўлса, норезидентдан ишлар ва хизматларни сотиб олиш бўйича айланма ҳисобланмайди.

Молия маркази органларининг, иштирокчиларининг, ходимларининг ёки инвестициявий солиқ резидентларининг Молия маркази ҳудудида фойдаланиш ёки истеъмол қилиш учун Ўзбекистон Республикасининг божхона ҳудудига хориждан олиб кириладиган мол-мулкидан 2076 йил 1 январга қадар бўлган даврда божхона божи ва божхона йиғимлари ундирилмайди. Ушбу имтиёз фақат Молия маркази органларининг ва иштирокчиларининг фаолиятини амалга ошириш учун зарур бўлган ҳамда Молия маркази ҳудудида фойдаланиладиган ёки истеъмол қилинадиган товарларга нисбатан қўлланилади. Мазкур товарлардан Молия марказининг ҳудудидан ташқарида фойдаланилган, улар бегоналаштирилган ёки бошқа шахсларга берилган тақдирда, божхона тўловларини ундириш Ўзбекистон Республикасининг божхона тўғрисидаги қонунчилигига мувофиқ амалга оширилади.

Молия марказининг органларига ва иштирокчиларига солиқ солиш бўйича солиқ маъмуриятчилиги ва Молия маркази ҳудудида фойдаланиладиган ёки истеъмол қилинадиган товарларга нисбатан божхона маъмуриятчилиги Молия маркази органларининг Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан биргаликда қабул қилинадиган қарорларида белгиланади.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Ушбу моддада белгиланган солиқ имтиёзларининг ҳажми Молия маркази кенгашининг розилигисиз камайтирилиши ёки уларнинг қўлланилиш доираси ушбу кенгашнинг розилигисиз чекланиши мумкин эмас.

Ушбу моддада белгиланган солиқ ва божхона имтиёзлари ҳамда преференциялари уларнинг самарадорлигини, иқтисодий таъсирини, давом эттирилиши учун асослар мавжудлигини ва Молия марказининг мақсадларига мувофиқлигини баҳолаш мақсадида Молия марказининг маъмурияти томонидан даврий равишда қайта кўриб чиқилади. Бунда биринчи қайта кўриб чиқиш ушбу Конституциявий Қонун кучга кирганидан кейин ўн йил ичида, кейинчалик эса беш йилдан кўп бўлмаган вақт оралиғида амалга оширилади. Ҳар бир қайта кўриб чиқиш натижаларига доир ҳисобот ва тавсиялар Молия марказининг кенгашига тақдим этилади. Даврий равишда қайта кўриб чиқиш ушбу моддада белгиланган имтиёзларнинг ўзгартирилиши ёки тугатилиши шарт эканлигини англатмайди.

19-модда. Молия марказининг солиқ имтиёзларидан истиснолар

Ушбу Конституциявий Қонунда ёки Молия марказининг қарорларида белгиланган қоидалардан қатъи назар, Молия маркази иштирокчиларининг даромади бўйича солиқ имтиёзлари тегишли молиявий йилдан олдинги тўрт молиявий йилнинг камида иккитасида консолидациялашган йиллик даромади етти юз эллик миллион евро ёки ундан ортиқ бўлган, турли мамлакатларда жойлашган икки ва ундан ортиқ корхонадан ёки бўлинмадан иборат бўлган кўп миллатли корхоналар гуруҳи (бундан буён матнда кўп миллатли корхоналар гуруҳи деб юритилади) аъзоларига нисбатан қўлланилмайди. Бундай кўп миллатли корхоналар гуруҳи аъзоси бўлган Молия марказининг иштирокчиси малакали ички минимал солиқ тўлаш мажбуриятига эга бўлади.

Молия маркази орқали фаолият юритадиган кўп миллатли корхоналар гуруҳи аъзоси бўлган Молия марказининг иштирокчиси тегишли даврда Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилигига мувофиқ юридик шахсларга нисбатан қўлланиладиган фойда солиғи ставкасига тенг ставкада малакали ички минимал солиқни тўлайди.

Кўп миллатли корхоналар гуруҳига нисбатан малакали ички минимал солиқни ҳисоблаш, ундириш ҳамда солиқ маъмуриятчилигининг тартиби Молия маркази кенгашининг Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан биргаликда қабул қилинадиган қарорида белгиланади.

20-модда. Чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар учун виза режими

Молия марказида фаолиятни амалга ошириш учун Ўзбекистон Республикаси ҳудудига келаётган чет эл фуқароси ва фуқаролиги бўлмаган шахс кириш визасини Ўзбекистон Республикасининг элчихонасида ёки бошқа дипломатик ваколатхонасида ёхуд Ўзбекистон Республикаси

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

ҳудудидаги халқаро аэропортга етиб келганидан кейин олиши мумкин. Фаолиятни амалга ошириш мақсадини тасдиқлаш учун зарур бўлган ҳужжатлар ва тартиб-таомиллар Молия марказининг қарорларида белгиланиши мумкин.

Молия марказининг шахси ҳисобланган чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар кириш визасини беш йилгача бўлган муддатга олиши мумкин.

Молия марказининг жисмоний шахслари учун визалар бериш, уларни бекор қилиш, қайта тиклаш ва уларнинг амал қилиш муддатини қисқартириш Ўзбекистон Республикасининг қонунчилигига мувофиқ, Молия маркази маъмуриятининг илтимосномасига асосан амалга оширилади.

Молия марказининг ушбу модданинг биринчи ёки иккинчи қисмида кўрсатилган жисмоний шахсига берилган визанинг амал қилиш муддати мазкур шахс Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан ташқарига чиқмасидан туриб, Молия маркази маъмуриятининг аризасига биноан, Ўзбекистон Республикасининг қонунчилигига мувофиқ узайтирилиши мумкин.

Молия марказида фаолиятни амалга ошириш учун Ўзбекистон Республикасига келаётган чет эл фуқароларининг ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг Ўзбекистон Республикасига кириши ва Ўзбекистон Республикасидан чиқиши шартлари ҳамда тартибининг ўзига хос хусусиятлари Молия маркази кенгашининг Ўзбекистон Республикасининг ваколатли вазирлик ва идоралари билан келишилган қарори билан белгиланади.

21-модда. Хорижий ишчи кучини жалб этиш

Молия марказининг иштирокчилари ва органлари Молия марказида фаолиятни амалга ошириш учун малакали чет эл фуқароларини ва фуқаролиги бўлмаган шахсларни улар учун Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги меҳнат фаолияти ҳуқуқига доир тасдиқнома олмасдан ишга жалб этиши мумкин.

Молия марказининг иштирокчилари ёки унинг органи томонидан ёлланган ва асосий иш жойи Молия маркази бўлган чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар Ўзбекистон Республикасида ишлаш учун меҳнат рухсатномасини олиш мажбуриятидан озод қилинади. Чет эл фуқароларининг ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг малакасига нисбатан қўйиладиган талаблар ва уларни ишга қабул қилиш квоталари Молия марказининг маъмурияти томонидан белгиланади.

Молия марказининг маъмурияти томонидан белгиланадиган малака талаблари ва квоталар Молия марказининг мақсадларига эришишга кўмаклашиши лозим ҳамда Молия марказининг иштирокчилари томонидан Молия маркази ҳудудида фаолиятни амалга ошириш учун асосли зарурият мавжуд бўлган ҳолларда чет эл фуқароларини ёки фуқаролиги бўлмаган шахсларни ишга қабул қилиш имкониятини чекламаслиги керак.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия марказининг маъмурияти Молия марказининг иштирокчилари ва органлари томонидан жалб этилган хорижий ишчи кучининг ҳисобини юритади ҳамда иш билан банд бўлган чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар тўғрисидаги маълумотларни миграция масалалари бўйича ваколатли давлат органига тақдим этади. Бундай маълумотларнинг мазмуни, даврийлиги ва шакли Молия марказининг маъмурияти ҳамда миграция масалалари бўйича ваколатли давлат органи томонидан биргаликда белгиланади.

Молия марказининг иштирокчилари ва органлари иш билан банд бўлган чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар тўғрисидаги маълумотларни Молия марказининг қарорларига мувофиқ Молия марказининг маъмуриятига тақдим этади.

22-модда. Молия марказининг органлари

Қуйидагилар Молия марказининг органлари ҳисобланади:
Молия марказининг кенгаши;
Молия марказининг маъмурияти;
Молиявий хизматлар бошқармаси;
Тошкент халқаро тижорат суди.

Молия марказининг органларини ташкил этиш, уларнинг фаолият юритиши ҳамда Молия маркази иштирокчиларининг фаолияти устидан назорат ўрнатиш тартиби ушбу Конституциявий Қонун ва Молия марказининг қарорлари билан белгиланади.

Молия марказининг органлари ушбу Конституциявий Қонун ва Молия марказининг қарорлари билан ўз зиммасига юклатилган вазифалар ва функцияларни амалга ошириш чоғида ўз фаолиятида мустақилдир. Ушбу Конституциявий Қонунда тўғридан-тўғри назарда тутилган ҳоллардан ташқари, ушбу органларга кўрсатмалар берилишига ёки уларнинг фаолиятига аралашишга йўл қўйилмайди.

Ўзбекистон Республикаси Молия маркази органларининг қарзлари, мажбуриятлари, ҳаракатлари ёки ҳаракатсизлиги учун жавобгар бўлмайди. Молия марказининг органлари эса Молия маркази иштирокчиларининг ёки бошқа ҳар қандай шахснинг қарзлари, мажбуриятлари, ҳаракатлари ёки ҳаракатсизлиги учун жавобгар бўлмайди, бундан ушбу Конституциявий Қонунда ёки қўлланиладиган бошқа қонунчиликда бевосита назарда тутилган ҳоллар мустасно.

Молия марказининг органлари ушбу Конституциявий Қонунга ва Молия марказининг қарорларига мувофиқ, шунингдек тегишли ҳолларда Молия марказининг кенгаши томонидан чиқариладиган мувофиқлаштирувчи ва сиёсий кўрсатмаларга биноан, агар бундай кўрсатмалар Молиявий хизматлар бошқармасининг ёки Тошкент халқаро тижорат судининг функционал мустақиллигига зарар етказмаса, ҳамкорлик қилади.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия марказининг органлари, вазирликлар, идоралар, назорат органлари ҳамда тартибга солувчи органлар, судлар, давлат ҳокимияти органлари ва Ўзбекистон Республикасининг бошқа ваколатли органлари Молия марказининг мақсадларига эришиш ҳамда ушбу Конституциявий Қонун ва Молия марказининг қарорлари билан уларга берилган ваколатларни, ўз зиммасига юклатилган вазифалар ва функцияларни самарали амалга ошириш мақсадида ўзаро ҳамкорлик қилади ҳамда бир-бирига кўмаклашади.

Молия марказининг бошқарувчиси ёки Молия марказининг тегишли органи Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги ёки Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан ташқаридаги ваколатли органлар, регуляторлар, судлар, арбитраж институтлари, молия марказлари, биржалар, университетлар, профессионал ташкилотлар ва бошқа ташкилотлар билан ўзаро англашув меморандумларини ва ҳамкорлик келишувларини, башарти бундай меморандумлар ва келишувлар Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига ёки Ўзбекистон Республикаси томонидан ратификация қилинган халқаро шартномаларга зид бўлмаса, тузиши мумкин.

Бундай ҳамкорлик мувофиқлаштириш, маслаҳатлашувлар, техник ёрдам, маъмурий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш, амалий кўмак кўрсатиш, тартибга солиш соҳасидаги ҳамкорлик, ахборот алмашиш, суд ҳамкорлиги ҳамда Молия марказининг самарали фаолият юритиши учун зарур бўлган ёки мақсадга мувофиқ бўлган бошқа чораларни ўз ичига олиши мумкин, бунда тегишли конфиденциаллик мажбуриятларига риоя этилади.

Тошкент халқаро тижорат судининг одил судловни амалга оширишдаги ҳамда Молиявий хизматлар бошқармасининг тартибга солиш ва назорат қилиш функцияларини бажаришдаги мустақиллиги кафолатланади.

Молия маркази органларининг фаолиятини молиялаштириш учун ажратиладиган Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағларидан мақсадли ва самарали фойдаланилиши устидан назоратни амалга ошириш тартиб-таомиллари Молия марказининг кенгаши томонидан Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатаси билан келишилган ҳолда қабул қилинган қарорида белгиланади.

Молия марказининг органлари, уларнинг бошқарув органлари раҳбарлари ва аъзолари, Тошкент халқаро тижорат судининг судьялари, уларнинг ҳар бири томонидан тайинланган ходимлар ҳамда уларнинг вакиллари ўзининг ушбу Конституциявий Қонунда ва Молия марказининг қарорларида белгиланган вазифаларини бажариш ҳамда ваколатларини амалга ошириш билан боғлиқ ҳолда содир этилган ҳар қандай ҳаракати ёки ҳаракатсизлиги учун учинчи шахслар олдида жавобгар бўлмайди. Бундай дахлсизлик қасддан қилинган ножўя хатти-ҳаракатларга ёки кўпол эҳтиётсизлик ҳолларига нисбатан қўлланилмайди ва ушбу ҳоллар Тошкент халқаро тижорат суди томонидан Молия марказининг қарорларига мувофиқ кўриб чиқилади.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия марказининг ҳар бир органи ушбу Конституциявий Қонунга ва Молия марказининг қарорларига мувофиқ конфиденциал ахборот деб белгиланган ёки ўз функционал вазифаларини бажариши билан боғлиқ ҳолда ўзига ошкор этилган ёхуд ўзи олган барча маълумотларни сир сақлаши шарт. Бундай маълумотлар учинчи шахсларга, шу жумладан Ўзбекистон Республикасининг давлат ҳокимияти органларига ва ижро этувчи ҳокимият органларига ошкор этилмайди, бундан қуйидаги ҳоллар мустасно:

ушбу Конституциявий Қонунга ёки Молия марказининг қарорларига мувофиқ рухсат этилган ёки талаб этилган ҳоллар;

маълумот ўзига тегишли бўлган шахснинг ёзма розилиги берилган ҳоллар;

Тошкент халқаро тижорат судининг қарорида белгиланган ҳоллар;

хорижий тартибга солувчи ёки назорат органлари билан ҳамкорлик қилиш мақсадида Молия марказининг қарорларига мувофиқ тузилган англашув меморандумларида ёки ахборот алмашиш тўғрисидаги битимларда кўрсатилган ҳоллар;

жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш, санкцияларга риоя этиш, молиявий барқарорлик, солиқ маъмуриятчилиги учун, жиноят ишлари бўйича тергов ёки бошқа оммавий-ҳуқуқий функцияларни амалга ошириш мақсадлари учун зарур бўлган ҳолларда, агар бундай маълумотларни ошкор этиш ушбу Конституциявий Қонун, Молия марказининг қарорлари, ўзаро англашув меморандуми ёки Ўзбекистон Республикасининг қўлланиладиган қонунчилиги билан рухсат этилган бўлса.

Молия маркази органининг ушбу модданинг ўн иккинчи қисмида кўрсатилган талабларни бузган ҳолда конфиденциал ахборотни ошкор этган ҳар қандай ходими Молия марказининг қарорларига мувофиқ интизомий жавобгарликка ва (ёки) фуқаролик-ҳуқуқий жавобгарликка тортилади.

23-модда. Молия йили, ресурслар ва аудит

Молия маркази органларининг биринчи молия йили Молия марказининг кенгаши томонидан белгиланган Молия марказини фаоллаштириш санасидан бошланиб, шу йилнинг 31 декабрида тугайди, кейинги молия йиллари эса ҳар йили 1 январдан бошланиб, 31 декабрда тугайди.

Агар Молия марказининг қарорида бевосита бошқача қоида назарда тутилмаган бўлса, худди шу молия йили Молия марказининг ҳар бир органига ва Молия маркази органининг ҳар бир ташкилотига нисбатан ҳам қўлланилади.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия маркази органларининг маблағлари қуйидагилардан иборат:

Ўзбекистон Республикасининг бюджет тўғрисидаги қонунчилигига мувофиқ уларга Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджетидан ажратиладиган йиллик маблағлардан;

Молия марказининг органлари томонидан Молия марказининг иштирокчиларига ва бошқа шахсларга лицензия бериш, рўйхатдан ўтказиш, рухсатнома бериш ҳамда хизматлар кўрсатиш учун Молия марказининг қарорларига мувофиқ ундириладиган йиғимлар ва тўловлардан;

ушбу Конституциявий Қонунга ва Молия марказининг қарорларига мувофиқ ҳамда Молия марказининг мақсадларига мос келадиган тарзда Молия марказининг кенгаши томонидан белгиланадиган бошқа маблағлардан.

Молия марказининг кенгаши Ўзбекистон Республикасида тан олинган ва халқаро даражада эътироф этилган касбий малакага эга бўлган бир ёки бир нечта мустақил аудиторни Молия марказининг ҳамда Молия маркази органларининг консолидациялашган йиллик молиявий ҳисоботларини аудитдан ўтказиш учун тайинлайди.

Молия марказининг кенгаши Молия маркази органларининг консолидациялашган йиллик бюджетини ҳамда консолидациялашган йиллик молиявий ҳисоботларини кўриб чиқади, тасдиқлайди ва уларни амалдаги бюджет тўғрисидаги қонунчиликка мувофиқ тақдим этади.

24-модда. Йиллик шаффофлик ҳисоботлари

Молия марказининг ҳар бир органи ҳар бир молия йили тугаганидан кейин тўрт ой ичида йиллик шаффофлик ҳисоботини эълон қилиши шарт.

Молия маркази ҳар бир органининг йиллик шаффофлик ҳисоботи камида қуйидагиларни ўз ичига олиши керак:

Молия марказининг молия йили давомида қабул қилинган қарорларини ва ўтказилган муҳокама жараёнларининг қисқача баёнини;

қўлланилган мажбурий чораларнинг, шу жумладан қўлланилган жарималарнинг сони ва тури ҳамда Тошкент халқаро тижорат судида кўрилган ишлар тўғрисидаги маълумотларни;

берилган, янгиланган, тўхтатиб турилган ва бекор қилинган лицензиялар, рўйхатдан ўтказишлар ва рухсатномалар сони ҳақидаги маълумотларни;

тасдиқланган бюджет ва молия йилидаги амалдаги харажатлар тўғрисидаги молиявий маълумотларни;

келгуси молия йили учун тартибга солиш ва институционал ривожланиш бўйича истиқболдаги дастурни.

Йиллик шаффофлик ҳисоботлари Молия маркази қарорларининг расмий реестрида ва Молия маркази ҳар бир органининг расмий веб-сайтида барча эркин танишиши ҳамда фойдаланиши учун инглиз тилида эълон қилинади.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия марказининг кенгаши Молия маркази органларининг йиллик шаффофлик ҳисоботларини ўз ичига олган Молия марказининг консолидациялашган йиллик молиявий ҳисоботини эълон қилади ва уни Ўзбекистон Республикасининг қонунчилигида белгиланган тартибда тақдим этади.

25-модда. Молия марказининг кенгаши

Молия марказининг кенгаши доимий фаолият юритувчи коллегиал орган ҳисобланади ва камида беш нафар аъзодан иборат бўлади.

Агар ушбу Конституциявий Қонунда ёки Молия марказининг кенгаши томонидан қабул қилинган Молия марказининг қарорларида бошқача қоида назарда тутилмаган бўлса, Молия маркази кенгашининг қарорлари кўпчилик овози билан қабул қилинади. Овозлар тенг бўлган тақдирда, Молия маркази кенгаши раисининг овози ҳал қилувчи ҳисобланади.

Молия марказининг кенгаши ушбу Конституциявий Қонунга мувофиқ Молия марказининг умумий стратегиясини, йўналишини ва бошқарувини белгилаш, шунингдек Молия марказининг ушбу Конституциявий Қонунда белгиланган мақсадлари, вазифалари ва принципларини рўёбга чиқариш учун масъулдир.

Молия марказининг кенгаши қуйидаги ваколатларга эга:

Молия марказини ривожлантиришнинг умумий йўналишини ва стратегиясини белгилаш;

Молия марказининг йиллик бюджетларини, аудиторлик хулосаларини ва фаолияти тўғрисидаги ҳисоботларини тасдиқлаш;

агар ваколат ушбу Конституциявий Қонун билан Молия марказининг бошқа органига тўғридан-тўғри берилмаган бўлса, Молия марказининг қарорлар, кўрсатмалар, буйруқлар ва бажарилиши мажбурий бўлган бошқа ҳужжатлар шаклидаги қарорларини қабул қилиш;

Молия марказининг ўз бўйсунувидаги тузилмаларини таъсис этиш ва уларнинг ташкилий тузилмасини, шаклини, ваколатлари ва функцияларини ҳамда уларнинг фаолиятини тугатиш тартибини белгилаш;

Молия марказининг ҳудудидан ташқарида ва хорижда, Ўзбекистон Республикасининг давлат ҳокимияти органлари ва ижро этувчи ҳокимият органлари билан бўлган ҳар қандай муҳокамаларда ёки низоларда Молия марказининг манфаатларини қўллаб-қувватлаш;

ушбу Конституциявий Қонунга мувофиқ Молия марказининг фаолиятини мувофиқлаштириш, маъмурий бошқариш ва унинг стратегик асосларини амалга ошириш масалалари бўйича Молия марказининг бошқа органлари учун мажбурий бўлган қарорлар, буйруқлар ва кўрсатмалар қабул қилиш, бунда мазкур қарорлар, буйруқлар ва кўрсатмалар Молиявий хизматлар бошқармасининг кундалик фаолиятини амалга оширишдаги мустақиллигига ёки Тошкент халқаро тижорат судининг суд мустақиллигига дахл қилмаслиги шарт;

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия марказида муайян секторларни, фаолият турларини, хизматларни, юрисдикцияларни, институтларни ёки тартибга солиш асосларини ишга тушириш бўйича босқичма-босқич режа-жадвалларни белгилаш.

Молия марказининг кенгаши ушбу Конституциявий Қонунга зид бўлмаган бошқа ваколатларни ҳам амалга оширади.

Молия марказининг кенгаши Молия марказининг иштирокчиларидан ҳамда ҳуқуқ ва молия соҳасидаги мустақил экспертлардан, шунингдек Молия марказининг кенгаши муносиб деб топадиган бошқа шахслардан иборат бўлган таркибда Иштирокчиларнинг маслаҳат қўмитасини тузади. Мазкур қўмита Молия марказининг муҳим аҳамиятга эга қарорлари қабул қилингунига қадар улар бўйича мажбурий бўлмаган маслаҳат-хулосаларини беради. Молия марказининг кенгаши ушбу қўмитанинг тавсияларини тегишли даражада кўриб чиқиши ҳамда улардан жиддий равишда четга чиққан тақдирда, бунинг сабабларини эълон қилиши шарт.

Молия маркази кенгашининг низоми ва таркиби Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан тасдиқланади. Бунда Молия маркази кенгашининг таркибига лавозимига кўра раис сифатида Ўзбекистон Республикаси Президенти киради ҳамда у Молия маркази кенгашининг аъзоларини лавозимга тайинлайди ва лавозимидан озод қилади. Молия маркази кенгаши аъзоларининг камида учдан бири Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати тизимида илгари ёки ҳозирги пайтда ҳеч қандай лавозимни эгалламаган, халқаро молия, тижорат ҳуқуқи соҳасидаги мутахассислардан иборат бўлиши керак. Молия маркази кенгашининг раисидан ташқари Молия маркази кенгашининг аъзолари қайта тайинланиш ҳуқуқи билан беш йил муддатга тайинланади. Мазкур тартибда тайинланган Молия маркази кенгаши аъзосининг ваколатлари беш йиллик муддат тугагунига қадар фақат асослар мавжуд бўлганда Молия маркази кенгаши аъзолари кўпчилигининг ёзма қарори билан тугатилиши мумкин, бунда ушбу қарорнинг сабаблари Ўзбекистон Республикаси Президентига ёзма равишда тақдим этилади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Молия маркази кенгашининг аъзолари орасидан Молия марказининг бошқарувчиси ҳисобланадиган Бош котибни тайинлайди.

26-модда. Молия марказининг бошқарувчиси

Молия марказининг бошқарувчиси Молия маркази органларининг фаолиятини мувофиқлаштиришда, шунингдек Ўзбекистон Республикасининг давлат органлари ва Молия марказининг органлари ўртасидаги ҳамкорликни таъминлашда иштирок этувчи мансабдор шахсдир.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия марказининг бошқарувчиси Молия маркази кенгаши томонидан белгиланган ваколатларга эга бўлиб, зарур ташкилий, маслаҳат ва техник кўмакдан фойдаланади.

Молия маркази кенгашининг мажлисларида раис иштирок этмаган тақдирда, Молия марказининг бошқарувчиси раислик қилади.

Молия марказининг бошқарувчиси Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонига асосан лавозимга тайинланади ва лавозимидан озод этилади. Мазкур фармонда Молия маркази бошқарувчисининг меҳнат шартлари, иш ҳақи ва унга тенглаштирилган тўловлар, имтиёзлар белгиланади. Ушбу Конституциявий Қонун 25-моддаси еттинчи қисмининг қоидаларидан қатъи назар, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонига мувофиқ Молия марказининг бошқарувчиси лавозимида фаолият юритаётган шахснинг лавозимидан озод этилиши, агар фармонда бошқача қоида назарда тутилмаган бўлса, айни вақтда ушбу шахснинг Молия маркази кенгаши аъзолигидан ҳам озод этилишига олиб келади.

Ушбу Конституциявий Қонунда ва Молия марказининг қарорларида белгиланган Молия маркази органларининг мустақиллигига ҳамда ваколатларига дахл қилмаган ҳолда, Молия марказининг бошқарувчиси қуйидаги вазифалар ва ваколатларни амалга оширади:

Молия марказининг мақсадларига эришишни кўзлаб стратегияни, умумий сиёсатни ва режаларни ишлаб чиқиш, уларни Молия марказининг кенгашига тасдиқлаш учун тақдим этиш, уларнинг ижросини назорат қилиш ва ушбу ишларга доир ҳисоботларни Молия марказининг кенгашига тақдим этиш;

Молия марказининг ташкилий тузилмаси лойиҳасини ишлаб чиқиш ва уни Молия марказининг кенгашига тасдиқлаш учун тақдим этиш;

ушбу Конституциявий Қонунга ва Молия марказининг қарорларига мувофиқ ўз вазифаларини бажариш учун зарур маслаҳат берадиган ҳамда ёрдам кўрсатадиган қўмиталар ва ишчи гуруҳлар тузиш;

ўз вазифаларини бажариш учун зарур бўлган ҳолларда, маслаҳат берувчи ва ёрдам кўрсатувчи экспертларни ҳамда мутахассисларни тайинлаш;

зарур бўлганда, Молия марказининг органлари билан маслаҳатлашган ҳолда, Молия марказининг мақсадларига эришиш учун Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги ҳамда Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан ташқаридаги учинчи шахслар билан шартномалар, келишувлар ва англашув меморандумларини тузиш;

Ўзбекистон Республикасининг давлат органлари ҳамда Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги ва Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан ташқаридаги бошқа ташкилотлар билан муносабатларда Молия маркази номидан вакиллик қилиш, бундай муносабатларга Молия маркази органларини уларнинг вазифаларига ва ваколатларига мувофиқ жалб этиш;

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан ёки ушбу Конституциявий Қонун билан Молия маркази бошқарувчисининг зиммасига юклатилган бошқа вазифаларни бажариш ва берилган ваколатларни амалга ошириш.

Ўзбекистон Республикасининг давлат органлари ва ташкилотлари Молия марказини ташкил этишга, ишга туширишга, ривожлантиришга ҳамда унинг фаолият юритишига оид масалаларда ушбу Конституциявий Қонунга ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг ҳужжатларига мувофиқ Молия марказининг бошқарувчиси билан ҳамкорлик қилади.

Молия марказининг мақсадларига эришиш учун асосли зарурият мавжуд бўлган ҳолларда, Молия марказининг бошқарувчиси тегишли давлат органлари ва ташкилотларидан ахборотни, мувофиқлаштиришни ҳамда маъмурий кўмакни сўрашга ҳақли.

27-модда. Молия марказининг маъмурияти

Молия марказининг маъмурияти Молия марказининг асосий ижро этувчи ва маъмурий органи ҳисобланади ҳамда у Молия марказининг фаолиятини ташкил этиш ва таъминлаш, ривожлантириш ҳамда тарғиб қилиш учун биринчи навбатда масъул ҳисобланади.

Молия марказининг маъмурияти ушбу Конституциявий Қонун билан ташкил этиладиган ҳамда ўз функцияларини амалга ошириш учун зарур ҳуқуқ лаёқатига, ҳуқуқларга, ваколатларга ва мажбуриятларга эга бўлган юридик шахс ҳисобланади ҳамда у ўз вазифалари ва функцияларини бажариш учун зарур бўлган молиявий, маъмурий мустақилликка ҳамда иш юритиш борасидаги мустақилликка эга бўлади.

Ушбу Конституциявий Қонун билан Молиявий хизматлар бошқармаси, Тошкент халқаро тижорат суди ёки Молия марказининг кенгаши томонидан таъсис этилган бошқа ташкилотларнинг зиммасига тўғридан-тўғри юклатилган вазифалардан ташқари, Молия маркази фаолиятининг маъмуриятчилиги, бошқаруви ва амалга оширилиши билан боғлиқ бўлган барча масалалар учун Молия марказининг маъмурияти масъулдир.

Молия марказининг маъмурияти ушбу Конституциявий Қонун, Молия маркази кенгашининг қарорлари, шунингдек Молия марказининг кенгаши томонидан тасдиқланадиган Молия марказининг маъмурияти тўғрисидаги низом ва ички ҳужжатлар билан ўз зиммасига юклатилган вазифаларни ҳамда мажбуриятларни бажаради.

Молия марказининг маъмурияти Ижрочи директорга эга бўлади ва у Молия марказининг маъмурияти тўғрисидаги низомга ҳамда ички ҳужжатларга мувофиқ фаолият юритади.

Молия марказининг маъмурияти ушбу Конституциявий Қонунда ва Молия марказининг қарорларида белгиланган функциялардан ташқари, қуйидаги вазифаларни бажаради ва ваколатларни амалга оширади:

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия марказининг мақсадларига эришиш учун Молия марказининг стратегиясини, умумий сиёсатини ва режаларини тайёрлашда ҳамда амалга оширишда иштирок этиш;

Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларига Молия марказининг органлари ва Молия марказининг иштирокчилари томонидан риоя этилишини назорат килиш;

Молия марказининг фаолиятига тааллуқли масалалар бўйича Ўзбекистон Республикасининг давлат органлари билан ўзаро алоқаларни Молия марказининг бошқарувчиси ва Молия марказининг тегишли органи билан мувофиқлаштирган ҳолда амалга ошириш;

Молия марказининг инфратузилмасини барпо этиш ва унинг ишлашини, бошқарилишини ҳамда унга техник хизмат кўрсатилишини назорат қилиш, Молия марказида маъмурий ҳамда техник хизматлар кўрсатиш, Молия марказининг мақсадларига эришиш самарадорлигини ва натижадорлигини таъминлаш учун зарур бўлган бошқа хизматларни кўрсатиш ва талабларни бажариш;

кадрлар салоҳиятини ривожлантириш мақсадида халқаро илмий ва таълим ташкилотлари билан ҳамкорликда академияни ёки бошқа муассасани ташкил этиш, ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш.

Молия марказининг маъмурияти ўз функцияларини амалга оширишда ушбу Конституциявий Қонунга, Молия марказининг кенгаши ҳамда Молия марказининг бошқарувчиси томонидан бериладиган стратегик, сиёсий ва мувофиқлаштирувчи кўрсатмаларга амал қилади.

Молия марказининг маъмурияти ўзининг функцияларини амалга оширишда ўз фаолиятини Молия марказининг барқарор ўсишини таъминлашга, Молия марказининг иштирокчиларига, ходимларига, инвестициявий солиқ резидентларига ва уларнинг оила аъзоларига самарали хизмат кўрсатишга, шунингдек Молия марказининг инвесторлар учун қулай бўлган жаҳон даражасидаги молия маркази сифатидаги обрўсини мустаҳкамлашга йўналтиради.

Молия маркази маъмуриятининг фаолияти Ўзбекистон Республикасининг бюджет тўғрисидаги қонунчилигига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари, Молия марказининг иштирокчилари томонидан тўланадиган йиғимлар ва тўловлар ҳисобидан, шунингдек ушбу Конституциявий Қонун ёки Молия марказининг қарорлари билан тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан молиялаштирилади.

Молия марказининг маъмурияти ушбу модданинг тўққизинчи қисмига мувофиқ ўз тасарруфида бўлган маблағлар ҳисобидан жамғармалар ташкил этиши мумкин. Бундай жамғармаларни ташкил этиш ҳамда улардан фойдаланиш тартиби ва шартлари Молия марказининг қарорлари билан белгиланади.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Ушбу модданинг тўққизинчи қисмига мувофиқ Молия марказининг маъмуриятига ажратилган Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари, шу жумладан бундай маблағларнинг тежалган қисми узоқ муддатли активларни сотиб олиш, шунингдек Молия маркази органларининг ва улар ташкилотларининг фаолиятини молиялаштириш ҳамда таъминлаш учун ишлатилиши мумкин.

28-модда. Молиявий хизматлар бошқармаси

Молиявий хизматлар бошқармаси Молия марказининг молиявий хизматлар соҳасидаги асосий тартибга солувчи органи ҳисобланади ҳамда у Молия маркази ҳудудида амалга ошириладиган молиявий хизматлар ва қўшимча хизматлар кўрсатиш бўйича фаолиятнинг лицензияланиши, тартибга солиниши, назорат қилиниши ва мажбурлов чоралари қўлланилиши учун масъулдир.

Молиявий хизматлар бошқармаси юридик шахс ҳисобланади ва у ўз функцияларини бажариш учун зарур бўлган молиявий, маъмурий мустақилликка ҳамда иш юритиш борасидаги мустақилликка эга бўлади.

Молиявий хизматлар бошқармаси ўзининг тартибга солиш, назорат қилиш функцияларини ва кундалик фаолиятини амалга оширишда мустақил равишда ҳаракат қилади ҳамда унга ушбу Конституциявий Қонунда тўғридан-тўғри назарда тутилган ҳоллардан ташқари бошқа кўрсатмалар берилишига, шунингдек унинг фаолиятига аралашишга йўл қўйилмайди.

Молиявий хизматлар бошқармасининг ваколатлари жумласига ушбу Конституциявий Қонунга мувофиқ молиявий хизматлар соҳасидаги бажарилиши мажбурий бўлган қарорларни ишлаб чиқиш, қабул қилиш, қўллаш ва уларнинг ижросини назорат қилиш киради.

Ушбу модданинг тўртинчи қисмида назарда тутилган умумий ваколатлар чекланмаган ҳолда, Молиявий хизматлар бошқармасининг вазифалари ва ваколатлари Молиявий хизматлар бошқармаси томонидан қабул қилинадиган, қуйидаги масалаларга тааллуқли Молия маркази қарорларини ишлаб чиқиш, қўллаш, назорат қилиш ҳамда уларнинг ижросини таъминлашни ўз ичига олади:

молиявий хизматларни ва тартибга солинадиган қўшимча хизматларни амалга ошириш учун рухсат бериш, лицензиялаш, рўйхатдан ўтказиш ҳамда назорат қилиш;

пруденциал тартибга солиш, шу жумладан капиталнинг етарлилиги, ликвидлилик, левераж, йирик таваккалчиликлар, тиклаш ва ҳал этишни режалаштириш ҳамда молиявий барқарорлик;

корпоратив бошқарув, тизимлар ва назорат механизмлари, хатарларни бошқариш, ички аудит, комплаенс, шунингдек назорат қилувчи шахсларнинг, директорларнинг, юқори турувчи раҳбарларнинг ва ўзига ваколат берилган шахсларнинг ишчанлик обрўси, малакаси ва мақбуллиги;

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

бизнесни юритиш қоидалари, мижозларни таснифлаш, хизматлар ва маҳсулотларнинг мижозга мослигини баҳолаш, ахборотни ошкор этиш, молиявий хизматларни ва маҳсулотларни тарғиб қилиш, бозордаги хулқ-атвор ҳамда инвесторларни ҳимоя қилиш;

мижозларнинг пул маблағларини ва активларини сақлаш, ҳимоя қилиш, алоҳида ҳисобга олиш, солиштириш ҳамда маъмурий жиҳатдан юритиш;

жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш, санкцияларга риоя этиш ҳамда молиявий жиноятларнинг олдини олиш;

рақамли активлар, молиявий технологиялар, шу жумладан тартибга солиш технологиялари ва суғурта технологиялари, тўлов хизматлари, электрон тижорат ҳамда бошқа инновацион молиявий фаолият;

бозорда суиистеъмол қилиш, инсайдерлик битимлари, бозорни манипуляция қилишга қарши курашиш ва ахборотни ошкор этиш мажбуриятлари;

молиявий бозор инфратузилмаси, шу жумладан биржалар, клиринг ташкилотлари, марказий депозитарийлар, савдо платформалари ва ҳисоб-китоб тизимлари;

тартибга солиш ҳисоботлари, бухгалтерия ҳисоби, аудит, ҳужжатларни ва ёзувларни юритиш ҳамда ахборот тақдим этиш;

текширувлар, терговлар, мажбурий тартибда ахборот талаб қилиб олиш, махсус билим ва малакага эга шахслар томонидан ўрганишлар ўтказиш ҳамда назорат ташрифлари;

маъмурий мажбурлов чоралари, шу жумладан кўрсатмалар бериш, чекловлар қўйиш, жарималар қўллаш, жамоатчиликка эълон қилинадиган танбеҳ бериш, етказилган зарарнинг ўрнини қоплаш, ҳуқуқбузарлик натижасида асоссиз равишда олинган фойдани қайтариш, лицензиянинг амал қилишини тўхтатиб туриш ва уни бекор қилиш ҳамда жисмоний шахсларга тартибга солинадиган функцияларни бажаришни тақиқлаш;

Ўзбекистон Республикаси Марказий банки, Ўзбекистон Республикасининг бошқа давлат органлари ҳамда хорижий молиявий хизматлар регуляторлари билан ҳамкорлик қилиш, ахборот алмашиш ва назорат соҳасида мувофиқлаштириш.

Молиявий хизматлар бошқармаси индивидуал лицензиялаш, назорат, мажбурлов чораларини қўллаш, тергов ва Молия марказининг қарорларини қабул қилиш масалалари бўйича фаолиятини амалга оширишда мустақилликка эга бўлади ҳамда фақат ушбу Конституциявий Қонунга ва Молия марказининг қарорларига мувофиқ фаолият юритади.

Молиявий хизматлар бошқармаси молиявий технологиялар, рақамли активлар, тартибга солиш технологиялари, суғурта технологиялари ҳамда бошқа инновацион молиявий хизматлар ва фаолият турлари учун Молиявий хизматлар бошқармасининг қарорларида белгиланадиган шартлар асосида «Тартибга солиш қумдони»ни ёки бошқа назорат остидаги синов муҳитини ташкил этиши, бошқариши ва назорат қилиши мумкин.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молиявий хизматлар бошқармаси ўз функцияларини амалга оширишда ҳуқуқ устуворлигини самарали, шаффоф, изчил, олдиндан кўра билиш ва холис қўллаш орқали инвесторлар ишончини шакллантиришга кўмаклашган ҳолда, Молия марказининг жаҳон даражасида юқори ишончга эга бўлган молия маркази сифатидаги обрўсини ҳимоя қилади ҳамда мустаҳкамлайди.

Молиявий хизматлар бошқармаси фаолиятининг самарадорлиги унинг тартибга солиш жараёнлари холислиги, олдиндан кўра билиш ва адолатлилик мезонлари бўйича баҳоланади.

Молиявий хизматлар бошқармасининг ички бошқаруви ушбу Конституциявий Қонунга ҳамда Молиявий хизматлар бошқармаси тўғрисидаги низомга ва ички ҳужжатларга мувофиқ амалга оширилади. Молиявий хизматлар бошқармаси яккабошчилик асосида ёки коллегиал ижро органининг раиси сифатида фаолият юритадиган Ижрочи директорга эга бўлади ва у Молиявий хизматлар бошқармаси тўғрисидаги низомга ҳамда ички ҳужжатларга мувофиқ фаолият юритади.

Молиявий хизматлар бошқармасининг ижрочи директори, коллегиал ижро органининг аъзолари профессионал салоҳият ва муносиблик мезони асосида қайта тайинланиш ҳуқуқи билан беш йил муддатга тайинланади ҳамда ўз лавозимидан фақат асосли сабаблар мавжуд бўлган тақдирда озод этилиши мумкин. Бунда лавозимдан озод этиш сабаблари қўлланилиши мумкин бўлган конфиденциаллик талаблари ҳисобга олинган ҳолда Молиявий хизматлар бошқармасининг қарорларига мувофиқ эълон қилинади.

Молиявий хизматлар бошқармасининг фаолияти Ўзбекистон Республикасининг бюджет тўғрисидаги қонунчилигига мувофиқ Молия марказининг маъмурияти орқали йўналтириладиган Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари, шунингдек Молия марказининг иштирокчилари томонидан тўланадиган йиғимлар ва тўловлар ҳисобидан молиялаштирилади.

Ушбу модданинг ўн иккинчи қисмига мувофиқ Молиявий хизматлар бошқармасининг фаолияти учун ажратилган Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағларидан фақат Молиявий хизматлар бошқармасининг фаолиятини молиялаштириш учун фойдаланилади.

Молия марказида ҳамда Ўзбекистон Республикасининг бошқа ҳудудларида Молия маркази иштирокчисининг тартибга солинадиган корхоналари ёки филиаллари мавжуд бўлган тақдирда, Молиявий хизматлар бошқармаси ва Ўзбекистон Республикаси Марказий банки консолидациялашган назорат, ахборот алмашиш масалалари ҳамда Молия марказининг ушбу Конституциявий Қонун 17-моддасининг бешинчи қисмига мувофиқ қабул қилинган қарорлари билан белгиланадиган бошқа пруденциал чораларни ҳамкорликда амалга оширади.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

29-модда. Тошкент халқаро тижорат суди

Тошкент халқаро тижорат суди Молия марказининг суд органи ҳисобланади ва у мутлақ суд ҳокимиятини мустақил равишда, ушбу Конституциявий Қонунга мувофиқ амалга оширади.

Тошкент халқаро тижорат суди ўз функцияларини бажариш учун зарур бўлган молиявий, маъмурий мустақилликка ва иш юритиш борасидаги мустақилликка эга бўлади. Тошкент халқаро тижорат судининг судьялари судлов функцияларини мустақил равишда амалга оширади.

Тошкент халқаро тижорат суди ўз юрисдикциясига кирувчи низоларни суд тартибида ҳал этиш ва суд маъмуриятчилиги бўйича мутлақ ваколатларга эга бўлади.

Тошкент халқаро тижорат суди ўз ваколатларини амалга оширишда мустақил ва холис фаолият юритади ҳамда унга кўрсатмалар берилишига ёки унинг фаолиятига ҳар қандай тарзда аралашишга йўл қўйилмайди.

Тошкент халқаро тижорат суди ўз ваколатларини амалга оширишда ўзига мурожаат қилган барча шахсларнинг ҳуқуқларини, эркинликларини ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилади ҳамда Молия марказида ва Рақамли технологиялар халқаро марказида қўлланиладиган ҳуқуқнинг лозим даражада талқин қилинишини, тушунилишини ва қўлланилишини таъминлайди.

Тошкент халқаро тижорат суди одил судловни самарали, шаффоф, изчил ва холис амалга ошириш орқали Молия марказининг ва Рақамли технологиялар халқаро марказининг жаҳон даражасида юқори ишончга эга бўлган махсус марказ сифатидаги обрўсини намоён этишга ҳамда мустаҳкамлашга кўмаклашади. Тошкент халқаро тижорат суди фаолиятининг самарадорлиги унинг суд жараёнлари ва қарорларининг холислиги, олдиндан кўра билиш, натижадорлик ва адолатлилик мезонлари бўйича баҳоланади.

Тошкент халқаро тижорат судини ташкил этиш, унинг ички маъмуриятчилиги ҳамда одил судловга оид бўлмаган суд бошқаруви ушбу Конституциявий Қонунга ва Молия марказининг қарорларига мувофиқ амалга оширилади. Бундай бошқарув механизмлари судьяларнинг одил судловни амалга оширишдаги мустақиллигига зарар етказмаслиги лозим. Ҳеч қандай бошқарув тартиби Тошкент халқаро тижорат суди судьяларининг суд қарорларига нисбатан кўрсатма берилишини ёки улар юзасидан ҳисобдорлик белгиланишини назарда тутиши мумкин эмас.

Тошкент халқаро тижорат суди жиноят ишларини ҳамда маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни кўриб чиқмайди. Ушбу қоида ўз моҳиятига кўра тижорат низоси, иқтисодий, фуқаролик-ҳуқуқий низо, Молия маркази органи талабларининг бузилиши, молия бозоридаги ножўя хатти-ҳаракат деб ҳисобланган ҳамда ушбу Конституциявий Қонун ёки Молия марказининг қарорлари доирасида ҳал қилиниши мумкин бўлган ишлар юзасидан Молия маркази юрисдикцияси доирасида таъсир чораларини қўллашга нисбатан татбиқ этилмайди.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Тошкент халқаро тижорат суди икки инстанциядан иборат:

биринчи инстанция суди;

апелляция суди.

Тошкент халқаро тижорат судига Бош судья раҳбарлик қилади. Бош судья Молия маркази кенгашининг тақдимномасига биноан Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан тайинланади.

Тошкент халқаро тижорат судининг судьялари Бош судьянинг судьяларнинг зарур сони кўрсатилган тақдимномасига биноан Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан тайинланади. Ҳар қандай давлат фуқароси Тошкент халқаро тижорат судининг судьяси бўлиши мумкин. Улар Ўзбекистон Республикасининг қонунчилигига мувофиқ судьялар учун белгиланган, ушбу Конституциявий Қонунга мувофиқ бўлган ва унга зид бўлмаган даражадаги суд мустақиллигидан, кафолатлардан, дахлсизликдан, имтиёзлардан ва хизмат шарт-шароитларидан фойдаланади.

Тошкент халқаро тижорат суди судьяларининг меҳнатига ҳақ тўлаш миқдори ва хизмат ўташнинг бошқа шартлари Бош судья томонидан киритилган таклиф асосида Молия маркази кенгашининг қарори билан белгиланади.

Бош судья Тошкент халқаро тижорат суди котибини тайинлайди. Котиб Тошкент халқаро тижорат судининг маъмурий ва жорий бошқаруви учун масъулдир ҳамда у ўз функцияларини ушбу Конституциявий Қонунга ва Молия марказининг қарорларига мувофиқ, Бош судьянинг раҳбарлиги ҳамда назорати остида бажаради.

Тошкент халқаро тижорат судининг таркибини, унинг ихтисослашган бўлинмаларини тузиш, судьяларни ва суд аппарати ходимларини тайинлаш, уларнинг ваколатлари муддати ҳамда уларни лавозимидан озод қилиш тартиби, малака талаблари, шунингдек Тошкент халқаро тижорат суди фаолиятини ташкил этишнинг умумий асослари Молия марказининг қарорлари билан белгиланади.

Бош судья Молия марказининг кенгаши ёки Молия марказининг бошқа органи томонидан қўшимча тасдиқланиши талаб қилинмаган ҳолда, Тошкент халқаро тижорат судида ишларни кўриш амалиётига, тартибига, маъмуриятчилигига, ишларни бошқариш ҳамда суд иш юритувига доир суд қоидаларини, процессуал қоидаларни, амалиёт кўрсатмаларини, суд реестри кўрсатмаларини, шаклларни, протоколларни, қўлланмаларни ва бошқа ҳужжатларни жорий этиш, қабул қилиш, уларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, уларни янги таҳрирда қабул қилиш ҳамда бекор қилиш бўйича тўлиқ ваколатга эга бўлади.

Тошкент халқаро тижорат суди ижрони таъминлашга доир ажримларни чиқариш, мол-мулкни хатлаш, пул маблағлари ёки бошқа мол-мулк билан боғлиқ операцияларни вақтинча тўхтатиб туриш, мол-мулкка нисбатан ундирувни таъминлаш, мол-мулкни вақтинча сақлаш, вақтинчалик тақиқловчи ёки мажбурловчи кўрсатмалар бериш, қидирув ўтказиш, ахборотни ва ҳужжатларни тақдим этишни ёки ошкор

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

қилишни талаб этиш, шунингдек Молия марказининг қарорларида ёки Рақамли технологиялар халқаро марказининг қарорларида, қоидаларида ёхуд таъсис ҳужжатларида (бундан буён матнда Рақамли технологиялар халқаро марказининг қарорлари деб юритилади) назарда тутилган бошқа вақтинчалик чораларни, ҳимоя ёки ижрони таъминлаш чораларини қўллаш ваколатига эга бўлади.

Тошкент халқаро тижорат суди ижро ишларини, суд топшириқларини бажариш, далилларни олиш, вақтинчалик чораларни қўллаш, тўловга қобилиятсизликка оид ишларни ҳамда трансчегаравий низоларни ҳал этиш масалалари бўйича Молия марказининг қарорларига, қўлланиладиган ҳуқуқ нормаларига ва Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси судлари ҳамда хорижий давлатлар судлари билан ҳамкорлик қилиши мумкин.

Тошкент халқаро тижорат судининг судьялари доимий судьялар, муайян иш бўйича тайинланадиган (ad hoc) судьялар, ихтисослашган судьялар, истеъфодаги хорижий судьялар, халқаро тижорат судьялари, суд котиблари (регистраторлар) ҳамда халқаро тижорат ҳуқуқи, молия, банк иши, капитал бозорлари, арбитраж, тўловга қобилиятсизлик, реструктуризация, технологиялар, рақамли активлар, сунъий интеллект, халқаро низоларни ҳал этиш соҳаларида ёки Молия маркази ва Рақамли технологиялар халқаро маркази учун аҳамиятли бўлган бошқа соҳаларда ўз малакаси ва тажрибаси билан танилган ҳуқуқий экспертлар орасидан шакллантирилиши мумкин. Муайян иш бўйича тайинланадиган (ad hoc) судьялар ва ихтисослашган судьялар махсус билим ва тажрибани талаб этадиган муайян тоифадаги ишлар, низолар учун ёки суд ишини юритиш учун тайинланиши ёки жалб этилиши мумкин.

Судьялар, муайян иш бўйича тайинланадиган (ad hoc) судьялар, ихтисослашган судьялар ва суд регистраторларига нисбатан қўйиладиган малака талаблари, уларни тайинлаш тартиби, ваколатлари муддати, одоб-ахлоқи, интизомий жавобгарлиги ва меҳнатига ҳақ тўлаш масалалари Молия марказининг қарорлари билан белгиланади.

Тошкент халқаро тижорат суди қуйидаги тоифадаги низолар бўйича мутлақ юрисдикцияга эга:

Молия маркази шахсларининг ўзаро ва (ёки) орасидаги фуқаролик низолари ва меҳнатга оид низолар;

Молия маркази ҳудудида амалга ошириладиган ёки Молия марказининг қарори билан тартибга солинадиган фаолиятга, содир этилган деликтлар ёки бошқа ҳуқуққа хилоф хатти-ҳаракатларга, шунингдек Молия маркази ҳудудида жойлашган ёки Молия марказининг қарорлари билан тартибга солинадиган мол-мулкка оид низолар;

Молия маркази иштирокчиларининг ҳамда Молия маркази ҳудудида яшовчи жисмоний шахсларнинг тўловга қобилиятсизлиги ва банкротлиги тўғрисидаги ишлар;

тарафларнинг келишувига биноан Тошкент халқаро тижорат суди юрисдикциясига ўтказилган низолар;

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

ҳар қандай халқаро арбитраждан келиб чиқадиган ёки у билан боғлиқ масалалар, шу жумладан вақтинчалик чораларни ёки даъвони таъминлаш чораларини қўллашга, арбитрларни тайинлашга, арбитрларга раддия билдиришга, юрисдикцияга оид масалаларни ҳал этишга, процессуал кўмак кўрсатишга, арбитраж қарорларини бекор қилишга, тан олишга ва ижро этишга доир аризалар, агар арбитраж жойи Молия маркази этиб белгиланган бўлса ёхуд арбитраж Тошкент халқаро арбитраж маркази томонидан юритилса ва тарафлар Тошкент халқаро тижорат суди арбитраж бўйича назорат суди сифатида иш юритишига келишган бўлса ёки тарафлар бошқача тарзда Тошкент халқаро тижорат судининг мазкур арбитражга нисбатан юрисдикциясини танлаган бўлса ёхуд Тошкент халқаро тижорат судининг юрисдикцияси ушбу Конституциявий Қонун, Молия марказининг қарорлари ёки Ўзбекистон Республикасининг бошқа қонунчилик ҳужжатлари билан белгиланган бўлса;

Молия маркази органларининг қарорларидан, ҳаракатларидан ёки ҳаракатсизлигидан келиб чиқадиган аризалар, шикоятлар ёки низолар, шу жумладан ушбу Конституциявий Қонунга ёки Молия марказининг қарорларига мувофиқ қабул қилинган тартибга солишга, лицензиялашга, назоратга, интизомий, мажбурлов чораларини қўллашга ёки маъмурий қарорларга оид низолар;

Рақамли технологиялар халқаро марказининг қарорлари ёки Ўзбекистон Республикасининг бошқа ихтисослашган марказининг қарорларидан, қоидаларидан ёхуд таъсис ҳужжатларидан келиб чиқадиган низолар, башарти бундай низолар мазкур марказни ташкил этишга ёки унинг фаолиятини тартибга солишга доир қонун ёки бошқа ҳуқуқий ҳужжат билан Тошкент халқаро тижорат суди ваколатига бевосита киритилган бўлса;

ушбу Конституциявий Қонун, Молия марказининг қарорлари, Рақамли технологиялар халқаро марказининг қарорлари, Ўзбекистон Республикасининг бошқа қонунчилик ҳужжатлари ёки Ўзбекистон Республикаси Президентининг ҳужжати билан Тошкент халқаро тижорат судининг ваколатига бевосита киритилган бошқа фуқаролик ёки тижорат низолари, башарти бундай ваколат Тошкент халқаро тижорат судининг халқаро тижорат суди сифатидаги табиатига ва функцияларига мувофиқ бўлса ҳамда Ўзбекистон Республикасининг қонунчилиги бўйича одатдаги маъмурий-ҳуқуқий низолар юзасидан умумий юрисдикция берилишини англатмаса.

Тошкент халқаро тижорат суди қуйидаги барча шахсларга нисбатан шахсий юрисдикцияга эга:

Молия марказининг қарорлари ёки Рақамли технологиялар халқаро марказининг қарорлари билан тартибга солинадиган битимларни тузувчи шахсларга;

муайян битимга ёки низога нисбатан Тошкент халқаро тижорат суди юрисдикциясини қабул қилишга розилик билдирган шахсларга.

Тошкент халқаро тижорат суди қайси давлатда ёки юрисдикцияда чиқарилганлигидан қатъи назар, ҳар қандай халқаро арбитраж доирасида

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

қабул қилинган арбитраж қарорини тан олиш ва ижрога қаратиш тўғрисида қарорлар чиқариш ваколатига эга. Агар Ўзбекистон Республикаси суд қарорларини, суд буйруқларини ёки арбитраж қарорларини ўзаро ижрога қаратишни назарда тутувчи халқаро шартнома тузган бўлса, Тошкент халқаро тижорат суди бундай шартнома қоидаларига риоя этади.

Тошкент халқаро тижорат суди апелляция судининг юрисдикция масалалари ҳамда ишнинг мазмуни бўйича қарорлари узил-кесил ва мажбурий бўлиб, улар устидан кейинчалик шикоят қилинмайди.

Тошкент халқаро тижорат судининг ҳал қилув қарорлари, ажримлари ва қарорлари Ўзбекистон Республикаси номидан чиқарилади. Тошкент халқаро тижорат судининг якуний ҳал қилув қарорлари, ажримлари ва қарорлари Ўзбекистон Республикасининг бутун ҳудудида тан олинади ҳамда ижрога қаратилади. Агар Тошкент халқаро тижорат судининг ҳал қилув қарорлари, ажримлари ва қарорлари Молия марказида ёки Рақамли технологиялар халқаро марказида ижрога қаратилиши талаб этилса, ижрога қаратиш Тошкент халқаро тижорат суди томонидан амалга оширилади. Ижрога қаратиш Молия маркази ҳудудидан ёки Рақамли технологиялар халқаро маркази ҳудудидан ташқарида амалга ошириш талаб этилган тақдирда эса Тошкент халқаро тижорат судининг ҳал қилув қарорлари, ажримлари ва қарорлари Ўзбекистон Республикаси бошқа судларининг қонуний кучга кирган ва ижрога қаратилиши лозим бўлган суд ҳужжатлари билан бир хил тартибда ҳамда бир хил шартлар асосида Ўзбекистон Республикасининг ваколатли ижро органлари томонидан ижро этилади.

Ўзбекистон Республикаси судларининг қонуний кучга кирган ва ижрога қаратилиши лозим бўлган суд ҳужжатлари Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ Молия маркази ҳудудида тан олинади ҳамда тегишли ҳолларда ижрога қаратилади, бундан бундай суд ҳужжатларини тан олиш ёки ижрога қаратиш ушбу Конституциявий Қонунга ёки Молия марказининг қарорларига зид бўлган ҳоллар мустасно.

Тошкент халқаро тижорат суди Молия марказининг қарорларини ва Рақамли технологиялар халқаро марказининг қарорларини шарҳлаш ва талқин қилиш, шу жумладан унинг қўлланилиш, амал қилиш доирасини ва ҳуқуқий оқибатларини аниқлаш масалалари бўйича мутлақ юрисдикцияга эга. Мазкур қисм Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг конституциявий ваколатлари доирасига кирадиган масалалар бўйича юрисдикциясини чекламайди.

Тошкент халқаро тижорат суди Ўзбекистон Республикасининг бюджет тўғрисидаги қонунчилигига мувофиқ, Бош судьянинг асослантирилган талабига кўра, Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан тасдиқланган миқдорда бевосита Тошкент халқаро тижорат судига ажратиладиган Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан, шунингдек ушбу Конституциявий Қонун ёки Молия марказининг қарорлари билан тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан молиялаштирилади.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Ушбу модданинг йигирма еттинчи қисмига мувофиқ Тошкент халқаро тижорат судининг фаолиятини молиялаштириш мақсадлари учун ажратилган Давлат бюджети маблағларидан фақат Тошкент халқаро тижорат судининг фаолиятини таъминлаш учун фойдаланилади.

Тошкент халқаро тижорат судининг барча қарорлари унинг расмий веб-сайтида ҳамма эркин танишиши учун эълон қилинади. Қарорлар қабул қилинганидан кейин ўттиз кун ичида эълон қилиниши керак. Тижорат сирини ташкил этувчи маълумотлар фақат тарафнинг аризасига биноан ва Тошкент халқаро тижорат судининг рухсати билан, ҳақиқатан ҳам конфиденциал бўлган тижорат маълумотларини ҳимоя қилиш учун зарур бўлган энг кам даражада таҳрир қилиниши мумкин. Бундай таҳрир қилиш суд қарорининг ҳуқуқий асослантиришларига, қонуннинг қўлланилиш асосларига ёки хулоса қисмига нисбатан татбиқ этилмайди. Бундай аризаларни кўриб чиқиш тартиби ва мезонлари Тошкент халқаро тижорат судининг қарорлари ҳамда Бош судьянинг кўрсатмалари билан белгиланади.

Тошкент халқаро тижорат суди Молия маркази иштирокчиларининг, ходимларининг, инвестициявий солиқ резидентларининг ҳамда улар оила аъзоларининг, шунингдек Рақамли технологиялар халқаро марказининг қарорларида белгиланган ҳолларда Рақамли технологиялар халқаро маркази билан боғлиқ жисмоний шахсларнинг васиятномаларини тасдиқлаш учун васиятномалар ва ворислик реестрини юритади. Бундай васиятномалар Молия марказининг қарорларига ва тегишли ҳолларда Рақамли технологиялар халқаро марказининг қарорларига мувофиқ ижро этилади ва Тошкент халқаро тижорат суди томонидан амалга киритилади. Ушбу қисмга мувофиқ васиятномаларни рўйхатдан ўтказиш, ўзгартириш ва ижро этиш тартиби, уларни расмийлаштириш талаблари ҳамда бундай васиятномаларнинг Ўзбекистон Республикасининг ворислик ҳуқуқи билан ўзаро муносабати Тошкент халқаро тижорат судининг қарорлари билан белгиланади.

30-модда. Молия марказидаги тил режими

Инглиз тили Молия марказининг расмий тили ҳисобланади. Агар ушбу моддада бошқача қоида назарда тутилмаган бўлса, инглиз тили ушбу Конституциявий Қонун ва Молия марказининг қарорлари билан тартибга солинадиган барча масалалар бўйича ва Молия марказининг ҳудудида амалга ошириладиган барча расмий фаолиятда қўлланилади.

Молия марказининг қарорлари инглиз тилида ишлаб чиқилади, қабул қилинади ва эълон қилинади. Молия маркази қарорларининг ўзбек тилидаги ёки бошқа тиллардаги расмий таржималари Молия маркази томонидан тайёрланиши мумкин.

Молия маркази қарорининг инглиз тилидаги матни ва унинг расмий таржимаси ўртасида ҳар қандай тафовут, ноаниқлик ёки номувофиқлик юзага келган тақдирда, инглиз тилидаги матн устуворликка эга бўлади.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия марказининг органларига топшириладиган ёки Молия маркази ҳудудида ўзгача тарзда тақдим этиладиган статистик, молиявий, техник ва бошқа ҳужжатлар, агар Молия марказида қўлланиладиган ҳуқуқ ёки Молия марказининг қарорлари билан бошқача ҳолатга тўғридан-тўғри рухсат этилмаган бўлса, инглиз тилида тузилади.

Молия маркази органларининг жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларига жавоблари, шу жумладан уларга илова қилинадиган ҳар қандай ҳужжатлар инглиз тилида тақдим этилади. Агар мурожаат ўзбек тилида ёки бошқа тилда берилган бўлса, жавоб ўша тилда тақдим этилиши мумкин.

Тошкент халқаро тижорат судида суд ишларини юритиш инглиз тилида олиб борилади. Тарафнинг илтимосномасига кўра, қўлланиладиган процессуал қоидаларга мувофиқ ўзбек тилидаги ёки бошқа тиллардаги таржималар тақдим этилади.

Молия марказида амалга ошириладиган ва ёзма шаклда расмийлаштириладиган битимлар, агар тарафлар томонидан бошқача тарзда келишилмаган бўлса, инглиз тилида тузилади. Бир нечта тилдаги матнлар мавжуд бўлган тақдирда, агар тарафлар томонидан тўғридан-тўғри бошқача тарзда келишилмаган бўлса ва бундай келишувга Молия марказининг қарори йўл қўйса, матнларнинг инглиз тилидаги нусхаси устуворликка эга бўлади.

Ўзбекистон Республикасида тан олиш ва ижрога қаратиш мақсадлари учун Молия марказида чиқарилган суд қарорининг ёки арбитраж қарорининг ўзбек тилидаги ёки бошқа тилдаги таржимаси Молия марказининг қарорларида белгиланган тартибда тақдим этилади.

31-модда. Ўтиш қоидалари ва Молия марказини фаоллаштириш

Молия марказининг органлари ушбу Конституциявий Қонун кучга кирган кундан эътиборан ўн икки ойдан кечиктирмай, Молия марказининг ушбу Конституциявий Қонунда тўғридан-тўғри белгиланган ва Молия марказининг самарали ташкил этилиши ҳамда фаолият юритиши учун зарур бўлган қарорларини тайёрлайди ва қабул қилади ҳамда мазкур ишларни амалга ошириш учун барча зарур чораларни кўради. Молия марказининг кенгаши ушбу муддатни асослантирилган қарор билан олти ойгача узайтириши мумкин.

Ушбу модда биринчи қисмининг мақсадлари учун Молия марказининг кенгаши ўз қарори билан Молия марказининг фаолиятини бошлаш учун зарур деб эътироф этиладиган Молия маркази қарорлари рўйхатини белгилайди. Бундай қарорлар жумласига Молия марказини бошқариш, тартибга солиш, суд фаолиятини амалга ошириш ёки унинг кундалик фаолият юритиши учун муҳим бўлган масалаларни тартибга солувчи Молия маркази қарорлари киради.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия марказининг ушбу модда биринчи қисмида кўрсатилган қарорлари қабул қилинганидан кейин Молия марказининг кенгаши Молия марказининг жорий тайёргарлигини баҳолайди ва унинг фаолият юритиши учун зарур бўлган ҳуқуқий, институционал ва ташкилий асослар яратилганлигига ишонч ҳосил қилган тақдирда, Молия марказини фаолиятни бошлашга тайёр деб топиш тўғрисида қарор қабул қилади.

Молия маркази кенгашининг Молия марказини фаолиятни бошлашга тайёр деб топиш тўғрисидаги қарори тасдиқлаш учун Ўзбекистон Республикаси Президентига тақдим этилади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан Молия марказини фаолиятни бошлашга тайёр деб топиш тўғрисидаги қарор тасдиқланганидан кейин, ушбу қарорда кўрсатилган санадан эътиборан Молия маркази фаоллаштирилган деб ҳисобланади ва бу сана тасдиқлаш санасидан эътиборан бир ойдан кеч бўлмаслиги керак.

Фаоллаштириш санасидан эътиборан Молия маркази ўзининг ҳуқуқий режимини, ваколатларини, жавобгарлигини ҳамда функцияларини ушбу Конституциявий Қонунга ва Молия марказининг қарорларига мувофиқ қабул қилиб олади ҳамда ўз фаолиятини бошлайди.

32-модда. Ўтиш даврида лицензияларни тан олиш ва молиявий хизматлар кўрсатишга вақтинча рухсат бериш

Мазкур модда Молия марказининг фаоллаштириш санасидан эътиборан тегишли молиявий хизматларнинг лицензияланишини ва тартибга солинишини белгиловчи қарорлари қабул қилиниб, то кучга кирадиган санагача бўлган даврда (бундан буён матнда ўтиш даври деб юритилади) амал қилади.

Фаоллаштириш санасида Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи томонидан берилган ҳамда бир ёки бир нечта молиявий хизматни кўрсатиш ҳуқуқини берувчи амалдаги лицензияга (бундан буён матнда миллий лицензия деб юритилади) эга бўлган юридик шахс ўз миллий лицензиясида аниқ назарда тутилган молиявий хизматларни Молия марказининг ҳудудида қўшимча ариза ёки тасдиқ талаб қилинмаган ҳолда кўрсатиш ҳуқуқига эга бўлади. Бунда миллий лицензияга эга бўлган шахс қуйидаги шартларга риоя этиши керак:

юридик шахс фаоллаштириш санасидан эътиборан олтмиш кун ичида ўтиш даврида рухсат этилган иштирокчи сифатида ўзининг алоҳида шуъба компаниясини ёки филиалини Молия марказининг органида рўйхатдан ўтказади;

юридик шахс ўз миллий лицензияси шартларига ҳамда ушбу лицензия асосида ўзига нисбатан қўлланиладиган Ўзбекистон Республикаси қонунларига ва қонуности ҳужжатларига мувофиқ молиявий хизматлар кўрсатади, бунда қонунлар ва қонуности ҳужжатлари ушбу Конституциявий Қонунга ёки Молия марказининг ҳужжатларига зид бўлмаган қисми бўйича қўлланилади;

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

агар миллий лицензия асосида юридик шахсга нисбатан қўлланиладиган Ўзбекистон Республикаси қонунларининг ва қонуности ҳужжатларининг бирор қоидаси ушбу Конституциявий Қонунга ва (ёки) Молия марказининг қарорларига зид бўлса, зиддият мавжуд бўлган қисмида ушбу Конституциявий Қонун ва (ёки) Молия марказининг қарори устувор равишда қўлланилади ва юридик шахс мазкур масала бўйича ушбу Конституциявий Қонунга ҳамда Молия марказининг қарорига риоя этиши шарт;

юридик шахс ўз миллий лицензияси талабларига ҳамда ушбу лицензияни берган Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи томонидан белгиланган шартларга амал қилишда давом этади.

Агар Молиявий хизматлар бошқармаси миллий лицензия эгасига берилган ўтиш давридаги лицензия Молия марказининг ишончлилигига, обрўсига, молиявий барқарорлигига, лозим даражада фаолият юритишига ёки тартибга солиш мақсадларига хавф туғдириши мумкин деб ҳисобласа, ушбу бошқарма ўзининг қарорларида белгиланган муддатда бундай лицензияга нисбатан эътироз билдиришга, уни чеклашга, тўхтатиб туришга ёки унга нисбатан шартлар қўйишга ҳақли.

33-модда. Хорижий лицензияга эга бўлган юридик шахслар учун ихтиёрий ўтиш даври лицензияси

Молия марказининг кенгаши ўтиш даврида тан олиниши мумкин бўлган хорижий юрисдикцияларнинг, регуляторларнинг ёки лицензияларнинг тоифаларини тасдиқлаши мумкин. Молиявий хизматлар бошқармаси ўтиш даври лицензияларини бериш бўйича индивидуал аризаларни ушбу моддага ва Молиявий хизматлар бошқармасининг қарорларига мувофиқ кўриб чиқади ҳамда улар юзасидан қарор қабул қилади.

Ушбу моддага мувофиқ ўтиш даври лицензияси фақат Молия марказининг маъмурияти тегишли чет давлат юрисдикциясининг ваколатли тартибга солувчи органи билан ўзаро англашув меморандумини ёки бошқа расмий назорат соҳасидаги ҳамкорлик келишувини тузган ва бундай меморандум ёки келишув рухсат бериш вақтида амалда бўлган ҳолларда, чет давлат юрисдикциясининг ваколатли тартибга солувчи органи томонидан берилган амалдаги лицензияга (бундан буён матнда хорижий лицензия деб юритилади) эга бўлган юридик шахсга берилиши мумкин.

Агар Молия марказининг маъмурияти ўзаро англашув меморандумини тузиш мақсадида ваколатли орган билан фаол музокаралар олиб бораётган бўлса, Молия марказининг кенгаши ваколатли орган томонидан лицензияланган юридик шахсга олти ойдан ошмайдиган муддатга вақтинчалик ўтиш даври лицензиясини ўз ихтиёрига кўра бериши мумкин. Бунда хорижий лицензияга эга бўлган юридик шахс қуйидаги шартларни бажариши керак:

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Молия марказининг кенгаши ўзаро англашув меморандумининг эҳтимолий контрагент ваколатли органининг ушбу Конституциявий Қонунда назарда тутилган талабларга қиёсланадиган тартибга солиш стандартларини қўллашига ҳамда унинг Молиявий ҳаракатлар бўйича махсус гуруҳ (FATF) стандартларига мувофиқ эканлигига ишонч ҳосил қилган бўлиши;

юридик шахс ўзаро англашув меморандуми билан таъминланиши лозим бўлган ҳимоя чоралари ўрнига Молиявий хизматлар бошқармаси томонидан белгиланиши мумкин бўлган назорат талабларига риоя этиш тўғрисида ёзма мажбурият тақдим этиши;

агар олти ойлик муддат тугагунига қадар ўзаро англашув меморандуми тузилмаган ва кучга кирмаган бўлса, вақтинчалик лицензия автоматик равишда ўз кучини йўқотади, бундан Молия марказининг кенгаши томонидан тўғридан-тўғри лицензиянинг амал қилиши беш ойдан ошмайдиган қўшимча муддатга бир маротаба узайтирилган ҳоллар мустасно.

Тузилган ўзаро англашув меморандуми асосида, ушбу моддага мувофиқ ўтиш даври лицензияси берилган ёки ушбу моддага мувофиқ вақтинчалик лицензия берилган юридик шахс ўз хорижий лицензиясида аниқ назарда тутилган молиявий хизматларни Молия марказининг ҳудудида кўрсатиш ҳуқуқига эга бўлади. Бунда қуйидаги шартларга риоя этилиши керак:

юридик шахс Молия маркази кенгашининг рухсат бериш тўғрисидаги қарорида кўрсатилган муддатда, ҳар қандай ҳолда рухсат берилган санадан эътиборан олтмиш кундан кечиктирмай, Молия марказининг маъмуриятида ўтиш даврида рухсат этилган иштирокчи сифатида рўйхатдан ўтади;

юридик шахс ушбу молиявий хизматларни ўз хорижий лицензияси берилган юрисдикциянинг қонунларига ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатларига мувофиқ кўрсатади, бунда мазкур қонунлар ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ушбу Конституциявий Қонунга ёки Молия марказининг ҳужжатига зид бўлмаган қисми бўйича қўлланилади;

агар чет давлат қонунларининг ёки норматив-ҳуқуқий ҳужжатларининг бирор қоидаси ушбу Конституциявий Қонунга ёки Молия марказининг ҳужжатига зид бўлса, зиддият мавжуд бўлган қисми бўйича ушбу Конституциявий Қонун ёки Молия марказининг ҳужжати устувор ҳисобланади ҳамда юридик шахс уларга риоя этиши шарт;

юридик шахс ўз хорижий лицензияси бўйича лозим даражадаги ҳуқуқий мақомини сақлаб қолади ҳамда ушбу лицензиянинг ҳар қандай тўхтатиб турилиши, ўзгартирилиши, чекланиши ёки бекор қилиниши ҳақида Молия марказининг маъмуриятини дарҳол хабардор қилади;

юридик шахс Молия марказининг ҳудудидаги фаолиятга доир талабларга, шу жумладан жиноий даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

молиялаштиришга қарши курашиш талабларига риоя этиш, истеъмолчиларни ҳимоя қилиш ва бозор тартиб-қоидалари масалаларида, агар бундай масалалар тегишли ўзаро англашув меморандуми шартларига мувофиқ чет давлат юрисдикциясининг назорат органи томонидан етарли даражада қамраб олинмаган бўлса, Молиявий хизматлар бошқармасининг назоратга оид ваколатларига бўйсунади.

Молия марказининг кенгаши ушбу моддага мувофиқ берилган ўтиш даври лицензиясини қуйидаги ҳолларда исталган вақтда ўзгартириши, унинг амал қилишини тўхтатиб туриши ёки бекор қилиши мумкин, агар:

юридик шахснинг хорижий лицензияси ўзгартирилган, чекланган, бекор қилинган ёки унинг амал қилиши тўхтатиб турилган бўлса;

юридик шахс ўз ўтиш даври лицензияси шартларига ёки Молиявий хизматлар бошқармаси томонидан белгиланган талабларга риоя этмаган бўлса;

Молия маркази кенгаши лицензиясининг амал қилиши Молия марказининг яхлитлигига, обрўсига ёки лозим даражада фаолият юритишига хавф туғдиради, деб ҳисобласа;

Молия марказининг тегишли молиявий хизматни лицензиялашни тартибга солувчи ҳужжатлари кучга кирган ва ушбу моддага мувофиқ ўтиш даври тугаган бўлса.

Агар ушбу Конституциявий Қонуннинг 32-моддаси ва ушбу моддаси мақсадларида Ўзбекистон Республикаси қонунларининг ёки қонуности ҳужжатларининг ёхуд чет давлат юрисдикцияси қонунларининг ёки норматив-ҳуқуқий ҳужжатларининг бирор қоидаси ушбу Конституциявий Қонунга зид эканлиги ёки зид эмаслиги тўғрисидаги масала юзага келса:

Молиявий хизматлар бошқармаси молиявий хизматларни тартибга солиш, бозор тартиб-қоидалари бўйича, жиноий даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш, истеъмолчиларни ҳимоя қилиш ёки пруденциал масалаларга тааллуқли ҳар қандай қоида бўйича зиддият мавжудлиги ёки мавжуд эмаслиги тўғрисида мажбурий кучга эга бўлган қарор қабул қилиш ваколатига эга;

Молия марказининг маъмурияти ушбу қисмнинг иккинчи хатбошисида кўрсатилганлардан ташқари ҳар қандай қоида бўйича зиддият мавжудлиги ёки мавжуд эмаслиги тўғрисида мажбурий қарор қабул қилиш ваколатига эга бўлиб, бундай қарор ёзма шаклда, сабаблари кўрсатилган ҳолда қабул қилинади ва манфаатдор юридик шахснинг аризасига кўра фақат Тошкент халқаро тижорат суди томонидан қайта кўриб чиқилиши мумкин.

Молия марказининг кенгаши ўтиш даври мобайнида назорат чораларини ва тартибга солувчи чораларни қўллаш ҳамда ўтиш даврини тугатиш тартибини белгилайди.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

34-модда. Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш

1. 1992 йил 8 декабрда ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида қабул қилинган **Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига** (Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 1 майда қабул қилинган ЎРҚ–837-сонли Конституциявий Қонуни таҳририда) («Халқ сўзи» газетаси, 2023 йил 2 май, 87–88-сонлар) қуйидаги ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин:

1) **15-модданинг иккинчи қисми** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Ўзбекистон Республикаси Конституцияси мамлакатнинг бутун ҳудудида олий юридик кучга эга, тўғридан-тўғри амал қилади ва ягона ҳуқуқий маконнинг асосини ташкил этади. Алоҳида ҳудудларда Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан ягона ҳуқуқий макон доирасида махсус ҳуқуқий режим ўрнатилиши мумкин»;

2) **109-модданинг биринчи қисми**:

24-банди қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«24) Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Хавфсизлик кенгашини тузади ва унга бошчилик қилади, шунингдек Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги маслаҳат-кенгаш органларини ҳамда бошқа органларни шакллантиради»;

қуйидаги мазмундаги **24^1-банд** билан тўлдирилсин:

«24^1) Ўзбекистон Республикаси Президенти ўз ваколатларини амалга оширишни ташкилий, ҳуқуқий, таҳлилий жиҳатдан таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясини шакллантиради ҳамда унинг Раҳбарини тайинлайди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясининг ҳуқуқий мақоми, асосий вазифалари, фаолиятини ташкил этиш тартиби ва ваколатлари қонун билан белгиланади»;

3) **131-модда**:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда фаолияти Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан белгиланадиган ихтисослашган судлар тузилиши мумкин»;

иккинчи қисми учинчи қисм деб ҳисоблансин;

4) **134-модданинг биринчи қисми** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Ўзбекистон Республикаси Олий суди фуқаролик, жиноий, иқтисодий ва маъмурий суд ишларини юритиш соҳасида суд ҳокимиятининг олий органи ҳисобланади, бундан махсус ҳуқуқий режим ўрнатишни назарда тутувчи Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан белгиланадиган ҳоллар мустасно»;

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

5) **151-modданинг учинчи қисми** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Ўзбекистон Республикаси Марказий банки мамлакатда банклар фаолиятини тартибга солишни амалга оширади, банк ва тўлов тизимларининг барқарор фаолият кўрсатишини таъминлайди, бундан Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудуд мустасно».

2. Ўзбекистон Республикасининг 1989 йил 21 октябрда қабул қилинган **«Давлат тили ҳақида»**ги 3561–XI-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикасининг 1995 йил 21 декабрда қабул қилинган 167–I-сонли Қонуни таҳририда) (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 йил, № 12, 257-модда; 2005 йил, № 1, 18-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2010 йил, № 9, 335-модда; 2011 йил, № 10, 274-модда; 2017 йил, № 9, 510-модда; 2020 йил, № 12, 691-модда; 2021 йил, 4-сонга илова) **3-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **учинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача иш юритиш ва расмий ҳужжатларни қабул қилиш тили белгиланиши мумкин»;

учинчи ва **тўртинчи қисмлар** тегишинча **тўртинчи** ва **бешинчи қисмлар** деб ҳисоблансин.

3. Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 2 июлда қабул қилинган **«Биржалар ва биржа фаолияти тўғрисида»**ги 625–XII-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 12 сентябрда қабул қилинган ЎРҚ–375-сонли Қонуни таҳририда) (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2014 йил, № 9, 246-модда; 2018 йил, № 7, 431-модда; 2019 йил, № 1, 5-модда; 2021 йил, 4-сонга илова; 2025 йил, № 4, 519-модда) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда биржаларнинг ташкил этилиши ва фаолияти соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи қисм учинчи қисм деб ҳисоблансин.

4. Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 7 майда қабул қилинган **«Валютани тартибга солиш тўғрисида»**ги 841–XII-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 22 октябрда қабул қилинган ЎРҚ–573-сонли Қонуни таҳририда) (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2019 йил, № 10, 672-модда; 2021 йил, № 1, 16-модда, 4-сонга илова; 2022 йил, № 3, 215-модда; 2025 йил, № 4, 520-модда) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда валютага оид муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи қисм учинчи қисм деб ҳисоблансин.

5. Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрда қабул қилинган 2012–XII-сонли Қонуни билан тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси** (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1995 йил, № 1, 3-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 йил, № 9, 144-модда; 1997 йил, № 2, 56-модда, № 9, 241-модда; 1998 йил, № 5–6, 102-модда, № 9, 181-модда; 1999 йил, № 1, 20-модда, № 5, 124-модда, № 9, 229-модда; 2000 йил, № 5–6, 153-модда; 2001 йил, № 1–2, 23-модда, № 9–10, 165-модда; 2002 йил, № 9, 165-модда; 2003 йил, № 1, 8-модда, № 9–10, 149-модда; 2004 йил, № 1–2, 18-модда, № 9, 171-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2005 йил, № 9, 314-модда, № 12, 417, 418-моддалар; 2006 йил, № 6, 261-модда, № 12, 656-модда; 2007 йил, № 4, 158, 166-моддалар, № 6, 248-модда, № 9, 416, 422-моддалар, № 12, 607-модда; 2008 йил, № 4, 187, 188, 189-моддалар, № 7, 352-модда, № 9, 485, 487, 488-моддалар, № 12, 640, 641-моддалар; 2009 йил, № 1, 1-модда, № 4, 128-модда, № 9, 329, 334, 335, 337-моддалар, № 12, 470-модда; 2010 йил, № 5, 176, 179-моддалар, № 9, 341-модда, № 12, 471, 477-моддалар; 2011 йил, № 1, 1-модда; 2012 йил, № 4, 108-модда, № 9/1, 242-модда, № 12, 336-модда; 2013 йил, № 4, 98-модда, № 10, 263-модда; 2014 йил, № 1, 2-модда, № 5, 130-модда, № 9, 244-модда, № 12, 343-модда; 2015 йил, № 6, 228-модда, № 8, 310, 312-моддалар, № 12, 452-модда; 2016 йил, № 4, 125-модда, № 9, 276-модда, № 12, 383, 385-моддалар; 2017 йил, № 3, 47-модда, № 6, 300-модда, № 9, 506, 510-моддалар; 2018 йил, № 1, 4-модда, № 4, 218, 224-моддалар, № 7, 430-модда, № 10, 679-модда; 2019 йил, № 1, 3, 5-моддалар, № 3, 161-модда, № 5, 259, 267, 268-моддалар, № 7, 386-модда, № 8, 471-модда, № 9, 592-модда, № 11, 787-модда, № 12, 880-модда; 2020 йил, № 1, 4-модда, № 3, 204-модда, № 7, 449-модда, № 10, 593-модда, № 11, 651-модда, № 12, 691-модда; 2021 йил, № 1, 5, 14-моддалар, № 2, 142, 144-моддалар, № 3, 217-модда, 4-сонга илова, № 8, 800, 803-моддалар, № 10, 966, 968, 973-моддалар, № 12, 1193-модда; 2022 йил, № 2, 81-модда, № 3, 215, 216-моддалар, № 4, 337-модда, № 5, 464, 466-моддалар, № 6, 575-модда, № 10, 981-модда; 2023 йил, № 3, 184, 185, 187, 188-моддалар, № 4, 265-модда, № 5, 319-модда, № 10, 798-модда, № 11, 921-модда; 2024 йил, № 1, 8-модда, № 2, 111-модда, № 3, 245-модда, № 8, 818-модда, № 9, 954, 964-моддалар, № 10, 1070, 1071, 1073, 1077, 1079, 1083-моддалар, № 11, 1186, № 12, 1280, 1287-моддалар; 2025 йил, № 2, 196-модда, № 3, 376, 377-моддалар, № 5, 643, 647-моддалар, № 8, 968-модда, № 9, 1042-модда, № 10, 1156-модда, № 11, 1236-модда; 2026 йил, № 1, 5-модда, № 3, 249,

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

250, 253-моддалар, № 4, 353, 354, 361-моддалар) **11-моддаси** қуйидаги мазмундаги **бешинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда валюта қимматликлари, божхона, солиқ, рақобат ҳамда крипто-активлар айланмаси тўғрисидаги қонунчиликни, шунингдек савдо ёки хизмат кўрсатиш қоидаларини бузиш билан боғлиқ қилмишлар учун жиноий жавобгарлик ўрнига Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонунига мувофиқ бошқа турдаги жавобгарлик чоралари қўлланилиши мумкин».

6. Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрда қабул қилинган 2015–XII-сонли Қонуни билан тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси** (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1995 йил, № 3, 6-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 йил, № 9, 193-модда, № 12, 269-модда; 1996 йил, № 5–6, 69-модда, № 9, 144-модда; 1997 йил, № 2, 56-модда, № 4–5, 126-модда, № 9, 241-модда; 1998 йил, № 3, 38-модда, № 5–6, 102-модда, № 9, 181-модда; 1999 йил, № 1, 20-модда, № 5, 124-модда, № 9, 229-модда; 2000 йил, № 5–6, 153-модда, № 7–8, 217-модда; 2001 йил, № 1–2, 23-модда, № 9–10, 165, 182-моддалар; 2002 йил, № 1, 20-модда, № 9, 165-модда; 2003 йил, № 1, 8-модда, № 5, 67-модда, № 9–10, 149-модда; 2004 йил, № 1–2, 18-модда, № 5, 90-модда, № 9, 171-модда; 2005 йил, № 1, 18-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2005 йил, № 9, 312-модда, № 12, 413, 417, 418-моддалар; 2006 йил, № 6, 261-модда, № 9, 498-модда, № 10, 536-модда, № 12, 656, 659-моддалар; 2007 йил, № 4, 158, 159, 164, 165-моддалар, № 9, 416, 421-моддалар, № 12, 596, 604, 607-моддалар; 2008 йил, № 4, 181, 189, 192-моддалар, № 9, 486, 488-моддалар, № 12, 640, 641-моддалар; 2009 йил, № 1, 1-модда, № 9, 334, 335, 337-моддалар, № 10, 380-модда, № 12, 462, 468, 470, 472, 474-моддалар; 2010 йил, № 5, 175, 179-моддалар, № 6, 231-модда, № 9, 335, 339, 341-моддалар, № 10, 380-модда, № 12, 468, 473, 474-моддалар; 2011 йил, № 1, 1-модда, № 4, 104, 105-моддалар, № 9, 247, 252-моддалар, № 12/2, 365-модда; 2012 йил, № 4, 108-модда, № 9/1, 242-модда, № 12, 336-модда; 2013 йил, № 4, 98-модда, № 10, 263-модда; 2014 йил, № 1, 2-модда, № 5, 130-модда, № 9, 244-модда, № 12, 341, 343-моддалар; 2015 йил, № 6, 228-модда, № 8, 310, 312-моддалар, № 12, 452-модда; 2016 йил, № 1, 2-модда, № 4, 125-модда, № 9, 276-модда, № 12, 383, 385-моддалар; 2017 йил, № 4, 137-модда, № 6, 300-модда, № 9, 510-модда, № 10, 605-модда; 2018 йил, № 1, 1, 4, 5-моддалар, № 4, 224-модда, № 7, 430, 431, 432-моддалар, № 10, 671, 673, 679-моддалар; 2019 йил, № 1, 1, 3, 5-моддалар, № 2, 47-модда, № 3, 161, 165, 166-моддалар, № 5, 259, 261, 267, 268-моддалар, № 7, 386-модда, № 8, 469, 471-моддалар, № 9, 591, 592-моддалар, № 10, 674, 676-моддалар, № 11, 787, 791-моддалар, № 12, 880, 891-моддалар; 2020 йил, № 1, 4-модда, № 3, 203, 204-моддалар, № 7, 449-модда, № 9, 539, 540-моддалар, № 10, 593, 596-моддалар, № 11,

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

651-модда, № 12, 691-модда; 2021 йил, № 1, 5, 7, 12, 13, 14-моддалар, № 2, 142-модда, № 3, 217-модда, № 4, 290, 293-моддалар, 4-сонга илова, № 8, 800, 802, 803-моддалар, № 9, 903-модда, № 10, 966, 967, 968, 973-моддалар, № 11, 1066-модда; 2022 йил, № 1, 1, 2-моддалар, № 2, 80, 81-моддалар, № 3, 215, 216-моддалар, № 4, 337-модда, № 5, 464, 465, 466, 467-моддалар, № 8, 787-модда, № 10, 981, 984-моддалар, № 12, 1188-модда; 2023 йил, № 3, 184, 185, 188, 189-моддалар, № 4, 265, 266, 268-моддалар, № 5, 319, 320-моддалар, № 7, 533, 534, 535, 537, 539-моддалар, № 8, 634-модда, № 10, 798-модда, № 11, 921, 923, 924-моддалар, № 12, 1004-модда; 2024 йил, № 1, 5, 7, 8, 9-моддалар, № 2, 102, 111, 115, 116-моддалар, № 3, 243, 245-моддалар, № 6, 530, 532-моддалар, № 7, 629-модда, № 8, 826, 829, 831-моддалар, № 9, 954, 964, 965-моддалар, № 10, 1070, 1071, 1073, 1077, 1078, 1083, 1084-моддалар, № 11, 1187, 1188, 1189-моддалар, № 12, 1279, 1280, 1282, 1286, 1287-моддалар; 2025 йил, № 1, 5, 8-моддалар, № 2, 187, 188, 196, 198, 201-моддалар, № 3, 368, 376-моддалар, № 4, 517, 521-моддалар, № 5, 643, 644-моддалар, № 6, 729-модда, № 7, 828, 829, 832-моддалар, № 8, 968, 971-моддалар, № 11, 1233, 1236, 1237-моддалар, № 12, 1322, 1327, 1328, 1329-моддалар; 2026 йил, № 1, 2, 6-моддалар, № 2, 131, 133-моддалар, № 3, 249, 250, 253-моддалар, № 4, 351, 353, 354, 355, 356, 359, 361, 364-моддалар; № 5, 496, 497-моддалар) **9-моддаси** қуйидаги мазмундаги **олтинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда валюта қимматликлари, божхона, солиқ, қимматли қоғозлар бозори, рақобат ҳамда крипто-активлар айланмаси тўғрисидаги қонунчиликни, шунингдек савдо ёки хизмат кўрсатиш қоидаларини бузиш билан боғлиқ қилмишлар учун маъмурий жавобгарлик ўрнига Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонунига мувофиқ бошқа турдаги жавобгарлик чоралари қўлланилиши мумкин».

7. Ўзбекистон Республикасининг 1995 йил 21 декабрда қабул қилинган **«Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида»**ги 154–I-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 11 ноябрда қабул қилинган ЎРҚ–582-сонли Қонуни таҳририда) (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2019 йил, № 11, 790-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 10, 968-модда; 2022 йил, № 3, 217-модда, № 4, 340-модда; 2023 йил, № 11, 923-модда; 2024 йил, № 9, 965-модда; 2025 йил, № 2, 189, 194-моддалар, № 4, 519, 520-моддалар, № 6, 730-модда; 2026 йил, № 3, 255-модда) **1-моддаси** қуйидаги мазмундаги **иккинчи** ва **учинчи қисмлар** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг ваколатлари жумласига киритилган муносабатларни тартибга солиш вазифалари махсус ваколатли орган томонидан амалга оширилади.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

Махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудуд иштирокчиларининг Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг назорати остидаги банклар ва бошқа ташкилотлар билан муносабатлари Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудуддаги ваколатли орган билан биргаликда тартибга солинади».

8. Ўзбекистон Республикасининг 1995 йил 21 декабрда қабул қилинган 163–I-сонли ва 1996 йил 29 августда қабул қилинган 256–I-сонли қонунлари билан тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси** (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 йил, 2-сонга илова, № 11–12; 1997 йил, № 2, 56-модда, № 9, 241-модда; 1998 йил, № 5–6, 102-модда; 1999 йил, № 1, 20-модда, № 9, 229-модда; 2001 йил, № 1–2, 23-модда, № 9–10, 182-модда; 2002 йил, № 1, 20-модда, № 9, 165-модда; 2003 йил, № 1, 8-модда, № 5, 67-модда; 2004 йил, № 1–2, 18-модда, № 5, 90-модда, № 9, 171-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2006 йил, № 4, 154-модда, № 9, 494, 498-моддалар; 2007 йил, № 1, 3, 5-моддалар, № 4, 156, 164-моддалар, № 8, 367-модда, № 9, 416-модда, № 12, 598, 608-моддалар; 2008 йил, № 4, 192-модда, № 12, 640-модда; 2009 йил, № 9, 337-модда; 2010 йил, № 9, 335, 337, 340-моддалар; 2011 йил, № 12/2, 363, 364, 365-моддалар; 2012 йил, № 4, 106, 109-моддалар, № 12, 336-модда; 2013 йил, № 10, 263-модда; 2014 йил, № 5, 130-модда, № 12, 343-модда; 2015 йил, № 8, 310, 312-моддалар; 2016 йил, № 4, 125-модда; 2017 йил, № 4, 137-модда, № 9, 510-модда, № 12, 773-модда; 2018 йил, № 1, 4-модда, № 4, 224-модда, № 7, 433-модда, № 10, 673-модда; 2019 йил, № 3, 161, 166-моддалар, № 5, 267-модда, № 10, 671-модда, № 12, 880, 886-моддалар; 2020 йил, № 1, 3, 4-моддалар, № 10, 593-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 8, 801-модда, № 10, 968-модда; 2022 йил, № 2, 79-модда, № 3, 217, 218-моддалар, № 4, 340-модда, № 5, 464-модда, № 6, 570, 577-моддалар, № 11, 1061, 1062-моддалар; 2023 йил, № 10, 795-модда, № 11, 921-модда; 2024 йил, № 2, 111, 114-моддалар, № 6, 530-модда, № 9, 960-модда, № 11, 1193-модда; 2025 йил, № 2, 188, 194-моддалар, № 3, 370-модда, № 4, 519, 520, 522-моддалар, № 6, 730-модда, № 8, 968-модда, № 10, 1152-модда, № 12, 1324, 1327, 1329-моддалар; 2026 йил, № 3, 255-модда, № 4, 354-модда, № 5, 497-модда) **3-моддасига** қуйидаги қўшимчалар ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда фуқаролик-ҳуқуқий муносабатлар ушбу Кодексда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи ва **учинчи қисмлар** тегишинча **учинчи** ва **тўртинчи қисмлар** деб ҳисоблансин;

учинчи қисм «мос бўлиши шарт» деган сўзлардан кейин «бундан махсус ҳуқуқий режим ўрнатадиган Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан белгиланган ҳоллар мустасно» деган сўзлар билан тўлдирилсин.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

9. Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 25 апрелда қабул қилинган **«Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»**ги 216–I-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 5 ноябрда қабул қилинган ЎРҚ–580-сонли Қонуни таҳририда) (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2019 йил, № 11, 788-модда; 2020 йил, № 1, 1-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 10, 968-модда; 2023 йил, № 4, 267-модда, № 11, 923-модда; 2024 йил, № 2, 105, 111-моддалар, № 9, 965-модда; 2025 йил, № 2, 189, 194-моддалар, № 4, 520-модда, № 6, 730-модда; 2026 йил, № 3, 255-модда) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда банклар ва банк фаолияти ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи қисм учинчи қисм деб ҳисоблансин.

10. Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 26 апрелда қабул қилинган **«Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида»**ги 223–I-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 6 майда қабул қилинган ЎРҚ–370-сонли Қонуни таҳририда) (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2014 йил, № 5, 128-модда; 2015 йил, № 8, 312-модда, № 12, 452-модда; 2016 йил, № 4, 125-модда, № 9, 276-модда; 2018 йил, № 1, 1, 4-моддалар, № 4, 224-модда; 2019 йил, № 3, 166-модда, № 12, 880, 886, 891-моддалар; 2020 йил, № 1, 4-модда, № 7, 449-модда, № 10, 593-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 10, 973-модда; 2022 йил, № 3, 216, 217-моддалар; 2023 йил, № 1, 1-модда; 2024 йил, № 2, 110, 111-моддалар; 2025 йил, № 2, 188-модда, № 4, 519-модда, № 6, 730-модда, № 11, 1235-модда) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда акциядорлик жамиятларининг ташкил этилиши, фаолияти, қайта ташкил этилиши ва тугатилиши, шунингдек акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи, **учинчи** ва **тўртинчи қисмлар** тегишинча **учинчи**, **тўртинчи** ва **бешинчи қисмлар** деб ҳисоблансин.

11. Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 30 августда қабул қилинган **«Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»**ги 279–I-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 13 апрелда қабул қилинган ЎРҚ–404-сонли Қонуни таҳририда) (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2016 йил, № 4, 124-модда;

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

2021 йил, № 1, 7-модда, 4-сонга илова, № 10, 973-модда; 2023 йил, № 11, 923-модда) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш, юритиш ва ҳисоботни тузиш соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи қисм учинчи қисм деб ҳисоблансин.

12. Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 19 августда қабул қилинган **«Баҳолаш фаолияти тўғрисида»**ги 811–I-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 йил, № 9, 208-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2006 йил, № 4, 154-модда; 2009 йил, № 4, 135-модда; 2014 йил, № 5, 130-модда; 2015 йил, № 8, 312-модда; 2017 йил, № 6, 300-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 10, 968-модда; 2022 йил, № 6, 577-модда; 2024 йил, № 8, 825-модда, № 10, 1079-модда; 2025 йил, № 1, 7-модда, № 2, 188-модда) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда баҳолаш фаолиятини амалга ошириш соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи қисм учинчи қисм деб ҳисоблансин.

13. Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 29 августда қабул қилинган **«Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тўғрисида»**ги 258–II-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2001 йил, № 9–10, 169-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2007 йил, № 8, 367-модда, № 12, 598-модда; 2008 йил, № 4, 184, 187-моддалар; 2009 йил, № 1, 1-модда; 2010 йил, № 9, 337, 340-моддалар; 2012 йил, № 12, 336-модда; 2014 йил, № 5, 130-модда; 2015 йил, № 8, 312-модда, № 12, 452-модда; 2016 йил, № 9, 276-модда; 2017 йил, № 9, 510-модда; 2018 йил, № 1, 1, 4, 5-моддалар; 2019 йил, № 2, 47-модда, № 5, 267-модда, № 7, 389-модда, № 8, 469-модда, № 10, 671-модда, № 12, 880-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 8, 800, 803-моддалар; 2022 йил, № 4, 337-модда, № 6, 570-модда; 2023 йил, № 4, 269-модда; 2024 йил, № 2, 111-модда, № 8, 827-модда, № 10, 1073-модда; 2025 йил, № 4, 522-модда, № 6, 729-модда, № 8, 970-модда, № 10, 1153-модда, № 12, 1328-модда; 2026 йил, № 3, 248, 251-моддалар, № 4, 357, 360-моддалар) қуйидаги қўшимчалар ва ўзгартириш киритилсин:

1) **5-модда** қуйидаги мазмундаги **3^1-банд** билан тўлдирилсин:

«3^1) Тошкент халқаро тижорат судининг қарорлари»;

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

2) **7-модда**:

биринчи қисми қуйидаги мазмундаги **1[1]-банд** билан тўлдирилсин:

«1[1]) Тошкент халқаро тижорат судининг қарорлари асосида мазкур суд котиби томонидан бериладиган ижро варақалари»;

қуйидаги мазмундаги **учинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Тошкент халқаро тижорат судининг хорижий тилдаги қарорлари асосидаги ижро варақаси мазкур суд котиби томонидан қарорни давлат тилига таржима қилган ҳолда берилади ва унинг имзоси билан тасдиқланади. Бунда ижро варақаси Тошкент халқаро тижорат суди котибининг электрон рақамли имзоси билан тасдиқланган ҳолда, электрон ҳужжат тарзида ахборот тизими орқали тақдим этилиши мумкин»;

учинчи қисми тўртинчи қисм деб ҳисоблансин.

14. Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 6 декабрда қабул қилинган **«Хўжалик ширкатлари тўғрисида»**ги 308–II-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002 йил, № 1, 8-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2007 йил, № 7, 325-модда; 2014 йил, № 1, 2-модда, № 5, 130-модда; 2015 йил, № 8, 312-модда; 2018 йил, № 1, 1-модда; 2019 йил, № 3, 166-модда, № 12, 880, 891-моддалар; 2021 йил, 4-сонга илова; 2024 йил, № 2, 110-модда) **2-моддаси** қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда хўжалик ширкатларининг ташкил этилиши, фаолияти, қайта ташкил этилиши ва тугатилиши соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади».

15. Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 30 августда қабул қилинган **«Банк сири тўғрисида»**ги 530–II-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 йил, № 9–10, 144-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2005 йил, № 9, 312-модда; 2009 йил, № 9, 337-модда; 2012 йил, № 4, 105-модда; 2016 йил, № 4, 125-модда; 2017 йил, № 9, 510-модда; 2019 йил, № 1, 5-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 6, 524-модда; 2022 йил, № 4, 337-модда; 2024 йил, № 9, 965-модда; 2025 йил, № 2, 194-модда, № 6, 730-модда, № 12, 1322-модда) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда банк сирини ташкил этувчи маълумотларни олиш, сақлаш, муҳофаза қилиш, эълон қилиш ва тақдим этиш соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи қисм учинчи қисм деб ҳисоблансин.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

16. Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 11 декабрда қабул қилинган **«Хусусий корхона тўғрисида»**ги 558–II-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2004 йил, № 1–2, 8-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2006 йил, № 3, 119-модда; 2007 йил, № 12, 608-модда; 2011 йил, № 9, 248-модда; 2012 йил, № 9/1, 238-модда; 2014 йил, № 5, 130-модда; 2015 йил, № 8, 312-модда; 2016 йил, № 12, 385-модда; 2019 йил, № 3, 166-модда, № 12, 886-модда; 2020 йил, № 1, 2-модда; 2021 йил, 4-сонга илова) **2-моддаси** қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда хусусий корхоналарнинг ташкил этилиши, фаолияти, қайта ташкил этилиши ва тугатилиши соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади».

17. Ўзбекистон Республикасининг 2004 йил 29 апрелда қабул қилинган **«Электрон ҳужжат айланиши тўғрисида»**ги 611–II-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2004 йил, № 5, 80-модда; 2021 йил, 4-сонга илова) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда электрон ҳужжат айланиши соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи қисм учинчи қисм деб ҳисоблансин.

18. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 22 июлда қабул қилинган **«Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида»**ги ЎРҚ–163-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикасининг 2015 йил 3 июнда қабул қилинган ЎРҚ–387-сонли Қонуни таҳририда) (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2015 йил, № 6, 227-модда; 2018 йил, № 1, 1-модда; 2019 йил, № 1, 5-модда, № 3, 166-модда, № 4, 199-модда, № 12, 891-модда; 2020 йил, № 7, 449-модда, № 10, 593-модда; 2021 йил, № 1, 13-модда, 4-сонга илова, № 10, 968, 973-моддалар; 2022 йил, № 3, 217-модда; 2023 йил, № 4, 272-модда; 2024 йил, № 2, 111-модда, № 10, 1079-модда; 2025 йил, № 2, 188, 191-моддалар, № 4, 519-модда, № 6, 730-модда, № 12, 1322-модда; 2026 йил, № 2, 132-модда, № 3, 251-модда) **1-моддаси** қуйидаги мазмундаги **учинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда қимматли қоғозлар бозори соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади».

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

19. Ўзбекистон Республикасининг 2015 йил 25 августда қабул қилинган **«Инвестиция ва пай фондлари тўғрисида»**ги ЎРҚ–392-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2015 йил, № 8, 313-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 10, 968-модда; 2024 йил, № 1, 5-модда) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда инвестиция ва пай фондлари фаолияти соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи қисм учинчи қисм деб ҳисоблансин.

20. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 20 январда қабул қилинган ЎРҚ–400-сонли Қонуни билан тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодекси** (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2016 йил, 1-сонга илова; 2017 йил, № 9, 510-модда; 2018 йил, № 4, 224-модда, № 7, 433-модда, № 10, 670-модда; 2019 йил, № 1, 5-модда, № 2, 47-модда, № 5, 267-модда, № 9, 589-модда, № 10, 671-модда, № 12, 880-модда; 2020 йил, № 10, 593-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 10, 969-модда; 2022 йил, № 2, 75-модда, № 7, 666-модда, № 12, 1190-модда; 2023 йил, № 12, 1010, 1011-моддалар; 2024 йил, № 1, 5-модда, № 2, 111, 113-моддалар, № 10, 1073-модда, № 11, 1190-модда; 2025 йил, № 11, 1235, 1237-моддалар) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда муайян божхона муносабатлари ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи қисм учинчи қисм деб ҳисоблансин.

21. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 8 январда қабул қилинган **«Маъмурий тартиб-таомиллар тўғрисида»**ги ЎРҚ–457-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2018 йил, № 1, 2-модда; 2020 йил, № 1, 1-модда; 2021 йил, 4-сонга илова; 2025 йил, № 6, 730-модда) **3-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда маъмурий тартиб-таомилларни амалга ошириш соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи ва **учинчи қисмлар** тегишинча **учинчи** ва **тўртинчи қисмлар** деб ҳисоблансин.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

22. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 24 январда қабул қилинган ЎРҚ–461-сонли Қонуни билан тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасининг Иқтисодий процессуал кодекси** (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2018 йил, 1-сонга 2-илова, № 7, 433-модда, № 10, 672-модда; 2019 йил, № 3, 166-модда, № 5, 261, 266-моддалар, № 9, 592-модда, № 10, 671-модда, № 11, 791-модда, № 12, 880-модда; 2020 йил, № 1, 1-модда, № 3, 198-модда, № 10, 593-модда; 2021 йил, № 1, 10-модда, 4-сонга илова, № 8, 803-модда, № 9, 903-модда; 2022 йил, № 3, 216-модда, № 5, 463-модда, № 6, 577-модда, № 8, 787-модда; 2023 йил, № 4, 269-модда, № 12, 1008-модда; 2024 йил, № 2, 111-модда, № 9, 964, 969-моддалар, № 12, 1280, 1286-моддалар; 2025 йил, № 3, 373-модда, № 6, 729-модда, № 9, 1042-модда, № 10, 1153-модда, № 11, 1237-модда, № 12, 1328-модда; 2026 йил, № 2, 132-модда, № 4, 360, 364, 365-моддалар) **1-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда иқтисодий ишлар ушбу Кодексда белгиланганидан бошқача қоидаларга мувофиқ ихтисослашган суд томонидан кўриб чиқилади ва ҳал этилади»;

иккинчи ва **учинчи қисмлар** тегишинча **учинчи** ва **тўртинчи қисмлар** деб ҳисоблансин.

23. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 25 январда қабул қилинган ЎРҚ–462-сонли Қонуни билан тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекси** (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2018 йил, 1-сонга 3-илова, № 10, 672-модда; 2019 йил, № 5, 261-модда, № 9, 592-модда, № 11, 791-модда, № 12, 880-модда; 2020 йил, № 1, 1-модда, № 3, 198-модда; 2021 йил, № 1, 9-модда, 4-сонга илова, № 8, 800, 803-моддалар, № 9, 903-модда; 2022 йил, № 8, 787-модда, № 12, 1188-модда; 2023 йил, № 3, 185-модда, № 4, 269-модда, № 11, 923-модда, № 12, 1009-модда; 2024 йил, № 2, 115-модда, № 9, 964, 969-моддалар, № 12, 1286-модда; 2025 йил, № 3, 373-модда, № 6, 729-модда, № 9, 1042-модда; 2026 йил, № 2, 132-модда, № 4, 360-модда) **3-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда фуқароларнинг ва юридик шахсларнинг бузилган ёки низолашилаётган ҳуқуқлари, эркинликларини ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш тўғрисидаги маъмурий ишлар ушбу Кодексда белгиланганидан бошқача қоидаларга мувофиқ ихтисослашган суд томонидан кўриб чиқилади ҳамда ҳал этилади»;

иккинчи қисм учинчи қисм деб ҳисоблансин.

24. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 июлда қабул қилинган **«Шахсга доир маълумотлар тўғрисида»**ги ЎРҚ–547-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2019 йил, № 7, 385-модда; 2021 йил, № 1, 13-модда, 4-сонга илова; 2023 йил, № 11, 923-модда; 2026 йил, № 3, 254-модда) **3-моддаси** қуйидаги мазмундаги **учинчи қисм** билан тўлдирилсин:

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда шахсга доир маълумотларга ишлов бериш ва уларни ҳимоя қилиш билан боғлиқ муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади».

25. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 1 ноябрда қабул қилинган **«Тўловлар ва тўлов тизимлари тўғрисида»**ги ЎРҚ–578-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2019 йил, № 11, 786-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 10, 968-модда; 2022 йил, № 4, 340-модда; 2024 йил, № 2, 105-модда, № 9, 965-модда) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда тўлов хизматларини етказиб берувчи ва тўлов хизматларидан фойдаланувчи бўлган жисмоний ва юридик шахслар ўртасида тўловларни амалга ошириш ҳамда тўлов хизматлари кўрсатиш чоғида юзага келадиган муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи қисм учинчи қисм деб ҳисоблансин.

26. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 25 декабрда қабул қилинган **«Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида»**ги ЎРҚ–598-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2019 йил, № 12, 892-модда; 2021 йил, 4-сонга илова; 2022 йил, № 6, 570-модда, № 12, 1190-модда; 2023 йил, № 10, 795-модда; 2024 йил, № 2, 111-модда; 2026 йил, № 3, 251-модда) **1-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда инвестициялар ва инвестиция фаолияти билан боғлиқ муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи ва **учинчи қисмлар** тегишинча **учинчи** ва **тўртинчи қисмлар** деб ҳисоблансин.

27. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 30 декабрда қабул қилинган ЎРҚ–599-сонли Қонуни билан янги таҳрирда тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси** (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2019 йил, 12-сонга 1-илова; 2020 йил, № 3, 198-модда, № 10, 593-модда, № 11, 652-модда, № 12, 690, 691-моддалар; 2021 йил, № 1, 6-модда, № 4, 294-модда, 4-сонга илова, № 8, 800-модда, № 9, 901-модда, № 10, 968, 969, 972, 973-моддалар, № 12, 1199-модда; 2022 йил, № 2, 79-модда, № 3, 215, 216-моддалар, № 5, 461, 464, 467-моддалар, № 6, 570-модда, № 7, 664, 666-моддалар, № 12, 1190-модда; 2023 йил, № 6, 444, 446-моддалар, № 7, 540-модда, № 12, 1011-модда; 2024 йил, № 2, 106, 110, 111-моддалар, № 4, 346-модда, № 5, 458, 459-моддалар, № 8, 822, 831-моддалар, № 9, 958-модда, № 10, 1076-модда, № 11, 1190-модда, № 12, 1283, 1284, 1296, 1297-моддалар;

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

2025 йил, № 2, 188, 194-моддалар, № 4, 519, 520, 521, 522-моддалар, № 5, 644, 645-моддалар, № 6, 729, 731-моддалар, № 8, 971-модда, № 10, 1153-модда, № 12, 1322, 1324, 1328, 1329-моддалар; 2026 йил, № 2, 132-модда, № 3, 251, 255-моддалар, № 4, 351, 352, 354-моддалар) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда солиқ билан боғлиқ муайян муносабатлар ушбу Кодексда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солиниши ҳамда тегишли ваколатли органнинг қарори билан ушбу Кодекснинг айрим қоидаларини қўллаш бўйича алоҳида тартиб белгиланиши мумкин»;

иккинчи қисм учинчи қисм деб ҳисоблансин.

28. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 6 январда қабул қилинган **«Давлат божи тўғрисида»**ги ЎРҚ–600-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2020 йил, № 1, 1-модда, № 3, 201-модда, № 5, 298-модда, № 10, 593-модда, № 12, 691-модда; 2021 йил, № 1, 13-модда, 4-сонга илова, № 7, 661-модда, № 8, 800, 803-моддалар, № 10, 968-модда; 2022 йил, № 2, 76-модда, № 3, 214, 216-моддалар, № 4, 340-модда, № 5, 463, 464, 467-моддалар, № 12, 1186-модда; 2023 йил, № 2, 103-модда, № 3, 186-модда, № 4, 265, 269-моддалар, № 6, 444, 445-моддалар, № 7, 538-модда, № 9, 710-модда; 2024 йил, № 1, 5, 6, 7-моддалар, № 2, 101, 105, 107, 108, 111, 112-моддалар, № 7, 628-модда, № 8, 819, 823, 831-моддалар, № 9, 958-модда, № 10, 1076, 1079-моддалар, № 11, 1191-модда, № 12, 1279, 1280, 1285-моддалар; 2025 йил, № 1, 4, 6-моддалар, № 2, 188, 189, 195, 197-моддалар, № 4, 519, 520-моддалар, № 5, 648-модда, № 7, 828-модда, № 8, 968, 971-моддалар, № 10, 1153-модда, № 11, 1237-модда, № 12, 1322, 1328-моддалар; 2026 йил, № 1, 2, 4-моддалар, № 2, 132-модда, № 3, 249, 255-моддалар, № 4, 365-модда, № 5, 497-модда) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда давлат божини белгилаш, ундириш, қайтариш ва уни тўлашдан озод қилиш соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи қисм учинчи қисм деб ҳисоблансин.

29. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 20 октябрда қабул қилинган **«Аҳоли бандлиги тўғрисида»**ги ЎРҚ–642-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2020 йил, № 10, 595-модда; 2021 йил, № 4, 287-модда, 4-сонга илова; 2022 йил, № 3, 216-модда, № 5, 464-модда, № 6, 570-модда, 10-сонга илова; 2023 йил, № 11, 923-модда; 2024 йил, № 2, 111-модда, № 8, 818-модда, № 9, 958, 968-моддалар, № 10, 1079-модда; 2025 йил, № 2, 188-модда, № 5,

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

648-модда, № 11, 1233-модда, № 12, 1328, 1329-моддалар; 2026 йил, № 2, 132-модда, № 4, 352-модда) **2-моддаси** қуйидаги мазмундаги **тўртинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда аҳоли бандлиги соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади».

30. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 25 февралда қабул қилинган **«Аудиторлик фаолияти тўғрисида»**ги ЎРҚ–677-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2021 йил, № 2, 146-модда; 2022 йил, № 3, 216, 217-моддалар, № 4, 340-модда; 2023 йил, № 1, 2-модда, № 11, 923-модда; 2024 йил, № 2, 105-модда, № 11, 1193-модда; 2025 йил, № 2, 188-модда, № 6, 730-модда, № 8, 971-модда, № 12, 1328-модда) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда аудиторлик фаолияти соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи қисм учинчи қисм деб ҳисоблансин.

31. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 20 апрелда қабул қилинган **«Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»**ги ЎРҚ–682-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2021 йил, № 4, 288-модда; 2022 йил, № 3, 213-модда, № 8, 788-модда, № 10, 983-модда; 2023 йил, № 8, 629-модда, № 11, 923-модда; 2024 йил, № 2, 109-модда, № 9, 955-модда, № 10, 1075, 1076-моддалар; 2025 йил, № 4, 516-модда; 2026 йил, № 3, 256-модда) қуйидаги қўшимча ва ўзгартиришлар киритилсин:

1) **2-модда**:

қуйидаги мазмундаги **учинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда қабул қилинадиган бажарилиши мажбурий бўлган қарорларнинг турлари ва ушбу Қонундаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар билан ўзаро нисбати, уларни тайёрлаш тартибига ҳамда уларнинг мазмунига нисбатан қўйиладиган асосий талаблар ва уларнинг ижросини ташкил этишни таъминлашнинг ўзига хос хусусиятлари Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан алоҳида белгиланади»;

учинчи қисми тўртинчи қисм деб ҳисоблансин;

2) **8-модданинг иккинчи қисми** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Ўзбекистон Республикаси Конституцияси мамлакатнинг бутун ҳудудида олий юридик кучга эга, тўғридан-тўғри амал қилади ва ягона ҳуқуқий маконнинг асосини ташкил этади. Алоҳида ҳудудларда Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан ягона ҳуқуқий макон доирасида махсус ҳуқуқий режим ўрнатилиши мумкин».

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

32. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелда қабул қилинган **«Давлат харидлари тўғрисида»**ги ЎРҚ–684-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2021 йил, № 4, 289-модда; 2024 йил, № 2, 111-модда, № 2, 1288-модда; 2025 йил, № 2, 188-модда, № 4, 519-модда, № 6, 730-модда; 2026 йил, № 3, 255-модда, № 4, 364-модда) **2-моддаси** қуйидаги мазмундаги **бешинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда давлат харидлари соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади».

33. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 14 июлда қабул қилинган **«Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида»**ги ЎРҚ–701-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2021 йил, № 7, 661-модда; 2022 йил, № 4, 340-модда, № 5, 465-модда; 2023 йил, № 2, 103-модда, № 3, 185-модда, № 7, 533-модда, № 9, 710-модда, № 11, 921, 923-модда; 2024 йил, № 1, 5, 7-моддалар, № 2, 105, 112-моддалар, № 7, 628-модда, № 8, 819-модда, № 9, 957, 958-моддалар; 2025 йил, № 1, 3, 6-моддалар, № 2, 189, 197-моддалар, № 3, 376-модда, № 4, 519, 520, 521-моддалар, № 5, 644, 645-моддалар, № 10, 1155-модда, № 11, 1237-модда, № 12, 1322-модда; 2026 йил, № 1, 2, 4-моддалар, № 2, 133-модда, № 3, 253, 255-моддалар, № 5, 499-модда) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **учинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

учинчи қисм тўртинчи қисм деб ҳисоблансин.

34. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 28 июлда қабул қилинган **«Судлар тўғрисида»**ги ЎРҚ–703-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2021 йил, № 7, 663-модда; 2024 йил, № 2, 117-модда, № 8, 823-модда, № 9, 964-модда; 2025 йил, № 1, 8-модда, № 6, 727-модда, № 8, 969-модда, № 12, 1329-модда) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **учинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда ташкил этиладиган ихтисослашган суд мазкур Қонунда белгиланган суд тизимига кирмайди ҳамда унинг фаолияти ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

учинчи қисм тўртинчи қисм деб ҳисоблансин.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

35. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 23 ноябрда қабул қилинган **«Суғурта фаолияти тўғрисида»**ги ЎРҚ–730-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2021 йил, № 11, 1062-модда; 2025 йил, № 4, 519-модда) **1-моддаси** қуйидаги мазмундаги **учинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда суғурта соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади».

36. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 12 апрелда қабул қилинган **«Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида»**ги ЎРҚ–763-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2022 йил, № 4, 338-модда; 2023 йил, № 11, 923-модда; 2024 йил, № 1, 5-модда, № 8, 823-модда, № 10, 1073-модда; 2025 йил, № 2, 188, 191, 194-моддалар, № 6, 730-модда, № 12, 1329-модда) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда юридик ва жисмоний шахсларнинг тўловга қобилиятсизлигига оид муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи қисм учинчи қисм деб ҳисоблансин.

37. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 29 сентябрда қабул қилинган **«Электрон тижорат тўғрисида»**ги ЎРҚ–792-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2022 йил, № 9, 896-модда; 2025 йил, № 4, 519-модда) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда электрон тижоратга оид муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи қисм учинчи қисм деб ҳисоблансин.

38. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 12 октябрда қабул қилинган **«Электрон рақамли имзо тўғрисида»**ги ЎРҚ–793-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2022 йил, № 10, 980-модда) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда электрон рақамли имзодан фойдаланиш соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи қисм учинчи қисм деб ҳисоблансин.

39. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 28 октябрда қабул қилинган ЎРҚ–798-сонли Қонуни билан тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси** (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2022 йил, 10-сонга илова; 2023 йил, № 4, 265-модда, № 11, 923-модда; 2024 йил, № 2, 111-модда,

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

№ 7, 627-модда, № 9, 964-модда; 2025 йил, № 2, 193-модда, № 6, 730-модда, № 11, 1233-модда, № 12, 1321, 1329-моддалар) **10-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда меҳнатга оид муносабатлар ушбу Кодексда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи ва **учинчи қисмлар** тегишинча **учинчи** ва **тўртинчи қисмлар** деб ҳисоблансин.

40. Ўзбекистон Республикасининг 2025 йил 23 июнда қабул қилинган **«Банкларни санация қилиш ва тугатиш тўғрисида»**ги ЎРҚ–1070-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2025 йил, № 6, 730-модда) **2-моддасига** қуйидаги қўшимча ва ўзгартириш киритилсин:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда банкларни санация қилиш ва тугатиш билан боғлиқ муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади»;

иккинчи қисм учинчи қисм деб ҳисоблансин.

41. Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 21 апрелда қабул қилинган **«Масъулияти чекланган жамиятлар тўғрисида»**ги ЎРҚ–1137-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2026 йил, № 4, 360-модда) **2-моддаси** қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий Қонуни билан махсус ҳуқуқий режим ўрнатилган ҳудудда масъулияти чекланган жамиятларнинг ташкил этилиши, фаолияти, қайта ташкил этилиши ва тугатилиши соҳасидаги муносабатлар ушбу Қонунда белгиланганидан бошқача қоидалар билан тартибга солинади».

35-модда. Ушбу Конституциявий Қонуннинг ижросини ташкил этиш ва Молия марказининг давлат ҳокимияти органлари билан ҳамкорлигини таъминлаш

Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ушбу Конституциявий Қонуннинг ижросини ташкил этади ҳамда Молия марказининг давлат ҳокимияти органлари билан самарали ҳамкорлигини қонунда белгиланган тартибда таъминлайди.

36-модда. Қонунчиликни ушбу Конституциявий Қонунга мувофиқлаштириш

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:

ҳукумат қарорларини ушбу Конституциявий Қонунга мувофиқлаштирсин;

республика ижро этувчи ҳокимият органлари ушбу Конституциявий Қонунга зид бўлган ўз норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини қайта кўриб чиқишлари ва бекор қилишларини таъминласин.

QMMB: 03/26/1158/0727-son
14.07.2026-y.

37-модда. Ушбу Конституциявий Қонуннинг кучга кириши

Ушбу Конституциявий Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан ўн кун ўтгач кучга киради.

Ўзбекистон Республикасининг Президенти **Ш. Мирзиёев**

Тошкент шаҳри,
2026 йил 13 июль
№ ЎРҚ–1158

ИККИНЧИ БЎЛИМ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОН ВА ҚАРОРЛАРИ

QMMB: 07/26/264/0733-son
15.07.2026-y.

28 (1256)-son
721-modda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

2026 yil « 14 » июль №ПҚ–264

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 августдаги “Ҳарбий-маъмурий секторларни ривожлантириш жамғармасини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ–3897-сон қарорига ўзгартиришлар киритиш ҳақида

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 21 декабрдаги “Янги Ўзбекистон маъмурий ислоҳотларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–269-сон Фармонига мувофиқ, шунингдек, Ҳарбий-маъмурий секторларни ривожлантириш жамғармаси маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш мақсадида **қарор қиламан**:

I. Қонунчиликни такомиллаштириш

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 августдаги “Ҳарбий-маъмурий секторларни ривожлантириш жамғармасини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ–3897-сон қарорига **иловага** мувофиқ қуйидагиларни назарда тутувчи ўзгартиришлар киритилсин:

(а) Молия вазирлиги негизида Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ташкил этилганлиги муносабати билан қонунчилик ҳужжатларини ўзаро мувофиқлаштириш;

(б) Ҳарбий-маъмурий секторларни ривожлантириш жамғармаси маблағларидан асосий вазифалар кетма-кетлигига мувофиқ равишда фойдаланиш.

QMMB: 07/26/264/0733-son
15.07.2026-y.

II. Қарор ижросини ташкил қилиш, таъминлаш ва назорат

2. Мудофаа вазирлиги **уч ой муддатда** манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда қонунчилик ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

3. Ушбу қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири А.Н. Арипов ва Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Хавфсизлик кенгаши котиби В.В. Махмудов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти **Ш. Мирзиёев**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

Тошкент шаҳри

QMMB: 07/26/264/0733-son
15.07.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 14 июлдаги ПҚ–264-сон қарорига
илова

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 августдаги “Ҳарбий-маъмурий секторларни ривожлантириш жамғармасини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ–3897-сон қарорига киритилаётган ўзгартиришлар

1. 3-бандниng иккинчи хатбошисидаги “Молия” сўзи “Иқтисодиёт ва молия” сўзлари билан алмаштирилсин.

2. 4-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“4. Қуйидагилар Жамғарма маблағларини сарфлашнинг асосий йўналишлари этиб белгилансин:

а) уч йиллик стратегик режалар (“йўл хариталари”) бўйича:

замонавий талаб ва стандартларни инобатга олган холда, ҳарбий шаҳарча ва полигонлар инфратузилмаси объектларини такомиллаштириш, капитал қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлаш;

ҳарбий хизматчилар ва уларнинг оила аъзолари учун янги уй-жойлар, болалар боғчалари ва ўйин майдончаларини қуриш, мавжуд уй-жой фондини таъмирлаш ишларини молиялаштириш;

б) бир йиллик тадбирлар режалари (“йўл хариталари”) бўйича:

ҳарбий қисмлар, бўлинмалар ва муассасаларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш;

замонамиз миллий қаҳрамонлари хотирасини абадийлаштириш, уларнинг оилаларига маънавий ва моддий ёрдам кўрсатиш;

семинарлар, давра суҳбатлари, конференциялар, амалий машғулотлар, спорт мусобақалари, эстафеталар, турнирлар, тренинглар, ёшларни тарбиялаш бўйича тадбирлар (шу жумладан, амалий ва техник турлар бўйича тўгараклар фаолиятини йўлга қўйиш, қонунчиликда белгиланган ҳолларда қўшимча озиқ-овқат, кийим-кечак ва оёқ кийим билан таъминлаш), шунингдек, маданий-оммавий ҳамда бошқа тантанали тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш;

уй-жой-коммунал хўжалиги, энергия, сув ва иссиқлик таъминоти, транспорт қатнови соҳасидаги масалаларни ҳал этиш;

QMMB: 07/26/264/0733-son
15.07.2026-y.

в) Ўзбекистон Республикасининг Давлат чегарасида юзага келган оператив вазиятдан келиб чиқиб, Давлат чегарасининг айрим ҳудудларини муҳандислик жиҳатдан жиҳозлаш, замонавий ахборот-коммуникация технологияларини татбиқ этиш, чегара хизматини ўташ учун зарур инфратузилма яратиш ва ҳарбий мол-мулк билан таъминлаш тадбирларини амалга ошириш.

Ушбу бандда кўрсатилган тадбирларни молиялаштиришда Жамғарма маблағларида тақчиллик юзага келган ҳолларда биринчи навбатда ушбу бандниng “а” кичик бандида кўрсатилган уч йиллик стратегик режалар (“йўл хариталар”) бўйича тадбирларни молиялаштириш учун маблағлар ажратилади (бундан ушбу бандниng “в” кичик бандида кўрсатилган ҳоллар мустасно).

Белгилансинки, ушбу қарорнинг 4-банди “а” кичик бандида кўрсатилган уч йиллик стратегик режалар (“йўл хариталари”) ҳамда “б” кичик бандида кўрсатилган бир йиллик тадбирлар режалари (“йўл хариталари”) тегишлича Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимларининг қарорлари билан тасдиқланади”.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

QMMB: 07/26/265/0740-son
15.07.2026-y.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

2026 yil « 15 » июль № ПҚ–265

Аҳолига кўрсатилаётган давлат хизматларини такомиллаштириш ҳамда фуқаролар учун қўшимча қулайликлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида

Янги Ўзбекистонда “**инсон учун**” **тамойили** асосида инсон ҳуқуқлари устуворлигини таъминлаш, давлат хизматларини кўрсатишни янада яхшилаш орқали фуқароларнинг оворагарчилигини камайтириш ва уларга қўшимча қулайликлар яратиш мақсадида **қарор қиламан**:

I. Мулкий ҳуқуқларни расмийлаштириш тартибини такомиллаштириш

1. Адлия вазирлиги ҳамда Кадастр агентлигининг **2027 йил 1 январдан** бошлаб қуйидагиларни жорий этиш тўғрисидаги таклифлари маъқуллансин:

(а) кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқларни давлат рўйхатидан ўтказиш пайтида ҳуқуқ эгаси ўз вақтида рўйхатдан ўтказувчи органга мурожаат этмаганлиги аниқланганда **маъмурий жавобгарлик чораси қўлламасдан** кечиктириш муддатидан келиб чиқиб рўйхатдан ўтказиш учун **оширилган ставкаларда тўлов ундириш** тизимини жорий этиш;

(б) солиқ тўловчига хусусий мулк ҳуқуқи асосида тегишли бўлган турар жой мерос тартибида ёки яқин қариндошидан ҳадя сифатида олинган бўлса, ушбу турар жойни сотишдан олинган даромадга солиқ солинмаслиги учун белгиланган муддатни васият қилувчи ёки ҳадя қилувчининг мазкур **турар жойга бўлган мулк ҳуқуқи давлат рўйхатидан ўтказилган** санадан бошлаб ҳисоблаш.

2. Белгилансинки, **тақиқ ёки хатлов қўйилган турар жойга** гаровга олувчининг розилигисиз яшаш ва турган жойи бўйича **рўйхатдан ўтказишга рухсат берилади**. Бунда **рўйхатдан ўтказилаётган шахс** мулкдорнинг (гаровга олувчининг, тақиқни қўйишга ёки ечишга масъул органнинг) ички ишлар органларига қилган мурожаати асосида унинг рўйхатдан ўтказилганлиги бекор қилинишига **аввалдан розилик бериши зарур**.

QMMB: 07/26/265/0740-son
15.07.2026-y.

II. Электрон давлат хизматлари оммабоплигини ошириш ва фуқаролар учун қўшимча қулайликлар яратиш

3. 2026 йил 1 октябрдан бошлаб Ягона интерактив давлат хизматлари порталида (кейинги ўринларда – Ягона портал) қуйидаги хизматлар жорий этилсин:

(а) жисмоний ва юридик шахсларга ўзига мулк ҳуқуқи асосида тегишли бўлган **кўчмас мулк объектлари** ва **автомототранспорт воситаларини гаровга ёки ипотекага** қўйишга, шунингдек, уларни **бегоналаштиришга** тақиқ қўйиш ёки уни бекор қилиш. Бунда тақиқ жисмоний шахслар томонидан Face-ID воситасида идентификациядан ўтган ҳолда, юридик шахслар томонидан эса уларнинг муассислари (иштирокчилари, акциядорлари) умумий йиғилишининг қарори асосида электрон рақамли имзо орқали қўйилади;

(б) фуқароларнинг ўз номига расмийлаштирилган ва фойдаланилаётган **телефон рақамлари** ва **банк карталари** тўғрисида маълумот олиш ва ушбу жараённи бошқаришнинг қуйидаги имкониятларини яратиш:

(i) телефон рақамини муайян муддатга **нофаол ҳолатга ўтказиш (фаоллаштириш)** ва ўзи фойдаланмаётган телефон рақамларига **хизмат кўрсатишни тўхтатиш** ҳақида аризалар киритиш;

(ii) телефон рақами уланган пулли хизматлар ҳақида маълумот олиш;

(iii) банк карталарини блоклаш (ёпиш) ҳақида эмитентга аризалар юбориш;

(в) фуқаронинг номига **янги нотариал ҳаракат** расмийлаштирилганда автоматик тарзда уни Ягона портал орқали **хабардор қилиш** ва улар **ҳисобини юритиш**.

4. Рақамли технологиялар вазирлиги Адлия вазирлиги ва тижорат банклари билан биргаликда **2026 йил 1 сентябрга қадар** Ягона порталда фуқаролар учун ўз хизматларини таклиф этаётган тижорат банкларининг **виртуал тўлов картасини танлов асосида очиш** ва ўзининг **банк пластик картасини бириктириш**, ушбу карталар орқали давлат хизматлари учун **тўловларни амалга ошириш**, шунингдек, **ортиқча ёки нотўғри тўланган маблағларни** ёхуд давлат хизматини кўрсатишни **кечиктирганлик (асоссиз рад этганлик) учун тўловларни автоматик тарзда ўзининг картасига қайтариш** имкониятини жорий этсин.

QMMB: 07/26/265/0740-son
15.07.2026-y.

5. Белгилансинки, фуқаролардан Ягона порталда **виртуал тўлов картасини очиш,** уни тегишли тижорат банкларининг инфратузилмасидан фойдаланган ҳолда **маблағ билан тўлдириш** ва виртуал тўлов картасидаги пул маблағларини **ўзига тегишли банк пластик карталарига ўтказиш учун комиссия тўловлари ундирилмайди**.

6. Вояга етмаган шахслар ўз ҳуқуқларини мустақил равишда амалга ошириш юзасидан судларга мурожаат қилишда **давлат божини тўлашдан озод қилинсин**.

7. Адлия вазирлиги Болалар омбудсмани ва Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги билан биргаликда икки ой муддатда вояга етмаган шахслар ўз ҳуқуқларини мустақил равишда амалга ошириш юзасидан келиб чиқадиган даъволар бўйича давлат божини тўлашдан озод этишни назарда тутувчи қонун лойиҳасини Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

III. Проактив давлат хизматлари кўрсатишни кенгайтириш

8. 2026 йил 1 октябрдан бошлаб, жисмоний шахснинг фамилияси, исми ва отасининг исми, туғилган санаси каби **бирламчи маълумотлари ўзгарганда** ўзида ушбу маълумотларни акс эттирувчи давлат органларига тегишли ахборот тизимларидаги маълумотларга **автоматик тарзда идоралараро электрон ҳамкорлик йўли билан ўзгартиришлар киритиш** амалиёти йўлга қўйилади. Бунда:

(а) бирламчи маълумотларни ўзгартирган адлия органи бу ҳақда **“Электрон ҳукумат” тизимининг** идоралараро интеграциялашув платформаси орқали ушбу маълумотлар билан ишловчи давлат органларига **хабарномалар тақдим этади** ва тегишли электрон шаклдаги ҳужжатларга фуқароларнинг **қўшимча аризаларисиз ўзгартириш киритади**;

(б) жисмоний шахсга Ягона портал орқали унинг **бирламчи маълумотлари ўзгарганлиги** ҳақида реал вақт режимида маълумотнома берилади;

(в) жисмоний шахснинг **бирламчи маълумотлари ўзгарганлиги** ҳақидаги маълумотнома асосида шахсни тасдиқловчи ҳужжатлар қайта расмийлаштириб берилади.

QMMB: 07/26/265/0740-son
15.07.2026-y.

9. Бирламчи маълумотлар ўзгарганда автоматик тарзда **ўзгартириш киритиладиган маълумотлар рўйхати** 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

10. Адлия вазирлиги Марказий банк, Ички ишлар вазирлиги, Кадастр агентлиги билан биргаликда **2026 йил 1 ноябрга қадар** кўчмас мулк объектлари ва автомототранспорт воситаларига қўйилган **тақиқни** кредитлар тўлиқ сўндирилганда **проактив шаклда ечишни** йўлга қўйсин.

IV. Реклама соҳасидаги муносабатларни тартибга солиш

11. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ фуқароларнинг **реклама қўнғироқлари ва хабарномаларига оид ҳуқуқлари ҳимоясини кучайтириш** мақсадида **2026 йил 1 ноябрдан** бошлаб:

(а) мобиль алоқа воситалари орқали SMS-хабарномалар йўли билан товар (иш, хизмат)ларни таклиф (реклама) қилувчи ҳар қандай юридик ва жисмоний шахслар фақат шахснинг **ёзма ёки электрон розилигини** олгандан сўнг ушбу ҳаракатларни (рекламани) амалга оширади;

(б) мобиль алоқа воситаларига реклама қўнғироқлари ва SMS-хабарномаларни жўнатиш хизматини кўрсатувчи юридик шахслар ўзларининг ахборот тизимларини **Шахсга доир маълумотлар базаларининг давлат реестрида** рўйхатдан ўтказгандан кейин тегишли хизматларни кўрсатишига йўл қўйилади;

(в) реклама қўнғироқлари ва хабарномаларини телекоммуникация тармоқлари (мобиль алоқа) орқали **соат 18.00 дан 09.00 гача тарқатиш тақиқланади**;

(г) мобиль алоқа операторларига ўзлари томонидан тарқатиладиган реклама қўнғироқлари ва хабарномаларини абонент сўровига кўра **тўлиқ** ёки **қисман блоклаш мажбурияти юклатилади**;

(д) мазкур бандда белгиланган талабларга риоя этмаслик реклама ҳамда шахсга доир маълумотлар тўғрисидаги қонунчиликни бузиш ҳисобланади ва тегишли чоралар кўриш учун асос бўлади.

QMMB: 07/26/265/0740-son
15.07.2026-y.

12. Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси Марказий банк ҳамда манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда **2026 йил 1 сентябрга** қадар қуйидагиларни назарда тутувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини Вазирлар Маҳкамасига киритсин:

(а) жисмоний шахсларга мўлжалланган кредит, муддатли тўлов, насия савдога оид ҳар қандай рекламада товарнинг (ишнинг, хизматнинг) жорий қийматига нисбатан **қанча сумма қўшиб тўланиши кераклиги, якуний қиймати қанча бўлиши** хусусидаги маълумотлар бўлиши шартлиги;

(б) молиявий хизматлар рекламаси ёки улар ҳақидаги реклама тарзидаги ахборот, агар тегишли шартнома тузилаётган пайтда аниқлаш мумкин бўлмаса, реклама қилинаётган хизматларнинг келгусидаги самарадорлиги кафолатлари ёки ваъдаларига эга бўлмаслиги.

V. Қарор ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат

13. Давлат хизматларини такомиллаштириш ҳамда фуқаролар учун қўшимча қулайликлар яратиш бўйича чора-тадбирлар режаси 2-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

14. Ички ишлар вазирлиги 2026 йил 1 декабрга қадар илғор хорижий тажрибани ўрганган ҳолда шахсга доир маълумот ҳисобланадиган аниқ ахборот (ахборотлар мажмуи) рўйхатини ишлаб чиқсин ва белгиланган тартибда тасдиқласин.

15. Мазкур қарорнинг 2-бандида белгиланган қоидани тегишли қонунчилик ҳужжатлари ва идоравий кўрсатмалар қабул қилинишини кутмасдан мазкур қарор нормалари кучга кирган пайтдан эътиборан сўзсиз ва тўғридан тўғри амалда қўллаш таъминлансин.

16. Адлия вазирлиги манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда уч ой муддатда қонунчилик ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

QMMB: 07/26/265/0740-son
15.07.2026-y.

17. Мазкур қарорнинг ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсан жавобгар этиб Бош вазир ўринбосари Ж.А. Қўчқоров ва адлия вазири А.Д. Ташкулов белгилансин.

18. Қарор ижросини муҳокама қилиб бориш, ижро учун масъул идоралар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти **Ш. Мирзиёев**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

Тошкент шаҳри

QMMB: 07/26/265/0740-son
15.07.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 15 июлдаги ПҚ–265-сон қарорига
1-илова

Бирламчи маълумотлар ўзгарганда автоматик тарзда ўзгартириш киритиладиган маълумотлар РЎЙХАТИ

Т/р	Шахсга доир маълумот номи	Ваколатли орган номи
1.	“ID-карта” автоматлаштирилган ахборот тизимидаги жисмоний шахснинг фамилияси, исми ва отасининг исми, туғилган вақти ҳақидаги маълумотлар	Ички ишлар вазирлиги
2.	Ички ишлар вазирлиги Жамоат хавфсизлиги департаменти Йўл ҳаракати хавфсизлиги хизматининг Давлат йўл ҳаракати хавфсизлиги хизмати ахборот тизимидаги жисмоний шахснинг фамилияси, исми ва отасининг исми, туғилган вақти ҳақидаги маълумотлар	
3.	Ички ишлар вазирлиги Жамоат хавфсизлиги департаменти Йўл ҳаракати хавфсизлиги хизматининг Автомототранспорт воситаларини ҳисобга қўйишни рўйхатдан ўтказиш ягона автоматлаштирилган тизимидаги мулкдорга оид маълумотлар (жисмоний шахснинг фамилияси, исми ва отасининг исми, манзили кабилар)	
4.	Давлат умумий ўрта таълим муассасасини тугатганлиги тўғрисидаги ҳужжат (шаҳодатнома) маълумотлари	Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги
5.	Якка тартибдаги тадбиркорлик гувоҳномаси маълумотлари	Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари соҳасидаги ваколатли органлар, Адлия вазирлиги
6.	Жисмоний шахс ёки якка тартибдаги тадбиркорга бериладиган лицензия, рухсатнома ва хабарнома (тасдиқнома) маълумотлари	
7.	Ўзини ўзи банд қилган шахс гувоҳномаси маълумотлари	Солиқ қўмитаси
8.	Солиқ тўловчининг идентификациялаш тизими маълумотлари	
9.	Давлат ўрта махсус, профессионал (касб-ҳунар) таълим муассасасини тугатганлиги тўғрисидаги диплом маълумотлари	Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги
10.	Давлат олий таълим муассасасини тугатганлиги тўғрисидаги диплом маълумотлари	
11.	“Ягона миллий меҳнат тизими” идоралараро дастурий-аппарат комплексидаги жисмоний шахснинг фамилияси, исми ва отасининг исми, туғилган вақти ҳақидаги маълумотлар	Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги
12.	Кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқларнинг реестри маълумотлари	Кадастр агентлиги

Изоҳ. *Мазкур рўйхатнинг 1–3-бандларидаги маълумотлар ахборот тизимида ўзгаради ва бу келгусида шахсни ушбу ҳужжатларни қайта расмийлаштириш мажбуриятидан озод этмайди.*

QMMB: 07/26/265/0740-son
15.07.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 15 июлдаги ПҚ–265-сон қарорига
2-илова

Давлат хизматларини такомиллаштириш ҳамда фуқаролар учун қўшимча қулайликлар яратиш бўйича
ЧОРА-ТАДБИРЛАР РЕЖАСИ

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Амалга ошириш шакли	Ижро муддати	Ижро учун масъуллар
1.	“Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига фуқароларнинг мулкий ҳуқуқларини расмийлаштириш тартиби такомиллаштирилиши муносабати билан ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги қонун лойиҳасини ишлаб чиқиш ва белгиланган тартибда Вазирлар Маҳкамасига киритиш. Бунда: Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексга кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқни давлат рўйхатидан ўтказиш учун ўз вақтида мурожаат этмаслик учун маъмурий жавобгарликни истисно қиладиган ҳолатларни киритиш; Солиқ кодексига солиқ тўловчига хусусий мулк ҳуқуқи асосида тегишли бўлган турар жой мерос тартибида ёки яқин қариндошидан ҳадя сифатида олинган бўлса, ушбу турар жойни сотишдан олинган даромадга солиқ солинмаслиги учун белгиланган муддатни васият қилувчи ёки ҳадя қилувчининг мазкур **турар жойга бўлган мулк ҳуқуқи давлат рўйхатидан ўтказилган** санадан бошлаб ҳисобланишини белгилаш;	Қонун лойиҳаси	2026 йил сентябрь	Адлия вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Солиқ қўмитаси, Кадастр агентлиги

QMMB: 07/26/265/0740-son
15.07.2026-y.

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Амалга ошириш шакли	Ижро муддати	Ижро учун масъуллар
	“Кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқларни давлат рўйхатидан ўтказиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқларни давлат рўйхатидан ўтказиш бўйича ўз вақтида мурожаат этмаганлик (кечиктирганлик) учун оширилган ставкаларда тўлов ундирилиши мумкинлиги тўғрисидаги нормани киритиш; “Ўзбекистон Республикаси фуқароларини, чет эл фуқароларини ҳамда фуқаролиги бўлмаган шахсларни яшаш жойи ва турган жойи бўйича рўйхатдан ўтказиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунидаги яшаш жойи ва турган жой бўйича рўйхатдан ўтказишни рад этиш учун асосларни мазкур қарорда белгиланган қоидалар билан мувофиқлаштириш.			
2.	Нотариал ҳаракат натижасида кўчмас мулк объектларига нисбатан ҳуқуқ юзага келганда у ҳақидаги маълумотлар Кадастр ва кўчмас мулкларни рўйхатдан ўтказиш интеграцион ахборот тизимидаги (кейинги ўринларда – UZKAD тизими) кўчмас мулк объектларига бўлган ҳуқуқларнинг давлат реестрига автоматик равишда инсон омилисиз қайд этиш ва рўйхатдан ўтказилганлик ҳақидаги электрон ҳужжатни (кўчирма) “Нотариус” ахборот тизими орқали реал вақт режимида тақдим этиш имкониятини жорий қилиш. Бунда: кўчмас мулкка нисбатан ҳуқуқни рўйхатдан ўтказганлик учун қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тўловларни манфаатдор шахслар томонидан нотариал ҳаракатлар якунида амалга ошириш;	Норматив-ҳуқуқий ҳужжат, комплекс чора-тадбирлар	2026 йил ноябрь	Адлия вазирлиги, Кадастр агентлиги

QMMB: 07/26/265/0740-son
15.07.2026-y.

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Амалга ошириш шакли	Ижро муддати	Ижро учун масъуллар
	кўчмас мулкка нисбатан ҳуқуқларнинг мавжудлиги, қўйилган тақиқлар, қарздорликлар ва қонунчилик ҳужжатларига асосан бошқа чекловлар UZKAD тизимида реал вақт режимида аниқланиб, кўчмас мулкка нисбатан ҳуқуқни рўйхатдан ўтказишга тўсқинлик қилувчи ҳолатлар мавжуд бўлмаганда ҳуқуқ юзага келганлиги ҳақида ёзувни шу вақтнинг ўзида кўчмас мулк объектларига бўлган ҳуқуқларнинг давлат реестрига киритиш.			
3.	Қуйидаги давлат хизматларининг маъмурий регламентларини ишлаб чиқиш ва Ягона интерактив давлат хизматлари портали, шу жумладан, Давлат хизматлари марказлари орқали давлат хизматларини кўрсатишни йўлга қўйиш: жисмоний ва юридик шахслар томонидан ўзига мулк ҳуқуқи асосида тегишли бўлган **кўчмас мулк объектлари** ва **автомототранспорт воситаларини гаровга ёки ипотекага** қўйишга, шунингдек, уларни **бегоналаштиришга** тақиқ қўйиш ва ушбу тақиқни ечиш (олиб ташлаш); фуқароларнинг ўз номига расмийлаштирилган ва фойдаланилаётган **телефон рақамлари** ва улар уланган пулли хизматлар тўғрисида маълумот олиш, телефон рақамини муайян муддатга **нофаол ҳолатга ўтказиш (фаоллаштириш)** ва ўзи фойдаланмаётган телефон рақамларига **хизмат кўрсатишни тўхтатиш**;	Ҳукумат қарори лойиҳалари Амалий чора-тадбирлар	2026 йил август 2026 йил сентябрь	Адлия вазирлиги, Марказий банк, Ички ишлар вазирлиги, Кадастр агентлиги, Телекоммуникацияларни тартибга солиш агентлиги Рақамли технологиялар вазирлиги, Адлия вазирлиги, тижорат банклари, мобил алоқа операторлари

QMMB: 07/26/265/0740-son
15.07.2026-y.

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Амалга ошириш шакли	Ижро муддати	Ижро учун масъуллар
	фуқароларнинг ўз номига расмийлаштирилган ва фойдаланилаётган **банк карталари** тўғрисида маълумот олиш, банк карталарини блоклаш (ёпиш).			
4.	Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 10 июлдаги “Давлат кадастри соҳасида давлат хизматлари нархларини белгилашда табақалаштирилган ёндашув тартибини такомиллаштириш тўғрисида”ги 186-сон қарорига кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқларни давлат рўйхатидан ўтказиш бўйича ўз вақтида мурожаат этмаганлик учун кечиктириш муддатидан келиб чиқиб табақалаштирилган тўлов ставкаларини белгилашни назарда тутувчи ўзгартириш киритиш. Бунда оширилган ставкаларда тўлов ундиришнинг энг кўп миқдори кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқни давлат рўйхатидан ўтказиш учун ўз вақтида мурожаат этмаслик учун белгиланган маъмурий жарима миқдоридан ошиб кетмаслигини ҳамда маъмурий жавобгарлик қўлланилган ҳолларда оширилган тўловлар ундирилмаслигини таъминлаш.	Ҳукумат қарори лойиҳаси	2026 йил август	Кадастр агентлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги
5.	Ягона интерактив давлат хизматлари порталида фуқаролар учун **виртуал тўлов картасини** очиш, шунингдек, ўзининг банк пластик картасини бириктириш, ушбу карталар орқали **давлат хизматлари учун тўловларни амалга ошириш**, шунингдек, **ортиқча ёки нотўғри тўланган маблағларни** ёхуд давлат хизматини кўрсатишни **кечиктирганлик (асоссиз рад этганлик) учун тўловларни автоматик тарзда фойдаланувчининг картасига қайтариш** имкониятини яратиш.	Норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси Амалий чора-тадбирлар	2026 йил август	Рақамли технологиялар вазирлиги, Адлия вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Марказий банк, тижорат банклари

QMMB: 07/26/265/0740-son
15.07.2026-y.

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Амалга ошириш шакли	Ижро муддати	Ижро учун масъуллар
6.	Жисмоний шахснинг фамилияси, исми ва отасининг исми, туғилган санаси каби бирламчи маълумотларни ўзгартириш ва шахсни тасдиқловчи ҳужжатларни қайта расмийлаштириш тартибини такомиллаштириш. Бунда: бирламчи маълумотларни ўзгартирган адлия органи томонидан давлат органларига хабарномалар тақдим этиш ва тегишли электрон шаклдаги ҳужжатларга фуқароларнинг қўшимча аризаларисиз ўзгартириш киритиш; жисмоний шахснинг Ягона интерактив давлат хизматлари порталидаги шахсий кабинетига унинг **бирламчи маълумотлари ўзгарганлиги** ҳақида реал вақт режимида маълумотнома бериш ва ушбу маълумотнома асосида шахсни тасдиқловчи ҳужжатларни қайта расмийлаштириб бериш.	Норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси	2026 йил август	Адлия вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Рақамли технологиялар вазирлиги
7.	Давлат хизматларини кўрсатишни тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга **давлат хизматлари учун ортиқча ёки нотўғри тўланган маблағларни** ёхуд давлат хизматини кўрсатишни **кечиктирганлик (асоссиз рад этганлик) учун тўловлар** Ягона интерактив давлат хизматлари порталида фуқаролар учун очилган **виртуал тўлов картаси ёки банк картасига** қайтарилишини (ўтказиб берилишини) назарда тутувчи ўзгартиришларни киритиш.	Вазирлар Маҳкамаси қарори лойиҳаси	2026 йил август	Адлия вазирлиги, Рақамли технологиялар вазирлиги

QMMB: 07/26/265/0740-son
15.07.2026-y.

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Амалга ошириш шакли	Ижро муддати	Ижро учун масъуллар
8.	Меҳнат ва давлат фуқаролик хизмати тўғрисидаги қонунчиликка биринчи марта ёки бошқа соҳада иш қидираётган шахслар учун шартнома асосида ҳақ тўланмайдиган, бироқ меҳнат дафтарчасига тегишли ёзув киритилишини назарда тутувчи, шунингдек, штатдан ташқари **3 ойгача** ишлаб кўриш имконини берувчи **“иш ўрганувчи стажёр”** тизимини жорий қилиш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш.	Ахборот-таҳлилий маълумотнома, норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси	2026 йил сентябрь	Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги
9.	Бирламчи маълумотлар ўзгарганда автоматик равишда ўзида ушбу маълумотларни акс эттирувчи ахборот тизимларидаги маълумотларга идоралараро электрон ҳамкорлик йўли билан ўзгартириш киритишнинг техник имкониятини яратиш.	Комплекс чора-тадбирлар	2026 йил сентябрь	Рақамли технологиялар вазирлиги, Адлия вазирлиги, мазкур қарорнинг 1-иловасида кўрсатилган вазирлик ва идоралар
10.	Жисмоний шахснинг бирламчи маълумотлари ўзгарганда шахсини тасдиқловчи ҳужжатларни қайта расмийлаштириш (алмаштириш)нинг қуйидаги тартибини жорий этиш: ФҲДЁ бўлинмасида далолатнома ёзувини қайд этиш билан бир вақтда маълумотларни йиғиш пункти сифатида идентификация картаси (ID-карта), янги намунадаги ҳайдовчилик гувоҳномаси ва хорижга чиқиш биометрик паспортини расмийлаштириш учун махсус дастурий-аппарат қурилмалари орқали аризаларни қабул қилиш (биометрик маълумотлари билан бирга); ҳайдовчилик гувоҳномаси ва идентификация картаси (ID-карта)сини чоп этиш қурилмаси мавжуд бўлган давлат хизматлари марказида чоп этиб почта хизмати орқали етказиб бериш;	Норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси	2026 йил сентябрь	Адлия вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги *(комплекс чора-тадбирлар бўйича тенг ижрочи)*

QMMB: 07/26/265/0740-son
15.07.2026-y.

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Амалга ошириш шакли	Ижро муддати	Ижро учун масъуллар
	хорижга чиқиш биометрик паспортини белгиланган тартибда маълумотларни йиғиш пунктига етказиб бериш. “ФҲДЁнинг ягона электрон архиви” ахборот тизимини Ички ишлар вазирлигининг “Xorijga chiqish biometrik pasporti”, “Pasport-visa”, шунингдек, “YHXXning Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi” тизимлари билан интеграция қилиш. Адлия вазирлигининг бюджетдан ташқари маблағлари ва қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан ФҲДЁ бўлинмаларини идентификация карта (ID-карта), янги намунадаги ҳайдовчилик гувоҳномаси ва хорижга чиқиш биометрик паспортини расмийлаштиришга мўлжалланган махсус дастурий-аппарат қурилмалари билан таъминлаш.	Комплекс чора-тадбирлар	2026 йил октябрь	
11.	“Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига фуқароларнинг реклама қўнғироқлари ва хабарномаларига оид ҳуқуқлари ҳимоясини кучайтиришга қаратилган ўзгартиришлар киритиш ҳақида”ги қонун лойиҳасини ишлаб чиқиш ва Вазирлар Маҳкамасига киритиш. Унда қуйидагиларни назарда тутиш: мобил алоқа воситалари орқали SMS-хабарномалар йўли билан товар (иш, хизмат)ларни таклиф қилувчи ҳар қандай юридик ва жисмоний шахслар фақат шахснинг ёзма ёки электрон розилигини олгандан сўнг ушбу ҳаракатларни (рекламани) амалга ошириши;	Норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси	2026 йил август	Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси, Ички ишлар вазирлиги, Телекоммуникацияларни тартибга солиш агентлиги

QMMB: 07/26/265/0740-son
15.07.2026-y.

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Амалга ошириш шакли	Ижро муддати	Ижро учун масъуллар
	мобил алоқа воситаларига реклама қўнғироқлари ва SMS-хабарномаларни жўнатиш хизматини кўрсатувчи юридик шахслар ўзларининг ахборот тизимларини Шахсга доир маълумотлар базаларининг давлат реестрида рўйхатдан ўтказгандан кейин тегишли хизматларни кўрсатишига йўл қўйилиши; реклама хабарномалари ва қўнғироқларни телекоммуникация тармоқлари (мобил алоқа) орқали фақат кундузги вақтда – соат 09.00 дан 18.00 гача тарқатишга йўл қўйилиши; мобил алоқа операторлари ўзлари томонидан тарқатиладиган реклама хабарномаларини ва қўнғироқларни абонент сўровига кўра тўлиқ ёки бир қисмини блокланиши.			
12.	Давлат хизматларини кўрсатишнинг қоғозсиз ва мижозга йўналтирилган тизимини кенгайтириш. Бунда Ягона интерактив давлат хизматлари портали фойдаланувчилари учун қуйидагиларни жорий қилиш: (а) давлат хизматидан фойдалангандан сўнг фикр қолдирган, хизмат сифатини баҳолаган, сўровномаларда иштирок этган, ҳужжатларни қоғозсиз, электрон шаклда олган ҳамда жамоатчилик муҳокамаларида иштирок этган фойдаланувчиларга бонуслар бериш ва ушбу бонусларни йиғимларни тўлашда чегирмалар бериш ва бошқа рағбатлантириш чораларини тақдим этиш; (б) жисмоний шахсларнинг расмий электрон почтасини очиш; (в) порталда ҳаётий вазиятларга асосланган тушунтириш механизмларини жорий қилиш.	Президент қарори лойиҳаси	2026 йил сентябрь	Адлия вазирлиги, Рақамли технологиялар вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги

QMMB: 07/26/265/0740-son
15.07.2026-y.

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Амалга ошириш шакли	Ижро муддати	Ижро учун масъуллар
13.	Кўчмас мулк объектлари ва автотранспорт воситаларига қўйилган тақиқни кредитлар тўлиқ сўндирилганда проактив шаклда ечишни йўлга қўйиш. Бунда: (а) гаров ва (ёки) ипотека шартномаси нотариал тартибда амалга оширилганда: кўчмас мулк ва автомототранспорт воситалари бўйича кредитлар тўлиқ сўндирилганда бу ҳақида банкларараро тўлов тизими орқали “Нотариус” автоматлаштирилган ахборот тизимига маълумот тақдим этиш; “Нотариус” автоматлаштирилган ахборот тизими орқали олинган маълумотлар асосида бир иш кунида кўчмас мулк ва автотранспорт воситаларига қўйилган тақиқларни ечиш; (б) гаров ва (ёки) ипотека шартномаси банклар томонидан амалга оширилганда – кўчмас мулк ва автомототранспорт воситалари бўйича кредитлар тўлиқ сўндирилганда бу ҳақида банкларараро тўлов тизими орқали тақиқни бекор қилиш ҳақида проактив шаклда гаров реестрига ёзув киритиш.	Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари	2026 йил октябрь	Адлия вазирлиги, Марказий банк, Ички ишлар вазирлиги, Кадастр агентлиги
14.	Фуқаронинг номига янги нотариал ҳаракат расмийлаштирилганда автоматик тарзда уни Ягона интерактив давлат хизматлари порталидаги шахсий кабинетига хабарнома юбориш, амалга оширилган нотариал ҳаракатларнинг ҳисобини юритиб бориш (архивлаш).	Комплекс чора-тадбирлар	2026 йил сентябрь	Адлия вазирлиги, Рақамли технологиялар вазирлиги

QMMB: 07/26/265/0740-son
15.07.2026-y.

T/p	Чора-тадбирлар номи	Амалга ошириш шакли	Ижро муддати	Ижро учун масъуллар
15.	Микроқарз бўйича шартномаларнинг дастлабки қисмида шартноманинг асосий юзасининг камида 30 фоизини эгаллайдиган матнли огоҳлантириш ахборот хати ва реклама материалларида салбий оқибатлар ҳақидаги огоҳлантириш ахборотини жойлаштириш мажбурийлигини белгилаш. Истеъмолчини чалғитувчи деб топилган кредит маҳсулотларини вақтинчалик ёки доимий тақиқлаш амалиётини жорий этиш.	Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси	2026 йил сентябрь	Марказий банк, Адлия вазирлиги
16.	Ўзбекистон Республикаси фуқароси паспортини ёки идентификацияловчи ID-картасини ёхуд хорижга чиқиш учун биометрик паспортни, Ўзбекистон Республикасида доимий яшовчи фуқаролиги бўлмаган шахс идентификацияловчи ID-картасини (яшаш гувоҳномасини) ёки ҳаракатланиш ҳужжатини, шунингдек, Ўзбекистон Республикасида доимий яшовчи чет эл фуқаросининг идентификацияловчи ID-картасини (яшаш гувоҳномасини) йўқотиб қўйганда ёки яроқсиз ҳолга келганида маъмурий жавобгарликка тортмасдан, қўшимча миқдорда давлат божи тўлаш орқали янги ҳужжатни расмийлаштириб бериш юзасидан таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритиш.	Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари	2026 йил октябрь	Ички ишлар вазирлиги, Адлия вазирлиги

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

2026 yil «17» июль №ПҚ–269

Республикада халқаро таълим стандартлари асосида ўрта махсус, касбий ва олий таълим дастурларини жорий этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида

Мамлакатда илғор хорижий тажрибалар асосида ўрта махсус, касбий ва олий таълим дастурларининг интеграциясини таъминлаш, маҳаллий ва хорижий олий таълим ташкилотлари ўртасида дастурларни ўзаро тан олиш орқали академик мобилликни кучайтириш, шунингдек, интеграциялашган дастурларни халқаро рейтингларнинг топ-100 талик рўйхатга кирувчи университетлари академик талабларига мувофиқлаштириш ҳамда ушбу йўналишдаги ишларни жадаллаштириш мақсадида **қарор қиламан**:

I. Мақсадлар

1. Қуйидагилар ушбу қарорни қабул қилишнинг **асосий мақсадлари** этиб белгилансин:

(а) ишлаб чиқилган **интеграциялашган ўрта махсус, касбий ва олий таълим дастурларини** тизимли жорий этишни жадаллаштириш;

(б) ёшлар учун ўрта махсус, касбий таълимдан олий таълимга **узлуксиз ўтишнинг** жозибадор шаклларини жорий этиш;

(в) ёшларнинг халқаро даражада тан олинган дастурларда **таълим олиш имкониятларини кенгайтириш**;

(г) “Эл-юрт умиди” жамғармаси билан ҳамкорликда стипендиатлар учун ажратиладиган маблағларни **янада самарали йўналтириш**, номзодларни **саралаш** тизимини такомиллаштириш.

II. Интеграциялашган таълим дастурларини жорий этиш

2. Ўзбекистонда интеграциялашган таълим дастурларини жорий этиш мақсадида Буюк Британиянинг "IQF – Integrated qualifications framework" таълим ташкилоти билан ҳамкорликда **Халқаро малакалар ва баҳолаш маркази** (кейинги ўринларда – Марказ) ташкил этилганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

3. Марказга қуйидаги қўшимча вазифалар юклатилсин:

(а) ишлаб чиқилган интеграциялашган дастурларни QS (Quacquarelli Symonds) ёки THE (The Times Higher Education) халқаро рейтинг ташкилотлари глобал рейтингининг **топ-100 талик рўйхатига** (кейинги ўринларда – топ-100 талик рўйхат) **кирувчи ҳамкор олий таълим ташкилотларининг академик талабларига** солиштириш ва мувофиқлаштириш;

(б) топ-100 талик **рўйхатга** кирувчи **ҳамкор олий таълим ташкилотлари** томонидан тан олинадиган **бакалавриатда "1+3", "2+2", магистратурада "1+1"** каби **таълим моделларини** ишлаб чиқиш;

(в) Ўзбекистон Республикасида **етакчи хорижий олий таълим ташкилотлари**нинг олий маълумот тўғрисидаги дипломини беришга қаратилган **тузилмаларни** (кампус, филиал, франшиза, таълим дастурларини амалга ошириш марказлари ва бошқалар) **ташкил этиш** бўйича келишувга эришиш.

Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Ташқи ишлар вазирлиги, Таълим сифатини таъминлаш миллий агентлиги ҳамда бошқа вазирлик ва идоралар юқоридаги вазифаларни самарали амалга ошириш учун **Марказга ҳар томонлама** кўмаклашсин.

4. Буюк Британия илғор тажрибаси асосида интеграциялашган таълим дастурларини жорий қилишни янада кенгайтириш мақсадида **тажриба-синов тариқасида** Тошкент архитектура-қурилиш университети (кейинги ўринларда – Университет) ҳузурида **Интеграциялашган дастурлар олий мактаби** (кейинги ўринларда – Олий мактаб) ташкил этилсин.

5. Белгилансинки:

(а) Олий мактаб фаолияти **Буюк Британиянинг нуфузли** олий таълим ташкилотлари андозаси асосида йўлга қўйилади;

(б) Олий мактаб Университетнинг **юридик шахс мақомига эга давлат муассасаси шаклидаги таркибий бўлинмаси** ҳисобланиб, Ўзбекистон Республикаси Давлат герби тасвири туширилган ва ўз номи давлат тилида ёзилган муҳрга ва бланкаларга, мустақил балансга ҳамда ғазначилик хизмати қўмитасида шахсий ғазна ҳисобварақларига эга бўлади;

(в) Олий мактабда таълим жараёни Буюк Британиянинг 3–8-таълим даражаларига мувофиқ дастлабки босқичда **Норзамбриа** (Northumbria) ва **Хертфордшир** (Hertfordshire) университетлари, кейинчалик QS (Quacquarelli Symonds) ёки THE (The Times Higher Education) халқаро рейтинг ташкилотлари глобал рейтингининг топ-300 талик рўйхатига (кейинги ўринларда – топ-300 талик рўйхат) кирувчи бошқа ҳамкор **олий таълим ташкилотлари** томонидан тан олинадиган дастурлар асосида йўлга қўйилади;

(г) Олий мактаб ва бошқа ҳамкор олий таълим ташкилотларида амалга ошириладиган таълим дастурлари "Эл-юрт умиди" жамғармаси дастурлари доирасида стипендиатлар учун таълимнинг дастлабки босқичини Ўзбекистон Республикасида амалга ошириш, кейинги босқичларини **Буюк Британия** ва **бошқа давлатларнинг** етакчи ҳамкор олий таълим ташкилотларида **узлуксиз давом эттириш** имкониятини инобатга олган ҳолда **ишлаб чиқилади**;

(д) Олий мактабни муваффақиятли тамомлаган битирувчиларга хорижий ҳамкор олий таълим ташкилоти ва Олий мактабнинг Ўзбекистон Республикасида олий таълим тўғрисидаги ҳужжат сифатида **тан олинадиган дипломи** берилади.

6. Белгилансинки:

(а) Олий мактабнинг олий бошқарув органи **Кузатув кенгаши** ҳисобланади, унинг таркибига Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Бошқарув самарадорлиги агентлиги, Марказ, Университет ва хорижий ҳамкор таълим ташкилотлари ҳамда йирик компания вакиллари киритилади;

(б) Кузатув кенгаши таркиби Олий мактаб директори таклифига асосан олий таълим, фан ва инновациялар **вазири** томонидан **тасдиқланади**.

7. Қуйидагилар:

(а) Кузатув кенгашининг асосий **вазифалари** этиб белгилансин:

(i) Олий мактабга талабаларни **қабул қилиш** параметрларини, ундаги таълим **шакли** ва **тили**ни, шунингдек, **талабаларни қабул қилиш** ва **ўқитиш тартибини** белгилаш;

(ii) Олий мактабда **янги бакалавриат** таълим йўналишлари, **магистратура** ва **докторантура** мутахассисликларини очиш;

(iii) Олий мактаб раҳбарияти ва ходимлари ҳамда профессор-ўқитувчиларини ишга қабул қилиш **тартибини** белгилаш, шунингдек, уларнинг фаолиятига баҳо бериш, улар фаолиятининг **асосий самарадорлик** кўрсаткичларини (KPI) тасдиқлаш;

(iv) Олий мактабни ривожлантиришнинг ўрта ва узоқ муддатли **стратегик режаларини** тасдиқлаш;

(v) ўқув жараёнига етакчи **маҳаллий** ва **хорижий мутахассисларни** жалб этиш, Олий мактаб ходимларининг иш ҳақи ва бошқа **тўловлар миқдорини** белгилаш;

(vi) Олий мактабнинг ўрта муддат учун шакллантириладиган **бизнес-режаси** ҳамда даромадлар ва харажатлар параметрларини тасдиқлаш, уларнинг ижросини муҳокама қилиш;

(б) Олий мактабнинг **асосий вазифалари** этиб белгилансин:

(i) Буюк Британиянинг илғор тажрибаси асосида олий таълим тизимини такомиллаштириш ҳамда республика **иқтисодиёт** тармоқлари ва **ижтимоий** соҳа учун **малакали кадрлар** тайёрлаш;

(ii) Марказ томонидан **иқтисодиёт** тармоқлари ва **ижтимоий** соҳа учун ишлаб чиқилган **интеграциялашган таълим дастурлари асосида ўқув жараёнини** йўлга қўйиш;

(iii) олий таълим ташкилотларининг буюртмалари асосида профессор-ўқитувчилар ҳамда тегишли мутахассислар учун Буюк Британия ва бошқа давлатларнинг методологиясига мувофиқ **малака ошириш курсларини** ташкил этиш.

8. Белгилансинки:

(а) Олий мактабга қонунчилик ҳужжатларида белгиланган **академик, молиявий ва ташкилий мустақилликка оид тартиб-таомиллар татбиқ қилинади**;

(б) Марказ томонидан ишлаб чиқилган, Олий мактаб ҳамда бошқа таълим ташкилотларида жорий этиладиган **интеграциялашган таълим дастурлари** Марказ томонидан халқаро академик стандартларга **валидация** қилинади ва **мувофиқлаштирилади**. Бунда мазкур дастурлар валидацияси Таълим сифатини таъминлаш миллий агентлиги томонидан белгиланган тартибда **тан олинади**;

(в) Олий мактабда ўзаро келишув (progression agreement) асосидаги **таълим** дастурларининг хорижий олий таълим **ташкилотларидаги қисмини**, шу жумладан, **масофавий шаклда ўқиш** имконияти яратилади;

(г) Марказ директори жамоатчилик асосида олий таълим, фан ва инновациялар вазирининг **маслаҳатчиси** ҳисобланади;

(д) Университет тузилмасида **интеграциялашган таълим дастурлари бўйича проректор – Олий мактаб директори** лавозими жорий этилади;

(ж) Олий мактаб билан **техникумлар** ҳамкорлиги йўлга қўйилади. Бунда:

(i) интеграциялашган таълим дастурлари жорий этилган техникумларда ушбу дастурларни муваффақиятли тамомлаган битирувчиларга **Олий мактабнинг** тегишли бакалавриат таълим йўналишида кириш имтиҳонларисиз ўқишни **давом эттиришга** рухсат берилади;

(ii) интеграциялашган таълим дастурлари асосида таҳсил олган ўқувчиларнинг кредитлари хорижий **етакчи ҳамкор** таълим ташкилотлари томонидан **тан олиниши таъминланади**.

9. 2027/2028 ўқув йилидан бошлаб босқичма-босқич **ахборот технологиялари, жумладан, сунъий интеллект, муҳандислик, архитектура ва қурилиш, бизнес-бошқарув, тиббиёт, санъат, педагогика, қишлоқ ва сув хўжалиги, хизматлар соҳаси, жумладан, туризм** соҳаларида интеграциялашган таълим дастурлари жорий этиладиган олий таълим ташкилотлари рўйхати 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

Марказ мазкур йўналишларда **интеграциялашган таълим дастурларини ишлаб чиқиш**, уларнинг ўзаро тенглигини тан олиш мақсадида **хорижий ҳамкор ташкилотлар билан музокаралар ўтказиш**, **профессор-ўқитувчилар таркибини шакллантириш** бўйича зарур чораларни кўрсин.

10. Таълим соҳасига бошқарувнинг замонавий шакллари ва услубларини татбиқ этиш, республика олий таълим ташкилотлари ва техникумлар бошқарувини халқаро илғор, шу жумладан, Буюк Британия тажрибаси асосида такомиллаштириш, шунингдек, халқаро экспертлик, ишончли бошқарув хизматларини жорий этиш мақсадида Марказ ҳузурида доимий фаолият олиб борувчи ва шартнома асосида жалб этиладиган **Хорижий экспертлар ишчи гуруҳи** ташкил этилсин.

11. Хорижий экспертлар ишчи гуруҳининг **2026–2027 йиллардаги қуйидаги асосий самарадорлик кўрсаткичлари** (KPI) белгилансин:

(а) муҳандислик, технология, тиббиёт, таълим, туризм, маданият, санъат ва бошқа йўналишлар бўйича **камида 5 та** интеграциялашган таълим дастурларини топ-100 талик рўйхатга кирувчи **олий таълим ташкилотлари**нинг **академик талабларига** мувофиқлаштириш;

(б) топ-300 талик рўйхатга кирувчи олий таълим ташкилотлари билан **бакалавриатда "1+3", "2+2", магистратурада "1+1"** каби таълим моделлари асосида камида **3 та** таълим дастурлари бўйича келишувга эришиш;

(в) Ўзбекистон Республикасида **етакчи хорижий олий таълим ташкилотлари**нинг олий маълумот тўғрисидаги дипломини беришга қаратилган камида **2 та** таълим дастурларини амалга ошириш марказларини (University Delivery Center) **ташкил этиш** бўйича келишувга эришиш.

12. Олий мактаб фаолиятини **молиялаштириш манбалари** этиб қуйидагилар белгилансин:

(а) тўлов-контракт асосида ўқитишдан тушадиган маблағлар;

(б) хўжалик фаолияти ва шартнома асосида хизматлар кўрсатишдан тушадиган маблағлар;

(в) юридик ва жисмоний шахсларнинг ҳомийлик хайриялари;

(г) халқаро молия ташкилотлари, таълим ва нодавлат нотижорат ташкилотларнинг грантлари;

(д) қонунчилик ҳужжатлари билан тақиқланмаган бошқа манбалар.

13. Касбий таълим агентлиги Хорижий экспертлар ишчи гуруҳи фаолиятини молиялаштириш ва унга юклатилган вазифаларни амалга ошириш учун Касбий таълимни ривожлантириш жамғармаси ҳисобидан 2026 йилдан бошлаб **ҳар йили январь ойида** (2026 йилда июль ойида) Марказга **2 миллиард сўм** миқдорида **маблағ** ажратиб борсин.

14. “Эл-юрт умиди” жамғармасига **стипендия дастурлари** доирасида **2027/2028 ўқув йилидан бошлаб** белгиланган тартибда танловдан ўтган талабгорларнинг қуйидаги харажатларини молиялаштиришга **рухсат берилсин**:

(а) Олий мактаб ва бошқа олий таълим ташкилотлари томонидан амалга ошириладиган **интеграциялашган таълим** дастурлари асосида таҳсил олаётган, **топ-300 талик рўйхатга** кирган хорижий олий таълим ташкилотларида, шунингдек, **соҳавий етакчи олий таълим ташкилотларида** ўқишни узлуксиз давом эттириш имконига эга бўлган талабаларнинг хориждаги ўқишини ташкил этиш билан **боғлиқ харажатларини**;

(б) ушбу бандниng “а” кичик бандида назарда тутилган олий таълим ташкилотлари **бакалавриат** таълим йўналишига **шартли** қабул қилинган талабгорлар учун Олий мактаб ва бошқа маҳаллий олий таълим ташкилотларида интеграциялашган дастурлар асосида ташкил этиладиган **1-курс** (**босқич**) (**foundation**) дастурлари **ўқиш харажатларини** (tuition fee).

“Эл-юрт умиди” жамғармаси Марказ билан биргаликда **2026 йил 1 декабрга** қадар мазкур бандда назарда тутилган молиялаштириш тизимини амалиётда самарали қўллаш **тартибини Жамғарма Бошқарув кенгашига** тасдиқлаш учун киритсин.

15. Бошқарув самарадорлиги агентлиги Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Давлат сиёсати ва бошқаруви академияси билан биргаликда **2026 йил 1 сентябрга қадар** Марказ томонидан илғор хорижий тажриба, жумладан, Буюк Британия таълим стандартлари асосида профессор-ўқитувчилар ва ўрта бўғин бошқарув кадрлари учун:

(а) компетенцияларга асосланган ёндашув ва натижага йўналтирилган бошқарув мезонлари қамраб олинган **малака ошириш дастурлари** ишлаб чиқилиши;

(б) ишлаб чиқилган дастурларда давлат фуқаролик хизматчилари, айниқса ўрта бўғин бошқарув кадрлари учун зарур бўлган **лидерлик**, **стратегик фикрлаш, қарор қабул қилиш** ва **рақамли бошқарув** компетенциялари қамраб олиниши, миллий малака талаблари билан уйғунлаштирилиши ва белгиланган тартибда республикада босқичма-босқич **жорий этилиши** чораларини кўрсин.

16. Олий мактаб Университетнинг Тошкент шаҳри Юнусобод тумани “Юнусота” МФЙ Юнусобод 14-мавзеси 73-уй манзилидаги бино ва иншоотларида қурилиш-таъмирлаш ишлари якунлангандан сўнг **текин фойдаланиш ҳуқуқи** асосида жойлаштирилсин.

17. Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги Тошкент шаҳар ҳокимлиги ҳамда Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги билан биргаликда Университетнинг Тошкент шаҳри Юнусобод тумани “Юнусота” МФЙ Юнусобод 14-мавзеси 73-уй манзилидаги **бино** ва **иншоотларида** белгиланган тартибда реконструкция ва таъмирлаш ишларини **2027 йил 1 сентябрга қадар якунлаб**, фойдаланишга топшириш чораларини кўрсин.

18. Белгилансинки, Олий мактаб унинг бино-иншоотларида қурилиш-таъмирлаш ишлари якунлангунига қадар **Университетнинг Тошкент шаҳри Юнусобод тумани Янгишаҳар кўчаси 9А-уй манзилидаги бино-иншоотларига** текин фойдаланиш ҳуқуқи билан вақтинча жойлаштирилади.

III. Қарор ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат

19. Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 8 апрелдаги “Халқаро даражада тан олинадиган миллий касбий ва олий таълим дастурларини ишлаб чиқиш ва жорий қилишнинг биринчи навбатдаги чора-тадбирлари тўғрисида”ги 209-сон қарорига 2-иловага мувофиқ **ўзгартириш ва қўшимчалар** киритилсин.

20. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги “Эл-юрт умиди” жамғармаси, манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда **икки ой муддатда** қонунчилик ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклиф киритсин.

21. Мазкур қарорнинг ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсан жавобгар этиб олий таълим, фан ва инновациялар вазири К.А. Шарипов ҳамда Халқаро малакалар ва баҳолаш маркази директори Х.Х. Хомидов белгилансин.

22. Қарор ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов ва Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси раҳбари ўринбосари И.Т. Сираджев зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти **Ш.Мирзиёев**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

Тошкент шаҳри

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 17 июлдаги ПҚ–269-сон қарорига
1-илова

2027/2028 ўқув йилидан бошлаб босқичма-босқич интеграциялашган таълим дастурлари жорий этиладиган олий таълим ташкилотлари рўйхати

№	Олий таълим ташкилотлари
1.	Андижон давлат чет тиллари институти
2.	Банк-молия академияси
3.	Бухоро давлат университети
4.	Давлат сиёсати ва бошқаруви академияси
5.	Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети
6.	Миллий рассомлик ва дизайн институти
7.	Наманган давлат университети
8.	Самарқанд давлат чет тиллари институти
9.	Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
10.	Термиз давлат университети
11.	Тошкент давлат иқтисодиёт университети
12.	Тошкент давлат педагогика университети
13.	Тошкент давлат тиббиёт университети
14.	Тошкент давлат транспорт университети
15.	“ToshTech” техника университети
16.	Тошкент шаҳридаги Турин политехника университети
17.	Ўзбекистон Миллий университети
18.	Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети
19.	Фарғона давлат техника университети
20.	Халқаро қишлоқ хўжалиги университети

Изоҳ: мазкур рўйхатга Халқаро малакалар ва баҳолаш маркази таклифига асосан Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги томонидан ўзгартириш ва қўшимчалар киритилиши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 17 июлдаги ПҚ–269-сон қарорига
2-илова

Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 8 апрелдаги “Халқаро даражада тан олинадиган миллий касбий ва олий таълим дастурларини ишлаб чиқиш ва жорий қилишнинг биринчи навбатдаги чора-тадбирлари тўғрисида”ги 209-сон қарорига киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар

1. Муқаддимадаги “умумий ўрта” сўзлари “ўрта махсус” сўзлари билан алмаштирилсин.

2. 1–3-бандлар қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“1. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ҳамда Таълим сифатини таъминлаш миллий агентлигининг “Integrated Qualifications Framework” таълим ташкилоти (Буюк Британия) билан ҳамкорликда Халқаро малакалар ва баҳолаш маркази (кейинги ўринларда – Марказ)ни ташкил этиш тўғрисидаги таклифига розилик берилсин”.

2. Қуйидагилар Марказнинг асосий вазифалари этиб белгилансин:

халқаро таълим дастурлари талаблари асосида ўрта махсус, касбий ва олий таълим ташкилотларининг интеграциялашган дастурларини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш бўйича таклифлар тайёрлаш;

ўрта махсус, касбий ва олий таълим ташкилотларида қурилиш ва муҳандислик, ахборот технологиялари, транспорт ва логистика, туризм ва меҳмонхона, бизнес йўналишларига устуворлик берган ҳолда Буюк Британия стандартлари ҳамда бошқа халқаро стандартлар асосида 3-8 таълим даражалари бўйича халқаро таълим дастурларини босқичма-босқич жорий этиш;

ўрта махсус, касбий ва олий таълим ташкилотларининг интеграциялашган дастурлари бўйича талабгорлар малака ва билимларини баҳолаш;

ўрта махсус, касбий ва олий таълим ташкилотларининг интеграциялашган дастурлари бўйича меҳнат бозори талабларига мос келадиган малака сертификатлари тизимини яратиш;

ўрта махсус, касбий ва олий таълим ташкилотларининг интеграциялашган дастурлари асосида таҳсил олган ўқувчиларнинг кредитлари ва таълим натижаларини дастлабки босқичда ҳамкорлик ўрнатиладиган Буюк Британия таълим ташкилотлари, кейинги босқичларда ҳамкорлик ўрнатиладиган бошқа хорижий давлатлар таълим ташкилотлари томонидан тан олинишини таъминлаш;

ўрта махсус, касбий ва олий таълим ташкилотлари ва давлат идораларида фаолият олиб борувчи профессор-ўқитувчилар ва ўрта бўғин бошқарув кадрлари учун малака ошириш курсларини ташкил этиш ва сертификатлаш тизимини жорий этиш.

3. Белгилансинки:

Марказ масъулияти чекланган жамият шаклида таъсис этилиб, унинг фаолияти 15 нафаргача маҳаллий ва чет эллик мутахассис ҳамда экспертларни жалб этиш орқали йўлга қўйилади;

Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги Марказ томонидан ўрта махсус, касбий ва олий таълим ташкилотларининг интеграциялашган дастурларини жорий этишга кўмаклашади;

Марказ томонидан халқаро тажрибалар асосида ишлаб чиқилган ва такомиллаштирилган миллий малакалар бўйича талабларни жорий этиш йўлга қўйилади;

Марказ ўз фаолиятини Ўзбекистон Республикасининг таълим тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари асосида амалга оширади".

3. 6-бандда:

(а) биринчи хатбошидаги "2025 йилда" сўзлари "2026 йил 1 майдан 2027 йил 1 январгача" сўзлари билан алмаштирилсин;

(б) иккинчи хатбоши қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

"Касбий таълим агентлигининг Касбий таълимни ривожлантириш жамғармасидан 2026 йил учун 2,9 миллиард сўм миқдорида маблағ";

(в) еттинчи хатбошидаги "2026 йил 1 январдан" сўзлари "2027 йил 1 январдан" сўзлари билан алмаштирилсин;

(г) қуйидаги мазмундаги саккизинчи хатбоши билан тўлдирилсин:

“Марказ ҳомийлик, беғараз ёрдам шаклида унга жисмоний ва юридик шахслар томонидан ўтказилган пул маблағлари ва мулкни, шунингдек, қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ, халқаро ва молиявий ташкилотлар ва хорижий давлатлар ваколатхоналари билан ҳамкорликда амалга оширилган лойиҳалар доирасида беғараз берилган мол-мулк ҳамда тадбиркорлик фаолиятидан олинган фойда ва хўжалик ҳисобидаги мулкдан фойдаланишдан тушган даромадларни олиш ва тасарруф қилиш ҳуқуқига эга”.

4. 7-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“7. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ўрта махсус, касбий ва олий таълим ташкилотларининг интеграциялашган дастурларини жорий қилишда Марказга таълим жараёнини ташкил қилиш учун жиҳозланган ўқув аудиторияларини ажратиш, ўқув ва илмий лабораториялар ҳамда кутубхоналардан фойдаланишга зарур шароитлар яратиш, шунингдек, дастурларни жорий қилишда таълим ташкилотларда масъул ходимларни бириктириш чораларини кўрсин”.

5. Қуйидаги мазмундаги 7^1- ва 7^2-бандлар билан тўлдирилсин:

“7^1. Марказ беғараз фойдаланиш ҳуқуқи асосида Тошкент шаҳри Юнусобод тумани Янгишаҳар кўчаси 9А-уй манзилидаги бинога жойлаштирилсин.

7^2. Марказ молиявий имкониятидан келиб чиқиб, хизмат автотранспорт воситалари харид қилиши, ижара ва аутсорсинг шартлари асосида автотранспорт воситаларини жалб этиши ва улардан хизмат доирасида фойдаланишни ташкил этиши мумкин.

Бунда Марказга Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 29 апрелдаги “Давлат бошқаруви ва маҳаллий давлат ҳокимияти органларида хизмат автотранспорт воситаларидан фойдаланиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 258-сон қарори талаблари татбиқ этилмайди”.

6. 8-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“8. Мазкур қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси олий таълим, фан ва инновациялар вазири К.А. Шарипов зиммасига юклансин”.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

QMMB: 07/26/270/0765-son
21.07.2026-y.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

2026 yil «17» июль № ПҚ–270

Маданий тадбирларнинг халқаро жозибадорлигини ошириш ва соҳага замонавий бошқарувни жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида

Ўзбекистоннинг йирик халқаро концерт-томоша тадбирлари ўтказиладиган майдон сифатидаги жозибадорлигини ошириш, маданий маҳсулотлар ва хизматлар экспортини кенгайтириш, маданий лойиҳаларни ташкил этиш тизимини такомиллаштириш, шунингдек, “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивалининг нуфузини янада юксалтириш мақсадида **қарор қиламан:**

I. Маданий тадбирларни ташкил этиш тизимини такомиллаштириш

1. Маданият вазирлиги ҳузуридаги “Халқаро фестиваллар дирекцияси” давлат муассасаси негизида Маданият ва санъатни ривожлантириш жамғармаси (кейинги ўринларда – Жамғарма) ҳузурида амалдаги молиялаштириш тартиби сақланган ҳолда **“Маданий лойиҳалар миллий оператори”** давлат муассасаси (кейинги ўринларда – Миллий оператор) ташкил этилсин.

2. Қуйидагилар:

(а) “Маданий лойиҳалар миллий оператори” давлат муассасасининг **асосий вазифалари ва ҳуқуқлари** 1-иловага мувофиқ;

(б) “Маданий лойиҳалар миллий оператори” давлат муассасасининг фаолиятини **молиялаштириш манбалари** 2-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

3. Белгилансинки, Миллий операторга халқаро ва республика миқёсидаги маданий тадбирларга тайёргарлик кўриш ва ўтказиш доирасида қуйидаги **имтиёз ва преференциялар** берилади:

(а) жамоат тартибини таъминлаш, тез тиббий ёрдам ва йўл-патруль хизматларидан бепул фойдаланиш;

(б) Миллий оператор томонидан ўтказиладиган маданий тадбирлар доирасида Ўзбекистон Республикасига олиб кириладиган ускуналар, саҳна ва техник воситалар, реквизитлар, мусиқа асбоблари, ахборот-реклама материаллари, LED-экранлар, дронлар ҳамда бошқа моддий қийматликларни **2030 йил 1 январга қадар** божхона божидан озод этиш. Бунда:

(i) мазкур кичик бандда назарда тутилган имтиёзлар, истисно тариқасида, Миллий оператор томонидан тасдиқланган рўйхат асосида тақдим этилади;

(ii) имтиёз қўлланилган мазкур товарлар импорт қилинган кундан бошлаб 3 йил давомида бошқа шахсга сотилган ёки ўтказилган ёхуд ижарага берилган тақдирда, тақдим этилган имтиёзлар бекор қилинади ҳамда божхона божи белгиланган тартибда тўлиқ ҳажмда импорт қилувчидан ундириб олинади.

4. Белгилаб қўйилсинки:

(а) Миллий операторнинг бошқарув ходимларининг чекланган сони **18 нафарни** ташкил этади;

(б) Миллий оператор "Халқаро фестиваллар дирекцияси" давлат муассасасининг барча ҳуқуқлари, мажбуриятлари ва шартномалари бўйича **ҳуқуқий вориси** ҳисобланади.

5. Жамғарма раисига, зарур ҳолларда, Миллий операторнинг амалдаги штат бирликларини сақлаган ҳолда ва меҳнатга ҳақ тўлаш фонди доирасида унинг тузилмасига ўзгартиришлар киритиш ҳуқуқи берилсин.

7. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги 2027 йилдан бошлаб Миллий оператор фаолиятини молиялаштиришда ўтказилган халқаро тадбирлар давомида олинган қўшимча даромадларни инобатга олган ҳолда зарур маблағлар Давлат бюджетининг параметрларида назарда тутиб борилишини таъминласин. Бунда:

(а) йил давомида мега-тадбирларни ташкил этишдан тушган, шу жумладан, қуйидаги тушумлар Миллий операторнинг бюджетдан ташқари ҳисоб рақамида жамланади:

(i) билетлар сотувидан тушган тушумлар;

(ii) ижодкорлар билан келишган ҳолда халқаро платформалар ҳамда оммавий ахборот воситаларида халқаро тадбирларни кенг ёритиш ҳуқуқини сотиш ҳисобидан келиб тушган тушумлар;

(iii) хорижий ва маҳаллий туристларга VIP билетни сотишдан ташқари қўшимча хизматлар кўрсатишдан келиб тушган тушумлар;

(iv) ижодкорларнинг махсус шахсий брендидаги маҳсулотлар (кийим, постер ва бошқалар) сотувидан тушадиган тушумлар;

(б) Миллий операторга давлат тадбирлари учун зарур маблағлар Жамғарма ҳисоб-китобларига асосан тўлиқлигича Давлат бюджети параметрларида назарда тутиб борилади.

8. Белгилансинки, Миллий оператор томонидан ўтказиладиган мега-концертлар доирасида **бепул чипталар** сони Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясининг Креатив иқтисодиёт ва туризм бўйича департаменти билан келишилади ҳамда максимал ўриндиқлар сонининг **10 фоиз**идан ошмаслиги лозим.

9. Миллий оператор томонидан ташкил этиладиган мега-тадбирларни техник жиҳатдан таъминлаш мақсадида:

(а) Миллий операторга мега-тадбирларга тайёргарлик кўриш ва ўтказиш учун дронлар, LED-экранларни олиб кириш, сақлаш ва улардан фойдаланишга рухсат берилсин;

(б) Рақамли технологиялар вазирлиги, Фуқаро авиацияси агентлиги Миллий операторнинг мурожаати асосида дронлардан фойдаланиш учун тегишли рухсатномаларни 10 иш кунидан ошмаган муддатда белгиланган тартибда расмийлаштиришда амалий ёрдам кўрсатсин;

(в) Мудофаа вазирлиги ва Давлат хавфсизлик хизмати мега-тадбирлар ўтказилиши белгиланган ҳудудларда дронлардан фойдаланишни қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартиб ва муддатларда келишиб беришни таъминласин.

II. “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивалига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш

10. Маданият вазирлиги, Жамғарма ва Самарқанд вилояти ҳокимлигининг:

(а) “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивалини (кейинги ўринларда – Фестиваль) келгуси йилдан бошлаб **ҳар икки йилда** бир маротаба ўтказиш;

(б) Жамғармани Фестивалнинг **буюртмачиси** этиб белгилаш;

(в) Миллий операторни Фестивалга ташкилий-техник жиҳатдан тайёргарлик кўриш ва ўтказиш бўйича **ижрочи оператор** этиб белгилаш тўғрисидаги таклифлари маъқуллансин.

11. Қуйидагилар:

(а) “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивалига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш бўйича **ташкилий қўмита** (кейинги ўринларда – Ташкилий қўмита) таркиби 3-иловага мувофиқ;

(б) “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивалига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш бўйича ташкилий қўмитанинг **асосий вазифалари** 4-иловага мувофиқ;

(в) “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивалига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш бўйича **чора-тадбирлар** дастури 5-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

12. Белгилансинки:

(а) Жамғарма Ташкилий қўмитанинг **ишчи органи** ҳисобланади;

(б) Фестивални ўтказиш доирасида Миллий оператор ва Жамғарма буюртмаларига мувофиқ вақтинча олиб кириладиган юклар, асбоб-ускуналар ва тарғибот-ташвиқот материаллари белгиланган тартибда “**вақтинча олиб кириш**” ҳамда Фестиваль якунига кўра қайтариб олиб чиқилганда, “**реэкспорт**” божхона режимига расмийлаштирилади.

13. Фестивални ташкил этиш ва ўтказиш билан боғлиқ харажатлар Ташкилий қўмита томонидан тасдиқланадиган харажатлар сметаси асосида қуйидаги тартибда қопланади:

(а) 40 фоизи – Вазирлар Маҳкамасининг захира жамғармаси ҳисобидан;

(б) 30 фоизи – Маданият вазирлигига 2027 йилдан бошлаб тегишли йилда Давлат бюджети параметрларида ушбу мақсад учун назарда тутиладиган бюджет маблағлари ҳисобидан;

(в) 30 фоизи – Самарқанд вилояти маҳаллий бюджети, ҳомийлик хайриялари ҳамда қонунчилик ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан.

14. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Миллий операторнинг Фестивалга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш билан боғлиқ харажатларини молиялаштириш учун Жамғарманинг асослантирилган ҳисоб-китобларига асосан зарур маблағларнинг 2027 йилда Давлат бюджетининг параметрларида назарда тутилишини таъминласин.

III. Қарор ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат

15. Ташқи ишлар вазирлиги Жамғарма ва Миллий оператор буюртмаларига биноан тадбирларни хорижда тарғиб қилиш, чет эллик иштирокчиларни таклиф қилишда кўмаклашсин ҳамда шунингдек, улар учун кириш визалари, зарур ҳолларда, “Тошкент” ва “Самарқанд” халқаро аэропортларида расмийлаштирилишини таъминласин.

16. Жамғарма Оммавий ахборот воситалари учун контент тайёрлаш маркази, Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги, Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси, Ўзбекистон миллий медиа бирлашмаси, “Дунё” ахборот агентлиги ва бошқа оммавий ахборот воситалари билан биргаликда Фестивалнинг аҳамияти тушунтирилиши ҳамда амалга оширилаётган ишлар кенг ёритиб борилишини ташкил этсин.

18. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 26 февралдаги “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивалини ўтказишга тайёргарлик кўриш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–4214-сон қарори ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

19. Жамғарма:

(а) бир ой муддатда Миллий операторнинг тузилмасини, штат жадвалини ва уставини тасдиқласин;

(б) икки ой муддатда:

(i) мега-тадбирларни ўтказиш тартибини тасдиқлашни назарда тутувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини;

(ii) қонунчилик ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

20. Мазкур қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов ва Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси Креатив иқтисодиёт ва туризм бўйича департаменти бошлиғи Г.О. Умерова зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти **Ш. Мирзиёев**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

Тошкент шаҳри

QMMB: 07/26/270/0765-son
21.07.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 17 июлдаги ПҚ–270-сон қарорига
1-илова

“Маданий лойиҳалар миллий оператори” давлат муассасасининг асосий вазифалари ва ҳуқуқлари

1. Асосий вазифалар:

(а) халқаро ва республика миқёсидаги фестиваллар, концертлар, кўрик-танловлар ва Маданият ва санъатни ривожлантириш жамғармасининг бошқа тадбирларини ташкил этиш ва ўтказиш;

(б) мамлакат ичида ва хорижда, шу жумладан, Туризм қўмитаси билан ҳамкорликда Ўзбекистоннинг туристик салоҳиятига оид халқаро ва республика кўргазмаларини (тасвирий ва амалий санъат, халқ ҳунармандчилиги ва касб-ҳунар) ташкил этиш;

(в) ўзбек миллий санъатини мамлакатда ва хорижда кенг тарғиб қилиш, унинг ноёб намуналарини сақлаб қолиш ва келажак авлодларга етказиш;

(г) халқаро мусиқа фестиваллари ташкилотлари билан ўзаро ижодий ҳамкорлик қилиш;

(д) ижодкорлар билан келишган ҳолда халқаро платформалар ҳамда оммавий ахборот воситаларида халқаро тадбирларни кенг ёритиш;

(ж) халқаро тадбирларга ҳомийлар ва меценатларни кенг жалб қилиш ҳамда ҳамкорлик ўрнатиш;

(з) Туризм қўмитаси билан биргаликда хорижий ва маҳаллий туристлар учун юқори даражадаги хизматлар сонини ошириш орқали тадбирларда иштирок этувчилар қамровини ошириш;

(и) халқаро ижодкорлар томонидан ўтказиладиган тадбирлар доирасида уларнинг махсус шахсий брендинг маҳсулотларини *(кийим, постер ва бошқалар)* реализация қилишга кўмаклашиш.

2. Ҳуқуқлар:

(а) давлат кўмагида ўтказиладиган, дунёга машҳур артистлар иштирокидаги халқаро даражадаги концерт-томоша тадбирларини (кейинги ўринларда — мега-тадбирлар) тайёрлаш ва ўтказиш бўйича давлат буюртмачиси ва айни вақтда уларнинг ташкилотчиси (ижрочиси) сифатида иштирок этиш;

(б) мега-тадбирлар бўйича ҳисоб-китобларни амалга ошириш учун тижорат банкларида ҳисобварақлар, шу жумладан, валюта ҳисобварақлари очиш;

(в) мега-тадбирлар харажатлар сметасини шакллантиришда моддий-техника базасини ривожлантириш ва ходимларни қўшимча рағбатлантиришга йўналтириладиган ўз фойдаси фоизини (тадбир умумий смета қийматининг 15 фоизигача) мустақил белгилаш;

(г) давлат-хусусий шериклик лойиҳаларида иштирок этиш, ҳомийлик, грант ва бошқа бюджетдан ташқари маблағларни жалб қилиш;

(д) лойиҳа гуруҳларини, техник топшириқларни шакллантириш ҳамда Маданият ва санъатни ривожлантириш жамғармасига мега-тадбирлар тақвими ва уларни амалга ошириш механизмлари бўйича таклифлар киритиш.

Изоҳ: Миллий оператор томонидан маданият ва санъат бўйича ўтказиладиган тадбирлар халқаро даражадаги тадбир сифатида тоифаланади.

QMMB: 07/26/270/0765-son
21.07.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 17 июлдаги ПҚ–270-сон қарорига
2-илова

“Маданий лойиҳалар миллий оператори” давлат муассасаси фаолиятини молиялаштириш манбалари

1. Давлат бюджетидан, шу жумладан, ҳар йили Давлат бюджетидан Миллий операторга ташкил этиладиган тадбирларни молиялаштириш учун ажратиладиган маблағлар.
2. Қайтариш шарти билан Маданият ва санъатни ривожлантириш жамғармаси томонидан ажратиладиган маблағлар.
3. Маданий тадбирларни ташкил этиш ва ўтказишдан тушадиган тушумлар.
4. Ижара ва хўжалик фаолиятидан тушадиган даромадлар.
5. Юридик ва жисмоний шахсларнинг ҳомийлик хайриялари.
6. Халқаро молия институтлари ҳамда донор ташкилотлар грантлари.
7. Қонун ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа манбалар.

QMMB: 07/26/270/0765-son
21.07.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 17 июлдаги ПҚ–270-сон қарорига
3-илова

“Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивалига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш бўйича ташкилий қўмита ТАРКИБИ

1.	А.Н. Арипов	–	Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири, *Ташкилий қўмита раиси*
2.	Г.О. Умерова	–	Маданият ва санъатни ривожлантириш жамғармаси раиси, *Ташкилий қўмита раиси ўринбосари*
3.	О.А. Назарбеков	–	маданият вазири
4.	Б.О. Саидов	–	ташқи ишлар вазири
5.	Ш.Х. Шерматов	–	рақамли технологиялар вазири
6.	Э.Г. Каримова	–	мактабгача ва мактаб таълими вазири
7.	К.А. Шарипов	–	олий таълим, фан ва инновациялар вазири
8.	А.А. Ташпулатов	–	ички ишлар вазири
9.	И.Р. Махкамов	–	транспорт вазири
10.	Б.Х. Ташматов	–	Миллий гвардия қўмондони
11.	И.И. Норқулов	–	иқтисодиёт ва молия вазирининг биринчи ўринбосари
12.	Ш.А. Аюпов	–	Фанлар академияси президенти
13.	Б.Г. Абдикаримов	–	Маданий мерос агентлиги директори
14.	А.Ў. Аққулов	–	Туризм қўмитаси раиси
15.	Д.А. Вахабов	–	Савдо-саноат палатаси раиси
16.	Б.Қ. Юсупалиев	–	Санитария-эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги қўмитаси раиси
17.	З.Ғ. Нарзуллаев	–	“Ўзбекистон темир йўллари” АЖ бошқаруви раиси
18.	Ш.Ш. Худайкулов	–	“Uzbekistan Airways” АЖ бошқаруви раиси
19.	Ж.О. Умарходжаев	–	“Uzbekistan Airports” АЖ бошқаруви раиси
20.	Ж.О. Ахмедов	–	маданият вазирининг биринчи ўринбосари – Кинематография агентлиги директори
21.	С.С. Саидов	–	Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси раиси
22.	А.В. Нуридинов	–	Ўзбекистон Бадиий академияси раиси

23. Р.А. Абдуллаев	–	Ўзбекистон композиторлари ва бастакорлари уюшмаси раиси
24. А.А. Джурабаев	–	Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси раиси
25. А.К. Кўчимов	–	Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги бош директори
26. А.М. Бобоев	–	Самарқанд вилояти ҳокими
27. Ш.Б. Умурзаков	–	Тошкент шаҳри ҳокими
28. А.А. Маннопов	–	Маданият ва санъатни ривожлантириш жамғармаси раисининг биринчи ўринбосари, *Ташкилий қўмита котиби*

Изоҳ. *Ташкилий қўмита аъзолари бошқа лавозимга ўтган тақдирда, унинг таркибига мазкур лавозимга янги тайинланган ёки зиммасига тегишли функцияларни бажариш юклатилган шахслар киритилади.*

QMMB: 07/26/270/0765-son
21.07.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 17 июлдаги ПҚ–270-сон қарорига
4-илова

“Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивалига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш бўйича ташкилий қўмитанинг асосий вазифалари

1. Харажатлар сметасини тасдиқлаш ва унинг доирасида тезкор ташкилий қарорлар қабул қилиш.
2. Фестиваль концепциясини, дастурнинг асосий параметрларини, брендлаш ва расмий рамзлардан фойдаланиш тартибини шакллантириш.
3. Миллий оператор, вазирлик, идора ва бошқа ташкилотларнинг фестивалга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш билан боғлиқ масалалар бўйича фаолиятини мувофиқлаштириш.
4. Фестивалга тайёргарликнинг алоҳида йўналишлари бўйича ишчи гуруҳлар ва эксперт кенгашларини тузиш.
5. Фестивални ўтказиш муддатларини белгилаш.

QMMB: 07/26/270/0765-son
21.07.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 17 июлдаги ПҚ–270-сон қарорига
5-илова

“Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивалига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш бўйича ЧОРА-ТАДБИРЛАР ДАСТУРИ

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Амалга ошириш механизми	Ижро муддати	Молиялаштириш манбалари	Масъул ижрочилар
1.	Маданият вазирлиги ҳузуридаги “Халқаро фестиваллар дирекцияси” давлат муассасасини Маданият ва санъатни ривожлантириш жамғармаси (кейинги ўринларда – Жамғарма) тасарруфига ўтказиш ва “**Маданий лойиҳалар миллий оператори**” давлат муассасаси (кейинги ўринларда – Миллий оператор) фаолиятини йўлга қўйиш.	1. Миллий оператор устави ва ташкилий тузилмасини тасдиқлаш. 2. Миллий оператор фаолиятининг асосий йўналишларини белгилаш. 3. Дирекциянинг амалдаги штатлари, моддий-техника базаси, молиялаштириш манбалари, ҳуқуқ ва мажбуриятлари бўйича ҳуқуқий ворислик масалаларини ҳал этиш. 4. Миллий оператор фаолиятини ҳамда унга мос равишда штатлар сони, молиялаштириш манбаларини кенгайтириш юзасидан Вазирлар Маҳкамасига таклиф киритиш. 5. Халқаро ва республика миқёсидаги маданий тадбирларга тайёргарлик кўриш ва уларни ўтказиш тизимини янада такомиллаштириш юзасидан Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритиб бориш.	2026 йил август	–	Жамғарма, Маданият вазирлиги
2.	Самарқанд шаҳридаги Регистон майдонида “**Шарқ тароналари**” халқаро мусиқа фестивали (кейинги ўринларда – Фестиваль) ўтказишни йўлга қўйиш.	1. Тегишли вазирлик ва идоралар, ҳокимликлар бўйича масъул ижрочиларни қамраб олувчи штабни ташкил этиш, молиялаштириш манбаларини аниқлаш ҳамда харажатлари сметасини тайёрлаш.	Фестиваль ўтказиладиган йили март-апрель	Фестивални ўтказиш учун назарда тутилган маблағлар	Жамғарма, Миллий оператор, тегишли вазирлик ва идоралар

		2. Фестивални ўтказиш бўйича қуйидагиларни назарда тутувчи режа ишлаб чиқиш: – Фестивалга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш билан боғлиқ харажатлар сметаси; – халқаро илмий-амалий конференция дастури; – хорижий ва маҳаллий мусиқашунослар, таниқли санъат арбоблари, етакчи мутахассислар ва фахрий меҳмонлар рўйхати; – Фестивалнинг расмий қисми дастури, шу жумладан, очилиш/ёпилиш маросимлари ва бадиий-саҳналаштириш қисмини тайёрлаш ва ўтказиш. 3. Фестивални ўтказиш бўйича янгиланган низомни тасдиқлаш учун Вазирлар Маҳкамасига киритиш. 4. Халқаро ҳакамлар ҳайъатининг таркибини шакллантириш. 5. Фестивалнинг янги логотипини яратиш. 6. Мукофот дизайнини ишлаб чиқиш ва мукофотлар тайёрлаш.	Фестиваль ўтказиладиган йили март-апрель 2026 йил август Фестиваль ўтказиладиган йили май 2026 йил август		
3.	Фестивални ташкилий жиҳатдан таъминлаш.	1. Фестиваль доирасида иштирокчиларни меҳмонхоналарда кутиб олиш ва жойлаштириш, овқатланиш, транспорт хизмати, ҳамроҳлик, маданий дастур ва дам олишни ташкил этиш. 2. Фестиваль ўтказиладиган асосий майдонни ташкил этиш ва тайёрлаш, муҳандислик-коммуникация	Фестиваль ўтказиладиган йили июнь-август Фестиваль ўтказиладиган йили	Фестивални ўтказиш учун назарда тутилган маблағлар, ташаббускорлар маблағлари, маҳаллий бюджетнинг қўшимча маблағлари	Самарқанд вилояти ҳокимлиги, Жамғарма, Туризм қўмитаси, Транспорт вазирлиги, Ташқи ишлар вазирлиги, Маданият вазирлиги, Маданий мерос агентлиги

		тармоқларини соз ҳолатга келтириш ва уларнинг узлуксиз ишлашини таъминлаш, Самарқанд шаҳрини ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш ишларини амалга ошириш, шунингдек, павильонларни ўрнатиш, тегишли ҳудудларни жиҳозлаш, кўнгилочар тадбирлар, умумий овқатланиш жойлари ва автобус бекатлари учун жойларни аниқлаш ва жиҳозлаш, ҳудудни декоратив безаш ва зарур ишловларни якунлашни таъминлаш.	июнь-август		
		3. Ўзбекистоннинг хориждаги дипломатик ваколатхоналари ва консулликлари орқали фестивалга меҳмонларни таклиф этиш. Бунда қуйидагиларни назарда тутиш: – таклиф этилган меҳмонлар рўйхатини тузиш; – меҳмонларнинг келиши ва кетишини қамраб олувчи жадвални тайёрлаш; – фестивалда вакиллари иштирок этиши кутилаётган хорижий давлатлар билан музокаралар ўтказиш ва уларга тегишли таклифномалар юбориш.	Фестиваль ўтказиладиган йили апрель-август		Жамғарма, Миллий оператор, Ташқи ишлар вазирлиги
		4. Фестиваль доирасида Маданият вазирлиги томонидан шакллантириладиган ҳамда Жамғарма билан келишиладиган тадбирлар рўйхатига мувофиқ маданий тадбирларни ташкил этиш. 5. Фестивални ЮНЕСКО шафелигида ўтказиш бўйича тегишли аризани ЮНЕСКОга тақдим этиш.	Фестиваль ўтказиладиган йили апрель		Жамғарма, Ташқи ишлар вазирлиги

4.	Фестивални ахборот материаллари билан таъминлаш ва унинг доирасида Ўзбекистон маданий меросини тарғиб қилиш.	1. Фестивалнинг хорижий иштирокчилари ва меҳмонларини Ўзбекистоннинг тарихий ва маданий ҳаёти билан, шу жумладан, Ўзбекистоннинг тарихий ёдгорликлари ва диққатга сазовор жойлари бўйлаб экскурсия маршрутини ишлаб чиқиш орқали таништириш. 2. Экскурсия маршрутига киритилган объектларни белгиланган тартибда меҳмонларни қабул қилишга тайёрлаш, шу жумладан, ободонлаштириш, таъмирлаш ва тегишли ҳолатга келтириш. 3. Ўзбекистон санъати тарихи ва бугунги кундаги аҳамияти тўғрисида махсус ҳужжатли фильм яратилишини ва унинг миллий телеканалларда уч тилда намойиш этилишини таъминлаш. 4. Тасдиқланган медиа-режага мувофиқ Фестивалнинг реклама-ахборот тарғиботини амалга ошириш, шу жумладан, туристик ташкилотлар, интернет-ресурслар ва ижтимоий тармоқлар орқали ахборот тарқатиш, шунингдек, маҳаллий ва хорижий оммавий ахборот воситаларида Фестиваль тўғрисида ахборот ва реклама материалларини тайёрлаш ва тарқатиш, сайёҳлар ва ҳунармандларни жалб қилиш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг хориждаги элчихоналари ва консулликларига реклама фото ва видеоматериаллари тақдим этиш.	Фестиваль ўтказиладиган йили март-август	Фестивални ўтказиш учун назарда тутилган маблағлар	Жамғарма, Туризм қўмитаси, Самарқанд вилояти ҳокимлиги, Маданият вазирлиги, Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси, Ташқи ишлар вазирлиги, Оммавий ахборот воситалари учун контент тайёрлаш маркази, Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги, Ўзбекистон миллий медиа бирлашмаси, “Дунё” ахборот агентлиги

5.	Маҳаллий темир йўл вокзаллари ва аэропортларда меҳмонларни муносиб кутиб олиш ва кузатиш.	1. Хориждан ташриф буюрадиган фестиваль иштирокчиларини маҳаллий темир йўл вокзаллари ва аэропортларда кутиб олиш, кузатиш бўйича махсус штаблар ташкил қилиш. 2. Меҳмонларни кутиб олиш жойларида фестиваль тўғрисидаги маълумотномаларни ўрнатиш. 3. Фестиваль кунлари Тошкент шаҳридан Самарқанд шаҳрига ҳаракатланувчи фестиваль иштирокчилари учун йўловчи поездларига белгиланган тартибда жойлар ажратилиши ва зарур ҳолларда қўшимча поездлар қўйилишини таъминлаш. 4. Фестивалга мўлжалланган алоҳида янги туризм маршрутларини ишлаб чиқиш.	Фестиваль ўтказиладиган йили июль-август Фестиваль ўтказиладиган йили июль-август Фестиваль ўтказиладиган йили июль-август Фестиваль ўтказиладиган йили июль-август	Фестивални ўтказиш учун назарда тутилган маблағлар	Самарқанд вилояти ҳокимлиги, Транспорт вазирлиги, “Ўзбекистон темир йўллари” АЖ, “Uzbekistan Airports” АЖ, “Uzbekistan Airways” АЖ, Тошкент шаҳар ҳокимлиги, Туризм қўмитаси, Жамғарма
6.	Хавфсизликни таъминлаш, тез тиббий ёрдам кўрсатишни ташкил этиш ва фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш чораларини кўриш.	Фестиваль ўтказиш даврида жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш, тез тиббий ёрдам кўрсатилишини ташкил этиш ва фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш чораларини кўриш.	Фестиваль ўтказиладиган даврда	Фестивални ўтказиш учун назарда тутилган маблағлар	Ички ишлар вазирлиги, Миллий гвардия, Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги
7.	Фестиваль сайтини қайта кўриб чиқиш ва такомиллаштириш.	1. Тадбирни юқори савияда ёритиш мақсадида фестиваль сайтини такомиллаштириш ва унда ахборотларни уч тилда (ўзбек, рус, инглиз) мунтазам эълон қилиб бориш. 2. Бунда фестивалда иштирок этишни истаган хорижий давлатлар санъаткор ва ижодкорларининг ушбу сайт орқали онлайн тарзда ариза топширишлари	2026 йил август Фестиваль ўтказиладиган йили май	Фестивални ўтказиш учун назарда тутилган маблағлар	Рақамли технологиялар вазирлиги, Жамғарма

		ва рўйхатдан ўтишларига имконият яратиш. 3. Сайт контенти ва тузилмасини келишиш.			
8.	Фестивални молиялаштириш.	1. Фестивалнинг харажатлар сметасини ишлаб чиқиш ва белгиланган тартибда Ташкилий қўмитага тасдиқлаш учун киритиш. 2. Фестиваль тадбирлари бошлангунига қадар тасдиқланган харажатлар сметаси бўйича пул маблағларини ўтказишни таъминлаш. 3. Айрим тадбирларни молиялаштириш учун давлат-хусусий шериклик шартлари асосида ташаббускор тадбиркорлик субъектларини белгиланган тартибда кенг жалб қилиш.	Фестиваль ўтказиладиган йили март-апрель Фестиваль ўтказиладиган йили май Фестиваль ўтказиладиган йил давомида	Фестивални ўтказиш учун назарда тутилган маблағлар	Жамғарма, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Савдо-саноат палатаси, Миллий оператор

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

УЧИНЧИ БЎЛИМ

ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ ҚАРОРЛАРИ

QMMB: 09/26/380/0728-son
14.07.2026-y.

28 (1256)-сон
725-модда

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

20 26 yil « 13 » iyul № 380 Toshkent sh.

Вояга етмаган шахсларга айрим давлат хизматларини кўрсатишнинг маъмурий регламентларини тасдиқлаш тўғрисида

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маҳаллани ривожлантириш ва жамиятни юксалтириш” йилида устувор йўналишлар бўйича ислоҳотлар дастурлари ва “Ўзбекистон – 2030” стратегиясини амалга ошириш бўйича давлат дастури тўғрисида” 2026 йил 16 февралдаги ПФ–22-сон Фармони ижросини таъминлаш ҳамда аҳолига давлат хизматларини кўрсатиш жараёнларини соддалаштириш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **қарор қилади**:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маҳаллани ривожлантириш ва жамиятни юксалтириш” йилида устувор йўналишлар бўйича ислоҳотлар дастурлари ва “Ўзбекистон – 2030” стратегиясини амалга ошириш бўйича давлат дастури тўғрисида” 2026 йил 16 февралдаги ПФ–22-сон Фармонида вояга етмаган шахсларга давлат хизматларини кўрсатиш жараёнларини соддалаштириш бўйича норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини ишлаб чиқиш белгиланган маълумот учун қабул қилинсин.

2. Қуйидагилар:

Вояга етмаган шахсни тўла муомалага лаёқатли деб эълон қилиш (эмансипация) бўйича давлат хизматини кўрсатишнинг маъмурий регламенти **1-иловага** мувофиқ;

Ўқувчининг доимий ёки вақтинча яшаш учун хорижий давлатга кетаётгани сабабли уни таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан чиқариш бўйича давлат хизматини кўрсатишнинг маъмурий регламенти **2-иловага** мувофиқ тасдиқлансин.

3. Белгилансинки, ушбу қарор билан тасдиқланадиган маъмурий регламентларга мувофиқ кўрсатиладиган давлат хизматларидан фойдаланиш учун жисмоний шахслар Давлат хизматлари марказлари ёки Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП) орқали мурожаат қиладилар.

4. Адлия вазирлиги Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги ҳамда Рақамли технологиялар вазирлиги билан биргаликда **икки ой муддатда**:

маъмурий регламентларга мувофиқ давлат хизматларининг ЯИДХП орқали кўрсатилишини таъминласин;

QMMB: 09/26/380/0728-son
14.07.2026-y.

ЯИДХПда давлат хизматлари кўрсатилишининг ҳар бир босқичида мурожаатлар кўриб чиқилишини кузатиб бориш тартибини жорий этсин;

ваколатли органлар томонидан давлат хизматлари кўрсатилишининг белгиланган тартиби бажарилиши юзасидан уларнинг фаолияти бўйича, шу жумладан, ЯИДХП орқали доимий назорат ўрнатсин;

маъмурий регламентлар талабларини бузганлик учун ваколатли органлар мансабдор шахсларига нисбатан белгиланган тартибда маъмурий жазо чораларини қўлласин;

манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда ўзлари қабул қилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни **икки ой муддатда** ушбу қарорга мувофиқлаштирсин.

5. Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги Эмансипация қилинган шахслар реестри юритилишини ҳамда реестр маълумотларининг “Рақамли ҳукумат” тизими идоралараро интеграциялашув платформаси орқали тақдим этилишини таъминласин.

6. Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг **3-иловага** мувофиқ айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

7. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари – Оила ва хотин-қизлар қўмитаси раиси Д.С. Каттаханова зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазири **А. Арипов**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
UMUMIY BO‘LIM
1

QMMB: 09/26/380/0728-son
14.07.2026-y.

Вазирлар Маҳкамасининг
2026 йил “ 13 ” июлдаги 380-сон қарорига
1-илова

Вояга етмаган шахсни тўла муомалага лаёқатли деб эълон қилиш (эмансипация) бўйича давлат хизматини кўрсатишнинг МАЪМУРИЙ РЕГЛАМЕНТИ

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Маъмурий регламент (кейинги ўринларда – Регламент) вояга етмаган шахсни тўла муомалага лаёқатли деб эълон қилиш (кейинги ўринларда – эмансипация) бўйича давлат хизматини (кейинги ўринларда – давлат хизмати) кўрсатиш тартибини белгилайди.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 28-моддасига асосан ўн олти ёшга тўлган вояга етмаган шахс меҳнат шартномаси бўйича ишлаётган бўлса ёки ота-онаси, фарзандликка олувчилари ёхуд ҳомийсининг розилигига биноан тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланаётган бўлса, у тўла муомалага лаёқатли деб эълон қилиниши мумкин.

Ота-онанинг, фарзандликка олувчиларнинг ёки ҳомийнинг розилиги бўлмаган тақдирда, вояга етмаган шахсни тўла муомалага лаёқатли деб эълон қилиш суднинг қарори билан амалга оширилади.

2. Давлат хизмати Давлат хизматлари марказлари ва Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП), “Ягона миллий ижтимоий ҳимоя” ахборот тизими (кейинги ўринларда – тизим), ижтимоий ходим орқали Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ижтимоий ҳимоя миллий агентлигининг “Инсон” ижтимоий хизматлар марказлари (кейинги ўринларда – ваколатли орган) томонидан кўрсатилади.

3. Давлат хизматлари марказлари ва ваколатли орган ўртасидаги ахборот алмашинуви электрон рақамли имзони (кейинги ўринларда – ЭРИ) мажбурий тартибда қўллаш орқали фақат идоралараро электрон боғланиш ёрдамида амалга оширилади.

4. Давлат хизмати мазкур Регламентга 1-иловага мувофиқ схема асосида кўрсатилади.

2-боб. Давлат хизматини кўрсатиш тартиби

5. Ариза берувчи давлат хизматидан фойдаланиш учун Давлат хизматлари марказига, ваколатли органга ёки ижтимоий ходимга ўзи келиб мурожаат этади ёки давлат хизматларидан электрон шаклда фойдаланиш учун ЯИДХПда ёхуд тизимда рўйхатдан ўтади.

Аризалар ЯИДХП ёки тизим орқали дам олиш ва байрам кунларидан қатъи назар, ҳар куни 24 соат давомида юборилиши мумкин.

Бунда аризалар иш вақтидан кейин ёки дам олиш ва байрам кунларида келиб тушганда, календарь бўйича навбатдаги иш куни аризаларнинг ваколатли органга тушган ва ваколатли орган томонидан қабул қилинган кун деб ҳисобланади.

6. Ариза берувчи ўзи келиб мурожаат этган тақдирда, Давлат хизматлари маркази, ваколатли орган ходими ёки ижтимоий ходим ариза берувчи номидан, ЯИДХП ёки тизим орқали мурожаат этган тақдирда эса, мустақил равишда ушбу Регламентга 2-иловага мувофиқ шаклдаги сўровномани электрон шаклда тўлдиради.

7. Давлат органлари ва ташкилотлари сўровномада кўрсатилган маълумотлар "Рақамли ҳукумат" тизими идоралараро интеграциялашув платформаси орқали тақдим этилишини таъминлайди.

Бунда:

вояга етмаган шахснинг тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланишига оид маълумотлар – Адлия вазирлигининг Тадбиркорлик субъектларини давлат рўйхатидан ўтказиш ва ҳисобга қўйишнинг автоматлаштирилган тизими;

меҳнат шартномаси асосида ишлашига оид маълумотлар – Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлигининг "Ягона миллий меҳнат тизими" идоралараро дастурий-аппарат комплекси;

вояга етмаган шахснинг ота-онасига оид маълумотлар – Адлия вазирлигининг "ФҲДЁнинг ягона электрон архиви" ахборот тизими;

вояга етмаганнинг ўқув фанларини ўзлаштириши ва давомати бўйича маълумотлар – Мактабгача ва мактаб таълими вазирлигининг "Электрон кундалик" ахборот тизими;

вояга етмаган шахснинг ҳомийсига оид маълумотлар – тизим орқали автоматик тарзда текширилади.

Ариза берувчидан сўровномада кўрсатилмаган маълумот ва ҳужжатларни талаб қилиш тақиқланади.

8. Ариза тўлдирилгандан сўнг ариза берувчи маълумотларнинг тўғрилигини текширади ва имзоларни идентификация қилишнинг тегишли воситалари (дактилоскопия, Face-ID, Mobile-ID ва бошқалар) билан тасдиқлайди.

Ариза берувчи ЯИДХП ёки тизим орқали мурожаат этган тақдирда, аризани ЭРИ билан тасдиқлаш талаб этилмайди.

9. Давлат хизмати кўрсатилгани учун йиғим ундирилмайди.

10. Ариза берувчи давлат хизматидан фойдаланишдан уни кўрсатишнинг ҳар қандай босқичида бош тортиш ҳуқуқига эга.

Ариза берувчи давлат хизматидан фойдаланишдан бош тортганда, унинг аризаси кўрилмасдан қолдирилади.

11. Ариза берувчи Давлат хизматлари марказига келиб мурожаат этганда, унинг аризаси марказ ходими томонидан тўлдирилиб, ариза берувчи томонидан тасдиқлангандан сўнг барча ҳужжатлар 10 дақиқа ичида, ЯИДХП ёки тизим орқали мурожаат қилинганда эса, ариза автоматик тарзда ваколатли органга юборилади.

Давлат хизматини кўрсатиш учун ариза юборишда ота-она, фарзандликка олувчилар ёки ҳомийнинг розилиги Ягона идентификациялаш тизими ёхуд шахсни биометрик идентификация қилиш (Face-ID) усули орқали тасдиқлангандан сўнг ариза ваколатли органга юборилади.

Бунда ота ёки она, фарзандликка олувчилардан бири ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум қилинган ёки ота-оналик ҳуқуқи чекланган, бедарак йўқолган, муомалага лаёқатсиз ёки муомала лаёқати чекланган деб топилганда, фақат бир тарафнинг тасдиғи билан ариза юборилади.

12. Ваколатли органнинг масъул ходими 7 иш куни ичида аризани кўриб чиқади, шунингдек, ариза берувчи билан суҳбат ўтказади.

13. Ваколатли орган ходими ариза берувчини қуйидаги шартлар мавжуд бўлганда, тўла муомалага лаёқатли деб эълон қилиш тўғрисидаги 3-иловага мувофиқ қарорни расмийлаштиради ва уни ўз ЭРИси билан тасдиқлаб, тегишли Давлат хизматлари марказига (ўзи келиб мурожаат этганда), ЯИДХП ёки тизим (электрон шаклда мурожаат этганда) орқали ариза берувчига электрон равишда юборади:

ариза берувчи психологик жиҳатдан етук бўлганда ва ўз хатти-ҳаракатларининг оқибатини англаганда;

тадбиркорлик ёки меҳнат фаолияти билан камида уч ойдан буён узлуксиз шуғулланиб келаётганда;

ариза берувчининг ўқув фанларини ўзлаштириши ва давомати бўйича ижобий маълумот мавжуд бўлганда.

Ариза берувчини тўла муомалага лаёқатли деб эълон қилиш тўғрисида қарор қабул қилинганда, ушбу маълумотлар автоматик равишда Эмансипация қилинган шахслар реестрига киритилади.

14. Қуйидаги ҳолатларда давлат хизматини кўрсатиш рад этилади ва бу ҳақида ариза берувчига хабарнома юборилади:

сўровномада маълумотлар нотўғри ёки бузиб кўрсатилганда;

ариза берувчи ўз хатти-ҳаракатларининг оқибатини англамаса, хусусан, ақлий заифликнинг барча даражаларида;

тадбиркорлик ёки меҳнат фаолияти билан шуғулланмаётган ёхуд шуғулланаётганлигига уч ой тўлмаган бўлса;

ариза берувчининг ўқув фанларини ўзлаштириши ва давомати бўйича салбий маълумот мавжуд бўлса.

Давлат хизматини кўрсатишни бошқа асосларга кўра, шу жумладан, мақсадга мувофиқ эмаслик важи билан рад этишга йўл қўйилмайди.

15. Ариза ваколатли органга тақдим этилганда, ваколатли орган қарор ёки хабарномани ариза берувчининг электрон манзилига ёхуд ЯИДХП ёки тизимдаги шахсий кабинетига юборади ва ариза берувчини бу ҳақида ахборот-коммуникация тизими орқали хабардор қилади. Ваколатли орган ёки ижтимоий ходим ариза берувчи ўзи келиб мурожаат қилган тақдирда, ариза берувчининг сўровига кўра қарор ёки хабарнома электрон шаклда ёхуд қоғоз шаклда тақдим этиши шарт.

16. Давлат хизматлари маркази қарор ёки хабарнома келиб тушгандан сўнг 10 дақиқа ичида уни ариза берувчининг электрон манзилига юборади ва ариза берувчини бу ҳақида ахборот-коммуникация тизими орқали хабардор қилади. Давлат хизматлари маркази ариза берувчи ўзи келиб мурожаат қилган тақдирда, ариза берувчининг сўровига кўра қарор ёки хабарномани электрон шаклда ёхуд қоғоз шаклда тақдим этиши шарт.

3-боб. Якунловчи қоидалар

17. Давлат хизматлари марказлари ва ваколатли орган ўз фаолиятини амалга ошириши натижасида олинган маълумотлар сир сақланишини таъминлайди.

18. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, унинг ҳудудий бошқармалари ва Давлат хизматлари марказлари ушбу Регламент талаблари бажарилиши бўйича давлат органлари ва бошқа ташкилотларнинг фаолияти юзасидан доимий назоратни ва мониторингни амалга оширади.

19. Ариза берувчилар давлат органлари ва бошқа ташкилотлар ходимларининг хатти-ҳаракатлари юзасидан қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда шикоят қилишлари мумкин.

20. Ушбу Регламент талабларининг бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар.

QMMB: 09/26/380/0728-son
14.07.2026-y.

Вояга етмаган шахсни тўла муомалага лаёқатли деб эълон қилиш (эмансипация) бўйича давлат хизматини кўрсатишнинг маъмурий регламентига
1-илова

Вояга етмаган шахсни тўла муомалага лаёқатли деб эълон қилиш (эмансипация) бўйича давлат хизматини кўрсатиш
СХЕМАСИ

Босқичлар	Субъектлар	Тадбирлар	Бажариш муддатлари
1-босқич	Ариза берувчи *(ўн олти ёшга тўлган шахс)*	Давлат хизматидан фойдаланиш учун Давлат хизматлари марказига, “Инсон” ижтимоий хизматлар марказига ёки ижтимоий ходимга ўзи келиб мурожаат этади ёхуд давлат хизматидан электрон шаклда фойдаланиш учун ЯИДХПда ёки “Ягона миллий ижтимоий ҳимоя” ахборот тизимида рўйхатдан ўтади.	Ўз хоҳишига кўра
2-босқич	1. “Инсон” ижтимоий хизматлар маркази, ижтимоий ходим 2. Давлат хизматлари маркази 3. ЯИДХП, “Ягона миллий ижтимоий ҳимоя” ахборот тизими	1. “Инсон” ижтимоий хизматлар маркази ходими ёки ижтимоий ходим ариза берувчи номидан сўровномани тўлдиради. 2. Давлат хизматлари маркази ходими сўровномани тўлдириб, “Инсон” ижтимоий хизматлар марказига юборади. 3. Тўлдирилган сўровнома автоматик тарзда “Инсон” ижтимоий хизматлар марказига юборади.	1. Реал вақт режимида 2. Сўровнома тўлдирилгандан сўнг 10 дақиқа ичида 3. Реал вақт режимида
3-босқич	“Инсон” ижтимоий хизматлар маркази	Аризани кўриб чиқади ва ариза берувчи билан суҳбат ўтказиб, уни тўла муомалага лаёқатли деб эълон қилингани тўғрисидаги қарорни ёки тўла муомалага лаёқатли деб топишни рад этиш ҳақидаги хабарномани ариза берувчига тақдим этади ёки тегишли Давлат хизматлари марказига (ўзи келиб мурожаат этганда), ЯИДХП ёки “Ягона миллий ижтимоий ҳимоя” ахборот тизими (электрон шаклда мурожаат этганда) орқали ариза берувчига электрон шаклда юборади.	7 иш куни ичида

4-bosqich	Davlat xizmatlari markazi	Qarorni ёki QR-kod qўyilgan xabarnomani ariza berувchiga taqdim etadi.	10 daqiqa ichida

QMMB: 09/26/380/0728-son
14.07.2026-y.

Вояга етмаган шахсни тўла муомалага
лаёқатли деб эълон қилиш (эмансипация)
бўйича давлат хизматини кўрсатишнинг
маъмурий регламентига
2-илова

НАМУНА

Вояга етмаган шахсни тўла муомалага лаёқатли деб эълон қилиш бўйича
СЎРОВНОМА

I. Ариза берувчи тўғрисидаги маълумотлар	
1. Ф.И.О:	
2. Паспорт маълумотлари (серияси ва рақами):	
3. Жисмоний шахснинг шахсий идентификация рақами (ЖШШИР):	
4. Яшаш манзили:	
5. Телефон рақами:	
6. Электрон почта манзили (мавжуд бўлса):	
7. Хизматдан фойдаланиш асоси:	☐ меҳнат шартномаси бўйича ишлаш; ☐ тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиш.
8. Иш жойи ҳақидаги маълумотлар (меҳнат шартномаси бўйича ишлаётган бўлса):	
9. Ариза берувчи муассислигидаги юридик шахснинг СТИРи ёхуд якка тартибдаги тадбиркорнинг ЖШШИР маълумотлари (тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланаётган бўлса):	
II. Ариза берувчининг ота-онаси, фарзандликка олувчилари ёки ҳомийси тўғрисидаги маълумотлар	
10. Ота-онаси, фарзандликка олувчилар ёки ҳомийсининг ЖШШИР маълумотлари:	
11. Ота-онаси, фарзандликка олувчилар ёки ҳомийсининг паспорт маълумотлари (серияси ва рақами):	
12. Ота-онаси, фарзандликка олувчилар ёки ҳомийсининг телефон рақами:	
Ота ёки она, фарзандликка олувчилардан бири ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум қилинган ёки ота-оналик ҳуқуқи чекланган, бедарак йўқолган, муомалага лаёқатсиз ёки муомала лаёқати чекланган деб топилган тақдирда, суднинг ҳал қилув қарори илова қилинади.	

QMMB: 09/26/380/0728-son
14.07.2026-y.

Вояга етмаган шахсни тўла муомалага
лаёқатли деб эълон қилиш (эмансипация)
бўйича давлат хизматини кўрсатишнинг
маъмурий регламентига
3-илова

НАМУНА

my.gov.uz

_____ tuman (shahar)
“Inson” ijtimoiy xizmatlar
markazi

Hujjat yaratilgan sana:
Ariza raqami: 11000000

Hujjat berilgan:
JShShIR:12345678912345

To‘la muomalaga layoqatli deb e’lon qilish haqida
QAROR

Ushbu qaror bilan fuqaro _____ to‘la muomalaga layoqatli deb e’lon
(F.I.O.)
qilindi.

Mazkur hujjat Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi 728-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to‘g‘risidagi nizomga muvofiq shakllantirilgan elektron hujjatning nusxasi hisoblanadi. Elektron hujjatning nusxasida ko‘rsatilgan ma’lumotlar to‘g‘riligini tekshirish uchun repo.gov.uz veb-saytiga o‘ting va elektron hujjatning noyob raqamini kiriting yoki mobil telefon yordamida QR-kodni skaner qiling.

QR-kod

Diqqat! Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi 728-son qaroriga muvofiq elektron hujjatlardagi ma’lumotlar qonuniy hisoblanadi. Davlat organlariga Yagona portalda shakllantirilgan elektron hujjatlarning nusxalarini qabul qilishni rad etishlari qat’iyan taqiqlangan.

QMMB: 09/26/380/0728-son
14.07.2026-y.

Вазирлар Маҳкамасининг
2026 йил “ 13 ” июлдаги 380-сон қарорига
2-илова

Ўқувчининг доимий ёки вақтинча яшаш учун хорижий давлатга кетаётгани сабабли уни таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан чиқариш бўйича давлат хизматини кўрсатишнинг МАЪМУРИЙ РЕГЛАМЕНТИ

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Маъмурий регламент (кейинги ўринларда – Регламент) 18 ёшгача бўлган ўқувчининг доимий ёки вақтинча яшаш учун хорижий давлатга кетаётгани сабабли уни умумий ўрта, ўрта махсус ва касбий таълим ташкилоти (кейинги ўринларда – таълим ташкилоти) ўқувчилари сафидан чиқариш бўйича давлат хизматини (кейинги ўринларда – давлат хизмати) кўрсатиш тартибини белгилайди.

Ота-оналар ўқиш, ишлаш, узоқ муддатли даволаниш ёки бошқа мақсадларда доимий ёки вақтинча яшаш учун хорижий давлатга кетаётган бўлса, фарзандини доимий ёки вақтинча яшаш учун кетаётган давлатдаги таълим ташкилотига ўтказиш ҳуқуқига эга.

2. Давлат хизмати Давлат хизматлари марказлари, Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП) орқали болалар масалалари бўйича туман (шаҳар) комиссиялари (кейинги ўринларда – Комиссия) ва таълим ташкилотлари томонидан кўрсатилади.

3. Давлат хизматлари марказлари ва Комиссия ўртасидаги ахборот алмашинуви электрон рақамли имзони (кейинги ўринларда – ЭРИ) мажбурий тартибда қўллаш орқали фақат идоралараро электрон боғланиш ёрдамида амалга оширилади.

4. Давлат хизмати мазкур Регламентга 1-иловага мувофиқ схема асосида кўрсатилади.

2-боб. Давлат хизматини кўрсатиш тартиби

5. Давлат хизматидан фойдаланиш учун ота-она, фарзандликка олувчи, васий ёки ҳомий (кейинги ўринларда – ариза берувчи) Давлат хизматлари марказига ўзи келиб мурожаат этади ёки давлат хизматларидан электрон шаклда фойдаланиш учун ЯИДХПда рўйхатдан ўтади.

Аризалар ЯИДХП орқали дам олиш ва байрам кунларидан қатъи назар, ҳар куни 24 соат давомида юборилиши мумкин.

Бунда аризалар иш вақтидан кейин ёки дам олиш ва байрам кунларида келиб тушганда, календарь бўйича навбатдаги иш куни аризаларнинг Комиссияга тушган ва Комиссия томонидан қабул қилинган кун деб ҳисобланади.

6. Ариза берувчи ўзи келиб мурожаат этган тақдирда, Давлат хизматлари маркази ходими ариза берувчи номидан, ЯИДХП орқали мурожаат этган тақдирда эса, мустақил равишда 2-иловага мувофиқ шаклдаги сўровномани электрон шаклда тўлдиради.

Давлат органлари ва ташкилотлари сўровномада кўрсатилган маълумотлар "Рақамли ҳукумат" тизими идоралараро интеграциялашув платформаси орқали тақдим этилишини таъминлайди.

Ариза берувчидан сўровномада кўрсатилмаган маълумот ва ҳужжатларни талаб қилиш тақиқланади.

7. Ариза тўлдирилгандан сўнг ариза берувчи маълумотларнинг тўғрилигини текширади ва имзоларни идентификация қилишнинг тегишли воситалари (дактилоскопия, Face-ID, Мобил-ID ва бошқалар) билан тасдиқлайди.

Ариза берувчи ЯИДХП орқали мурожаат этган тақдирда, аризани ЭРИ билан тасдиқлаш талаб этилмайди.

8. Давлат хизмати кўрсатилгани учун йиғим ундирилмайди.

9. Ариза берувчи давлат хизматидан фойдаланишдан уни кўрсатишнинг ҳар қандай босқичида бош тортиш ҳуқуқига эга.

Ариза берувчи давлат хизматидан фойдаланишдан бош тортганда, унинг аризаси кўрилмасдан қолдирилади.

10. Ариза берувчи Давлат хизматлари марказига келиб мурожаат этганда, унинг аризаси марказ ходими томонидан тўлдирилиб, ариза берувчи томонидан тасдиқлангандан сўнг барча ҳужжатлар 10 дақиқа ичида, ЯИДХП орқали мурожаат қилинганда эса, ариза автоматик тарзда Комиссияга юборилади.

Давлат хизматини кўрсатиш учун ариза юборишда ота ёки онанинг, фарзандликка олувчилардан бирининг болани таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан чиқаришга розилиги Ягона идентификациялаш тизими ёки шахсни биометрик идентификация қилиш (Face-ID) усули орқали тасдиқлангандан сўнг ариза Комиссияга юборилади.

Бунда болаларни тарбиялаш ва уларга таълим бериш борасидаги мажбуриятларни бажармаслик учун жавобгарлик ариза берувчиларнинг зиммасига юкланади.

11. Комиссия 5 иш куни ичида аризани кўриб чиқади ва ўқувчини таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан чиқариш тўғрисида 3-иловага мувофиқ шаклдаги қарорни расмийлаштиради ёки ўқувчини таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан чиқаришни рад этади.

Комиссия заруратга кўра ота-она ва бола билан суҳбат ўтказиши мумкин.

Ўқувчини таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан чиқариш тўғрисидаги қарор тегишли туман (шаҳар) ҳокими томонидан ЭРИ билан тасдиқланади.

Комиссия ўқувчини таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан чиқариш тўғрисидаги қарор ёки рад этиш тўғрисидаги хабарномани Давлат хизматлари марказига ёхуд ЯИДХП орқали ариза берувчига электрон равишда юборади.

Ўқувчини таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан чиқариш тўғрисидаги қарор электрон равишда тегишли таълим ташкилотига ҳам юборилиши лозим.

Комиссия хорижий давлатдаги таълим муассасасига ўтказилаётгани сабабли таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан чиқарилганларнинг электрон реестрини юритади.

12. Қуйидаги ҳолатлар давлат хизматини кўрсатишни рад этиш учун асос бўлади:

аризада нотўғри маълумотларнинг кўрсатилиши;

боланинг манфаатларига зид келиши мумкин бўлган ҳолатларнинг мавжудлиги.

Давлат хизматини кўрсатишни рад этишда аниқ асослар баён этилиши керак.

Давлат хизматини кўрсатишни бошқа асослар бўйича рад этиш тақиқланади.

13. Ўқувчини таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан чиқариш тўғрисидаги қарор келиб тушгач, таълим ташкилоти директори бир иш кунида тегишли ахборот тизимида ўқувчини таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан чиқаради.

14. Давлат хизматлари маркази қарор ёки хабарнома келиб тушгандан сўнг 10 дақиқа ичида уни ариза берувчининг электрон манзилига юборади ва ариза берувчини бу ҳақида ахборот-коммуникация тизими орқали хабардор қилади. Давлат хизматлари маркази ариза берувчи ўзи келиб мурожаат қилган тақдирда, ариза берувчининг сўровига кўра қарор ёки хабарномани электрон шаклда ёки қоғоз шаклда тақдим этиши шарт.

3-боб. Якунловчи қоидалар

15. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, унинг ҳудудий бошқармалари ва Давлат хизматлари марказлари ушбу Регламент талаблари ижроси бўйича давлат органлари ва бошқа ташкилотларнинг фаолияти юзасидан доимий назоратни ва мониторингни амалга оширади.

16. Ариза берувчилар давлат органлари ва бошқа ташкилотлар ходимларининг хатти-ҳаракатлари юзасидан қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда шикоят қилишлари мумкин.

17. Ушбу Регламент талабларининг бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар.

QMMB: 09/26/380/0728-son
14.07.2026-y.

Ўқувчининг доимий ёки вақтинча яшаш учун хорижий давлатга кетаётгани сабабли уни таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан чиқариш бўйича давлат хизматини кўрсатишнинг маъмурий регламентига
1-илова

Ўқувчини таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан чиқариш бўйича давлат хизматини кўрсатиш
СХЕМАСИ

Босқичлар	Субъектлар	Тадбирлар	Бажариш муддатлари
1-босқич	Ариза берувчи (ота-она, фарзандликка олувчи, васий ёки ҳомий)	Давлат хизматидан фойдаланиш учун Давлат хизматлари марказига ўзи келиб мурожаат этади ёки давлат хизматидан электрон шаклда фойдаланиш учун ЯИДХПда рўйхатдан ўтади.	Ўз хоҳишига кўра
2-босқич	1. Давлат хизматлари маркази 2. ЯИДХП	1. Давлат хизматлари маркази ходими сўровномани тўлдириб, тегишли Болалар масалалари бўйича туман (шаҳар) комиссиясига юборади. 2. Тўлдирилган сўровнома автоматик тарзда тегишли Болалар масалалари бўйича туман (шаҳар) комиссиясига юборади.	1. Сўровнома тўлдирилгандан сўнг 10 дақиқа ичида 2. Реал вақт режимида
3-босқич	Болалар масалалари бўйича туман (шаҳар) комиссияси	Аризани кўриб чиқиб, ўқувчини таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан чиқариш тўғрисида қарорни расмийлаштиради ёки ўқувчини таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан чиқаришни рад этади. Давлат хизматини кўрсатиш натижасини Давлат хизматлари марказига ёки ЯИДХП орқали ариза берувчига юборади.	5 иш куни ичида

QMMB: 09/26/380/0728-son
14.07.2026-y.

4-босқич	Давлат хизматлари маркази	Ўқувчини таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан чиқариш тўғрисида қарор ёки хабарнома келиб тушгандан сўнг уни ариза берувчининг электрон манзилига юборади ва ариза берувчини бу ҳақида ахборот-коммуникация тизими орқали хабардор қилади.	10 дақиқа ичида

QMMB: 09/26/380/0728-son
14.07.2026-y.

Ўқувчининг доимий ёки вақтинча яшаш учун
хорижий давлатга кетаётганлиги сабабли
уни таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан
чиқариш бўйича давлат хизматини
кўрсатишнинг маъмурий регламентига
2-илова

НАМУНА

Ўқувчини таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан чиқариш бўйича СЎРОВНОМА

I. Ариза берувчи ҳақидаги маълумотлар	
1. Ф.И.О.:	
2. Паспорт маълумотлари (серияси ва рақами):	
3. Жисмоний шахснинг шахсий идентификация рақами (ЖШШИР):	
4. Яшаш манзили:	
5. Телефон рақами:	
6. Электрон почта манзили (мавжуд бўлса):	
7. Хизматдан фойдаланиш сабаби:	☐ Ўқиш ☐ Ишлаш ☐ Узоқ муддатли даволаниш ☐ Бошқа сабаб
8. Хорижга чиқиш биометрик паспорти маълумотлари (серияси ва рақами):	
II. Бола ҳақидаги маълумотлар	
9. Боланинг Ф.И.О.:	
10. Жисмоний шахснинг шахсий идентификация рақами (ЖШШИР):	
11. Боланинг туғилиши қайд этилгани ҳақидаги маълумотлар:	
12. Бола таълим олаётган таълим ташкилоти ва синф:	
13. Ўқиши кўчирилаётган хорижий давлат:	
14. Боланинг ота-онасининг никоҳи ҳақидаги маълумотлар:	

QMMB: 09/26/380/0728-son
14.07.2026-y.

15. Боланинг хорижга чиқиш биометрик паспорти маълумотлари (серияси ва рақами):	

☐ Болани вояга етгунига қадар боқишга, унинг тарбияси, таълим олиши, соғлом, тўлақонли ва ҳар томонлама камол топиши хусусида ғамхўрлик қилишга розилик билдираман ҳамда болаларни тарбиялаш ва уларга таълим бериш борасидаги мажбуриятларни бажармаслик учун жавобгарлик ҳақида огоҳлантирилдим.

Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 47-моддасига мувофиқ болаларни тарбиялаш ва уларга таълим бериш борасидаги мажбуриятларни бажармаслик маъмурий жавобгарликка сабаб бўлади.

QMMB: 09/26/380/0728-son
14.07.2026-y.

Ўқувчининг доимий ёки вақтинча яшаш учун хорижий давлатга кетаётганлиги сабабли уни таълим ташкилоти ўқувчилари сафидан чиқариш бўйича давлат хизматини кўрсатишнинг маъмурий регламентига 3-илова

НАМУНА

my.gov.uz

Bolalar masalalari bo‘yicha _____ tuman (shahar) komissiyasi

Hujjat yaratilgan sana:
Ariza raqami: 11000000

Hujjat berilgan:
JShShIR:12345678912345

O‘quvchini _____ o‘quvchilari safidan chiqarish to‘g‘risida
(ta’lim tashkiloti nomi)

QAROR

Ushbu qaror bilan voyaga yetmagan shaxs _____ _____,
(F.I.O.) *(hududiy birlik nomi)*
_____ tumani _____ o‘quvchilari safidan chiqarildi.
(ta’lim tashkiloti nomi)

Voyaga yetmagan shaxs _____ning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi uchun uning ota-onasi/vasiy/homiysi mas’ul ekanligi hamda bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik javobgarlikka olib kelishi tushuntiriladi.
(F.I.O.)

Mazkur hujjat Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi 728-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to‘g‘risidagi nizomga muvofiq shakllantirilgan elektron hujjatning nusxasi hisoblanadi. Elektron hujjatning nusxasida ko‘rsatilgan ma’lumotlar to‘g‘riligini tekshirish uchun repo.gov.uz veb-saytiga o‘ting va elektron hujjatning noyob raqamini kiriting yoki mobil telefon yordamida QR-kodni skaner qiling.

QR-kod

Diqqat! Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi 728-son qaroriga muvofiq elektron hujjatlardagi ma’lumotlar qonuniy hisoblanadi. Davlat organlariga Yagona portalda shakllantirilgan elektron hujjatlarning nusxalarini qabul qilishni rad etishlari qat’iyan taqiqlangan.

QMMB: 09/26/380/0728-son
14.07.2026-y.

Вазирлар Маҳкамасининг
2026 йил “ 13 ” июлдаги 380-сон қарорига
3-илова

Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар

1. Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 9 февралдаги 66-сон қарори билан тасдиқланган Тадбиркорлик субъектларини давлат рўйхатидан ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомда:

а) қуйидаги мазмундаги 6^1-банд билан тўлдирилсин:

“Ўн олти ёшга тўлган вояга етмаган шахсни якка тартибдаги тадбиркор сифатида ёки унинг муассислигидаги тадбиркорлик субъектини давлат рўйхатидан ўтказишда ота-онаси, фарзандликка олувчилари ёхуд ҳомийсининг розилиги Ягона идентификациялаш тизими ёки шахсни биометрик идентификация қилиш (Face-ID) усули орқали тасдиқланиши лозим.

Ўн олти ёшга тўлмаган шахсни якка тартибдаги тадбиркор сифатида ёки унинг муассислигидаги тадбиркорлик субъектини давлат рўйхатидан ўтказиш тақиқланади, тадбиркорлик субъектининг устав фондидаги улушлар мерос сифатида ўтадиган ҳолатлар бундан мустасно”;

б) 21-банд қуйидаги мазмундаги йигирма учинчи хатбоши билан тўлдирилсин:

“Вояга етмаган шахсга тадбиркорлик субъектининг устав фондидаги улушлар мерос сифатида ўтадиган ҳолатларда, вояга етмаган шахс номидан унинг ота-онаси, фарзандликка олувчилар, васийлик ва ҳомийлик органи рухсати билан васий ёки ҳомийси ҳаракат қилади”;

в) 4-илова қуйидаги мазмундаги II^1-бўлим билан тўлдирилсин:

“

II^1.	**Ариза берувчининг ота-онаси, фарзандликка олувчилари ёки ҳомийси ҳақида маълумотлар**			
2^1-1	Ота-онаси, фарзандликка олувчилари ёки ҳомийсининг фамилияси:			
2^1-2	Ота-онаси, фарзандликка олувчилари ёки ҳомийсининг исми:			
2^1-3	Ота-онаси, фарзандликка олувчилари ёки ҳомийсининг паспорт серияси:	2^1-3-1	Ота-онаси, фарзандликка олувчилари ёки ҳомийсининг паспорт рақами:	
2^1-4	Ота-онаси, фарзандликка олувчилари ёки ҳомийсининг ЖШШИРи:			
2^1-5	Ота-онаси, фарзандликка олувчилари ёки ҳомийсининг телефон рақами:			

”;

QMMB: 09/26/380/0728-son
14.07.2026-y.

г) 5-иловада:

қуйидаги мазмундаги 3-4-9-банд билан тўлдирилсин:

“

3-4-9	Муассиснинг ота-онаси, фарзандликка олувчилари ёки ҳомийсининг паспорт серияси:		3-4-9-1	Муассиснинг ота-онаси, фарзандликка олувчилари ёки ҳомийсининг паспорт рақами:		3-4-9-2	Муассиснинг ота-онаси, фарзандликка олувчилари ёки ҳомийсининг телефон рақами:	

”;

2-изоҳда:

қуйидаги мазмундаги 4-банд билан тўлдирилсин:

“4) 3-4-9-банд муассис вояга етмаган шахс бўлган тақдирда тўлдирилади”;

д) 9-илова қуйидаги мазмундаги 5-5-11-банд билан тўлдирилсин:

“

5-5-11	Вояга етмаган муассиснинг ота-онаси, фарзандликка олувчилари ёки ҳомийсининг паспорт серияси:		5-5-11-1	Вояга етмаган муассиснинг ота-онаси, фарзандликка олувчилари ёки ҳомийсининг паспорт рақами:		5-5-11-2	Вояга етмаган муассиснинг ота-онаси, фарзандликка олувчилари ёки ҳомийсининг телефон рақами:	

”.

2. Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 12 октябрдаги 638-сон қарори билан тасдиқланган Алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болалар учун давлат ихтисослаштирилган таълим муассасалари тўғрисидаги низомга 1-иловада:

46-банд “хорижий давлатга кетаётган бўлса,” сўзларидан кейин “Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланган тартибда” сўзлари билан тўлдирилсин;

47–51-бандлар ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

3. Вазирлар Маҳкамасининг “Болалар масалалари бўйича миллий комиссия тўғрисидаги низомни ва Болалар масалалари бўйича Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳамда туман (шаҳар) комиссиялари тўғрисидаги намунавий низомни тасдиқлаш ҳақида” 2022 йил 6 июлдаги 363-сон қарорига 3-илованинг 14-банди ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
UMUMIY BO‘LIM
1

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

28 (1256)-son
726-modda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

20 26 yil « 13 » iyul № 381 Toshkent sh.

Қишлоқ хўжалиги соҳасида рақамли хизматларни жорий қилишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қишлоқ хўжалиги соҳасига замонавий технологияларни жорий этишни янада жадаллаштириш орқали самарадорликни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2025 йил 12 августдаги ПФ–130-сон Фармонига мувофиқ аграр соҳада хизматлар кўрсатиш кўламини кенгайтириш орқали қишлоқ хўжалиги субъектлари фаолиятига кўмаклашиш, етиштирилган маҳсулотлар бўйича маълумотларни шакллантириш ҳамда рақамли технологияларни кенг жорий этиш орқали ер ва сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **қарор қилади**:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қишлоқ хўжалиги соҳасига замонавий технологияларни жорий этишни янада жадаллаштириш орқали самарадорликни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2025 йил 12 августдаги ПФ–130-сон Фармонига асосан:

“Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси (кейинги ўринларда – Агропортал) қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштирувчи, ишлаб чиқарувчи ва хизмат кўрсатувчи ташкилотлар учун соҳада хизмат кўрсатишнинг “ягона нуқтаси” сифатида эътироф этилгани, бунда Агропортал орқали кўрсатиладиган давлат хизматлари Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари порталида ҳам кўрсатилиши;

Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги “Агросаноатни рақамлаштириш маркази” масъулияти чекланган жамияти қишлоқ хўжалиги соҳасини рақамлаштириш йўналишида ахборот тизимларини яратиш ва қўллаб-қувватлаш бўйича ягона оператор этиб белгиланган;

ягона оператор таъсисчилигида “Drone service” масъулияти чекланган жамияти ташкил этилгани ҳамда унга қишлоқ хўжалиги ташкилотларига робототехника, учувчисиз учадиган аппаратлар ва бошқа “ақлли” қурилмалар ёрдамида хизматлар кўрсатиш, уларнинг бутловчи ва эҳтиёт қисмларини харид қилиш, олиб кириш, олиб чиқиш, ишлаб чиқариш, реализация қилиш, таъмирлаш, ўқув ва малака ошириш курсларини ташкил этишга рухсат берилгани;

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

қишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланувчилар ўзларига тегишли ер участкаларига рухсат этилган фойдаланиш турларига асосан (асосий, такрорий, тўқсонбости усулида) экинларни жойлаштиришга оид маълумотларни Агропорталга киритиб боришлари белгилангани маълумот учун қабул қилинсин.

2. Қуйидагилар:

Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформасидан фойдаланиш тартиби тўғрисидаги низом **1-иловага** мувофиқ;

Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларининг ер ижара шартномаларига ўзгартиришлар киритиш бўйича давлат хизматларини кўрсатишнинг маъмурий регламенти **2-иловага** мувофиқ;

Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларида агротехника тадбирларининг бажарилишини ва маҳсулот етиштиришда имтиёзли кредит маблағларидан мақсадли фойдаланишни “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси орқали мониторинг қилиш тартиби тўғрисидаги низом **3-иловага** мувофиқ тасдиқлансин.

3. Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги Рақамли технологиялар вазирлиги ҳамда Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан биргаликда **икки ой муддатда** пахта, ғалла ва мева-сабзавот маҳсулотларини етиштириш учун кредит буюртманомаларини электрон тарзда шакллантириш, имтиёзли кредитларнинг сарфланишини мониторинг қилиш, шунингдек, агротехника тадбирлари прогнозини юритиш мақсадида “d-xarid.uz” ахборот тизимини Агропорталга интеграция қилинишини таъминласин.

4. Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги Рақамли технологиялар вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳамда тижорат банклари билан биргаликда **уч ой муддатда** Агропортал ва унинг таркибига кирувчи тизимлар орқали кўрсатилган хизматлар учун тўловларни амалга ошириш ва ҳисобини юритишга мўлжалланган “Агробиллинг” ахборот тизимини ишга туширсин.

5. Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг **4-иловага** мувофиқ айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

6. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари Ж.А. Ходжаев зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазири **А. Арипов**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
UMUMIY BO‘LIM
1

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

Вазирлар Маҳкамасининг
2026 йил “ 13 ” июлдаги 381-сон қарорига
1-илова

Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформасидан фойдаланиш тартиби тўғрисида

НИЗОМ

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Низом қишлоқ хўжалиги субъектларига агросаноат йўналишида электрон хизматларни “ягона нуқта” орқали кўрсатишга мўлжалланган Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформасидан (кейинги ўринларда –Агропортал) фойдаланиш тартибини белгилайди.

2. Ушбу Низомда қуйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

“Агробиллинг” ахборот тизими – Агропортал ва унинг таркибига кирувчи тизимлар орқали кўрсатилган хизматлар учун тўловларни амалга ошириш ва ҳисобини юритишга мўлжалланган қишлоқ хўжалиги ягона биллинг тизими;

Агропортал оператори – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги “Агросаноатни рақамлаштириш маркази” масъулияти чекланган жамияти;

агросаноат мажмуига тааллуқли электрон хизмат (кейинги ўринларда – электрон хизмат) – ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланилган ҳолда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларига электрон шаклда кўрсатиладиган давлат ва хусусий сектор хизмати;

идоралараро электрон ҳамкорлик – давлат идоралари ўртасида ахборот-коммуникация технологиялари орқали электрон маълумотлар алмашинуви;

фойдаланувчилар – Агропорталда белгиланган тартибда рўйхатдан ўтган, Агропорталдан фойдаланган ҳолда ариза берувчи қишлоқ хўжалиги субъектлари ва уларга хизмат кўрсатувчи давлат органлари ҳамда хусусий сектор вакиллари;

қишлоқ хўжалиги субъектлари – қишлоқ хўжалиги соҳасида фаолият юритувчи барча тоифадаги юридик ёки жисмоний шахслар, жумладан, фермер хўжаликлари, деҳқон хўжаликлари, масъулияти чекланган жамиятлар ва бошқа субъектлар;

шахсий кабинет – авторизация жараёнидан ўтган фойдаланувчиларга электрон хизматлар кўрсатилишида иштирок этишини ҳамда зарур ахборотни жойлаштириш, ундан фойдаланиш, шунингдек, ҳисоб-китобларни амалга оширишини таъминлайдиган индивидуал саҳифа;

электрон ҳужжатлар репозиторийси – электрон ҳужжатларни қайта ишлаш ва сақлашни таъминловчи, шунингдек, Агропорталда шакллантирилган электрон ҳужжатнинг ҳақиқийлигини текшириш воситаларини тақдим этувчи ахборот ресурси;

Ягона идентификация тизими (OneID) – "Электрон ҳукумат" тизими фойдаланувчиларини идентификация қилиш бўйича ягона ахборот тизими;

QR-код – тасдиқланган электрон ҳужжатларга бириктириладиган ва ҳужжат қоғоз шаклида чоп этилганда кўрсатиладиган, мобил иловалар ва дастурий маҳсулотлар орқали ўқиш (сканерлаш) вақтида электрон шартнома ҳақида барча маълумотларга ҳавола бўладиган матрик штрихли код.

3. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги Агропорталнинг буюртмачиси ҳисобланади ҳамда Агропортални яратиш ва унда янги электрон хизматлар кўрсатиш турларини жорий этиш бўйича механизмлар ва чора-тадбирларни ишлаб чиқиш орқали хизматлар кўрсатиш турларини кенгайтириш, Агропорталдан фойдаланган ҳолда давлат органлари ҳамда хусусий сектор вакиллари томонидан кўрсатиладиган электрон хизматлар сифатини ва белгиланган муддатларда бажарилишини рақамли мониторинг қилиб бориш ишларини амалга оширади ва мазкур тизим бўйича тадбирларни мувофиқлаштиради.

4. Агропортал оператори бевосита Агропорталга ва фойдаланувчиларга техник жиҳатдан электрон хизмат кўрсатишга масъул бўлган ҳамда қишлоқ хўжалиги соҳасини рақамлаштириш йўналишида ахборот тизимларини яратиш ва қўллаб-қувватлаш бўйича ягона оператор ҳисобланади.

5. Қуйидагилар Агропортал операторининг асосий вазифалари ҳисобланади:

Агропорталга техник хизмат кўрсатиш ҳамда тизимнинг самарали ва узлуксиз ишлашини таъминлаш;

идоравий ахборот тизимлари ва маълумотлар базалари орқали электрон маълумотлар алмашинувини ташкил этиш;

Агропортални такомиллаштириб бориш;

қўшимча электрон хизматлар кўрсатиш имконини яратиш;

фойдаланувчиларни техник жиҳатдан қўллаб-қувватлаш ҳамда Агропорталдан фойдаланиш бўйича маслаҳат ва тавсиялар бериш;

Агропорталда юзага келадиган техник муаммоларни ҳамда функционал имкониятларнинг бажарилишига таъсир кўрсатадиган хатоликларни қисқа вақт ичида бартараф қилиш;

Агропорталга киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар бўйича фойдаланувчиларни ўз вақтида хабардор қилиш;

Агропорталда белгиланган тартибда ахборот хавфсизлигини таъминлаш.

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

2-боб. Агропорталнинг мақсадлари ва асосий вазифалари

6. Қуйидагилар Агропорталнинг асосий мақсадлари ҳисобланади:

фойдаланувчиларга давлат ва хусусий сектор хизматларини электрон кўринишда, ягона ахборот майдони сифатида тизимли, сифатли ва узлуксиз тарзда кўрсатиш;

электрон хизматлар кўрсатиш самарадорлиги, тезкорлиги ва шаффофлигини таъминлаш;

кўрсатиладиган электрон хизматларни ташкил этишга масъул бўлган давлат органларининг ахборот тизимлари билан узвий ҳамкорлик орқали маълумотлар алмашинувини ташкил этиш.

7. Қуйидагилар Агропорталнинг асосий вазифалари ҳисобланади:

фойдаланувчиларга электрон хизматлардан кафолатланган ва хавфсиз фойдалана олиш имкониятини яратиш;

ариза ва бошқа ҳужжатларни йўллаш учун давлат ва хусусий секторнинг электрон хизматларини йўлга қўйиш;

давлат органлари томонидан электрон хизматлардан фойдаланиш юзасидан сўровларни қабул қилиш, кўриб чиқиш ва натижаси юзасидан маълумотларни фойдаланувчиларга юбориш имкониятини яратиш;

пулли хизматлардан фойдаланганда, тўлов тизимлари орқали онлайн тўлов имкониятларини яратиш;

электрон ҳужжатларни шакллантириш ва сақлаш;

электрон хизматлардан фойдаланиш учун келиб тушадиган аризаларни автоматлаштирилган тартибда кўриб чиқишда инсон омилини камайтириш, скоринг қилиш, хулоса бериш ва натижаси бўйича фойдаланувчиларга электрон хабарнома юбориш.

3-боб. Агропорталда давлат ва хусусий секторнинг электрон хизматларини кўрсатиш

8. Агропорталда электрон хизматлар ушбу Низомга иловадаги схемага мувофиқ кўрсатилади.

9. Фойдаланувчи Агропортал имкониятларидан фойдаланиш учун “agro.gov.uz” манзилига Ягона идентификация тизими (OneID) орқали киради. Бунда фойдаланувчи Ягона идентификация тизимидан (OneID) рўйхатдан ўтган бўлиши керак.

Агропортал оператори фойдаланувчиларнинг маълумотларини, шу жумладан, ер майдони тўғрисидаги маълумотларни ва бошқа зарур маълумотларни идоралараро электрон маълумотлар алмашинуви орқали олади.

10. Агропорталда рўйхатдан ўтган ҳар бир фойдаланувчи шахсий кабинетга эга бўлади.

11. Фойдаланувчи ўзининг шахсий кабинети орқали амалга оширган ҳаракати учун ўзи масъул ҳисобланади.

12. Фойдаланувчилар электрон хизматлардан фойдаланиш учун аризаларни бевосита Агропорталдаги шахсий кабинети ёки Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали орқали юбориши мумкин.

Бунда аризага киритилган маълумотларнинг ҳаққонийлиги фойдаланувчи томонидан электрон рақамли имзо, “Мобил-ID” ёки “Face-ID” билан тасдиқланади.

13. Агропорталда фойдаланувчиларга ўзларининг шахсий кабинети орқали электрон хизматлардан фойдаланиш, хизматларнинг ҳолатини кузатиб бориш ва хизматлар кўрсатиш сифатини баҳолаш имконияти яратилади.

14. Фойдаланувчиларнинг аризаларини қабул қилиш, кўриб чиқиш ва уларга жавоб юбориш тартиби Агропортал ёки электрон хизматлар кўрсатишга масъул бўлган давлат органлари ва хусусий секторнинг ахборот тизимлари орқали амалга оширилиши мумкин.

Бунда электрон хизмат кўрсатиш натижаси тўғрисида QR-код қўйилган хабарномани Агропортал орқали фойдаланувчиларнинг шахсий кабинетига юборади.

Фойдаланувчиларга қулайликлар яратиш мақсадида Агропортал орқали томонлар (вазирлик ва идоралар) келишувига мувофиқ бошқа электрон хизматлар кўрсатиш турлари кенгайтирилиши мумкин.

Хусусий сектор ўз электрон хизматларини Агропорталда шартнома асосида ахборот хавфсизлиги талабларига риоя этган ҳолда жорий қилиши мумкин. Бунда хусусий сектор Агропортал операторига мурожаат қилади ҳамда Агропортал оператори томонидан берилган таклифларга асосан Агропорталда электрон хизматларни жорий қилиш ҳақини шартномага асосан ўзи мустақил белгилайди.

15. Агропортал орқали электрон хизматлар кўрсатиш натижалари бўйича QR-код қўйилган маълумотлар ёки ҳужжатлар белгиланган шаклда, электрон ҳолда фойдаланувчининг шахсий кабинетига юборилади.

16. Агропортал орқали электрон хизматлар хизмат турига қараб қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда тўлов асосида ёки бепул кўрсатилади.

17. Агропортал орқали пулли электрон хизматлардан фойдаланилганда, хизматлар кўрсатиш учун тўловлар тўлангани электрон тарзда тасдиқланади. Бунда тўловларни тўлаш ва ҳисобини юритиш “Агробиллинг” ахборот тизими орқали амалга оширилади.

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

4-боб. Электрон ҳужжатларнинг репозиторийси

18. Электрон ҳужжатлар репозиторийси Агропорталда фойдаланувчининг шахсий кабинети орқали электрон хизматлардан фойдаланиш жараёнида шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхасини юклаб олиш имконини беради.

19. Электрон хизматлар кўрсатувчи давлат органлари ва хусусий секторлар Агропортал орқали шакллантирилган электрон ҳужжатлар нусхаларини қабул қилишни рад эта олмайди ҳамда уларнинг ҳақиқийлиги электрон ҳужжатлар репозиторийси ёрдамида тасдиқланади.

5-боб. Якунловчи қоидалар

20. Агропортал оператори ҳар йил якуни билан (келгуси йилнинг 15 февралига қадар) амалга оширилган ишлар натижалари, даромад ва харажатлар, молиявий ҳисоботларни ҳамда бошқа зарур бўлган маълумотларни Қишлоқ хўжалиги вазирлигига тақдим этади.

21. Агропортал орқали электрон хизматлар кўрсатишда юзага келадиган низолар ва келишмовчиликлар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда ҳал этилади.

22. Ушбу Низом талаблари бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ жавоб берадилар.

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг
“Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион
платформасидан фойдаланиш тартиби
тўғрисидаги низомга
илова

Агропорталда электрон хизматларни кўрсатиш СХЕМАСИ

Босқичлар	Субъектлар	Тадбирлар	Муддатлар
1-босқич	Қишлоқ хўжалиги субъектлари (фойдаланувчилар)	Агропортал имкониятларидан фойдаланиш учун “agro.gov.uz” манзили орқали белгиланган тартибда мурожаат қилади.	Йил давомида
2-босқич	Агропортал оператори	Қишлоқ хўжалиги субъектларидан тушган аризаларни белгиланган тартибда хизмат кўрсатувчи (ваколатли) органларга юборади.	1 иш кунида
3-босқич	Масъул вазирлик ва идора	Келиб тушган аризаларни белгиланган тартибда кўриб чиқади. Хизмат кўрсатиш натижаси тўғрисида QR-код қўйилган хабарномани Агропортал орқали қишлоқ хўжалиги субъектининг шахсий кабинетига юборади.	Белгиланган муддатларда

Агропортал орқали электрон хизматлар масъул вазирлик ва идоралар томонидан қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда кўрсатилади.

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

Вазирлар Маҳкамасининг
2026 йил “ 13 ” июлдаги 381-сон қарорига
2-илова

Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларининг ер ижара шартномаларига ўзгартиришлар киритиш бўйича давлат хизматларини кўрсатишнинг МАЪМУРИЙ РЕГЛАМЕНТИ

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Маъмурий регламент (кейинги ўринларда – Регламент) қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларидан фойдаланиш шартлари ўзгарганда, ер ижара шартномаларига тегишли ўзгартиришлар киритиш бўйича давлат хизматларини кўрсатиш тартибини белгилайди.

Ушбу Регламент талаблари ер участкаларининг ер фонди тоифаларини ўзгартириш билан боғлиқ муносабатларга татбиқ этилмайди.

2. Ушбу Регламентда қуйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

Агропортал – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси;

Агропортал ва “E-ijara” ахборот тизими оператори (кейинги ўринларда – Агропортал оператори) – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги “Агросаноатни рақамлаштириш маркази” масъулияти чекланган жамияти;

ер ижарачиси – қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларидан ижара ҳуқуқи асосида фойдаланувчи юридик ва жисмоний шахслар;

ер участкасининг ижара шартномасини ўзгартириш – ер участкасидан фойдаланиш шартларининг ўзгариши (камайиши ёки кўпайиши) натижасида ижара шартномасига ўзгартиришлар киритиш;

ижрочи – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги “Ўздаверлойиҳа” давлат илмий-лойиҳалаш институтининг (кейинги ўринларда – “Ўздаверлойиҳа” ДИЛИ) ҳудудий бўлинмалари.

3. Ер участкасининг ижара шартномасига ўзгартиришлар ушбу Регламентга 1-иловадаги схема асосида киритилади.

2-боб. Давлат хизматларини кўрсатиш

4. Ер ижарачиси ариза билан қуйидагилардан бирини танлаган ҳолда давлат хизматларидан фойдаланиши мумкин:

Давлат хизматлари марказига бевосита мурожаат қилиш;

Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП) орқали электрон шаклда мурожаат қилиш;

Агропорталдан рўйхатдан ўтиш орқали электрон шаклда мурожаат қилиш.

Бунда мурожаат ижрочига (Давлат хизматлари марказига ёки ЯИДХП ёхуд Агропортал орқали) автоматик тарзда юборилади.

5. Давлат хизматларидан фойдаланиш бўйича ариза ушбу Регламент талабларига мувофиқ ЯИДХП ва Агропортал орқали дам олиш ва ишланмайдиган байрам кунларидан қатъи назар, тўловлар амалга оширилгандан сўнг 24 соат ичида "Ўздаверлойиҳа" ДИЛИга юборилади.

Бунда ариза иш вақтидан кейин ёки дам олиш ва ишланмайдиган байрам кунларида келиб тушганда, навбатдаги иш куни аризанинг "Ўздаверлойиҳа" ДИЛИга келиб тушган ва қабул қилинган куни ҳисобланади.

6. Ер ижарачиси бевосита Давлат хизматлари марказига мурожаат этганда, Давлат хизматлари маркази масъул ходими ер ижарачиси номидан, ЯИДХП ёки Агропортал орқали мурожаат этганда – ер ижарачиси мустақил равишда давлат хизматларидан фойдаланиш учун ушбу Регламентга 2-иловага мувофиқ аризани электрон тарзда тўлдиради. Бунда ер ижара шартномасига ўзгартиришлар киритиш мақсади аниқ кўрсатилади.

7. Аризага амалдаги ер ижара шартномаси нусхаси илова қилинади. Агар ер участкаси очиқ электрон танлов ёки аукцион савдоларида ютиб олинган бўлса, ер участкаси бўйича "E-auksion" электрон савдо платформаси ёки "E-ijara" ахборот тизимида (кейинги ўринларда – "E-ijara" АТ) мавжуд баённома Агропорталда автоматик тарзда шаклланади.

Ер ижарачисидан ушбу бандда кўрсатилмаган бошқа маълумотлар ва ҳужжатларни талаб қилишга йўл қўйилмайди.

8. Ер ижарачиси аризада сўралган маълумотларни киритганидан сўнг, маълумотлар тўғрилигини текширади ва имзоларни идентификация қилишнинг тегишли воситаларидан бири (электрон рақамли имзо, Мобил-ID ва Face-ID) билан тасдиқлайди.

9. Ушбу Регламентда назарда тутилган давлат хизматларидан фойдаланганлик учун жисмоний шахслардан базавий ҳисоблаш миқдорининг икки баравари, юридик шахслардан беш баравари миқдорида тўловлар ундирилади.

Ушбу тўловлар Агропортал операторининг тижорат банкидаги ҳисобварағига тўланади.

10. Давлат хизматларидан фойдаланиш учун ЯИДХП ва Агропортал орқали мурожаат этилганда, ушбу Низомнинг 9-банди биринчи хатбошисида кўрсатилган тўловлар миқдорининг 90 фоизи ундирилади.

"Ижтимоий ҳимоя ягона реестри" ахборот тизимида рўйхатга олинган шахсларга, шунингдек, I ва II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахсларга ушбу давлат хизматларидан фойдаланишда белгиланган тўловларнинг 50 фоизи миқдорида чегирма қўлланади.

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

Давлат хизматларидан фойдаланиш учун тўловлар тўлангани электрон тарзда тасдиқланади.

11. Тўловлар суммаси қуйидаги тартибда тақсимланади:

а) Давлат хизматлари марказларига бевосита (шахсан келиб) мурожаат этилганда:

18 фоизи – Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг Давлат хизматларини ривожлантириш жамғармасига;

11,25 фоизи – Агропортал операторининг тижорат банкидаги ҳисобварағига;

10 фоизи – Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетига;

қолган маблағлар (пул ўтказмалари бўйича харажатлар чегирилган ҳолда) тенг улушда – "Ўздаверлойиҳа" ДИЛИнинг банк ҳисобварағига ва Кадастр агентлигининг бюджетдан ташқари жамғармасига;

б) ЯИДХП орқали мурожаат этилганда:

11,75 фоизи – Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги "Электрон ҳукумат лойиҳаларини бошқариш маркази" давлат муассасасининг Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Ғазначилик қўмитасидаги махсус ҳисобварағига (шу жумладан, 0,5 фоизи – Ягона биллинг тизими орқали тасдиқлангани учун);

11,25 фоизи – Агропортал операторининг банк ҳисобварағига;

10 фоизи – Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг Давлат хизматларини ривожлантириш жамғармасига;

10 фоизи – Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетига;

қолган маблағлар (пул ўтказмалари бўйича харажатлар чегирилган ҳолда) тенг улушда – "Ўздаверлойиҳа" ДИЛИнинг тижорат банки ҳисобварағига ва Кадастр агентлигининг бюджетдан ташқари жамғармасига;

в) Агропортал орқали мурожаат этилганда:

11,75 фоизи – Агропортал операторининг тижорат банки ҳисобварағига (шу жумладан, 0,5 фоизи – операторнинг "Агробиллинг" ахборот тизими орқали тасдиқлангани учун);

10 фоизи – Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетига;

қолган маблағлар (пул ўтказмалари бўйича харажатлар чегирилган ҳолда) тенг улушда – "Ўздаверлойиҳа" ДИЛИнинг тижорат банк ҳисобварағига ва Кадастр агентлигининг бюджетдан ташқари жамғармасига.

12. Ариза ижрога йўналтирилгандан сўнг, ер ижарачиси давлат хизматларидан фойдаланишнинг ҳар қандай босқичида ундан фойдаланишдан бош тортиш ҳуқуқига эга.

Бунда ариза кўрилмасдан қолдирилади ва тўланган тўловлар қайтарилмайди.

13. Ариза ижрога йўналтирилмаганда, пул ўтказмалари бўйича банк харажатлари чегирилган ҳолда тўланган тўловлар “Агробиллинг” ахборот тизими орқали ер ижарачисига қайтарилади.

14. Ижрочига ариза келиб тушгандан сўнг, беш иш куни ичида Агропорталда тегишли шартнома лойиҳасини тайёрлайди.

Бунда ижрочи томонидан:

ер участкасининг амалдаги ҳолати бўйича тақдим этилган ҳужжатлардаги маълумотларнинг ўзаро мувофиқлиги ўрганилади;

қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларида ер ижарачисининг чегараси ва фойдаланиш ҳолати жойига чиққан ҳолда ўрганилади;

ер участкаси майдони ўзгаришининг асосланган кўриб чиқилади ва ер тузиш лойиҳаси ишлаб чиқилади.

15. Ижрочи ер ижара шартномаси лойиҳасини имзолаш учун ер ижарачиси ва туман (Қувасой шаҳар) ҳокимлигига электрон шаклда юборади.

16. Ер ижарачиси икки иш куни ичида ер ижара шартномаси лойиҳасини электрон рақамли имзо (кейинги ўринларда – ЭРИ) ёки Мобил-ID ёҳуд face-ID билан тасдиқлайди.

17. Туман (Қувасой шаҳар) ҳокимлиги ер ижара шартномаси лойиҳасини ер ижарачиси томонидан имзоланганидан сўнг, икки иш куни ичида ЭРИ билан тасдиқлайди.

18. Туман (Қувасой шаҳар) ҳокимлиги томонидан ер ижара шартномаси лойиҳаси қуйидаги ҳолларда ижрочига қайтарилади:

ер участкаси бўйича чекловлар (суд ва ваколатли органлар томонидан тақиқ қўйилган бўлса) ва фойдаланишнинг алоҳида шартлари мавжуд бўлганда;

норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга асосан ер участкасидан фойдаланиш тартиби ўзгарган ёки мавжуд режаларга ўзгартиришлар киритилганда.

Ушбу бандда назарда тутилмаган бошқа сабаблар билан шартнома лойиҳасини қайтаришга йўл қўйилмайди.

19. Ижрочига шартнома лойиҳаси қайтарилганда, ер ижарачисини бу ҳақда бир иш куни ичида ариза келиб тушган платформа орқали хабардор қилади.

Ер ижарачиси хабарнома юборилган кундан бошлаб беш иш куни ичида шартнома лойиҳаси бўйича камчиликларни бартараф этган ҳолда қайта мурожаат қилиш ҳуқуқига эга. Бунда аризани такроран кўриб чиқиш учун тўловлар ундирилмайди.

Агар ер ижарачиси беш иш куни ичида қайта мурожаат қилмаса, ижрочи томонидан бир иш куни ичида Агропортал орқали ер ижарачисига ариза ижроси тўхтатилгани тўғрисида хабарнома юборилади ҳамда тўланган тўловлар қайтарилмайди.

20. Икки томонлама имзоланган ер ижара шартномаси Агропортал орқали Кадастр агентлигига ерга бўлган ҳуқуқларни рўйхатдан ўтказиш учун юборилади.

21. Кадастр агентлиги ўн иш куни ичида ер участкасига бўлган ижара ҳуқуқини белгиланган тартибда давлат рўйхатидан ўтказади ҳамда натижаси бўйича реестрдан кўчирмани Агропортал орқали ер ижарачисига юборади.

22. Ижрочи уч иш куни ичида ер ижарачисига ер участкасининг чегарасини жойида кўрсатиб беради ҳамда бу ҳақидаги маълумотларни Агропортал орқали Давлат хизматлари марказига ва ЯИДХПга юборади.

3-боб. Якунловчи қоидалар

23. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, унинг ҳудудий бошқармалари ва Давлат хизматлари марказлари ушбу Регламент талаблари бажарилиши бўйича давлат органлари ва бошқа ташкилотларнинг фаолияти устидан, шу жумладан, ЯИДХП ва Агропортал орқали доимий назорат ва мониторингни амалга оширади.

24. Ер ижарачиси давлат органлари ва бошқа ташкилотлар ходимларининг хатти-ҳаракатлари юзасидан қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда юқори турувчи органга ёки судга шикоят қилиши мумкин.

25. Ушбу Регламент талаблари бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ жавоб берадилар.

Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларининг
ер ижара шартномаларига ўзгартиришлар киритиш
бўйича давлат хизматларини кўрсатишнинг
маъмурий регламентига
1-илова

Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларининг ер ижара шартномаларига ўзгартиришлар киритиш бўйича давлат хизматларини кўрсатиш СХЕМАСИ

Босқичлар	Субъектлар	Тадбирлар	Муддатлар
1-босқич	Ер ижарачиси	1. Амалдаги ер ижара шартномасига ўзгартиришлар киритиш учун Давлат хизматлари марказига ёки ЯИДХП ёҳуд Агропортал орқали ариза билан мурожаат қилади. 2. Белгиланган тўловни амалга ошириш.	Ўз хоҳишига кўра мурожаат қилганда
2-босқич	1. Давлат хизматлари маркази. 2. ЯИДХП. 3. Агропортал.	Аризани “Ўздаверлойиҳа” ДИЛИга юборади.	Автоматик тарзда
3-босқич	“Ўздаверлойиҳа” ДИЛИ	1. Аризадаги мурожаатни ўрганади. 2. Ер ижара шартномасини ўзгартиришлар киритиш бўйича тегишли шартнома лойиҳасини тайёрлайди. 3. Тайёрланган шартнома лойиҳасини имзолаш учун ер ижарачиси ва туман (Қувасой шаҳар) ҳокимлигига электрон шаклда юборади.	5 иш куни ичида
4-босқич	Ер ижарачиси	Ер ижара шартномаси лойиҳасини ЭРИ ёки Мобил-ID ёҳуд face-ID орқали имзолайди.	2 иш куни ичида
5-босқич	Туман (Қувасой шаҳар) ҳокимлиги	Ер ижара шартномаси лойиҳасини имзолайди ёки асосларни кўрсатган ҳолда имзолашни рад этади.	Ер ижарачиси имзолагандан кейин 2 иш куни ичида
6-босқич	Кадастр агентлиги	Ер участкасига бўлган ижара ҳуқуқини белгиланган тартибда давлат рўйхатидан ўтказади ҳамда натижаси бўйича реестрдан кўчирмани Агропортал орқали ер ижарачисига юборади.	10 иш куни ичида
7-босқич	“Ўздаверлойиҳа” ДИЛИ	Ер ижарачисига ер участкасининг чегарасини жойида кўрсатиб беради ва бу ҳақидаги маълумотларни Агропортал орқали Давлат хизматлари марказига юборади ва ЯИДХПга жойлаштиради.	3 иш куни ичида

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларининг
ер ижара шартномаларига ўзгартиришлар киритиш
бўйича давлат хизматларини кўрсатишнинг
маъмурий регламентига
2-илова

Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларининг ер ижара шартномаларига ўзгартиришлар киритиш бўйича АРИЗА

_____вилояти _____ тумани (Қувасой шаҳри) _____ ҳудудида фаолият юритувчи _____
(ер ижарачиси, юридик шахс номи)

СТИР _____ раҳбари _____
(Ф.И.О.)

_____
(жисмоний шахс бўлганда Ф.И.О. кўрсатилади)

(телефон рақами — _____) дан.

Мен раҳбарлик қилаётган хўжалик (ёки) Менга тегишли кадастр рақами – _____-сон, _____-сон контур(лар)даги умумий ер майдони _____ (га) бўлган ер участкасининг _____ (*ер майдони ҳажми камайиши/кўпайиши, амалдаги ер участкасининг ижара шартномаси муддатини узайтириш/камайтириш*)да амалий ёрдам беришингизни сўрайман.

Аризамга амалдаги ер ижара шартномаси нусхасини илова қиламан.*

Шунингдек, қишлоқ хўжалиги ер участкаларидан фойдаланиш шартларини ўзгартиришда шартномаларни қайта расмийлаштириш бўйича давлат хизматини кўрсатиш юзасидан белгиланган тартиб-қоидалар билан танишиб чиқдим ва уларга тўлиқ амал қилишимни маълум қиламан ҳамда ижобий хулоса берилган тақдирда, менга юкланган мажбуриятларни бажаришни ўз зиммамга оламан.

Ариза берувчи: Ф.И.О.

йил, кун, ой

** Агар ер участкаси очиқ электрон танлов ёки аукцион савдоларида ютиб олинган бўлса, ер участкаси бўйича "E-auksion" электрон савдо платформаси ёки "E-ijara" ахборот тизимида мавжуд баённома Агропорталда автоматик тарзда шаклланади.*

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

Вазирлар Маҳкамасининг
2026 йил “ 13 ” июлдаги 381-сон қарорига
3-илова

Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларида агротехника тадбирларининг бажарилишини ва маҳсулот етиштиришда имтиёзли кредит маблағларидан мақсадли фойдаланишни “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси орқали мониторинг қилиш тартиби тўғрисида

НИЗОМ

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Низом ахборот-коммуникация технологиялари орқали қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларида агротехника тадбирларининг бажарилишини ва маҳсулот етиштириш учун давлат томонидан ажратилган маблағлардан мақсадли фойдаланишни мониторинг қилиш тартибини белгилайди.

2. Ушбу Низомда қуйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

“Агромониторинг” ахборот тизими (кейинги ўринларда – “Агромониторинг” АТ) – агротехника тадбирлари мониторингини веб-саҳифа ва мобил илова орқали амалга ошириш имконини берувчи тизим;

Агропортал – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси;

агротехника тадбирлари мониторинги – қишлоқ хўжалиги экинларини жойлаштириш кўрсаткичларига асосан етиштиришнинг давлат томонидан қўллаб-қувватланадиган қисми бўйича қишлоқ хўжалиги экинлари экилган майдонларни ўлчаш, шунингдек, экин майдонларида ерга ишлов беришдан бошлаб ҳосилни йиғиб олгунга қадар ўтказиладиган агротехника тадбирларининг ўз муддатларида бажарилиши устидан “Агромониторинг” АТ орқали мониторинг қилиш;

кредит берувчи – Агропортал орқали тузилган кредит шартномасига мувофиқ кредит тақдим этувчи тижорат банки;

кредит олувчи – қишлоқ хўжалиги экинларини етиштириш учун имтиёзли кредитлар олган юридик ёки жисмоний шахс (агрокластер, кооперация, фермер хўжалиги, деҳқон хўжалиги ва бошқа қишлоқ хўжалиги субъектлари);

қишлоқ хўжалиги экинлари – пахта хомашёси, буғдой, мева, узум, сабзавот, картошка, полиз экинлари, гул, кўкатлар ва доривор ўсимликлар, дон учун маккажўхори, дуккакли, мойли, шоли ва озуқабоп экинлар.

2-боб. Агротехника тадбирларининг бажарилишини мониторинг қилиш

3. Агротехника тадбирлари бажарилишини мониторинг қилиш Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг ахборот тизимларида мавжуд бўлган қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкалари бўйича ер турлари, майдони, ер эгалари, ердан фойдаланувчилар ва ижарачилар тўғрисидаги маълумотлар асосида амалга оширилади.

4. Агротехника тадбирлари мониторинги “Агромониторинг” АТ ва унинг мобил иловаси ёрдамида Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Агросаноат мажмуи устидан назорат қилиш инспекцияси ҳамда Озиқ-овқат маҳсулотлари хавфсизлиги қўмитасининг ҳудудий бош бошқармалари ва туман (Қувасой шаҳар) инспекциялари, Уруғчиликни ривожлантириш маркази (уруғчилик етиштирувчи хўжаликлар учун), шунингдек, кредит берувчи, лизинг, суғурта компаниялари ва бошқа ташкилотлар томонидан олиб борилади.

5. Агротехника тадбирлари мониторинги қуйидаги мақсадларда амалга оширилади:

қишлоқ хўжалиги экинларини жойлаштириш кўрсаткичларига асосан экин майдонларида ерга ишлов беришдан бошлаб ҳосилни йиғиб олгунга қадар ер контурлари ёки уларнинг экин экилган қисми бўйича мониторинг юритиш;

қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш учун давлат томонидан ажратилаётган субсидия ва имтиёзли кредитларнинг мақсадли ишлатилишини таҳлил қилиш.

6. Агротехника тадбирлари мониторинги пахта ва бошоқли дон экинлари, шунингдек, бошқа экин турларида амалга оширилади.

7. Кредит олувчи агротехника тадбирлари бажарилиши ҳолати тўғрисидаги маълумотларни бевосита ўзи шахсий кабинети орқали Агропорталга киритиши мумкин.

8. Агротехника тадбирлари мониторинги натижалари Агропорталда кредит олувчининг шахсий кабинетида ва Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг ҳудудий бўлинмалари учун “Агромониторинг” АТда онлайн вақт режимида акс эттирилади.

9. Қишлоқ хўжалиги экинларини етиштириш учун кредит олувчиларга, улар томонидан Агропорталда шакллантириладиган тўлов топшириқномаларига мувофиқ тижорат банклари томонидан кредитлар ажратиб борилади.

Бунда аввалги агротехника тадбирининг бажарилганлик ҳолати “Агромониторинг” АТда тасдиқланганидан кейин жорий агротехника тадбири учун молиявий ресурслар ажратилади.

10. Агротехника тадбирларини мониторинг қилиш ва ушбу тадбирларнинг бажарилишига мувофиқ кредит ажратиш ушбу Низомга иловадаги схема асосида амалга оширилади.

11. Имтиёзли кредитлардан мақсадли фойдаланишда кредит олувчилар Агропортал таркибига кирувчи “Reagro” ахборот тизимига киритилган таъминотчи корхоналар билан етказиб бериш ва хизмат кўрсатиш бўйича шартномалар, тўлов топшириқномалари, ҳисоб-фактуралар ва бошқа молиявий ҳужжатлар тузилади.

12. Қишлоқ хўжалиги экинларининг агротехника тадбирлари учун ажратилган имтиёзли кредитлардан мақсадли фойдаланиш ҳолати босқичма-босқич мониторинг қилиб борилади. Бунда:

Қишлоқ хўжалиги вазирлиги Рақамли технологиялар вазирлиги ҳамда Космик тадқиқотлар ва технологиялар агентлиги билан биргаликда ҳар йили март – октябрь ойларида ҳар бир ҳудуд бўйича космик суратлар ва учувчисиз учадиган аппаратлар (дронлар) ёрдамида олинган маълумотларни Агропорталга жойлаштириб боради;

Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Агросаноат мажмуи устидан назорат қилиш инспекцияси космик суратлар ва учувчисиз учадиган аппаратлар ёрдамида олинган маълумотларга асосан ҳар бир ҳудуддаги кредит олувчи қишлоқ хўжалиги экинларининг ҳолати тўғрисидаги хулосаларни Агропорталга жойлаштиради;

кредит берувчи қишлоқ хўжалиги экинларининг ҳолати тўғрисидаги хулосалардан келиб чиққан ҳолда қишлоқ хўжалиги экин турига қараб молиялаштиришни ташкил этади. Бунда қишлоқ хўжалиги экинларини етиштириш шартлари кредит шартномасига кўра бузилиш ҳолати аниқланса, ушбу кредит олувчига имтиёзли кредитлар ажратиш вақтинча тўхтатилади.

3-боб. Имтиёзли кредитлар ва маблағлар айланмалари бўйича маълумотларни Агропорталда онлайн тақдим этиш

13. Кредит олувчи ўзининг имтиёзли кредитлари ва маблағлар айланмалари бўйича тегишли маълумотларни Агропортал орқали олиши мумкин. Бунинг учун:

кредит олувчи келгуси йил ҳосили учун қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларида экиладиган қишлоқ хўжалиги экинлари тўғрисидаги маълумотларини ҳар йили 1 августга қадар Агропорталга мустақил жойлаштирган бўлиши;

кредит олувчи кредит берувчи билан кредит ажратиш шартномасини белгиланган тартибда тузган бўлиши лозим.

14. Кредит олувчига Агропортал орқали ҳар куни (дам олиш ва ишланмайдиган байрам кунларидан қатъи назар) 24 соат давомида агротехника тадбирлари учун кредит ажратиш шартномасининг ҳолати ва ушбу шартномага асосан ажратилган маблағлар тўғрисида маълумотлар

олиш, ажратилган маблағларни сарфлаш учун тўлов топшириқномаларини яратиш, маблағларни сарфлаш учун шартнома тузиш ёки тузилган шартномаларни юклаб олиш, тўлов топшириқномаларининг бажарилиш ҳолатини назорат қилиш имконияти яратилади.

Бунда ушбу хизматлардан фойдаланиш истагини билдирган кредит олувчига Агропортал оператори оферта шартномаси асосида хизмат кўрсатади.

15. Тўлов топшириқномалари иш вақтидан кейинги ёки дам олиш ва ишланмайдиган байрам кунларида тижорат банкларига келиб тушганда, навбатдаги иш кунида тўлов топшириқномалари тижорат банкига келиб тушган ва қабул қилинган кун деб ҳисобланади ҳамда ижроси таъминланади.

16. Кредит олувчи тўлов топшириқномасини кредит берувчига юбориши учун тегишли маълумотларни Агропорталга киритганидан сўнг, маълумотларнинг тўғрилигини текширади ва имзоларни идентификация қилиш воситаларидан бири (дактилоскопия, электрон рақамли имзо, Мобил-ID ёки “face-ID”) орқали тасдиқлайди.

17. Кредит берувчи кредит олувчидан келиб тушган тўлов топшириқномасига асосан ажратиладиган кредитлар доирасида тўлов топшириқномасида кўрсатилган банк ҳисобварағига маблағларни ўтказади.

Бунда кредит берувчи кредит олувчи томонидан кредитларнинг мақсадли сарфланиши устидан “Агромониторинг” АТ орқали мониторинг юритиши мумкин.

18. Кредит олувчи томонидан кредит ажратиш шартномасида кўрсатилган экиндан бошқа экин тури экилганда ёки кредитнинг қайтмаслик хавфи аниқланганда, кредит берувчи кредитлар ажратишни тўхтатиши ёки шартномада кўрсатилган асосларга кўра кредит ажратиш шартномасини бекор қилиши мумкин.

Бу ҳақидаги маълумотлар кредит олувчига Агропорталдаги шахсий кабинети орқали юборилади.

4-боб. Якунловчи қоида

19. Ушбу Низом талаблари бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ жавоб берадилар.

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларида
агротехника тадбирларининг бажарилишини
ва маҳсулот етиштиришда имтиёзли кредит
маблағларидан мақсадли фойдаланишни
“Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион
платформаси орқали мониторинг қилиш
тартиби тўғрисидаги низомга
илова

Агротехника тадбирларини мониторинг қилиш ва тадбирларнинг бажарилишига мувофиқ кредит ажратиш СХЕМАСИ

Босқичлар	Субъектлар	Тадбирлар	Муддатлар
1-босқич	Қишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланувчилар	Экиладиган экинлар тўғрисидаги маълумотларни Агропорталга мустақил жойлаштиради.	Ҳар йили 1 августга қадар
2-босқич	Туман (Қувасой шаҳри) қишлоқ хўжалиги бўлимлари	Экиладиган экинлар тўғрисидаги маълумотлар асосида агротехника тадбирларини “Агромониторинг” АТ орқали мониторинг қилиб боради.	Экин тури бўйича ҳар ойда
3-босқич	Қишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланувчилар	1. Кредит шартномасини экин турлари бўйича белгиланган тартибда расмийлаштиради. 2. Тўлов топшириқномаларини шакллантиради, электрон имзо билан имзолайди ва тегишли тижорат банкларига юборади.	Заруратга кўра
4-босқич	Кредит берувчи	Кредит шартномаси доирасида маблағларни тўлов топшириқномаларига мувофиқ ажратади.	Агротехника тадбирини бажариш муддати бўйича
5-босқич	Кредит берувчи	Ажратилган кредит маблағларининг тегишлилиги бўйича мақсадли сарфланишини мониторинг қилади.	Кредит шартномасига мувофиқ

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

Вазирлар Маҳкамасининг
2026 йил “ 13 ” июлдаги 381-сон қарорига
4-илова

Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар

1. Вазирлар Маҳкамасининг “Қишлоқ ва сув хўжалиги тармоқларини олий маълумотли юқори малакали кадрлар билан таъминлашни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2015 йил 9 ноябрдаги 311-сон қарорининг 3-банди ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

2. Вазирлар Маҳкамасининг “Академик Маҳмуд Мирзаев номидаги боғдорчилик, узумчилик ва виночилик илмий-тадқиқот институтининг фаолиятини янада ривожлантириш ҳамда моддий-техника базасини мустаҳкамлаш чора-тадбирлари тўғрисида” 2019 йил 9 июлдаги 569-сон қарорида:

а) 1-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги Қишлоқ хўжалигида билим ва инновациялар миллий маркази фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” 2021 йил 3 февралдаги ПҚ–4975-сон қарорига мувофиқ Академик Маҳмуд Мирзаев номидаги боғдорчилик, узумчилик ва виночилик илмий-тадқиқот институти (кейинги ўринларда – Институт) Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги фанлари академияси (кейинги ўринларда – Академия) ихтиёрига ўтказилганлиги маълумот учун қабул қилинсин”;

б) 5-бандда:

“а” кичик банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“а) Институт:

ўз фаолияти бўйича Академия ва Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигига ҳисобот беради;

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Инновацион ривожланиш агентлиги томонидан ўтказиладиган илмий лойиҳалар танловларининг натижалари бўйича ажратиладиган грантлар, шунингдек, хўжалик фаолиятидан тушадиган маблағлар, Институт тизимидаги илмий-тажриба станцияларининг йиллик даромадининг 15 фоизи миқдоридаги ажратмалар ҳисобидан тушадиган тушумлар, халқаро молия институтлари, хорижий ташкилотларнинг грантлари ва техник кўмак маблағлари, жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳомийлик хайриялари ҳамда қонунчилик ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан молиялаштирилади”;

“б” ва “в” кичик бандлардаги тегишли келишикдаги “Агентлик директори” сўзлари тегишли келишикдаги “Академия раиси” сўзлари билан алмаштирилсин.

3. Вазирлар Маҳкамасининг “Қишлоқ хўжалиги экинларини оқилона жойлаштириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” 2020 йил 24 августдаги 505-сон қарорида:

а) 3-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“3. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва туманлар (Қувасой шаҳар) ҳокимликлари қишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланувчилар мустақил равишда экинларини жойлаштириши учун ҳар йили 1 августга қадар илгари ҳисобга олинган ер участкаларидан рухсат этилган фойдаланишнинг асосий турларини белгилаш ишларини “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформасида ташкил этсин”;

б) 4-банд иккинчи хатбоши чиқариб ташлансин;

учинчи хатбоши иккинчи хатбоши деб ҳисоблансин;

в) иловада:

3-бандда:

иккинчи хатбоши қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“**CropAgro**” **АТ** – қишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланувчиларнинг экинларни жойлаштириш бўйича маълумотларини қабул қилиш, келишиш, маълумот ва ҳисоботларни шакллантириш учун фойдаланиладиган ахборот тизими”;

қуйидаги мазмундаги учинчи ва тўртинчи хатбошилар билан тўлдирилсин:

“**Агропортал** – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси;

оператор – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги “Агросаноатни рақамлаштириш маркази” масъулияти чекланган жамияти”;

учинчи – ўн тўртинчи хатбошилар тегишлича бешинчи – ўн олтинчи хатбошилар деб ҳисоблансин;

5-бандда:

қуйидаги мазмундаги иккинчи хатбоши билан тўлдирилсин:

“Ер участкаларидан рухсат этилган фойдаланиш турларини ҳисобга олган ҳолда Агропорталда ердан фойдаланувчилар томонидан қишлоқ хўжалиги экинларини мустақил жойлаштириш имкониятини яратади”;

иккинчи – еттинчи хатбошилар тегишлича учинчи – саккизинчи хатбошилар деб ҳисоблансин;

учинчи хатбоши қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари билан биргаликда ердан фойдаланувчиларнинг барча турдаги қишлоқ хўжалиги экинларини жойлаштириш маълумотлари билан истеъмолчилар талабини таҳлил қилади ва мувофиқлаштириш чораларини кўради”;

олтинчи хатбоши “қишлоқ хўжалиги бўлимларига” сўзларидан кейин “Агропортал орқали” сўзлари билан тўлдирилсин;

7-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“7. Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги:

ҳар бир ҳудуд бўйича экин майдонларининг мелиоратив ҳолати ва сув билан таъминлаш имкониятлари тўғрисидаги объектив маълумотлар (сув етказиб беришнинг минимал ва максимал лимитлари)ни ер участкаларининг контурлари кесимида шакллантиради ҳамда Агропорталга жойлаштиради;

Агропорталда шакллантирилган ер участкаларининг контурлар кесимидаги қишлоқ хўжалиги экинларини жойлаштиришга оид зарур маълумотларни “Сув ҳисоби” ахборот тизими билан интеграция қилади”;

11-бандда:

қуйидаги мазмундаги иккинчи хатбоши билан тўлдирилсин:

“ўз вазифа ва функцияларини бажариши учун оператор билан, у билан тузиладиган шартнома асосида Агропорталдаги бажарадиган функцияларини ишлаб чиқади, ушбу тизимга Агросаноат мажмуи устидан назорат қилиш инспекцияси марказий аппарати ва ҳудудий бўлинмаларининг уланиши ва фойдаланишини ташкил этади”;

иккинчи хатбоши учинчи хатбоши деб ҳисоблансин;

14-бандда:

биринчи хатбоши қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“14. Ердан фойдаланувчилар ҳар йили 1 июлга (2026 йил ҳосили учун 1 сентябрга) қадар ер участкаларидан рухсат этилган фойдаланиш туридан келиб чиққан ҳолда қишлоқ хўжалиги экинларини ер участкалари кесимида Агропорталда мустақил жойлаштиради”;

иккинчи ва учинчи хатбошилар чиқариб ташлансин;

қуйидаги мазмундаги 14^1 – 14^2-бандлар билан тўлдирилсин:

“14^1. Ердан фойдаланувчиларга оператор томонидан ишлаб чиқилган ахборот тизимлари ёрдамида қишлоқ хўжалиги экинларини мустақил жойлаштиришга кўмаклашиш, шартномавий муносабатларни йўлга қўйиш ва бошқа йўналишларда хизмат кўрсатиш учун хусусий сектор вакилларининг кўмагидан фойдаланиш имкониятлари жорий қилиниши мумкин.

14^2. Ердан фойдаланувчилар томонидан сув таъминоти мавжуд бўлмаган ёки ернинг норматив қиймати аниқланмайдиган яйлов ерларида қишлоқ хўжалиги экинлари ушбу ердан фойдаланувчиларнинг ўз ҳисобидан етиштирилиши мумкин”;

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

15, 16 ва 17-бандлар ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин;

18-бандда:

биринчи, тўртинчи ва бешинчи хатбошилар чиқариб ташлансин;

иккинчи ва учинчи хатбошилар тегишлича биринчи ва иккинчи хатбошилар деб ҳисоблансин;

иккинчи хатбошидаги “CropAgro” ахборот тизимидан” сўзлари “Агропортал” сўзи билан алмаштирилсин;

20-бандниng иккинчи хатбошиси чиқариб ташлансин;

21,22 ва 23-бандлар ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин;

24-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“24. Қишлоқ хўжалиги экинларини жойлаштириш тўғрисидаги маълумотлар Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларнинг қишлоқ хўжалиги геопорталларида онлайн тарзда акс эттирилади”;

26-бандниng биринчи хатбошиси “Қишлоқ хўжалиги экинларини жойлаштириш натижалари мониторинги” сўзларидан кейин “қишлоқ хўжалиги туман бўлимлари ва” сўзлари билан тўлдирилсин;

илова қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“Қишлоқ хўжалиги экинларини оқилона жойлаштириш тартиби тўғрисидаги низомга илова

Қишлоқ хўжалиги экинларини оқилона жойлаштириш ишларини амалга ошириш
СХЕМАСИ

Босқичлар	Субъектлар	Тадбирлар	Бажариш муддатлари
1-босқич	Урбанизация ва уй-жой бозорини барқарор ривожлантириш миллий қўмитаси ҳузуридаги Кадастр агентлиги	Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаси кадастр рақами, фойдаланувчиси, контур рақами, чегаралари, ер тури ва географик жойлашуви, майдони (гектарда) ва бошқа маълумотларни интеграция орқали тақдим этади.	Доимий
2-босқич	“Агросаноатни рақамлаштириш маркази” МЧЖ	Агропорталда маълумотларни йиғиш, сақлаш, ишлов бериш, фойдаланувчиларни техник жиҳатдан қўллаб-қувватлаш, ҳисоботларни автоматик шакллантириш, инсон омилини қисқартириш бўйича дастурий ечимларни жорий этади ва такомиллаштириб боради.	Доимий
3-босқич	Сув хўжалиги вазирлиги	Экин майдонларининг мелиоратив ҳолати ва сув билан таъминлаш имконияти тўғрисида;	Ҳар йили 1 майга қадар

Босқичлар	Субъектлар	Тадбирлар	Бажариш муддатлари
	Иқтисодиёт ва молия вазирлиги	ички ва ташқи бозордаги талабларни инобатга олган ҳолда, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини турлари бўйича ишлаб чиқаришнинг йиллик прогноз ҳажмлари тўғрисида маълумотларни Қишлоқ хўжалиги вазирлигига тақдим этади.	
4-босқич	Ердан фойдаланувчилар	Агропортал орқали қишлоқ хўжалиги экинларини мустақил жойлаштиради.	Ҳар йили 1 июлга қадар
5-босқич	Ирригация бўлими ва Тупроқшунослик ва агрокимёвий тадқиқотлар институти, “Тупроқ таҳлил маркази” ДМ	Қишлоқ хўжалиги экинларининг контурлар кесимида жойлаштирилишини кўриб чиқади, зарур ҳолларда қўшимча ва тўлдиришлар киритади ҳамда электрон рақамли имзо билан тасдиқлайди.	2 иш кунида
6-босқич	Қишлоқ хўжалиги бўлимлари, “Ўздаверлойиҳа” институти ва унинг ҳудудий бўлинмалари	Экинларнинг экилиши ва ҳолати мониторингини юритади.	Доимий
7-босқич	Қишлоқ хўжалиги вазирлиги	Қишлоқ хўжалиги экинларини жойлаштириш маълумотлари Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларнинг қишлоқ хўжалиги геопорталларида онлайн тарзда акс эттирилади.	Доимий

”.

4. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 11 декабрдаги 776-сон қарори билан тасдиқланган Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари томонидан солиқ тўловчиларнинг солиқ тўлаш муддатларини ўзгартириш тартиби тўғрисидаги низомга 1-илованинг 1-банди қуйидаги мазмундаги тўртинчи хатбоши билан тўлдирилсин:

“Дала четлари, каналлар, коллектор-дренаж ва суғориш тармоқлари атрофидаги майдонлар, аҳоли томорқаси, хонадонлар, кўп қаватли уйлар олди ва маҳалланинг ички кўчаларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш фаолияти”.

5. Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 23 февралдаги 96-сон қарори билан тасдиқланган Органик қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқаришни ихтиёрий сертификатлаштиришдан ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомда:

а) 23-банд қуйидаги мазмундаги бешинчи – ўн биринчи хатбошилар билан тўлдирилсин:

“Инспекция назоратини амалга оширган айни бир инспектор томонидан такроран режадан ташқари инспекция назоратининг амалга оширилишига йўл қўйилмайди.

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

Инспекция назоратини ташкил этиш ва инспекторларни тайинлаш ваколати органик маҳсулот мувофиқлигини баҳолаш органи раҳбарига юкланади.

Дастлабки инспекция назорати учун инспектор органик маҳсулот мувофиқлигини баҳолаш органи раҳбари томонидан инспекторлар реестридан танлаб олинади. Бунда малакали, манфаатлар тўқнашуви мавжуд бўлмаган ва ушбу объект билан охирги уч йил давомида хизмат муносабатларига эга бўлмаган инспектор танланиши шарт.

Такроран, режадан ташқари инспекция назоратини амалга ошириш учун дастлабки инспекцияни ўтказган инспектор тайинланмайди. Ушбу ҳолда органик маҳсулот мувофиқлигини баҳолаш органи раҳбари реестрдан бошқа мустақил инспекторни тайинлайди.

Инспекторни тайинлаш тўғрисидаги буйруқ электрон шаклда расмийлаштирилади ва унда инспекторнинг шахсий маълумотлари, малакаси, текширув тури ва объекти, текширув асоси, муддати ва вазифалари кўрсатилади. Буйруқ нусхаси инспектор ҳамда текширилаётган субъектга юборилади.

Инспекторни тайинлашда манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш, холислик ва мустақиллик мезонлари мажбурий тарзда текширилади. Манфаатлар тўқнашуви аниқланган шахснинг инспектор сифатида тайинланишига йўл қўйилмайди.

Органик маҳсулот мувофиқлигини баҳолаш органи инспекторни тайинлашга оид барча маълумотларни электрон реестрда сақлайди ва зарурат бўлганда назорат қилувчи органларга тақдим этади";

б) қуйидаги мазмундаги 23^1-банд билан тўлдирилсин:

"23^1. Қуйидаги ҳолларда тақдим этилган маълумот ишончсиз деб топилади:

сохталаштирилган маълумотлар мавжуд бўлса;

бошқа манбалардан текшириб кўрилган маълумотлар билан солиштирилганда, шунингдек, саналар ва кўрсаткичларда номувофиқликлар аниқланса;

тақдим этилган маълумотларни тасдиқловчи ҳужжатлар (гувоҳномалар, сертификатлар ва хулосалар) бўлмаса.

Ушбу бандда кўрсатилмаган бошқа асосларга кўра тақдим этилган маълумотни ишончсиз деб топишга йўл қўйилмайди".

6. Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 24 ноябрдаги 709-сон қарори билан тасдиқланган Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкасини бўлиш ва унинг янги чегараларини белгилаш бўйича давлат хизматларини кўрсатишнинг маъмурий регламентининг 9-бандида:

"а" кичик бандда:

олтинчи хатбошидаги "5 фоизи" сўзлари "11,25 фоизи" сўзлари билан алмаштирилсин;

еттинчи хатбошидаги “70 фоизи” сўзлари “63,75 фоизи” сўзлари билан алмаштирилсин;

“б” кичик бандда:

олтинчи хатбошидаги “5 фоизи” сўзлари “11,25 фоизи” сўзлари билан алмаштирилсин;

еттинчи хатбошидаги “70 фоизи” сўзлари “63,75 фоизи” сўзлари билан алмаштирилсин.

7. Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 4 декабрдаги 733-сон қарори билан тасдиқланган Пахта-тўқимачилик кластерлари фаолиятини ташкил этиш тартиби тўғрисидаги низомда:

а) 9-бандда “Ягона интерактив давлат хизматлари портали” сўзларидан кейин “ёки “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси (кейинги ўринларда – Агропортал)” сўзлари билан тўлдирилсин;

б) 11-банд, 12-бандниng биринчи хатбошиси ва 21-бандниng иккинчи хатбошиси “Ягона интерактив давлат хизматлари портали” сўзларидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

в) илованинг 1, 2 ва 3-босқичлари “Амалга ошириш механизми” устуни “Ягона интерактив давлат хизматлари портали” сўзларидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин.

8. Вазирлар Маҳкамасининг “Ветеринария хизмати мутахассисларининг малакасини ошириш, уларни қайта тайёрлаш ва уларга малака тоифалари бериш бўйича давлат хизматларини кўрсатишнинг маъмурий регламентини тасдиқлаш тўғрисида” 2022 йил 19 январдаги 33-сон қарорида:

а) 2-бандниng иккинчи хатбошиси “Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП)” сўзларидан кейин “ёхуд “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси (кейинги ўринларда – Агропортал)” сўзлари билан тўлдирилсин;

б) 1-иловада:

3-бандда “ЯИДХПда” қисқартмасидан кейин “ёки Агропорталда” сўзлари билан тўлдирилсин;

4-бандда “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

11-бандда:

иккинчи хатбоши “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

учинчи хатбоши “Ягона биллинг” сўзларидан кейин “ёки “Агробиллинг” ахборот” сўзлари билан тўлдирилсин;

қуйидаги мазмундаги “в” кичик банд билан тўлдирилсин:

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

“в) Агропортал орқали мурожаат этилганда:

11,25 фоизи – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Агросаноатни рақамлаштириш маркази” масъулияти чекланган жамиятининг шахсий ҳисобварағига;

0,5 фоизи – “Агробиллинг” ахборот тизими орқали хизматларни кўрсатганлик учун Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Агросаноатни рақамлаштириш маркази” масъулияти чекланган жамиятининг шахсий ҳисобварағига;

қолган маблағлар тўлиқ миқдорда ваколатли органнинг банк ҳисобварағига ўтказилади”;

13-банд “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёхуд Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

14-банд “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёхуд Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

1-илованинг 1-босқичи “Тадбирлар” устуни “Ягона интерактив давлат хизматлари портали (ЯИДХП)” сўзларидан кейин “ёхуд “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси (Агропортал)” сўзлари билан тўлдирилсин.

9. Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 8 июлдаги 373-сон қарори билан тасдиқланган Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш дастурларининг ягона электрон платформаси орқали кредитлар ажратиш тартиби тўғрисидаги низомнинг 30[6]-банди қуйидаги мазмундаги тўртинчи ва бешинчи хатбошилар билан тўлдирилсин:

“Дала четлари, каналлар, коллектор-дренаж ва суғориш тармоқлари атрофидаги майдонлар, аҳоли томорқаси, хонадонлар, кўп қаватли уйлар олди ва маҳалланинг ички кўчаларидан самарали фойдаланган маҳсулот етиштирувчиларга Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш дастурлари доирасида 100 миллион сўмгача бўлган кредитлар саралаш, сақлаш, қуритиш ва қадоқлаш цехлари ҳамда совиткичли омборхоналарни харид қилиш учун 36 ойгача имтиёзли давр билан 84 ой муддатга йиллик Марказий банкнинг асосий ставкасидан 4 фоизлик пункт юқори ставкада ажратилади.

Бунда кредит суммасининг 60 фоизи бўйича гаров таъминоти сифатида саралаш, сақлаш, қуритиш ва қадоқлаш цехлари ҳамда совиткичли омборхоналар олиниши, 40 фоизи бўйича гаров таъминоти сифатида уларнинг қайтмаслик хатарини суғурта қилиш бўйича суғурта полиси билан ажратилади”.

10. Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 15 ноябрдаги 658-сон қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси фуқаро ва давлат авиациясида учувчисиз учадиган аппаратлардан фойдаланиш ҳамда уларни сақлаш тартиби тўғрисидаги низомнинг 7-банди “в” кичик банди қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“в) парвоз вақтида максимал оғирлиги 25 кг дан ошмаслиги, қишлоқ хўжалигида агротехника тадбирларини амалга ошириш учун мўлжалланган учувчисиз учадиган аппаратлар бундан мустасно, бунда уларнинг максимал учиш оғирлиги 250 кг дан ошмаслиги керак ва тур сертификати, GPS Tracker ёки ID модули (Remote ID масофадан идентификациялаш) билан жиҳозланган бўлиши лозим”.

11. Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 16 декабрдаги 711-сон қарори билан тасдиқланган Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқарувчиларга субсидия бериш ахборот тизими тўғрисидаги низомда:

а) 9-бандниng учинчи хатбошиси “Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП) ёки” сўзларидан кейин “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси (кейинги ўринларда – Агропортал) ёхуд” сўзлари билан тўлдирилсин;

б) 10-бандниng учинчи хатбошиси “ЯИДХП ёки” сўзларидан кейин “Агропортал ёхуд” сўзлари билан тўлдирилсин.

12. Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 16 декабрдаги 712-сон қарори билан тасдиқланган Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Агросаноат мажмуи устидан назорат қилиш инспекциясида уруғлар, дуккакли, мойли экинлар ва бошқа дон экинларини қайта ишлашни сертификатлаш бўйича давлат хизматлари кўрсатишнинг маъмурий регламентида:

а) 4-бандниng биринчи хатбоши “Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП)” сўзларидан кейин “, “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси (кейинги ўринларда – Агропортал)” сўзлари билан тўлдирилсин;

б) 9-бандда “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “, Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

в) 11-бандда “ЯИДХПда” қисқартмасидан кейин “ёки Агропорталда” сўзлари билан тўлдирилсин;

г) 12-бандда “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

д) 15-бандда:

иккинчи хатбоши “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

учинчи хатбоши “Ягона биллинг” сўзларидан кейин “ёки “Агробиллинг” ахборот” сўзлари билан тўлдирилсин;

е) 16-банд қуйидаги мазмундаги “г” кичик банд билан тўлдирилсин:

“г) Агропортал орқали мурожаат этилганда:

11,75 фоизи (шундан 0,5 фоизи – “Агробиллинг” ахборот тизими орқали давлат хизматлари кўрсатилганда) – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Агросаноатни рақамлаштириш маркази” масъулияти чекланган жамиятининг шахсий ҳисобварағига;

қолган маблағлар – Ўзагроинспекциянинг сертификатлаштириш органи шахсий ҳисобварағига ўтказилади”;

ж) 18-бандниng олтинчи хатбошиси, 21-бандниng иккинчи хатбошиси, 33 ва 42-бандларда “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

з) 32-бандлари қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“32. Ариза берувчи Ўзагроинспекцияга маҳсулотни етиштириш ва ишлаб чиқаришни ташкил этишда ўтказилган синов натижаларини ёки аккредитацияланган синов лабораториялари томонидан амалга оширилган синовлар тўғрисидаги ҳужжатларини тақдим этиши мумкин.

Синов натижалари салбий бўлган тақдирда, Ўзагроинспекция икки иш кунида ариза берувчига ёки Давлат хизматлари марказига, ЯИДХП ёки Агропортал орқали ариза берувчига қонунчилик ҳужжатларидаги нормаларни кўрсатган ҳолда маҳсулотнинг мувофиқлик сертификатини беришни рад этилганлиги тўғрисидаги хабарномани юборади.

Агар синов натижалари орасидаги тафовутлар рухсат этилган меъёрдан юқори бўлганда ёки норматив ҳужжатларда кўзда тутилган бошқа ҳолатларда, Ўзагроинспекция томонидан маҳсулотнинг сифат кўрсаткичлари қайта синовдан ўтказилади ва синов жараёнлари давомийлиги белгиланган тартибда узайтирилади ҳамда бу ҳақда икки иш кунида ариза берувчига ёки Давлат хизматлари марказига, ЯИДХП орқали ариза берувчига хабарнома юборилади”.

и) 1-иловада:

илованинг номи “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “,“Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси” сўзлари билан тўлдирилсин;

1-босқич “Тадбирлар” устунида:

1-банд “ЯИДХПда” қисқартмасидан кейин “ёки “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси (кейинги ўринларда – Агропортал)” сўзлари билан тўлдирилсин;

2-банд “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

2-босқич “Субъектлар” устуни “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

3-босқич “Тадбирлар” устуни 2-банди “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

6-босқич “Тадбирлар” устуни “ЯИДХПга” қисқартмасидан кейин “ёки Агропорталга” сўзлари билан тўлдирилсин;

7-босқич “Субъектлар” устуни “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин.

13. Вазирлар Маҳкамасининг “Қишлоқ хўжалиги, мелиорация ва йўл-қурилиш техникаларидан фойдаланиш соҳасида давлат хизматлари кўрсатиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2023 йил 29 апрелдаги 170-сон қарорида:

а) 1-иловада:

4-банд “Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП)” сўзларидан кейин “ёки “Рақамли қишлоқ хўжалиги”

ягона интеграцион платформаси (кейинги ўринларда – Агропортал)” сўзлари билан тўлдирилсин;

16-банд “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “, Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

19-банд, 20 ва 25-бандларнинг иккинчи хатбошилари “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

26-банд қуйидаги мазмундаги “г” кичик банд билан тўлдирилсин:

“г) Агропортал орқали мурожаат этилганда:

11,75 фоизи (шундан 0,5 фоизи – “Агробиллинг” ахборот тизими орқали давлат хизматлари кўрсатилганда) – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Агросаноатни рақамлаштириш маркази” масъулияти чекланган жамиятининг шахсий ҳисобварағига;

20 фоизи – Ўзбекистон Республикаси республика бюджетига;

қолган маблағлар – Ўзагроинспекциянинг ривожлантириш жамғармасига ўтказилади”;

31-банд, 32 ва 35-бандларнинг иккинчи хатбошилари “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

4-иловада:

1-босқич “Тадбирлар” устунида:

1-банд “Ягона интерактив давлат хизматлари порталида (кейинги ўринларда – ЯИДХП)” сўзларидан кейин “ёки “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформасида (кейинги ўринларда – Агропортал)” сўзлари билан тўлдирилсин;

2-банд “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

2-босқич “Субъектлар” устуни қуйидаги мазмундаги 3-банд билан тўлдирилсин:

“3. Агропортал”;

3-босқич “Тадбирлар” устуни 2-банди “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

б) 2-иловада:

4-бандда “Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП)” сўзларидан кейин “ёки “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси (кейинги ўринларда – Агропортал)” сўзлари билан тўлдирилсин;

15-банд “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “, Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

18-банднинг биринчи хатбошиси, 19 ва 23-бандларнинг иккинчи хатбошилари “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

24-банд қуйидаги мазмундаги “г” кичик банд билан тўлдирилсин:

“г) Агропортал орқали мурожаат этилганда:

11,75 фоизи (шундан 0,5 фоизи – “Агробиллинг” ахборот тизими орқали давлат хизматлари кўрсатилганда) – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Агросаноатни рақамлаштириш маркази” масъулияти чекланган жамиятининг шахсий ҳисобварағига;

20 фоизи – Ўзбекистон Республикаси республика бюджетига;

қолган маблағлар – Ўзагроинспекциянинг ривожлантириш жамғармасига ўтказилади”;

4-иловада:

1-босқич “Тадбирлар” устунида:

1-банд “Ягона интерактив давлат хизматлари порталида (кейинги ўринларда – ЯИДХП)” сўзларидан кейин “ёки “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформасида (кейинги ўринларда – Агропортал)” сўзлари билан тўлдирилсин;

2-банд “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

2-босқич “Субъектлар” устуни қуйидаги мазмундаги 3-банд билан тўлдирилсин:

“3. Агропортал”;

3-босқич “Тадбирлар” устуни 2-банди “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

в) 3-иловада:

4-банд “Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП)” сўзларидан кейин “ёки “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси (кейинги ўринларда – Агропортал)” сўзлари билан тўлдирилсин;

11-банднинг биринчи хатбошиси, 12-банднинг иккинчи хатбошиси ва 13-банднинг учинчи хатбошиси “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

14-банд қуйидаги мазмундаги “г” кичик банд билан тўлдирилсин:

“г) Агропортал орқали мурожаат этилганда:

11,75 фоизи (шундан 0,5 фоизи – “Агробиллинг” ахборот тизими орқали давлат хизматлари кўрсатилганда) – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Агросаноатни рақамлаштириш маркази” масъулияти чекланган жамиятининг шахсий ҳисобварағига;

20 фоизи – Ўзбекистон Республикаси республика бюджетига;

қолган маблағлар – Ўзагроинспекциянинг ривожлантириш жамғармасига ўтказилади";

20-банднинг биринчи хатбошиси "ЯИДХП" қисқартмасидан кейин "ёки Агропортал" сўзлари билан тўлдирилсин;

1-иловада:

1-босқич "Тадбирлар" устунида:

1-банд "Ягона интерактив давлат хизматлари порталида (кейинги ўринларда – ЯИДХП)" сўзларидан кейин "ёки "Рақамли қишлоқ хўжалиги" ягона интеграцион платформасида (кейинги ўринларда – Агропортал)" сўзлари билан тўлдирилсин;

2-банд "ЯИДХП" қисқартмасидан кейин "ёки Агропортал" сўзлари билан тўлдирилсин;

2-босқич "Субъектлар" устуни қуйидаги мазмундаги 3-банд билан тўлдирилсин:

"3. Агропортал";

3-босқич "Тадбирлар" устуни 2-банди "ЯИДХП" қисқартмасидан кейин "ёки Агропортал" сўзлари билан тўлдирилсин;

4-босқич "Тадбирлар" устуни 2-банди "ЯИДХП" қисқартмасидан кейин "ёки Агропортал" сўзлари билан тўлдирилсин;

г) 6-иловада:

24-банднинг иккинчи хатбошиси "Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП)" сўзларидан кейин "ёки "Рақамли қишлоқ хўжалиги" ягона интеграцион платформаси (кейинги ўринларда – Агропортал)" сўзлари билан тўлдирилсин;

25 ва 28-бандларнинг иккинчи хатбошилари "ЯИДХП" қисқартмасидан кейин "ёки Агропортал" сўзлари билан тўлдирилсин;

29-банд қуйидаги мазмундаги "г" кичик банд билан тўлдирилсин:

"г) Агропортал орқали мурожаат этилганда:

11,75 фоизи (шундан 0,5 фоизи – "Агробиллинг" ахборот тизими орқали давлат хизматлари кўрсатилганда) – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг "Агросаноатни рақамлаштириш маркази" масъулияти чекланган жамиятининг шахсий ҳисобварағига;

20 фоизи – Ўзбекистон Республикаси республика бюджетига;

қолган маблағлар – Ўзагроинспекциянинг ривожлантириш жамғармасига ўтказилади";

33-банднинг иккинчи хатбошиси, 56-банднинг иккинчи ва учинчи хатбошилари ва 61-банднинг иккинчи хатбошиси "ЯИДХП" қисқартмасидан кейин "ёки Агропортал" сўзлари билан тўлдирилсин;

62-банд қуйидаги мазмундаги “г” кичик банд билан тўлдирилсин:

“г) Агропортал орқали мурожаат этилганда:

11,75 фоизи (шундан 0,5 фоизи – “Агробиллинг” ахборот тизими орқали давлат хизматлари кўрсатилганда) – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Агросаноатни рақамлаштириш маркази” масъулияти чекланган жамиятининг шахсий ҳисобварағига;

20 фоизи – Ўзбекистон Республикаси республика бюджетига;

қолган маблағлар – Ўзагроинспекциянинг ривожлантириш жамғармасига ўтказилади”;

68-бандниng биринчи хатбошиси “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

5-иловада:

1-босқич “Тадбирлар” устунида:

1-банд “Ягона интерактив давлат хизматлари порталида (кейинги ўринларда – ЯИДХП)” сўзларидан кейин “ёки “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформасида (кейинги ўринларда – Агропортал)” сўзлари билан тўлдирилсин;

2-банд “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёхуд Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

2-босқич “Субъектлар” устуни “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “, Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

3-босқич “Тадбирлар” устуни 2 ва 3-бандлар “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин.

14. Вазирлар Маҳкамасининг “Қишлоқ хўжалиги соҳасида ўқув-тажриба хўжаликларини ташкил этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2023 йил 24 августдаги 420-сон қарорининг 5-банди ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

15. Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 5 сентябрдаги 449-сон қарори билан тасдиқланган Наслчилик хўжалиги мақомини бериш бўйича давлат хизматлари кўрсатишнинг маъмурий регламентида:

а) 2-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“2. Талабгорга наслчилик хўжалиги мақомини бериш давлат хизматлари марказлари (кейинги ўринларда – Марказ) ва Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП) ёки “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси (кейинги ўринларда – Агропортал) орқали тушган мурожаатга асосан Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги Чорвачилик ва яйлов хўжалигини ривожлантириш агентлигининг ҳудудий бўлимлари (кейинги ўринларда – ваколатли орган) томонидан мазкур Регламентга мувофиқ амалга оширилади”;

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

б) 10-бандниng биринчи ва иккинчи хатбошилари, 13-бандниng иккинчи хатбошиси “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

в) 14-банд қуйидаги мазмундаги “в” кичик банд билан тўлдирилсин:

“в) Агропортал орқали мурожаат этилганда:

11,75 фоизи – (шундан 0,5 фоизи – Агробиллинг тизими орқали давлат хизматлари кўрсатилганда) Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Агросаноатни рақамлаштириш маркази” масъулияти чекланган жамиятнинг шахсий ҳисобварағига;

қолган маблағлар – ваколатли органнинг ҳисобварағига ўтказилади”;

г) 18-банд “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёхуд Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

д) 29-банд “Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш қўмитасига” сўзлари “Чорвачилик ва яйлов хўжалигини ривожлантириш агентлигига” сўзлари билан алмаштирилсин;

е) 1-иловада:

1-босқич “Тадбирлар” устуни 1-банди “Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП)” сўзларидан кейин “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформасида (кейинги ўринларда – Агропортал)” сўзлари билан тўлдирилсин;

2-босқич “Тадбирлар” устунида “Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш қўмитасининг ҳудудий бошқармаларига” сўзлари “Чорвачилик ва яйлов хўжалигини ривожлантириш агентлигининг ҳудудий бўлимларига” сўзлари билан алмаштирилсин;

4-босқич “Тадбирлар” устуни 1-банди “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

ж) 3-илова қуйидаги тахрирда баён этилсин:

“

Наслчилик хўжалиги мақомини бериш бўйича давлат хизматлари кўрсатишнинг маъмурий регламентига
3-илова

ДАЛОЛАТНОМА_____-сон

_____ тумани (шаҳри) 20__ йил “___”_____

Ҳудудий чорвачилик ва яйлов хўжалигини ривожлантириш бўлими бошлиғи _____, ҳудудий чорвачилик ва яйлов хўжалигини
(Ф.И.О.)
ривожлантириш бўлимининг наслчилик бўлими мутахассиси _____чорвачилик ва яйлов хўжалигини ривожлантириш
(Ф.И.О.)
бўйича туманлар (шаҳарлар)га бириктирилган масъуллар_____ иштирокида

(Ф.И.О.)

_____ни

(хўжалик номи)

наслчилик хўжалиги тоифасига ўтказиш учун:

наслчилик хўжалиги ҳисоб-китобини ва ҳужжатларини юритиш;

наслчилик хўжалиги ресурсларининг яхшиланиши, сақланиши, такрор кўпайтирилиши ва улардан оқилона фойдаланилишини таъминлаш;

ҳайвонлар маҳсулдорлиги ҳисоб-китобини юритиш, типи бўйича таснифлаш, келиб чиқишини генетик экспертиза қилиш (иммуногенетик назорат лабораторияси бўлмаган ҳудудларда уларнинг генетик келиб чиқишини (генотипини) таҳлил қилиш) ва ҳайвонларни маҳсулдорлиги ҳамда авлодининг сифати бўйича баҳолаш талабларини бажариш;

уруғ олиш учун фақат такрор кўпайтириладиган наслдор ҳайвонлардан фойдаланиш, уруғ ва эмбрионларни технологик ва ветеринария-санитария талабномаларида белгиланган шароитда тайёрлаш, идентификациялаш ва сақлаш;

наслли маҳсулотларнинг (материаллар) сифати кафолатланишига оид масалалар кўриб чиқилди ҳамда талабгорнинг наслчилик хўжалиги сифатида доимий фаолият олиб бориш имкониятлари таҳлил қилиниб:

_____ га

(юридик шахснинг номи ёки жисмоний шахснинг Ф.И.О.)

_____ бўйича

(наслдор ҳайвон тури)

_____ мақомини бериш тавсия қилинди/қилинмади.

(наслчилик хўжалиги тоифаси) (кераклисининг тагига чизилсин)

Ҳудудий чорвачилик ва яйлов
хўжалигини ривожлантириш бўлими бошлиғи _____ _____
(имзоси) (Ф.И.О.)

Наслчилик бўлими мутахассиси _____ _____
(имзоси) (Ф.И.О.)

”.

16. Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 21 декабрдаги 674-сон қарори билан тасдиқланган Ўрмон фонди ер участкаларини электрон онлайн-аукцион орқали ижарага беришнинг маъмурий регламентининг 34-банди қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“34. Электрон онлайн – аукцион савдолари орқали ижара ҳуқуқини сотишдан тушадиган маблағлар ижара ҳуқуқи давлат рўйхатидан ўтказилганидан кейин операторнинг икки фоиз хизмат ҳақи чегирилган ҳолда қуйидаги тартибда тақсимланади:

Вазирлар Маҳкамасининг “Давлат кадастри соҳасида давлат хизматлари нархларини белгилашда табақалаштирилган ёндашув тартибини такомиллаштириш тўғрисида” 2014 йил 10 июлдаги 186-сон қарорига мувофиқ кадастр паспортини тайёрлаш, кадастр ҳужжатларини расмийлаштириш, мулк ҳуқуқини давлат рўйхатидан ўтказиш бўйича давлат хизматларини кўрсатганлик учун 5 фоиз – Давлат кадастрлари палатасининг тегишли ҳудудий бошқармасига;

10 фоизи – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Агросаноатни рақамлаштириш маркази” масъулияти чекланган жамиятига;

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

10 фоизи – ижрочининг ҳисобварағига;

5 фоизи – “Ўрмон хўжалигини рақамлаштириш маркази” ДМга;

қолган маблағлар – ўрмон фонди ерларидан доимий фойдаланувчи ўрмон хўжалиги ташкилотлари ҳамда Экология жамғармасига тенг улушларда”.

17. Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 6 мартдаги 115-сон қарори билан тасдиқланган Кимёлаштириш ва ўсимликларни ҳимоя қилиш воситаларини синовдан ўтказиш ҳамда рўйхатга олиш тартиби тўғрисидаги низомнинг 9-банди “автоматлаштирилган ахборот тизими (кейинги ўринларда – АТТ)” сўзларидан кейин “ёки Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП) ёхуд “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси” сўзлари билан тўлдирилсин.

18. Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 29 мартдаги 169-сон қарори билан тасдиқланган Жисмоний ва юридик шахсларга хулосалар бериш бўйича давлат хизматларини кўрсатишнинг ягона маъмурий регламентига 13 ва 17-иловалар қуйидаги мазмундаги изоҳ қисми билан тўлдирилсин:

“Изоҳ. 1. Ариза берувчилар ушбу паспортни олиш учун “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси (кейинги ўринларда – Агропортал) орқали мурожаат қилиши мумкин.

2. Агропортал орқали давлат хизматларидан фойдаланишда ушбу Регламентнинг ЯИДХП орқали давлат хизматлари кўрсатиш қоидалари қўлланилади (ушбу Регламентнинг 10-банди “б” кичик банди бундан мустасно).

3. Агропортал орқали мурожаат этилганда ундирилган йиғимлар қуйидаги тартибда тақсимланади:

11,75 фоизи (шундан 0,5 фоизи – “Агробиллинг” ахборот тизими орқали давлат хизматлари кўрсатилганда) – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Агросаноатни рақамлаштириш маркази” масъулияти чекланган жамиятининг шахсий ҳисобварағига;

қолган маблағлар – Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетига ўтказилади”.

19. Вазирлар Маҳкамасининг “Ер участкаларидан рухсат этилган фойдаланиш турлари ва капитал қурилиш объектларининг ягона классификаторини амалга киритиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2024 йил 30 сентябрдаги 614-сон қарорида:

а) 2-иловада:

12-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“12. Туман (шаҳар) ҳокимлиги рўйхатлар олинган кундан эътиборан беш иш куни ичида “E-ijara” АТда ер участкаларидан рухсат этилган фойдаланишнинг асосий турлари ҳамда капитал қурилиш объектларининг фойдаланиш мақсадларини белгилайди.

Бунда Ягона классификаторга мувофиқ кўрсатилган капитал қурилиш объектларининг фойдаланиш мақсадлари ва ер участкаларидан рухсат этилган фойдаланишнинг асосий турларини тегишли рўйхати илова қилинади";

13-банддаги "туман (шаҳар) ҳокимининг қарорини" сўзлари "маълумотларни "E-ijara" АТ орқали" сўзлари билан алмаштирилсин;

илованинг IV босқич "Тадбирлар" устунидаги "E-qaror" тизимида" сўзлари "E-ijara" АТда" сўзлари билан алмаштирилсин;

б) 3-иловада:

6-бандда:

биринчи хатбоши "Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП)да" сўзларидан кейин "ёки "Рақамли қишлоқ хўжалиги" ягона интеграцион платформасида (кейинги ўринларда – Агропортал)" сўзлари билан тўлдирилсин;

иккинчи хатбоши "ЯИДХП" қисқартмасидан кейин "ёки Агропортал" сўзлари билан тўлдирилсин;

8-бандниng иккинчи хатбошиси "ЯИДХПда" қисқартмасидан кейин "ёки Агропортал" сўзлари билан тўлдирилсин;

9-банд қуйидаги мазмундаги "в" кичик банд билан тўлдирилсин:

"в) Агропортал орқали мурожаат этилганда:

11,75 фоизи – (шундан 0,5 фоизи – "Агробиллинг" ахборот тизими орқали давлат хизматлари кўрсатилганда) Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг "Агросаноатни рақамлаштириш маркази" масъулияти чекланган жамиятининг шахсий ҳисобварағига;

қолган маблағларнинг:

50 фоизи – Кадастр агентлиги Давлат кадастрлари палатасининг ҳудудий бошқармалари шахсий ҳисобварақларига;

50 фоизи – қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ерлар бўйича – Қорақалпоғистон Республикаси Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги, вилоятлар қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги бош бошқармалари ҳамда Тошкент шаҳар Қурилиш бош бошқармасининг шахсий ҳисобварақларига, қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар бўйича – "Ўздаверлойиҳа" ДИЛИнинг шахсий ҳисобварақларига ўтказилади";

18-банднинг учинчи хатбошиси "ЯИДХПга" қисқартмасидан кейин "ёхуд Агропорталга" сўзлари билан тўлдирилсин;

1-иловада:

1-босқич "Тадбирлар" устуни "ЯИДХП" қисқартмасидан кейин "ёки Агропорталда" сўзлари билан тўлдирилсин;

2-босқич “Субъектлар” устуни “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёхуд Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

7-босқич “Тадбирлар” устунининг 2-банди “ЯИДХПга” қисқартмасидан кейин “ёхуд Агропорталга” сўзлари билан тўлдирилсин;

8-босқичда:

“Субъектлар” устуни “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёхуд Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

“Муддатлар” устуни “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “, Агропортал” сўзи билан тўлдирилсин;

в) 4-иловада:

5-бандда:

биринчи хатбоши “Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП)да” сўзларидан кейин “ёки “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформасида (кейинги ўринларда – Агропортал)” сўзлари билан тўлдирилсин;

иккинчи хатбоши “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

8-бандниng иккинчи хатбошиси “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

9-банд қуйидаги мазмундаги “в” кичик банд билан тўлдирилсин:

“в) Агропортал орқали мурожаат этилганда:

11,75 фоизи – (шундан 0,5 фоизи – “Агробиллинг” ахборот тизими орқали давлат хизматлари кўрсатилганда) Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Агросаноатни рақамлаштириш маркази” масъулияти чекланган жамиятининг шахсий ҳисобварағига;

қолган маблағларнинг:

50 фоизи – Кадастр агентлиги Давлат кадастрлари палатасининг ҳудудий бошқармалари шахсий ҳисобварақларига;

50 фоизи – қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ерлар бўйича – Қорақалпоғистон Республикаси Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги, вилоятлар қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги бош бошқармалари ҳамда Тошкент шаҳар Қурилиш бош бошқармасининг шахсий ҳисобварақларига, қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар бўйича – “Ўздаверлойиҳа” ДИЛИнинг шахсий ҳисобварақларига ўтказилади”;

12-бандниng иккинчи хатбошиси, 14-бандниng тўртинчи хатбошиси, 18-бандниng биринчи хатбошиси, 20-бандниng тўртинчи хатбошиси ва 21-бандниng учинчи хатбошиси “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

1-иловада:

1-босқич “Тадбирлар” устуни “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропорталда” сўзлари билан тўлдирилсин;

2-босқичда:

“Субъектлар” устуни “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёхуд Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

“Муддатлар” устуни “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

6-босқич “Тадбирлар” устуни учинчи хатбоши “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёхуд Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

7-босқичда:

“Субъектлар” устуни “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёхуд Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

“Муддатлар” устуни “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

г) 4^1-иловада:

7-банд “Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП)да” сўзларидан кейин “ёки “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформасида (кейинги ўринларда – Агропортал)” сўзлари билан тўлдирилсин;

10-банд “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

11-бандниng олтинчи хатбошиси “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

12-банд қуйидаги мазмундаги “в” кичик банд билан тўлдирилсин:

“в) Агропортал орқали мурожаат этилганда:

11,75 фоизи (шундан 0,5 фоизи – “Агробиллинг” ахборот тизими орқали давлат хизматлари кўрсатилганда) – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Агросаноатни рақамлаштириш маркази” масъулияти чекланган жамиятининг шахсий ҳисобварағига;

қолган маблағларнинг:

30 фоизи – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва озиқ-овқат таъминоти жамғармасига;

70 фоизи – “Ўздаверлойиҳа” давлат илмий-лойиҳалаш институтининг шахсий ҳисобварағига”;

23-бандниng иккинчи хатбошиси “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

1-иловада:

1-босқич “Тадбирлар” устуни “Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП)да” сўзларидан кейин “ёки “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформасида (кейинги ўринларда – Агропортал)” сўзлари билан тўлдирилсин;

2-босқичда:

“Субъектлар” устуни “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёхуд Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

“Муддатлар” устуни “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

7-босқич “Тадбирлар” устунининг 1-банди “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёхуд Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

д) 5-иловада:

5-бандда:

биринчи хатбоши “Ягона интерактив давлат хизматлари порталида (кейинги ўринларда – ЯИДХП)” сўзларидан кейин “ёки “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформасида (кейинги ўринларда – Агропортал)” сўзлари билан тўлдирилсин;

иккинчи хатбоши “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

8-бандниng иккинчи хатбошиси “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

9-банд қуйидаги мазмундаги “в” кичик банд билан тўлдирилсин:

“в) Агропортал орқали мурожаат этилганда:

11,75 фоизи (шундан 0,5 фоизи – “Агробиллинг” ахборот тизими орқали давлат хизматлари кўрсатилганда) – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Агросаноатни рақамлаштириш маркази” масъулияти чекланган жамиятининг шахсий ҳисобварағига;

қолган маблағларнинг:

50 фоизи – Кадастр агентлиги Давлат кадастрлари палатасининг ҳудудий бошқармалари шахсий ҳисобварақларига;

50 фоизи – қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ерлар бўйича – Қорақалпоғистон Республикаси Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги, вилоятлар қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги бош бошқармалари ҳамда Тошкент шаҳар Қурилиш бош бошқармасининг шахсий ҳисобварақларига, қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар бўйича – “Ўздаверлойиҳа” ДИЛИнинг шахсий ҳисобварақларига ўтказилади”;

12-бандниng иккинчи хатбошиси “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

14 ва 18-бандларнинг тўртинчи хатбошилари, 20-бандниng иккинчи хатбошиси, 27 ва 30-бандларнинг биринчи хатбошилари, 32-бандниng иккинчи хатбошиси, 33-бандниng учинчи хатбошиси ва 34-бандниng иккинчи хатбошиси “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

1-иловада:

1-босқич “Тадбирлар” устуни “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёхуд Агропорталда” сўзлари билан тўлдирилсин;

2-босқичда:

“Субъектлар” устуни “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёхуд Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

“Муддатлар” устуни “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

7-босқич “Тадбирлар” устунининг 2-банди “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёхуд Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

13-босқич “Тадбирлар” устунининг 2-банди “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёхуд Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

14-босқич “Тадбирлар” устунининг 2-банди “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёхуд Агропорталга” сўзлари билан тўлдирилсин;

15-босқичда:

“Субъектлар” устуни “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёхуд Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин;

“Муддатлар” устуни “ЯИДХП” қисқартмасидан кейин “ёки Агропортал” сўзлари билан тўлдирилсин.

20. Вазирлар Маҳкамасининг “Қорақалпоғистон Республикасида кунжут ва мош экинларини етиштириш тизимини такомиллаштириш тўғрисида” 2025 йил 27 майдаги 331-сон қарорида:

1-бандниng “в” кичик банди иккинчи хатбошидаги “Агроплатформа” ахборот тизими” сўзлари “Рақамли қишлоқ хўжалиги” ягона интеграцион платформаси (кейинги ўринларда – Агропортал)” сўзлари билан алмаштирилсин;

2-бандниng учинчи хатбошисидаги “CropAgro” ахборот тизимида” сўзлари “Агропорталда” сўзи билан алмаштирилсин;

3-бандниng иккинчи хатбошисидаги “Агроплатформа” ахборот тизими” сўзлари “Агропортал” сўзи билан алмаштирилсин.

21. Вазирлар Маҳкамасининг “Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан фойдаланиш бўйича давлат хизматларини кўрсатиш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида” 2025 йил 18 сентябрдаги 594-сон қарорига 4^1-илованинг 12-бандида:

QMMB: 09/26/381/0734-son
15.07.2026-y.

“а” кичик бандда:

олтинчи хатбошидаги “5 фоизи” сўзлари “11,25 фоизи” сўзлари билан алмаштирилсин;

еттинчи хатбошидаги “70 фоизи” сўзлари “63,75 фоизи” сўзлари билан алмаштирилсин;

“б” кичик бандда:

олтинчи хатбошидаги “5 фоизи” сўзлари “11,25 фоизи” сўзлари билан алмаштирилсин;

еттинчи хатбошидаги “70 фоизи” сўзлари “63,75 фоизи” сўзлари билан алмаштирилсин.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
UMUMIY BO‘LIM
1

QMMB: 09/26/388/0747-son
17.07.2026-y.

28 (1256)-son
727-modda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

20 26 yil « 16 » iyul № 388 Toshkent sh.

Бонд омборлари фаолиятини ташкил этиш ва улар орқали товарларни сотиш тартиби тўғрисида

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида электрон тижорат соҳасини янада ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратишга доир чора-тадбирлар тўғрисида” 2026 йил 13 апрелдаги ПҚ–136-сон қарори ижросини таъминлаш, шунингдек, товарларни бонд омборлари орқали сотишни йўлга қўйиш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **қарор қилади**:

1. Қуйидагилар:

Бонд омбори фаолиятини ташкил этиш ва амалга ошириш тартиби тўғрисидаги вақтинчалик низом 1-иловага мувофиқ;

Махсус электрон савдо платформалари орқали жисмоний шахсларга товарларни чакана сотиш тартиби тўғрисидаги вақтинчалик низом 2-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Белгилансинки:

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Божхона қўмитаси бонд омборлари реестрини шакллантириш ва юритиш бўйича ваколатли орган ҳисобланади;

Ўзбекистон Республикаси Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги Махсус электрон савдо платформалари реестрини шакллантириш ва юритиш бўйича ваколатли орган ҳисобланади.

3. Товарлар истеъмолчига етказиб берилгунга қадар уларни жисмоний шахсларга сотиш жараёни тўғрисидаги маълумотлар реал вақт режимида мониторинг қилиб борилишини таъминлаш мақсадида ушбу қарорнинг 2-бандида кўрсатилган реестрларга киритиш учун ариза берилган кундан эътиборан **икки ой муддатда**:

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Божхона қўмитаси ўз ахборот тизимларини – бонд омборлари операторларининг ахборот тизимлари билан;

Ўзбекистон Республикаси Солиқ қўмитаси ўз ахборот тизимларини – махсус электрон савдо платформасининг ахборот тизимлари билан интеграция қилинишини таъминласин.

4. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари – иқтисодиёт ва молия вазири Ж.А. Қўчқоров зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазири **А. Арипов**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
UMUMIY BO'LIM
1

QMMB: 09/26/388/0747-son
17.07.2026-y.

Вазирлар Маҳкамасининг
2026 йил "18" "июл" даги 388сон қарорига
1-илова

Бонд омбори фаолиятини ташкил этиш ва амалга ошириш тартиби тўғрисида
ВАҚТИНЧАЛИК НИЗОМ

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Низом бонд омбори фаолиятини ташкил этиш, унга қўйиладиган талаблар ҳамда бонд омборига товарларни жойлаштиришда божхона назорати ва расмийлаштирувини ташкил этиш тартибини белгилайди.

2. Бонд омборига жойлаштирилган товарларга Ўзбекистон Республикасининг ташқи иқтисодий фаолият соҳасидаги қонунчилик ҳужжатлари ва ушбу Низом асосида белгиланган тартиблар, тақиқлар ва чекловлар қўлланади.

3. Мазкур Низомда қуйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

бонд омбори – хорижий товарларни "эркин омбор" божхона режимида божхона назорати остида сақлаш ҳамда резидентлар ва норезидентлар томонидан махсус электрон савдо платформалари орқали жисмоний шахсларга нотижорат мақсадларда ўз эҳтиёжлари учун чакана сотишга мўлжалланган, бинолар ва (ёки) очиқ майдонлар, шу жумладан, эркин омбор ҳудудини ўз ичига олган махсус жиҳозланган ва белгиланган жой;

бонд омбори оператори – мазкур Низом талабларига мувофиқ бонд омборига жойлаштирилган товарлар божхона назорати остида турган товар мақомини йўқотгунига қадар уларни сақлаш бўйича хизматлар кўрсатувчи ва мазкур товарлар учун жавобгар бўлган Ўзбекистон Республикаси резиденти – юридик шахс;

бонд омборлари реестри – Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Божхона қўмитаси (кейинги ўринларда – Божхона қўмитаси) томонидан шакллантириладиган бонд омборлари рўйхати;

омбор бошқарув тизими – бонд омбори операторининг бонд омборига келиб тушган, сақланаётган, сотилган, қайтарилган ва омбордан чиқариладиган товарлар ҳаракатини такрорланмайдиган штрих-код ёки бошқа идентификатор орқали ҳисобга олувчи ва божхона органлари ахборот тизимлари билан интеграция қилинган ахборот тизими;

товар эгаси – товарларни қабул қилиб олувчи ва ўзи ҳақидаги маълумотлар транспорт ҳужжатларида кўрсатилган шахс.

4. Бонд омбори фаолиятини амалга оширишга эркин омбор фаолиятини лицензиялаш тартиби асосида ҳамда белгиланган тартибда бонд омборлари реестрига киритилган тақдирда рухсат этилади.

5. Бонд омборига жойлаштирилган товарлар билан қуйидаги операциялар бажарилиши мумкин:

махсус электрон савдо платформалари орқали жисмоний шахсларга сотиладиган чет эл товарларини сақлаш;

товарнинг ўзгармас ҳолатда бут сақланишини таъминлаш операциялари;

товарларни сотиш ва ташишга тайёрлаш бўйича операциялар, шу жумладан, саралаш, партияларни шакллантириш, қадоқлаш, қайта қадоқлаш, маркировкалаш (акциз маркаларидан ташқари) ва шу каби бошқа операциялар;

оддий йиғиш операциялари.

Бонд омборига жойлаштирилган товар билан жисмоний шахсларга нотижорат мақсадларда ўз эҳтиёжлари учун махсус электрон савдо платформаси орқали чакана савдо операцияларини амалга оширишга йўл қўйилади.

2-боб. Бонд омбори фаолиятини ташкил этиш тартиби

6. Бонд омборлари реестрига киритиш талаблари:

бонд омбори жойлашган ҳудудда амалдаги лицензияга эга эркин омбор мавжудлиги;

махсус электрон савдо платформаси билан ўзаро ҳамкорлик ёки шериклик тўғрисида шартнома мавжудлиги;

божхона органларининг ахборот тизимлари билан интеграция қилинган, назорат қилинадиган товарлар бонд омборига келиб тушган пайтдан бошлаб божхона назоратидан чиқарилгунига қадар уларнинг барча ҳаракат жараёнларини тўлиқ назорат қила оладиган автоматлаштирилган электрон ҳисоб юритиш тизимининг мавжудлиги;

мулк ҳуқуқи, эгалик қилиш, фойдаланиш ёки ижара ҳуқуқлари асосида умумий майдони камида 15 000 квадрат метр бўлган яхлит эркин омборга эга бўлиш.

7. Бонд омбори фаолиятини ташкил этиш учун юридик шахс ушбу Низомга иловага мувофиқ Божхона қўмитасига ёзма ёки электрон шаклдаги аризани ва ушбу Низомнинг 6-бандида белгиланган талаблар бажарилганини тасдиқловчи ҳужжатларни юборади.

8. Божхона қўмитаси ариза келиб тушган кундан бошлаб 10 иш куни ичида аризани ва унга илова қилинган ҳужжатларни кўриб чиқади ҳамда ариза берувчига уни бонд омборлари реестрига киритиш ёки киритишни рад этиш тўғрисида жавоб хатини ёзма ёки электрон шаклда юборади.

9. Бонд омбори ушбу Низомнинг 6-бандида белгиланган талабларга жавоб бермаса ва унинг оператори ушбу Низомда белгиланган мажбуриятларни бажармаса, Божхона қўмитаси бонд омборини бонд омборлари реестридан чиқаради.

Бонд омбори бонд омборлари реестридан чиқарилган санадан эътиборан уларда сақланаётган товарларга вақтинча сақлаш божхона режимида турган товарлар сифатида қаралади ҳамда товарларни сақлаш учун бонд омборига жойлаштиришга ва уларни сотишга йўл қўйилмайди.

Вақтинча сақлаш божхона режимида турган товарлар Ўзбекистон Республикаси Божхона кодекси талаблари асосида умумбелгиланган тартибда божхона расмийлаштирувидан ўтказилади.

3-боб. Товарларни республика ҳудудига олиб кириш ва бонд омборига жойлаштириш тартиби

10. Бонд омборига жойлаштириладиган товарлар исталган транспорт тури орқали республика ҳудудига олиб кирилиши мумкин. Бунда ушбу товарлар умумбелгиланган тартибда чегара божхона постидан олиб ўтилади ва бонд омборига етказилади.

11. Транспорт воситаларининг манзилга етиб боргани бонд омбори оператори ёки унинг ваколатли шахси томонидан Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 20 августдаги 531-сон қарори билан тасдиқланган Божхона назорати остидаги товарларга нисбатан юк операцияларини амалга ошириш тартиби тўғрисидаги низом талаблари асосида тасдиқланади.

12. Ахборот тизимида транспорт воситаларининг бонд омборига етиб келгани тасдиқланиши билан товарларнинг тўлиқ сақланишини таъминлаш бўйича жавобгарлик бонд омбори операторига ўтади.

13. Бонд омборига етказилган товарлар бўйича товар эгаси томонидан улар етказилган вақтдан эътиборан 15 календарь кун мобайнида божхона органларига “эркин омбор” божхона режимига жойлаштириш учун божхона юк декларацияси (кейинги ўринларда – БЮД) тақдим этилади.

Бунда БЮД қуйидаги қўшимча хусусиятларни инобатга олган ҳолда тўлдирилади:

а) 1-графа. “Декларация тури”.

Графанинг биринчи бўлмасида “ИМ” белгиси кўрсатилади.

Графанинг иккинчи бўлмасида Божхона режимлари таснифлагичига мувофиқ “73” коди кўрсатилади.

Графанинг учинчи бўлмасида “БО” белгиси кўрсатилади;

б) 31-графа. “Юк жойлари ва товар тавсифи”.

Графада ҳар бир товар бўйича унинг идентификация коди кўрсатилади;

в) 49-графа. “Омбор номи”.

Графада эркин омборни таъсис этиш учун берилган лицензия рақами ва санаси кўрсатилади.

14. Бонд омборига жойлаштириладиган ва ундан олиб чиқиладиган барча товарлар учун тақдим этиладиган декларацияларда қўшимча равишда товарларни чакана сотишда қўлланадиган ўлчов бирликдаги миқдори (дона, жуфт, комплект) кўрсатилиши шарт.

15. Бонд омборига товар миқдори ва ҳаракатини масофадан туриб назорат қилиш имконсиз бўлган, чакана сотиш учун қадоқланмаган, тортиладиган ёки ўлчанадиган барча товарларни жойлаштириш тақиқланади.

16. Бонд омборига етказилган товарларни декларант томонидан кўздан кечиришга ҳамда БЮД тақдим этилмагунига қадар товарлар билан юк операцияларини амалга оширишга йўл қўйилмайди (бонд омбори оператори томонидан омбор бошқарув тизимида товарларни идентификация қилиш, ҳар бир товар бирлиги бўйича такрорланмайдиган идентификация кодларини шакллантириш билан боғлиқ товарнинг номи, миқдори, вазни, қиймати, ҳолати ва қадоғини ўзгартирмайдиган операциялар бундан мустасно).

17. Тақдим этилган БЮД божхона органлари томонидан Хавфларни бошқариш тизими (кейинги ўринларда – ХБТ) орқали белгиланган йўлаклар асосида расмийлаштирилади ва товарларга нисбатан нотариф тартиботлар қўлланилмайди ҳамда рухсат этиш хусусиятига эга ҳужжатлар мавжуд эканлиги божхона органлари томонидан текширилмайди (фитосанитар назорати остидаги товарлар бундан мустасно).

Товарларнинг техник жиҳатдан тартибга солиш, санитария ва ветеринария соҳасидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларига мувофиқлигини таъминлаш бўйича жавобгарлик бонд омбори операторига юкланади.

4-боб. Товарларни бонд омборидан чиқариш тартиби

1-§. Бонд омборидан республика ҳудудига чиқариладиган товарларни расмийлаштириш тартиби

18. Махсус электрон савдо платформаси орқали жисмоний шахсларга нотижорат мақсадларда ўз эҳтиёжлари учун чакана сотилган чет эл товарлари божхона органларига тақдим этилган ва расмийлаштирилган жўнатмалар декларацияси асосида бонд омбори ҳудудидан чиқарилади.

Бунда жўнатмалар декларацияси божхона органларига товар эгаси ёки унинг номидан божхона брокери томонидан тақдим этилади.

Мазкур бандниng биринчи хатбошисида назарда тутилмаган бошқа ҳолларда товарлар бонд омборидан Ўзбекистон Республикаси Божхона кодекси талаблари асосида умумбелгиланган тартибда божхона расмийлаштирувидан ўтказиш орқали олиб чиқилади.

19. Қонунчилик ҳужжатларида белгиланган божхона тўловлари тўлиқ тўланиб, жўнатмалар декларацияси расмийлаштирилгандан сўнг товарларни чиқаришга рухсат этилади.

Бунда божхона тўловлари товар эгаси томонидан тақдим этилган жўнатмалар декларацияси маълумотларидан автоматик шаклланган умумий шаклдаги божхона кирим ордери (кейинги ўринларда – БКО) асосида ундирилади.

БКО 1-графанинг учинчи бўлмасида “БО” белгиси кўрсатилади.

Қонунчилик ҳужжатларида белгиланган божхона тўловларини тўлаш бўйича мажбурият махсус электрон савдо платформаси операторига юкланади.

20. Товар бўйича тақдим этилган жўнатмалар декларацияси ёки БЮД расмийлаштирилган кундан эътиборан мазкур товарлар уч кун ичида бонд омбори ҳудудидан олиб чиқилиши керак.

21. Жўнатмалар декларацияси товарни чиқаришга рухсат берилгунга қадар тузатилиши ёки бекор қилиниши мумкин.

Жўнатмалар декларацияси асосида расмийлаштирилган ва чиқарилган товарлар Ўзбекистон товари мақомини олади.

Ушбу товарлар учун расмийлаштирилган жўнатмалар декларациясини бекор қилишга ва товарларни бонд омборига қайта жойлаштиришга йўл қўйилмайди ҳамда ундирилган божхона тўловлари қайтарилмайди.

2-§. Бонд омборидан хорижий мамлакат ҳудудига чиқариладиган товарларни расмийлаштириш тартиби

22. Махсус электрон савдо платформаси орқали хорижий мамлакат ҳудудидаги жисмоний шахсларга чакана сотилган товарлар божхона органларига тақдим этилган жўнатмалар декларацияси асосида расмийлаштирилади.

Бунда жўнатмалар декларацияси божхона органларига товар эгаси ёки унинг номидан божхона брокери томонидан тақдим этилиши мумкин.

23. Жўнатмалар декларацияси асосида расмийлаштирилган товарлар бонд омбори оператори томонидан бонд омбори ҳудудидаги махсус жойда сақланади ва ушбу товарлар жамланмасига расмийлаштирилган транзит декларацияси орқали чегара божхона постига юборилади.

24. Жўнатмалар декларацияси асосида расмийлаштирилган чет эл товарлари чет эл товари мақомини сақлаб қолади.

Ушбу товарлар учун расмийлаштирилган жўнатмалар декларациясини бекор қилишга ва товарларни бонд омборига қайта жойлаштиришга йўл қўйилмайди.

Қонунчилик ҳужжатларида республика ҳудудидан олиб чиқиладиган товарларга божхона тўловлари тўланиши назарда тутилган ҳолатларда божхона тўловлари тўлиқ тўланиб, жўнатмалар декларацияси расмийлаштирилгандан сўнг товарларни чиқаришга рухсат этилади.

25. Товар бўйича тақдим этилган жўнатмалар декларацияси ёки БЮД расмийлаштирилган кундан эътиборан уч кун ичида товар бонд омбори ҳудудидан олиб чиқилиши керак.

5-боб. Иштирокчиларнинг ҳуқуқлари

26. Божхона назорати ва расмийлаштирувини амалга оширишда бонд омбори оператори ва товар эгаси қуйидаги ҳуқуқларга эга:

божхона органларининг божхона назорати ва расмийлаштируви жараёнидаги ноқонуний хатти-ҳаракати юзасидан шикоят қилишга;

товарларнинг божхона назорати ва расмийлаштируви жараёнлари юзасидан божхона органларидан қонуний тушунтиришлар олишга;

жўнатмалар декларациясини шакллантириш ва божхона органларига тақдим этиш имконияти мавжуд бўлган, божхона органлари ахборот тизимлари билан интеграция қилинган электрон дастурлардан фойдаланишга ҳамда ушбу электрон дастур орқали жўнатмаларнинг ҳолати ва белгиланган хавф даражаси ҳақида маълумот олишга;

товарларнинг божхона назорати ва расмийлаштируви ҳамда ушбу жараёнда қўлланадиган электрон дастурлар бўйича таклифлар беришга;

улар томонидан тақдим этилган жўнатмалар декларацияси расмийлаштирилган санадан бошлаб бир ой муддатда юклаб олиш ҳамда қоғозда ёзма шаклини чоп этишга.

Бонд омбори оператори учун қонунчилик ҳужжатлари билан бошқа ҳуқуқлар ҳам белгиланиши мумкин.

27. Божхона назорати ва расмийлаштирувини амалга оширишда божхона органи ходими қуйидаги ҳуқуқларга эга:

тақдим этилган жўнатмалар декларациясида номувофиқликлар аниқланганда, божхона хизмати органлари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар, хорижий давлатлар ёки халқаро ташкилотлардан олинган маълумотлар ҳамда тезкор-қидирув натижалари асосида белгиланган хавфни камайтириш чораларини ўзгартириш ва қўшимча тадбирларни амалга ошириш;

аниқланган хатолик ёки номувофиқликлар (тафовутлар) ҳолатлари сабабларини ўрганиш мақсадида тақдим этилаётган электрон ҳужжатларга қўшимча ҳужжатларни талаб қилиш;

агар ўрганиш давомида қонунчиликда назарда тутилган жиноят аломатлари мавжудлиги аниқланса, терговга қадар текширув ҳаракатларини олиб бориш;

товарларни қонунчилик ҳужжатлари асосида кўздан кечириш;

ваколатли шахслардан кўздан кечириш учун товарларни, шунингдек, зарур ҳужжатларни тақдим этишни талаб қилиш;

божхона назоратидан ўтказиш мақсадида товарлар ҳамда бошқа буюмлардан намуна ва нусхалар олиш;

товар эгаси, бонд омбори оператори ва махсус электрон савдо платформасидан божхона мақсадлари учун зарур бўлган маълумотларни олиш;

божхона ҳақидаги қонунчилик ҳужжатларининг бузилишига доир материалларни белгиланган тартибда кўриб чиқиш ҳамда ваколатли шахсларни қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ жавобгарликка тортиш.

Божхона органи ходими қонунчилик ҳужжатларида назарда тутилган бошқа ҳуқуқларга ҳам эга бўлиши мумкин.

6-боб. Иштирокчиларнинг мажбуриятлари

29. Божхона назорати ва расмийлаштируви жараёнида қуйидагилар бонд омбори операторининг мажбуриятлари ҳисобланади:

товарларни сақлаш ва сотишда барча хавфсизлик қоидаларига риоя этиш;

бонд омбори ҳудуди ва божхона назорати зонасига рухсат этилмаган (омбор ходимлари бўлмаган, товарларга нисбатан ваколатга эга бўлмаган) шахсларни киритмаслик;

божхона органлари томонидан тасдиқланган технологик схема асосида товарларни божхона назоратидан ўтказиш учун барча зарур техник воситалар билан жиҳозлаш ва божхона расмийлаштирувини амалга ошириш учун зарур шарт-шароитларни яратиш;

бонд омборида сақланаётган товарларни божхона расмийлаштируви якунланмасдан ёки божхона органларининг рухсатисиз чиқариб юборишга, товарларни бошқасига алмаштиришга ёхуд мазкур ҳудудда товарлар билан тақиқланган операциялар амалга оширилишига йўл қўймаслик;

тегишли ахборот тизимлари орқали бонд омборларида сақланаётган ва сотилган товарлар бўйича реал вақт режимида шаклланиб борувчи ҳисобот шаклини божхона органларига тақдим этиб бориш;

бонд омборига жойлаштирилган товарлар божхона органининг рухсатисиз бериб юборилган ёки йўқолган, божхона тўловлари тўланиши учун бонд омбори оператори жавобгар бўладиган, божхона ҳақидаги қонунчилик ҳужжатларида назарда тутиладиган бошқа ҳолатларда божхона тўловларини тўлаш.

Бонд омбори операторига қонунчиликда белгиланган бошқа мажбуриятлар ҳам юкланиши мумкин.

30. Божхона назорати ва расмийлаштируви жараёнида қуйидагилар товар эгасининг мажбуриятлари ҳисобланади:

божхона органларига ўз вақтида БЮД ва жўнатмалар декларацияси тақдим этилишини таъминлаш;

декларацияланган товарларни белгиланган муддатларда чиқариб юбориш.

Товар эгасига қонунчиликда белгиланган бошқа мажбуриятлар ҳам юкланиши мумкин.

31. Божхона назорати ва расмийлаштирувини амалга оширишда қуйидагилар божхона органларининг мажбуриятлари ҳисобланади:

декларациялаш ва расмийлаштирув давомида Хавфни бошқариш тизимининг топшириғидаги божхона операцияларини бажариш;

хавфни камайтириш чораларини ўзгартириш натижасида божхона кўригини ўтказиш зарурати мавжуд бўлганда, бу тўғрисида товар эгасини хабардор этиш;

товар эгасининг божхона назорати ва расмийлаштируви бўйича тақдим этган ёзма мурожаатларини кўриб чиқиш;

ўз хизмат вазифаларини бажариш натижасида ўзига маълум бўлиб қолган тижорат сири ҳисобланган ахборотни ҳамда шахсга доир конфиденциал маълумотларни ошкор этмаслик, қонунда белгиланган ҳоллар бундан мустасно.

Божхона органига қонунчиликда белгиланган бошқа мажбуриятлар ҳам юкланиши мумкин.

7-боб. Якунловчи қоидалар

33. Бонд омборига жойлаштирилган товарлар махсус электрон савдо платформаси орқали икки йил муддатда сотилмаган тақдирда, ушбу муддат якунлангандан сўнг бир ой мобайнида умумбелгиланган тартибда реэкспорт, йўқ қилиш, давлат фойдасига воз кечиш ёки божхона тўловларини тўлаган ҳолда эркин муомалага чиқариш божхона режимларидан бирига жойлаштирилади.

34. Мазкур Низом талабларини бажаришдан келиб чиқадиган ҳар қандай низо ва келишмовчиликлар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда ҳал қилинади.

35. Ушбу Низом талабларини бузган шахслар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар.

QMMB: 09/26/388/0747-son
17.07.2026-y.

Бонд омбори фаолиятини ташкил этиш
ва амалга ошириш тартиби
тўғрисидаги вақтинчалик низомга
илова

Ўзбекистон Республикаси
Иқтисодиёт ва молия вазирлиги
ҳузуридаги
Божхона қўмитасига

_____ ____-сон

Бонд омборлари реестрига киритиш учун
АРИЗА

Бонд омбори фаолиятини ташкил этиш ва амалга ошириш тартиби тўғрисидаги вақтинчалик низомга мувофиқ _____

_____

(юридик шахснинг ташкилий-ҳуқуқий шакли ва номи)

қуйидаги манзилда жойлашган:_____

(омбор манзили)

омборни бонд омборлари реестрига киритишни сўрайди.

Илова: ____ варақда *(бонд омборлари реестрига киритиш талабларига мувофиқлигини тасдиқловчи ҳужжатлар)*.

Ариза берувчи Ф.И.О.

QMMB: 09/26/388/0747-son
17.07.2026-y.

Вазирлар Маҳкамасининг
2026 йил "16" "июл" даги 388 -сон қарорига
2-илова

Махсус электрон савдо платформалари орқали жисмоний шахсларга товарларни чакана сотиш тартиби тўғрисида ВАҚТИНЧАЛИК НИЗОМ

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Низом Ўзбекистон Республикасининг "Электрон тижорат тўғрисида"ги, "Электрон ҳужжат айланиши тўғрисида"ги қонунлари ва бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар талабларига мувофиқ товарларни бонд омборидан махсус электрон савдо платформалари орқали жисмоний шахсларга сотиш тартибини белгилайди.

2. Ушбу Низомда қуйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

бонд омбори – хорижий товарларни "эркин омбор" божхона режимида божхона назорати остида сақлаш ҳамда резидентлар ва норезидентлар томонидан махсус электрон савдо платформалари орқали жисмоний шахсларга нотижорат мақсадларда ўз эҳтиёжлари учун чакана сотишга мўлжалланган, бинолар ва (ёки) очиқ майдонлар, шу жумладан, эркин омбор ҳудудини ўз ичига олган махсус жиҳозланган ва белгиланган жой;

буюртмаларни топшириш пункти – махсус электрон савдо платформаси орқали сотиб олинган товарларни топшириш, қабул қилиш, етказиб бериш, жўнатиш, сақлаш ва қайтариш учун мўлжалланган логистика инфратузилмаси объекти (Ўзбекистон Республикаси ҳудудида жойлашган нотурар жой);

махсус электрон савдо платформаси – бонд омборига жойлаштирилган товарларни сотиш учун мулжалланган ҳамда қонунчилик ҳужжатлари билан белгиланган талабларга мос келадиган электрон савдо платформаси тури;

Махсус электрон савдо платформалари реестри – Ўзбекистон Республикаси Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги (кейинги ўринларда – Агентлик) томонидан шакллантириладиган махсус электрон савдо платформалари рўйхати;

операцион омбор – махсус электрон савдо платформаси операторининг харидор буюртма берган пайтдан бошлаб, уни харидорга жўнатишгача бўлган даврда товарни сақлаш, қадоқлаш, маркировкалаш, саралаш ва жўнатиш (қабул қилиш) учун мўлжалланган нотурар биноси.

2-боб. Товарларни махсус электрон савдо платформалари орқали жисмоний шахсларга бонд омбори орқали чакана сотишни ташкил этиш тартиби

3. Махсус электрон савдо платформалари реестрига киритиш талаблари:

а) Ўзбекистон Республикасининг юридик шахси шаклида давлат рўйхатидан ўтказиш;

б) Ўзбекистон Республикасининг шахсга доир маълумотлар тўғрисидаги қонунчилик талабларига риоя этишилишини таъминлаш;

в) қуйидагилардан иборат инфратузилманинг мавжудлиги:

онлайн назорат-касса машинаси ёки виртуал касса;

республика ҳудуди бўйича етказиб бериш хизматини кўрсатувчи ташкилот (ташкилотлар) билан шартноманинг мавжудлиги ёки бутун мамлакат бўйлаб буюртмаларни етказиб беришни таъминлайдиган, юк ташиш учун мўлжалланган ўзининг (мулк, ижара ёки лизинг ҳуқуқи асосидаги) транспорт воситаларининг мавжудлиги;

мулк ҳуқуқи, эгалик қилиш, фойдаланиш ёки ижара ҳуқуқлари асосида бонд омборига эга бўлиши ёхуд бонд омборлари реестрига киритилган операторлар билан омбор хизматларини кўрсатиш бўйича шартномага эга бўлиш;

республика ҳудуди бўйича шаҳар ва туманларда буюртмаларни топшириш пунктлари, шунингдек, операцион омборлар (шу жумладан, саралаш марказлари (агар мавжуд бўлса) ва бошқа логистика инфратузилмаси мавжудлиги.

4. Махсус электрон савдо платформалари реестрига киритиш учун юридик шахс ушбу Низомга иловага мувофиқ Агентликка ёзма ёки электрон шаклдаги аризани ва ушбу Низомнинг 3-бандида белгиланган талаблар бажарилганини тасдиқловчи ҳужжатларни юборади.

5. Агентлик ариза келиб тушган кундан бошлаб 10 иш куни ичида аризани ва унга илова қилинган ҳужжатларни кўриб чиқади, уни бонд омборлари реестрига киритиш ёки киритишни рад этиш тўғрисида жавоб хатини ариза берувчига ёзма ёки электрон шаклда юборади.

6. Махсус электрон савдо платформаси Ўзбекистон Республикаси ҳудудида товарларни сотиш бўйича учинчи шахсларнинг (махсус электрон савдо платформасида жойлаштириладиган товарлар сотувчиларининг) агенти (субагенти, комиссионери) сифатида, шунингдек, ўзининг (ҳам ўзи ишлаб чиқарган, ҳам қайта сотиш учун харид қилинган) товарларининг сотувчиси сифатида ҳам иштирок этиши мумкин.

7. Махсус электрон савдо платформаси ушбу Низомнинг 3-бандида белгиланган талабларга жавоб бермаса, Агентлик махсус электрон савдо платформасини Махсус электрон савдо платформалари реестридан чиқаради.

8. Сотувчи махсус электрон савдо платформаси оператори томонидан белгиланган талабларга мувофиқ махсус электрон савдо платформасида рўйхатдан ўтказилади.

9. Жисмоний шахслар томонидан товарлар махсус электрон савдо платформаси орқали харид қилиниб, Ўзбекистон Республикасининг истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда қайтарилган тақдирда:

товарлар бонд омборига қайтарилмайди ва келгусида маҳаллий бозорда сотиш мақсадида махсус электрон савдо платформасининг операцион омборига кирим қилинади;

қайтарилган товар бўйича Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетига тўланган божхона тўловлари қайтарилмайди;

ушбу товарлар бонд омбори оператори, махсус электрон савдо платформаси оператори ва сотувчи ўртасида тузилган шартномага (келишувга) асосан тасарруф этилади.

3-боб. Махсус электрон савдо платформалари операторларнинг мажбуриятлари

10. Махсус электрон савдо платформаси операторининг мажбуриятлари қуйидагилардан иборат:

сотилган товарлар учун жисмоний шахслар билан шартнома асосида (шу жумладан, офертага қўшилиш орқали) ҳисоб-китобларни амалга ошириш;

жисмоний шахсларга сотиладиган товарлар тўғрисидаги зарур маълумотларни кузатиб бориш учун Ўзбекистон Республикаси Солиқ қўмитасининг ахборот тизимлари билан интеграция қилиш.

11. Операцион омборга жойлаштирилган товарлар билан қуйидаги операциялар амалга оширилади:

товарни сақлаш операциялари;

товарларни сотиш ва ташишга тайёрлаш операциялари, жумладан, саралаш, партияларни шакллантириш, қадоқлаш, қайта қадоқлаш, маркировкалаш (акциз маркаларидан ташқари) ва бошқа шунга ўхшаш операциялар;

оддий йиғиш операциялари.

Қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ операцион омборга жойлаштирилган товарлар билан айрим операцияларни амалга оширишга тақиқлар ва чекловлар белгиланиши мумкин.

4-боб. Якунловчи қоидалар

12. Ушбу Низом талабларини бажаришда келиб чиқадиган ҳар қандай низо ва келишмовчиликлар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда ҳал қилинади.

13. Ушбу Низом талабларини бузган шахслар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар.

QMMB: 09/26/388/0747-son
17.07.2026-y.

28 (1256)-сон
727-модда

Махсус электрон савдо платформалари орқали жисмоний шахсларга товарларни чакана сотиш тартиби тўғрисидаги вақтинчалик низомга илова

Ўзбекистон Республикаси Истиқболли лойиҳалар миллий агентлигига

_____ ___-сон

Махсус электрон савдо платформалари реестрига киритиш учун АРИЗА

Махсус электрон савдо платформалари орқали товарларни жисмоний шахсларга чакана сотиш тартиби тўғрисидаги вақтинчалик низомга мувофиқ “_____” _____

(юридик шахснинг ташкилий-ҳуқуқий шакли ва номи)

махсус электрон савдо платформаларини реестрга киритишни сўрайди.

Илова: ___ варақда *(махсус электрон савдо платформалари реестрига киритиш талабларига мувофиқлигини тасдиқловчи ҳужжатлар)*.

Ариза берувчи Ф.И.О.

QMMB: 09/26/389/0748-son
17.07.2026-y.

28 (1256)-son
728-modda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

20 26 yil « 16 » iyul № 389 Toshkent sh.

Солиққа оид давлат хизматларини электрон шаклда кўрсатиш қамрови янада кенгайтирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республиканинг ҳудуд, соҳа ва тармоқларида рақамли технологиялар жорий этилишини янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2025 йил 16 сентябрдаги ПҚ–286-сон, “Ўзбекистон Республикаси Туризм қўмитаси фаолиятини ташкил этиш ва туризм соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2025 йил 19 ноябрдаги ПҚ–348-сон ва “Чет эл фуқароларига қўшилган қиймат солиғини қайтариш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2026 йил 5 мартдаги ПҚ–78-сон қарорлари ижросини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **қарор қилади**:

1. Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг **иловага** мувофиқ айрим қарорларига қуйидагиларни назарда тутувчи ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин:

мол-мулк ва ер солиқлари бўйича солиқ имтиёзларидан фойдаланиш учун жисмоний шахслар томонидан электрон мурожаат юборилиши;

солиқ тўловчиларга айрим интерактив давлат хизматларини кўрсатишнинг маъмурий регламентини тасдиқлаш;

Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан чиқиб кетишда чет давлат фуқаролари томонидан аввал харид қилинган товарлар учун тўланган қўшилган қиймат солиғи учун нақд пулда қайтариш тартиби;

сотиб олинган товарлар (хизматлар) қийматининг бир фоизини жисмоний шахсларга Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали орқали қайтаришни жорий этиш.

2. Ўзбекистон Республикаси Солиқ қўмитаси **икки ой муддатда**:

а) Адлия вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси, Рақамли технологиялар вазирлиги ва Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги билан биргаликда:

ушбу қарорда назарда тутилган давлат хизматини Электрон солиқ хизматлари портали ҳамда Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали орқали кўрсатилишини таъминласин;

QMMB: 09/26/389/0748-son
17.07.2026-y.

идоралараро ахборот алмашинувини ташкил этиш бўйича тегишли чораларни кўрсин;

б) манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда ўзлари қабул қилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ушбу қарорга мувофиқлаштирсин.

3. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги **икки ой муддатда:**

ёшга доир пенсия олувчи жисмоний шахслар тўғрисидаги маълумотларни;

I ва II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахслар тўғрисидаги маълумотларнинг Ўзбекистон Республикаси Солиқ қўмитасига тегишли ахборот тизимларини интеграция қилиш орқали тақдим этиб борилишини таъминласин.

4. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари – иқтисодиёт ва молия вазири Ж.А. Қўчқоров ҳамда Солиқ қўмитаси раиси Ф.Ж. Пўлатов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазири **А. Арипов**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
UMUMIY BO'LIM
1

QMMB: 09/26/389/0748-son
17.07.2026-y.

Вазирлар Маҳкамасининг
2026 йил "16" июл даги 389-сон қарорига
илова

Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар

1. Вазирлар Маҳкамасининг "Солиқ тўловчиларга айрим интерактив давлат хизматларини кўрсатиш бўйича маъмурий регламентларни тасдиқлаш тўғрисида" 2022 йил 2 апрелдаги 150-сон қарорида:

а) 2-бандда:

ўн биринчи хатбошидаги "тасдиқлансин" сўзи чиқариб ташлансин;

қуйидаги мазмундаги ўн иккинчи хатбоши билан тўлдирилсин:

"**Жисмоний шахслар томонидан мол-мулк ва ер солиқлари бўйича солиқ имтиёзларидан фойдаланиш учун электрон мурожаат юбориш бўйича давлат хизматини кўрсатишнинг маъмурий регламенти** 11-иловага мувофиқ тасдиқлансин";

б) қуйидаги мазмундаги 11-илова билан тўлдирилсин:

"Вазирлар Маҳкамасининг
2022 йил 2 апрелдаги 150-сон қарорига
11-илова

Жисмоний шахслар томонидан мол-мулк ва ер солиқлари бўйича солиқ имтиёзларидан фойдаланиш учун электрон мурожаат юбориш бўйича давлат хизматини кўрсатишнинг МАЪМУРИЙ РЕГЛАМЕНТИ

1-боб. Умумий қоидалар

1. Мазкур Регламент жисмоний шахслар томонидан мол-мулк ва ер солиқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси 421 ва 436-моддаларида назарда тутилган солиқ имтиёзларидан фойдаланиш мақсадида Электрон солиқ хизматлари портали ҳамда Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП) орқали доимий яшаш жойидаги солиқ органига электрон мурожаат (сўров) юбориш (кейинги ўринларда – давлат хизмати) тартибини белгилайди.

Бунда I ва II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахсларга мол-мулк ва ер солиқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси 421 ва 436-моддаларида назарда тутилган солиқ имтиёзлари Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ижтимоий ҳимоя миллий агентлигининг ахборот тизимларидан олинган маълумотлар асосида жисмоний шахслардан мурожаат талаб этилмаган ҳолда (проактив шаклда) қўлланади.

2. Ушбу Регламентда қуйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

ахборот тизими – солиқ органлари томонидан солиқ тўловчиларнинг ҳисобини юритиш учун фойдаланиладиган маълумотлар базаси;

QMMB: 09/26/389/0748-son
17.07.2026-y.

солиқ имтиёзидан фойдаланувчи жисмоний шахс (кейинги ўринларда – жисмоний шахс) – Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси 421 ва 436-моддаларида назарда тутилган жисмоний шахслар;

солиқ органи – имтиёз олиш ҳуқуқини берувчи маълумотларни текшириб, қабул қиладиган туман (шаҳар) солиқ инспекциялари.

2-боб. Давлат хизматини кўрсатиш тартиби

3. Жисмоний шахслар томонидан мол-мулк ва ер солиқлари бўйича солиқ имтиёзларидан фойдаланиш учун электрон солиқ хизматлари портали ёки ЯИДХПдаги шахсий кабинети орқали электрон мурожаат юборилади.

4. Мурожаатда қуйидаги маълумотлар акс эттирилади:

ЖШШИР *(автоматик тарзда шаклланади)*;

жисмоний шахснинг фамилияси, исми ва отасининг исми *(автоматик тарзда шаклланади)*;

жисмоний шахсга тегишли бўлган объектларнинг кадастр рақами *(автоматик тарзда шаклланади)*;

объектнинг жойлашган манзили *(автоматик тарзда шаклланади)*;

кўчмас мулк объектининг мулк майдони *(автоматик тарзда шаклланади)*;

ер участкасининг майдони, шундан ҳужжатли ва ҳужжатсиз ер майдони *(автоматик тарзда шаклланади)*;

кўчмас мулк объектининг кадастр қиймати *(автоматик тарзда шаклланади)*;

имтиёз қўланилиши лозим бўлган солиқ тури *(мол-мулк ва ер солиқлари танланади)*;

имтиёз тури;

имтиёз олиш ҳуқуқини берувчи ҳужжат санаси ва рақами;

имтиёз бошланиши ва тугаши санаси;

фуқаронинг телефон рақами;

имтиёз олиш ҳуқуқини берувчи ҳужжатлар *(pdf форматида бир ёки бир нечта файл бириктирилиши мумкин)*.

Юборилган ариза автоматик тарзда рўйхатга олинади ва бу ҳақида ариза берувчининг шахсий кабинетига хабар юборилади.

5. Жисмоний шахслар томонидан юбориш тугмаси босилганда, мазкур маълумотлар реал вақт режимида жисмоний шахсларнинг доимий яшаш жойидаги солиқ органларининг маълумотлар базасига келиб тушади.

6. Жисмоний шахслар томонидан юборилган маълумотларни солиқ органининг масъул ходими икки иш кунида солиқ органларида мавжуд маълумотлар асосида ўрганади ва солиқ имтиёзини қўллаш ёки уни рад этиш тўғрисида хулоса расмийлаштиради. Солиқ органининг тегишли хулосаси бир иш куни ичида Электрон солиқ хизматлари портали орқали жисмоний шахснинг шахсий кабинети ёхуд ЯИДХПга юборилади.

QMMB: 09/26/389/0748-son
17.07.2026-y.

7. Ёшга доир пенсия олувчи жисмоний шахслар тўғрисидаги маълумотлар Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Пенсия жамғармасидан, I ва II гуруҳ ногиронлиги бўлган жисмоний шахслар тўғрисидаги маълумотлар Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ижтимоий ҳимоя агентлигининг идоралараро интеграция тизими орқали олинади.

8. Жисмоний шахснинг бошқа объектига имтиёз қўлланилганлиги аниқланган ва (ёки) ушбу Регламентнинг 4-бандига мувофиқ илова қилинган ҳужжатларда камчиликлар мавжуд бўлган тақдирда, имтиёз олиш учун юборилган мурожаат солиқ органи томонидан рад этилади.

9. Мурожаат қайтарилган тақдирда, жисмоний шахс рад этиш учун асос бўлган камчиликларни бартараф этган ҳолда, қайта мурожаат қилишга ҳақли.

Бунда мурожаат мазкур Регламент талаблари асосида такроран кўриб чиқилади.

10. Давлат хизмати ушбу Регламентга 1-иловада келтирилган схемага мувофиқ кўрсатилади.

3-боб. Якунловчи қоидалар

11. Жисмоний шахслар томонидан имтиёздан фойдаланиш бўйича тақдим қилинган ҳужжатларнинг ҳаққонийлиги ва асослилиги бўйича жавобгарлик уларнинг зиммасига юкланади.

12. Солиқ органи ўз фаолиятини амалга ошириши жараёнида олинган маълумотларнинг сир сақланишини таъминлайди.

13. Жисмоний шахслар солиқ органи ходимларининг хатти-ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) юзасидан қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда шикоят қилишлари мумкин.

14. Мазкур Регламент талаблари бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб беради.

QMMB: 09/26/389/0748-son
17.07.2026-y.

Жисмоний шахслар томонидан мол-мулк ва ер солиқлари бўйича солиқ имтиёзларидан фойдаланиш учун электрон мурожаат юбориш бўйича давлат хизматини кўрсатишнинг маъмурий регламентига илова

Жисмоний шахслар томонидан мол-мулк ва ер солиқлари бўйича солиқ имтиёзларидан фойдаланиш учун электрон мурожаат юбориш бўйича давлат хизматини кўрсатиш

СХЕМАСИ

Босқичлар	Субъектлар	Чора-тадбирлар	Муддатлар
1-босқич	Жисмоний шахс	Электрон солиқ хизматлари портали ёки ЯИДХПдаги шахсий кабинети орқали электрон мурожаат юборилади.	Ихтиёрий
2-босқич	Солиқ органлари	Электрон мурожаат автоматик тарзда рўйхатга олинади ҳамда жисмоний шахснинг шахсий кабинетига ариза қабул қилинганлиги ҳақида хабар юборилади.	Реал вақт режимида
3-босқич	Солиқ органлари	Мурожаатда кўрсатилган ҳамда илова қилинган маълумотлар текширилади.	2 иш куни
4-босқич	Солиқ органлари	Мурожаат ва унга илова қилинган ҳужжатлар ўрганилади ҳамда солиқ имтиёзини қўллаш ёки уни рад этиш тўғрисида хулоса расмийлаштирилади.	2 иш куни
5-босқич	Солиқ органлари	Солиқ имтиёзини қўллаш ёки уни рад этиш тўғрисидаги солиқ органининг тегишли хулосаси жисмоний шахснинг шахсий кабинетига ёхуд ЯИДХПга юборилади.	1 иш куни

”.

2. Вазирлар Маҳкамасининг “Савдо ва хизмат кўрсатиш соҳасида жамоатчилик назорати самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2022 йил 12 майдаги 255-сон қарорида:

а) 1-бандда:

“а” кичик банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“а) Сотиб олинган товарлар (хизматлар) қийматининг бир қисмини жисмоний шахсларга қайтаришнинг маъмурий регламенти 1-иловага мувофиқ:

жисмоний шахслар томонидан сотиб олинган товарлар (хизматлар) қийматининг бир фоизини уларнинг фискал белгили чеклари солиқ органларининг махсус мобил иловаси ёки Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали орқали рўйхатдан ўтказилгандан сўнг қайтариш;

QMMB: 09/26/389/0748-son
17.07.2026-y.

чакана савдо, умумий овқатланиш ва маиший хизмат кўрсатиш объектларида нақд пул ёки банк карталари (корпоратив банк карталаридан ташқари) орқали сотиб олинган товарлар (хизматлар) қийматининг бир қисмини жисмоний шахсларнинг банк карталарига Ўзбекистон Республикаси миллий валютасида қайтариш";

3-банднинг учинчи хатбошиси "мобил иловаси" сўзларидан кейин "ёки Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали" сўзлари билан тўлдирилсин;

б) 1-иловада:

номидаги "қайтариш тартиби тўғрисида низом" сўзлари "қайтаришнинг маъмурий регламенти" сўзлари билан алмаштирилсин;

1-банддаги "Низом" сўзи "Маъмурий регламент (кейинги ўринларда – Регламент)" сўзлари билан алмаштирилсин;

2, 21, 22, 29-бандлардаги "Низом" сўзи "Регламент" сўзи билан алмаштирилсин;

3-банд "мобил иловаси" сўзларидан кейин "ёки Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда – ЯИДХП)" сўзлари билан тўлдирилсин;

6-бандда:

иккинчи хатбоши қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

"Ушбу Регламентда назарда тутилган сотиб олинган товарлар (хизматлар) қийматининг бир қисмини қайтариб олиш мақсадида солиқ органларининг махсус мобил иловасида ёки ЯИДХПда идентификация ва рўйхатдан ўтиш солиқ органларининг махсус дастурида кўрсатилган жисмоний шахсларнинг мобил телефон рақамига келиб тушган ҳавола бўйича рўйхатга олиш кодини киритиш орқали амалга оширилади";

учинчи хатбоши "мобил илова" сўзларидан кейин "ёки ЯИДХП" сўзлари билан тўлдирилсин;

7-банднинг биринчи хатбошиси "мобил иловасида" сўзларидан кейин "ҳамда ЯИДХПда" сўзлари билан тўлдирилсин;

8-бандда:

иккинчи хатбошидаги "Давлат солиқ" сўзлари "Солиқ" сўзи билан алмаштирилсин;

учинчи хатбоши "мобил илова" сўзларидан кейин "ёки ЯИДХП" сўзлари билан тўлдирилсин;

9-банднинг биринчи хатбошисидаги, 15, 16-бандлардаги, 19-банднинг учинчи хатбошисидаги, 20-банднинг биринчи хатбошисидаги, 23, 24, 25, 27-бандлардаги "Давлат солиқ" сўзлари "Солиқ" сўзи билан алмаштирилсин;

10-бандда:

биринчи хатбошидаги "Молия" сўзи "Иқтисодиёт ва молия" сўзлари билан алмаштирилсин;

иккинчи хатбошидаги "Низомга" сўзи "Регламентга" сўзи билан алмаштирилсин;

QMMB: 09/26/389/0748-son
17.07.2026-y.

11 ва 16-бандлардаги “мобил иловасида” сўзлари “мобил иловасида ёки ЯИДХПда” сўзлари билан алмаштирилсин;

12-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“12. Солиқ қўмитаси ҳар ойнинг йигирма бешинчи санасидан кечиктирмай аввалги календарь ойида жисмоний шахслар томонидан солиқ органларининг махсус мобил иловасида ёки ЯИДХПда рўйхатдан ўтказилган фискал белгили чеклар тўғрисидаги ахборотни ва улар бўйича жисмоний шахсларга қайтариладиган суммалар бўйича буюртмани Иқтисодиёт ва молия вазирлигига тақдим этади”;

13-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“13. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Солиқ қўмитасининг буюртмасига кўра Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Ғазначилигидаги Солиқ қўмитасининг махсус ҳисобварағига буюртма олган кундан сўнг бир иш кунидан кечиктирмай жисмоний шахсларнинг солиқ органларининг махсус мобил иловасида ёки ЯИДХПда рўйхатдан ўтказилган фискал белгили чеклари асосида қайтариб бериш учун маблағларни ўтказади.

Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан тўлаб берилган маблағлар етарли бўлмаганда ёки Солиқ қўмитасининг Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Ғазначилигидаги махсус ҳисобварағида маблағлар бўлмаган ҳолатларда Солиқ қўмитаси сотиб олинган товарлар (хизматлар) қийматининг бир қисмини жисмоний шахсларга Солиқ қўмитасининг моддий ёрдам, ижтимоий ҳимоя, солиқ органларини ривожлантириш ва кўзда тутилмаган харажатлар махсус жамғармаси ҳисобидан тўлаб бериш ҳуқуқига эга”;

14-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“14. Солиқ қўмитаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан пул маблағлари ўтказилгандан кейин бир иш кунидан кечиктирмай уларни Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Ғазначилигидаги махсус ҳисобварағидан ваколатли банкда очилган ҳисобварағига ўтказади”;

18, 24, 26, 27-бандлардаги “мобил иловада” сўзлари “мобил иловада ёки ЯИДХПда” сўзлари билан алмаштирилсин;

19-бандда:

биринчи хатбошидаги “мобил иловасида” сўзлари “мобил иловасида ёки ЯИДХПда” сўзлари билан алмаштирилсин;

иккинчи хатбошидаги “мобил иловада” сўзлари “мобил иловада ёки ЯИДХПда” сўзлари билан алмаштирилсин;

учинчи хатбошининг биринчи жумласи қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“Агар жисмоний шахс томонидан ушбу бандда назарда тутилган шикоят, товарлар (хизматлар) қийматининг бир қисмини қайтариш учун онлайн назорат-касса машинаси чекини махсус мобил илова ёки ЯИДХП орқали рўйхатдан ўтказган жисмоний шахсга тўлов амалга оширилгунга қадар қолдирилган бўлса, Солиқ қўмитаси онлайн назорат-касса машинаси чекини рўйхатдан ўтказган жисмоний шахсга товар қийматининг бир қисмини тўлашни тўхтатиб туради”;

QMMB: 09/26/389/0748-son
17.07.2026-y.

“Давлат солиқ” сўзлари “Солиқ” сўзи билан алмаштирилсин;

20-бандниng тўққизинчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“Солиқ қўмитаси онлайн назорат касса техникаси чекини солиқ органларининг мобил иловасида ёки ЯИДХПда рўйхатдан ўтказган жисмоний шахсдан унинг ҳақиқий харидлари тўғрисидаги тасдиғини сўраб олишга, харид ҳақиқатда ушбу жисмоний шахс томонидан амалга оширганлиги шубҳали бўлган тақдирда товарлар (хизматлар) қийматининг бир қисмини қайтаришни рад этиш тўғрисида қарор қабул қилишга ҳақли”;

23, 25-бандлардаги “мобил иловаси” сўзлари “мобил иловаси ёки ЯИДХП” сўзлари билан алмаштирилсин;

28-банддаги “Низомни” сўзи “Регламентни” сўзи билан алмаштирилсин;

иловада:

белгисидаги “қайтариш тўғрисида низомга” сўзи “қайтаришнинг маъмурий регламентига” сўзлари билан алмаштирилсин;

“1-босқич”, “2-босқич”, “3-босқич”, “4-босқич” ва “7-босқич” позициялари “Чора-тадбирлар” устунидаги “мобил иловасида” сўзлари “мобил иловасида ёки ЯИДХПда” сўзлари билан алмаштирилсин;

“2-босқич”, “3-босқич”, “5-босқич” ва “6-босқич” позициялари “Субъектлар” устунидаги “Давлат солиқ” сўзлари “Солиқ” сўзи билан алмаштирилсин.

“3-босқич” позицияси “Чора-тадбирлар” устунидаги ҳамда “4-босқич” позицияси “Субъектлар” устунидаги “Молия” сўзи “Иқтисодиёт ва молия” сўзлари билан алмаштирилсин;

в) 2-иловада:

7-бандниng иккинчи хатбошисидаги, 8-бандниng учинчи хатбошисидаги, 14-бандниng учинчи хатбошисидаги, 16-бандниng биринчи ва иккинчи хатбошиларидаги, 17, 18-бандлардаги “Давлат солиқ” сўзлари “Солиқ” сўзи билан алмаштирилсин;

иловада:

“2-босқич” ва “3-босқич” позициялари “Субъектлар” устунидаги “Давлат солиқ” сўзлари “Солиқ” сўзи билан алмаштирилсин.

3. Вазирлар Маҳкамасининг “Чет давлат фуқаролари томонидан Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан чиқиб кетишда аввал харид қилинган товарлар учун қўшилган қиймат солиғини қайтариш тизимини жорий этиш тўғрисида” 2022 йил 8 ноябрдаги 653-сон қарорида:

а) 2-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“2. Ўзбекистон Республикаси Туризм қўмитаси, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Солиқ қўмитаси ва Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Божхона қўмитасининг:

“tax free” тизими оператори сифатида Солиқ қўмитаси ҳузуридаги “Soliq Servis” акциядорлик жамиятини (кейинги ўринларда – Оператор) белгилаш;

чет давлат фуқароларига қайтариладиган ҚҚС суммасини ҳисобга олиш ва уни қайтариш солиқ органларининг махсус мобил иловаси (кейинги ўринларда – мобил илова) орқали амалга оширилиши тўғрисидаги таклифларига розилик берилсин”;

QMMB: 09/26/389/0748-son
17.07.2026-y.

б) 3-бандда:

учинчи хатбоши қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“чет давлат фуқароларига ҚҚС суммаси минимал харид қиймати ҚҚС суммасини ҳисобга олган ҳолда камида уч юз минг сўмни ташкил этганда ҳамда товарлар харид қилинган кундан эътиборан уч ой мобайнида Операторга мурожаат қилинганда қайтарилади”;

олтинчи хатбоши қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“Оператор чакана савдо билан шуғулланувчи субъектлар “tax free” тизими иштирокчилари эканлигини билдирувчи махсус белгининг (флаер) намунавий шаклини ишлаб чиқади ва уларни туристик марказлар, йирик савдо комплекслари ҳамда чет эл фуқаролари кўп ташриф буюрадиган бозорлар, чакана савдо билан шуғулланувчи субъектларга бепул тарқатади ҳамда расмий веб-сайт ва ижтимоий тармоқларда жойлаштирилишини таъминлайди, бунда махсус белгида кўрсатилган маълумотлар давлат тилида ва инглиз, рус, хитой, араб тилларида ёзилган бўлиши шарт”;

қуйидаги мазмундаги саккизинчи хатбоши билан тўлдирилсин:

“Туризм қўмитаси Операторга ушбу тартибнинг мазмун-моҳияти ва аҳамияти аҳоли ва тадбиркорлик субъектлари ўртасида кенг тарғиб қилинишини таъминлаш мақсадида темир йўл вокзаллари, Тошкент, Бухоро, Самарқанд, Фарғона ва Хива шаҳарларидаги туристик марказларида текин фойдаланиш учун махсус жой ажратсин”;

в) 4-бандниng биринчи хатбошисидаги “қайтариш тартиби тўғрисидаги низом” сўзлари “қайтаришнинг маъмурий регламенти” сўзлари билан алмаштирилсин;

г) 5-бандниng биринчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“5. Чет давлат фуқаролари томонидан Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан чиқиб кетишда қўшилган қиймат солиғини қайтариш тизими татбиқ этилмайдиган товарлар рўйхати **2-иловага** мувофиқ тасдиқлансин”;

д) 8-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“8. Қуйидагилар:

Ўзбекистон Республикаси Марказий банкига чакана савдо билан шуғулланувчи субъектларни уларнинг мурожаатлари асосида халқаро банк карталари орқали тўловларни қабул қилиш бўйича махсус ҳисоб-китоб терминаллари билан таъминлаш;

“Uzbekistan Airports” АЖга:

“tax free” тизими операторининг ҚҚС суммасини қайтариш сервис шохобчаларини Тошкент, Самарқанд, Бухоро, Фарғона ва Урганч халқаро аэропортлари ҳудудида жойлаштириш;

республиканинг барча халқаро аэропортларида чет эл фуқароларига қўшилган қиймат солиғини 24/7 режимда қайтариш тизимини йўлга қўйиш тавсия этилсин”;

QMMB: 09/26/389/0748-son
17.07.2026-y.

е) 1-иловада:

номидаги “қайтариш тартиби тўғрисидаги Низом” сўзлари “қайтаришнинг Маъмурий регламенти” сўзлари билан алмаштирилсин;

1-банддаги “Низом” сўзи “Регламент (кейинги ўринларда – Регламент)” сўзлари билан алмаштирилсин;

14, 28-бандлардаги “Низом” сўзи “Регламент” сўзи билан алмаштирилсин;

2-банднинг биринчи хатбошисидаги, 3-банднинг биринчи ва иккинчи хатбошиларидаги, 4-банднинг учинчи хатбошисидаги “Низомда” сўзи “Регламентда” сўзи билан алмаштирилсин;

3-банднинг учинчи хатбошисидаги “Давлат солиқ қўмитаси ҳузуридаги “Soliq Servis” давлат унитар корхонаси” сўзлари “Солиқ қўмитаси (кейинги ўринларда – Солиқ қўмитаси) ҳузуридаги “Soliq Servis” акциядорлик жамияти” сўзлари билан алмаштирилсин;

5-банднинг иккинчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“Бунда ҚҚС суммасини қайтариш тизими татбиқ этиладиган харид қилинган товарларнинг умумий қиймати уч юз минг сўмдан кам бўлмаслиги лозим”;

10-бандда:

қуйидаги мазмундаги иккинчи хатбоши билан тўлдирилсин:

“Чет эл фуқаролари харид қилинган товарлар бўйича ҚҚС суммасини қайтариш тизимида Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 12 майдаги 255-сон қарори билан тасдиқланган Сотиб олинган товарлар (хизматлар) қийматининг бир қисмини жисмоний шахсларга қайтариш тартиби тўғрисидаги маъмурий регламентининг 20-бандида белгиланган талаблар татбиқ этилмайди”;

иккинчи хатбошиси учинчи хатбоши деб ҳисоблансин;

учинчи хатбоши қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 12 майдаги 255-сон қарори билан тасдиқланган Сотиб олинган товарлар (хизматлар) қийматининг бир қисмини жисмоний шахсларга қайтариш тартиби тўғрисидаги маъмурий регламент билан фискал белгили чеклар мобил иловада рўйхатдан ўтказилмайдиган ҳолатларда улар бўйича чет эл фуқароларига ҚҚС қайтарилмайди”;

17-банднинг биринчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“17. Қайтарилаётган ҚҚС суммаси Ўзбекистон Республикасининг миллий валютасида белгиланади ва чет давлат фуқаросига мобил иловада кўрсатилган халқаро банк картасига (тўлов тизимига) ёки банк ҳисобварағига, чет давлат фуқароларининг хоҳишига кўра нақд пул шаклида чет эл валютасида (АҚШ доллари) мазкур Регламентда белгиланган муддатларда ўтказиб берилади”;

18-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“18. Чет давлат фуқароси томонидан ушбу Регламент талабларига риоя қилинмаслиги ҳолатида, шунингдек, ушбу Регламентда белгиланган ҳолатларда Оператор чет давлат фуқароларига харид қилинган товарлар бўйича ҚҚС суммасини қайтариб беришни тўлиқ ёки қисман рад этишга ҳақли”;

QMMB: 09/26/389/0748-son
17.07.2026-y.

19-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“19. Чет давлат фуқаросига ҚҚС суммаси Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги (кейинги ўринларда – Иқтисодиёт ва молия вазирлиги) томонидан Ўзбекистон Республикаси республика бюджети ҳисобидан қайтарилади.

Чет давлат фуқаросига харид қилинган товарлар бўйича ҚҚС суммаси мазкур Регламентга иловада келтирилган схемага мувофиқ қайтарилади”;

20-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“20. Чет давлат фуқаросига харид қилинган товар бўйича ҚҚС суммаси мобил иловада кўрсатилган халқаро банк картасига (тўлов тизимига) ёки банк ҳисобварағига чет давлат фуқаросининг Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан чиқиб кетиш ҳолати тасдиқлангандан сўнг уч иш кунидан кўп бўлмаган муддатда, нақд пул шаклида бўлганда, мурожаат этган кунда қайтарилади”;

22-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“22. Оператор чет давлат фуқароси Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан чиқиб кетиш ҳолати тасдиқланган кундан кейинги уч иш кунидан кечиктирмай аввалги календарь кунларида чет давлат фуқаролари томонидан Ўзбекистон Республикаси ҳудудига кириб келиш ва ҳудуддан чиқиб кетиш ҳолати тасдиқланганлиги ҳамда мобил иловада рўйхатдан ўтказилган фискал белгили чеклар тўғрисидаги ахборот бўйича чет давлат фуқароларига қайтариладиган ҚҚС суммалари бўйича буюртмани Солиқ қўмитасининг хулосаси асосида Иқтисодиёт ва молия вазирлигига тақдим этади”;

23-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“23. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Солиқ қўмитасининг хулосасига асосан Операторнинг Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Ғазначилигидаги махсус ҳисобварағига хулоса олинган кундан сўнг бир иш кунидан кечиктирмай маблағларни ўтказади”;

24-банддаги “Молия” сўзи “Иқтисодиёт ва молия” сўзлари билан алмаштирилсин;

25-банддаги “ҳар ойда, кейинги ойнинг йигирма бешинчи кунига қадар” сўзлари “ҳар ўн кунда” сўзлари билан алмаштирилсин;

қуйидаги мазмундаги 4^1-боб билан тўлдирилсин:

“4^1-боб. Чет давлат фуқароларига ҚҚС суммасини нақд пулда қайтариш тартиби

25^1. Чет давлат фуқаросига ҚҚС суммаси Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан Ўзбекистон Республикаси республика бюджети ҳисобидан қайтарилади.

Бунда Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Солиқ қўмитасининг Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Ғазначилик хизмати қўмитасидаги махсус ҳисобварағига чет давлат фуқаросига харид қилинган товарлар бўйича ҚҚС суммасини нақд пулда қайтариш учун ҳар чоракда бўнак тариқасида маблағ ажратилади.

QMMB: 09/26/389/0748-son
17.07.2026-y.

Чет давлат фуқаросига ҚҚС суммаси нақд пулда мазкур Регламентга иловада келтирилган схемага мувофиқ қайтарилади.

25[2]. Чет давлат фуқаросига ҚҚС суммаси чет давлат фуқаросининг Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан чиқиб кетиш ҳолати тасдиқланган кунида қайтарилади.

25[3]. Операторга Ўзбекистон Республикасининг республика бюджети маблағлари ҳисобидан харид чекларидаги “tax free” тизими татбиқ этиладиган товарлар учун жами тўланган ҚҚС суммасининг 100 фоизига тенг бўлган маблағлар тўлаб берилади.

Бунда чет давлат фуқароларига Оператор ўзининг хизмати учун тўловларни инобатга олиб, “tax free” тизими татбиқ этиладиган товарлар учун жами тўланган ҚҚС суммасининг 85 фоиз қисмини тўлаб беради.

Операторнинг хизмати учун тўловлар чет давлат фуқароси томонидан сотиб олинган товарлар учун тақдим этилган харид чекларида кўрсатилган ҚҚС суммасининг 15 фоизини ташкил этади.

25[4]. Оператор ҳар куни бир иш кунидан кечиктирмай аввалги календарь ойда чет давлат фуқаролари томонидан Ўзбекистон Республикаси ҳудудига кириб келиш ва ҳудуддан чиқиб кетиш ҳолати тасдиқланганлиги ҳамда мобил иловада рўйхатдан ўтказилган фискал белгили чеклар тўғрисидаги ахборот бўйича чет давлат фуқароларига қайтариладиган ҚҚС суммалари бўйича буюртмани Солиқ қўмитасининг хулосаси асосида Иқтисодиёт ва молия вазирлигига тақдим этади.

25[5]. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Солиқ қўмитасининг хулосасига асосан Операторнинг Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Ғазначилик хизмати қўмитасидаги махсус ҳисобварағига хулоса олинган кундан сўнг бир иш кунидан кечиктирмай маблағларни ўтказади.

25[6]. Оператор Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан пул маблағлари ўтказилгандан кейин бир иш кунидан кечиктирмай уларни Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Ғазначилик хизмати қўмитасининг махсус ҳисобварағидан ваколатли банкда очилган ҳисобварағига ўтказади.

Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан тўлаб берилган маблағлар етарли бўлмаганда ёки Солиқ қўмитасининг Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Ғазначилик хизмати қўмитасдаги махсус ҳисобварағига маблағлар етарли миқдорда молиялаштирилгунга қадар бўлган ҳолатларда чет давлат фуқаросига харид қилинган товар бўйича ҚҚС суммасини Оператор ўз даромадлари маблағлари ҳисобидан тўлаб бериш ҳуқуқига эга.

25[7]. Оператор ҚҚС суммасини нақд пулда қайтариб олиш ҳуқуқига эга бўлган чет давлат фуқаролари учун тўланадиган маблағлар миқдорини ваколатли банкка бир иш кунидан кечиктирмай тақдим этади.

25[8]. Оператор ҚҚС суммасини нақд пулда қайтариб олиш ҳуқуқига эга бўлган чет давлат фуқароларига қайтариб бериш учун тегишли банкка чек (электрон чек) тақдим этади.

QMMB: 09/26/389/0748-son
17.07.2026-y.

25[9]. Ваколатли банк ҳар куни иш куни бошланиши билан Оператор чек (электрон чек)да сўралган маблағларни чет эл валютасида (АҚШ доллари) тўлаб беради.

25[10]. Оператор ҚҚС суммасини нақд пулда қайтариб олиш ҳуқуқига эга бўлган чет эл фуқаролари ҳисобини алоҳида юритади";

27-банддаги "Низомни" сўзи "Регламентни" сўзлари билан алмаштирилсин;

илова қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

"Чет давлат фуқаролари томонидан Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан чиқиб кетишда аввал харид қилинган товарлар учун қўшилган қиймат солиғини қайтаришнинг маъмурий регламентига
илова

Чет давлат фуқаролари томонидан Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан чиқиб кетишда харид қилинган товарлар учун қўшилган қиймат солиғини қайтариш ("tax-free" тизими)
СХЕМАСИ

Босқичлар	Субъектлар	Чора-тадбирлар	Муддатлар
I. "Солиқ сервис" АЖ "tax-free" тизими операторига товарлар харидида тўланган қўшилган қиймат солиғини қайтариш ("tax-free" тизими) ҳуқуқи тўғрисида хабар бериш			
1-босқич	Товар харидори – чет эл фуқаролари	Чакана савдо ташкилотлари томонидан тақдим этилган онлайн назорат-касса машиналари чеклари солиқ органларининг махсус мобил иловасида харид чекининг фискал белгисини матрицали штрих-код (QR-код) ёрдамида сканерлаш ёки фискал белгисини киритиш орқали рўйхатдан ўтказилади	Чек олинган кундан бошлаб ўн календарь кундан кечиктирмасдан
2-босқич	Оператор	Ўтган календарь кунда чет эл фуқаролари томонидан солиқ органларининг махсус мобил иловасида рўйхатдан ўтказилган фискал белгили чеклар тўғрисидаги ахборот ва улар бўйича қайтариладиган ҚҚС суммалар бўйича буюртмалар ҳаққонийлигини текширади.	Чет давлат фуқароси томонидан товарлар харид қилинган кундан уч иш кунига қадар

QMMB: 09/26/389/0748-son
17.07.2026-y.

II. Товарларни харид қилишда тўланган қўшилган қиймат солиғини қайтариш (Tax-free)			
3-босқич	Оператор	Чет давлат фуқаролари томонидан Ўзбекистон Республикаси ҳудудига кириб келиш ва ҳудуддан чиқиб кетиш ҳолати тасдиқланганлиги ҳамда мобил иловада рўйхатдан ўтказилган фискал белгили чеклар тўғрисидаги ахборот бўйича чет давлат фуқароларига қайтариладиган ҚҚС суммалари бўйича буюртмани Солиқ қўмитасининг хулосаси асосида Иқтисодиёт ва молия вазирлигига тақдим этади.	Чет давлат фуқароси томонидан Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан чиқиб кетиш ҳолати тасдиқланган кунда нақд пулда бир кунда, банк пластик карточкаси бўйича тасдиқланган кундан кейинги уч иш кунига қадар
4-босқич	Иқтисодиёт ва молия вазирлиги	Операторнинг махсус ҳисобрақамига чет эл фуқароларининг солиқ органларининг махсус мобил иловасида рўйхатдан ўтказилган фискал белгили чеклар асосида ҚҚС суммасини қайтариб бериш учун маблағларни ўтказади.	Буюртма олган кундан сўнг бир иш кунидан кечиктирмасдан
5-босқич	Оператор	Қабул қилинган маблағларни ваколатли банкда очилган ҳисоб ҳисобварағига ўтказади.	Бир кундан кечиктирмасдан
6-босқич	Оператор	Ваколатли банкка товарларнинг ҚҚС суммасини қайтариш ҳуқуқига эга бўлган чет давлат фуқаролари реестрини тақдим этади.	Чет давлат фуқаролари томонидан харид қилинган товарлар фақат кузатув багажи ва/ёки қўл юкида ўзи билан бирга Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан олиб чиқиб кетилганда амалга оширилади
7-босқич	Банк	Солиқ органларининг махсус мобил иловасида фискал белгиси қўйилган рўйхатдан ўтган чеклар асосида харид қилинган товарларнинг ҚҚС суммасини қайтариш ҳуқуқига эга бўлган чет эл фуқароларининг халқаро банк карталарига пул маблағларини ўтказади.	Ҳар куни рўйхатдан ўтказилган кундан кейинги уч иш кунига қадар
III. Товарларни харид қилишда тўланган қўшилган қиймат солиғини нақд пулда қайтариш			
8-босқич	Оператор	Солиқ органларининг махсус мобил иловасида фискал белгиси қўйилган рўйхатдан ўтган чеклар асосида харид қилинган товарларнинг ҚҚС суммасини қайтариш ҳуқуқига эга бўлган чет давлат фуқароларига нақд пулда қайтариб беради.	Чет давлат фуқаросининг Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан чиқиб кетиш ҳолати тасдиқланган кунда

QMMB: 09/26/389/0748-son
17.07.2026-y.

9-босқич	Оператор	Солиқ органларининг махсус мобил иловасида фискал белгиси қўйилган рўйхатдан ўтган чеклар асосида харид қилинган товарларнинг ҚҚС суммасини Оператор томонидан ҳақиқатда қайтарилган нақд пул маблағлари тўғрисида кунлик ҳисоб-китобни амалга оширади.	Ҳар куни

”;

е) 2-илова қуйидаги таҳрирда баён қилинсин:

Вазирлар Маҳкамасининг
2022 йил 8 ноябрдаги 653-сон қарорига
2-илова

Чет давлат фуқаролари томонидан Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан чиқиб кетишда қўшилган қиймат солиғини қайтариш тизими татбиқ этилмайдиган товарлар
РЎЙХАТИ

Т-р	Гуруҳ	Гуруҳ тавсифи
1	002	Гўшт ва гўштли озиқ-овқат субмаҳсулотлари
2	003	Балиқ ва сувда яшовчи умуртқасиз бошқа ҳайвонлар
3	004	Ҳайвонлардан олинадиган маҳсулотлар
4	007	Сабзавотлар
5	008	Мевалар ва ёнғоқлар
6	009	Кофе, чой ва зираворлар
7	010	Донли ўсимликлар
8	011	Ун ва ун-дон маҳсулотлари
9	015	Ҳайвон ёки ўсимлик ёғлари ва уларнинг парчаланиши маҳсулотлари
10	016	Гўшт, балиқ ёки бошқа сувда яшовчи умуртқасиз ҳайвонлардан тайёрланган маҳсулотлар
11	017	Шакар ва шакардан олинадиган қандолат маҳсулотлари
12	018	Какао ва унинг маҳсулотлари
13	019	Ун, қандолат ва ёрма - дон маҳсулотлари
14	020	Сабзавот, мева, ёнғоқ ёки ўсимликларнинг бошқа қисмларини қайта ишлаш маҳсулотлари
15	021	Турли озиқ-овқат маҳсулотлари

Изоҳ. Кенгайтирилган рўйхат Солиқ қўмитаси томонидан (синф, позициялар, субпозициялар, атрибутлар ва брендлар кўрсатилган ҳолда) юритилади”.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
UMUMIY BO'LIM
1

БЕШИНЧИ БЎЛИМ

ВАЗИРЛИКЛАР, ДАВЛАТ ҚЎМИТАЛАРИ ВА ИДОРАЛАРИНИНГ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИДА ДАВЛАТ РЎЙХАТИДАН ЎТКАЗИЛГАН НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАРИ

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 2146-21
2026 - yil 13 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRINING BUYRUG‘I

Budjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomaga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-maydagi PQ–190-son “Majburiy raqamli markirovkalash tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2025-yil 26-dekabrdagi PQ–387-son “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 29-yanvardagi 35-son “Ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2010-yil 20-avgustdagi 65-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2146, 2010-yil 11-oktabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 40-41-son, 356-modda) bilan tasdiqlangan Budjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomaga ilovaga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Vazir

2026-yil 10-iyun

372-son

KUCHKAROV DJAMSHID ANVAROVICH

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya
vazirining 2026-yil 10-iyundagi 372-son buyrug‘iga
ILOVA

Budjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomaga kiritilayotgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar

1. 22-bandning yettinchi xatboshisi “tashkiliy tasnif” degan so‘zlardan keyin “(mazkur Yo‘riqnomaning 6-ilovasi)” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

2.121-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“121. 7 100 000 “Ijtimoiy himoya” bo‘limi bo‘yicha kasallik va mehnatga layoqatsizlik xarajatlari, jumladan, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha nafaqalar, qarilik ta’minoti, oila va bolalarni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlik, uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha yordam xarajatlari, Chernobil AES halokati oqibatlarini bartaraf etishda qatnashganlarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha xarajatlar, ijtimoiy muhofaza sohasida ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, boshqa toifalarga kiritilmagan ijtimoiy muhofaza masalalari xarajatlari aks ettiriladi.”.

3. 122-banddagi “7 101 000 “Kasalliklar, mehnatga layoqatsizlik va kam ta’minlanganlik” bo‘limida” degan so‘zlar “7 101 000 “Kasalliklar va mehnatga layoqatsizlik” bo‘limida” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

4. 178-band va 179-bandning ikkinchi xatboshisidagi “kam ta’minlangan” degan so‘zlar “Ijtimoiy reyestrga kiritilgan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

5. 196-banddagi “Yo‘riqnomaning 6-ilovasi” degan so‘zlar “Yo‘riqnomaning 7-ilovasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

6. 1-ilovada:

1) 3 094 10 qatordan keyin quyidagi mazmundagi qatorlar bilan to‘ldirilsin:

“3 095 00 Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi;

3 095 10 Respublika mablag‘lari;

3 096 00 Sport sohasida tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi;

3 096 00 Respublika mablag‘lari;”;

2) 4 600 22 qatordan keyin quyidagi mazmundagi qatorlar bilan to‘ldirilsin:

“4 610 00 Aksiyadorlik jamiyati mablag‘lari;

4 610 20 Hududiy mablag‘lar;

4 610 21 Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag‘lari.”.

7. 4-ilovada:

1) 7 011 205 qatorning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari”;

2) 7 011 212 qatordan keyin quyidagi mazmundagi qator bilan to‘ldirilsin:

“7 011 213 Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligini saqlash xarajatlari”;

3) 7 011 333 qatordan keyin quyidagi mazmundagi qator bilan to‘ldirilsin:

“7 011 339 O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining tizim tashkilotlarini saqlash xarajatlari”;

4) 7 018 621 qatordan keyin quyidagi mazmundagi qator bilan to‘ldirilsin:

“7 018 622 Dehqon bozorlari, ixtisoslashtirilgan va buyum bozorlaridan O‘zbekiston Respublikasi respublika budjetiga tushgan soliqlardan ushbu sohadagi hamda mahallalarda infratuzilmani yaxshilash uchun mazkur bozorlar joylashgan tuman/shaharlar budjetlariga ajratmalar”;

5) 7 046 902 qatordan keyin quyidagi mazmundagi qator bilan to‘ldirilsin:

“7 046 903 Aloqa va telekommunikatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash xarajatlari”;

6) 7 047 300 qatordagi “Turizm va madaniy meros” degan so‘zlar “Turizm” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

7) 7 069 911 qatordan keyin quyidagi mazmundagi qatorlar bilan to‘ldirilsin:

“7 069 912 Og‘ir toifadagi tumanlarni rivojlantirish bilan bog‘liq xarajatlari;

7 069 913 Og‘ir toifadagi mahallalarni rivojlantirish bilan bog‘liq xarajatlari”;

8) 7 101 000 qatorning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7 101 000 Kasallik va mehnatga layoqatsizlik”;

9) 7 106 904 qatordagi “kam ta’minlangan” degan so‘zlar “Ijtimoiy reyestrga kiritilgan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

10) 7 950 100 qatordan keyin quyidagi mazmundagi qator bilan to‘ldirilsin:

“7 950 600 Hisob-kitob-kliring palatasi”.

8. 5-ilovada:

1) 47 21 300 qatordagi “Kam ta’minlangan” degan so‘zlar “Ijtimoiy reyestrga kiritilgan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) 47 22 100 qatordagi “kam ta’minlangan” degan so‘zlar “Ijtimoiy reyestrga kiritilgan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

9. 5a-ilovada:

1) 47 21 300 qatordagi “Kam ta’minlangan” degan so‘zlar “Ijtimoiy reyestrga kiritilgan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) 47 22 100 qatordagi “kam ta’minlangan” degan so‘zlar “Ijtimoiy reyestrga kiritilgan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

10. 6-ilova mazkur qo‘shimcha va o‘zgartirishlarning 1-ilovasiga muvofiq tahrirda bayon etilsin.

11. Mazkur qo‘shimcha va o‘zgartirishlarning 2-ilovasiga muvofiq tahrirdagi 7-ilova bilan to‘ldirilsin.

Budjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha
yo‘riqnomaga kiritilayotgan
qo‘shimcha va o‘zgartirishlarga
1-ILOVA

“Budjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha
yo‘riqnomaga
6-ILOVA

Tashkiliy tasnif

Kodlari	Nomi
001	O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi
003	O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi
004	“Navoiyuran” davlat korxonasi
005	“Olmaliq KMK” aksiyadorlik jamiyati
006	“O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati
008	“Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyati
009	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
010	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
011	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi
013	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi
014	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
015	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
016	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi
017	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
018	Viloyat, Toshkent shahar, tuman, shahar hokimliklari
019	O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi
021	O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
022	“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati
023	O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi
024	O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari milliy markazi
025	YUNESKO ishlari boyicha O‘zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi
026	O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi
027	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
031	“Sog‘lom avlod uchun” hukumatga qarashli bo‘lmagan xalqaro xayriya jamg‘armasi
037	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi

	budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi
040	O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi
041	Qoraqalpog‘iston Respublikasining Jo‘qorg‘i Kengesi
043	O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
044	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
045	O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi
046	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
047	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasi
051	O‘zbekiston badiiy akademiyasi
054	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi
055	“Dori-darmon” aksiyadorlik kompaniyasi
056	O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
061	O‘zbekiston Respublikasi Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi qo‘mitasi
065	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi
066	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi
067	O‘zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazining Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti
068	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqot instituti
069	Markaziy Osiyo tadqiqotlari Xalqaro instituti
072	O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
073	O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
074	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti
078	O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi
080	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
081	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi
082	O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi
084	O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xojaligi vazirligi
088	O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi
091	O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
093	O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi

098	“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati
111	“Toshshahartransxizmat” aksiyadorlik jamiyati
115	Orolni qutqarish Xalqaro jamg‘armasi
118	O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi
123	“Amudaryo” havzasi suv xo‘jaligi birlashmasi
124	“Sirdaryo” havzasi suv xo‘jaligi birlashmasi
128	O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi
129	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi huzuridagi Sudlar faoliyatini ta’minlash departamenti
133	O‘zbekiston Milliy axborot agentligi
136	O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi
137	O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi
142	O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi huzuridagi O‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish, cho‘llanishga qarshi kurashish agentligi
147	O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi
155	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi
158	O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati agentligi
167	Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
170	O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi
175	O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi
176	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasi
182	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi
186	O‘zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi
189	Xalqaro “Kurash” Assotsiatsiyasi
190	O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasi
200	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati
202	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti
205	O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi
206	O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi
208	O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi
216	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

	Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti
217	O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi huzuridagi O‘zbekiston futbolini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi
222	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi
224	O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi
225	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi
240	Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti
241	O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Migratsiya va personallashtirish departamenti
245	O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi
246	O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi
250	O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Chorvachilik va yaylov xo‘jaligini rivojlantirish agentligi
253	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi
254	O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi
256	O‘zbekiston ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash “Ilhom” jamoat fondi
260	O‘zbekiston Respublikasi Milliy antidoping agentligi
261	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati
265	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi
270	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi
276	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi
277	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi
278	O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi
279	O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi
280	O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi
282	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshidagi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi
284	O‘zbekiston Respublikasi Elektron texnologiyalarni rivojlantirish markazi
285	O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi
289	Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasi
335	Markaziy Osiyo tadqiqotlari Xalqaro instituti

337	Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi
338	O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi
339	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman)
340	Xalq deputatlari Kengashi Kotibiyati
342	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi
343	O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi
345	O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi
346	Olimpiya sport turlari bo‘yicha boshqa federatsiyalar (assotsiatsiyalar)
347	O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi
348	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani)
349	O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi
350	O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
357	O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi
359	“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyati
361	Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
362	O‘zbekiston Respublikasi Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi
363	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi
365	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Energiya samaradorligi milliy agentligi
366	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi
367	O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Kasbiy ta’lim agentligi
368	O‘zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo‘mitasi
369	O‘zbekiston Respublikasi Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi

”.

Budjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha
yo‘riqnomaga kiritilayotgan
qo‘shimcha va o‘zgartirishlarga
2-ILOVA

“Budjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha
yo‘riqnomaga
7-ILOVA

Davlat budjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi

Kodlar		**Nomi**
bo‘lim	**paragraf**	
50	**x**	**Ichki manbalar**
	1	Davlat qimmatli qog‘ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lar
	5	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining qoldig‘i
	6	O‘zbekiston Respublikasining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘larining qoldig‘i
	8	Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg‘armasi mablag‘lari
	9	Boshqa ichki manbalardan jalb qilinadigan mablag‘lar
51	**x**	**Tashqi manbalar**
	1	Davlat qimmatli qog‘ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lar
	2	Xalqaro moliyaviy institutlar, tashkilotlar kreditlari
	3	Xorijiy davlatlar kreditlari
	4	Boshqa tashqi manbalardan jalb qilinadigan mablag‘lar

”.

QMMB: 10/26/2499-5/0732-son
14.07.2026-y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 2499-5
2026 - yil 13 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ QO‘MITASINING

QARORI

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzuridagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha maslahat markazining namunaviy nizomiga o‘zgartirishlar kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 30-dekabrdagi O‘RQ–1109-son “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PF–22-son “Tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2021-yil 3-dekabrdagi PQ–31-son “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Soliq qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasining 2013-yil 24-iyundagi 36, 62, 2013-34-son qarori (ro‘yxat raqami 2499, 2013-yil 8-avgust) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 32-son, 435-modda) bilan tasdiqlangan Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzuridagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha maslahat markazining namunaviy nizomiga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi hamda O‘zbekiston fermerlari kengashi bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

QMMB: 10/26/2499-5/0732-son
14.07.2026-y.

Vazir
2026-yil 22-iyun
381-son

KUCHKAROV DJAMSHID ANVAROVICH

Rais
2026-yil 1-iyun
2026-15-son

PULATOV FARRUX JAXONGIROVICH

Kelishildi:

Kengash raisi
2026-yil 21-aprel

XAITOV AKTAM AXMADOVICH

Rais
2026-yil 17-aprel

KURANBAYEV KAXRAMON KUCHKAROVICH

Vazir
2026-yil 14-aprel

ZAXIDOV BOTIR ERKINOVICH

QMMB: 10/26/2499-5/0732-son
14.07.2026-y.

Rais

2026-yil 3-aprel

VAXABOV DAVRON
ABDUJALALOVICH

QMMB: 10/26/2499-5/0732-son
14.07.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2026-yil 22-iyundagi 381-son va Soliq qo‘mitasining 2026-yil 1-iyundagi 2026-15-son qaroriga
ILOVA

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzuridagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha maslahat markazining namunaviy nizomga kiritilayotgan o‘zgartirishlar

1. Muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Namunaviy nizom Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzuridagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha maslahat markazining (bundan buyon matnda Maslahat markazi deb yuritiladi) maqsadi va vazifalari, huquq va majburiyatlari hamda uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.”.

2. 5-6-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Maslahat markaziga mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi rahbarlik qiladi hamda unda tegishli hududdagi tajribali tadbirkorlar, fermerlar va hunarmandlar, namunali oila boshliqlari hamda fuqarolar yig‘ini raisining maslahatchilari a’zolar sifatida kiritilishi mumkin.

Maslahat markazi a’zolari soni tegishli hududda yashayotgan aholi va tadbirkorlik subyektlari soni, shuningdek Maslahat markazining ish hajmiga qarab mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi tomonidan belgilanadi.

6. Maslahat markazining rahbari tomonidan ishni to‘g‘ri tashkil etish va muvofiqlashtirish, shuningdek zarur ko‘mak va maslahatlar olish uchun mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan kelishilgan holda tegishli tuman (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi, tuman (shahar) soliq inspeksiyasi, tuman (shahar) davlat xizmatlari markazlari, O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining tuman (shahar) axborot maslahat markazi, tijorat banklari, “Hunarmand” uyushmasining hududiy bo‘limi, tuman (Quvasoy shahar) qishloq xo‘jaligi bo‘limi va tuman (Quvasoy shahar) irrigatsiya bo‘limi mas’ul xodimlari jamoatchilik asosida jalb qilinishi mumkin.”.

QMMB: 10/26/3897/0730-son
14.07.2026-y.

28 (1256)-son
731-modda

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3897
2026 - yil 13 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGINING

QARORI

“Yangi O‘zbekiston” universitetida davlat oliy ta’lim tashkilotlari rektori (direktori) lavozimiga nomzodlarni tayyorlash bo‘yicha “Rektorlar maktabi” dasturi doirasida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 16-apreldagi 177-son “Yangi O‘zbekiston” universitetida “Rektorlar maktabi” dasturini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi qaror qiladi:

1. “Yangi O‘zbekiston” universitetida davlat oliy ta’lim tashkilotlari rektori (direktori) lavozimiga nomzodlarni tayyorlash bo‘yicha “Rektorlar maktabi” dasturi doirasida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Vazir 2026-yil 3-iyul 43-q/q-son		SHARIPOV KONGRATBAY AVEZIMBETOVICH
Vazir 2026-yil 24-iyun 39-mh-son		KARIMOVA E’ZOZXON GAPIRJONOVNA

Kelishildi:

Direktor 2026-yil 3-iyul		YULDASHEV BAXTIYOR GAYRADJONOVICH
Direktor v.b. 2026-yil 19-iyun		XUSAINOV ULUG‘BEK SHUXRATJONOVICH

QMMB: 10/26/3897/0730-son
14.07.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 3-iyuldagi 43-q/q-son hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2026-yil 24-iyundagi 39-mh-son qaroriga
ILOVA

“Yangi O‘zbekiston” universitetida davlat oliy ta’lim tashkilotlari rektori (direktori) lavozimiga nomzodlarni tayyorlash bo‘yicha “Rektorlar maktabi” dasturi doirasida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

Mazkur Nizom “Yangi O‘zbekiston” universitetida (bundan buyon matnda Universitet deb yuritiladi) davlat oliy ta’lim tashkilotlari rektori (direktori) lavozimiga nomzodlarni tayyorlash bo‘yicha “Rektorlar maktabi” dasturi (bundan buyon matnda Dastur deb yuritiladi) doirasida o‘qishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

nomzodlar – Dastur doirasida o‘qishga kirish istagini bildirgan shaxslar;

Texnik guruh – har yili Universitet rektori buyrug‘i bilan tashkil etiladigan nomzodlarning hujjatlarini qabul qiladigan va ularni o‘rganadigan hamda nomzodlarga maslahat beradigan guruh;

Qabul komissiyasi – har yili Universitet rektorining buyrug‘i bilan tashkil etiladigan nomzodlarning test sinovlarini, psixologik o‘rganishlarini hamda suhbatdan o‘tkazish jarayonlarini muvofiqlashtiruvchi kollegial organ.

2. Dastur doirasida 30 yoshga to‘lgan, kamida magistr akademik darajasiga va oliy ta’lim sohasida kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo‘lgan, shu jumladan, 2 yil rahbarlik lavozimlarida ishlagan nomzodlar ochiq tanlov asosida o‘qishga qabul qilinadi.

3. Dastur doirasida o‘qishga qabul qilishda nomzodlarning oliy ta’lim sohasida, shu jumladan oliy ta’lim tashkilotlari, davlat organlari va tashkilotlarida oliy ta’lim sohasiga oid vazifalarni amalga oshirish bilan bog‘liq rahbarlik lavozimlaridagi ish tajribasi inobatga olinadi.

QMMB: 10/26/3897/0730-son
14.07.2026-y.

Bunda rektor, prorektor, direktor, direktor o‘rinbosari, filial direktori, filial direktori o‘rinbosari, dekan, dekan o‘rinbosari, fakultet boshlig‘i, fakultet boshlig‘i o‘rinbosari, kafedra mudiri, boshqarma boshlig‘i, boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari, bo‘lim boshlig‘i, markaz rahbari, shu’ba mudiri hamda lavozim vazifalari va boshqaruv funksiyalari mazmuniga ko‘ra boshqa rahbarlik vazifalari yuklatilgan lavozimlar rahbarlik lavozimlari sifatida e’tirof etiladi.

4. Nomzodlarni Dastur doirasida o‘qishga qabul qilish quyidagi bosqichlardan iborat ochiq tanlov asosida bepul amalga oshiriladi:

birinchi bosqich – nomzodlarning arizalarini qabul qilish va ularni o‘rganish;

ikkinchi bosqich – nomzodlarni test sinovlaridan o‘tkazish;

uchinchi bosqich – nomzodlarni psixologik o‘rganish;

to‘rtinchi bosqich – nomzodlar bilan suhbat o‘tkazish.

5. Dastur doirasida o‘qishga qabul bir yilda kamida ikki marotaba o‘tkaziladi. Yillik qabul kvotasi 80 nafarni tashkil etadi. Bunda qabul davrlari kesimida kvotani taqsimlash Qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi.

6. Nomzodlar test sinovlari, psixologik o‘rganish va suhbatdan o‘tish natijalari bo‘yicha to‘plangan umumiy ballariga ko‘ra mazkur Nizomning 6-bobiga muvofiq Dastur doirasida o‘qishga qabul qilinadi.

2-bob. Nomzodlarning arizalarini qabul qilish va ularni o‘rganish

7. Dastur doirasida o‘qishga kirish uchun nomzodlarning arizalarini topshirish muddati Qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Texnik guruh tomonidan ochiq tanlov haqidagi e’lonlar nomzodlarning arizalarini topshirish muddati boshlanishidan kamida ikki hafta oldin ommaviy axborot vositalari (televideniye, bosma va internet nashrlari) hamda Universitetning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

8. Ochiq tanlov haqidagi e’lonlarda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

1) arizalarni qabul qilish muddati va tartibi;

2) nomzodlarga qo‘yiladigan talablar;

3) Dastur doirasida o‘qishga qabul qilish kvotasining soni;

4) Universitetning aloqa telefon nomerlari va elektron pochta manzillari.

9. Nomzodlar Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan muddatlarda bevosita Universitetning elektron platformasidan (bundan buyon matnda elektron

platforma deb yuritiladi) roʻyxatdan oʻtgan holda shaxsiy kabinetlari orqali ariza bilan murojaat qiladilar.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

maʼlumotnoma-obyektivka;

ingliz tilini bilish sertifikati (agar mavjud boʻlsa).

Taqdim etilgan hujjatlardagi maʼlumotlarning haqqoniyligiga nomzodlar masʼul hisoblanadi.

10. Nomzodlar tomonidan taqdim etilgan arizalar va ularga ilova qilingan hujjatlar Texnik guruh tomonidan ular taqdim etilgan kundan boshlab 3 ish kuni ichida oʻrganib chiqiladi.

Bunda nomzodlarning arizalariga ilova qilingan hujjatlardagi maʼlumotlarning haqiqiyligi Texnik guruh tomonidan mavjud imkoniyatlar va vakolatli davlat organlariga soʻrovlar yuborish orqali tekshirilishi mumkin.

11. Nomzodlarning arizalari va unga ilova qilingan hujjatlar Texnik guruh tomonidan oʻrganib chiqilganidan soʻng, uning natijasiga koʻra 1 ish kuni ichida nomzodlarga arizalari qabul qilinganligi yoki qabul qilish rad etilganligi yoxud arizalar va ularga ilova qilingan hujjatlardagi kamchiliklarni bartaraf etish haqida ularning elektron platformasidagi shaxsiy kabinetlariga xabarnoma yuboriladi.

12. Nomzodlarning arizalari qabul qilinganligi toʻgʻrisidagi xabarnomada test sinovlarining sanalari, joylari va nomzodlarning shaxsiy maʼlumotlari aks ettiriladi.

Ushbu xabarnomadan (elektron yoki bosma shaklda) nomzodlar test sinovlariga shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarining (fuqarolik pasporti, identifikatsiyalovchi ID-karta, fuqaroning xorijga chiqish biometrik pasporti yoki haydovchilik guvohnomasi) asl nusxasi yoki uning Oʻzbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va (yoki) “Ijtimoiy karta” mobil ilovasi orqali beriladigan elektron shakli bilan birga kirish uchun ruxsatnoma sifatida foydalanadi.

13. Nomzodlarning arizalari va ularga ilova qilingan hujjatlarda kamchiliklar aniqlangan taqdirda, ushbu kamchiliklar koʻrsatilgan xabarnoma yuborilgan kundan boshlab nomzodlar tomonidan 2 ish kuni ichida bartaraf etilishi lozim.

Kamchiliklar bartaraf etilgandan soʻng, arizalar va unga ilova qilingan hujjatlar Texnik guruh tomonidan takroran 3 ish kuni ichida oʻrganib chiqiladi.

Agar Texnik guruh tomonidan takroran nomzodlarning arizalari va unga ilova qilingan hujjatlari oʻrganilishi natijasida ulardagi kamchiliklar bartaraf etilmaganligi aniqlansa, ushbu Nizomning 14-bandiga muvofiq nomzodlarning arizalarini qabul qilish rad etiladi.

QMMB: 10/26/3897/0730-son
14.07.2026-y.

14. Nomzodlarning arizalarini qabul qilish quyidagi hollarda rad etiladi:

nomzodlar mazkur Nizomning 2 va 3-bandlarida nazarda tutilgan talablarga javob bermagan taqdirda;

nomzodlar tomonidan ariza va unga ilova qilingan hujjatlardagi kamchiliklar ushbu Nizomning 13-bandida keltirilgan muddatlarda to‘liq bartaraf etilmagan taqdirda;

nomzodlarning arizalariga ilova qilingan hujjatlarda noto‘g‘ri yoki yolg‘on ma’lumotlar aniqlangan taqdirda;

nomzodlar o‘z arizalarini qaytarib olish to‘g‘risida murojaat etgan taqdirda.

3-bob. Nomzodlarni test sinovlaridan o‘tkazish

15. Nomzodlarni Dastur doirasida o‘qishga qabul qilish o‘quv-akademik boshqaruv, moliya-iqtisodiyot, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar, ma’naviyat va ma’rifat hamda sun’iy intellekt va axborot texnologiyalari yo‘nalishlaridan, shuningdek ingliz tilini bilish darajasini belgilovchi kamida B2 va unga tenglashtirilgan darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikat bo‘lmagan taqdirda yoki ushbu sertifikat mavjud bo‘lib, uning amal qilish muddati o‘tgan taqdirda, ingliz tilidan test shaklida amalga oshiriladi.

Bunda baholash mezonlari quyidagicha belgilanadi:

yo‘nalishlar bo‘yicha 40 ta test uchun – 80 ball (har bir to‘g‘ri javob uchun 2 ball);

ingliz tili bo‘yicha 20 ta test uchun – 20 ball (har bir to‘g‘ri javob uchun 1 ball).

Ingliz tilini bilish darajasini belgilovchi kamida B2 va unga tenglashtirilgan darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikati mavjud bo‘lgan nomzodlarga ingliz tili bo‘yicha eng ko‘p (maksimal) 20 ball beriladi.

Test sinovlarida eng ko‘p (maksimal) to‘planishi mumkin bo‘lgan ball 100 ballni tashkil etadi. Test sinovlarida 55 va undan past ballni to‘plagan nomzodlar keyingi bosqichga (psixologik o‘rganishga) o‘tkazilmaydi va testdan o‘tmagan hamda Dastur doirasida o‘qishga qabul qilinmagan hisoblanadi.

16. Test sinovlarini tashkil etish va o‘tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

test topshiriqlari Universitet binosida maxfiylik ta’minlangan holda Qabul komissiyasi tomonidan tegishli soha mutaxassislari ishtirokida shakllantiriladi. Bunda test topshiriqlarida har bir savol uchun to‘rtta javob varianti keltirilib, ulardan faqat bittasi to‘g‘ri bo‘ladi;

QMMB: 10/26/3897/0730-son
14.07.2026-y.

test sinovlarining topshiriqlari shakllantiriladigan mavzular ro‘yxati test sinovlari o‘tkazilishidan kamida 5 ish kuni oldin elektron platformada e’lon qilinadi;

test sinovlaridagi topshiriqlarni bajarish uchun nomzodlarga 120 daqiqa vaqt beriladi;

nomzodlar test sinovlariga shaxsini tasdiqlovchi hujjatning (fuqarolik pasporti, identifikatsiyalovchi ID-karta, fuqaroning xorijga chiqish biometrik pasporti yoki haydovchilik guvohnomasi) asl nusxasi yoki uning O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va (yoki) “Ijtimoiy karta” mobil ilovasi orqali beriladigan elektron shakli va ularning arizalari qabul qilinganligi to‘g‘risidagi xabarnoma asosida kiritiladi;

test sinovlari o‘tkaziladigan binoga nomzodlar maxsus tekshiruvdan o‘tkazilgan holda kiritiladi. Bunda jadval, kitob, mobil telefon, kompyuter, kalkulyator, telekommunikatsiya vositalari hamda boshqa yordamchi materiallarni olib kirish, shuningdek, test jarayonida o‘zaro muloqot qilish yoki bir-biriga yordam berish taqiqlanadi. Ushbu talablarni buzgan shaxslar test sinovidan chetlashtiriladi va testdan o‘tmagan deb hisoblanadi.

17. Nomzodlar test sinovlarini topshirish uchun belgilangan vaqt va joyga o‘z shaxsini tasdiqlovchi hujjat va ularning arizalari qabul qilinganligi to‘g‘risidagi xabarnoma bilan kelishi lozim. Belgilangan vaqtdan kech qolgan nomzodlar sinovga kiritilmaydi, sinovda qatnashmagan nomzodlar uchun qo‘shimcha sinov o‘tkazilmaydi.

18. Nomzodlarning test sinovlari davomida auditoriyadan chiqishi taqiqlanadi. Ularning sog‘lig‘i yomonlashishi va boshqa zarur holatlarda sinov materiallarini qoldirib, kuzatuv ostida auditoriyadan chiqishga ruxsat beriladi.

19. Test sinovlarini o‘tkazish tartibini buzgan nomzodlar auditoriya kuzatuvchilari tomonidan dalolatnoma rasmiylashtirgan holda sinovlardan chetlashtiriladi va ularning sinov ishlari baholanmaydi.

20. Test sinovlari natijalari test natijalari taqdim etilgan vaqtdan e’tiboran 2 ish kuni ichida elektron platformada e’lon qilinadi.

21. Test sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlarga test natijalari e’lon qilingan kunning o‘zida ularning elektron platformadagi shaxsiy kabinetlariga psixologik o‘rganishga o‘tganligi to‘g‘risidagi xabarnoma yuboriladi. Bunda mazkur xabarnomada psixologik o‘rganishning sanalari, joylari va nomzodlarning shaxsiy ma’lumotlari aks ettiriladi.

Ushbu xabarnomadan (elektron yoki bosma shaklda) nomzodlar psixologik o‘rganishlarga shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar (fuqarolik pasporti, identifikatsiyalovchi ID-karta, fuqaroning xorijga chiqish biometrik pasporti yoki

QMMB: 10/26/3897/0730-son
14.07.2026-y.

haydovchilik guvohnomasi) bilan birga kirish uchun ruxsatnoma sifatida foydalanadi.

4-bob. Nomzodlarni psixologik oʻrganish

22. Test sinovlarini muvaffaqiyatli topshirgan nomzodlarning psixoemotsional barqarorligini, jumladan boshqaruvda yetuklik, rivojlanishga tayyorlik hamda stressga chidamliligini aniqlash maqsadida psixologik oʻrganish topshiriqlar shaklida amalga oshiriladi.

Bunda psixologik oʻrganishda har bir toʻgʻri javob uchun 0,5 ball beriladigan 200 ta topshiriq uchun 100 ball belgilanadi.

Psixologik oʻrganishda eng koʻp (maksimal) toʻplanishi mumkin boʻlgan ball 100 ballni tashkil etadi. Psixologik oʻrganishda 55 va undan past ballni toʻplagan nomzodlar keyingi bosqichga (suhbatga) oʻtkazilmaydi va psixologik oʻrganishdan oʻtmagan hamda Dastur doirasida oʻqishga qabul qilinmagan hisoblanadi.

23. Psixologik oʻrganishni tashkil etish va oʻtkazishda quyidagi tartiblar eʼtiborga olinadi:

psixologik oʻrganish topshiriqlari maxfiylik taʼminlangan holda Qabul komissiyasi tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi huzuridagi Rahbar kadrlarni baholash markazini yoki boshqa psixologik baholash oʻtkazuvchi tashkilotlarni shartnoma asosida jalb etgan holda yoxud tegishli soha mutaxassislari ishtirokida shakllantiriladi;

psixologik oʻrganish topshiriqlarini bajarish uchun nomzodlarga 150 daqiqa vaqt beriladi;

nomzodlar psixologik oʻrganishga shaxsini tasdiqlovchi hujjatning (fuqarolik pasporti, identifikatsiyalovchi ID-karta, fuqaroning xorijga chiqish biometrik pasporti yoki haydovchilik guvohnomasi) asl nusxasi yoki uning Oʻzbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va (yoki) “Ijtimoiy karta” mobil ilovasi orqali beriladigan elektron shakli va ularning psixologik oʻrganishga oʻtganligi toʻgʻrisidagi xabarnoma asosida kiritiladi;

psixologik oʻrganishlar oʻtkaziladigan binoga nomzodlar maxsus tekshiruvdan oʻtkazilgan holda kiritiladi. Bunda jadval, kitob, mobil telefon, kompyuter, kalkulyator, telekommunikatsiya vositalari hamda boshqa yordamchi materiallarni olib kirish, shuningdek, psixologik oʻrganish jarayonida oʻzaro muloqot qilish yoki bir-biriga yordam berish taqiqlanadi. Ushbu talablarni buzgan shaxslar psixologik oʻrganishdan chetlashtiriladi va psixologik oʻrganishdan oʻtmagan deb hisoblanadi.

QMMB: 10/26/3897/0730-son
14.07.2026-y.

24. Nomzodlar psixologik o‘rganish uchun belgilangan vaqt va joyga o‘z shaxsini tasdiqlovchi hujjat va ularning psixologik o‘rganishga o‘tganligi to‘g‘risidagi xabarnoma bilan kelishi lozim. Belgilangan vaqtdan kech qolgan nomzodlar psixologik o‘rganishga kiritilmaydi, psixologik o‘rganishda qatnashmagan nomzodlar uchun qo‘shimcha psixologik o‘rganish o‘tkazilmaydi.

25. Nomzodlarning psixologik o‘rganish davomida auditoriyadan chiqishi taqiqlanadi. Ularning sog‘lig‘i yomonlashishi va boshqa zarur holatlarda psixologik o‘rganish materiallarini qoldirib, kuzatuv ostida auditoriyadan chiqishga ruxsat beriladi.

26. Psixologik o‘rganishni o‘tkazish tartibini buzgan nomzodlar auditoriya kuzatuvchilari tomonidan dalolatnoma rasmiylashtirgan holda psixologik o‘rganishdan chetlashtiriladi va ularning sinov ishlari baholanmaydi.

27. Psixologik o‘rganish natijalari psixologik o‘rganish topshiriqlari natijalari taqdim etilgan vaqtdan e’tiboran 2 ish kuni ichida elektron platformada e’lon qilinadi.

28. Psixologik o‘rganishdan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlarga psixologik o‘rganish natijalari e’lon qilingan kunning o‘zida ularning elektron platformadagi shaxsiy kabinetlariga suhbat bosqichiga o‘tganligi to‘g‘risidagi xabarnoma yuboriladi. Bunda mazkur xabarnomada suhbatdan o‘tishning sanalari, joylari va nomzodlarning shaxsiy ma’lumotlari aks ettiriladi.

Ushbu xabarnomadan (elektron yoki bosma shaklda) nomzodlar suhbatdan o‘tishga shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar (fuqarolik pasporti, identifikatsiyalovchi ID-karta, fuqaroning xorijga chiqish biometrik pasporti yoki haydovchilik guvohnomasi) bilan birga kirish uchun ruxsatnoma sifatida foydalanadi.

5-bob. Nomzodlarni suhbatdan o‘tkazish

29. Psixologik o‘rganishdan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar bilan suhbat Qabul komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi.

Bunda nomzodlar suhbatga ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatining (fuqarolik pasporti, identifikatsiyalovchi ID-karta, fuqaroning xorijga chiqish biometrik pasporti yoki haydovchilik guvohnomasi) asl nusxasi yoki uning O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va (yoki) “Ijtimoiy karta” mobil ilovasi orqali beriladigan elektron shakli va suhbatga o‘tganligi to‘g‘risidagi xabarnoma asosida kiritiladi.

30. Qabul komissiyasi a’zolarining yarmidan ko‘pi ishtirok etgan taqdirda nomzodlarni suhbatdan o‘tkazish amalga oshiriladi.

QMMB: 10/26/3897/0730-son
14.07.2026-y.

Qabul komissiyasi aʼzosi suhbatdan oʻtayotgan nomzodning yaqin qarindoshi boʻlsa yoki suhbat natijasidan bevosita manfaatdor boʻlsa yoxud uning xolisligiga shubha tugʻdiruvchi boshqa holatlar mavjud boʻlsa, aʼzo oʻzini oʻzi rad etishi shart. Mazkur tartibga rioya qilmaslik suhbat natijalarini bekor qilishga asos boʻladi.

Qabul komissiyasi suhbatda nomzodlarni baholash uchun tegishli soha mutaxassislarini jalb qilish huquqiga ega.

31. Suhbat davomida nomzodlarning strategik va tizimli fikrlashi, kommunikativ koʻnikmalari, liderlik salohiyati va oʻzgarishlarni boshqarish qobiliyati, qaror qabul qilishda halolligi, kasbiy bilimlari, shuningdek Dastur doirasida oʻqishga tayyorlik va motivatsiyasi baholanadi.

32. Suhbat jarayoni shaffof hamda adolatli oʻtkaziladi. Suhbat jarayonlari videotasvirga yozib olinadi.

33. Suhbat natijalari 100 ballik tizimda baholanadi. Suhbatdan oʻtishda 60 va undan past ballni toʻplagan nomzodlar suhbatdan oʻtmagan va Dastur doirasida oʻqishga qabul qilinmagan hisoblanadi.

Suhbat Qabul komissiyasi tomonidan yakka tartibda, har bir nomzod bilan alohida oʻtkaziladi hamda uning davomiyligi koʻpi bilan 30 daqiqani tashkil etadi. Nomzodning bilim va kompetensiyalari quyidagi koʻnikmalar asosida baholanadi:

strategik va tizimli fikrlashi – 20 ball;

kommunikativ koʻnikmalari – 20 ball;

liderlik salohiyati va oʻzgarishlarni boshqarish qobiliyati – 15 ball;

qaror qabul qilishda halolligi – 15 ball;

kasbiy bilimlari – 15 ball;

Dastur doirasida oʻqishga tayyorlik va motivatsiyasi – 15 ball.

34. Suhbatda har bir nomzodga ushbu Nizomning 33-bandida keltirilgan koʻnikmalar boʻyicha oltita savol (topshiriq) tasodifiy tanlash orqali beriladi.

Asosiy savoldan soʻng berilgan javoblarni aniqlashtirish maqsadida koʻpi bilan uchtagacha qoʻshimcha savol berish mumkin.

35. Suhbat natijalari Qabul komissiyasining har bir aʼzosi tomonidan boshqa aʼzolardan mustaqil ravishda baholash varaqasida baholanadi. Bunda Qabul komissiyasining har bir aʼzosi nomzodni quyidagi mezonlarga asosan baholaydi:

1) strategik va tizimli fikrlash boʻyicha:

muammoni kompleks va tizimli ravishda sifatli tahlil qilishi, qisqa va uzoq muddatli oqibatlarni toʻliq baholay olishi, muqobil yechimlarni toʻliq taqqoslay

olishi, qarorlarining strategik asoslarini aniq va to‘liq tushuntirishi hamda oliy ta’lim tashkiloti rivojlanishiga oid misollar keltira olishi – 20 ball;

muammoni kompleks va tizimli ravishda tahlil qilishi, qisqa va uzoq muddatli oqibatlarni qisman baholay olishi, muqobil yechimlarni qisman taqqoslay olishi, qarorlarining strategik asoslarini aniq va qisman tushuntirishi hamda oliy ta’lim tashkiloti rivojlanishiga oid misollar keltira olishi – 15 ball;

muammoni sifatsiz tahlil qilishi, qisqa va uzoq muddatli oqibatlarni qisman baholay olishi, muqobil yechimlarni qisman taqqoslay olishi, qarorlarining strategik asoslarini qisman tushuntirishi hamda oliy ta’lim tashkiloti rivojlanishiga oid misollar keltira olmasligi – 10 ball;

muammoni kompleks va tizimli ravishda sifatsiz tahlil qilishi, qisqa va uzoq muddatli oqibatlarni baholay olmasligi, muqobil yechimlarni taqqoslay olmasligi, qarorlarining strategik asoslarini qisman tushuntirishi hamda oliy ta’lim tashkiloti rivojlanishiga oid misollar keltira olmasligi – 5 ball;

savollarga umuman javob bera olmasligi – 0 ball;

2) kommunikativ ko‘nikmalar bo‘yicha:

fikrini ravon, aniq va mantiqiy ravishda sifatli bayon qilishi, savollarga to‘liq va ishonch bilan javob berishi, tinglash madaniyati yuqoriligi, murakkab fikrlarni sodda tushuntira olishi, nutq madaniyati va etikaga to‘liq rioya qila olishi – 20 ball;

fikrini ravon, aniq va mantiqiy ravishda bayon qilishi, savollarga ishonch bilan javob berishi, tinglash madaniyati yuqoriligi, murakkab fikrlarni sodda tushuntira olishi, nutq madaniyati va etikaga rioya qila olishi – 15 ball;

fikrini sifatsiz bayon qilishi, savollarga qisman javob berishi, tinglash madaniyati o‘rtaligi, murakkab fikrlarni sodda tushuntira olishi, nutq madaniyati va etikaga rioya qila olishi – 10 ball;

fikrini sifatsiz bayon qilishi, savollarga qisman javob berishi, tinglash madaniyati o‘rtaligi, murakkab fikrlarni sodda tushuntira olmasligi, nutq madaniyati va etikaga to‘liq rioya qilmasligi – 5 ball;

savollarga umuman javob bera olmasligi – 0 ball;

3) liderlik salohiyati va o‘zgarishlarni boshqarish qobiliyati bo‘yicha:

jamoani boshqarish tajribasini aniq misollar bilan sifatli bayon qila olishi, o‘zgarishlarni rejalashtira olishi, qarshiliklarni boshqarish usullarini tushuntirishi, natijaga yo‘naltirilgan yondashuvni namoyon eta olishi – 15 ball;

jamoani boshqarish tajribasini misollar bilan sifatsiz bayon qilishi, o‘zgarishlarni rejalashtira olishi, qarshiliklarni boshqarish usullarini tushuntirishi, natijaga yo‘naltirilgan yondashuvni namoyon eta olishi – 10 ball;

QMMB: 10/26/3897/0730-son
14.07.2026-y.

jamoani boshqarish tajribasini sifatsiz bayon qilishi, o‘zgarishlarni rejalashtira olmasligi, qarshiliklarni boshqarish usullarini tushuntirishi, natijaga yo‘naltirilgan yondashuvni namoyon eta olishi – 5 ball;

savollarga umuman javob bera olmasligi – 0 ball;

4) qaror qabul qilishda halolligi bo‘yicha:

manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda to‘g‘ri yo‘l tutishini sifatli asoslay olishi, shaffoflik va javobgarlik tamoyillarini yaxshi tushunishi, hayotiy vaziyatlarda halol qaror qabul qilish misollarini keltira olishi – 15 ball;

manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda to‘g‘ri yo‘l tutishini asoslay olishi, shaffoflik va javobgarlik tamoyillarini tushunishi, hayotiy vaziyatlarda halol qaror qabul qilish misollarini keltira olishi – 10 ball;

manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda to‘g‘ri yo‘l tutishini asoslay olmasligi, shaffoflik va javobgarlik tamoyillarini tushunmasligi, hayotiy vaziyatlarda halol qaror qabul qilish misollarini keltira olmasligi – 5 ball;

savollarga umuman javob bera olmasligi – 0 ball;

5) kasbiy bilimlari bo‘yicha:

lavozim va mutaxassisligi bo‘yicha chuqur bilimga egaligi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va zamonaviy yondashuvlarni sifatli bilishi, bilimlarini amaliy misollar bilan to‘liq asoslay olishi – 15 ball;

lavozim va mutaxassisligi bo‘yicha chuqur bilimga egaligi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va zamonaviy yondashuvlarni bilishi, bilimlarini amaliy misollar bilan qisman asoslay olishi – 10 ball;

lavozim va mutaxassisligi bo‘yicha bilimga egaligi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va zamonaviy yondashuvlarni bilmasligi, bilimlarini amaliy misollar bilan asoslay olmasligi – 5 ball;

savollarga umuman javob bera olmasligi – 0 ball.

36. Nomzodning suhbat bo‘yicha yakuniy bali Qabul komissiyasining a’zolar qo‘ygan umumiy ballardan kelib chiqib quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$S = (B_1 + B_2 + \ldots + B_5) / n$

Bunda:

S – nomzodning suhbat bo‘yicha yakuniy bali;

B_1, B_2 ..., B_5 – nomzodga Qabul komissiyasi a’zolari tomonidan qo‘yilgan ballar;

QMMB: 10/26/3897/0730-son
14.07.2026-y.

n – suhbatda ishtirok etgan Qabul komissiyasi a’zolarining soni.

37. Suhbat natijalari suhbatdan o‘tkazish yakunlangan vaqtdan e’tiboran 2 ish kuni ichida elektron platformada e’lon qilinadi.

6-bob. Baholash natijalarini shakllantirish va e’lon qilish

38. Yakuniy natija nomzodlarni suhbatdan o‘tkazish yakunlanganidan so‘ng, 10 ish kunida Qabul komissiyasi tomonidan nomzodlarning test sinovi, psixologik o‘rganish va suhbat natijalari bo‘yicha to‘plagan ballari asosida shakllantiriladi.

39. Nomzodlarning yakuniy bali 100 ballik baholash tizimi asosida quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

YB = (TS × 0,30) + (PO‘ × 0,20) + (S × 0,50)

Bunda:

YB – nomzodning yakuniy bali;

TS – test sinovi natijasida olingan ball;

PO‘ – psixologik o‘rganish natijasida olingan ball;

S – suhbat natijasida olingan ball.

40. Nomzodlar to‘plagan yakuniy ballar reyting asosida saralanadi va qabul kvotasi doirasida Qabul komissiyasi tomonidan Dastur doirasida o‘qishga tavsiya etiladi.

Bunda nomzodlarning yakuniy ballar reytingi yakuniy natijalar shakllantirilgan kundan e’tiboran 2 ish kuni ichida elektron platformada e’lon qilinadi.

Yakuniy ballar reytingida har bir nomzodning yakuniy bali hamda reytingdagi o‘rni ko‘rsatiladi.

41. Nomzodlar tomonidan teng yakuniy ball to‘plangan taqdirda, ularga quyidagi ketma-ketlikda ustunlik beriladi:

1) test sinovi natijasi bo‘yicha;

2) psixologik o‘rganish natijasi bo‘yicha;

3) rahbarlik lavozimlaridagi ish tajribasi bo‘yicha.

42. Dastur doirasida o‘qishga tavsiya etilgan nomzod o‘qishdan voz kechgan taqdirda, uning o‘rniga qabul kvotasiga kirmagan nomzodlar orasidan yakuniy ballar bo‘yicha eng yuqori ball to‘plagan nomzod o‘qishga tavsiya etiladi.

Bunda nomzod Dastur doirasida o‘qishga tavsiya etilganligi to‘g‘risida xabardor qilingan kundan e’tiboran 2 ish kuni ichida o‘qishga roziligini tasdiqlashi shart.

Belgilangan muddatda roziligi tasdiqlanmagan yoki nomzod Dastur doirasida o‘qishdan voz kechgan taqdirda, u o‘qishga tavsiya etilganlar ro‘yxatidan chiqariladi hamda uning o‘rniga yakuniy ballar bo‘yicha eng yuqori ball to‘plagan qabul kvotasiga kirmagan nomzod Dastur doirasida o‘qishga tavsiya etiladi.

Mazkur tartib qabul kvotasi to‘ldirilgunga qadar yoki qabul kvotasiga kirmagan nomzodlar tugaguniga qadar ketma-ket qo‘llaniladi.

43. Qabul komissiyasi tavsiyasi bo‘yicha Universitet rektorining buyrug‘i asosida nomzodlar Dastur doirasida o‘qishga qabul qilinadi.

7-bob. Nomzodlarning shikoyatlarini koʻrib chiqish

44. Test sinovlari, psixologik oʻrganish va suhbat natijalari boʻyicha nomzodlarning shikoyatlari, ularning natijalari elektron platformada eʼlon qilingan kundan va xabardor qilingan kundan boshlab 5 ish kuni ichida Universitetga yozma yoki elektron shaklda taqdim etiladi.

45. Universitet rektorining buyrugʻi bilan kamida 5 kishidan iborat apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

Apellyatsiya komissiyasining tarkibi Texnik guruh va Qabul komissiyasi ishida ishtirok etmagan shaxslardan tuziladi.

46. Apellyatsiya komissiyasi shikoyat qilingan kundan boshlab bir ish kuni ichida nomzodni shikoyatini koʻrib chiqish kuni haqida xabardor qiladi. Bunda, nomzod apellyatsiya komissiya tomonidan shikoyatni koʻrib chiqishda ishtirok etishga haqli.

47. Apellyatsiya komissiyasi shikoyatni u berilgan kundan boshlab 2 ish kuni ichida koʻrib chiqadi va qaror qabul qilingan kuni nomzodni shikoyat qanoatlantirilgan yoki rad etilganligini koʻrsatgan holda, yozma yoki elektron ravishda yoxud nomzodning elektron platformadagi shaxsiy kabineti orqali xabardor qiladi.

Bunda Apellyatsiya komissiyasi shikoyatni koʻrib chiqish natijalariga koʻra quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

shikoyatni asoslangan deb hisoblash hamda uni qanoatlantirish;

shikoyatni asossiz deb hisoblash hamda uni qanoatlantirishni rad etish.

48. Dastur doirasida o‘qishga qabul qilish tartibidan norozi bo‘lgan nomzodlar qonunchilikda belgilangan tartibda yuqori turuvchi organga yoki sudga

QMMB: 10/26/3897/0730-son
14.07.2026-y.

shikoyat qilishga haqli.

8-bob. Yakuniy qoida

49. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

28 (1256)-son
732-modda

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3898
2026 - yil 13 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTIQBOLLI LOYIHALAR MILLIY AGENTLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURASI HUZURIDAGI
IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH DEPARTAMENTINING
QARORI

Sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) va sugʻurta vositachilari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha ichki nazorat qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida

Oʻzbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi va “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi qonunlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentabrdagi PQ–291-son “Kapital bozorini rivojlantirishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi va 2024-yil 1-martdagi PQ–108-son “Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qaror qiladi:

1. Sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) va sugʻurta vositachilari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha ichki nazorat qoidalari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar 2-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

Direktor 2026-yil 3-iyun 3-son		LI DMITRIY ROMANOVICH
Bosh prokurorning o'rinbosari- Departament boshlig'i 2026-yil 1-iyun 25-son		XATAMOV JAXONGIR JURAYEVICH

O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining 2026-yil 3-iyundagi 3-son va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining 2026-yil 1-iyundagi 25-son qaroriga 1-ILOVA

Sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) va sug‘urta vositachilari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat QOIDALARI

Mazkur Qoidalar sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) va sug‘urta vositachilari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazoratni tashkil etish va amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Mazkur Qoidalar talablari sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) va sug‘urta vositachilariga tatbiq qilinadi. Bunda sug‘urta agentlariga nisbatan mazkur Qoidalarda sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar)ning xodimlari uchun belgilangan talablar qo‘llaniladi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Qoidalar maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

benefitsiar mulkdor – mijozga nisbatan pirovard nazoratni amalga oshiruvchi yoki uning mulkiga bevosita yoxud bilvosita egalik qiluvchi jismoniy shaxs(lar), shuningdek u(lar)ning manfaatlari yo‘lida pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiya amalga oshirilayotgan jismoniy shaxs;

ichki nazorat – sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) va sug‘urta vositachilarining mijozni lozim darajada tekshirish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni boshqarish, shubhali operatsiyalarni aniqlash hamda terrorchilik faoliyatida, terrorizmni moliyalashtirishda yoki ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishda ishtirok etuvchi yoxud ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar bilan bog‘liq operatsiyalarni aniqlashga doir faoliyati;

ichki qoidalar – sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) va sug‘urta vositachilari, shu jumladan, ularning filiallarida ichki nazoratni tashkil etish va amalga oshirish tartibini belgilab beruvchi ichki hujjatdir;

ichki nazorat tizimi – mazkur Qoidalar va ichki hujjatlar bilan belgilangan maqsadlarga erishish va vazifalarni bajarishga qaratilgan mas’ul shaxs hamda sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) va sug‘urta vositachilarining xatti-harakatlari yig‘indisi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etmaydigan davlatlar – Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha moliyaviy choralar ishlab chiquvchi guruhning rasmiy bayonotlarida xalqaro moliyaviy tizimga xavf tug‘diruvchi hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish tizimlarida strategik kamchiliklari mavjud deb belgilangan davlatlar va hududlar;

mijozni identifikatsiyalash – mijozni lozim darajada tekshirish maqsadida mijoz to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ular tomonidan taqdim etilgan hujjatlar, ochiq manbalar va ma’lumotlar bazalarida mavjud bo‘lgan qo‘shimcha tasdiqlangan ma’lumotlar asosida aniqlash;

mijozning benefitsiar mulkdorini identifikatsiyalash – qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan ta’sis hujjatlari (ustav va (yoki) ta’sis shartnomasi, nizom) asosida mulk va boshqaruv tuzilmasini o‘rganish orqali mijozning mulkdori yoki uni nazorat qiluvchi yuridik shaxsni aniqlash;

yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmasi – chet davlatning qonunchilik hujjatlariga muvofiq yuridik shaxs tashkil etmagan holda tashkil etilgan va o‘z ishtirokchilarining (paychilarning, ishonch bildiruvchilarning yoki boshqa shaxslarning) yoxud boshqa benefitsiarlarning manfaatlarini ko‘zlab daromad (foyda) olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan tashkiliy tuzilmadir (fondlar, sherikliklar, shirkatlar, trastlar, jamoaviy investitsiyalar va (yoki) ishonchli boshqaruvning boshqa shakllari);

mijoz – pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyani amalga oshirish bo‘yicha sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) yoki sug‘urta vositachisining xizmatidan foydalanayotgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

yuqori mansabdor shaxslar – chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma’muriy yoki sud organida, shu jumladan harbiy tuzilmalarida yoxud xalqaro tashkilotda doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo‘yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, tashkiliy-boshqaruv vazifalarini bajaruvchi va yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlarni sodir etishga vakolatli shaxslar, shuningdek chet davlat

korxonalarining yuqori martabali rahbarlari, chet davlatning taniqli siyosatchilari va siyosiy partiyalarining taniqli aʼzolari (shu jumladan sobiq);

yuqori mansabdor shaxslarga yaqin boʻlgan shaxslar – yuqori mansabdor shaxslar bilan ijtimoiy va kasbiy jihatdan chambarchas bogʻliq boʻlgan shaxslar;

terrorchilik faoliyatida ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxs – terrorchilik faoliyatida ishtirok etayotgan yoxud ishtirok etishda gumon qilinayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs, terrorchilik faoliyatini amalga oshirayotgan yoxud amalga oshirishda gumon qilinayotgan tashkilotning bevosita yoki bilvosita mulkdori boʻlgan yoxud uni nazorat qilayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs, shuningdek terrorchilik faoliyatini amalga oshirayotgan yoki amalga oshirishda gumon qilinayotgan jismoniy shaxsning yoxud tashkilotning mulkidagi yoki nazorati ostidagi yuridik shaxs;

ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxs – Oʻzbekiston Respublikasi tomonidan tan olingan, ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishning oldini olishga qaratilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining tegishli rezolyutsiyalari hamda boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan jismoniy yoki yuridik shaxs;

mijozni lozim darajada tekshirish – mijozni va u qaysi shaxslar nomidan ish koʻrayotganini tekshirish, mijozning benefitsiar mulkdorini identifikatsiyalash, shuningdek mijoz tomonidan amalga oshiriladigan amaliy ish munosabatlari va operatsiyalarni, ularning bunday mijoz va uning faoliyati toʻgʻrisidagi maʼlumotlarga muvofiqligini tekshirish maqsadida doimiy asosda oʻrganishlarni oʻtkazish;

tashkilot – qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sugʻurtalovchi (qayta sugʻurtalovchi) yoki sugʻurta vositachisi faoliyatini amalga oshiruvchi shaxs;

xabar qilinishi lozim boʻlgan operatsiyalar – ichki nazoratni oʻtkazish davomida tashkilot tomonidan shubhali deb topilgan sodir etilayotgan va tayyorlanayotgan pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulk bilan bogʻliq operatsiyalar;

offshor hudud – imtiyozli soliq rejimini taqdim qiluvchi va (yoki) moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ular haqidagi maʼlumotlarni oshkor etmaslikni va taqdim qilmaslikni koʻzda tutuvchi davlatlar va hududlar;

Roʻyxat – terrorizmga, ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi davlat organlari va Oʻzbekiston Respublikasining boshqa vakolatli organlaridan taqdim etilayotgan maʼlumotlar, shuningdek chet davlatlarning vakolatli organlari va xalqaro tashkilotlaridan rasmiy kanallar orqali taqdim etilayotgan maʼlumotlar asosida maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tuzilgan

terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar roʻyxati;

shubhali operatsiya – pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulk bilan bogʻliq, tayyorlash, sodir etish jarayonida boʻlgan yoki sodir etib boʻlingan, mazkur Qoidalarni amalga oshirishda tashkilotda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va (yoki) ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilganligi toʻgʻrisida shubha paydo boʻlgan operatsiya;

operatsiyalarni toʻxtatib turish – mijozning pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulkini koʻchirish, konversiyalash, oʻzga shaxslarga egalik qilish va foydalanish uchun berish, shuningdek yuridik ahamiyatga ega boʻlgan boshqa harakatlarni bajarish toʻgʻrisidagi topshiriqnomalari ijrosini toʻxtatib turish;

pul mablagʻlarini yoki boshqa mol-mulkni ishga solmay toʻxtatib qoʻyish – pul mablagʻlarini yoki boshqa mol-mulkni oʻtkazishni, konversiyalashni, tasarruf etishni yoxud koʻchirishni taqiqlash;

tavakkalchilik – mijozlar tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida operatsiyalarni amalga oshirish tavakkalchiligi;

maxsus vakolatli davlat organi – Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti;

uchinchi tomon – Oʻzbekiston Respublikasi yoki xorijiy davlatning vakolatli davlat organlari tomonidan taqdim etilgan shaxsga doir maʼlumotlarning haqiqiyligini tasdiqlash boʻyicha xizmatlar koʻrsatuvchi tashkilotlar;

operatsiya ishtirokchilari – mijozlar (shu jumladan, taʼsischilar, aksiyadorlar va boshqa ishtirokchilar) va ularning vakillari hamda mijozning operatsiyada ishtirok etuvchi hamkorlari.

2. Ichki nazoratning maqsadlari quyidagilardan iborat:

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga yoʻnaltirilgan pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulk bilan bogʻliq operatsiyalarni samarali aniqlash va oldini olish;

tashkilotning qasddan yoki qasddan boʻlmagan jinoiy faoliyatga jalb qilinishiga yoʻl qoʻymaslik;

tashkilot faoliyatida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirish tavakkalchiliklarini aniqlash, baholash, hujjatlar bilan qayd etish va kamaytirish;

tashkilot tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash.

3. Ichki nazoratning vazifalari (sug‘urtalovchi sug‘urta agenti ishtirokida yoki uning ishtirokisiz sug‘urta shartnomalari tuzishidan qat’i nazar) quyidagilardan iborat:

o‘z tavakkalchiliklarini aniqlash, baholash, hujjatlar bilan qayd etish va kamaytirish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘rish;

qonunchilik hujjatlari, mazkur Qoidalar va tashkilotning ichki qoidalariga muvofiq mijozlarni lozim darajada tekshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

benefitsiar mulkdorlarni identifikatsiyalash, ularning shaxsini o‘rganish bo‘yicha mumkin bo‘lgan choralarni ko‘rish va operatsiyalarni amalga oshirishda foydalaniladigan pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulklarning manbasini aniqlash;

mazkur Qoidalar va ichki qoidalarda belgilangan tartibda shubhali operatsiyalarni aniqlash;

ichki nazoratni amalga oshirish davomida aniqlangan va xabar qilinishi lozim bo‘lgan shubhali operatsiyalar haqidagi axborotlarni (hujjatlarni) maxsus vakolatli davlat organiga o‘z vaqtida taqdim etish;

yuqori mansabdor shaxslar, ularning oila a’zolari va yuqori mansabdor shaxslarga yaqin bo‘lgan shaxslarning amalga oshirayotgan operatsiyalarini chuqur monitoring qilish;

Ro‘yxat bilan solishtirish orqali operatsiya ishtirokchilari orasida terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslarni aniqlash;

maxsus vakolatli davlat organining qo‘shimcha ma’lumotlarni taqdim etish to‘g‘risidagi so‘rovlarini hamda mijozlarning pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarini to‘xtatib turish haqidagi ko‘rsatmalarini o‘z vaqtida bajarish;

Ro‘yxatga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini to‘xtatib turish va (yoki) pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to‘xtatib qo‘yish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash;

operatsiyalar to‘g‘risidagi axborotni, shuningdek, identifikatsiyalash ma’lumotlarini va mijozlarni lozim darajada tekshirishga doir materiallarning

qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlar mobaynida saqlanishini ta’minlash;

tashkilot rahbariyatini tegishli qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ishonchli axborot va materiallar bilan tezkor va muntazam ta’minlab borish;

operatsiyalarning anonimligini oshiruvchi yangi texnologiyalar yordamida qonunga xilof ish qilish, xususan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va (yoki) ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish uchun tashkilot xizmatlaridan foydalanish tahdidining oldini olishga qaratilgan zarur bo‘lgan tadbirlarni qo‘llash;

shubhali operatsiyalarni amalga oshirish yoki amalga oshirishga urinishlar, shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan operatsiya ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish, shuningdek, qonunchilik hujjatlariga muvofiq bunday axborotni davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro almashib borish;

so‘rovlar bo‘yicha mijozlar bazasidan Ro‘yxat bilan solishtirish orqali terrorchilik faoliyatini moliyalashtirishga va (yoki) ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga aloqador shaxslarni aniqlash.

2-bob. Ichki nazorat tizimini tashkil etish

4. Ichki nazorat tizimi tashkilotning faoliyat ko‘rsatish xususiyatlari, faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, mijozlar va ularning operatsiyalari bilan bog‘liq mijozlar bazasi va tavakkalchilik xavfi darajasini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bunda ichki nazorat tizimi tashkilotning O‘zbekiston Respublikasi hududida hamda uning tashqarisida joylashgan alohida bo‘linmalarining (shu’ba, vakolatxona, filial, bo‘lim va boshqalar) jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini nazarda tutishi lozim.

5. Ichki nazorat tizimini tashkil etish maqsadida tashkilot rahbarining buyrug‘i bilan rahbarning o‘rinbosarlari orasidan mazkur Qoidalarga rioya etilishiga mas’ul bo‘lgan shaxs (bundan buyon matnda mas’ul shaxs deb yuritiladi) tayinlanadi.

Mas’ul shaxs bevosita tashkilot rahbariga hisobdordir va tashkilotning boshqa tarkibiy bo‘linmalaridan mustaqil faoliyat yuritadi, shuningdek, lavozimlarni qo‘shib olib borishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

6. Tashkilot har yili 10-yanvarga qadar mazkur Qoidalarning 1-ilovasiga muvofiq mas’ul shaxs(lar) haqidagi va mazkur Qoidalar talablarining bajarilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) pochta aloqasi vositalari orqali yoki elektron shaklda taqdim etadi.

Mas’ul shaxs o‘zgargan taqdirda tashkilot yangi tayinlangan mas’ul shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlarni u tayinlanganidan keyingi ish kunidan kechiktirmay taqdim etishi shart.

Tashkilot belgilangan tartibda litsenziya olgandan keyin bir oy muddatda mas’ul shaxs tayinlanishini ta’minlashi va Agentlikka mas’ul shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yuqorida belgilangan tartibda yuborishi shart.

Agentlik har yili 20-yanvarga qadar tashkilotlardan olingan mas’ul shaxslarning ro‘yxatlarini maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etadi va ushbu ro‘yxatlardagi o‘zgarishlar to‘g‘risida besh ish kuni mobaynida maxsus vakolatli davlat organini xabardor qilishni ta’minlaydi.

7. Tashkilot:

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi xalqaro talablarni bajarmaydigan yoki yetarli darajada bajarmaydigan davlatlarda joylashgan o‘zining chet eldagi alohida bo‘linmalari tomonidan ushbu sohadagi xalqaro standartlarga rioya qilinishiga e’tibor qaratishi;

o‘zining xorijdagi alohida bo‘linmalaridan mazkur bo‘linmalar joylashgan mamlakat qonunchiligidagi taqiqlar tufayli jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha tegishli tadbirlarni amalga oshirish mumkin bo‘lmagan holatlar to‘g‘risida bosh ofisni xabardor qilishni talab qilishi hamda bu haqida Agentlik va maxsus vakolatli davlat organiga xabar berishi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida texnologik yutuqlardan foydalanishning oldini olishga qaratilgan choralarni ko‘rishi shart.

8. Tashkilotlar mazkur Qoidalar talablaridan kelib chiqib, quyidagilar aks etgan ichki qoidalarni ishlab chiqishlari va tasdiqlashlari lozim:

tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish, kamaytirish va hujjatlashtirishga doir choralarni amalga oshirish tartibi;

mijozlarni va ularning benefitsiar mulkdorlarini lozim darajada tekshirish, shuningdek mijozlar operatsiyalarining muntazam nazoratini amalga oshirish qoidalari;

zarur axborotni rasmiylashtirish va uning maxfiyligini ta’minlash tartibi;

shubhali operatsiyalarni aniqlash tartibi, shuningdek bunday operatsiyalar to‘g‘risidagi xabarlarni tayyorlash va maxsus vakolatli davlat organiga yuborish tartibi;

Ro‘yxatga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini aniqlash hamda ushbu operatsiyalarni kechiktirmasdan va oldindan xabar qilmasdan to‘xtatib turish (yuridik yoki jismoniy shaxsning hisobvarag‘iga tushgan pul mablag‘larini hisobga kiritish bo‘yicha operatsiyalar bundan mustasno) va (yoki) pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to‘xtatib qo‘yish tartibi;

kadrlarni tayinlash, tayyorlash va o‘qitishga, shu jumladan ularning ishchanlik obro‘si va malakasiga qo‘yiladigan talablar;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida texnologik yutuqlardan foydalanishning oldini olishga qaratilgan choralar;

yuqori mansabdor shaxslar, ularning oila a’zolari va yuqori mansabdor shaxslarga yaqin bo‘lgan shaxslar bilan amaliy ish munosabatlarini o‘rnatish hamda ular tomonidan o‘tkaziladigan operatsiyalarni monitoring qilish tartibi;

yuqori tavakkalchilik darajasi toifasiga kiritilgan mijozlarning hisobini yuritish hamda bunday mijozlarning operatsiyalarini monitoring qilish tartibi;

maxsus vakolatli davlat organining qo‘shimcha ma’lumotlarni taqdim etish haqidagi so‘rovlarini va mijozlarning pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarini to‘xtatib turish haqidagi ko‘rsatmasini o‘z vaqtida bajarish bo‘yicha choralar;

mas’ul shaxsning ichki nazorat bo‘yicha sug‘urta agentlari bilan o‘zaro ishlash tartibi;

qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa qoidalar.

9. Tashkilotning nazorati ostida yoki sezilarli ta’siri doirasida bitta yoki bir nechta pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar bo‘lgan taqdirda ichki qoidalar guruhiy yondashuv asosida ishlab chiqilishi va quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va (yoki) ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni boshqarish va mijozlarni lozim darajada tekshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni almashish qoidalari va tartib-taomillari;

komplayens nazorati, audit va (yoki) jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va (yoki) ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish funksiyalarining muvofiqligini guruh darajasida ta’minlash;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va (yoki) ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadlari uchun zarur bo‘lgan hollarda filiallardan va shu’ba korxonalardan ularning mijozlari, hisobvaraqlari va operatsiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olishni ta’minlash;

maxfiylikni va ma’lumotlardan foydalanishni yetarli darajada himoya qilish.

10. Tashkilotlarning ichki qoidalari jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishga oid qonunchilik va mazkur Qoidalar talablariga muvofiq bo‘lishi, shuningdek aniqlangan tavakkalchiliklar va ularni baholash hisobga olingan holda tuzilishi shart. Ichki qoidalar, ularga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar tashkilotning rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

11. Tashkilotlarning chet eldagi alohida bo‘linmalari (mavjud bo‘lganda) jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda ular joylashgan mamlakat talablariga rioya qilishlari lozim, mazkur talablar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining talablaridan farq qilgan taqdirda, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlarni qo‘llashi lozim.

12. Tashkilot o‘z tashkiliy tuzilmasining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mas’ul shaxs boshchilik qiladigan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha alohida tarkibiy bo‘linmani tashkil qilishi yoki belgilashi mumkin.

Mazkur tarkibiy bo‘linma tashkilotning ichki hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan nizom asosida faoliyat yuritadi va ushbu nizom tarkibiy bo‘linmaga nisbatan quyidagi talablarni aks ettirishi kerak:

maqsad va vazifalari;

tashkilotning boshqa bo‘linmalaridan mustaqil bo‘lishini ta’minlash usullari;

tashkilotning rahbariyati, kuzatuv kengashi, boshqaruvi va qo‘mitalari, tashkilotning boshqa bo‘linmalari, shu jumladan ichki audit xizmati, chet eldagi alohida bo‘linmalari hamda sug‘urta agentlari bilan o‘zaro munosabatlari;

o‘z funksiyalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni olishga doir huquqlar, shuningdek mazkur ma’lumotlarni taqdim etish masalalari bo‘yicha hamkorlik qilish yuzasidan tashkilotning boshqa bo‘linmalari, shu’ba korxonalari,

chet eldagi alohida bo‘linmalari va sug‘urta agentlarining (sug‘urtalovchi uchun) majburiyati;

olingan ma’lumotlarni tashkilotning rahbariga va zarur bo‘lganda kuzatuv kengashiga taqdim etish tartibi;

tashkilotning rahbariga jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha hisobotni taqdim qilish majburiyati;

qonunchilik hujjatlari va ichki qoidalar talablarining buzilish holatlarini o‘rganishni amalga oshirish tartibi;

tashkilot rahbariyatiga qonunchilik hujjatlari yuzasidan maslahatlar berish, shuningdek, mazkur sohadagi o‘zgarishlar to‘g‘risida xabardor qilish majburiyati;

tashkilot xodimlarini tanlash bo‘yicha malaka talablari va tartibi;

tarkibiy bo‘linma xodimlarining malaka oshirish bo‘yicha maxsus kurslarda muntazam ravishda (yiliga kamida bir marta) o‘qib borish majburiyati.

13. Tashkilot bo‘linmalari xodimlarining mas’ul shaxs (tarkibiy bo‘linma boshlig‘i va uning xodimlari) bilan o‘zaro munosabatlari tartibi tashkilotning ichki hujjatlari bilan belgilanadi.

14. Mas’ul shaxsga va (yoki) jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha tarkibiy bo‘linma xodimlariga (tarkibiy bo‘linma mavjud bo‘lsa) ishchanlik obro‘si va malakasiga doir mazkur bandda nazarda tutilgan talablar qo‘yiladi.

Ishchanlik obro‘siga doir talablar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

iqtisodiy sohadagi jinoyatlar, boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog‘liq jinoyatlar uchun tugallanmagan yoki olib tashlanmagan sudlanganlik holatlarining mavjud emasligi;

tashkilotning, moliya (kredit) tashkilotining iqtisodiy ahvoli yomonlashishiga yoki uning bankrot bo‘lishiga, litsenziyasi bekor qilinishiga olib kelgan harakatlar sodir etishga va (yoki) harakatsizlikka aloqadorligi to‘g‘risidagi dalillarning mavjud emasligi.

Malaka talablari quyidagilardan iborat:

a) mas’ul shaxsga – tarkibiy bo‘linma boshlig‘iga:

oliy ma’lumotli bo‘lish va sug‘urta sohasida rahbarlik lavozimlarida 2 yildan kam bo‘lmagan ish tajribasiga ega bo‘lish, oliy ma’lumot mavjud bo‘lmaganda –

ushbu sohada (texnik va xizmat koʻrsatuvchi xodimlar lavozimlaridagi ish tajribasidan tashqari) uch yildan kam boʻlmagan ish tajribasiga ega boʻlish;

Oʻzbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha qonunchiligini hamda ushbu sohadagi xalqaro standartlarni, shuningdek tashkilot faoliyatining oʻziga xos xususiyatlarini bilish;

b) tarkibiy boʻlinma xodimlariga:

oliy maʼlumotli boʻlish va sugʻurta sohasida texnik va xizmat koʻrsatish lavozimlaridan tashqari 2 yildan kam boʻlmagan ish tajribasiga ega boʻlish, oliy maʼlumot mavjud boʻlmaganda – ushbu sohada (texnik va xizmat koʻrsatuvchi xodimlar lavozimlaridagi ish tajribasidan tashqari) uch yildan kam boʻlmagan ish tajribasiga ega boʻlish;

tashkilot faoliyatining oʻziga xos xususiyatlarini bilish.

15. Mas’ul shaxs quyidagi funksiyalarni bajaradi:

mazkur Qoidalarga muvofiq ichki nazorat jarayonini va mijozlarni lozim darajada tekshirishning joriy etilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi;

tashkilot faoliyatining oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ichki nazoratni amalga oshirish boʻyicha chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqadi va tashkilot rahbariga tasdiqlash uchun kiritadi;

shubhali operatsiyalar, ularni bajarishga urinishlar toʻgʻrisidagi xabarlarning maxsus vakolatli davlat organiga oʻz vaqtida yuborilishini, shuningdek maxsus vakolatli davlat organining qoʻshimcha maʼlumotlarni taqdim etish haqidagi soʻrovlari va mijozlarning pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulk bilan bogʻliq operatsiyalarini toʻxtatib turish haqidagi koʻrsatmalarining bajarilishini taʼminlaydi;

ichki nazoratni amalga oshirish natijasida olingan tegishli maʼlumotlarni (materiallar, hujjatlar va boshqalar) yigʻish, rasmiylashtirish, saqlashni amalga oshiradi hamda ularning maxfiyligini taʼminlaydi;

Agentlik tomonidan maxsus vakolatli davlat organi bilan birgalikda nazorat oʻtkazish davomida tashkilot faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etadi hamda ichki nazorat tizimini tashkil etish boʻyicha monitoringni amalga oshiradi.

16. Mas’ul shaxs quyidagi huquqlarga ega:

tashkilotning rahbarlari va xodimlaridan ichki nazoratni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan tashkiliy-boshqaruv, buxgalterlik va boshqa hujjatlarni talab qilib olish;

olingan hujjatlardan nusxa ko‘chirish, ichki nazoratni amalga oshirish maqsadida tashkilotning elektron ma’lumotlar bazalarida, mahalliy hisoblash va avtomatlashtirilgan kompyuter tizimlarida saqlanayotgan fayl va boshqa yozuvlardan nusxalar olish;

xabar qilinishi lozim bo‘lgan operatsiyalarga oid kelgusidagi xatti-harakatlar bo‘yicha (shu jumladan, mijoz yoki operatsiya to‘g‘risida qo‘shimcha axborot olish yoki mavjud axborotni tekshirish maqsadida o‘tkazilayotgan operatsiyani to‘xtatib turish bo‘yicha) rahbariyatga takliflar kiritish.

Mas’ul shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

17. Mas’ul shaxs quyidagilarga majbur:

o‘z vakolati doirasida mazkur Qoidalar va ichki qoidalar bilan yuklatilgan maqsadlarga erishish va vazifalarni bajarish uchun zarur choralarni ko‘rish;

mijozlarni lozim darajada tekshirish, shu jumladan doimiy monitoringni amalga oshirish va identifikatsiyalash hamda Ro‘yxat bilan solishtirishni ta’minlash bo‘yicha choralarni ko‘rish;

mijozning faoliyatini (biznesini), uning mulki va boshqaruv tuzilmasini tushunish;

benefitsiar mulkdorlarni aniqlash, identifikatsiyalash va ularning shaxsini tekshirish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘rish;

mijozni lozim darajada tekshirish materiallariga qo‘shib qo‘yiladigan barcha murakkab, g‘ayrioddiy va yirik miqdordagi operatsiyalar, shuningdek iqtisodiy yoki qonuniy maqsadsizligi aniq bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshirish sxemalari bo‘yicha lozim darajada tekshirish natijalari va xulosalarini yozma yoki elektron ravishda qayd etish;

shubhali operatsiyalar va ularni amalga oshirishga urinishlar aniqlanganda belgilangan tartibda maxsus vakolatli davlat organiga xabar berish;

maxsus vakolatli davlat organining mijozlarning pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyasini to‘xtatib turish haqidagi ko‘rsatmalarini o‘z vaqtida bajarish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash bo‘yicha o‘quv kurslarida qatnashish va o‘quv kurslarida olingan ma’lumotlarni tashkilot xodimlariga yetkazish;

tavakkalchiliklarni aniqlash va baholash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ushbu tavakkalchiliklarni hujjatlashtirish va ularni kamaytirish chora-tadbirlarini ko‘rish;

ichki nazoratni amalga oshirish jarayonida olingan hujjatlarning saqlanishi va qaytarilishini ta’minlash;

olingan ma’lumotlarning maxfiyligiga rioya qilish;

qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.

18. Mazkur Qoidalarning15 – 17-bandlaridagi talablar tashkilotning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha tarkibiy bo‘linmasining (agar mavjud bo‘lsa) xodimlariga ham qo‘llaniladi.

19. Mas’ul shaxs muntazam ravishda bir yilda kamida bir marta maxsus o‘quv kurslarida o‘qishi lozim.

O‘qitish quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘tkazilishi lozim:

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari bilan tanishish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishning uslublari va zamonaviy usullarini o‘rganish;

ichki nazoratni amalga oshirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish muammolariga bag‘ishlangan konferensiyalar, seminarlar va boshqa tadbirlarda (mahalliy va xalqaro) ishtirok etish (imkoniyat darajasida).

20. Tashkilotning qolgan xodimlarini o‘qitish va malakasini oshirish mas’ul shaxs tomonidan muntazam ravishda bir yilda kamida bir marta o‘tkaziladi.

O‘qitish xodimlarning mansab vazifalaridan kelib chiqqan holda, quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘tkaziladi:

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari bilan xodimlarni tanishtirish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishning uslublari va zamonaviy usullarini o‘rganish;

ichki nazoratni amalga oshirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar.

Tashkilot tomonidan ichki nazorat qoidalarini muvaffaqiyatli amalga oshirilishining asosiy sharti bu – mazkur jarayonda har bir xodim o‘z vakolati doirasida qatnashishi nuqtayi nazaridan o‘qitilishidir.

21. Tashkilot har yili 1-fevralga qadar Agentlikka o‘zining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyati to‘g‘risida hisobot taqdim etadi.

3-bob. Mijozlarni lozim darajada tekshirish

22. Tashkilotlar mijozlarni lozim darajada tekshirish choralarini ko‘rishlari kerak.

Mijozlarni lozim darajada tekshirish choralari barcha yangi mijozlar hamda tavakkalchilik darajasidan kelib chiqib mavjud mijozlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Mijozni lozim darajada tekshirish quyidagi hollarda amalga oshirilishi kerak:

shaxsiy sug‘urta qilish yoki birgalikda sug‘urta qilish shartnomasini tuzishda – mijozni, sug‘urtalangan shaxsni, foyda oluvchini va benefitsiar mulkdorni;

operatsiya o‘tkazilayotgan kunda ekvivalenti 15 000 AQSh dollaridan oshgan miqdordagi bir martalik operatsiyalar (bitimlar) amalga oshirilganda;

qayta sug‘urta qilish shartnomasini tuzishda – mijozni va benefitsiar mulkdorni;

sug‘urta qilish yoki qayta sug‘urta qilish bo‘yicha hamkorlik qilish to‘g‘risida kelishuv, agentlik kelishuvi, tashkilot faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan mablag‘larni joylashtirish (qo‘yish) to‘g‘risidagi shartnoma va boshqa xo‘jalik yoki fuqarolik-huquqiy shartnomalarni tuzishda – mijozni va benefitsiar mulkdorni.

Bunda, agar mijoz O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lmasa, unda mijoz faoliyat yuritayotgan yoki yashayotgan davlatning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etishi haqidagi ma’lumotni aniqlash lozim bo‘ladi.

Mijozlarni lozim darajada tekshirishni o‘tkazish uchun quyidagilar ham asos bo‘lishi mumkin:

amalga oshirilayotgan operatsiyalarning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida ekanligiga har qanday shubhaning mavjudligi;

mijozni identifikatsiyalash uchun avval olingan ma’lumotlarning haqiqiy va to‘g‘ri ekanligiga shubhaning mavjudligi.

23. Mijozni lozim darajada tekshirish bo‘yicha ko‘riladigan chora-tadbirlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi shart:

ishonchli manba va hujjatlardan foydalangan holda (bunda, uchinchi tomon xizmatlaridan foydalanilishi mumkin) mijozni identifikatsiyalash va verifikatsiyalash;

tegishli hujjatlar asosida mijozning va u qaysi shaxslar nomidan ish ko‘rayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxslarning shaxsini hamda vakolatlarini tekshirish;

mijozning benefitsiar mulkdorini identifikatsiyalash;

o‘rnatilgan amaliy ish munosabatlarining maqsadi va xarakterini o‘rganish;

mijoz tomonidan amalga oshiriladigan ish munosabatlari va operatsiyalarning bunday mijoz to‘g‘risidagi ma’lumotlarga, uning faoliyati maqsadi va xususiyatiga muvofiqligini tekshirish hamda pul mablag‘lari yoki mol-mulklarning kelib chiqish manbalarini aniqlash maqsadida doimiy asosda o‘rganish o‘tkazish.

Agar mijozning benefitsiar mulkdorini identifikatsiyalash imkoni bo‘lmasa, tashkilot mijozning rahbarini identifikatsiyalashi lozim.

24. Tashkilot mijozni lozim darajada tekshirish bo‘yicha mazkur Qoidalarning 23-bandida ko‘rsatib o‘tilgan choralarni ko‘rish bilan birga, mijoz yoki benefitsiar mulkdor sifatida qatnashayotgan yuqori mansabdor shaxslar, ularning oila a’zolari va yuqori mansabdor shaxslarga yaqin bo‘lgan shaxslarga nisbatan:

yuqori mansabdor shaxsning mavqeyi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tekshirish va o‘tkazilayotgan operatsiyadagi pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkning manbalarini aniqlash bo‘yicha tegishli choralarni ko‘rish;

yuqori mansabdor shaxs bilan amaliy ish munosabatlariga faqatgina tashkilot rahbari (o‘rinbosari) ruxsati bilan kirishish (yoki mavjud mijozlar uchun davom ettirish);

amaliy ish munosabatlarini monitoring qilib borishlari lozim.

Mijozni lozim darajada tekshirish imkoniyati mavjud bo‘lmagan taqdirda, tashkilot mijoz bilan amaliy ish munosabatlariga kirishishni rad etishi va (yoki) mavjudlarini to‘xtatishi, shuningdek maxsus vakolatli davlat organiga shubhali operatsiya to‘g‘risida xabar yuborishi shart.

Alohida hollarda, mavjud mijozning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga aloqasi borligi haqida asoslantirilgan shubhalar mavjud bo‘lganida va unga nisbatan mijozlarni lozim darajada tekshirish bo‘yicha choralar amalga oshirilayotganligi oshkor bo‘lishi mumkinligini inobatga olgan holda mijozlarni lozim darajada tekshirish bo‘yicha choralarni amalga oshirmasdan maxsus vakolatli davlat organiga shubhali operatsiya haqida axborot yuborilishiga yo‘l qo‘yiladi.

25. Agar operatsiyaning taraflaridan biri jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etmaydigan davlatlarda yoxud offshor hududlarda doimiy yashayotgan, turgan yoki ro‘yxatga olingan, shuningdek tavakkalchiliklarning yuqori darajasi toifasiga kiritilgan shaxs bo‘lganda, tashkilot mijozlarni lozim darajada tekshirishning kuchaytirilgan chora-tadbirlarini ko‘rishi lozim.

26. Mijozni lozim darajada tekshirishning kuchaytirilgan chora-tadbirlariga quyidagilar kiradi:

mijoz haqida ochiq manbalar va ma’lumotlar bazalaridan qo‘shimcha tasdiqlangan ma’lumotlarni to‘plash va qayd etish, shuningdek mijoz va uning benefitsiar mulkdori haqidagi ma’lumotlarni tez-tez yangilash va verifikatsiyalash;

mijozdan u tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalar bo‘yicha pul mablag‘larining manbalari haqida ma’lumot olish;

sug‘urta shartnomasini yoki avval tuzilgan sug‘urta shartnomalarini tuzish sabablari to‘g‘risida ma’lumot olish;

tuzilgan sug‘urta shartnomalarining tahlili orqali, mijoz bilan amaliy ish munosabatlarini monitoring qilib borish.

27. Mijozlarni lozim darajada tekshirish bo‘yicha chora-tadbirlar mijoz tomonidan taqdim etilgan ma’lumot va hujjatlar, shuningdek ochiq manbalardan olingan ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Mijoz tomonidan taqdim etilgan barcha hujjatlar taqdim etilgan sana holatiga ko‘ra haqiqiy bo‘lishi kerak.

28. Mijozlarni lozim darajada tekshirish operatsiyalarni amalga oshirishning barcha bosqichlarida olib borilishi lozim.

Tashkilot benefitsiar mulkdorni aniqlash uchun mijoz boshqa shaxs nomidan harakat qilayotganligini aniqlashi kerak va shundan keyin mijoz qaysi shaxs nomidan ish ko‘rayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxsni identifikatsiyalash va lozim darajada tekshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim.

Mijoz yoki benefitsiar mulkdorni identifikatsiyalash bilan bir qatorda ular tomonidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq taqdim etiladigan hujjatlardan foydalangan holda ularning operatsiyalarni amalga oshirishga bo‘lgan vakolatlari tekshirilishi shart. Bunda naf oluvchini yoki benefitsiar mulkdorni identifikatsiyalash sug‘urta shartnomalari bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilishidan avval o‘tkazilishi shart.

29. Yuqori mansabdor shaxslarga hayotni sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta xizmatlari ko‘rsatilganda tashkilot mijozlarni lozim darajada tekshirish bo‘yicha

chora-tadbirlarni hamda sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan naf oluvchini identifikatsiyalashni amalga oshirishi lozim.

Har qanday holatda ham naf oluvchini identifikatsiyalash sug‘urta tovonining (sug‘urta to‘lovining) to‘lanishidan oldin amalga oshiriladi.

Hayotni sug‘urta qilish shartnomalari (sugʻurta polislari) bilan bog‘liq hollarda tashkilotlar benefitsiar mulkdorlarni aniqlash uchun oqilona choralarni ko‘rishi kerak. Ushbu choralar eng kechi bilan sug‘urta tovoni (sug‘urta to‘lovi) amalga oshirilishidan oldin amalga oshirilishi lozim.

Yuqori tavakkalchilik darajasi aniqlangan hollarda, tashkilot sugʻurta tovonini (sugʻurta toʻlovini) to‘lashdan oldin o‘z rahbariyatini xabardor qilishi, sug‘urta qildiruvchi bilan butun biznes munosabatlarini sinchkovlik bilan tekshirishi hamda maxsus vakolatli davlat organiga shubhali operatsiya haqida (agar mavjud bo‘lsa) xabar yuborishi zarur.

30. Mijoz xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma tuzish uchun murojaat qilganda tashkilotlar quyidagilarga majburdirlar:

mazkur Qoidalar va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishga oid qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq operatsiya bo‘yicha mijozni va (yoki) foyda oluvchini identifikatsiyalash;

mijozning avvalgi hisobot davri (oy, yilning choragi, yarim yillik, yil) mobaynida amalga oshirgan operatsiyalarini, agar bunday operatsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lsa, o‘rganib chiqish;

operatsiyaning turini hamda uning yuridik shaxs bo‘lgan mijozning ta’sis hujjatlarida belgilangan faoliyat maqsadi va turiga muvofiqlilik darajasini aniqlash;

operatsiyaning turini hamda uning jismoniy shaxs bo‘lgan mijozning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomasida ko‘rsatilgan faoliyat maqsadi va turiga muvofiqlilik darajasini aniqlash.

31. Mijoz va mijozning benefitsiar mulkdorini identifikatsiyalash mazkur Qoidalarning 2 va 3-ilovalarida nazarda tutilgan ma’lumotlar, shuningdek operatsiya va boshqa bitimlarning bajarilishi uchun asos hisoblanuvchi hujjatlar hamda boshqa zarur ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi.

32. Jismoniy shaxs bo‘lgan mijozni identifikatsiyalash uning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (pasport, identifikatsiya ID-kartasi yoki ularga tenglashtirilgan hujjatlar) asosida amalga oshiriladi.

Agar mijoz yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lsa, uning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomasi ham o‘rganilishi kerak.

Mijozni identifikatsiyalashda yuqoridagi hujjatlarning Oʻzbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va “Ijtimoiy karta” mobil ilovasida joriy etilgan unifikatsiyalangan raqamli servislari ham majburiy tartibda qabul qilinadi.

33. Yuridik shaxs bo‘lgan mijozni identifikatsiyalashda va (yoki) lozim darajada tekshirishda davlat ro‘yxatiga olinganligi, rahbarlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek ta’sis hujjatlarida ko‘rsatilgan ma’lumotlar tekshirilishi kerak.

Ko‘rsatilgan hujjatlarni tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatiga olish va hisobga qo‘yish avtomatlashtirilgan tizimi orqali yoki ushbu tizimdan axborot olishning imkoni bo‘lmaganda, bevosita mijozdan olish mumkin.

Agar yuridik shaxs bo‘lgan mijoz nomidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq jismoniy shaxs ish ko‘rayotgan bo‘lsa, tashkilot mijozdan ushbu jismoniy shaxsni identifikatsiyalash bo‘yicha ham ma’lumotlarni olishi lozim.

34. Tashkilot yuridik shaxs bo‘lgan mijozni yanada batafsil o‘rganish va uning faoliyati mazmuni, mulki va boshqaruv tuzilmasini tushunish maqsadida quyidagilarga alohida e′tibor qaratishi lozim:

mijozning ta’sischilari (jamiyat aksiyalarining kamida 10 foiziga ega bo‘lgan aksiyadorlari, ishtirokchilari) tarkibiga hamda mijozning ustav fondi (kapitali)ning 10 foizidan ortiq ulushiga egalik qilayotgan shaxslarni aniqlashga;

mijozning boshqaruv organlari tuzilmasiga va ularning vakolatlariga;

mijozning ustav fondi (kapitali)ning ro‘yxatga olingan miqdoriga.

35. Yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmalariga nisbatan mazkur Qoidalar bilan yuridik shaxs bo‘lgan mijozlar uchun o‘rnatilgan talablar qo‘llaniladi.

36. Tashkilot mijoz tomonidan taqdim etilgan axborotni quyidagi yo‘llar orqali tekshirish huquqiga ega:

davlat organlari va boshqa tashkilotlardan mijoz to‘g‘risida olingan ma’lumotlardan foydalanish;

mijozning avvalgi tashkilot bilan o‘zaro munosabatlarini o‘rganish;

mijozning ishchanlik obro‘si to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish.

Mijozni lozim darajada tekshirishni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan identifikatsiyalash va boshqa ma’lumotlar tashkilot tomonidan yiliga kamida bir marta yangilanishi lozim.

37. Agar tashkilot mijozni va (yoki) benefitsiar mulkdorni avval mazkur Qoidalarga muvofiq indentifikatsiyalagan bo‘lsa, tashkilot tomonidan ularni qayta

identifikatsiyalash majburiy hisoblanmaydi.

38. Davlat organlari va idoralariga nisbatan mijozlarni lozim darajada tekshirish chora-tadbirlarini o‘tkazish talab qilinmaydi.

39. Tashkilot quyidagi hollarda mijozga operatsiyalarni amalga oshirishni rad etadi:

mijozning boshqaruv organi yoki mijozning nomidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq ish ko‘rayotgan shaxs joylashgan yeri (pochta manzili) bo‘yicha mavjud bo‘lmaganida;

jismoniy shaxs bo‘lgan mijoz o‘zining doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyi (shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma’lumotlariga muvofiq) bo‘yicha mavjud bo‘lmaganida;

atayin noto‘g‘ri bo‘lgan hujjatlar taqdim etilganda yoki qonunchilikka muvofiq so‘raladigan hujjatlar taqdim etilmaganda;

mijoz va (yoki) benefitsiar mulkdorni lozim darajada tekshirish choralarini yakunlash imkoni bo‘lmaganda;

qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Mijozlarga operatsiyani amalga oshirish rad etilgan taqdirda tashkilot shubhali operatsiya sifatida bunday operatsiyalar haqida maxsus vakolatli davlat organiga xabar yuborishi kerak.

4-bob. Tavakkalchilik darajasini aniqlash va baholash

40. Tashkilotlar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish yuzasidan ehtimol tutilgan tavakkalchiliklarni o‘rganishni, tahlil qilishni va aniqlashni o‘z faoliyatida tizimli ravishda, yiliga kamida bir marta amalga oshirishi hamda o‘rganish natijalarini hujjatlar bilan qayd etishi shart.

Tashkilotlar tavakkalchilik darajasini monitoring qilishi hamda uni pasaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishi va amalga oshirishi kerak.

Tavakkalchilik darajasi mijozning faoliyati va amalga oshiradigan operatsiyalari turlarini inobatga olgan holda mijoz taqdim qilgan ma’lumotlar, mazkur Qoidalarda belgilangan mezonlar hamda mijozni lozim darajada tekshirish natijalari asosida mas’ul shaxs tomonidan aniqlanadi va baholanadi.

Mazkur bandning uchinchi xatboshisida belgilangan talablar asosida mijozga operatsiyalarni bajarishning tegishli (yuqori yoki quyi) tavakkalchilik darajasi beriladi.

Tavakkalchiliklarni baholash natijalari yozma yoki elektron ravishda rasmiylashtirilishi va maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etilishi lozim.

41. Yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga oldindan quyidagi mezonlarga to‘g‘ri keladigan operatsiya ishtirokchilari kiritilishi va ularga nisbatan kuchaytirilgan e’tibor qaratilishi lozim:

Ro‘yxatga kiritilgan shaxslar yoki Ro‘yxatga kiritilgan shaxsning nazoratidagi shaxslar, Ro‘yxatga kiritilgan tashkilotning bevosita yoxud bilvosita mulkdori bo‘lgan yoki uni nazorat qiluvchi shaxslar;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etmaydigan davlatda yoxud offshor hududda doimiy yashayotgan, turgan yoki ro‘yxatga olingan shaxslar;

norezidentlar;

haqiqatda joylashgan joyi ta’sis yoki ro‘yxatga olish hujjatlarida ko‘rsatilgan manzilga to‘g‘ri kelmaydigan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;

benefitsiar mulkdori mazkur bandning ikkinchi va (yoki) uchinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan shaxs hisoblangan tashkilotlar;

muntazam ravishda (uch oy ichida ikki martadan ortiq) shubhali operatsiyalarni amalga oshiruvchi mijozlar;

yuqori mansabdor shaxslar, ularning oila a’zolari va yuqori mansabdor shaxslarga yaqin bo‘lgan shaxslar;

mas’ul shaxsda asosli shubha uyg‘otadigan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi boshqa shaxslar.

42. Mijoz tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarning tavsifi o‘zgarishiga qarab, tashkilot zarur bo‘lganda u bilan ishlash bo‘yicha tavakkalchilik darajasini qayta ko‘rib chiqishi lozim.

Tashkilot barcha murakkab, g‘ayrioddiy yirik operatsiyalarga, shuningdek aniq iqtisodiy yoki qonuniy maqsadga ega bo‘lmagan operatsiyalarni amalga oshirishning sxemalariga kuchaytirilgan e’tibor qaratishi kerak. Ushbu operatsiyalarga nisbatan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijalari haqidagi ma’lumot tashkilot rahbariyatiga taqdim qilinishi lozim.

43. Tashkilot jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida texnologik yutuqlardan foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralarni ko‘rishi lozim. Ushbu maqsadda tashkilot xizmatlarning yangi turlari va yangi ish amaliyotini ishlab chiqishi, shuningdek yangi yoki

rivojlanayotgan texnologiyalardan foydalanish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tavakkalchilik darajalarini aniqlashi va baholashi kerak.

Bunday tavakkalchilikning baholanishi xizmatlarning yangi turlari, yangi ish amaliyotining ishga tushirilishi yoxud yangi yoki rivojlanayotgan texnologiyalardan foydalanishdan avval o‘tkazilishi lozim.

Bunda, mazkur tavakkalchiliklarni aniqlash va baholash tashkilotning yangi xizmat turlarini (yangi texnologiyalarni) bevosita joriy qilayotgan bo‘linmasi tomonidan mas’ul shaxs (tarkibiy bo‘linma) bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Tashkilot bunday tavakkalchilikni monitoring qilishi va ularni pasaytirish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘rishi lozim. Har bir ko‘rilgan chora bo‘yicha tashkilot rahbariyatiga ma’lumot taqdim etilishi zarur.

5-bob. Shubhali operatsiyalarning mezonlari va alomatlari hamda ularni aniqlash tartibi

44. Operatsiyalar quyidagi mezon va alomatlarning biri mavjud bo‘lganda shubhali operatsiya deb topiladi:

zarurat tufayli so‘ralayotgan, shu jumladan, o‘zining ishonch bildiruvchisi to‘g‘risidagi (agar mijoz yuridik yoki jismoniy shaxsning vakili sifatida ish olib borsa) ma’lumotlarni taqdim etish mijoz tomonidan sababsiz rad etilishi;

mijozning amalga oshirilayotgan operatsiyaning maxfiylik masalalari bilan ortiqcha tashvishlanishi;

mijoz xizmat ko‘rsatishning foydaliroq shartlariga nisbatan e’tiborsiz bo‘lishi, shuningdek mijoz tomonidan ayni turdagi xizmatlar ko‘rsatishdagi oddiy to‘lovdan farq qiladigan yuqori mukofotning taklif qilinishi;

operatsiyaning aniq iqtisodiy mohiyatga ega emasligi va mijoz faoliyatining xususiyatiga muvofiq kelmasligi hamda tavakkalchilik xavfini sug‘urta qilish maqsadlariga ega bo‘lmasligi;

mijozning bekor qilingan bitim bo‘yicha olishi lozim bo‘lgan summalarni uchinchi shaxslarga, shu jumladan, norezident bank hisobiga qaytarishni taklif etishi;

mijoz tomonidan operatsiyaga (bitimga) tashkilot faoliyatining odatiy ish amaliyotiga to‘g‘ri kelmaydigan qo‘shimcha va o‘zgartishlarning kiritilishi;

mijoz tomonidan avval kelishilgan operatsiyaga (bitimga) uni bevosita amalga oshirishdan oldin sezilarli, ayniqsa, pul mablag‘lari harakati bilan bog‘liq o‘zgartirishlarning kiritilishi;

mijoz tomonidan operatsiyani vakil (vositachi) orqali amalga oshirish haqida topshiriq berilishi, agar vakil (vositachi) topshiriqni tashkilot bilan bevosita aloqa o‘rnatmasdan amalga oshirayotgan bo‘lsa;

ko‘rsatilgan bog‘lanish ma’lumotlari, xususan, pochta va elektron manzili, telefon raqamlari va elektron kanal ma’lumotlari bo‘yicha mijoz bilan aloqa o‘rnatish imkoniyatining mavjud emasligi;

mijozning kontragentlarini aniqlashning imkoni yo‘qligi;

yuridik va (yoki) jismoniy shaxs bilan tuzilgan amaldagi hayotni sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urta mukofoti miqdorini mos ravishda oshirish bilan birga sug‘urta summasi miqdorini sezilarli darajada (2 barobardan ortiq) oshirish bo‘yicha mijozning taklifi;

sug‘urta qildiruvchi, sug‘urtalangan shaxs, foyda oluvchining almashtirilishi munosabati bilan sug‘urta shartnomasiga tez-tez o‘zgartishlarning kiritilishi;

mijoz tomonidan uchinchi shaxs foydasiga besh yilgacha muddatga hayotni sug‘urta qilish shartnomalarining yilning bir choragida ikki va undan ortiq marotaba tuzilishi;

mijoz tomonidan yilning bir choragida bazaviy hisoblash miqdorining 1000 barobariga teng yoki undan oshadigan miqdordagi naqd pul mablag‘larini bir yo‘la yoki qismlarga bo‘lib tashkilotning kassasiga topshirilishi hisobidan umumiy summasi bazaviy hisoblash miqdorining 1000 barobaridan kam bo‘lmagan bitta yoki bir nechta operatsiyalarning bajarilishi;

pul mablag‘larining xorijga anonim hisobraqamga (jamg‘armaga) o‘tkazilishi va pul mablag‘larining xorijdan anonim hisobraqamdan (jamg‘armadan) kelib tushishi;

sug‘urta mukofoti O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan tashkilot tomonidan to‘langan ixtiyoriy sug‘urta shartnomasining mijoz tomonidan muddatidan oldin bekor qilinishi natijasida mijozga sug‘urta mukofotining qaytarilishi;

bitta sug‘urta qildiruvchiga yilning bir choragida bazaviy hisoblash miqdorining 1000 barobariga teng yoki undan oshadigan summa miqdorida yoxud ushbu miqdorga teng yoki undan oshadigan ekvivalentdagi xorijiy valyutada (sug‘urta tovonining (sug‘urta to‘lovining) to‘lanishi;

bitta sug‘urta vositachisiga yilning bir choragida bazaviy hisoblash miqdorining 1000 barobariga teng yoki undan oshadigan summa miqdorida yoxud ushbu miqdorga teng yoki undan oshadigan ekvivalentdagi xorijiy valyutada vositachilik haqining to‘lanishi;

hayotni sug‘urta qilish shartnomasida ko‘rsatilgan naf oluvchini (naf oluvchi yuridik shaxs bo‘lgan holatda uning benefitsiar mulkdorini) identifikatsiyalashning imkoniyati yo‘qligi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etmaydigan davlatlar hududida ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy sug‘urtalovchilardan (qayta sug‘urtalovchilardan) qayta sug‘urta qilish komissiyalari va tantyemalarning olinishi.

45. Operatsiyani shubhali deb tan olish har bir aniq holatda ushbu Qoidalar bilan o‘rnatilgan shubhalilik mezonlaridan foydalangan holda o‘tkaziladigan kompleks tahlil asosida, shuningdek mijozning shaxsi, uning ishchanlik obro‘si, amaliy ish munosabatlarining xususiyati, bitimning asoslari, maqsadlari, hajmi va turi, uni amalga oshirish usuli hamda shubhali operatsiyani to‘g‘ri aniqlash uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa holatlar asosida amalga oshiriladi.

Ichki qoidalar bilan shubhali operatsiyalarning qo‘shimcha belgilari va mezonlari o‘rnatilishi mumkin.

46. Tashkilot Agentlik tomonidan maxsus vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda ishlab chiqiladigan va tavsiyaviy xususiyatga ega bo‘lgan uslubiy qo‘llanmalar asosida shubhali operatsiyalarni erta aniqlash bo‘yicha ko‘rsatkichlarni joriy qilish huquqiga ega.

47. Mijozning operatsiyasi shubhali deb topilgandan so‘ng mas’ul shaxs quyidagi choralarni ko‘rishi kerak:

shubhali operatsiya to‘g‘risida maxsus vakolatli davlat organiga xabar berilishini ta’minlash;

operatsiya haqidagi ma’lumotlarni maxsus jurnalga qayd etish;

mijoz bilan operatsiya o‘tkazishga alohida e’tibor qaratish;

qonunchilikka va mijoz bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq u bilan munosabatlarni to‘xtatish bo‘yicha tashkilotning rahbariga taklif kiritish.

48. Operatsiyaning taraflaridan biri jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etmaydigan davlatda doimiy yashayotgan, turgan yoki ro‘yxatga olingan shaxs bo‘lsa, bunday operatsiya ham maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi kerak.

49. Shubhali operatsiya to‘g‘risidagi xabar tashkilot tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-iyundagi 402-son qarori bilan tasdiqlangan Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq ma’lumotlarni taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi

nizom talablariga muvofiq shubhali operatsiya aniqlangan paytdan e’tiboran bir ish kunidan kechiktirmay maxsus vakolatli davlat organiga beriladi.

Shubhali operatsiyalar to‘g‘risidagi xabar maxsus vakolatli davlat organiga axborotni kriptografik himoyalash vositalari mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni uzatishning elektron tizimlari orqali yoki ruxsat berilmagan foydalanishdan himoyalangan maxsus elektron pochta manzili yoxud maxsus vakolatli davlat organining shubhali operatsiyalar to‘g‘risidagi xabarlarni qabul qilish tizimidagi shaxsiy kabinet yordamida yuboriladi.

Shaxsiy kabinetga ulanish uchun tashkilotlar ushbu Qoidalarning 4-ilovasiga muvofiq ma’lumotlarni taqdim etgan holda Agentlikka murojaat qilishlari kerak.

50. Tashkilot tegishli operatsiyaga nisbatan shubhani tasdiqlovchi yoki olib tashlovchi har qanday ma’lumotni darhol maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilishi zarur.

6-bob. Ro‘yxatga kiritilgan shaxslar ishtirokidagi operatsiyalar aniqlanganda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar

51. Tashkilotlar mijoz, mijozning benefitsiar mulkdori va operatsiya ishtirokchilarining identifikatsiya ma’lumotlarini Ro‘yxat bilan solishtirishlari shart.

Agar mijoz bilan amaliy ish munosabatlarini o‘rnatish davrida yoki pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirishda tashkilotning xodimlari tomonidan mijoz, mijozning benefitsiar mulkdori yoki operatsiya ishtirokchilaridan birining barcha identifikatsiya ma’lumotlari Ro‘yxatga kiritilgan shaxsning ma’lumotlari bilan to‘liq mos kelganligi aniqlangan taqdirda, ular kechiktirmasdan va mijozni xabardor qilmasdan operatsiyani to‘xtatishlari va (yoki) pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkni ishga solmay to‘xtatib qo‘yishlari hamda bu haqida mas’ul shaxsga xabar berishlari kerak.

O‘z navbatida mas’ul shaxs operatsiya ishtirokchilaridan birining va amalga oshirilayotgan operatsiyaning identifikatsiya ma’lumotlarini maxsus jurnalga kiritishi, shuningdek maxsus vakolatli davlat organiga xabar yuborishi lozim.

Ro‘yxatga yangi shaxslar kiritilganda mas’ul shaxs yangi shaxslarning identifikatsiya ma’lumotlarini mijozlar bazasi bilan solishtirishi va to‘liq moslik aniqlangan shaxslar tomonidan ilgari amalga oshirilgan operatsiyalar aniqlangan taqdirda, ushbu mijozlarni lozim darajada tekshirishni amalga oshirishi hamda uning natijalari bo‘yicha axborotni maxsus vakolatli davlat organiga yuborishi kerak.

52. Quyidagi holatlardan biri yuzaga kelsa, operatsiyalar tashkilot tomonidan kechiktirilmasdan va oldindan xabar qilinmasdan to‘xtatib turiladi va (yoki) pul

mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk ishga solinmay to‘xtatib qo‘yiladi hamda maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinadi:

mijoz, mijozning benefitsiar mulkdori yoki operatsiya ishtirokchilaridan birining barcha identifikatsiya ma’lumotlari Ro‘yxatga kiritilgan shaxsning ma’lumotlari bilan to‘liq mos kelsa;

operatsiya qatnashchilaridan biri Ro‘yxatga kiritilgan shaxs nomidan yoki uning topshirig‘iga binoan faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa;

operatsiyani amalga oshirishda foydalanilayotgan pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk to‘liq yoki qisman Ro‘yxatga kiritilgan shaxsga tegishli bo‘lsa;

yuridik shaxs bo‘lgan operatsiya ishtirokchisi Ro‘yxatga kiritilgan shaxsning mulkida yoki nazorati ostida bo‘lsa.

53. Operatsiyalarni to‘xtatish va tiklash Terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro‘yxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini to‘xtatib turish, pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to‘xtatib qo‘yish, ishga solmay to‘xtatib qo‘yilgan mol-mulkidan foydalanishga ruxsat berish va operatsiyalarini tiklash tartibi to‘g‘risidagi nizomda (ro‘yxat raqami 3327, 2021-yil 19-oktabr) belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Mas’ul shaxs mazkur Qoidalarning 52-bandida nazarda tutilgan chora-tadbirlar bajarilganidan keyin Ro‘yxatga kiritilgan shaxsga uning operatsiyasi to‘xtatib turilganligi va (yoki) pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulki ishga solinmay to‘xtatib qo‘yilganligi to‘g‘risida imkon qadar qisqa vaqtda xabar berishi hamda operatsiyani tiklash tartibi to‘g‘risida tushuntirish berishi kerak.

7-bob. Maxsus vakolatli davlat organining so‘rovlari va ko‘rsatmalarini bajarish

54. O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq maxsus vakolatli davlat organi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish choralarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborotni tashkilotdan yozma ravishda so‘rashga, shu jumladan tashkilotning avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalari orqali olishga haqlidir.

Tashkilot maxsus vakolatli davlat organining mijozlarning pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulklari bilan bog‘liq operatsiyalarini to‘xtatib turish to‘g‘risidagi ko‘rsatmalarini o‘z vaqtida bajarish choralarini ko‘radilar.

55. Maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi lozim bo‘lgan operatsiyalar bo‘yicha qonunchilikka va mazkur Qoidalarga muvofiq maxsus jurnalga mas’ul shaxs tomonidan quyidagilar rasmiylashtiriladi:

operatsiya turi va uni amalga oshirish asoslari;

operatsiyani amalga oshirish sanasi va summasi;

operatsiyani amalga oshiruvchi mijozni, uning benefitsiar mulkdori yoki vakilini identifikatsiyalash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar;

operatsiya bo‘yicha foyda oluvchi va uning vakilini identifikatsiyalash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar.

8-bob. Axborot va hujjatlarni rasmiylashtirish, saqlash va maxfiyligini ta’minlash

56. Tashkilotlar pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalar to‘g‘risidagi axborotni, shuningdek mijozlarni lozim darajada tekshirish bo‘yicha identifikatsiyalash ma’lumotlari hamda materiallarini, shu jumladan ish yozishmalarini, o‘tkazilgan har qanday tahlil natijalarini qonunchilikda belgilangan muddatlar mobaynida, lekin operatsiya amalga oshirilganidan yoki mijoz bilan amaliy ish munosabatlari to‘xtatilganidan keyin besh yildan kam bo‘lmagan muddatda saqlashlari shart.

Saqlash muddatlari tugashi bilan hujjatlar belgilangan tartibda arxivga topshiriladi.

57. Mijozni lozim darajada tekshirish jarayonida olingan mijoz to‘g‘risidagi ma’lumotlar mazkur Qoidalarning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha to‘ldiriladigan mijoz so‘rovnomasida qayd etiladi. Tashkilotlar ichki qoidalarga muvofiq mijoz so‘rovnomasiga boshqa ma’lumotlarni kiritish huquqiga ega.

58. Elektron shaklda to‘ldirilgan mijoz so‘rovnomasi qog‘oz shaklda chiqarilganda mas’ul shaxs imzosi bilan tasdiqlanadi.

59. Mijozlarning so‘rovnomalari alohida xronologik tartibda mas’ul shaxsda saqlab boriladi.

60. Pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalar va mijozlarni lozim darajada tekshirishga doir axborot zarurat tug‘ilganda operatsiya tafsilotlarini qayta tiklash va axborotdan maxsus vakolatli davlat organi foydalanishi mumkin bo‘lgan tarzda rasmiylashtirilishi lozim.

61. Tashkilot tomonidan mijozni lozim darajada tekshirish va identifikatsiyalash natijasida olingan ma’lumotlar hamda mijozlarning tavakkalchilik darajalari bir yilda kamida bir marotaba yangilanib borilishi lozim.

62. Mas’ul shaxsning faoliyatida foydalanilgan barcha hujjatlarga kirish imkoniyatini cheklash maqsadida bunday hujjatlar va ularning ro‘yxati bevosita mas’ul shaxs tomonidan maxsus jihozlangan xonada yoki yonmaydigan va muhrlanadigan seyfda saqlanishi kerak.

63. Elektron shakldagi hujjatlar dasturlash yo‘li asosida arxivlashtirilishi, elektron axborot tashuvchi vositalarga yozilishi va mas’ul shaxs tomonidan ularning ro‘yxati bilan birga yonmaydigan va muhrlanadigan seyfda saqlanishi kerak.

64. Tashkilotlar:

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq bo‘lgan axborotga kirish imkoniyatini cheklaydilar, uning tarqalib ketmasligini ta’minlaydilar;

ichki nazorat funksiyalarini amalga oshirish jarayonida olingan axborotni o‘z xodimlari tomonidan oshkor qilinmasligini (shaxsiy maqsadlar yoxud uchinchi shaxslar manfaatlari uchun foydalanilmasligini) ta’minlaydilar.

Tashkilotlar mijozlarga ularning operatsiyalari haqida maxsus vakolatli davlat organiga xabar berilganligi to‘g‘risida ma’lum qilish huquqiga ega emaslar.

9-bob. Yakuniy qoidalar

65. Tashkilotlar tomonidan mazkur Qoidalar talablariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazorat Agentlik tomonidan maxsus vakolatli davlat organi bilan birgalikda amalga oshiriladi.

66. Tashkilotning rahbari ichki va tashqi vaziyatlarning o‘zgarishini inobatga olgan holda, ichki nazorat tizimini doimiy ravishda monitoring qiladi va samaradorligini baholab boradi, shuningdek samarali ishlashini ta’minlash uchun zaruratga qarab uni mustahkamlaydi.

Tashkilotning ichki nazorat xizmati faoliyati samaradorligining monitoringi tashqi audit xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

67. Tashkilotning rahbari va mas’ul shaxs mazkur Qoidalarni buzganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

68. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik hujjatlari buzilganligi hollarini yashirishda, shuningdek mazkur Qoidalar talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) va sugʻurta vositachilari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha ichki nazorat qoidalariga
1-ILOVA

Sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) va sug‘urta vositachilarining mas’ul shaxsi va ichki qoidalarining amalga oshirilishi to‘g‘risidagi
MA’LUMOTLAR

_____
(tashkilot nomi)

1. Familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi, telefon raqami.

2. Mas’ul shaxs etib tayinlanganligi to‘g‘risidagi buyruq sanasi va raqami.

3. O‘tgan yil uchun tashkilot tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar to‘g‘risidagi ma’lumot, shu jumladan:

filiallar yoki alohida bo‘linmalar mavjudligini ko‘rsatuvchi tashkiliy tuzilmaning tavsifi;

sug‘urta bozorida ko‘rsatiladigan xizmat turlari;

mijozlarning turi va soni;

amalga oshirilgan bitimlarning umumiy miqdori va soni;

aniqlangan xatarlar va ularni kamaytirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar to‘g‘risidagi ma’lumot.

4. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazoratni ta’minlash bo‘yicha sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) va sug‘urta vositachisi tomonidan tasdiqlangan hujjat nomi va sanasi, shuningdek unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritgan keyingi hujjatlar hamda o‘zgartirishlar kiritish sabablari va maqsadlari to‘g‘risidagi ma’lumot.

5. Mas’ul shaxs va xodimlarning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida doimiy ravishda qayta tayyorgarlikdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi ma’lumot.

6. Maxsus vakolatli davlat organiga yuborilgan xabarlar soni (xabarlarning mazmuni oshkor qilinmasdan faqatgina ularning umumiy soni beriladi).

Sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) va sugʻurta vositachilari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha ichki nazorat qoidalariga
2-ILOVA

Jismoniy shaxsni identifikatsiyalashda zarur bo‘ladigan MA’LUMOTLAR

Mijoz va uning benefitsiar mulkdorini identifikatsiyalashda zarur bo‘ladigan ma’lumotlar:

1) familiyasi, ismi, otasining ismi;

2) tug‘ilgan sanasi va joyi;

3) jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari uchun);

4) fuqaroligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

5) ro‘yxatdan o‘tganligi va yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

6) pasport yoki identifikatsiyalovchi ID-karta yoki ularning o‘rnini bosuvchi hujjatning rekvizitlari (hujjatning seriyasi va raqami, hujjat berilgan sana, hujjatni bergan organning nomi);

7) mobil telefon raqami (agar mavjud bo‘lsa);

8) elektron pochta manzili (agar mavjud bo‘lsa).

Sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) va sugʻurta vositachilari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha ichki nazorat qoidalariga
3-ILOVA

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarni identifikatsiyalashda zarur bo‘ladigan MA’LUMOTLAR

1. Yuridik shaxslarni identifikatsiyalashda zarur bo‘ladigan ma’lumotlar:

1) to‘liq, shuningdek agar davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risidagi guvohnomada ko‘rsatilgan bo‘lsa, qisqartirilgan nomi;

2) davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risidagi ma’lumot: sana, raqam, ro‘yxatga oluvchi organ nomi;

3) soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;

4) joylashgan yeri (pochta manzili);

5) davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risidagi guvohnomada ko‘rsatilgan boshqa ma’lumotlar;

6) litsenziyalanadigan yoki ruxsat etiladigan faoliyat turini amalga oshirish uchun mavjud bo‘lgan litsenziya yoki ruxsatnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlar: faoliyat turi, litsenziya yoki ruxsatnoma raqami va berilgan sanasi, kim tomonidan berilganligi, amal qilish muddati;

7) yuridik shaxs nomidan ish ko‘ruvchi jismoniy shaxsning identifikatsiya ma’lumotlari;

8) yuridik shaxsning ta’sischilari (yirik aksiyadorlari, ishtirokchilari) haqidagi hamda mijozning ustav fondi (kapitali)dagi ularning ulushlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

9) shakllantirilgan ustav fondi (kapitali) miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

10) yuridik shaxsning boshqaruv organlari (tuzilmasi va shaxsiy tarkibi) to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

11) telefon raqamlari;

12) elektron pochta va (yoki) veb-sayt manzili (agar mavjud bo‘lsa).

2. Yakka tartibdagi tadbirkorlarni identifikatsiyalashda zarur bo‘ladigan ma’lumotlar:

1) mazkur Qoidalarning 2-ilovasida ko‘zda tutilgan ma’lumotlar;

2) davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risidagi ma’lumot: sana, raqam, ro‘yxatga oluvchi organ nomi;

3) joylashgan yeri (pochta manzili);

4) davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risidagi guvohnomada ko‘rsatilgan boshqa ma’lumotlar;

5) faoliyat turini amalga oshirish uchun mavjud litsenziya yoki ruxsatnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlar: faoliyat turi, litsenziya yoki ruxsatnoma raqami va berilgan sanasi, kim tomonidan berilganligi, amal qilish muddati.

Sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) va sugʻurta vositachilari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha ichki nazorat qoidalariga
4-ILOVA

Maxsus vakolatli davlat organining shubhali operatsiyalar to‘g‘risidagi xabarlarni qabul qilish tizimidagi shaxsiy kabinetga ulanish uchun taqdim etiladigan ma’lumotlar

I. Tashkilot haqidagi ma’lumotlar

1.	Tashkilotning nomlanishi (o‘zbek tilida, lotin alifbosida)	
2.	Tashkilotning nomlanishi (o‘zbek tilida, kirill alifbosida)	
3.	Tashkilotning nomlanishi (rus tilida)	
4.	Tashkilot turi	
5.	Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami	
6.	Tashkilot bankining MFOsi	
7.	Tashkilot bankining SWIFT raqami	
8.	Tashkilot ro‘yxatdan o‘tkazilgan hudud (viloyat, tuman)	
9.	Tashkilotning to‘liq manzili	
10.	Tashkilotning telefon raqami	
11.	Tashkilotning elektron pochta manzili	

II. Tashkilotning mas’ul xodimi (mas’ul shaxs) haqidagi ma’lumotlar

1.	Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami	
2.	Xodimning F.I.O.	
3.	Xodimning elektron pochta manzili	
4.	Xodimning telefon raqami	
5.	Xodimning yashash manzili	
6.	Xodimning lavozimi	

Sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) va sugʻurta vositachilari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha ichki nazorat qoidalariga
5-ILOVA

Mijoz so‘rovnomasida ko‘rsatiladigan MA’LUMOTLAR

1. Sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) va sugʻurta vositachilari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalarining 2 yoki 3-ilovalarida ko‘rsatilgan mijoz va mijozning benefitsiar mulkdorini identifikatsiyalash jarayonida olingan ma’lumotlar.

2. Mijozning benefitsiar mulkdori to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

3. Mijozning yuqori mansabdor shaxs (uning oila a’zosi yoki unga yaqin bo‘lgan shaxs) ekanligi haqidagi belgi.

4. Tavakkalchilik darajasi haqida ma’lumot, shu jumladan tavakkalchilikni baholash asoslari.

5. Mas’ul shaxs tomonidan mijozni identifikatsiyalash jarayonida amalga oshirilgan qo‘shimcha chora-tadbirlarning natijalari.

6. Mijoz bilan amaliy ish munosabatlarining boshlanish sanasi va xizmat ko‘rsatish davrining davomiyligi.

7. Ko‘rsatilgan xizmat turlari, miqdori va narxi to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

8. Mijoz so‘rovnomasi to‘ldirilgan va unga o‘zgartirish kiritilgan sana.

9. Mijoz bilan ishlashga mas’ul bo‘lgan xodimning familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi hamda amaldagi telefon raqami.

10. Mijoz so‘rovnomasini to‘ldirgan xodimning familiyasi, ismi va otasining ismi hamda lavozimi (qog‘oz shaklida to‘ldirilgan mijoz so‘rovnomasi uchun xodimning imzosi ham).

11. Ichki qoidalar bilan aniqlanadigan boshqa ma’lumotlar.

O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining 2026-yil 3-iyundagi 3-son va Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining 2026-yil 1-iyundagi 25-son qaroriga 2-ILOVA

O‘z kuchini yo‘qotgan deb topilayotgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar RO‘YXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining 2009-yil 13-oktabrdagi 104 va 41-son “Sugʻurtalovchilar va sugʻurta vositachilari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha ichki nazorat qoidalarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarori (roʻyxat raqami 2036, 2009-yil 3-noyabr) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2009-y., 45-son, 494-modda).

2. Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining 2010-yil 21-maydagi 44, 14-son “Sugʻurtalovchilar va sugʻurta vositachilari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha ichki nazorat qoidalariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qarori (ro‘yxat raqami 2036-1, 2010-yil 28-may) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2010-y., 22-son, 176-modda).

3. Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining 2015-yil 18-martdagi 25, 7-son “Sugʻurtalovchilar va sugʻurta vositachilari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha ichki nazorat qoidalariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qarori (ro‘yxat raqami 2036-2, 2015-yil 6-aprel) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2015-y., 14-son, 172-modda).

4. Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining 2021-yil 25-iyundagi 39 va 29-son “Sugʻurtalovchilar va sugʻurta vositachilari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha ichki nazorat qoidalarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarorga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida”gi qarori

(roʻyxat raqami 2036-3, 2021-yil 26-iyun) (Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 26.06.2021-y., 10/21/2036-3/0601-son).

5. Oʻzbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-son buyrugʻi (roʻyxat raqami 3338, 2021-yil 30-noyabr) (Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son) bilan tasdiqlangan Vazirliklar, davlat qoʻmitalari va idoralar tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilayotgan oʻzgartirishlarning 103-bandi.

6. Oʻzbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 25-dekabrdagi 34-mh-son buyrugʻi (roʻyxat raqami 3595, 2024-yil 27-dekabr) (Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 28.12.2024-y., 10/24/3595/1086-son) bilan tasdiqlangan Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilayotgan oʻzgartirishlarning 25-bandi.

QMMB: 10/26/2634-10/0738-son
15.07.2026-y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 2634-10
2026 - yil 15 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRINING BUYRUG‘I

Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi PF–190-son “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2025-yil 26-dekabrdagi PF–258-son “Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga davlat ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralarini taqdim etish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlariga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2014-yil 14-noyabrdagi 74-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2634, 2014-yil 15-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 51-son, 612-modda) bilan tasdiqlangan Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Vazir

2026-yil 19-iyun

376-son

KUCHKAROV DJAMSHID ANVAROVICH

QMMB: 10/26/2634-10/0738-son
15.07.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya
vazirining 2026-yil 19-iyundagi 376-son buyrug‘iga
ILOVA

Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirishlar

1. 24-bandning oltinchi xatboshisi va 61-bandning oltinchi xatboshisidagi “professional” degan so‘z “kasbiy” degan so‘z bilan almashtirilsin.

2. 35-bandning to‘rtinchi xatboshisidagi “Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatoriga” degan so‘zlar “Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatoriga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

3. 54^1-bandning uchinchi xatboshisidagi “aholini kam ta’minlangan qatlamidan boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilari soni” degan so‘zlar “Ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalarning boshlang‘ich sinflarda tahsil olayotgan o‘quvchilari soni” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 2641-1
2026 - yil 15 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI DAVLAT ZAXIRALARINI BOSHQARISH QO‘MITASINING QARORI

Birinchi guruhga eritilgan hayvon yog‘ini yetkazib berish, qabul qilish, saqlash va berib yuborish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaning 30-bandiga o‘zgartirish kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son “Iste’molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste’molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasining 2014-yil 25-noyabrdagi 25-son qarori (ro‘yxat raqami 2641, 2014-yil 23-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 52-son, 630-modda) bilan tasdiqlangan Birinchi guruhga eritilgan hayvon yog‘ini yetkazib berish, qabul qilish, saqlash va berib yuborish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaning 30-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“30. Tashkilotlarda elektr uskunalaridan foydalanish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasiqlangan Iste’molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste’molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Elektr yoritish asboblari yopiq yoki himoyalangan (shisha qalpoqcha va metall to‘r bilan qoplangan) ko‘rinishda bo‘lishi lozim.”.

2. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Rais

KURBANOV MIRSHOD MAXMUDOVICH

2026-yil 1-iyul

12-son

28 (1256)-сон
735-модда

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 2819-1
2026 - yil 15 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI DAVLAT ZAXIRALARINI BOSHQARISH QO‘MITASINING QARORI

Birinchi guruhga polietilendan tayyorlangan bosimga chidamli quvurlarni yetkazib berish, qabul qilish, saqlash va berib yuborish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga o‘zgartirishlar kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PF–269-son “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son “Iste’molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste’molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasining 2016-yil 30-iyundagi 30-son qarori (ro‘yxat raqami 2819, 2016-yil 28-iyul) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 30-son, 371-modda) bilan tasdiqlangan Birinchi guruhga polietilendan tayyorlangan bosimga chidamli quvurlarni yetkazib berish, qabul qilish, saqlash va berib yuborish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Rais

2026-yil 25-iyun

9-son

KURBANOV MIRSHOD MAXMUDOVICH

QMMB: 10/26/2819-1/0742-son
17.07.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasining 2026-yil 25-iyundagi 9-son qaroriga ILOVA

Birinchi guruhga polietilendan tayyorlangan bosimga chidamli quvurlarni yetkazib berish, qabul qilish, saqlash va berib yuborish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga kiritilayotgan o‘zgartirishlar

1. 2-banddagi “Vazirlar Mahkamasi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

2. 39-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“39. Elektr uskunalaridan foydalanish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasiqlangan Iste’molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste’molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Elektr yoritish asboblari yopiq yoki himoyalangan (shisha qalpoqcha va metall to‘r bilan qoplangan) ko‘rinishda bo‘lishi lozim.”.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3101-4
2026 - yil 15 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI,

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURASINING QARORI

Auditorlik tashkilotlari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi va “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining 2018-yil 14-noyabrdagi 145, 45-son qarori (ro‘yxat raqami 3101, 2018-yil 15-dekabr) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2018-y., 10/18/3101/2331-son) bilan tasdiqlangan Auditorlik tashkilotlari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalariga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

Vazir
19-Iyun 2026-yil
378 son

KUCHKAROV DJAMSHID ANVAROVICH

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari - Departament boshlig'i
08-Iyun 2026-yil
28 son

XATAMOV JAXONGIR JURAYEVICH

Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya
vazirligining 2026-yil 14-iyuldagi 3-mh-son hamda
Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi
Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining
2026-yil 8-iyundagi 28-son qaroriga
ILOVA

Auditorlik tashkilotlari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha ichki nazorat qoidalariga kiritilayotgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar

1. 4-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“oʻz tavakkalchiliklarini oldini olish, aniqlash, baholash, hujjatlashtirish va kamaytirishga doir tegishli choralarni koʻrish;”.

2. 9 va 10-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“9. Mas’ul xodim lavozimiga quyidagi shaxslar tayinlanishi mumkin emas:

oʻz faoliyatida va shaxsiy xulq-atvorida ishonib topshirilgan boʻlinmani notoʻgʻri boshqargani yoki ishni vijdonan yuritmaganini namoyon etgan shaxslar;

terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar;

iqtisodiyot sohasidagi, boshqaruv tartibiga qarshi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirgʻin qurollarini tarqatishni moliyalashtirish, uyushgan jinoyatchilik, giyohvand moddalarning noqonuniy savdosi, korrupsiya va axborot texnologiyalari bilan bogʻliq jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar.

Ushbu bandda nazarda tutilgan talablar auditorlik tashkilotining rahbari, muassislari va benefitsiar mulkdorlariga, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritish boʻyicha turdosh xizmatlarni koʻrsatuvchi xodimlariga ham tatbiq etiladi.

10. Auditorlik tashkilotlari mas’ul xodimlarning har yili kamida bir marta jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishning zamonaviy texnologiyalari, usullari va tendensiyalari toʻgʻrisida xabardorligini oshirish hamda ularga jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha qonunchilik hujjatlari va majburiyatlarning barcha

jihatlarini aniq tushuntirib berish maqsadida o‘qitilishi va malakasi oshirilishini ta’minlaydi.”.

3. Quyidagi mazmundagi 10^1-band bilan to‘ldirilsin:

“10^1. Mas’ul xodim har yili auditorlik tashkilotining xodimlari uchun quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha instruktaj shaklida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazadi:

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari bilan xodimlarni tanishtirish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishning uslublari va zamonaviy usullarini o‘rganish;

ichki nazoratni amalga oshirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar.

Auditorlik tashkilotining xodimlarini o‘qitish dasturi auditorlik tashkilotining rahbari tomonidan tasdiqlanadi.”.

4. 11-bandning uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“ichki va tashqi vaziyatlar o‘zgarishini inobatga olgan holda ichki nazorat tizimini tashkil etish bo‘yicha monitoringni amalga oshiradi, shuningdek ushbu Qoidalar va ichki qoidalar talablariga rioya qilinishi nazoratini amalga oshiradi;”.

5. Quyidagi mazmundagi 15^1-band bilan to‘ldirilsin:

“15^1. Auditorlik tashkilotining nazorati ostida yoki ahamiyatli ta’siri doirasida bitta yoki bir nechta pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar bo‘lgan taqdirda, ichki qoidalar guruhiy yondashuv asosida ishlab chiqilishi va quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va (yoki) ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni boshqarish hamda mijozlarni lozim darajada tekshirishni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar almashinuvi qoidalari va tartib-taomillari;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va (yoki) ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadlari uchun zarur bo‘lgan hollarda filiallar va shu’ba korxonalar tomonidan o‘z mijozlari, ularning hisobvaraqlari va operatsiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bosh tashkilotga taqdim etish, shuningdek mazkur ma’lumotlarni guruh darajasida olish talablari;

taqdim etilayotgan maʼlumotlarning maxfiyligini himoya qilish va undan foydalanish, shu jumladan uning oshkor etilishining oldini olish uchun zarur boʻlgan choralar.”.

6. 16 va 17-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“16. Auditorlik tashkilotining xorijiy filiallari va shu’ba korxonalari (agar mavjud boʻlsa) jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda oʻzi joylashgan mamlakat talablariga rioya etishlari kerak.

Agar joylashgan mamlakatning qonunchilik hujjatlarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga nisbatan yengilroq talablar belgilangan boʻlsa, auditorlik tashkilotining xorijiy filiallari va shu’ba korxonalari mazkur Qoidalarga amal qilishlari kerak.

17. Auditorlik tashkiloti oʻzining xorijiy filiallari va shu’ba korxonalaridan ular joylashgan mamlakat qonunchiligidagi taqiqlar tufayli jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish boʻyicha tegishli choralarni qoʻllash mumkin boʻlmagan taqdirda bosh tashkilotga axborot berishni talab qilishi shart.

Oʻz navbatida, auditorlik tashkiloti bu haqda Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda maxsus vakolatli davlat organini xabardor qilishi lozim.”.

7. Quyidagi mazmundagi 17^1-band bilan toʻldirilsin:

“17^1. Auditorlik tashkilotining filiali va (yoki) shu’ba korxonasi mavjud boʻlgan taqdirda ushbu filial va (yoki) shu’ba korxona xodimlarining shtat jadvaliga mas’ul xodim lavozimi kiritilishi yoki auditorlik tashkiloti rahbarining qaroriga koʻra bosh tashkilotning mas’ul xodimi yoxud mazkur filial va (yoki) shu’ba korxonaning rahbari mas’ul xodim etib tayinlanishi mumkin.

Auditorlik tashkiloti xodimlarining filial va shu’ba korxonaning mas’ul xodimi, rahbari va xodimlari bilan oʻzaro hamkorlik qilish tartibi auditorlik tashkilotining ichki hujjatlari bilan belgilanadi.”.

8. 20-band quyidagi mazmundagi toʻrtinchi xatboshi bilan toʻldirilsin:

“ish munosabatlarining yoki rejalashtirilayotgan operatsiyalarning maqsadi va xususiyatini oʻrganishni;”;

to‘rtinchi va beshinchi xatboshilar tegishli ravishda beshinchi va oltinchi xatboshilar deb hisoblansin.

9. 21-bandning to‘rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“amaliy ish munosabatlarini doimiy chuqur monitoring qilib borishi lozim.”.

10. 22-bandda:

quyidagi mazmundagi to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“mijoz tomonidan rejalashtirilgan yoki o‘tkazilgan operatsiyalarning maqsadlarini o‘rganish;”;

to‘rtinchi xatboshi beshinchi xatboshi deb hisoblansin;

quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Mijozni lozim darajada tekshirishning kuchaytirilgan chora-tadbirlarini, aynan mijozdan, u tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalar bo‘yicha pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkning manbalari haqidagi ma’lumotlarni olish va (yoki) mazkur mijoz tomonidan o‘tkazilishi rejalashtirilgan yoki o‘tkazilgan operatsiyalarning maqsadlarini o‘rganishni amalga oshirish imkoni bo‘lmagan taqdirda auditorlik tashkiloti bu haqda maxsus vakolatli davlat organiga xabar berishi va bunday mijoz bilan amaliy ish munosabatlariga kirishish yoki bunday mijozning operatsiyalarini amalga oshirishni rad etishi kerak.”.

11. 27-banddagi “yuridik shaxslar uchun” degan so‘zlar “auditorlik tashkilotining mijozlari uchun” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

12. 29-bandning beshinchi xatboshisidagi “har yili” degan so‘zlar “har yili 10-yanvarga qadar” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

13. 57-band quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi auditorlik tashkilotlari tomonidan belgilangan tartibda taqdim etiladigan ma’lumotlar asosida ichki nazoratni tashkil etilishi va uning samaradorligi bo‘yicha mazkur Qoidalarga rioya qilinishi ustidan masofaviy monitoring olib boradi.”.

14. Quyidagi mazmundagi 57^1-band bilan to‘ldirilsin:

“57^1. Auditorlik tashkilotining rahbari ichki va tashqi vaziyatlarning o‘zgarishini inobatga olgan holda, auditorlik tashkilotining ichki nazorat tizimini doimiy ravishda monitoring qiladi va samaradorligini baholab boradi, shuningdek samarali ishlashini ta’minlash uchun zaruratga qarab uni mustahkamlaydi.

Auditorlik tashkilotida ichki audit xizmati mavjud bo‘lganda, ichki nazorat tizimi samaradorligining monitoringi ichki audit xizmati tomonidan amalga oshiriladi.”.

QMMB: 10/26/3899/0736-son
15.07.2026-y.

28 (1256)-сон
737-модда

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3899
2026 - yil 15 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DIN ISHLARI BO‘YICHA QO‘MITASINING
QARORI

Diniy taʼlim muassasalari hamda “Umra” tadbirlarini tashkil etish va oʻtkazish, diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF–184-son “Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 611-son “Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida davlat nazoratini tashkil etish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qaroriga asosan Oʻzbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi qaror qiladi:

1. Diniy taʼlim muassasalari hamda “Umra” tadbirlarini tashkil etish va oʻtkazish, diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi toʻgʻrisidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish boʻyicha vakil hamda Oʻzbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

3. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

QMMB: 10/26/3899/0736-son
15.07.2026-y.

Rais
2026-yil 30-iyun
3-son

TOSHBOYEV SODIQ DONAQULOVICH

Kelishildi:

Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil
2026-yil 19-iyun

BURIYEV ABDUMANNOP ABDURAXMATOVICH

Rais
2026-yil 18-iyun

VAXABOV DAVRON ABDUJALALOVICH

QMMB: 10/26/3899/0736-son
15.07.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi
Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining
2026-yil 30-iyundagi 3-son qaroriga
ILOVA

Diniy ta’lim muassasalari hamda “Umra” tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish, diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

Mazkur Nizom diniy ta’lim muassasalari hamda “Umra” tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish, diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

tadbirkorlik subyekti – belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar;

tekshiruv – tadbirkorlik subyekti tomonidan faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikka qay darajada rioya etilayotganligini tekshirish uchun kerakli materiallar, hujjatlar yoki ularning faoliyatiga doir ma’lumotlarni olish hamda muayyan harakatlarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining (bundan buyon matnda Qo‘mita deb yuritiladi) vakolati doirasida o‘tkaziladigan nazorat tadbiri;

“Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi – Qo‘mita tomonidan diniy ta’lim muassasalari hamda “Umra” tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish faoliyati, diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasida aniq mezonlarga asoslanib, tadbirkorlik subyekti tomonidan o‘z faoliyatida qonunchilik buzilish xavfi darajasini aniqlash mexanizmi.

2. Qo‘mita tomonidan “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 611-son qarori bilan tasdiqlangan Nazorat qiluvchi organlarning “xavfni tahlil etish” tizimlariga qo‘yiladigan minimal talablarga muvofiq ishlab chiqilishi lozim.

QMMB: 10/26/3899/0736-son
15.07.2026-y.

Minimal talablarga zid bo‘lgan “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi tadbirkorlik subyektida tekshiruv o‘tkazish tashabbusi bilan chiqishga asos bo‘lmaydi.

3. “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi asosida aniqlangan huquqbuzarlik xavfi qay darajada bo‘lishidan qat’i nazar, tadbirkorlik subyektiga nisbatan ta’sir choralarini qo‘llashga asos bo‘la olmaydi.

2-bob. Xavf darajasini tahlil qilishga doir umumiy talablar

4. Tadbirkorlik subyektining qonunni buzish xavfi darajasini tahlil qilish jarayoni tadbirkorlik subyekti faoliyatini to‘xtatib turish, unga to‘sqinlik qilish yoki faoliyatini amalga oshirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashishni nazarda tutuvchi xatti-harakatlarni o‘z ichiga olmasligi zarur.

5. Xavf darajasining tahlili quyidagi ma’lumotlarni o‘rganish asosida amalga oshirilishi mumkin:

ma’muriy ma’lumotlar (litsenziya, ruxsat etuvchi va davlat organlarida mavjud boshqa hujjatlar);

davriy statistika ma’lumotlari, jumladan, avval huquqbuzarlik holatlari aniqlangan tadbirkorlik subyektini umumlashtiruvchi belgilar, xabarlar va boshqa korrelyatsion tahlil natijalari;

yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan murojaatlar;

ommaviy axborot vositalaridan yoki boshqa tashqi manbalardan (ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar) olingan ma’lumotlar;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan va tadbirkorlik subyektining odatiy faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatmagan holda, davlat organlari va boshqa tashkilotlardan olinishi mumkin bo‘lgan boshqa ma’lumotlar.

6. Xavf darajasi tahlili jarayonida tadbirkorlik subyektidan hujjatlar va axborotlar talab qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

7. Nazorat vakolatiga kirmaydigan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tahlil qilish va baholash taqiqlanadi.

3-bob. Xavf darajasi tasnifi va ularning mezonlariga doir talablar

8. “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimida xavf darajasini baholash o‘rganiladigan ma’lumotlar asosida shakllantirilgan mazkur Nizomning 1–3-ilovalarida ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlarga tadbirkorlik subyekti faoliyatining muvofiqligini “ball” tizimi asosida baholash orqali amalga oshiriladi.

9. Qo‘mita tadbirkorlik subyektlarining xavf darajasini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlarni “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimiga kiritadi.

mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq Diniy ta’lim muassasalari faoliyati sohasida qonunchilik buzilishi xavfini aniqlash ko‘rsatkichlari;

mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq “Umra” tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish sohasida qonunchilik buzilishi xavfini aniqlash ko‘rsatkichlari;

mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasida qonunchilik buzilishi xavfini aniqlash ko‘rsatkichlari.

Bunda tashkilotlarning xavf darajasi ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha mazkur Nizomning 5-bandida ko‘rsatilgan ma’lumotlardan foydalangan holda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimida avtomatik ravishda alohida aniqlanadi.

10. “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimida tadbirkorlik subyektlari faoliyatida huquqbuzarlik sodir etish xavfi past, o‘rta va yuqori darajalarga tasniflanadi.

Bunda baholash natijasida aniqlangan xavf darajasining umumiy ballari asosida tadbirkorlik subyekti tomonidan huquqbuzarlik sodir etish xavfi quyidagi uch xil toifada tasniflanadi:

xavf darajasi yuqori – baholash natijalari bo‘yicha 81 balldan 100 ballgacha bo‘lgan ballarni tashkil etuvchi tadbirkorlik subyektlari;

xavf darajasi o‘rta – baholash natijalari bo‘yicha 61 balldan 81 ballgacha bo‘lgan ballarni tashkil etuvchi tadbirkorlik subyektlari;

xavf darajasi past – baholash natijalari bo‘yicha 61 ballgacha bo‘lgan ballarni tashkil etuvchi tadbirkorlik subyektlari.

11. Baholash natijalariga muvofiq huquqbuzarlik xavfi yuqori va o‘rta tasnifidagi tadbirkorlik subyektlarida profilaktika tadbirlari va tekshiruvlarni o‘tkazish amaldagi qonunchilik hujjatlari, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF–184-son “Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 13-sentabrdagi PQ–374-son qarori bilan tasdiqlangan Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar va profilaktika tadbirlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 611-son qarori bilan tasdiqlangan Nazorat qiluvchi organlarning “xavfni tahlil etish” tizimlariga qo‘yiladigan minimal talablar asosida amalga oshiriladi.

Bunda tadbirkorlik subyektlarida profilaktika tadbirlari va tekshiruvlar faqatgina Qo‘mitaning vakolatiga kiradigan masalalarni o‘rganish maqsadida o‘tkaziladi.

12. Xavf darajasi past bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o‘tkazilmaydi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

13. Xavfni tahlil etish natijalaridan norozi bo‘lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilishga haqli.

14. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

QMMB: 10/26/3899/0736-son
15.07.2026-y.

Diniy ta’lim muassasalari hamda “Umra” tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish faoliyati, diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga 1-ILOVA

Diniy ta’lim muassasalari faoliyati sohasida qonunchilik buzilishi xavfini aniqlash

KO‘RSATKICHLARI

T/r	Xavf darajasini baholash ko‘rsatkichlari	Ko‘rsatkichlarga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan ballar (maksimal 100 ball)	O‘tkazilgan tahlil yakuniga ko‘ra qo‘yilgan ballar
1.	Diniy ta’lim muassasalarining faoliyati uchun litsenziya olmasdan diniy ta’lim berish faoliyati bilan shug‘ullanganligi	50	
2.	Diniy tashkilot sifatida adliya organidan ro‘yxatdan o‘tkazmasdan faoliyat ko‘rsatilganligi	20	
3.	Diniy fanlarni o‘qitishda o‘quv konsepsiyasi, reja va dasturlari O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi bilan kelishilmaganligi	15	
4.	Ta’lim muassasasida voyaga yetmagan shaxslarni ularning xohish-irodasiga, ota-onasining yoki qonuniy vakillarining xohish-irodasiga zid tarzda diniy ta’lim berilganligi	5	
5.	O‘quv jarayonida belgilangan tartibda dinshunoslik ekspertizasidan o‘tgan diniy adabiyotlardan foydalanilmaganligi	2	
6.	Ta’lim jarayonida urush, zo‘ravonlik, prozelitizm va har qanday missionerlik faoliyatining targ‘ib qilinganligi	3	
7.	Diniy fanlarni diniy ma’lumotga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan o‘qitilganligi	3	
8.	Millatlararo va dinlararo totuvlik buzilishiga, O‘zbekiston to‘g‘risida noto‘g‘ri axborotlar tarqatilishiga hamda uning tarixiy, madaniy va ma’naviy boyliklari buzib ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘yilganligi	2	
Jami:		**100**	

QMMB: 10/26/3899/0736-son
15.07.2026-y.

Diniy ta’lim muassasalari hamda “Umra” tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish faoliyati, diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
2-ILOVA

“Umra” tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish sohasida qonunchilik buzilishi xavfini aniqlash
KO‘RSATKICHLARI

T/r	Xavf darajasini baholash ko‘rsatkichlari	Ko‘rsatkichlarga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan ballar (maksimal 100 ball)	O‘tkazilgan tahlil yakuniga ko‘ra qo‘yilgan ballar
1.	“Umra” tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish faoliyati bilan litsenziya olmasdan shug‘ullanganligi	45	
2.	Fuqarolarni diniy amallarni (Haj va Umra) bajarish uchun Saudiya Arabistoni Podshohligiga tegishli turdagi vizasiz yuborilganligi, ziyoratchilar uchun Saudiya Arabistoni Podshohligining faqat “Umra” vizasini rasmiylashtirmaganligi	25	
3.	“Umra” amallarini bajarishda ziyoratchilarning guruh rahbari etib faqat O‘zbekiston musulmonlari idorasi bilan tuziladigan shartnoma asosida diniy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassisni tayinlanmaganligi	10	
4.	Voyaga yetmagan fuqarolarga “Umra” xizmatlarini ko‘rsatganligi	5	
5.	“Umra” xizmatlarini turoperator va turagentlar orqali amalga oshirmaganligi	5	
6.	“Umra” tadbirlarini tashkil etish bilan bog‘liq barcha harakatlarni “Haj va Umra yagona portali” orqali amalga oshirilmaganligi, shu jumladan “Umra” tadbiriga boradigan ziyoratchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni safardan oldin “Haj va Umra yagona portali”ga to‘liq kiritib borilmaganligi	2	
7.	“Umra” xizmatlarini Saudiya Arabistoni Podshohligidagi hamkor tashkilot o‘rtasida imzolanadigan shartnomaga muvofiq hamda ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lovlarni bank muassasalari orqali amalga oshirmaganligi	5	
8.	“Umra” xizmatlarini ko‘rsatishda ziyoratchilarni toifasi uch yulduzdan kam bo‘lgan mehmonxonalarga joylashtirilganligi	3	
	Jami:	**100**	

QMMB: 10/26/3899/0736-son
15.07.2026-y.

Diniy ta’lim muassasalari hamda “Umra” tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish faoliyati, diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
3-ILOVA

Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasida qonunchilik buzilishi xavfini aniqlash
KO‘RSATKICHLARI

T/r	Xavf darajasini baholash ko‘rsatkichlari	Ko‘rsatkichlarga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan ballar (maksimal 100 ball)	O‘tkazilgan tahlil yakuniga ko‘ra qo‘yilgan ballar
1.	Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatishda ularning dinshunoslik ekspertizasidan o‘tkazilmaganligi	50	
2.	O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan materiallar ijobiy xulosa olingandan keyin gologramma bilan tamg‘alanmaganligi	32	
3.	Diniy mazmundagi materiallarni noqonuniy tayyorlash, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tarqatish	5	
4.	Ijobiy xulosa asosida tayyorlangan diniy mazmundagi materiallarni qalbaki gologramma bilan tamg‘alanganligi	5	
5.	Diniy mazmundagi materiallarni O‘zbekiston Respublikasi hududida tayyorlash va tarqatish ular bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining ijobiy xulosasi olingandan so‘ng bir yil muddat ichida amalga oshirilmaganligi	3	
6.	Dinshunoslik ekspertizasining bir necha ijobiy xulosalari asosida bir turdagi materiallarning tayyorlanganligi	3	
7.	O‘zbekiston Respublikasi hududida tayyorlash, olib kirish, tarqatishga mo‘ljallangan diniy mazmundagi materiallarning dinshunoslik ekspertizasi natijalari va yakuniy xulosaga muvofiq emasligi	2	
Jami:		**100**	

QMMB: 10/26/2482-1/0749-son
17.07.2026-y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 2482-1
2026 - yil 16 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI DAVLAT ZAXIRALARINI BOSHQARISH QO‘MITASINING QARORI

Birinchi guruh moddiy boyliklarini mas’ul saqlovchi tashkilotlarda maqbul harorat-namlik darajasini saqlab turish, laboratoriya va sanitariya nazoratini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga o‘zgartirishlar kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrdagi PF–230-son “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi faoliyatining takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi va 2026-yil 12-maydagi PF–84-son “Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi, fitosanitariya va veterinariya sohalarida yagona davlat boshqaruvi va nazorat tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda 2017-yil 28-apreldagi PQ–2935-son “O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasining 2013-yil 25-iyundagi 2-son qarori (ro‘yxat raqami 2482, 2013-yil 22-iyul) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-yil, 30-son, 394-modda) bilan tasdiqlangan Birinchi guruh moddiy boyliklarini mas’ul saqlovchi tashkilotlarda maqbul harorat-namlik darajasini saqlab turish, laboratoriya va sanitariya nazoratini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Rais

2026-yil 25-iyun

10-son

KURBANOV MIRSHOD MAXMUDOVICH

QMMB: 10/26/2482-1/0749-son
17.07.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasining 2026-yil 25-iyundagi 10-son qaroriga ILOVA

Birinchi guruh moddiy boyliklarini mas’ul saqlovchi tashkilotlarda maqbul harorat-namlik darajasini saqlab turish, laboratoriya va sanitariya nazoratini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga kiritilayotgan o‘zgartirishlar

1. 52-banddagi “Metrologik xizmat ko‘rsatish markazi” degan so‘zlar “O‘zbekiston milliy metrologiya instituti” davlat muassasasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

2. 135-banddagi “veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat organlari” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi qo‘mitasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

3. 140-banddagi “sanitariya-epidemiologiya xizmati” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining hududiy boshqarmalari yoki tuman (shahar) bo‘limlari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3281-6
2026 - yil 16 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING QARORI

O‘zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarining 28-bandiga o‘zgartirish kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi va “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 29-avgustdagi 18/5-son qarori (ro‘yxat raqami 3281, 2020-yil 31-avgust) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.08.2020-y., 10/20/3281/1242-son) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarining 28-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“28. Maxsus valyuta hisobvaraqlariga kiritilgan mablag‘lar qat’iy ravishda buyurtmalarda ko‘rsatilgan maqsadlar uchun sarflanadi.

Bunda, maxsus valyuta hisobvarag‘iga kiritilgan mablag‘lardan foydalanish maqsadi mijoz tomonidan bankka taqdim etiladigan qo‘shimcha buyurtma asosida boshqa joriy xalqaro valyuta operatsiyasini amalga oshirish uchun o‘zgartirilishi mumkin.”.

2. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki Raisi
2026-yil 13-iyul
20/4-son

ISHMETOV TIMUR
AMINDJANOVICH

QMMB: 10/26/3376-2/0743-son
17.07.2026-y.

28 (1256)-son
740-modda

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3376-2
2026 - yil 16 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRINING BUYRUG‘I

Temir yo‘l transporti hamda metropolitenda harakat va tashishlar xavfsizligi talablarining buzilishi bilan bog‘liq hodisalarni tasniflash, xizmat tekshiruvini olib borish va hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-dekabrdagi 668-son “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq buyuraman:

1. O‘zbekiston Respublikasi transport vazirining 2022-yil 9-iyundagi 7-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3376, 2022-yil 27-iyul) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.07.2022-y., 10/22/3376/0682-son) bilan tasdiqlangan Temir yo‘l transporti hamda metropolitenda harakat va tashishlar xavfsizligi talablarining buzilishi bilan bog‘liq hodisalarni tasniflash, xizmat tekshiruvini olib borish va hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

QMMB: 10/26/3376-2/0743-son
17.07.2026-y.

Vazir
2026-yil 22-iyun
8-son

MAXKAMOV ILXOM RUSTAMOVICH

Kelishildi:

O‘zbekiston Respublikasi
DXX Raisi
2026-yil 19-iyun

KURBANOV BAXODIR NIZAMOVICH

Vazir
2026-yil 20-aprel

IKRAMOV AZIZBEK ISRAILOVICH

Rais
2026-yil 15-aprel

VAXABOV DAVRON ABDUJALALOVICH

Vazir
2026-yil 11-aprel

TASHPULATOV AZIZ ANVAROVICH

QMMB: 10/26/3376-2/0743-son
17.07.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi transport vazirining
2026-yil 22-iyundagi 8-son buyrug‘iga
ILOVA

Temir yo‘l transporti hamda metropolitenda harakat va tashishlar xavfsizligi talablarining buzilishi bilan bog‘liq hodisalarni tasniflash, xizmat tekshiruvini olib borish va hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. 3-bandning birinchi xatboshisidagi “epikirovka punktlarida” degan so‘zlar “ekipirovka punktlarida” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

2. 5-bandning o‘ninchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“harakatdagi tarkibning o‘z-o‘zidan yoki tashqi ta’sir kuchi ostida ruxsat etilmagan (boshqaruvsiz) harakatlanishi;”.

3. 6-bandda:

uchinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

to‘rtinchi – o‘n uchinchi xatboshilar tegishli ravishda uchinchi – o‘n ikkinchi xatboshilar deb hisoblansin.

4. 7-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Temir yo‘l transportida harakat va tashishlar xavfsizligining buzilishi yengib bo‘lmaydigan kuch, ya’ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyatlar (tabiiy ofatlar, gidrometeorologik va geologik xavfli hodisalar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlar) yoki uchinchi tomon ta’sirida sodir bo‘lgan holatlar (ishlab chiqaruvchi (yetkazib beruvchi)ning kafolat muddati davrida harakatdagi tarkib, temir yo‘l infratuzilmasi obyektlari yoki ularning ehtiyot qismlaridagi nosozliklar, temir yo‘l transporti xodimlarining ish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan holatdagi temir yo‘l kesishmalarida sodir bo‘lgan to‘qnashuvlar, temir yo‘l izlariga begona shaxslar tomonidan buyumlar qo‘yilishi yoki qoldirilishi) boshqa hodisalar sifatida baholanadi.”.

5. 11-bandning o‘n yettinchi xatboshisidagi “blakirovkalash” degan so‘z “blokirovkalash” degan so‘z bilan almashtirilsin.

6. 12-bandda:

oltinchi va yettinchi xatboshilar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“yo‘lovchi poyezdlariga yordamchi poyezd talab qilinishi;

svetoforning taqiqlovchi ishorasidan o‘tib ketish holatini yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan ruxsat ishorasini taqiqlovchi ishoraga almashib qolishi;”;

sakkizinchi xatboshidagi “uzatilishini ruxsatsiz to‘xtatilishi” degan so‘zlar “uzatilishining nosozlik sababli to‘xtatilishi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

o‘n birinchi xatboshi chiqarib tashlansin.

7. 13-banddan “(temir yo‘l izlariga begona shaxslar tomonidan buyumlar tashlanishi)” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

8. 17-bandning ikkinchi xatboshisidagi “Toshkent metropoliteni” DUK boshlig‘ining” degan so‘zlar “Toshkent metropoliteni” AJ boshqaruv raisining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

9. 19-bandda:

yettinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“tekshiruv materiallarini ushbu Nizom talablariga muvofiq rasmiylashtirish hamda mazkur materiallar nusxalarini o‘n besh ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda Transport nazorati inspeksiyasiga taqdim etish. Obyektiv sabablarga ko‘ra ushbu muddat yana o‘n besh ish kunigacha uzaytirilishi mumkin. Bunda obyektiv sabablarga qo‘shimcha ekspertiza yoki tadqiqotlar o‘tkazish zarurati, tergov natijalarini kutish, qo‘shimcha hujjat va ma’lumotlarni olish kiradi.”.

10. 29-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“29. Xizmat tekshiruvi natijalari bo‘yicha vazirlik komissiyasi, temir yo‘l transporti subyekti komissiyasi va metropoliten komissiyasi tomonidan barcha materiallarni o‘z ichiga olgan ikkita asl nusxada yig‘majild shakllantiriladi.

Bunda ushbu yig‘majildning bir nusxasi temir yo‘l transporti subyektiga, ikkinchi nusxasi esa Transport nazorati inspeksiyasining tegishli hududiy bo‘linmasiga taqdim etiladi. Boshqa tashkilotlarga hujjatlar elektron tarzda taqdim etilishi mumkin.”.

11. 30-bandda:

beshinchi xatboshidagi “Toshkent metropoliteni” DUKning” degan so‘zlar “Toshkent metropoliteni” AJning” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

yettinchi xatboshi “texnik xulosa” degan so‘zlardan keyin “(faqat poyezdlar halokati va avariyalar bo‘yicha)” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

sakkizinchi xatboshi “dastlabki tashxislar” degan so‘zlardan keyin “(faqat poyezdlar halokati va avariyalar bo‘yicha)” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

o‘ninchi xatboshidagi “asosida” degan so‘z “mavjud bo‘lsa” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

o‘n birinchi xatboshi “tahlili natijalari” degan so‘zlardan keyin “(jihozlangan bo‘lsa)” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

o‘n ikkinchi xatboshi “tahlili natijalari” degan so‘zlardan keyin “(jihozlangan bo‘lsa)” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

o‘n to‘rtinchi xatboshi “varaqlari” degan so‘zdan keyin “(metropoliten bundan mustasno)” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

o‘n oltinchi xatboshi “nusxasi” degan so‘zdan keyin “(poyezdlar grafigi yuritilmaydigan holatlar bundan mustasno)” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

o‘n yettinchi xatboshi “ko‘chirmalar” degan so‘zdan keyin “(faqat poyezdlar halokati va avariyalar bo‘yicha)” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

yigirmanchi xatboshi “ma’lumotnoma” degan so‘zdan keyin “(metropoliten bundan mustasno)” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

yigirma uchinchi xatboshidagi “Toshkent metropoliteni” DUKga” degan so‘zlar “Toshkent metropoliteni” AJga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

12. 31-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“31. Yig‘majildning asl nusxalari Transport nazorati inspeksiyasi va “Toshkent metropoliteni” AJ yoki temir yo‘l transporti subyektiga beriladi.”.

13. 32-bandda:

birinchi xatboshidagi “Toshkent metropoliteni” DUK” degan so‘zlar “Toshkent metropoliteni” AJ” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidan “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi hamda” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

14. 33-bandda:

birinchi xatboshidagi “Toshkent metropoliteni” DUK” degan so‘zlar “Toshkent metropoliteni” AJ” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “Toshkent metropoliteni” DUKning” va “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligiga” degan so‘zlar tegishli ravishda “Toshkent metropoliteni” AJning” va “Transport nazorati inspeksiyasiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Obyektiv sabablarga ko‘ra ushbu muddat yana o‘n besh ish kunigacha uzaytirilishi mumkin. Bunda obyektiv sabablarga qo‘shimcha ekspertiza yoki tadqiqotlar o‘tkazish zarurati, tergov natijalarini kutish, qo‘shimcha hujjat va ma’lumotlarni olish kiradi.”.

15. 34-banddagi “Toshkent metropoliteni” DUK” degan so‘zlar “Toshkent metropoliteni” AJ” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

16. 35-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“35. Temir yo‘l transportida yoki metropolitenda sodir bo‘lgan poyezdlar halokati va avariyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ushbu Nizomning 9-ilovasiga, ishdagi alohida hodisalar, ishdagi hodisalar hamda boshqa hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar esa 10-ilovasiga muvofiq temir yo‘l transporti subyekti yoki “Toshkent metropoliteni” AJ tomonidan rasmiylashtirilib, Transport nazorati inspeksiyasiga taqdim etiladi.”.

17. 9-ilovaning matnidagi “epikirovka punktlarida” degan so‘zlar “ekipirovka punktlarida” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

18. 10-ilovada:

a) “Ishdagi alohida hodisalar” bo‘limida:

“Temir yo‘l transportida” bobining sakkizinchi pozitsiyasidagi “Temir yo‘lning harakatdagi tarkibi poyezdni qabul qilish, jo‘natish yo‘nalishiga yoki bekat oralig‘iga ketib qolishi” degan so‘zlar “Harakatdagi tarkibning o‘z-o‘zidan yoki tashqi ta’sir kuchi ostida ruxsat etilmagan (boshqaruvsiz) harakatlanishi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

“Metropolitenda” bobining o‘n beshinchi pozitsiyasidagi “blakirovkalash” degan so‘z “blokirovkalash” degan so‘z bilan almashtirilsin.

b) “Ishdagi hodisalar” bo‘limida:

“Temir yo‘l transportida” bobidan birinchi pozitsiya chiqarib tashlansin.

“Metropolitenda” bobida:

beshinchi pozitsiyadagi “Harakatdagi tarkibni ruxsat etilmasdan ortga harakatlanishi” degan so‘zlar “Yo‘lovchi poyezdlariga yordamchi poyezd talab qilinishi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

oltinchi pozitsiyadagi “Poyezddagi maxsus ulagich uskunalarning o‘z-o‘zidan ajralib ketishi” degan so‘zlar “Svetoforning taqiqlovchi ishorasidan o‘tib ketish holatini yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan ruxsat ishorasini taqiqlovchi ishoraga almashib qolishi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

yettinchi pozitsiyadagi “uzatilishini ruxsatsiz to‘xtatilishi” degan so‘zlar “uzatilishining nosozlik sababli to‘xtatilishi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

o‘ninchi pozitsiya chiqarib tashlansin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3900
2026 - yil 16 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO‘JALIGI
VAZIRINING
BUYRUG‘I

Yer usti suvidan oqilona foydalanish va suv isteʼmoli qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF–184-son “Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 611-son “Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida davlat nazoratini tashkil etish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qaroriga asosan buyuraman:

1. Yer usti suvidan oqilona foydalanish va suv isteʼmoli qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi toʻgʻrisidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish boʻyicha vakil hamda Oʻzbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

3. Ushbu buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

Vazir
2026-yil 2-iyul
01/30-3-son

XAMRAYEV SHAVKAT
RAXIMOVICH

Kelishildi:

Rais 2026-yil 12-iyun		VAXABOV DAVRON ABDUJALALOVICH
Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish boʻyicha vakil 2026-yil 4-iyun		BURIYEV ABDUMANNOP ABDURAXMATOVICH

Oʻzbekiston Respublikasi suv xoʻjaligi vazirining 2026-yil
2-iyuldagi 01/30-3-son buyrugʻiga
ILOVA

Yer usti suvidan oqilona foydalanish va suv isteʼmoli qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi toʻgʻrisidagi NIZOM

Mazkur Nizom yer usti suvidan oqilona foydalanish va suv isteʼmoli qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

tadbirkorlik subyekti – belgilangan tartibda davlat roʻyxatidan oʻtgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar;

tekshiruv – tadbirkorlik subyekti tomonidan faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikka qay darajada rioya etilayotganligini tekshirish uchun kerakli materiallar, hujjatlar yoki ularning faoliyatiga doir maʼlumotlarni olish hamda muayyan harakatlarni amalga oshirish orqali Oʻzbekiston Respublikasi Suv xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Suv xoʻjaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi (bundan buyon matnda Inspeksiya deb yuritiladi) vakolati doirasida oʻtkaziladigan nazorat tadbiri;

“Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi – Inspeksiya tomonidan yer usti suvidan oqilona foydalanish va suv isteʼmoli sohasida aniq mezonlarga asoslanib, tadbirkorlik subyekti tomonidan oʻz faoliyatida qonunchilik buzilish xavfi darajasini aniqlash mexanizmi.

2. Inspeksiya tomonidan “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 611-son qarori bilan tasdiqlangan Nazorat qiluvchi organlarning “xavfni tahlil etish” tizimlariga qoʻyiladigan minimal talablarga muvofiq ishlab chiqilishi lozim.

Minimal talablarga zid boʻlgan “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi tadbirkorlik subyektida tekshiruv oʻtkazish tashabbusi bilan chiqishga asos boʻlmaydi.

3. “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi asosida aniqlangan huquqbuzarlik xavfi qay darajada boʻlishidan qatʼi nazar, tadbirkorlik subyektiga nisbatan taʼsir choralarini qoʻllashga asos boʻla olmaydi.

2-bob. Xavf darajasini tahlil qilishga doir umumiy talablar

4. Tadbirkorlik subyektining qonunni buzish xavfi darajasini tahlil qilish jarayoni tadbirkorlik subyekti faoliyatini toʻxtatib turish, unga toʻsqinlik qilish yoki faoliyatini amalga oshirishga toʻgʻridan-toʻgʻri aralashishni nazarda tutuvchi xatti-harakatlarni oʻz ichiga olmasligi zarur.

5. Xavf darajasining tahlili quyidagi maʼlumotlarni oʻrganish asosida amalga oshirilishi mumkin:

maʼmuriy maʼlumotlar (litsenziya, ruxsat etuvchi va davlat organlarida mavjud boshqa hujjatlar);

davriy statistika maʼlumotlari, jumladan, avval huquqbuzarlik holatlari aniqlangan tadbirkorlik subyektini umumlashtiruvchi belgilar, xabarlar va boshqa korrelyatsion tahlil natijalari;

yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan murojaatlar;

ommaviy axborot vositalaridan yoki boshqa tashqi manbalardan (ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar) olingan maʼlumotlar;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan va tadbirkorlik subyektining odatiy faoliyatiga bevosita yoki bilvosita taʼsir koʻrsatmagan holda, davlat organlari va boshqa tashkilotlardan olinishi mumkin boʻlgan boshqa maʼlumotlar.

6. Xavf darajasi tahlili jarayonida tadbirkorlik subyektidan hujjatlar va axborotlar talab qilinishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

7. Nazorat vakolatiga kirmaydigan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tahlil qilish va baholash taqiqlanadi.

3-bob. Xavf darajasi tasnifi va ularning mezonlariga doir talablar

8. “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimida xavf darajasini baholash oʻrganiladigan maʼlumotlar asosida shakllantirilgan mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq Yer usti suvidan oqilona foydalanish va suv isteʼmoli sohasida qonunchilik buzilishi xavfini aniqlash koʻrsatkichlariga tadbirkorlik subyekti faoliyatining muvofiqligini “ball” tizimi asosida baholash orqali amalga oshiriladi.

9. Inspeksiya tadbirkorlik subyektlarining xavf darajasini baholash uchun mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq Yer usti suvidan oqilona foydalanish va suv isteʼmoli sohasida qonunchilik buzilishi xavfini aniqlash koʻrsatkichlarini “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimiga kiritadi.

Bunda tashkilotlarning xavf darajasi ushbu koʻrsatkichlar boʻyicha mazkur Nizomning 5-bandida koʻrsatilgan maʼlumotlardan foydalangan holda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimida avtomatik ravishda alohida aniqlanadi.

10. “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimida tadbirkorlik subyektlari faoliyatida huquqbuzarlik sodir etish xavfi past, oʻrta va yuqori darajalarga tasniflanadi.

Bunda baholash natijasida aniqlangan xavf darajasining umumiy ballari asosida tadbirkorlik subyekti tomonidan huquqbuzarlik sodir etish xavfi quyidagi uch xil toifada tasniflanadi:

xavf darajasi yuqori – baholash natijalari boʻyicha 81 balldan 100 ballgacha boʻlgan ballarni tashkil etuvchi tadbirkorlik subyektlari;

xavf darajasi oʻrta – baholash natijalari boʻyicha 61 balldan 81 ballgacha boʻlgan ballarni tashkil etuvchi tadbirkorlik subyektlari;

xavf darajasi past – baholash natijalari boʻyicha 61 ballgacha boʻlgan ballarni tashkil etuvchi tadbirkorlik subyektlari.

11. Baholash natijalariga muvofiq huquqbuzarlik xavfi yuqori va oʻrta tasnifidagi tadbirkorlik subyektlarida profilaktika tadbirlari va tekshiruvlarni oʻtkazish amaldagi qonunchilik hujjatlari, jumladan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF–184-son “Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2022-yil 13-sentabrdagi PQ–374-son qarori bilan tasdiqlangan Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar va profilaktika tadbirlarini oʻtkazish tartibi toʻgʻrisidagi nizom va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 611-son qarori bilan tasdiqlangan Nazorat qiluvchi organlarning “xavfni tahlil etish” tizimlariga qoʻyiladigan minimal talablar asosida amalga oshiriladi.

Bunda tadbirkorlik subyektlarida profilaktika tadbirlari va tekshiruvlar faqatgina Inspeksiyasning vakolatiga kiradigan masalalarni oʻrganish maqsadida oʻtkaziladi.

12. Xavf darajasi past boʻlgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar oʻtkazilmaydi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

13. Xavfni tahlil etish natijalaridan norozi bo‘lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilishga haqli.

14. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Yer usti suvidan oqilona foydalanish va suv isteʼmoli qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi iyuldagi nizomga ILOVA

Yer usti suvidan oqilona foydalanish va suv isteʼmoli sohasida qonunchilik buzilishi xavfini aniqlash KOʻRSATKICHLARI

T/r	Xavf darajasini baholashning asosiy koʻrsatkichlari va sub-koʻrsatkichlari*	Koʻrsatkichlarga qoʻyilishi mumkin boʻlgan ballar (maksimal 100 ball)	Oʻtkazilgan tahlil yakuniga koʻra qoʻyilgan ballar
1.	**Suvdan foydalanishda suvning hisobi va hisobotini yuritish tartibiga rioya etmaslik**	25	
	1.1. Suv olish joylari suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlanmaganligi	6	
	1.2. Suvni hisobga olish vositalari bilan jihozlangan suv olish joylarida suvning hisobi yuritilmaganligi	10	
	1.3. Oʻziga tegishli suv xoʻjaligi obyektlari va ulardagi inshootlarni texnik jihatdan soz holatda saqlanmaganligi, shuningdek, ulardan foydalanishning belgilangan qoidalariga rioya etilmaganligi	2	
	1.4. Suvning kundalik hisobi jurnallari belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtkazilmaganligi	3	
	1.5. Yetkazib berilgan suv boʻyicha “Suv hisobi” axborot tizimi orqali ikki tomonlama tuziladigan elektron dalolatnoma suvdan foydalanuvchi tomonidan 10 kunlik muddatda koʻrib chiqilmaganligi hamda e’tiroz boʻlmaganda tasdiqlanmaganligi	3	
	1.6. Olingan suvdan qanday maqsadlarda va qaysi konturda foydalanilayotganligi toʻgʻrisida belgilangan muddatlarda suv	1	

T/r	Xavf darajasini baholashning asosiy koʻrsatkichlari va sub-koʻrsatkichlari*	Koʻrsatkichlarga qoʻyilishi mumkin boʻlgan ballar (maksimal 100 ball)	Oʻtkazilgan tahlil yakuniga koʻra qoʻyilgan ballar
	yetkazib beruvchi tashkilotlarga ma’lumot taqdim etilmaganligi		
2.	**Suvdan ruxsat beruvchi hujjalarsiz foydalanish**	27	
	2.1. Suv olish uchun buyurtmanoma berilmaganligi	7	
	2.2. *Suvdan foydalanish jadvali ishlab chiqilmaganligi va tegishli suv yetkazib beruvchi tashkilot bilan* kelishilmaganligi	1	
	2.3. Suvdan foydalanish toʻgʻrisidagi shartnomasiz suvdan foydalanilganligi	7	
	2.4. Suvdan foydalanish toʻgʻrisidagi shartnoma “Suv hisobi” axborot tizimida elektron shaklda tasdiqlanmaganligi	4	
	2.5. Suv obyektlaridan ruxsatsiz yoki oʻzboshimchalik bilan suv olinganligi	6	
	2.6. Suv yetkazib beruvchi tashkilotlar bilan kelishilmagan holda, suv uzatilishini koʻpaytirish yoki kamaytirish maqsadida suv obyektlaridagi gidrotexnika inshootlarini oʻzboshimchalik bilan oʻzgartirishi, shuningdek ularga muvaqqat toʻsiqlarni, nasos stansiyalarini, nasoslarni, suvni koʻtaradigan va suv oladigan boshqa inshootlarning oʻrnatilganligi	2	
3.	**Suvlardan nooqilona foydalanish**	20	
	3.1. Belgilangan suv olish limitlariga rioya etilmaganligi	7	
	3.2. Suvni tejash imkonini beradigan agrotexnika tadbirlari amalga oshirilmaganligi	2	
	3.3. Sugʻorish uchun berilgan suvlar (oqizib yuborilishi texnologik jarayonda nazarda tutilmagan boʻlsa) kollektor-drenaj	5	

T/r	Xavf darajasini baholashning asosiy koʻrsatkichlari va sub-koʻrsatkichlari*	Koʻrsatkichlarga qoʻyilishi mumkin boʻlgan ballar (maksimal 100 ball)	Oʻtkazilgan tahlil yakuniga koʻra qoʻyilgan ballar
	tarmogʻiga, suv obyektlariga va joy relefiga oqizib yuborilganligi		
	3.4. Suv resurslaridan nooqilona foydalanilganligi	5	
	3.5. Suvdan maqsadsiz foydalanilishga yoʻl qoʻyilganligi	1	
4.	**Subsidiya olib joriy qilingan suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalaridan maqsadli va samarali foydalanmaslik**	15	
	4.1. Subsidiya olib joriy qilingan suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalaridan besh yildan kam boʻlmagan muddatda maqsadli va samarali foydalanilmaganligi	5	
	4.2. Suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalari joriy qilingan maydonga loyihada belgilangan ekindan boshqa ekin joylashtirilganda, ushbu ekinni sugʻorishda mavjud suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalaridan toʻliq foydalanish imkoni boʻlmagan taqdirda, uning asosiy qismlaridan foydalanilmaganligi	5	
	4.3. Subsidiya olib joriy qilingan suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalaridan yoki uning asosiy qismlaridan maqsadli va samarali foydalanmaslik holati tasdiqlanib, berilgan ogohlantirish xati boʻyicha subsidiya belgilangan tartibda ixtiyoriy qaytarilmaganligi	1	
	4.4. Suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalarini joriy qilish boʻyicha subsidiyaning dastlabki 50 foizi toʻlab berilganidan soʻng ikki oy muddat ichida texnologiyalar oʻrnatib ishga tushirilmaganligi	1	
	4.5. Suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalari joriy qilinganda sugʻorish uchun olingan suv hajmi suv oʻlchash uskunalari orqali yuritilmaganligi	3	

T/r	Xavf darajasini baholashning asosiy koʻrsatkichlari va sub-koʻrsatkichlari*	Koʻrsatkichlarga qoʻyilishi mumkin boʻlgan ballar (maksimal 100 ball)	Oʻtkazilgan tahlil yakuniga koʻra qoʻyilgan ballar
5.	**Suvni va suv obyektlarini muhofaza qilish, suvning zararli ta'sirining oldini olish boʻyicha belgilangan majburiyat, tartib va rejimlarga rioya etmaslik**	13	
	5.1. Boshqa suvdan foydalanuvchilarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari buzilishiga, shuningdek suv xoʻjaligi obyektlariga va tabiiy resurslarga zarar yetkazilishiga yoʻl qoʻyish	2	
	5.2. Suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonalarini, sohil boʻyi mintaqalarini va sanitariya muhofazasi zonalarini saqlashning belgilangan rejimiga rioya etilmaganligi	5	
	5.3. Suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etadigan avariyalar hamda boshqa tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganligi toʻgʻrisida oʻziga xizmat koʻrsatadigan suv yetkazib beruvchi tashkilotlar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari oʻz vaqtida xabardor qilinmaganligi	2	
	5.4. Suvlarning ifloslanishi, bulgʻanishi va kamayib ketishining oldini olish hamda ularni bartaraf etish, suv obyektlariga suvlarning zararli ta'sirini bartaraf etish choralari koʻrilmaganligi	2	
	5.5. Oqova suvlar suv obyektlariga va joy relyefiga oqiziladigan joylarning avtomatik ravishda monitoring qilish vositalari bilan jihozlanmaganligi	2	
Jami ballar yigʻindisi		**100**	

**) Izoh: har bir koʻrsatkich va sub-koʻrsatkich alohida hisoblanadi.*

28 (1256)-son
742-modda

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3901
2026 - yil 16 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI SANOAT, RADIATSIYA VA YADRO XAVFSIZLIGI QO‘MITASINING QARORI

Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va konditsiyalashda hamda gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishda xavfsizlik talablarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrdagi PF–224-son “Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va konditsiyalashda hamda gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishda xavfsizlik talablari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Qo'mita raisi
30-Iyun 2026-yil
48- son

RAFIQOV ABDUVAQQOS VOHIDOVICH

Kelishildi:

Direktor 15-Iyun 2026-yil		JUMANAZAROV AKMAL RUZIKULOVICH
Раис 08-Iyun 2026-yil		ABDUXAKIMOV AZIZ ABDUKAXAROVICH
Vazir 14-May 2026-yil		IKRAMOV AZIZBEK ISRAILOVICH
Fanlar akademiyasi prezidenti 08-May 2026-yil		AYUPOV SHAVKAT ABDULLAYEVICH
Direktor 04-May 2026-yil		AXMEDXADJAYEV AZIM ISRAILOVICH
Vazir 28-Aprel 2026-yil		XUDAYAROV ASILBEK ANVAROVICH

QMMB: 10/26/3901/0746-son
17.07.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasining
2026-yil 30-iyundagi 48-son qaroriga
ILOVA

Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va konditsiyalashda hamda gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishda XAVFSIZLIK TALABLARI

Mazkur Xavfsizlik talablari yadroviy qurilmalar, radiatsiyaviy manbalar, qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlash punktlarida qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash hamda konditsiyalash, shuningdek gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lish jarayonlarida radiatsiyaviy va yadroviy xavfsizlikni ta’minlashga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

Ushbu Xavfsizlik talablari quyidagi radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishga nisbatan tatbiq etilmaydi:

radioaktiv rudalarni qazib olish va boyitish natijasida hosil bo‘ladigan qattiq radioaktiv chiqindilarga;

tarkibida tabiiy radionuklidlar miqdori yuqori bo‘lgan mineral va organik xomashyoni qazib olish hamda qayta ishlash natijasida hosil bo‘ladigan qattiq radioaktiv chiqindilarga;

radioaktiv moddalar bilan ifloslangan hududlarni reabilitatsiya qilish natijasida hosil bo‘ladigan qattiq radioaktiv chiqindilarga;

foydalanilgan yopiq ionlashtiruvchi nurlanish manbalariga.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Xavfsizlik talablarida quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar – atom energiyasidan foydalanish obyektlarining va mazkur sohadagi faoliyatning xavfsizligi talablarini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar;

ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tashkil etilgan hamda yadroviy qurilma va (yoki) saqlash punkti uchun mas’ul etib tayinlangan hamda o‘z kuchlari bilan yoki boshqa yuridik shaxslarni jalb etgan holda yadroviy qurilmani va (yoki) saqlash punktini ekspluatatsiya qilishga qodir bo‘lgan yuridik shaxs;

radiatsiyaviy manbalar – tarkibida radioaktiv moddalar mavjud bo‘lgan yoki ionlashtiruvchi nurlanish chiqaradigan, yadroviy qurilmalar jumlasiga kirmaydigan majmualar, qurilmalar, apparatlar, uskunalar va buyumlar;

radioaktiv chiqindilar – foydalanish uchun mo‘ljallanmagan, yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan eng ko‘p miqdordan oshadigan faollik darajasiga ega radionuklidlarni o‘z ichiga olgan har qanday agregat holatidagi materiallar va moddalar;

radioaktiv chiqindilarni konditsiyalash (bundan buyon matnda konditsiyalash deb yuritiladi) – radioaktiv chiqindilarni ko‘mish uchun yaroqli bo‘lgan va radioaktiv chiqindilarni ko‘mish uchun maqbullik mezonlariga muvofiq bo‘lgan fizik shakl va holatga keltirish bo‘yicha texnologik jarayonlar;

yadroviy qurilmalar – atom elektr stansiyalari, tadqiqot yadro reaktorlari, kritik va subkritik yadroviy stendlari bo‘lgan inshootlar hamda majmualar, yadroviy yoqilg‘idan va yadroviy materiallardan foydalanish hamda ularni tashish uchun mo‘ljallangan qurilmalar.

2-bob. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va konditsiyalash, shuningdek gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomala bo‘lishda xavfsizlikni ta’minlashning umumiy talablari

2. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va konditsiyalash, shuningdek gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lish jarayonlarida quyidagi xavfsizlik talablari ta’minlanadi:

Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishning xavfsizlik talablariga (ro‘yxat raqami 3694, 2025-yil 28-oktabr) rioya qilish;

xodimlar va aholining ionlashtiruvchi nurlanishdan oladigan dozalari SanQvaM 0193-06 “Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN-2006)” va “Radiatsiya xavfsizligini ta’minlashning asosiy sanitariya qoidalari (RXTASQ-2006)”da belgilangan doza chegaralaridan oshmasligi hamda nurlanishning oqilona erishish mumkin bo‘lgan eng past darajada saqlanishi;

texnologik va iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilar hajmi va faolligini kamaytirish;

radiatsiyaviy avariyalarning oldini olish hamda ular yuzaga kelganda oqibatlarini cheklash va bartaraf etish bo‘yicha zarur tashkiliy hamda texnik choralarni ko‘rish;

qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni konditsiyalash va ko‘mishga tayyorlash;

ionlashtiruvchi nurlanish manbalari bilan bog‘liq faoliyatni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda olingan litsenziya asosida amalga oshirish.

3. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va konditsiyalashda, shuningdek gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishda xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy hamda texnik chora-tadbirlarni belgilashda quyidagilar hisobga olinadi:

hosil bo‘lish manbai;

hajmi;

agregat holati;

fizik va kimyoviy xossalari, shu jumladan ularning organik yoki noorganik tabiati;

radionuklid tarkibi, radionuklidlarning umumiy va solishtirma faolligi, shuningdek ularning yarim yemirilish davri;

qattiq radioaktiv chiqindilarning morfologik tarkibi;

suyuq radioaktiv chiqindilarning kimyoviy tarkibi;

qayta ishlash, konditsiyalash, tashish va saqlash usullari;

radioaktiv moddalarning fizik xususiyatlari va kimyoviy tarkibi;

yadroviy xavfli bo‘linuvchi radionuklidlar miqdori;

tozalanadigan gazsimon radioaktiv chiqindilar hajmi;

gazsimon radioaktiv chiqindilarning umumiy hajmiy faolligi qiymatlarining o‘zgarish diapazoni;

atmosfera havosiga chiqariladigan hamda hisobga olinishi va normalashtirilishi lozim bo‘lgan radionuklidlar hajmiy faolligining eng kam qiymatlari;

aerozollar (tuman, tutun, chang) mavjudligi;

inert radioaktiv gazlar mavjudligi;

molekulyar, aerozol va (yoki) uchuvchan shakldagi, shu jumladan organik birikmalar ko‘rinishidagi radioaktiv yod mavjudligi;

radioaktiv moddalarning bug‘-gaz aralashmalari mavjudligi;

portlash xavfi mavjud bo‘lgan va yonuvchi moddalar mavjudligi;

harorat va nisbiy namlik;

aerozol zarrachalarining dispers tarkibi va massa konsentratsiyasi;

radionuklidlarning gazsimon shakllari (fraksiyalari), shuningdek aerozol zarrachalarining suvda yoki uskunada mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa suyuqliklarda eruvchanligi;

uskunaning ichki yuzalarida qattiq zarrachalar cho‘kmasini hosil qilishi mumkin bo‘lgan moddalar va (yoki) aerozol zarrachalar mavjudligi;

kimyoviy agressiv moddalar mavjudligi;

yong‘in va portlash xavfi.

4. Yadroviy qurilmalar, radiatsiyaviy manbalar va qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlash punktlarining (bundan buyon matnda saqlash punktlari deb yuritiladi) loyiha hujjatlarida ular bilan muomalada bo‘lish jarayonlarining radiatsiyaviy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan loyiha yechimlari nazarda tutiladi.

5. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lish uchun mo‘ljallangan ishlab chiqarish xonalari radiatsiyaviy xavf darajasi, radioaktiv ifloslanish ehtimoli hamda bajariladigan texnologik jarayonlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda funksional zonalarga ajratiladi.

6. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va konditsiyalash, shuningdek gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishda portlash va yong‘in xavfining oldini olishga qaratilgan tashkiliy hamda texnik chora-tadbirlar yong‘in xavfsizligi talablariga muvofiq belgilanadi.

7. Yadroviy qurilmalar, radiatsiyaviy manbalar va saqlash punktlari uchun atom energiyasidan foydalanish obyektlarining (bundan buyon matnda obyekt deb yuritiladi) loyiha hujjatlarida radiatsiyaviy avariyalarning oldini olish, ularning rivojlanishini cheklash hamda oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan muhandislik-texnik yechimlar nazarda tutiladi.

Mazkur loyiha yechimlari xodimlar, aholi va atrof-muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta’siridan himoya qilishni, radioaktiv moddalarning nazoratsiz tarqalishining oldini olishni hamda obyektning xavfsiz ekspluatatsiyasini ta’minlashi zarur.

Obyektlar radiatsiyaviy nazorat, avariyaviy ogohlantirish, muhandislik himoyasi va boshqa xavfsizlik tizimlari bilan jihozlanadi.

8. Tarkibida bo‘linuvchi yadroviy materiallar mavjud bo‘lgan qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishda amalga oshiriladigan yadroviy qurilmalar, radiatsiyaviy manbalar va saqlash punktlarining loyiha hujjatlarida atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalarga muvofiq yadroviy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy hamda texnik chora-tadbirlar nazarda tutiladi.

9. Tarkibida bo‘linuvchi yadroviy materiallar mavjud bo‘lgan gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishda yadroviy xavfsizlikni ta’minlash maqsadida quyidagi tashkiliy hamda texnik chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

gazlarni tozalash tizimlarining quvurlarida (havo o‘tkazgichlari) va filtrlash uskunalarida bo‘linuvchi yadroviy materiallarning to‘planishiga yo‘l qo‘yiladigan normativ ko‘rsatkichlarni loyiha hujjatlari hamda atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalarga muvofiq belgilash;

gazlarni tozalash tizimlarining quvurlari (havo o‘tkazgichlari) va filtrlash uskunalarida bo‘linuvchi yadroviy materiallarning to‘planishini nazorat qilish;

gazlarni tozalash tizimlarining quvurlari (havo o‘tkazgichlari) va filtrlash uskunalarida bo‘linuvchi yadroviy materiallarning belgilangan normativ ko‘rsatkichlardan ortiq miqdorda to‘planishiga yo‘l qo‘ymaslik.

10. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va konditsiyalash, shuningdek gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lish uchun mo‘ljallangan asbob-uskunalarni loyihalash va tayyorlashga, shuningdek yadroviy qurilmalar, radiatsiyaviy manbalar hamda saqlash punktlarida radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishni ta’minlovchi tizimlar va ularning elementlarini loyihalash hamda xavfsizlik bo‘yicha tasniflashga qo‘yiladigan talablar atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalarga muvofiq bo‘lishi lozim.

11. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va konditsiyalash jarayonlarida ularning fizik, kimyoviy hamda radiatsiyaviy tavsiflarini, shu jumladan radionuklid tarkibini, umumiy va solishtirma faolligini aniqlash hamda ularni nazorat qilish maqsadida o‘lchash vositalari, laboratoriya tahlillari va nazorat usullaridan foydalangan holda texnologik nazorat tashkil etiladi.

12. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilar hamda konditsiyalangan radioaktiv chiqindilarning nazorat qilinadigan ko‘rsatkichlari, ularni nazorat qilish usullari va vositalari atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar talablariga muvofiq obyektning loyiha va ekspluatatsiya hujjatlarida belgilanadi.

Nazorat natijalarini rasmiylashtirish, hisobga olish va saqlash tartibi, shuningdek qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lish jarayonlarini nazorat etishni tashkil qilish va amalga oshirishga oid talablar obyektning sifatni ta’minlash dasturida nazarda tutiladi.

13. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishda bosim, harorat, radionuklid tarkibi va faolligi, shuningdek gazlarni tozalash hamda shamollatish (ventilyatsiya) tizimlarining ishlash samaradorligini o‘lchash, qayd etish va nazorat qilish imkonini beruvchi texnik vositalardan foydalangan holda texnologik parametrlarning boshqarilishi va monitoringi ta’minlanadi.

14. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va konditsiyalash jarayonlarida radiatsiyaviy nazorat tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Bunda radiatsiyaviy nazoratning hajmi, usullari, nazorat qilinadigan ko‘rsatkichlari hamda davriyligi SanQvaM 0193-06 “Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN 2006)” va “Radiatsiya xavfsizligini ta’minlashning asosiy sanitariya qoidalari (RXTASQ 2006)” hamda atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar talablariga muvofiq belgilanadi.

15. Suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va konditsiyalash jarayonlarida quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi:

suyuq radioaktiv chiqindilarning xavfsizlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadigan nazoratsiz fizik yoki agregat holati o‘zgarishlariga;

boshqarib bo‘lmaydigan ekzotermik kimyoviy reaksiyalarning yuzaga kelishiga.

16. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va konditsiyalash, shuningdek gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomala bo‘lish uchun mo‘ljallangan uskunalar, quvurlar, konteynerlar va xonalar ularni dezaktivatsiya qilish imkoniyatini hisobga olgan holda loyihalanishi lozim.

Uskunalar, quvurlar, konteynerlar va xonalarning ichki yuzalari agressiv muhit ta’siriga chidamli, radionuklidlarga nisbatan past sorbsiya xususiyatiga ega hamda dezaktivatsiya qilish vositalari ta’siriga chidamli materiallardan tayyorlanishi kerak.

17. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash, konditsiyalash va saqlash, shuningdek gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishda foydalaniladigan o‘lchash vositalari metrologik tekshiruvdan o‘tkazilgan bo‘lishi lozim.

18. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va konditsiyalash jarayonlarida hosil bo‘ladigan hamda atmosfera havosiga chiqariladigan gazsimon radioaktiv chiqindilar atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar talablariga muvofiq tozalanadi.

19. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va konditsiyalash uchun mo‘ljallangan xonalar ishchi zona havosi hamda atrof-muhitning radioaktiv ifloslanishining oldini olishni ta’minlaydigan shamollatish tizimi (ventilyatsiya) bilan jihozlanadi.

Shamollatish tizimi (ventilyatsiya) ekspluatatsiya davomida doimiy soz va ishga yaroqli holatda saqlanishi kerak.

20. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni radioaktiv bo‘lmagan chiqindilar bilan aralashtirish, ularni birgalikda to‘plash, qayta ishlash, saqlash va konditsiyalashga yo‘l qo‘yilmaydi.

21. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilar oraliq saqlash muddati tugaguniga qadar Radioaktiv chiqindilarni ko‘mish bo‘yicha maqbullik mezonlari va talablariga (ro‘yxat raqami 3734, 2025-yil 23-dekabr) muvofiq konditsiyalanadi hamda ko‘mishga tayyorlanadi.

22. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot qattiq, suyuq va gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishda quyidagilarni ta’minlaydi:

radioaktiv moddalar va radionuklidlarning atmosfera havosi, yer usti va yer osti suvlari hamda tuproqqa nazoratsiz tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslikni;

qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni ularning agregat holati, radionuklid tarkibi, radiatsiyaviy faolligi va yarim yemirilish davriga ko‘ra alohida to‘plash va saqlashni;

qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilar hajmi va radiatsiyaviy faolligini oqilona erishish mumkin bo‘lgan eng past darajagacha kamaytirishni;

qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlash hamda qayta ishlashga mo‘ljallangan inshootlar atrof-muhitdan izolyatsiya qilinishini hamda gazsimon radioaktiv chiqindilar uchun gazlarni tozalash tizimlarining uzluksiz ishlashini.

23. Gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishda quyidagi tashkiliy va texnik chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

vodorodning portlash xavfini yuzaga keltiruvchi konsentratsiyalari hosil bo‘lishining oldini olish uchun zarur texnik vositalar va usullarni qo‘llash (agar bunday konsentratsiyalar hosil bo‘lish ehtimoli mavjud bo‘lsa);

tortish-puflash qurilmalarining (gaz puflagichlar, shamollatish (ventilyatsiya) agregatlari, ventilyatorlar, kompressorlar, ejektorlar) unumdorligini boshqarish va tartibga solish vositalarini nazarda tutish;

gazsimon radioaktiv chiqindilarni tozalash jarayonini to‘xtatmagan holda filtrlovchi va yutuvchi elementlarni almashtirish yoki qayta tiklash imkonini beruvchi zaxira tizimlarini joriy etish;

bokslar, kameralar, javonlar, kanyonlar hamda boshqa shunga o‘xshash qurilmalardan, shu jumladan ta’mirlash va profilaktika ishlari vaqtida chiqariladigan havoning mahalliy gaz tozalash tizimlari orqali tozalanishini ta’minlash;

filtrlar va yutuvchilarning samaradorligiga ta’sir etuvchi muhit parametrlarining (harorat, namlik, gaz oqimi tezligi) barqarorligini ta’minlash;

obyektni loyihalashda havo o‘tkazgichlarining uzunligini qisqartirish, ularning issiqlik izolyatsiyasini nazarda tutish hamda gazsimon radioaktiv chiqindilarni isitish yoki sovutish choralarini ko‘rish.

24. Gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishda tozalash uskunalarida faollashtirilgan ko‘mir sorbent sifatida qo‘llanilganda, uning alangalanishi hamda yong‘in tarqalishining oldini olish, shuningdek yong‘in sodir bo‘lganda uni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishni ta’minlovchi tashkiliy hamda texnik chora-tadbirlar nazarda tutilishi zarur.

25. Texnologik radioaktiv puflamalar (texnologik uskunalardan chiqariladigan radioaktiv bug‘-gaz aralashmalari hamda gazsimon va (yoki) aerozol holatidagi radioaktiv moddalar) atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar talablariga muvofiq tozalanadi.

Texnologik radioaktiv puflamalar quvurlarini umumiy shamollatish (ventilyatsiya) tizimining yig‘ma shamollatish (ventilyatsiya) qutilariga ulashga faqat mazkur puflamalar qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan uskunalarda tozalangandan so‘nggina yo‘l qo‘yiladi.

3-bob. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plashda xavfsizlik talablari

26. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash obyektning loyiha va ekspluatatsiya hujjatlarida belgilangan maxsus ajratilgan va jihozlangan xonalar, maydonlar yoki inshootlarda amalga oshiriladi.

Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni qayta ishlash, saqlash va konditsiyalashga tayyorlashni, shuningdek radioaktiv moddalarning atrof-muhitga nazoratsiz tarqalishiga yo‘l qo‘yilmasligini ta’minlaydi.

27. Qattiq radioaktiv chiqindilarni to‘plashda ularni keyinchalik xavfsiz qayta ishlash, tashish, saqlash va konditsiyalash imkonini beradigan sig‘imlar yoki konteynerlardan foydalaniladi.

28. Suyuq radioaktiv chiqindilar keyinchalik qayta ishlash texnologiyasini hisobga olgan holda quyidagi turlar bo‘yicha alohida to‘planadi:

noorganik suyuq radioaktiv chiqindilar;

organik suyuq radioaktiv chiqindilar (yog‘lar, boshqa organik suyuqliklar, ularning emulsiyalari va eritmalari);

filtrlovchi materiallardan hosil bo‘lgan pulpa va shlamlar.

29. Tarkibida yarim yemirilish davri 15 sutkadan kam bo‘lgan radionuklidlar mavjud qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilar ulardagi radionuklidlarning solishtirma faolligi SanQvaM 0193-06 “Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN 2006)” va “Radiatsiya xavfsizligini ta’minlashning asosiy sanitariya qoidalari (RXTASQ 2006)”da belgilangan radioaktiv chiqindilarni radioaktiv chiqindilar toifasiga kiritish talablaridan past darajaga tushguniga qadar oraliq saqlash joylarida saqlanadi.

30. Portlash yoki yong‘in xavfiga ega qattiq radioaktiv chiqindilar boshqa turdagi qattiq radioaktiv chiqindilar bilan aralashtirilmasligi, alohida to‘planishi hamda ularning fizik-kimyoviy xossalarini hisobga olgan holda xavfsiz sharoitlarda saqlanishi lozim.

31. Suyuq radioaktiv chiqindilarni bevosita hosil bo‘lgan joyida to‘plash imkoniyati mavjud bo‘lmaganda, ular atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar talablariga muvofiq maxsus yig‘ish tizimi orqali yig‘iladi.

Maxsus yig‘ish tizimidan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lmaganda suyuq radioaktiv chiqindilarni yig‘ish uchun germetik konteynerlardan (yig‘gichlar) foydalanishga yo‘l qo‘yiladi.

32. Suyuq radioaktiv chiqindilarni xo‘jalik-maishiy oqova suvlarni chiqarish tizimiga, ishlab chiqarish va jala oqova suvlarini chiqarish tizimlariga, suv obyektlariga, yutuvchi o‘ralarga, quduqlarga, sug‘orish va filtrlash maydonlariga hamda yer yuzasiga oqizishga yo‘l qo‘yilmaydi.

33. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash tartibi atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar hamda ushbu Xavfsizlik talablari asosida obyektning loyiha va ekspluatatsiya hujjatlarida belgilanadi.

4-bob. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni qayta ishlashda xavfsizlikni ta’minlash

34. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot qattiq radioaktiv chiqindilarni qayta ishlash natijasida ularning hajmini kamaytirishi va (yoki) ularning radioaktiv chiqindilar bilan keyingi xavfsiz muomalasini ta’minlaydigan shaklga keltirishi lozim.

35. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot suyuq radioaktiv chiqindilarni qayta ishlash natijasida ularning fizik-kimyoviy xossalarini o‘zgartirish, radionuklidlarni suyuq fazadan ajratib olish va (yoki) konsentrlash hamda suyuq radioaktiv chiqindilarni barqaror qattiq shaklga o‘tkazish orqali radionuklidlarning atrof-muhitga tarqalish ehtimolini kamaytirishi kerak.

36. Qattiq radioaktiv chiqindilarni yoqish, piroliz, presslash, maydalash (fragmentlash), qayta eritish (metall qattiq radioaktiv chiqindilar uchun) yoki loyiha hujjatlarida nazarda tutilgan va xavfsizlik jihatidan asoslantirilgan boshqa usullar bilan qayta ishlash natijasida hosil bo‘lgan radioaktiv chiqindilarning keyinchalik saqlash, tashish, konditsiyalash va ko‘mishga topshirish imkonini beruvchi tavsiflari Radioaktiv chiqindilarni ko‘mish bo‘yicha maqbullik mezonlari va talablariga (ro‘yxat raqami 3734, 2025-yil 23-dekabr) muvofiq bo‘lishi lozim.

37. Qayta ishlash uchun topshirilayotgan qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilar obyektning ekspluatatsiya hujjatlarida belgilangan tartib hamda hajmda kirish nazoratidan o‘tkaziladi.

38. Qattiq radioaktiv chiqindilarni yoqish va (yoki) piroliz usuli bilan qayta ishlash uchun mo‘ljallangan uskunalar quyidagi texnik vositalar bilan jihozlanadi:

yoqish va to‘liq yonish jarayonlarining asosiy parametrlarini, shu jumladan harorat, bosim (siyraklanish), shuningdek gaz tozalash tizimidagi bosimlar farqini nazorat qilish vositalari;

yoqish va (yoki) piroliz jarayonida hosil bo‘ladigan gazlarni zararli (ifloslantiruvchi) va radioaktiv moddalardan atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalarda belgilangan yo‘l qo‘yiladigan tashlamalar darajasigacha tozalashni ta’minlovchi tizimlar;

yoqish va (yoki) piroliz jarayonida hosil bo‘ladigan hamda atmosfera havosiga chiqariladigan gazlar va aerozollarning radionuklid tarkibi hamda hajmiy faolligini nazorat qilishni ta’minlovchi texnik vositalar;

yoqish va (yoki) piroliz jarayonlarini avtomatik yoki avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari;

asbob-uskunalar va xonalarni dezaktivatsiya qilish vositalari;

yong‘in haqida xabar berish va yong‘inni o‘chirish tizimlari.

39. Qattiq radioaktiv chiqindilarni yoqish va (yoki) piroliz usuli bilan qayta ishlashda texnologik jarayon parametrlarining qiymatlari yonish mahsulotlari hamda piroliz natijasida hosil bo‘ladigan gazlarning keyingi to‘liq oksidlanishini ta’minlashi lozim.

40. Yondiriladigan qattiq radioaktiv chiqindilar tarkibida termik ishlov berish jarayonida yo‘l qo‘yiladigan darajalardan ortiq miqdorda agressiv, zaharli yoki boshqa xavfli moddalar hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan polivinilxlorid va boshqa organik materiallarning miqdori cheklanishi lozim.

Yondirish va (yoki) piroliz qilish uchun yuboriladigan qattiq radioaktiv chiqindilar tarkibida portlash yoki yong‘in xavfini keltirib chiqaruvchi zaharli va kimyoviy faol moddalarning yo‘l qo‘yiladigan miqdori obyektning loyiha hujjatlarida belgilanadi.

Qattiq radioaktiv chiqindilarni radioaktiv bo‘lmagan chiqindilar bilan birgalikda yoqish va (yoki) piroliz qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

41. Qattiq radioaktiv chiqindilarni yoqish va (yoki) piroliz qilish natijasida hosil bo‘lgan kul qoldiqlari barqaror shaklga keltirilishi (monolitlanishi) yoki xavfsiz saqlash va keyingi muomalani ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi lozim.

Monolitlangan kul qoldiqlarining sifat ko‘rsatkichlari atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalarda qattiq shaklga keltirilgan radioaktiv chiqindilar uchun belgilangan talablarga muvofiq bo‘lishi zarur.

42. Qattiq radioaktiv chiqindilarni presslash usuli bilan qayta ishlashda quyidagi texnik vositalar mavjud bo‘lishi lozim:

chang va radioaktiv aerozollarning tarqalishini oldini olish vositalari;

presslanadigan qattiq radioaktiv chiqindilardan ajralib chiqadigan namlikni chiqarish va yig‘ish tizimlari;

presslangan qattiq radioaktiv chiqindilarni konteynerlarga joylashtirish vositalari;

presslash jarayonining texnologik parametrlarini avtomatik va (yoki) avtomatlashtirilgan tarzda boshqarish tizimlari.

43. Quyidagi xususiyatlarga ega qattiq radioaktiv chiqindilarni presslashga yo‘l qo‘yilmaydi:

namlik miqdori 1 foizdan ortiq bo‘lsa;

pirofor va portlash xavfi mavjud bo‘lgan moddalar mavjud bo‘lsa;

tarkibida presslash jarayonida o‘zini o‘zi ta’minlovchi zanjirli yadroviy bo‘linish reaksiyasi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan miqdorda yadroviy xavfli bo‘linuvchi radionuklidlar mavjud bo‘lsa.

Qattiq radioaktiv chiqindilarni radioaktiv bo‘lmagan chiqindilar bilan birgalikda presslashga yo‘l qo‘yilmaydi.

44. Qattiq radioaktiv chiqindilarni qayta eritish usuli bilan qayta ishlashda quyidagi texnik vositalar nazarda tutiladi:

eritish jarayonining asosiy parametrlarini, shu jumladan eritish pechidagi haroratni nazorat qilish vositalari;

eritish qurilmasidan chiqarilayotgan gazlar va aerozollarning radionuklid hamda kimyoviy tarkibini nazorat qilishni ta’minlovchi texnik vositalar;

eritish jarayonining texnologik parametrlarini avtomatik va (yoki) avtomatlashtirilgan tarzda boshqarish vositalari;

asbob-uskunalar va xonalarni dezaktivatsiya qilish vositalari;

yong‘in haqida avtomatik xabar berish va yong‘inni o‘chirish vositalari.

45. Qattiq radioaktiv chiqindilarni germetik yopilgan idishlardan chiqarmasdan qayta eritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

46. Radionuklidlar bilan ifloslangan metall chiqindilarni qayta eritish jarayonida hosil bo‘ladigan qattiq radioaktiv chiqindilar, shu jumladan shlaklar, ishlatilgan o‘tga chidamli materiallar, gaz tozalash tizimida ushlab qolinadigan changlar hamda ishlatilgan gaz tozalash filtrlari ushbu Xavfsizlik talablariga muvofiq yig‘iladi, saqlanadi va konditsiyalanadi.

47. Qattiq radioaktiv chiqindilarni maydalash (fragmentlash) usuli bilan qayta ishlashda xodimlarni himoya qilish, shuningdek havo muhitining radioaktiv chang va aerozollar bilan ifloslanishini oldini olish uchun SanQvaM 0193-06 “Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN 2006)” va “Radiatsiya xavfsizligini ta’minlashning asosiy sanitar qoidalari (RXTASQ 2006)” hamda atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar talablariga muvofiq texnik vositalar nazarda tutilishi lozim.

Metall qattiq radioaktiv chiqindilarni keyingi xavfsiz muomalaga tayyorlash maqsadida ularni dezaktivatsiya qilish imkoniyati nazarda tutilishi kerak.

48. Suyuq radioaktiv chiqindilarni bug‘latish usuli bilan qayta ishlashda quruq qoldiq tarkibidagi kimyoviy komponentlar o‘rtasida boshqarib bo‘lmaydigan ekzotermik reaksiyalar yuzaga kelishining oldini olish maqsadida tarkibida erigan tuzlar miqdori yuqori bo‘lgan suvli eritmalarni to‘liq suvsiz holatga keltirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

49. Suyuq radioaktiv chiqindilarni bug‘latish natijasida hosil bo‘lgan tuz konsentratlarini saqlash va konditsiyalash tizimlariga uzatishda quvurlar hamda uskunalarda cho‘kindilar to‘planishining oldini olish bo‘yicha tashkiliy va texnik chora-tadbirlar ko‘rilishi kerak.

50. Suyuq radioaktiv chiqindilarni qayta ishlash natijasida hosil bo‘lgan tozalangan suvlardagi radionuklidlar konsentratsiyasi SanQvaM 0193-06 “Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN 2006)” va “Radiatsiya xavfsizligini ta’minlashning asosiy sanitar qoidalari (RXTASQ 2006)” hamda atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalarda belgilangan talablarga muvofiq bo‘lganda bunday suvlardan yadroviy qurilmalar, radiatsiyaviy manbalar va saqlash punktlarining texnologik ehtiyojlari uchun takroran foydalanishga yo‘l qo‘yiladi.

51. Suyuq radioaktiv chiqindilarni yoqish va (yoki) piroliz usuli bilan qayta ishlashda foydalaniladigan texnik vositalar ushbu Xavfsizlik talablarining 38-bandiga muvofiq bo‘lishi lozim.

52. Suyuq radioaktiv chiqindilarni yoqish va (yoki) piroliz qilish texnologik jarayonining parametrlari yonish va (yoki) piroliz mahsulotlari ushbu Xavfsizlik talablarining 39-bandiga muvofiq maksimal darajada oksidlanishi zarur.

53. Yondiriladigan suyuq radioaktiv chiqindilar tarkibidagi portlash yoki yong‘in xavfini keltirib chiqaruvchi, zaharli hamda kimyoviy faol moddalarning yo‘l qo‘yiladigan miqdori ushbu Xavfsizlik talablarining 40-bandiga asosan obyektning loyiha hujjatlarida belgilanadi.

54. Suyuq radioaktiv chiqindilarni yoqish va (yoki) piroliz qilish natijasida hosil bo‘lgan kul qoldiqlari ushbu Xavfsizlik talablarining 41-bandida belgilangan talablarga muvofiq konditsiyalanishi lozim.

55. Suyuq radioaktiv chiqindilarni qotirish usuli bilan qayta ishlashda quyidagilar hisobga olinadi:

suyuq radioaktiv chiqindilarning fizik va kimyoviy xususiyatlari;

suyuq radioaktiv chiqindilarni yoki tarkibidagi radioaktiv moddalarni monolit tuzilmada (matritsali material) immobilizatsiya qilish uchun qo‘llaniladigan radioaktiv bo‘lmagan materiallarning xususiyatlari;

konditsiyalangan suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlash, tashish va ko‘mish usullari;

suyuq radioaktiv chiqindilarni ko‘mish bo‘yicha belgilangan maqbullik mezonlari.

56. Suyuq radioaktiv chiqindilarni sementlash, bitumlash, polimer matritsaga kiritish va shishalash usullari bilan qotirish jarayonlarining texnologik parametrlari radionuklidlarning matritsa hajmi bo‘ylab bir tekis taqsimlanishini hamda bir xil tarkib va xususiyatlarga ega barqaror kompaund hosil bo‘lishini ta’minlashi lozim.

57. Suyuq radioaktiv chiqindilarni sementlash, bitumlash, polimer matritsaga kiritish va shishalash usullari bilan qotirish natijasida hosil bo‘lgan konditsiyalangan radioaktiv chiqindilar ushbu Xavfsizlik talablarining ilovasidagi 1 – 4-jadvallarda belgilangan sifat ko‘rsatkichlariga muvofiq bo‘lishi zarur.

58. Suyuq radioaktiv chiqindilarni sementlash usuli bilan qotirishda tarkibida zaharli moddalar hosil bo‘lishiga olib keluvchi yoki sement matritsasi bilan kimyoviy reaksiyaga kirishuvchi moddalar mavjud bo‘lgan suyuq radioaktiv chiqindilarni qayta ishlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

59. Sement kompaundini konteynerlarga qadoqlashda uning to‘kilishini oldini olish uchun quyidagi texnik vositalar mavjud bo‘lishi lozim:

sement kompaundi uchun mo‘ljallangan konteynerni mahkamlash va to‘g‘ri joylashtirilishini nazorat qilish vositalari;

konteynerning sement kompaundi bilan to‘ldirilishini nazorat qilish vositalari;

qotmagan sement kompaundi mavjud bo‘lgan konteynerni to‘ldirish joyidan texnologik saqlash joyiga ko‘chirishda sement kompaundining to‘kilishiga yo‘l qo‘ymaydigan qurilmalar.

60. Suyuq radioaktiv chiqindilarni bitumlash usuli bilan qotirishda quyidagilar bajarilishi lozim:

matritsa materiali sifatida alangalanish harorati 200 °C dan yuqori bo‘lgan bitumdan foydalanish;

tarkibiy qismlari bitum bilan boshqarib bo‘lmaydigan kimyoviy ekzotermik reaksiyaga kirishadigan, shuningdek gazsimon zaharli yoki portlash va yong‘in xavfi bo‘lgan moddalar hosil qiladigan suyuq radioaktiv chiqindilarni bitumlashga yo‘l qo‘yilmasligi;

hosil bo‘lgan bitum kompaundi sifatining yomonlashishiga yo‘l qo‘yilmasligi.

61. Bitumlash usuli bilan qotirishga yuboriladigan suyuq radioaktiv chiqindilar tarkibidagi tuz konsentratlari quyidagi talablarga muvofiq bo‘lishi lozim:

kuchli oksidlovchilar, shu jumladan uch valentli metallarning nitratlari va kaliy permanganat miqdori quruq qoldiq massasining 5 foizidan oshmasligi;

ammoniy nitrat miqdori quruq qoldiq massasining 12 foizidan oshmasligi;

pH qiymati 6,5 dan 12,0 gacha bo‘lgan oraliqda bo‘lishi;

solishtirma faolligi belgilangan ruxsat etilgan qiymatlardan oshmasligi.

62. Bitum kompaundini konteynerlarga qadoqlash jarayonida uning xonaga to‘kilishining oldini olishga qaratilgan tashkiliy va texnik chora-tadbirlar ushbu Xavfsizlik talablarining 59-bandida belgilangan talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

63. Suyuq radioaktiv chiqindilarni polimer matritsaga kiritish usuli bilan qotirishda chiqindi tarkibidagi moddalar va polimer matritsa komponentlari o‘rtasidagi kimyoviy o‘zaro ta’sir natijasida quyidagi holatlar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan suyuq radioaktiv chiqindilarni qayta ishlashga yo‘l qo‘yilmaydi:

boshqarib bo‘lmaydigan kimyoviy ekzotermik reaksiyalar yuzaga kelishi, gazsimon zaharli moddalar yoki portlash va yong‘in xavfi mavjud moddalar hosil bo‘lishi;

polimer kompaundi sifat ko‘rsatkichlarining yomonlashishi.

64. Suyuq radioaktiv chiqindilarni shishalash usuli bilan qotirishda quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi:

suyuq radioaktiv chiqindi tarkibidagi moddalar shishalash jarayonida boshqarib bo‘lmaydigan kimyoviy ekzotermik reaksiyaga kirishishi natijasida gazsimon zaharli moddalar yoki portlash va yong‘in xavfi mavjud moddalar hosil bo‘lishi mumkin bo‘lgan suyuq radioaktiv chiqindilarni shishalashga yo‘naltirish;

hosil bo‘lgan shishasimon kompaund sifat ko‘rsatkichlarining ushbu Xavfsizlik talablari ilovasida belgilangan qiymatlardan yomonlashishi.

Shishalashga yuboriladigan suyuq radioaktiv chiqindilar tarkibidagi plutoniy konsentratsiyasi 0,03 g/dm³ dan oshmasligi lozim.

65. Shishasimon kompaundni konteynerlarga qadoqlashda to‘kilishning oldini olish va qadoqlash jarayonining xavfsizligini ta’minlash uchun ushbu Xavfsizlik talablarida belgilangan umumiy texnik vositalar bilan bir qatorda quyidagilar nazarda tutilishi lozim:

to‘kish quvurini yopish uchun zaxira (dublyaj) qurilmasi;

qadoqlash jarayonida to‘kilgan shishasimon kompaundni xavfsiz olib tashlash imkonini beruvchi texnik vositalar.

66. Obyektning loyiha va ekspluatatsiya hujjatlarida quyidagilar belgilanadi va asoslantiriladi:

shishasimon kompaundni saqlashda uning chegaraviy harorati, bunda mazkur harorat yadroviy qurilma, radiatsiya manbai va saqlash punktining normal ekspluatatsiyasi, shuningdek normal ekspluatatsiya buzilishi, shu jumladan loyiha avariyalari sharoitida ham tegishli kompaundning shishalanish haroratidan kamida 100°C past bo‘lishi;

shishasimon kompaund haroratining belgilangan chegaraviy qiymatdan oshmasligini ta’minlovchi chegaraviy issiqlik ajralish darajasi.

5-bob. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlashda xavfsizlikni ta’minlash

67. Obyektning loyiha hujjatlarida qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni xavfsiz saqlash bo‘yicha tashkiliy va texnik chora-tadbirlar, shu jumladan ularni keyinchalik qayta ishlash yoki chiqarib olish imkonini beruvchi, radiatsiyadan himoyalangan hamda izolyatsiyalangan idishlarda vaqtincha saqlash tartibi belgilanadi.

68. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilar SanQvaM 0193-06 “Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN 2006)” va “Radiatsiya xavfsizligini ta’minlashning asosiy sanitariya qoidalari (RXTASQ 2006)” hamda atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar talablariga muvofiq radioaktiv moddalarning atrof-muhitga tarqalishining oldini oluvchi muhandislik to‘siqlari tizimi bilan jihozlangan joylarda saqlanishi lozim.

69. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilar saqlanadigan joylarning konstruksiyasi hamda konstruksiya materiallari saqlash joyining xizmat muddati davomida, biroq yadroviy qurilmalar, radiatsiyaviy manbalar va saqlash punktlari uchun obyektning ekspluatatsiya hujjatlarida belgilangan muddatdan kam bo‘lmagan davr mobaynida ionlashtiruvchi nurlanishdan himoya qilishni hamda radioaktiv chiqindilarni ishonchli izolyatsiya qilishni ta’minlashi lozim.

Suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlash uchun mo‘ljallangan sig‘imlar joylashtiriladigan xonalar gidroizolyatsiya qilingan hamda korroziyaga chidamli materiallar bilan qoplangan bo‘lishi, bunda gidroizolyatsiya qilingan qismning sig‘imi idishlardagi barcha suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘liq qabul qilish imkonini ta’minlashi zarur.

Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlash uchun mo‘ljallangan sig‘imlarning konstruksiyasi ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlashni, shuningdek radioaktiv chiqindilar o‘ramlarini keyinchalik xavfsiz chiqarib olish imkoniyatini ta’minlashi kerak.

70. Juda past faollikka ega bo‘lgan qattiq radioaktiv chiqindilarni saqlash joylaridan tashqari, qattiq radioaktiv chiqindilarni saqlash joylarida quyidagi texnik vositalar mavjud bo‘lishi lozim:

omborning ichki yuzalarini dezaktivatsiya qilish vositalari;

qattiq radioaktiv chiqindilar va ularning o‘ramlarini ko‘zdan kechirish, texnik ko‘rikdan o‘tkazish hamda saqlash joyidan chiqarib olish imkonini beruvchi vositalar;

saqlash joyida hosil bo‘ladigan namlikni yig‘ish va chiqarish tizimlari;

shamollatish (ventilyatsiya) tizimi;

xonalarda radiatsiya nazoratini amalga oshirish vositalari.

71. Yuqori faol qattiq radioaktiv chiqindilar saqlanadigan joylarda quyidagilar bo‘lishi lozim:

ekvivalent doza quvvati yuqori bo‘lgan sharoitlarda qattiq radioaktiv chiqindilar konteynerlarini masofadan boshqarish vositalari;

saqlash joyi havosining haroratini nazorat qilish tizimlari;

saqlash joyi havosidagi vodorod konsentratsiyasini nazorat qilish vositalari;

saqlash joyi havosidagi radionuklidlar konsentratsiyasini nazorat qilish vositalari;

issiqlik ajratuvchi qattiq radioaktiv chiqindilar uchun issiqlikni olib chiqish (sovutish) tizimlari.

72. Suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlash joyining sig‘imi suyuq radioaktiv chiqindilarni qayta ishlash hamda qisqa yashovchi radionuklidlarning tabiiy parchalanishi uchun zarur bo‘lgan muddat davomida ularni xavfsiz saqlash imkonini ta’minlashi lozim.

73. Suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlash uchun mo‘ljallangan sig‘imlar joylashtirilgan xonalarda quyidagi texnik vositalar mavjud bo‘lishi lozim:

sig‘imlardan sizib chiqishni aniqlovchi signalizatsiya tizimlari;

sizib chiqqan suyuq radioaktiv chiqindilarni yig‘ish va xavfsiz chiqarib olish (yoki qayta uzatish) tizimlari;

shamollatish (ventilyatsiya) tizimi;

radiatsiya nazoratini amalga oshirish vositalari;

xonalarni dezaktivatsiya qilish vositalari.

74. Organik suyuq radioaktiv chiqindilar saqlanadigan sig‘imlar joylashtirilgan xonalar yong‘in signalizatsiyasi va yong‘inni o‘chirish tizimlari bilan jihozlangan bo‘lishi lozim.

Tarkibida oksidlovchi moddalar mavjud bo‘lgan organik suyuq radioaktiv chiqindilarni boshqa organik suyuq radioaktiv chiqindilar bilan birgalikda saqlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

75. Suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlash uchun mo‘ljallangan sig‘imlar quyidagi texnik vositalar bilan jihozlangan bo‘lishi lozim:

suyuq radioaktiv chiqindilarni qabul qilish, qayta ishlash va konditsiyalash qurilmalariga uzatish hamda sig‘imlarni bo‘shatish uchun mo‘ljallangan quvurlar va quvur armaturalari;

texnologik parametrlarni (harorat, bosim va sig‘imdagi sathni) nazorat qilish vositalari, shu jumladan sig‘imdagi sathning belgilangan yuqori qiymatdan oshganligi va sizib chiqish holatlari haqida signal beruvchi tizimlar;

portlash va yong‘in xavfi mavjud bo‘lgan gazlar hamda bug‘lar konsentratsiyasini nazorat qilish vositalari va ularning belgilangan chegaraviy qiymatlardan oshishi haqida signal beruvchi tizimlar (bunday gaz va bug‘lar hosil bo‘lishi mumkin bo‘lgan sig‘imlar uchun);

eritmalar, shlamlar va sorbentlarni bir sig‘imdan boshqasiga uzatish uchun mo‘ljallangan uskunalar va quvurlar;

sig‘imlardan suyuq radioaktiv chiqindilar toshib ketishining oldini oluvchi qurilmalar;

texnologik puflash tizimlari;

sig‘im ichidagi bosimning oshishi yoki vakuum hosil bo‘lishi natijasida sig‘imning shikastlanishining oldini oluvchi himoya qurilmalari.

76. Suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlashda quyidagi texnik vositalar mavjud bo‘lishi lozim:

suyuq radioaktiv chiqindilardan reprezentativ namunalar olish imkonini beruvchi vositalar;

qiyin eriydigan cho‘kindilar va yotqiziqlar hosil bo‘lishi mumkin bo‘lgan sig‘imlarda ularning hosil bo‘lishining oldini oluvchi vositalar;

cho‘kindilar va shlamlarni olib tashlash vositalari.

77. Suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlash idishlarida yadroviy qurilmalar, radiatsiyaviy manbalar va saqlash punktlari uchun obyektning loyiha hujjatlarida belgilangan ekspluatatsiya muddati davomida tuz cho‘kindilarining hosil bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydigan hamda saqlash idishlaridan ishonchli va xavfsiz foydalanishni ta’minlaydigan suv-kimyoviy rejim saqlanishi lozim.

Suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlash idishlaridagi suv-kimyoviy rejim korroziya jarayonlarining yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

78. Yuqori faol suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlashda quyidagi holatlarning oldini olishni ta’minlaydigan qo‘shimcha texnik vositalar mavjud bo‘lishi lozim:

suyuq radioaktiv chiqindilar haroratining loyiha hujjatlarida belgilangan chegaraviy qiymatdan oshishi;

idishning bo‘sh hajmida yonuvchan va portlash xavfini tug‘diruvchi gazlar hamda bug‘lar konsentratsiyasining loyiha hujjatlarida belgilangan chegaraviy qiymatlardan oshishi.

79. Yadroviy qurilmalar, radiatsiyaviy manbalar va saqlash punktlari uchun obyektning loyiha hujjatlarida avariya holatlarida hamda avariya oqibatlarini bartaraf etish jarayonida suyuq radioaktiv chiqindilarni qabul qilish va vaqtincha saqlash uchun mo‘ljallangan zaxira sig‘imlari nazarda tutilishi lozim.

80. Suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlash uchun mo‘ljallangan zaxira sig‘imlarining minimal hajmi loyiha hujjatlarida belgilanadi va asoslantiriladi.

81. Past faol suyuq radioaktiv chiqindilarning kichik hajmlari (umumiy hajmi 0,2 m^3 dan kam bo‘lgan suyuq radioaktiv chiqindilar) ularni saqlash yoki qayta ishlash uchun mo‘ljallangan joylarga topshirilgunga qadar ushbu maqsad uchun jihozlangan xonalarda saqlanishi lozim.

Mazkur xonalarning joylashuvi, jihozlanishi hamda kichik hajmdagi suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlash sharoitlari SanQvaM 0193-06 “Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN 2006)” va “Radiatsiya xavfsizligini ta’minlashning asosiy sanitar qoidalari (RXTASQ 2006)” talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.

82. Saqlash vaqtida radionuklidlarning saqlash joyidan tashqariga chiqishi va atrof-muhitga tarqalishi ehtimoli mavjud bo‘lgan qattiq radioaktiv chiqindilarni saqlash joylari atrofidagi hududda yer osti suvlaridan namunalar olish uchun nazorat-kuzatuv quduqlari mavjud bo‘lishi lozim.

Nazorat-kuzatuv quduqlarining soni va joylashuvi yadroviy qurilmalar, radiatsiyaviy manbalar va saqlash punktlari uchun obyektning loyiha hujjatlarida belgilanadi hamda asoslantiriladi.

83. Past faol qattiq radioaktiv chiqindilar ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlarning obyektlarida ushbu Xavfsizlik talablari hamda SanQvaM 0193-06 “Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN 2006)” va “Radiatsiya xavfsizligini ta’minlashning asosiy sanitariya qoidalari (RXTASQ 2006)” talablarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan obyektning loyiha yoki texnologik hujjatlarda belgilangan saqlash joylarida saqlanishi lozim.

Past faol qattiq radioaktiv chiqindilarni saqlash joylarining joylashuvi, muhandislik-texnik vositalar bilan jihozlanishi hamda saqlash sharoitlari SanQvaM 0251-08 “Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishning sanitariya qoidalari” talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.

84. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlash tartibi yadroviy qurilmalar, radiatsiyaviy manbalar va saqlash punktlari obyektlarining ekspluatatsiya hujjatlarida atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar hamda ushbu Xavfsizlik talablariga muvofiq belgilanishi lozim.

85. Suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlashda radiatsiya nazorati hamda suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlash tizimining monitoringi, shuningdek suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlashda xavfsizlikni ta’minlashni tartibga soluvchi atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar talablariga muvofiq geologik muhit va yer osti suvlari holatining monitoringi amalga oshirilishi lozim.

Radiatsiya nazorati va monitoringni amalga oshirish hajmi, usullari, tartibi hamda davriyligi, shu jumladan suyuq radioaktiv chiqindilar saqlanadigan joy atrofida kuzatuv quduqlarini qurish zarurati, ularning soni va joylashuvi suyuq radioaktiv chiqindilar saqlanadigan joyning xavfsizligini baholash natijalari asosida obyektning loyiha va (yoki) ekspluatatsiya hujjatlarida belgilanadi hamda asoslantiriladi.

Monitoring dasturi obyektning normal ekspluatatsiyasi hamda normal ekspluatatsiya buzilishi va loyiha avariyalari sharoitlarida xavfsizlikni baholash bo‘yicha bajarilgan prognoz hisob-kitoblari natijalariga muvofiq bo‘lishi lozim.

6-bob. Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni konditsiyalashda xavfsizlikni ta’minlash

86. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni konditsiyalash jarayonida hosil bo‘ladigan konditsiyalangan radioaktiv chiqindilarning Radioaktiv chiqindilarni ko‘mish bo‘yicha maqbullik mezonlari va talablariga (ro‘yxat raqami 3734, 2025-yil 23-dekabr) muvofiqligini ta’minlashi zarur.

87. Yadroviy qurilmalar, radiatsiyaviy manbalar va saqlash punktlari obyektlarining loyiha hujjatlarida qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni konditsiyalash usullari va texnik vositalari, shuningdek konditsiyalangan radioaktiv chiqindilarning tavsiflarini nazorat qilishning usullari hamda vositalari atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar hamda ushbu Xavfsizlik talablariga muvofiq belgilanishi va asoslantirilishi lozim.

88. Qattiq radioaktiv chiqindilarni konditsiyalash usullari va vositalarini tanlash quyidagilarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

konditsiyalanishi lozim bo‘lgan qattiq radioaktiv chiqindilarning fizik, kimyoviy va radiatsiyaviy tavsiflari;

qattiq radioaktiv chiqindilarni ko‘mish uchun belgilangan maqbullik mezonlari.

89. Qattiq radioaktiv chiqindilarni to‘plash, tashish, saqlash va (yoki) ko‘mib tashlash uchun mo‘ljallangan konteynerlarning konstruksiyasi hamda tayyorlanadigan materiallari va ularning xususiyatlari yadroviy qurilmalar, radiatsiyaviy manbalar va saqlash punktlari obyektlarining loyiha hujjatlarida asoslantirilishi lozim.

90. Konditsiyalangan past, o‘rta va yuqori faollik darajasiga ega qattiq hamda suyuq radioaktiv chiqindilarni saqlash va ko‘mish uchun mo‘ljallangan konteynerlarning atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalarda hamda Radioaktiv chiqindilarni ko‘mish bo‘yicha maqbullik mezonlari va talablarida (ro‘yxat raqami 3734, 2025-yil 23-dekabr) belgilangan qoidalarga muvofiqligi baholanadi.

91. Konteynerning konstruktiv materiallari uning tashqi yuzasini dezaktivatsiya qilish imkoniyatini ta’minlashi lozim.

92. Konteyner ko‘mishgacha bo‘lgan kutilayotgan saqlash davri davomida o‘z butunligini saqlashi hamda qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilar joylashtirilgan konteynerdan radionuklidlarning va (yoki) ionlashtiruvchi nurlanishning atrof-muhitga tarqalishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

Konteyner quyidagi imkoniyatlarni ta’minlashi lozim:

saqlash muddati yakunida radioaktiv chiqindilar joylashtirilgan konteynerni saqlash joyidan xavfsiz chiqarib olish;

konteyner yaxlitligi buzilganda yoki qo‘shimcha himoya talab etilganda uni qo‘shimcha konteynerga joylashtirish;

qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilar joylashtirilgan konteynerni ko‘mish joyiga tashish;

qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni ko‘mish jarayonida konteyner bilan xavfsiz muomalada bo‘lish va uni ko‘mish inshootiga joylashtirish.

93. Konditsiyalangan qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilar joylashtirilgan konteynerlar uchun Radioaktiv chiqindilarni ko‘mish bo‘yicha maqbullik mezonlari va talablariga (ro‘yxat raqami 3734, 2025-yil 23-dekabr) muvofiq pasport rasmiylashtiriladi.

7-bob. Gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lish uchun mo‘ljallangan tizimlar (elementlar)

94. Gazsimon radioaktiv chiqindilarni tozalash uskunalarida qo‘llaniladigan filtrlovchi materiallar va sorbentlar namlik, harorat, radiatsiya, organik erituvchilar bug‘lari, ishqorlar va kislotalar ta’siriga, shuningdek gaz oqimi parametrlarining o‘zgarishiga chidamli bo‘lishi lozim.

95. Gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan ishlashga mo‘ljallangan tozalash uskunalarini tayyorlashda qo‘llaniladigan konstruksion materiallar quyidagi talablarga muvofiq bo‘lishi lozim:

radioaktiv moddalarni kam sorbsiyalovchi xususiyatga ega bo‘lishi;

dezaktivatsiya qiluvchi eritmalarning ta’siriga chidamli bo‘lishi.

96. Gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lish uchun mo‘ljallangan tizimlarning elementlari, jumladan filtrlari, ushbu elementlarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish, ta’mirlash va almashtirish ishlarini bajarish imkoniyatini ta’minlaydigan tarzda hamda SanQvaM 0193-06 “Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN 2006)” va “Radiatsiya xavfsizligini ta’minlashning asosiy sanitariya qoidalari (RXTASQ 2006)”ni inobatga olgan holda loyihalanishi va joylashtirilishi lozim.

97. Gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishga mo‘ljallangan tozalash uskunalari, shu jumladan aerozol filtrlari, filtr-adsorberlar va barbotaj qurilmalari quyidagi talablarga muvofiq bo‘lishi lozim:

ekspluatatsiya davomida shamollatish (ventilyatsiya) agregatlari tomonidan hosil qilinadigan siyraklanish tozalash uskunasining maksimal aerodinamik qarshiligini yengib o‘tishni ta’minlashi;

gazsimon radioaktiv chiqindilarni tozalash samaradorligi butun ekspluatatsiya muddati davomida loyiha hujjatlarida belgilangan darajadan past bo‘lmasligi.

98. Gazsimon radioaktiv chiqindilarni tozalash samaradorligining loyihada qabul qilingan qiymatlari yadroviy qurilmalar, radiatsiyaviy manbalar va saqlash punktlari obyektlarining loyiha hujjatlarida asoslantirilishi lozim.

99. Gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishga mo‘ljallangan tizimlarda havo oqimlari parametrlarini hisoblashda filtr yuzasida aerozol zarrachalarining to‘planishi natijasida uning filtr qarshiligining ortishi inobatga olinishi lozim.

100. Gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lish tizimlari filtrlari orqali havoni radioaktiv aerozollardan tozalash koeffitsiyentini hisoblash quyidagilarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim:

aerozol zarrachalarining o‘lchami tozalash uskunasi ishlab chiqaruvchisining hujjatlarida ko‘rsatilgan eng qiyin ushlanadigan (eng yuqori o‘tuvchanlikka ega) zarrachalar o‘lchamiga teng deb qabul qilinishi (tozalash samaradorligi qiymatlari va zarracha o‘lchamlari loyiha hujjatlarida keltirilishi lozim);

texnologik jarayonning issiqlik-texnik va aerodinamik parametrlari eng noqulay ekspluatatsiya sharoitlarini hisobga olgan holda tanlanishi.

101. Gazsimon radioaktiv chiqindilar tarkibidagi radioaktiv yodni ushlab qolish uchun mo‘ljallangan adsorberlar atom energiyasidan foydalanish obyektlarining normal ekspluatatsiyasi hamda normal ekspluatatsiya buzilishi sharoitlarida radioaktiv yodning turli kimyoviy birikmalarini ushlab qolishni ta’minlashi lozim.

102. Gazsimon radioaktiv chiqindilar tarkibidagi radioaktiv yodni tutib qolishga mo‘ljallangan adsorberlar va boshqa qurilmalarni hisoblashda quyidagilar inobatga olinishi lozim:

foydalanilayotgan sorbentlarning ekspluatatsiya sharoitidagi sorbsiya sig‘imi;

adsorberlarga (qurilmalarga) ularning butun ekspluatatsiya davri davomida tushadigan radioaktiv yodning umumiy miqdori.

103. Gazgolderlar va radioxromatografik gaz tozalash tizimlari inert radioaktiv gazlarni ushlab qolishni hamda loyiha hujjatlarida belgilangan tozalash koeffitsiyentini (gazsimon radioaktiv chiqindilarni qayta ishlash qurilmasiga kirishdagi radioaktiv moddalar konsentratsiyasining ushbu qurilmadan chiqishdagi konsentratsiyaga nisbatini) atom energiyasidan foydalanish obyektining barcha loyihaviy ish rejimlarida ta’minlashi lozim.

Inert radioaktiv gazlarni radioaktiv parchalanish sodir bo‘lguniga qadar tutib qolish va vaqtincha saqlashga mo‘ljallangan radioxromatografik tizimlarni hisoblashda quyidagilar inobatga olinishi zarur:

sorbentlarning ekspluatatsiya sharoitlaridagi (harorat, namlik) sig‘imi;

inert radioaktiv gazlarning adsorbsion ushlab qolish tizimida bo‘lish vaqti.

104. Gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishga mo‘ljallangan tizimlar va ularning elementlari ishga yaroqliligi hamda loyiha hujjatlarida belgilangan texnik tavsiflarga muvofiqligi bo‘yicha, shu jumladan yadroviy qurilmalar, radiatsiyaviy manbalar va saqlash punktlarida yuzaga kelgan avariyalar oqibatlari bartaraf etilgandan so‘ng tekshirilishi lozim.

105. Har bir filtr yoki sorbent partiyasi ishlab chiqaruvchining pasportiga ega bo‘lishi va unda asosiy parametrlar hamda ushbu filtr yoki sorbentlarni sinovdan o‘tkazish natijasida olingan quyidagi ko‘rsatkichlar keltirilishi lozim:

filtrlar uchun – nominal sarfdagi qarshilik, aerodinamik qarshilik, eng qiyin ushlanadigan (eng yuqori o‘tuvchanlikka ega) zarrachalar uchun tozalash samaradorligi (zarracha diametriga bog‘liq samaradorlik egri chizig‘ining minimumiga mos keluvchi zarracha o‘lchami);

sorbentlar uchun – sorbent mo‘ljallangan moddalarni ushlab qolish samaradorligi, agar sorbent radioaktiv yodni ushlab qolish uchun mo‘ljallangan bo‘lsa molekulyar yod va metilyodidni (alohida-alohida) ushlab qolish samaradorligi.

106. Aerozol filtrlari, filtr-adsorberlar va filtr-absorberlar nominal havo sarfining uch baravarigacha oshishiga bardosh berishi hamda o‘z funksional xususiyatlarini saqlashi lozim.

Havo sarfi nominal qiymatga qaytarilgandan so‘ng tozalash samaradorligi obyektning loyiha hujjatlarida belgilangan darajadan past bo‘lmasligi lozim.

107. Aerozol filtrlari va sorbentlarga loyiha hujjatlarida belgilangan ishchi haroratdan yuqori haroratlarning ta’siri toksik moddalarning hosil bo‘lishi va ajralib chiqishiga olib kelmasligi kerak.

108. Belgilangan ekspluatatsiya resursi tugagan filtrlardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunday filtrlarni chiqarib olish, saqlash va utilizatsiya qilish atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar hamda SanQvaM 0193-06 “Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN 2006)” va “Radiatsiya xavfsizligini ta’minlashning asosiy sanitariya qoidalari (RXTASQ 2006)” talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

109. Tozalash uskunalari uchun radiatsiyaviy va texnologik nazorat usullari hamda vositalarini, shuningdek texnologik jarayonlar parametrlarini qayd etish tizimlarini belgilashda quyidagilar inobatga olinishi lozim:

gazsimon radioaktiv chiqindilar oqimlarining parametrlari;

issiqlik-texnik va aerodinamik parametrlar – bosim (siyraklanish), gaz oqimiga qarshilik, harorat va namlik;

portlash xavfi mavjud moddalar, jumladan vodorod konsentratsiyasi (agar ular gazsimon radioaktiv chiqindilar tarkibida mavjud bo‘lsa);

tozalash uskunasining samaradorligi;

tozalash koeffitsiyenti.

110. Gazsimon radioaktiv chiqindilarni tozalash jarayonida tozalash koeffitsiyentini davriy o‘lchash usullari va vositalari, shuningdek tozalash uskunasining samaradorligini aniqlash uchun texnologik nazorat vositalari mavjud bo‘lishi lozim.

111. Texnologik nazorat usullari va vositalari nazorat qilinadigan parametrlarni ularning mumkin bo‘lgan barcha o‘zgarish diapazonida o‘lchashni ta’minlashi lozim.

112. Gazsimon radioaktiv chiqindilarning nazorat qilinadigan ko‘rsatkichlari ro‘yxati, ularni nazorat qilish usullari va vositalari, shuningdek nazorat natijalarini rasmiylashtirish va saqlash tartibi Atom energiyasidan foydalanish obyektining to‘liq “hayotiy” davri mobaynida sifatni ta’minlashning umumiy dasturiga qo‘yiladigan talablarga (ro‘yxat raqami 3770, 2026-yil 9-fevral) muvofiq bo‘lishi lozim.

8-bob. Yakuniy qoida

113. Mazkur Xavfsizlik talablarini buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Qattiq va suyuq radioaktiv chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va konditsiyalashda hamda gazsimon radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishda xavfsizlik talablariga
ILOVA

Sement kompaundining asosiy sifat ko‘rsatkichlari

1-jadval

Sifat ko‘rsatkichi	Ruxsat etilgan qiymatlar
Suvga chidamlilik (^{137}Cs va ^{90}Sr radionuklidlarining yuvilib chiqish tezligi)	$1 \cdot 10^{-3}$ g/cm²·sutkadan ortiq emas
Mexanik mustahkamlik (siqilishdagi mustahkamlik chegarasi)	50 kgf/cm² dan kam emas
Radiatsiyaviy barqarorlik	10^6 Gy doza bilan nurlantirilgandan so‘ng mexanik mustahkamlik 50 kgf/cm² dan kam emas
Termik davrlarga barqarorlik	(-40 … +40 °C) da 30 marotaba muzlatish va eritishdan so‘ng mexanik mustahkamlik 50 kgf/cm² dan kam emas
Suvga bardoshlilik	90 kun davomida suvga botirilgandan so‘ng mexanik mustahkamlik 50 kgf/cm² dan kam emas
Sement kompaund tarkibiga kirmagan suyuq radioaktiv chiqindilar hajmi	erkin suyuqlik hajmi umumiy hajmning 1 foizidan ortiq emas

Bitum kompaundining asosiy sifat ko‘rsatkichlari

2-jadval

Sifat ko‘rsatkichi	Ruxsat etilgan qiymatlar
Kompaundning solishtirma faolligi: beta-faollik alfa-faollik	 10^{10} Bq/kg dan ortiq emas; 10^6 Bq/kg dan ortiq emas
Suvga chidamlilik (^{137}Cs va ^{90}Sr radionuklidlarining yuvilib chiqish tezligi)	$1 \cdot 10^{-4}$ g/(cm/sutka) dan ortiq emas
Kompaund tarkibidagi erkin namlik miqdori	ion almashinuv smolalari asosidagi kompaundlar uchun– 3 foizdan kam tuz konsentratlari asosidagi kompaundlar uchun – 1 foizdan kam
Radiatsiyaviy barqarorlik	10^6 Gy doza bilan nurlantirilgandan so‘ng hajmning ortishi 10 foizdan oshmasligi
Termik barqarorlik	chaqnash harorati – 200 °C dan yuqori; alangalanish harorati – 250 °C dan yuqori; o‘z-o‘zidan alangalanish harorati – 400 °C dan yuqori

Shishasimon kompaundining asosiy sifat ko‘rsatkichlari

3-jadval

Sifat ko‘rsatkichi	Ruxsat etilgan qiymatlar
Konditsiyalangan radioaktiv chiqindilar tarkibi (alfa-nurlanuvchilar massa ulushi)	0,2 foizdan oshmasligi
Bir jinslilik	Kompaund tarkibining makrokomponentlar bo‘yicha ±10% doirasida bir xil bo‘lishi dispers fazalarning ajralib chiqmasligi
25 °C da suvga chidamlilik (^{137}Cs, ^{90}Sr, ^{239}Pu radionuklidlarining yuvilib chiqish tezligi)	^{137}Cs – $1\cdot10^{-5}$ g/(cm²·sut) dan oshmasligi; ^{90}Sr – $1\cdot10^{-6}$ g/(cm²·sut) dan oshmasligi; ^{239}Pu – $1\cdot10^{-7}$ g/(cm²·sut) dan oshmasligi
Termik barqarorlik	Kompaundni saqlash jarayonida undan ajraladigan issiqlik ta’sirida yuzaga keladigan haroratlar sharoitida ushbu Xavfsizlik talablari bilan belgilangan ko‘rsatkichlarga muvofiq holda kompaundning xossalari (bir jinsliligi, mexanik mustahkamligi va suvga chidamliligi) saqlanishi lozim
Radiatsiyaviy barqarorlik	Ionlashtiruvchi nurlanish (radioaktiv tarkib bilan bog‘liq, 10 000 yillik davr uchun prognoz qilingan yutilgan doza) ta’sirida ham kompaundning ushbu Xavfsizlik talablarida belgilangan ko‘rsatkichlarga muvofiq xossalari (jumladan, bir jinsliligi, mexanik mustahkamligi va suvga chidamliligi) saqlanishi lozim, bunda radiatsion barqarorlik kamida quyidagi darajalarda ta’minlanishi kerak: beta va gamma nurlanish bo‘yicha – 10^8 Gy; alfa parchalanish bo‘yicha – 10^{18} α-parchalanish/cm³
Mexanik mustahkamlik	Siqilishdagi mustahkamlik – 4,1 × 10^7 Pa dan kam bo‘lmasligi; Egilishdagi mustahkamlik – 9 × 10^6 Pa dan kam bo‘lmasligi; Yung moduli – 5,4 × 10^{10} Pa dan kam bo‘lmasligi
Gaz ajralishi (radioaktiv parchalanish natijasida hosil bo‘ladigan gazsimon mahsulotlar bundan mustasno)	Mavjud emas

Polimer kompaundining asosiy sifat ko‘rsatkichlari

4-jadval

Sifat ko‘rsatkichi	Ruxsat etilgan qiymatlar
Suvga chidamlilik (^{137}Cs va ^{3}H radionuklidlarining yuvilib chiqish tezligi)	^{137}Cs: $2\cdot10^{-2}$ – $\cdot10^{-3}$ g/(cm²·sut); ^{3}H: $2\cdot10^{-2}$ – $\cdot10^{-3}$ g/(cm²·sut)
Termik barqarorlik	0 °C dan +100 °C gacha bo‘lgan haroratda saqlash natijasida kompaundning tuzilishi hamda suvga chidamlilik xossalarining saqlanishi
Radiatsiyaviy barqarorlik	4×10^{4} Gy doza (^{3}H beta-nurlanishi bo‘yicha) ta’sirida kompaundning tuzilishi hamda suvga chidamlilik xossalarining saqlanishi
Gaz ajralishi	Mavjud emas
Polimer kompaund tarkibiga kirmagan suyuq radioaktiv chiqindilar hajmi	umumiy hajmning 1 foizdan ko‘p emas

QMMB: 10/26/3042-7/0752-son
20.07.2026-y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3042-7
2026 - yil 17 - Iyul

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING QARORI

Kredit byurolarini roʻyxatga olish va ularning faoliyatini litsenziyalash tartibi toʻgʻrisidagi nizomning 19-bandiga qoʻshimcha kiritish haqida

Oʻzbekiston Respublikasining “Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy banki toʻgʻrisida”gi, “Kredit axboroti almashinuvi toʻgʻrisida”gi hamda 2026-yil 27-martdagi OʻRQ–1126-son “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Oʻzbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi qonunlariga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2018-yil 28-apreldagi 16/23-son qarori (roʻyxat raqami 3042, 2018-yil 25-iyul) (Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 25.07.2018-y., 10/18/3042/1573-son) bilan tasdiqlangan Kredit byurolarini roʻyxatga olish va ularning faoliyatini litsenziyalash tartibi toʻgʻrisidagi nizomning 19-bandida:

quyidagi mazmundagi yettinchi xatboshi bilan toʻldirilsin:

“kredit byurosi binosida nogironligi boʻlgan shaxslar uchun shaharsozlik normalari va qoidalarida belgilangan talablarga muvofiq qulay shart-sharoitlar yaratilganligi boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasining xulosasi.”;

yettinchi xatboshi sakkizinchi xatboshi deb hisoblansin.

2. Mazkur qaror rasmiy eʼlon qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

QMMB: 10/26/3042-7/0752-son
20.07.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki Raisi
2026-yil 7-iyul
20/3-son

ISHMETOV TIMUR
AMINDJANOVICH

28 (1256)-son
744-modda

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3252-7
2026 - yil 17 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING QARORI

Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi va 2026-yil 27-martdagi O‘RQ–1126-son “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 25-maydagi 12/1-son qarori (ro‘yxat raqami 3252, 2020-yil 30-iyun) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020-y., 10/20/3252/1098-son) bilan tasdiqlangan Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risidagi nizomga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki Raisi

2026-yil 23-iyun
19/2-son

ISHMETOV TIMUR
AMINDJANOVICH

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining
2026-yil 23-iyundagi 19/2-son qaroriga
ILOVA

Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari toʻgʻrisidagi nizomga kiritilayotgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar

1. Muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Nizom bank faoliyatiga, shu jumladan islomiy bank faoliyatiga ruxsat berish, bankning rahbar xodimlarini lavozimiga kirishishidan oldin kelishib olish, alohida boʻlinmalarini ochish va yopish, ustaviga kiritilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalarni roʻyxatdan oʻtkazish, bankni qayta tashkil etish va tugatish tartibi hamda shartlarini belgilaydi.”.

2. 1-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. Agar ushbu Nizomda boshqacha qoida nazarda tutilmagan boʻlsa:

ushbu Nizomning banklarga nisbatan belgilangan qoidalari mikromoliya banklariga, islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklarga va islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banklariga nisbatan;

ushbu Nizomning mikromoliya banklariga nisbatan belgilangan qoidalari islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banklariga nisbatan ham tatbiq etiladi.”.

3. Quyidagi mazmundagi 1^1-band bilan toʻldirilsin:

“1^1. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qoʻllaniladi:

bankning barqaror moliyaviy holati – bankning moliyaviy oqimlari mutanosibligini, toʻlov qobiliyatini, likvidliligi va rentabelli faoliyatini saqlab turish uchun mablagʻlarning yetarliligini, shuningdek barcha prudensial normativlar bank tomonidan bajarilishini ifodalovchi holati;

bilvosita egalik qiluvchi – bankning aksiyalariga oʻzi nazorat qiladigan boshqa shaxs orqali egalik qiluvchi shaxs;

islomiy bank faoliyati – banklar va bank faoliyati toʻgʻrisidagi qonunchilikka hamda islomiy moliya standartlariga muvofiq amalga oshiriladigan bank faoliyati;

moʻljallangan olish – potensial oluvchi tomonidan bank aksiyalarini olish yoki ularga hal qiluvchi egalik qilishni koʻpaytirish yuzasidan qabul qilingan qaror;

nazorat – Oʻzbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 19-moddasi uchinchi qismida koʻrsatilgan mezonlardan biriga mos

keluvchi oʻzaro aloqa;

oxirgi benefitsiar mulkdor – yuridik shaxs boʻlgan, bank aksiyalarining potensial oluvchisiga yoki bu aksiyalarga bevosita yoxud bilvosita egalik qiluvchiga bevosita yoki bilvosita egalik qiladigan yoxud uni nazorat qiladigan jismoniy shaxs;

potensial oluvchi – birgalikda harakat qilayotgan, moʻljallanilayotgan sotib olish munosabati bilan bank aksiyalarini bevosita yoki bilvosita, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdor sifatida olishni niyat qilgan shaxs yoki shaxslar guruhi;

rahbar xodim – ushbu Nizomning 77-bandida koʻrsatilgan lavozimlardan biriga saylangan (tayinlangan) shaxs;

hal qiluvchi egalik – shaxs tomonidan yoki birgalikda harakat qiluvchi shaxslar tomonidan yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) bir yoxud bir necha bitim natijasida olingan kamida besh foiziga bevosita yoki bilvosita egalik qilish;

chet el banki – chet davlatning hududida roʻyxatga olingan, ushbu chet davlatning qonunchiligiga muvofiq bank deb hisoblanadigan yuridik shaxs.”.

4. 8-bandning ikkinchi xatboshisi “bank faoliyati” degan soʻzlardan keyin “, shu jumladan islomiy bank faoliyati” degan soʻzlar bilan toʻldirilsin.

5. 18-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“18. Bank oʻz faoliyatini Oʻzbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari va ustavi, mazkur Nizomga muvofiq Markaziy bank tomonidan berilgan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya va (yoki) islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga (bundan buyon matnda bank faoliyatiga doir tegishli litsenziya (litsenziyalar) deb yuritiladi) asosan amalga oshiradi.”.

6. 19-bandning uchinchi xatboshisi, 29 va 38-bandlar, 130-bandning ikkinchi xatboshisi, 182, 183, 200-202, 226 va 233-bandlardagi “litsenziya” degan soʻz “bank faoliyatiga doir tegishli litsenziya (litsenziyalar)” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

7. 20-bandning 13-kichik bandidagi “bankning kredit, investitsiya va emissiya siyosati” degan soʻzlar “bankning kredit (moliyalashtirish), investitsiya va emissiya siyosati” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

8. 20^1 va 20^2-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“20^1. Islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun ariza beruvchi ushbu Nizomning 20-bandida nazarda tutilgan hujjatlarga qoʻshimcha ravishda quyidagilarni taqdim etadi:

bankning islomiy moliya kengashi, islomiy moliya masalalari boʻyicha maxsus boʻlinmasi va islomiy moliya boʻyicha ichki auditi toʻgʻrisidagi nizomlari loyihalarini;

islomiy moliya standartlariga muvofiqlik siyosati loyihasini;

bankning islomiy moliya kengashi aʼzolari toʻgʻrisida ushbu Nizomning 107-bandi 5-10-kichik bandlarida koʻrsatilgan hujjatlarni.

20^2. Taʼsis yigʻilishining bayonnomasi yoki muassisning bankni taʼsis etish haqidagi yakka tartibda qabul qilgan qarori bankni tashkil etish, bankning ustav kapitali miqdorini belgilash, bank ustavini, tashkiliy tuzilmasini va biznes-rejasini tasdiqlash, bankning kuzatuv kengashi va boshqaruvi aʼzolarini saylash (tayinlash) toʻgʻrisidagi qarorlarni, shuningdek bank islomiy bank faoliyatini amalga oshirgan taqdirda – bankning islomiy moliya kengashi aʼzolarini saylash toʻgʻrisidagi qarorni oʻz ichiga olishi lozim.”.

9. Quyidagi mazmundagi 20^3 va 20^4-bandlar bilan toʻldirilsin:

“20^3. Taʼsis shartnomasining yoki muassisning bankni taʼsis etish haqidagi yakka tartibda qabul qilgan qarorining nusxalari, ulardagi jismoniy shaxslarning imzolari notarius yoki notarial harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega boʻlgan boshqa mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlanadi.

20^4. Islomiy moliya standartlariga muvofiqlik siyosatida kamida quyidagilar nazarda tutilishi lozim:

islomiy bank faoliyatini amalga oshirishda islomiy moliya standartlariga muvofiqlikni taʼminlashning ahamiyati;

islomiy bank faoliyatini amalga oshirishda islomiy moliya standartlariga muvofiqlikni taʼminlash jarayoni;

islomiy moliya standartlariga muvofiqlikni taʼminlashda bankning boshqaruv organlari, islomiy moliya kengashi, islomiy moliya masalalari boʻyicha maxsus boʻlinmasi va islomiy moliya boʻyicha ichki auditining vazifa va majburiyatlari;

islomiy moliya standartlariga nomuvofiq boʻlgan daromadlardan xalos boʻlish, shu jumladan ularni xayriya maqsadlariga yoʻnaltirish tartibi;

hisobdorlik, oshkoralik va shaffoflikni taʼminlash choralari;

islomiy moliya boʻyicha tashqi audit tekshiruvini oʻtkazish tartibi.”.

10. 24-bandda:

12-kichik banddagi “bankning kredit, investitsiya va emissiya siyosati” degan soʻzlar “bankning kredit (moliyalashtirish), investitsiya va emissiya siyosati”

degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi xatboshi bilan toʻldirilsin:

“Islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun ariza beruvchi ushbu bandning birinchi – oʻn uchinchi xatboshilarida nazarda tutilgan hujjatlarga qoʻshimcha ravishda ushbu Nizomning 20^1-bandi ikkinchi – toʻrtinchi xatboshilarida koʻrsatilgan hujjatlarni taqdim etadi.”.

11. 1-boʻlimning 2-bobi 5-paragrafining nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5-§. Bankni davlat roʻyxatidan oʻtkazish va bank faoliyatiga doir tegishli litsenziya (litsenziyalar) berish”.

12. 28-bandda:

birinchi xatboshidagi “litsenziya” degan soʻz “bank faoliyatiga doir tegishli litsenziya (litsenziyalar)” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“bankni davlat roʻyxatiga olish va bank faoliyatiga doir tegishli litsenziya (litsenziyalar) berish toʻgʻrisidagi ariza. Bunda arizada ariza beruvchining elektron pochta manzilining koʻrsatilishi uning qabul qilingan qaror toʻgʻrisidagi xabarnomani axborot-kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda olishga boʻlgan roziligidir;”;

quyidagi mazmundagi oltinchi va yettinchi xatboshilar bilan toʻldirilsin:

“nogironligi boʻlgan shaxslar uchun bank binolarida shaharsozlik normalari va qoidalarida belgilangan talablarga muvofiq qulay shart-sharoitlar yaratilganligi boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasining xulosasi;

agar ariza bir vaqtning oʻzida bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya hamda islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya berish uchun taqdim etilsa, ushbu Nizomning 29^1-bandi yettinchi va toʻqqizinchi xatboshilarida koʻrsatilgan hujjatlar;”;

oltinchi va yettinchi xatboshilar tegishli ravishda sakkizinchi va toʻqqizinchi xatboshilar deb hisoblansin;

sakkizinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“mazkur Nizomning tegishli ravishda 20 – 24-bandlari hamda ushbu bandning ikkinchi – yettinchi xatboshilariga muvofiq taqdim etilgan hujjatlarning elektron shakldagi koʻchirma nusxalari.”;

to‘qqizinchi xatboshidagi “uchinchi – beshinchi xatboshilarida” degan so‘zlar “uchinchi – yettinchi xatboshilarida” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

13. 1-bo‘limning 2-bobi quyidagi mazmundagi 5^1-paragraf bilan to‘ldirilsin:

“5^1-§. Bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo‘lgan bankka islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani berish

29^1. Bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo‘lgan bank islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani olish uchun Markaziy bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani berish to‘g‘risidagi ariza;

bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining yoki bankning yagona aksiyadorining islomiy bank faoliyatini yo‘lga qo‘yish to‘g‘risidagi qarori;

bankning O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 14-moddasi to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan talablar inobatga olingan holdagi ustavi;

bankda bankning islomiy moliya kengashi, islomiy moliya masalalari bo‘yicha maxsus bo‘linmasi va islomiy moliya bo‘yicha ichki auditi tashkil etilganligi to‘g‘risidagi ma’lumot;

ushbu Nizomning 20^1-bandida ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlar;

bankning islomiy bank faoliyatiga mas’ul bo‘lgan rahbar xodimi to‘g‘risidagi ushbu Nizomning 107-bandi 2 – 10-kichik bandlarida ko‘rsatilgan hujjatlar;

islomiy bank faoliyati bo‘yicha bozor tahlili, moliyalashtirish rejalari, mahsulot va xizmatlar, moliyaviy prognozlar va tavakkalchiliklarni boshqarish masalalarini, shuningdek ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq boshqa ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan uch yillik biznes-reja;

islomiy bank faoliyati doirasida amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar bo‘yicha buxgalteriya hisobini alohida yuritish imkoniyati yaratilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (avtomatlashtirilgan bank tizimlariga islomiy moliya operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha o‘zgartirishlar kiritilganligini tasdiqlovchi hujjatlar).

29^2. Bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo‘lgan bankka islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani berish haqidagi qaror ariza barcha zarur hujjatlar bilan olingan kundan e’tiboran ikki oydan oshmagan muddatda qabul qilinadi.

Markaziy bank tegishli qaror qabul qilingan sanadan eʼtiboran uch ish kuni ichida bankni qabul qilingan qaror haqida yozma shaklda, shu jumladan axborot-kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda xabardor qiladi.”.

14. 1-boʻlimning 2-bobi 6-paragrafining nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6-§. Bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyani (litsenziyalarni) qayta rasmiylashtirish”.

15. 32 va 35-bandlardagi “Litsenziyani qayta rasmiylashtirish” degan soʻzlar “Bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyani (litsenziyalarni) qayta rasmiylashtirish” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

16. 1-boʻlimning 2-bobi 7-paragrafining nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7-§. Bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyani (litsenziyalarni) berish va qayta rasmiylashtirish uchun toʻlov”.

17. 34-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“34. Bank faoliyatiga doir tegishli litsenziya (litsenziyalar) berilganligi uchun tegishincha bank yoki mikromoliya banki ustav kapitali eng kam miqdorining 0,1 foizi miqdorida davlat boji undiriladi. Bunda davlat boji berilgan har bir litsenziya turi uchun alohida undiriladi.”.

18. 50-bandning uchinchi xatboshisi “kuzatuv kengashi va boshqaruvi” degan soʻzlardan keyin “, islomiy moliya kengashi” degan soʻzlar bilan toʻldirilsin.

19. 3-boʻlimning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“III boʻlim. Bankning rahbar xodimlarini Markaziy bank bilan kelishib olish tartibi va baholash mezonlari”.

20. 77 – 80-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“77. Quyidagi rahbar xodimlar lavozimiga kirishishidan oldin Markaziy bank bilan kelishib olinishi lozim:

1) bank kuzatuv kengashi aʼzolari, shu jumladan raisi;

2) bank boshqaruvi aʼzolari, shu jumladan raisi va uning oʻrinbosarlari;

3) bankning islomiy moliya kengashi aʼzolari, shu jumladan raisi va uning oʻrinbosarlari;

4) bankning muhim ahamiyatga ega xodimlari, agar ular bir paytning oʻzida bank boshqaruvi aʼzolari boʻlmasa:

bankning bosh buxgalteri;

ichki audit tarkibiy boʻlinmasi rahbari;

tavakkalchiliklarni boshqarishga masʼul tarkibiy boʻlinma rahbari;

ichki nazorat va (yoki) komplayens nazorat uchun masʼul boʻlgan tarkibiy boʻlinma rahbari;

bank aktivlari va passivlarini (gʻaznachilikni) boshqarishga masʼul boʻlgan tarkibiy tuzilma rahbari;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni va ommaviy qirgʻin qurollari tarqatilishini moliyalashtirishga qarshi kurashishga masʼul tarkibiy boʻlinma rahbari;

bankning islomiy bank faoliyatiga masʼul boʻlgan rahbar xodimi;

5) ixtiyoriy tugatilayotgan bankning tugatuvchisi (agar tugatish komissiyasi tayinlansa, uning rahbari va aʼzolari);

6) oʻz lavozim majburiyatlaridan kelib chiqib, ushbu bandning 1 – 5-kichik bandlarida koʻrsatilgan rahbar xodimlarga tenglashtirilgan yoki ushbu bandning 4-kichik bandida koʻrsatilgan bankning muhim ahamiyatga ega xodimlarining faoliyatini muvofiqlashtirib boruvchi shaxslar.

78. Bank rahbar xodimning mazkur Nizom talablariga muvofiqligini dastlabki baholashdan oʻtkazishi shart. Bunda bank rahbar xodimning ishchanlik obroʻsi, tajriba, bilim va koʻnikmalari, mulohazasining mustaqilligi, vaqtining yetarliligi va jamoaviy yaroqliligini mazkur Nizom va bankning ichki talablariga muvofiqligini baholaydi, shuningdek rahbar xodim tomonidan baholash uchun taqdim etilgan maʼlumotlarning haqqoniyligini tekshiradi.

79. Mazkur Nizomning 78-bandida nazarda tutilgan baholash bank tomonidan rahbar xodimni saylash yoki tayinlash toʻgʻrisidagi qaror qabul qilinishidan (ishga qabul qilish toʻgʻrisida buyruq rasmiylashtirilishidan) oldin amalga oshiriladi.

80. Mazkur Nizomning 78-bandiga asosan bank tomonidan oʻtkazilgan baholash natijalari rahbar xodimning mazkur Nizom talablariga nomuvofiqligini koʻrsatgan taqdirda, u rahbar xodim sifatida saylanmasligi yoki tayinlanmasligi lozim.”.

21. 83-bandda:

ikkinchi xatboshidagi “litsenziya” degan soʻz “bank faoliyatiga doir tegishli litsenziya (litsenziyalar)” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi uchinchi va toʻrtinchi xatboshilar bilan toʻldirilsin:

“bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega boʻlgan banklarning islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi

litsenziyani berish toʻgʻrisidagi arizalarini koʻrib chiqish doirasida;

kredit tashkilotlari faoliyatini oʻzgartirish toʻgʻrisidagi arizalarni koʻrib chiqish doirasida;”;

uchinchi – beshinchi xatboshilar tegishli ravishda beshinchi – yettinchi xatboshilar deb hisoblansin.

22. 84-bandning birinchi va ikkinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“84. Agar rahbar xodimlarning mazkur Nizom talablariga muvofiqligiga taʼsir koʻrsatuvchi yangi holatlar mavjud boʻlmasa, quyidagilarni lavozimiga kirishishidan oldin Markaziy bank bilan kelishib olish talab etilmaydi:

vakolat muddatining tugashi munosabati bilan shu bankning oʻzida yangi muddatga qayta saylangan (tayinlangan) bankning kuzatuv kengashi, boshqaruvi va islomiy moliya kengashi aʼzosini;”.

23. 85 – 87-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“85. Rahbar xodim oʻz lavozimiga bank uni Markaziy bank bilan kelishib olgandan soʻnggina kirishishi mumkin.

Agar muhim ahamiyatga ega xodimni obyektiv sabablarga koʻra lavozimiga kirishishidan oldin Markaziy bank bilan kelishib olishning imkoni boʻlmasa, bank muhim ahamiyatga ega xodim lavozimiga tayinlangan kundan eʼtiboran oʻttiz ish kuni ichida uni kelishish uchun Markaziy bankka tegishli obyektiv sabablarni koʻrsatgan holda ariza yuborishi shart.

86. Bank boshqaruvi raisi va uning oʻrinbosarlari vazifalarini ular yoʻqligida vaqtincha bajarish kelishib olish tartibidan oʻtgan rais oʻrinbosarlari yoki boshqaruv aʼzolari zimmalariga yuklanadi.

87. Bankning rahbar xodimlari, majburiy tugatilayotgan bankning tugatuvchisi, bankning maxsus boshqaruvchisi va vaqtinchalik boshqaruvchisi (bundan buyon matnda nomzod deb yuritiladi) mazkur Nizom talablari bilan belgilangan ishchanlik obroʻsi, tajriba, bilim va koʻnikmalar, mulohazaning mustaqilligi, vaqtning yetarliligi mezonlariga muvofiq boʻlishi lozim.

Bankning kuzatuv kengashi, boshqaruvi va islomiy moliya kengashi aʼzolari mazkur bandning birinchi xatboshisida koʻrsatilgan mezonlarga qoʻshimcha ravishda jamoaviy yaroqlilik mezoniga ham muvofiq boʻlishi lozim.

Ushbu Nizomning 77-bandi 6-kichik bandida koʻrsatilgan rahbar xodimning vazifalari qaysi rahbar xodimning vazifalariga tenglashtirilgan boʻlsa (qaysi muhim ahamiyatga ega xodimning faoliyatini muvofiqlashtirib borsa), ularga nisbatan oʻsha tenglashtirilgan rahbar xodim (faoliyati ular tomonidan muvofiqlashtirib

boriladigan muhim ahamiyatga ega xodim) uchun belgilangan talablar qoʻllaniladi.”.

24. 90-bandning oʻn oltinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“nomzod hozirda yoki oldin ijro organi, kuzatuv kengashi, bankning islomiy moliya kengashi aʼzosi boʻlgan yoki hal qiluvchi egasi (aksiyadori) boʻlgan yoxud boshqa usulda nazorat qilgan yoki qilayotgan yuridik shaxsga nisbatan Oʻzbekiston Respublikasi yoki chet davlat moliyaviy sektor nazorat organi tomonidan qoʻpol va jiddiy qoidabuzarliklar uchun qoʻllanilgan chora va sanksiyalarning mavjud emasligi;”.

25. 3-boʻlimning 2-bobi 2-paragrafining nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tajriba, bilim va koʻnikmalar”.

26. 91-band, 92-bandning birinchi xatboshisi hamda 121-banddagi “malaka” degan soʻz “tajriba” degan soʻz bilan almashtirilsin.

27. 93 – 96-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“93. Nomzod bilim va koʻnikmalarga nisbatan oʻrnatilgan mezonlarga muvofiqligini tasdiqlash uchun bankning tizimli ahamiyatga molikligiga, xususiyatiga, masshtabiga va murakkabligiga, shuningdek, uning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarga muvofiq keluvchi bilimga egaligini namoyon etishi va kamida quyidagi maʼlumotga ega boʻlishi lozim:

1) kuzatuv kengashi aʼzolari, shuningdek, uning raisi uchun – moliya-iqtisod yoki yuridik, shuningdek, bankning asosiy yoʻnalishi va xususiyatidan kelib chiqib, axborot texnologiyalari va boshqa mutaxassisliklar boʻyicha oliy maʼlumotga;

2) bank boshqaruvi aʼzolari, shuningdek, uning raisi va rais oʻrinbosarlari uchun – moliya-iqtisod yoki yuridik yoki axborot texnologiyalari yoʻnalishi boʻyicha oliy maʼlumotga. Bunda boshqaruv aʼzolarining koʻpchiligi moliya-iqtisod yoʻnalishi boʻyicha oliy maʼlumotga ega boʻlishi lozim;

3) bank islomiy moliya kengashining:

kamida uch nafar aʼzosi, shu jumladan raisi va uning oʻrinbosari uchun – islomshunoslik, islom huquqi (fiqh), usulul fiqh yoki fiqhul muamalat mutaxassisliklari yoxud ushbu fanlar oʻqitilgan mutaxassislik boʻyicha oliy maʼlumotga;

qolgan aʼzolari uchun (bankning islomiy moliya kengashi uch nafardan ortiq aʼzoga ega boʻlgan taqdirda) – moliya-iqtisod, yuridik yoki ushbu kichik bandning ikkinchi xatboshisida koʻrsatilgan mutaxassisliklar boʻyicha oliy maʼlumotga;

4) bankning muhim ahamiyatga ega xodimlari (bundan bankning islomiy bank faoliyatiga masʼul boʻlgan rahbar xodimi mustasno), tugatuvchisi,

vaqtinchalik boshqaruvchisi yoki maxsus boshqaruvchisi uchun – moliya-iqtisod yoʻnalishi hamda bankning asosiy yoʻnalishi va xususiyatidan kelib chiqib boshqa mutaxassisliklar boʻyicha oliy maʼlumotga;

5) bankning islomiy bank faoliyatiga masʼul boʻlgan rahbar xodimi uchun – moliya-iqtisod yoki islomiy moliya yoʻnalishida oliy maʼlumotga va Islomiy moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI) tomonidan berilgan quyidagi sertifikatlardan biriga, bundan nomzodning islomiy moliya yoʻnalishida oliy maʼlumotga yoki ilmiy darajaga ega boʻlgan holatlari mustasno:

CIPA (Certified Islamic Professional Accountant) sertifikati;

CSAA (Certified Shari’ah Advisor and Auditor) sertifikati;

CPSS (Certificate of Proficiency in Shari’ah Standards) sertifikati;

CPAAGE (Certificate of Proficiency in Audit, Assurance, Governance and Ethics) sertifikati;

CSE (Certified Shari’ah Expert) sertifikati.

Bankning islomiy moliya kengashining kamida bir nafar aʼzosi va 2027-yil 1-iyuldan boshlab barcha aʼzolari Islomiy moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI) tomonidan berilgan quyidagi sertifikatlardan biriga ega boʻlishi lozim, bundan nomzodning islomiy moliya yoʻnalishida va (yoki) ushbu bandning 3-kichik bandi ikkinchi xatboshisida koʻrsatilgan yoʻnalishlar boʻyicha ilmiy darajaga ega boʻlgan holatlari mustasno:

CIPA (Certified Islamic Professional Accountant) sertifikati;

CSAA (Certified Shari’ah Advisor and Auditor) sertifikati;

CPSS (Certificate of Proficiency in Shari’ah Standards) sertifikati;

CPAAGE (Certificate of Proficiency in Audit, Assurance, Governance and Ethics) sertifikati;

CSE (Certified Shari’ah Expert) sertifikati.

94. Tajribaga nisbatan oʻrnatilgan mezonlarga muvofiqligini tasdiqlash uchun, nomzod soʻnggi 15 yilda bankning tizimli ahamiyatga molikligi, xususiyati, koʻlami va murakkabligi, shuningdek, uning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarga muvofiq keluvchi tajribaga ega boʻlishi lozim. Bunda nomzodning avvalgi ish joyidagi majburiyati va uning davomiyligi, uni ish bilan taʼminlagan tashkilotning koʻlami, qoʻl ostidagi xodimlari, amalga oshirilgan faoliyatning xususiyati va murakkabligi quyidagicha hisoblanadi:

1) bank kuzatuv kengashi aʼzolari, shuningdek, uning raisi uchun – kamida 5 yil ish tajribasiga, shu jumladan, kamida 3 yillik rahbarlik lavozimlarida va (yoki)

huquq, axborot texnologiyalari va moliya-iqtisod fanlari boʻyicha akademik tajribaga ega boʻlishi;

2) bank boshqaruvi raisi uchun – bank va (yoki) moliya tizimida kamida 10 yillik ish tajribasiga, shu jumladan kamida 5 yillik rahbarlik lavozimlarida ish tajribasiga ega boʻlishi;

3) bank boshqaruvi aʼzolari uchun, bundan boshqaruv raisi mustasno – bank va (yoki) moliya tizimida kamida 5 yillik ish tajribasiga, shu jumladan kamida 3 yillik rahbarlik lavozimlarida ish tajribasiga ega boʻlishi;

4) bank islomiy moliya kengashining:

islomshunoslik, islom huquqi (fiqh), usulul fiqh yoki fiqhul muamalat mutaxassisliklari yoxud ushbu fanlar oʻqitilgan mutaxassislik boʻyicha oliy maʼlumotga ega boʻlgan aʼzolari (bundan buyon matnda islom huquqi boʻyicha mutaxassis aʼzo deb yuritiladi) uchun – islom huquqini qoʻllash sohasida, shu jumladan islom huquqi boʻyicha maslahat xizmatlarini koʻrsatish, islom huquqi boʻyicha tadqiqot yoki pedagogik faoliyatni olib borish sohasida kamida 5 yillik ish tajribasiga ega boʻlishi;

moliya-iqtisod yoki yuridik mutaxassisliklar boʻyicha oliy maʼlumotga ega boʻlgan aʼzolari (bundan buyon matnda texnik ekspert aʼzo deb yuritiladi) uchun – bank va (yoki) moliya tizimida va (yoki) huquq sohasida kamida 7 yillik ish tajribasiga ega boʻlishi;

5) bankning muhim ahamiyatga ega xodimlari uchun, bundan bosh buxgalter va bankning islomiy bank faoliyatiga masʼul boʻlgan rahbar xodimi mustasno – bank va (yoki) moliya tizimida kamida 5 yillik ish tajribasiga, shu jumladan kamida 3 yillik rahbarlik lavozimlarida ish tajribasiga ega boʻlishi;

6) bosh buxgalter uchun – buxgalteriya hisobi va (yoki) moliyaviy hisobotni tuzish sohasida kamida 5 yillik ish tajribasiga, shu jumladan bankning buxgalteriya hisobi va (yoki) moliyaviy hisobotini tuzish uchun masʼul boʻlgan tashkiliy tuzilmasi rahbarlik yoki uning oʻrinbosari lavozimida kamida 3 yillik ish tajribasiga va (yoki) kredit tashkilotlarini auditorlik tekshiruvidan oʻtkazuvchi tashkilotlarda auditor sifatidagi ish tajribasiga ega boʻlishi;

7) bankning islomiy bank faoliyatiga masʼul boʻlgan rahbar xodimi uchun – bank va (yoki) moliya tizimida kamida 7 yillik ish tajribasiga ega boʻlishi;

8) bankning tugatuvchisi, vaqtinchalik boshqaruvchisi yoki maxsus boshqaruvchisi uchun – bank va (yoki) moliya tizimida kamida 5 yillik ish tajribasiga, shu jumladan kamida 3 yillik rahbarlik lavozimlarida ish tajribasiga ega boʻlishi.

Tajribaga nisbatan oʻrnatilgan talab maqsadlarida rahbarlik lavozimi deganda, oʻziga yuklatilgan majburiyatlarga asosan, bir vaqtning oʻzida

belgilangan miqdordagi xodimlarini va jarayonini boshqarish uchun masʼul shaxsning faoliyati tushuniladi.

Bunda, xavfsizlikni taʼminlash va xoʻjalik faoliyatini amalga oshirish bilan bogʻliq masalalarni muvofiqlashtirish ishlari ish tajribasi sifatida inobatga olinmaydi.

95. Bankning kuzatuv kengashi va boshqaruvi aʼzosi bank faoliyatini va bank duchor boʻlishi mumkin boʻlgan tavakkalchiliklarni, bankning islomiy moliya kengashi aʼzosi esa islomiy bank faoliyatini va bank duchor boʻlishi mumkin boʻlgan islomiy bank faoliyati bilan bogʻliq tavakkalchiliklarni yaxshi tushunishini namoyon etishi lozim. Bunda nomzodning boshqa bank kuzatuv kengashi va boshqaruvi aʼzolari bilan jamoaviy masʼul boʻlgan sohalar boʻyicha bilimlari inobatga olinadi, bundan yakka tartibda masʼul boʻlgan sohalari mustasno.

96. Bankning kuzatuv kengashi, boshqaruvi, islomiy moliya kengashi aʼzolari, muhim ahamiyatga ega xodimlari, tugatuvchisi, maxsus boshqaruvchisi va vaqtinchalik boshqaruvchisi oʻz majburiyatlarini amalga oshirishda asoslangan, obyektiv va mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega boʻlishlari kerak.”.

28. 97-bandning “a” kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“a) shaxsiy manfaatlar toʻqnashuvi. Nomzod bankning kuzatuv kengashi, boshqaruvi va (yoki) islomiy moliya kengashi aʼzolari, muhim ahamiyatga ega xodimlar yoki hal qiluvchi egalikka ega boʻlgan aksiyadorning yaqin qarindoshi yoki ular bilan yaqin aloqalarga ega boʻlsa;”.

29. Quyidagi mazmundagi 97^1-band bilan toʻldirilsin:

“97^1. Bankning islomiy moliya kengashi aʼzosi mazkur bankning hal qiluvchi egalikka ega boʻlgan aksiyadori, kuzatuv kengashi aʼzosi, boshqaruvi aʼzosi yoki xodimi boʻlishi mumkin emas.”.

30. 99-bandning ikkinchi va uchinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“nomzod kuzatuv kengashi, ijro etuvchi organ yoki islomiy moliya kengashi aʼzosi, vaqtinchalik boshqaruvchi, maxsus boshqaruvchi yoki tugatuvchi hisoblangan tashkilotlari soni;

nomzod kuzatuv kengashi, ijro etuvchi organ yoki islomiy moliya kengashi aʼzosi, vaqtinchalik boshqaruvchi, maxsus boshqaruvchi yoki tugatuvchi hisoblangan tashkilotlarning hajmi, xususiyati, masshtabi, faoliyatining murakkabligi va geografik joylashuvi;”.

31. 100-bandda:

quyidagi mazmundagi beshinchi xatboshi bilan toʻldirilsin:

“bir vaqtning oʻzida Oʻzbekiston Respublikasidagi ikki va undan ortiq bankning islomiy moliya kengashi aʼzosi va (yoki) ikki va undan ortiq mikromoliya tashkilotida, shu jumladan sohaga ixtisoslashgan uyushmalar yoki birlashmalar huzurida tashkil etilgan islomiy moliya masalalarini muvofiqlashtiruvchi maxsus kengash aʼzosi boʻlishi, bundan mazkur banklar yoki mikromoliya tashkilotlari bir bank guruhiga tegishli boʻlgan hollar mustasno;”;

beshinchi va oltinchi xatboshilar tegishli ravishda oltinchi va yettinchi xatboshilar deb hisoblansin.

32. 102 va 103-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“102. Bankning kuzatuv kengashi, boshqaruvi yoki islomiy moliya kengashi aʼzosining ishchanlik obroʻsi, tajriba, bilim va koʻnikmalari, mulohazasining mustaqilligi va vaqtining yetarliligini baholash bilan bir paytda uning jamoaviy yaroqliligi ham baholanadi.

103. Jamoaviy yaroqlilikni baholash bankning kuzatuv kengashi, boshqaruvi va islomiy moliya kengashi aʼzolari uchun alohida, mazkur paragrafda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.”.

33. Quyidagi mazmundagi 104^1-band bilan toʻldirilsin:

“104^1. Bankning islomiy moliya kengashi aʼzolarining tajriba, bilim va koʻnikmalari bankdagi islomiy bank faoliyati islomiy moliya standartlariga muvofiq tarzda amalga oshirilishini samarali tarzda muvofiqlashtirish uchun quyidagilarni jamoaviy ravishda qamrab olishi lozim:

islomiy moliya standartlarini;

islomiy bank faoliyatining asosiy yoʻnalishlari va ularga bogʻliq boʻlgan tavakkalchiliklarni;

islomiy bank faoliyati bilan bogʻliq tavakkalchilik turlarini aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish va yumshatishni oʻz ichiga oluvchi tavakkalchiliklarni boshqarishni;

Oʻzbekiston Respublikasining islomiy bank faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarini.”.

34. 106-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“106. Bank kuzatuv kengashining kamida bir nafar, boshqaruvining va islomiy moliya kengashining kamida ikki nafar aʼzosi davlat tilini bilishlari lozim.

Bank islomiy moliya kengashining barcha islom huquqi boʻyicha mutaxassis aʼzolari arab tilini bilishi, shu jumladan arab tilidagi islom huquqi masalalariga oid birlamchi manbalarni tushunishi va izohlay olishi lozim.”.

35. Quyidagi mazmundagi 106^1-band bilan toʻldirilsin:

“106[1]. Bankning islomiy moliya kengashi islom huquqi boʻyicha mutaxassis aʼzolarining kamida uchdan ikki qismi Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi boʻlishi lozim.”.

36. 114-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“114. Nomzodning oʻz majburiyatlarini amalga oshirishi uchun zarur boʻlgan bank faoliyati sohasidagi amaliy va nazariy bilimlari, bank faoliyatini va u duchor boʻlishi mumkin boʻlgan tavakkalchiliklarni tushunish hamda davlat tili yoki arab tilini bilish darajasini baholash maqsadida Markaziy bank nomzod bilan suhbat oʻtkazishga haqli.”.

37. 117-bandda:

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“nomzodning kelishib olinishi mazkur Nizomning 100 va 105-bandlari talablarining buzilishiga olib kelsa;”;

beshinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“nomzod belgilangan vaqtda suhbatda hozir boʻlmasa va uning suhbatda hozir boʻlmaslik sabablarini asoslovchi arizasi mavjud boʻlmasa yoki Markaziy bank tomonidan arizada keltirilgan sabablar uzrli deb topilmasa.”.

38. 119-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“119. Nomzodni kelishib olish yoki kelishib olishni rad etish toʻgʻrisidagi qaror, mazkur qaror qabul qilingan kundan eʼtiboran uch ish kuni ichida bankka yozma ravishda, shu jumladan axborot-kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda yuboriladi.”.

39. 123-band “rahbar” degan soʻzdan keyin “xodim” degan soʻz bilan toʻldirilsin.

40. 124-band oʻz kuchini yoʻqotgan deb topilsin.

41. 127-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“127. Bankning kuzatuv kengashi va islomiy moliya kengashi aʼzosining vakolati muddatidan oldin tugatilganida, boshqaruvi aʼzosi yoki bosh buxgalterning mehnat shartnomasi bekor qilinganida va (yoki) boshqa lavozimga oʻtkazilganda, bank sabablarini koʻrsatgan holda mazkur qaror qabul qilingan kundan eʼtiboran bir ish kuni ichida Markaziy bankni yozma ravishda xabardor qilishi lozim. Muhim ahamiyatga ega xodimlar bilan bogʻliq hollarda mazkur muddat 5 ish kunini tashkil etadi, bundan bosh buxgalter mustasno.”.

42. 129-bandda:

birinchi xatboshidagi “30 kun ichida” degan soʻzlar “oʻttiz ish kuni ichida” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi beshinchi xatboshi bilan toʻldirilsin:

“Bankning islomiy moliya kengashi aʼzolarining soni uning aʼzolaridan biri yoki bir nechtasining aʼzoligi tugatilishi natijasida banklar va bank faoliyati toʻgʻrisidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan eng kam miqdordan kamroqni tashkil etsa, bank mazkur holat yuzaga kelgan kundan eʼtiboran oʻttiz ish kuni ichida islomiy moliya kengashi aʼzoligiga mazkur Nizom talablariga muvofiq keluvchi shaxslarni saylashi va Markaziy bankka kelishib olish uchun taqdim etishi lozim.”.

43. 181, 186 va 241-bandlardagi “litsenziyani” degan soʻz “bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyani (litsenziyalarni)” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

44. 253-bandning ikkinchi xatboshisi chiqarib tashlansin.

45. 256-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“256. Bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani berish bankning toʻlovga qobiliyatsizligiga yoki toʻlovga qobiliyatsizligi yuzaga kelishi ehtimolining yuqoriligiga doir asoslarga koʻra Markaziy bank tomonidan rad etilgan taqdirda, Markaziy bank bankni majburiy tugatish toʻgʻrisida qaror qabul qiladi.”.

46. 268 va 269-bandlar, 273-bandning ikkinchi xatboshisi hamda 274-banddagi “litsenziyasini” degan soʻz “bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyasini (litsenziyalarini)” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

47. 294-bandda:

quyidagi mazmundagi oʻninchi xatboshi bilan toʻldirilsin:

“bank tomonidan berilgan ishonchnomalar bekor qilingan deb hisoblanadi, bundan sudda ish yuritish uchun berilgan ishonchnomalar mustasno;”;

oʻninchi va oʻn birinchi xatboshilar tegishli ravishda oʻn birinchi va oʻn ikkinchi xatboshilar deb hisoblansin.

48. 300-bandning birinchi xatboshisidagi “307-bandida koʻrsatilgan” degan soʻzlar “306-bandida koʻrsatilgan” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

49. 322-banddagi “315 va 316-bandlarida” degan soʻzlar “313 va 314-bandlarida” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

50. 323-bandda:

quyidagi mazmundagi oltinchi xatboshi bilan toʻldirilsin:

“turli valyutalardagi talablar oʻzaro hisobga olinishining ularni qanoatlantirish kunidagi Markaziy bank kursi boʻyicha amalga oshirilishi;”;

oltinchi va yettinchi xatboshilar tegishli ravishda yettinchi va sakkizinchi xatboshilar deb hisoblansin.

51. 333-banddagi “336-bandida koʻrsatilgan” degan soʻzlar “334-bandida koʻrsatilgan” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

52. 3-ilovaning 1-bobida:

oʻn toʻrtinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3) bankning kredit va (yoki) moliyalashtirish siyosati (kreditlarni ajratishda va (yoki) islomiy moliya operatsiyalarini amalga oshirishda tavakkalchilikni baholash va ularni uzluksiz nazorat qilish mexanizmlari, shuningdek bankning kredit va (yoki) moliyalashtirish siyosati bilan bogʻliq boshqa masalalar);”;

quyidagi mazmundagi yigirmanchi xatboshi bilan toʻldirilsin:

“Islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bankning biznes-rejasi islomiy bank faoliyati boʻyicha bozor tahlili, moliyalashtirish rejalari, mahsulot va xizmatlar, moliyaviy prognozlar va tavakkalchiliklarni boshqarish masalalarini ham oʻz ichiga olishi lozim.”.

53. 11-ilovada:

2.4-pozitsiyadagi “malaka” degan soʻz “tajriba” degan soʻz bilan almashtirilsin;

3-bobning nomidagi “Malaka” degan soʻz “Tajriba” degan soʻz bilan almashtirilsin.

QMMB: 10/26/2111-1/0760-son
20.07.2026-y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 2111-1
2026 - yil 18 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI,

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ QO‘MITASINING

QARORI

O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo‘naltiriladigan mablag‘larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozni qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qo‘mitasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2010-yil 3-maydagi 37, 2010-20-son qarori (ro‘yxat raqami 2111, 2010-yil 4-iyun) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 22-son, 180-modda) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo‘naltiriladigan mablag‘larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozni qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki bilan kelishilgan.

3. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

Vazir
2026-yil 11-iyun
374-son

KUCHKAROV DJAMSHID ANVAROVICH

Rais
2026-yil 5-iyun
2026-11-son

PULATOV FARRUX JAXONGIROVICH

Kelishildi:

Xalq banki Boshqaruv Raisi
2026-yil 24-aprel

ATABAYEV SHUHRAT XALDAROVICH

QMMB: 10/26/2111-1/0760-son
20.07.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligining
2026-yil 11-iyundagi 374-son
va Soliq qo‘mitasining 2026-yil
5-iyundagi 2026-11-son qaroriga
ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo‘naltiriladigan mablag‘larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozni qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirishlar

1. 1-banddan “(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 52 (II)-son)” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

2. 4-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Agar to‘lov manbaiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini ushlab qolish va o‘tkazish majburiyati yuklatilmagan bo‘lsa, soliq chegirmasi jismoniy shaxsga O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyasiga asosan taqdim etilishi mumkin.”.

3. 12-banddagi “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

4. 2-ilova mazkur o‘zgartirishlarning ilovasiga muvofiq tahrirda bayon etilsin.

QMMB: 10/26/2111-1/0760-son
20.07.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo‘naltiriladigan mablag‘larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozni qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirishlarga
ILOVA

“O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo‘naltiriladigan mablag‘larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozni qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomga
2-ILOVA

_____
__
(Soliq xizmati organining nomi)

Xalq banki filiali to‘g‘risida
MA’LUMOT

STIR | | | | | | | | | |

To‘liq nomi _____
_____

Joylashgan yeri _____
_____

Pochta manzili _____
_____

Telefon: kod | | | | | | **raqam** | | | | | |

QMMB: 10/26/2111-1/0760-son
20.07.2026-y.

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda mablag‘larni o‘tkazgan jismoniy shaxslarga jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari to‘g‘risida
MA’LUMOTLAR

20___ yil uchun

so‘m)

Jismoniy shaxsning SHJBPH	**Jismoniy shaxsning F.I.O.**	**SHJBPHda yil boshida mablag‘lar miqdori**	**Yil davomida kelib tushgan**		**SHJBPHdan to‘langan mablag‘lar**	**SHJBPHda yil oxirida mablag‘lar miqdori**	**Yil davomida to‘langan mablag‘lar**	
			jami	**shu jumladan ixtiyoriy badallar**			**jami**	**shu jumladan soliq davri tugaguniga qadar to‘langan mablag‘lar**

Xalq banki filiali rahbari _____ _____
__
(F.I.O.) (imzo)

M.O‘.

”.

28 (1256)-сон
746-модда

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 2484-2
2026 - yil 18 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI DAVLAT ZAXIRALARINI BOSHQARISH QO‘MITASINING QARORI

Birinchi guruhga yodlangan osh tuzi yetkazib berish, qabul qilish, saqlash va berib yuborish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaning 22-bandiga o‘zgartirish kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son “Iste’molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste’molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasining 2013-yil 25-iyundagi 10-son qarori (ro‘yxat raqami 2484, 2013-yil 23-iyul) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-yil, 30-son, 398-modda) bilan tasdiqlangan Birinchi guruhga yodlangan osh tuzi yetkazib berish, qabul qilish, saqlash va berib yuborish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaning 22-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“22. Elektr uskunalardan foydalanish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasiqlangan Iste’molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste’molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga muvofiq bajariladi.

Elektr chiroqlarida himoya qobig‘i (shishali qopqoq) bo‘lishi lozim.”.

2. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Rais

KURBANOV MIRSHOD MAXMUDOVICH

2026-yil 25-iyun

9-son

28 (1256)-сон
747-модда

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 2709-9
2026 - yil 18 - Iyul

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING QARORI

Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qoʻyiladigan talablar toʻgʻrisidagi nizomga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish haqida

Oʻzbekiston Respublikasining “Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy banki toʻgʻrisida”gi, “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida”gi hamda 2026-yil 27-martdagi OʻRQ–1126-son “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Oʻzbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi qonunlariga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi**:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-son qarori (roʻyxat raqami 2709, 2015-yil 13-avgust) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2015-y., 32-son, 437-modda) bilan tasdiqlangan Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qoʻyiladigan talablar toʻgʻrisidagi nizomga ilovaga muvofiq qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy eʼlon qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

Oʻzbekiston Respublikasi
Markaziy banki Raisi

ISHMETOV TIMUR
AMINDJANOVICH

2026-yil 8-iyul
19/7-son

O‘zbekiston Respublikasi Markaziz banki
boshqaruvining 2026-yil 8-iyuldagi 19/7-son
qaroriga
ILOVA

Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qoʻyiladigan talablar toʻgʻrisidagi nizomga kiritilayotgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar

1. Muqaddima “mikromoliya banklarining” degan so‘zlardan keyin “, shuningdek islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklar va mikromoliya banklarining” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

2. 1-band quyidagi mazmundagi o‘n uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“islomiy moliya vositalari – islomiy moliya standartlariga muvofiq boʻlgan moliyaviy vositalar.”.

3. 2-bandning yettinchi xatboshisi “kreditlar” degan so‘zdan keyin “, qarz majburiyatlari” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

4. 3-bandning oltinchi xatboshisi “banklararo depozitlar” degan so‘zlardan keyin “, shuningdek islomiy moliya vositalari” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

5. 26-bandning o‘ninchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“berilishi (moliyalashtirilishi) kutilayotgan kreditlar va (yoki) islomiy moliya operatsiyalari;”.

6. 34-bandda:

birinchi xatboshidan “bo‘lib” degan so‘z chiqarib tashlansin;

uchinchi xatboshi “kreditlash” degan so‘zdan keyin “(moliyalashtirish)” degan so‘z bilan to‘ldirilsin;

SO.01.2026-y.
ORMB: 10\26\12709-8-801\26\01.26-son

to‘rtinchi xatboshi “kreditlarni” degan so‘zdan keyin “yoki islomiy moliya vositalari orqali jalb qilingan mablag‘larni” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

7. 35-bandning birinchi va ikkinchi xatboshilari “foiz stavkalari” degan so‘zlardan keyin “va islomiy moliya operatsiyalari bo‘yicha ustama yoxud boshqa turdagi daromadlar miqdori” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

8. 47-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“47. Banklar ajratilgan kreditlarni va (yoki) moliyalashtirilgan islomiy moliya vositalarini jalb qilingan depozitlarga boʻlish orqali ajratilgan kreditlar va (yoki) moliyalashtirilgan islomiy moliya vositalarining depozitlardagi ulushini

aniqlaydi. Koʻrsatkichning juda yuqori (80 foizdan ortiq) qiymati va (yoki) oʻsishi muammolarning dastlabki belgilaridanoq bankdan chiqib ketadigan barqarorligi pastroq resurslar manbalariga boʻlgan bank ishonchini bildiradi.”.

9. 50-bandning birinchi va ikkinchi xatboshilaridagi “moliyalash” degan so‘z “moliyalashtirish” degan so‘z bilan almashtirilsin.

10. 1-ilovada:

1) 1-bandda:

oltinchi xatboshi “kreditlar (overnayt)” degan so‘zlardan keyin “va islomiy moliya vositalari orqali taqdim etilgan mablag‘lar” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

to‘qqizinchi xatboshi “kreditlar” degan so‘zdan keyin “va (yoki) islomiy moliya operatsiyalari bo‘yicha majburiyatlar” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

2) 2-bandning uchinchi xatboshisi “kreditlar” degan so‘zdan keyin “va (yoki) islomiy moliya operatsiyalari bo‘yicha majburiyatlar” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

3) 3-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“yangi kreditlarni va (yoki) islomiy moliya operatsiyalarini moliyalashtirish (kreditlar va (yoki) islomiy moliya operatsiyalari turi batafsil koʻrsatiladi);”.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3254-1
2026 - yil 18 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING QARORI

Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risidagi nizomga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi hamda 2026-yil 27-martdagi O‘RQ–1126-son “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 25-maydagi 12/8-son qarori (ro‘yxat raqami 3254, 2020-yil 30-iyun) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020-y., 10/20/3254/1045-son) bilan tasdiqlangan Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risidagi nizomga ilovaga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki Raisi
2026-yil 8-iyul
19/8-son

ISHMETOV TIMUR
AMINDJANOVICH

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining
2026-yil 8-iyuldagi 19/8-son qaroriga
ILOVA

Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar

1. Muqaddima “mikromoliya banklarida” degan so‘zlardan keyin “, shuningdek islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklar va mikromoliya banklarida” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

2. 24-bandda:

ikkinchi va beshinchi xatboshilar “kengash va boshqaruv” degan so‘zlardan keyin “, shuningdek bank islomiy moliya kengashining” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

oltinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“agarda kengash tomonidan ushbu vazifa yuklatilgan bo‘lsa, mukofotlash siyosatida aks ettirilgan mezonlar asosida kengash, boshqaruv va bank islomiy moliya kengashining a’zolari, shuningdek, muhim ahamiyatga ega xodimlarning yil yakunlari bo‘yicha faoliyatini dastlabki baholashdan o‘tkazish, shuningdek, ushbu shaxslarning uzoq muddatli belgilangan maqsad va vazifalarga erishganini tahlil qilish;”.

3. 30-bandning to‘rtinchi xatboshisi “kengash va boshqaruv” degan so‘zlardan keyin “, shuningdek bank islomiy moliya kengashining” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

4. 31-band “Kengash va boshqaruv” degan so‘zlardan keyin “, shuningdek bank islomiy moliya kengashining” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

5. 32-bandda:

quyidagi mazmundagi yettinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“bank islomiy moliya kengashining a’zolari;”;

yettinchi xatboshi sakkizinchi xatboshi deb hisoblansin.

6. 34-bandning uchinchi xatboshisi “kengash va boshqaruv” degan so‘zlardan keyin “, shuningdek bank islomiy moliya kengashining” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

7. 35-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“35. Kengash va boshqaruv, shuningdek bank islomiy moliya kengashining aʼzoligiga hamda muhim ahamiyatga ega xodim lavozimiga tayinlangan (saylangan) shaxsning yaqin qarindoshlarining roʻyxati bankning elektron bazasida shakllantirilishi va elektron baza muntazam yangilanib borilishi kerak.”.

8. 53-bandda:

toʻrtinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“bankning davlat roʻyxatiga olinganligi, bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya va (yoki) islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya toʻgʻrisida maʼlumot (tartib raqami, berilgan sanasi, bank operatsiyalari roʻyxati), shuningdek, faoliyatini toʻxtatib turishi, uni tiklash hamda bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaning va (yoki) islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaning Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan chaqirib olinishi haqida (agar bunday holatlar yuzaga kelgan boʻlsa);”;

oʻn ikkinchi xatboshi “kengash va boshqaruv” degan soʻzlardan keyin “, shuningdek bank islomiy moliya kengashining” degan soʻzlar bilan toʻldirilsin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3283-3
2026 - yil 18 - Iyul

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING QARORI

Bir qarz oluvchi, oʻzaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng koʻp miqdori toʻgʻrisidagi nizomga qoʻshimchalar va oʻzgartirish kiritish haqida

Oʻzbekiston Respublikasining “Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy banki toʻgʻrisida”gi, “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida”gi hamda 2026-yil 27-martdagi OʻRQ–1126-son “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Oʻzbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi qonunlariga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi**:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 21-sentabrdagi 21/12-son qarori (roʻyxat raqami 3283, 2020-yil 29-oktabr) (Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 29.10.2020-y., 10/20/3283/1470-son) bilan tasdiqlangan Bir qarz oluvchi, oʻzaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng koʻp miqdori toʻgʻrisidagi nizomga ilovaga muvofiq qoʻshimchalar va oʻzgartirish kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy eʼlon qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

Oʻzbekiston Respublikasi
Markaziy banki Raisi
2026-yil 8-iyul
19/9-son

ISHMETOV TIMUR
AMINDJANOVICH

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining
2026-yil 8-iyuldagi 19/9-son qaroriga
ILOVA

Bir qarz oluvchi, oʻzaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng koʻp miqdori toʻgʻrisidagi nizomga kiritilayotgan qoʻshimchalar va oʻzgartirish

1. Muqaddima “mikromoliya bankiga” degan so‘zlardan keyin “, shuningdek islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bank va mikromoliya bankiga” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

2. 4-band “kredit” degan so‘zdan keyin “va (yoki) moliyalashtirilgan islomiy moliya operatsiyasi” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

3. 9-bandning sakkizinchi xatboshisi “kredit mablag‘larining” degan so‘zlardan keyin “va (yoki) islomiy moliya operatsiyalari bo‘yicha moliyalashtirishning” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

4. 17-bandning ikkinchi xatboshisi “boshqaruvining” degan so‘zdan keyin “, shuningdek bank islomiy moliya kengashining” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

5. 24-bandning beshinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“bankka aloqador shaxslarning kreditlari va (yoki) moliyalashtirilgan islomiy moliya operatsiyalari boʻyicha toʻlov muddatlarini bankka aloqador boʻlmagan shaxslarning kreditlariga va (yoki) islomiy moliya operatsiyalariga nisbatan ustun shartlarda uzaytirish;”.

6. 25-bandda:

quyidagi mazmundagi yettinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Mazkur bandning ikkinchi – oltinchi xatboshilarida koʻrsatilgan talablar bankka aloqador shaxs yoki uning nomidan faoliyat koʻrsatuvchi shaxs bilan tuzilgan har qanday islomiy moliya operatsiyalari orqali moliyalashtirishga ham tatbiq etiladi.”;

yettinchi xatboshi sakkizinchi xatboshi deb hisoblansin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3662-1
2026 - yil 18 - Iyul

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING QARORI

Kafolatlar berish tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish toʻgʻrisidagi nizomga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida

Oʻzbekiston Respublikasining “Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy banki toʻgʻrisida”gi, “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida”gi hamda 2026-yil 27-martdagi OʻRQ–1126-son “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Oʻzbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi qonunlariga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi**:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 10-iyuldagi 14/12-son qarori (roʻyxat raqami 3662, 2025-yil 11-avgust) (Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 12.08.2025-y., 10/25/3662/0723-son) bilan tasdiqlangan Kafolatlar berish tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish toʻgʻrisidagi nizomga ilovaga muvofiq oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy eʼlon qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

Oʻzbekiston Respublikasi
Markaziy banki Raisi

ISHMETOV TIMUR
AMINDJANOVICH

2026-yil 8-iyul
19/15-son

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining
2026-yil 8-iyuldagi 19/15-son qaroriga
ILOVA

Kafolatlar berish tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish toʻgʻrisidagi nizomga kiritilayotgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar

1. 1-bandda:

uchinchi xatboshi chiqarib tashlansin.

toʻrtinchi va beshinchi xatboshilar tegishli ravishda uchinchi va toʻrtinchi xatboshilar deb hisoblansin.

2. 2-bandning ikkinchi xatboshisi “pul majburiyatini” degan soʻzlardan keyin “, shuningdek islomiy moliya operatsiyalari bilan bogʻliq majburiyatini” degan soʻzlar bilan toʻldirilsin.

3. 12-bandning toʻrtinchi xatboshisidagi “kredit portfeli” degan soʻzlar “kredit (moliyalashtirish) portfeli” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

4. 3-bobning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3-bob. Tashkilotning aktivlari va balansdan tashqari moddalari sifatini tasniflash hamda ular boʻyicha ehtimoliy yoʻqotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish”.

5. 23 va 24-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“23. Tashkilot aktivlarni va balansdan tashqari moddalarni sifatiga koʻra tasniflaydi hamda ular boʻyicha ehtimoliy yoʻqotishlarni qoplash uchun zaxiralar yaratadi. Bunda, kafolat, kredit tashkilotlariga berilgan moliyaviy mablagʻlar, investitsiyalar hamda kredit tavakkalchiligi mavjud boʻlgan boshqa aktivlar va hisobi balansdan tashqari moddalarda yuritiladigan kafolatlar sifatiga koʻra tasniflanadi.

24. Qarz oluvchining (prinsipalning) kredit tashkiloti oldidagi pul majburiyati, shuningdek islomiy moliya operatsiyalari bilan bogʻliq majburiyati kredit tashkilotida qaysi toifada tasniflangan boʻlsa, tashkilot tomonidan prinsipalning kredit tashkiloti oldidagi mazkur majburiyatni bajarish boʻyicha berilgan kafolat ham mos ravishda shu toifada (“standart”, “substandart”, “qoniqarsiz”, “shubhali” yoki “umidsiz”) tasniflanishi lozim.”.

6. 39-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“39. Tashkilot kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti tashkilot jami xususiy kapitalining uning jami aktivlari va hisobi balansdan tashqari moddalarda yuritiladigan kafolatlari yigʻindisiga nisbati orqali hisoblanadi va ushbu koeffitsiyent 10 foizdan kam boʻlmasligi lozim.”.

7. 45-band “tashkilot jami aktivlarining” degan soʻzlar “tashkilot jami aktivlari va hisobi balansdan tashqari moddalarda yuritiladigan kafolatlari yigʻindisining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

8. 5-ilova mazkur oʻzgartirish va qoʻshimchalarning ilovasiga muvofiq tahrirda bayon etilsin.

9. 8-ilovada:

1.1-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

1.1.	Kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti	xususiy kapital (minus: yuridik shaxslarning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qilingan barcha investitsiyalar) jami aktivlar (minus: yuridik shaxslarning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qilingan barcha investitsiyalar) + kafolat va kafilliklar	10%		

”;

3.2-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

3.2.	Bir kredit tashkiloti uchun tavakkalchilikning eng koʻp miqdori	bir kredit tashkiloti uchun tavakkalchilikning jami miqdori jami aktivlar + kafolat va kafilliklar	30%		

”.

Kafolatlar
berish tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish
toʻgʻrisidagi nizomga kiritilayotgan oʻzgartirish va qoʻshimchalarga
ILOVA

“Kafolatlar berish tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va
tartibga solish toʻgʻrisidagi nizomga
5-ILOVA

_____ning
(tashkilotning nomi)

Aktivlar sifatini tasniflash va ular boʻyicha ehtimoliy yoʻqotishlarni qoplash uchun yaratilgan zaxiralar
20__ y “____”_____ holatiga

ming soʻmda

T/r	**Aktivlar tarkibi**	**Aktivlar qoldigʻi**	**Aktivlar sifati** (I-standart, II-substandart, III-qoniqarsiz, IV-shubhali, V-umidsiz)					**Ehtimoliy yoʻqotishlarni qoplash uchun haqiqatda yaratilgan zaxiralar**					
								Jami	**Sifat toifasi boʻyicha aktivlar**				
			I	**II**	**III**	**IV**	**V**		**I**	**II**	**III**	**IV**	**V**
I. Jami aktivlar													
1.	Kassadagi naqd pul va boshqa toʻlov hujjatlari												
2.	Markaziy bankdagi mablagʻlar												
3.	Banklarga qoʻyilgan depozitlar va boshqa mablagʻlar												

4.	Kredit tashkilotlariga berilgan qisqa muddatli (bir yildan kam) moliyaviy mablag‘lar												
5.	Kredit tashkilotlariga berilgan uzoq muddatli (bir yil va undan yuqori) moliyaviy mablag‘lar												
6.	Mijozlarning majburiyatlari – Kafolat va kafilliklar												
7.	Investitsiyalar												
8.	Sud jarayonidagi aktivlar												
9.	Olinishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar												
10.	Olinishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizsiz daromadlar												
11.	Asosiy vositalar												
12.	Nomoddiy aktivlar												
13.	Boshqa aktivlar												
II. Balansdan tashqari moddalar													
1.	Kafolat va kafilliklar												
2.	Kredit tavakkalchiligi mavjud balansdan tashqari boshqa moddalar												

Rahbar imzosi: _____

F.I.O.

Bosh buxgalter imzosi: _____

F.I.O.

”.

QMMB: 10/26/3663-1/0757-son
20.07.2026-y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3663-1
2026 - yil 18 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING QARORI

Banklar tomonidan Omonatlarni kafolatlash jamg‘armasiga badallar to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi hamda 2026-yil 27-martdagi O‘RQ–1126-son “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 10-iyuldagi 14/11-son qarori (ro‘yxat raqami 3663, 2025-yil 11-avgust) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.08.2025-y., 10/25/3663/0725-son) bilan tasdiqlangan Banklar tomonidan Omonatlarni kafolatlash jamg‘armasiga badallar to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki Raisi

ISHMETOV TIMUR
AMINDJANOVICH

2026-yil 8-iyul
19/13-son

QMMB: 10/26/3663-1/0757-son
20.07.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining
2026-yil 8-iyuldagi 19/13-son qaroriga
ILOVA

Banklar tomonidan Omonatlarni kafolatlash jamgʻarmasiga badallar toʻlash tartibi toʻgʻrisidagi nizomga kiritilayotgan oʻzgartirishlar

1. Muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Nizom banklar, shu jumladan mikromoliya banklari, oraliq banklar hamda islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklar va mikromoliya banklari (bundan buyon matnda bank deb yuritiladi) tomonidan Omonatlarni kafolatlash jamgʻarmasiga badallar toʻlash tartibini belgilaydi.”.

2. 6-banddagi “(bundan buyon matnda litsenziya deb yuritiladi)” degan so‘zlar “va (yoki) islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya (bundan buyon matnda bank faoliyatiga doir tegishli litsenziya (litsenziyalar) deb yuritiladi)” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

3. 9-bandda:

birinchi xatboshidagi “litsenziyasi” degan so‘z “bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyasi (litsenziyalari)” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

sakkizinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“n – hisobot choragida bank faoliyatiga doir tegishli litsenziya (litsenziyalar) berilgan sanadan hisobot choragi yakunigacha oʻtgan kunlar soni yoki hisobot choragi boshidan hisobot choragida bank faoliyatiga doir tegishli litsenziya (litsenziyalar) chaqirib olingan sanagacha boʻlgan kunlar soni.”.

4. 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Bankning depozit bazasini aniqlash tartibi Omonatlarni kafolatlash agentligining (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi. Bunda bank tomonidan jalb qilingan investitsiyaviy omonatlar (depozitlar) summasi inobatga olinmasligi lozim.”.

5. 17-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“17. Markaziy bank tomonidan omonatlarga pul mablagʻlari jalb qilinishining toʻxtatib turilishi yoki bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyaning (litsenziyalarning) chaqirib olinishi bankni tegishli chorak uchun kalendar badalni toʻlashdan ozod etmaydi. Bank faoliyatiga doir tegishli litsenziyasi (litsenziyalari)

QMMB: 10/26/3663-1/0757-son
20.07.2026-y.

chaqirib olingan bank tomonidan soʻnggi kalendar badal qonunchilikda belgilangan kreditorlarning talablarini qanoatlantirish navbatiga asosan toʻlanadi.”.

6. 18-banddagi “litsenziya” degan so‘z “bank faoliyatiga doir tegishli litsenziya (litsenziyalar)” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

7. 26-bandning uchinchi va to‘rtinchi xatboshilaridagi “litsenziya” degan so‘z “bank faoliyatiga doir tegishli litsenziya (litsenziyalar)” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

8. 30-banddagi “litsenziya” degan so‘z “bank faoliyatiga doir tegishli litsenziya (litsenziyalar)” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

QMMB: 10/26/3902/0758-son
20.07.2026-y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3902
2026 - yil 18 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING QARORI

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘shimchalar kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi hamda 2026-yil 27-martdagi O‘RQ–1126-son “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga ilovaga muvofiq qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki Raisi

2026-yil 8-iyul
19/14-son

ISHMETOV TIMUR
AMINDJANOVICH

QMMB: 10/26/3902/0758-son
20.07.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining
2026-yil 8-iyuldagi 19/14-son qaroriga
ILOVA

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilayotgan qoʻshimchalar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 16-apreldagi 3/2-son qarori (roʻyxat raqami 3302, 2021-yil 7-may) (Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 07.05.2021-y., 10/21/3302/0486-son) bilan tasdiqlangan Tijorat banklarining ichki auditiga qoʻyiladigan talablar toʻgʻrisidagi nizomning muqaddimasi “mikromoliya banklarida” degan so‘zlardan keyin “, shuningdek islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklar va mikromoliya banklarida” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 31-martdagi 8/9-son qarori (roʻyxat raqami 3432, 2023-yil 8-may) (Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 10.05.2023-y., 10/23/3432/0266-son) bilan tasdiqlangan Bank va banklar guruhida auditorlik tekshiruvlarini oʻtkazishning oʻziga xos xususiyatlari hamda banklarning auditorlik tekshiruvlarini oʻtkazish huquqi uchun auditorning malaka sertifikatini berish tartibi toʻgʻrisidagi nizomning muqaddimasi “mikromoliya banklari” degan so‘zlardan keyin “, shuningdek islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklar va mikromoliya banklari” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 2-oktabrdagi 21/6-son qarori (roʻyxat raqami 3697, 2025-yil 28-oktabr) (Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 28.10.2025-y., № 10/25/3697/0992) bilan tasdiqlangan Banklar kapitalining monandligiga qoʻyiladigan talablar toʻgʻrisidagi nizomning muqaddimasi “mikromoliya banklari” degan so‘zlardan keyin “, shuningdek islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklar va mikromoliya banklari” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

QMMB: 10/26/3903/0759-son
20.07.2026-y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3903
2026 - yil 18 - Iyul

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRINING
BUYRUG‘I

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF–184-son “Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2026-yil 17-apreldagi PF–63-son “Tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarni cheklash va nazorat tadbirlarining shaffofligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 611-son “Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida davlat nazoratini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq buyuraman:

1. Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil hamda O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

3. Ushbu buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

Vazir
2026-yil 14-iyul
391-son

KUCHKAROV DJAMSHID ANVAROVICH

Kelishildi:

Rais
2026-yil 29-iyun

VAXABOV DAVRON ABDUJALALOVICH

Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish boʻyicha vakil
2026-yil 29-iyun

BURIYEV ABDUMANNOP ABDURAXMATOVICH

QMMB: 10/26/3903/0759-son
20.07.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining
2026-yil 14-iyuldagi 391-son buyrug‘iga
ILOVA

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

Mazkur Nizom qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

tadbirkorlik subyekti – belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar;

“Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasi (bundan buyon matnda Inspeksiya deb yuritiladi) tomonidan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasidagi aniq mezonlarga asoslanib, tadbirkorlik subyekti tomonidan o‘z faoliyatida qonunchilik buzilish xavfi darajasini aniqlash mexanizmi;

tekshiruv – tadbirkorlik subyekti tomonidan faoliyatni tartibga soluvchi qonunchilikka qay darajada rioya etilayotganligini kerakli materiallar, hujjatlar yoki ularning faoliyatiga doir ma’lumotlarni olish hamda muayyan harakatlarni amalga oshirish orqali o‘tkaziladigan nazorat qilish tadbiri.

2. Inspeksiya tomonidan “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 611-son qarori bilan tasdiqlangan Nazorat qiluvchi organlarning “xavfni tahlil etish” tizimlariga qo‘yiladigan minimal talablarga muvofiq ishlab chiqilishi lozim.

Minimal talablarga zid bo‘lgan “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi tadbirkorlik subyektida tekshiruv o‘tkazish tashabbusi bilan chiqishga asos bo‘lmaydi.

QMMB: 10/26/3903/0759-son
20.07.2026-y.

3. Ishlab chiqilgan “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi asosida aniqlangan huquqbuzarlik xavfi qay darajada boʻlishidan qatʼi nazar, tadbirkorlik subyektiga nisbatan taʼsir choralarini qoʻllashga asos boʻla olmaydi.

2-bob. Xavf darajasini tahlil qilishga doir umumiy talablar

4. Tadbirkorlik subyektining qonunni buzish xavfi darajasini tahlil qilish jarayoni tadbirkorlik subyekti faoliyatini toʻxtatib turish, unga toʻsqinlik qilish yoki faoliyatini amalga oshirishga toʻgʻridan-toʻgʻri aralashishni nazarda tutuvchi xatti-harakatlarni oʻz ichiga olmasligi zarur.

5. Xavf darajasining tahlili quyidagi maʼlumotlarni oʻrganish asosida amalga oshirilishi mumkin:

maʼmuriy maʼlumotlar (litsenziya, ruxsat etuvchi va davlat organlarida mavjud boshqa hujjatlar);

davriy statistika maʼlumotlari, jumladan, avval huquqbuzarlik holatlari aniqlangan tadbirkorlik subyektini umumlashtiruvchi belgilar, xabarlar va boshqa korrelyatsion tahlil natijalari;

yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan murojaatlar;

ommaviy axborot vositalaridan yoki boshqa tashqi manbalardan (ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar) olingan maʼlumotlar;

nazorat xaridi natijalari asosida aniqlangan kamchiliklarning tahlili;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan va tadbirkorlik subyektining odatiy faoliyatiga bevosita yoki bilvosita taʼsir koʻrsatmagan holda, davlat organlari va boshqa tashkilotlardan olinishi mumkin boʻlgan boshqa maʼlumotlar.

6. Xavf darajasi tahlili jarayonida tadbirkorlik subyektidan hujjatlar va axborotlar talab qilinishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

7. Nazorat vakolatiga kirmaydigan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tahlil qilish va baholash taqiqlanadi.

3-bob. Xavf darajasi tasnifi va ularning mezonlariga doir talablar

8. “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimida xavf darajasini baholash oʻrganiladigan maʼlumotlar asosida shakllantirilgan mazkur Nizomning 1–4-ilovalarida koʻrsatilgan koʻrsatkichlarga tadbirkorlik subyekti faoliyatining muvofiqligini “ball” tizimi asosida baholash orqali amalga oshiriladi.

9. Inspeksiya tadbirkorlik subyektlarining xavf darajasini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlarni “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimiga kiritadi:

mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq Qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan zargarlik buyumlari hamda boshqa buyumlar ishlab chiqarish sohasidagi qonunchilik buzilishi xavfini aniqlash ko‘rsatkichlari;

mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq Zargarlik buyumlarini hamda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan boshqa buyumlarni sotish sohasidagi qonunchilik buzilishi xavfini aniqlash ko‘rsatkichlari;

mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan ishlash sohasidagi qonunchilik buzilishi xavfini aniqlash ko‘rsatkichlari;

mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofiq Affinaj faoliyati sohasidagi qonunchilik buzilishi xavfini aniqlash ko‘rsatkichlari.

Bunda tadbirkorlik subyektlarining xavf darajasi mazkur bandning ikkinchi–beshinchi xatboshilarida nazarda tutilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimida avtomatik ravishda alohida aniqlanadi.

10. Amalga oshirilgan baholash natijalariga ko‘ra aniqlangan xavf darajasining umumiy ballari asosida tadbirkorlik subyektlari huquqbuzarlik sodir etish xavfi bo‘yicha quyidagi uch xil toifada tasniflanadi:

xavf darajasi yuqori – baholash natijalari bo‘yicha 81 balldan 100 ballgacha bo‘lgan ballarni tashkil etuvchi tadbirkorlik subyektlari;

xavf darajasi o‘rta – baholash natijalari bo‘yicha 61 balldan 81 ballgacha bo‘lgan ballarni tashkil etuvchi tadbirkorlik subyektlari;

xavf darajasi past – baholash natijalari bo‘yicha 61 ballgacha bo‘lgan ballarni tashkil etuvchi tadbirkorlik subyektlari.

11. Baholash natijalariga muvofiq huquqbuzarlik xavfi yuqori va o‘rta tasnifidagi tadbirkorlik subyektlarida profilaktika tadbirlari va tekshiruvlarni o‘tkazish amaldagi qonunchilik hujjatlari, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF–184-son “Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 13-sentabrdagi PQ–374-son qarori bilan tasdiqlangan Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar va profilaktika tadbirlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 611-son qarori bilan tasdiqlangan Nazorat qiluvchi organlarning “xavfni tahlil etish” tizimlariga qo‘yiladigan minimal talablar asosida amalga oshiriladi.

Bunda tadbirkorlik subyektlarida profilaktika tadbirlari va tekshiruvlar faqatgina qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini o‘rganish maqsadida o‘tkaziladi.

QMMB: 10/26/3903/0759-son
20.07.2026-y.

12. Xavf darajasi past bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o‘tkazilmaydi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

13. Xavfni tahlil etish natijalaridan norozi bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari qonunchilikda belgilangan tartibda yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilishga haqli.

14. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
1-ILOVA

Qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan zargarlik buyumlari hamda boshqa buyumlar ishlab chiqarish sohasidagi qonunchilik buzilishi xavfini aniqlash KO‘RSATKICHLARI

T/r	Xavf darajasini baholash ko‘rsatkichlari	Ball	Tahlil yakuniga ko‘ra qo‘yilgan ballar
1.	Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish uchun ichki nazoratni tashkil etish maqsadida qimmatbaho metall va qimmatbaho toshlar bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarda rahbar buyrug‘i bilan mas’ul shaxs tayinlamaslik	**30**	
2.	Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish uchun ichki nazoratni tashkil etish maqsadida qimmatbaho metall va qimmatbaho toshlar bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarda rahbar buyrug‘i bilan tayinlangan mas’ul shaxs haqidagi ma’lumotlarni har yili 15-yanvarga qadar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasiga taqdim etmaslik	**30**	

QMMB: 10/26/3903/0759-son
20.07.2026-y.

3.	Qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan zargarlik buyumlari hamda boshqa buyumlar ishlab chiqarish faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik to‘g‘risidagi xabarnomani O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasiga y ubormaslik	**20**	
4.	O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan tashkil etilgan malaka imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan va tegishli sertifikatga ega bo‘lgan kamida bir nafar mutaxassisning mavjud emasligi	**10**	
5.	Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik baza, uskunalar va boshqa texnika vositalarining mavjud emasligi	**10**	
	Jami ballar yig‘indisi	**100**	

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
2-ILOVA

Zargarlik buyumlarini hamda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan boshqa buyumlarni sotish sohasidagi qonunchilik buzilishi xavfini aniqlash KO‘RSATKICHLARI

T/r	Xavf darajasini baholash ko‘rsatkichlari	Ball	Tahlil yakuniga ko‘ra qo‘yilgan ballar
1.	Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish uchun ichki nazoratni tashkil etish maqsadida qimmatbaho metall va qimmatbaho toshlar bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarda rahbar buyrug‘i bilan mas’ul shaxs tayinlamaslik	**30**	
2.	Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish uchun ichki nazoratni tashkil etish maqsadida qimmatbaho metall va	**30**	

	qimmatbaho toshlar bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarda rahbar buyrug‘i bilan tayinlangan mas’ul shaxs haqidagi ma’lumotlarni har yili 15-yanvarga qadar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasiga taqdim etmaslik		
3.	Zargarlik buyumlarini hamda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan boshqa buyumlarni sotish faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik to‘g‘risidagi xabarnomani O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasiga yubormaslik	**20**	
4.	O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan tashkil etilgan malaka imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan va tegishli sertifikatga ega bo‘lgan kamida bir nafar mutaxassisning mavjud emasligi	**10**	
5.	Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik va boshqa buyumlar bilan savdo qilish uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnika baza, uskunalar, o‘lchash va boshqa texnika vositalarining mavjud emasligi	**10**	
	Jami ballar yig‘indisi	**100**	

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
3-ILOVA

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan ishlash sohasidagi qonunchilik buzilishi xavfini aniqlash KO‘RSATKICHLARI

T/r	Xavf darajasini baholash ko‘rsatkichlari	Ball	Tahlil yakuniga ko‘ra qo‘yilgan ballar
1.	Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan ishlashni boshlaganlik yoki tugatganlik haqidagi xabarnomani O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasiga yubormaslik	**30**	

2.	Tarkibida qimmatbaho metallar bo‘lgan xomashyo bilan ishlaganda, ishlab chiqarish maqsadlarida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan foydalanilganda, qimmatbaho metallardan aviatsiya va (yoki) harbiy texnikada foydalanilganda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni olish, sarflash, hisobini yuritish va saqlash yuzasidan talablarga majburiy rioya qilinishi, qimmatbaho metallarning chiqindi va parchalarini qayta ishlash korxonalariga topshirish uchun tayyorlash, qadoqlash, tashish va qabul qilish-topshirish shartlariga rioya qilmaslik	**30**	
3.	Tarkibida qimmatbaho metallar bo‘lgan xomashyo bilan ishlaganda, ishlab chiqarish maqsadlarida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan foydalanilganda, qimmatbaho metallardan aviatsiya va (yoki) harbiy texnikada foydalanilganda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasi tomonidan belgilangan muddatlar va shakllar bo‘yicha qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar harakati haqidagi hisobotlar taqdim etmaslik	**20**	
4.	Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan ishlarni amalga oshirganda, belgilangan talablarga mos mulkka egalik qilish huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo‘lgan binolar va inshootlar, ishlab chiqarish maydonlari mavjud emasligi	**10**	
5.	Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik baza, uskunalar va boshqa texnika vositalarining mavjud emasligi	**10**	
	Jami ballar yig‘indisi	**100**	

QMMB: 10/26/3903/0759-son
20.07.2026-y.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar sohasida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
4-ILOVA

Affinaj faoliyati sohasidagi qonunchilik buzilishi xavfini aniqlash KO‘RSATKICHLARI

T/r	Xavf darajasini baholash ko‘rsatkichlari	Ball	Tahlil yakuniga ko‘ra qo‘yilgan ballar
1.	Affinaj faoliyati uchun litsenziyaning mavjud emasligi	**30**	
2.	Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish uchun ichki nazoratni tashkil etish maqsadida qimmatbaho metall va qimmatbaho toshlar bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarda rahbar buyrug‘i bilan mas’ul shaxs tayinlamaslik	**30**	
3.	Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish uchun ichki nazoratni tashkil etish maqsadida qimmatbaho metall va qimmatbaho toshlar bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarda rahbar buyrug‘i bilan tayinlangan mas’ul shaxs haqidagi ma’lumotlarni har yili 15-yanvarga qadar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasiga taqdim etmaslik	**20**	
4.	Qimmatbaho metallarning foiz tarkibini aniqlash uchun tegishli uslublarga ega va davlat qiyoslovidan o‘tgan asbob-uskunalar bilan jihozlangan kimyo laboratoriyasining mavjud emasligi	**10**	
5.	Mineral xom ashyo, qimmatbaho metallar, tarkibida qimmatbaho metallar bo‘lgan ikkilamchi resurslar, parcha va chiqindilarga dastlabki ishlov berish sohasida maxsus bilimga yoki ko‘nikmalarga ega bo‘lgan xodimlarning shtatda mavjud emasligi	**10**	
	Jami ballar yig‘indisi	**100**	

28 (1256)-son
754-modda

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3904
2026 - yil 18 - Iyul

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ТРАНСПОРТ ВАЗИРИНИНГ БУЙРУҒИ

Автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлашда лаборатория синовларини амалга ошириш тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 14 июндаги ПФ–94-сон “Маъмурий ислоҳотлар доирасида транспорт соҳасида давлат бошқарувини самарали ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ҳамда 2025 йил 8 сентябрдаги ПФ–161-сон “Ислоҳотларни ҳуқуқий жиҳатдан таъминлаш самарадорлигини ошириш ҳамда ижтимоий муносабатларни тартибга солишда вазирлик ва идораларнинг масъулияти ва ташаббускорлигини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонларига мувофиқ **буюраман:**

1. Автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлашда лаборатория синовларини амалга ошириш тўғрисидаги низом иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Мазкур буйруқ Ўзбекистон Республикаси Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги, Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги соҳасида назорат қилиш инспекцияси ҳамда Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги билан келишилган.

3. Ушбу буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан уч ойдан кейин кучга киради.

Vazir

2026-yil 22-iyun

4-son

MAXKAMOV ILXOM
RUSTAMOVICH

Kelishildi:

Direktor 2026-yil 15-iyun		JUMANAZAROV AKMAL RUZIKULOVICH
Вазир 2026-yil 4-iyun		XIDOYATOV SHERZOD SAIDJANOVICH
Rahbar 2026-yil 8-may		ESHQUVVATOV SIROJIDDIN QORSHIBAYEVICH

Ўзбекистон Республикаси транспорт вазирининг
2026 йил 22 июндаги 4-сон буйруғига
ИЛОВА

Автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлашда лаборатория синовларини амалга ошириш тўғрисидаги НИЗОМ

Ушбу Низом автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлашда бажарилган ишларнинг, йўл қурилиши соҳасига доир қонунчилик ҳужжатлари, техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатлар, шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларига ҳамда лойиҳа талабларига (бундан буён матнда йўл қурилишига оид ҳужжатлар деб юритилади) мувофиқлигини аниқлаш бўйича лаборатория синовларини амалга ошириш тартибини белгилайди.

1-боб. Умумий қоида

1. Ушбу Низомда қуйидаги асосий тушунчалар қўлланилади:

синаш лабораторияси – синашни амалга оширувчи юридик шахс ёки унинг таркибий бўлинмаси;

лаборатория синовлари – автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлашда бажарилган ишларнинг, жумладан қўлланилган материаллар ва конструкцияларнинг йўл қурилишига оид ҳужжатларга мувофиқлигини аниқлаш жараёни;

аккредитация – мувофиқликни баҳолаш органларининг муайян фаолият соҳасида мувофиқликни баҳолашга доир ишларни бажаришга ваколатлилигини аккредитация органи томонидан расман тасдиқлаш;

буюртмачи – объектларни қуриш, реконструкция қилиш, таъмирлаш ва бузишнинг амалга оширилишини таъминловчи, шунингдек шу мақсадларда лойиҳа-қидирув, экспертлик, қурилиш-монтаж ва назорат ишларини бажариш учун тегишли ташкилотлар билан шартномалар тузувчи жисмоний ёки юридик шахс;

пудрат ташкилоти – буюртмачи томонидан амалдаги қонунчилик асосида белгиланган ҳамда шартномада кўрсатилган ишларни белгиланган муддатда бажариш ва топшириш мажбуриятини олган юридик шахс.

2- боб. Автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлашда синаш лабораториясини жалб қилиш

2. Автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлашда бажарилган ишларнинг сифати устидан пудрат ташкилоти томонидан доимий равишда лаборатория назорати таъминланади.

Бунда ушбу бажарилган ишларнинг сифатини назорат қилиш пудрат ташкилотининг синаш лабораторияси ёки шартнома асосида жалб этиладиган ташкилот томонидан лаборатория синовларини ўтказган ҳолда амалга оширилади.

3. Ички назорат пудрат ташкилоти томонидан камчиликларни ўз вақтида аниқлаш ҳамда уларни бартараф этиш ва олдини олиш бўйича чоралар кўриш мақсадида амалга оширилади.

4. Автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлашда бажарилган ишларнинг босқичма-босқич лаборатория синовидан ўтказилиши ва унинг тўлиқлиги, тўғрилиги, ишончлилиги ва объективлиги устидан ички назоратни таъминлаш учун пудрат ташкилоти масъул мутахассисни белгилайди.

5. Буюртмачи томонидан автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлашда бажарилган иш ҳажмларини пудрат ташкилотидан қабул қилиб олишда йўл қурилишига оид ҳужжатларга мувофиқлиги ва сифати таъминланганлигини аниқлаш учун синаш лабораторияси жалб қилинади.

Бунда ушбу синаш лабораторияси аккредитациядан ўтган бўлиши ва уни жалб қилиш Ўзбекистон Республикасининг “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонунига мувофиқ амалга оширилади.

6. Буюртмачи томонидан пудрат ташкилотининг синаш лабораториясини ёки у томондан жалб этилган синаш лабораториясини жалб қилинишига йўл қўйилмайди.

7. Буюртмачи ва пудрат ташкилотининг лаборатория синовлари натижалари юзасидан улар ўртасида низоли ҳолатлар юзага келганда, ушбу синовларда иштирок этмаган аккредитациядан ўтган синаш лабораторияси томонидан қайта синовлар ўтказилиши мумкин.

3- боб. Синаш лабораториясининг вазифалари, ҳуқуқлари ва мажбуриятлари

8. Автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлашда бажарилган ишларни лаборатория синовларидан ўтказиш мазкур Низомнинг **1-иловасига** мувофиқ амалга оширилади.

9. Синаш лабораторияси автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлашда бажарилган ишларнинг ҳар бир босқичида уларнинг йўл қурилишига оид ҳужжатлар талабларига мувофиқлигини лаборатория синовлари орқали аниқлайди.

Бунда лаборатория синови натижалари мазкур Низомнинг **2-иловасига** мувофиқ шаклда синов баённомаси билан расмийлаштирилади.

10. Синаш лабораториясининг вазифалари қуйидагилардан иборат:

автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлашда бажарилган ишларнинг, жумладан қўлланилган материаллар (асфальтбетон, бетон ва бошқа қоришмалар), конструкциялар ва буюмларнинг йўл қурилишига оид ҳужжатлар ҳамда лойиҳа ҳужжатларига мувофиқлиги юзасидан лаборатория синовларини ўтказиш;

ўтказилган лаборатория синовларининг натижалари юзасидан синов баённомалари ва ҳисоботларини расмийлаштириш.

11. Синаш лабораторияси қуйидаги ҳуқуқларга эга:

автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлашда бажарилган ишларни лаборатория синовларидан ўтказиш учун намуналар олиш;

автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлашда бажарилган ишларни лаборатория синовларидан ўтказиш натижалари бўйича аниқланган номувофиқликлар юзасидан шартнома тузилган томонга таклиф киритиш.

Синаш лабораториялари қонунчиликда белгиланган бошқа ҳуқуқларга ҳам эга бўлиши мумкин.

12. Синаш лабораторияси қуйидагиларга мажбур:

автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлашда бажарилган ишларни лаборатория синовларидан ўтказиш натижалари бўйича синов баённомалари ва ҳисоботларини расмийлаштириш;

аккредитациядан ўтказилган лабораториялар синов баённомаларининг (ишлаб чиқаришдаги лабораториялар ички эҳтиёжлари учун ўтказган синовлари бундан мустасно) “e-akkreditatsiya” ахборот тизимида рўйхатга олинган ҳолда расмийлаштириш;

иш журналлари ва дафтарларини белгиланган тартибда ёзма ва электрон равишда юритиб бориш;

лаборатория синовларини йўл қурилишига оид ҳужжатларга мувофиқ тўлиқ, ҳаққоний ва ваколат доирасида амалга ошириш.

Синаш лабораториялари қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ бошқа мажбуриятларга ҳам эга бўлиши мумкин.

4-боб. Якуний қоида

13. Мазкур Низом талабларининг бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ жавобгар бўладилар.

QMMB: 10/26/3904/0763-son
21.07.2026-y.

Автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлашда лаборатория синовларини амалга ошириш тўғрисидаги низомга
1-ИЛОВА

Автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлашда бажарилган ишларни лаборатория синовидан ўтказиш
ЖАДВАЛИ

Т/р	Ишлар номи	Синов кўрсаткичлари	Синов муддати	Асос
1.	Автомобиль йўлларини қуриш ва реконструкция қилишда йўл пойи ишларини лаборатория синовидан ўтказиш	Грунт (кўтарма, ўйма) физик-маханик кўрсаткичлари: • қатлам қалинлиги; • бир хиллиги; • шўрланганлиги; • намлиги; • зичлиги.	Иш жараёнида*	ГОСТ 25100-2020 ГОСТ 30416-2020 ГОСТ 28622-2012 ГОСТ 23161-2012 ГОСТ 5180-2015 ГОСТ 30672-2019
2.	Автомобиль йўлларини қуриш ва реконструкция қилишда ноорганик боғловчи материаллар билан мустаҳкамланган йирик бўлакли, қумли ва гилли грунтлар, саноат чиқиндиларидан тайёрланган асос ва қоплама ишлари ҳамда материалларни лаборатория синовидан ўтказиш	Асос ва қопламанинг физик-маханик кўрсаткичлари: • йирик бўлакли ва қумли грунтларнинг гранулометрик таркиби; • гилли грунтларнинг пластиклик сони ва майдалик даражаси; • сиқилиш мустаҳкамлиги; • совуққа чидамлилиги; • саноат чиқиндиларининг зичланганлик коэффициенти.	Иш кунида камида бир марта	ГОСТ 5180-2015 ГОСТ 25100-2020 ГОСТ 23558-94 ГОСТ 30491-2012
3.	Автомобиль йўлларини қуриш ва реконструкция қилишда органик боғловчи материаллар билан ишлов берилган асос ва қоплама ишлари	Асос ва қопламанинг физик-маханик кўрсаткичлари : • аралашманинг ҳарорат; • сиқилишдаги мустаҳкамлик	Иш кунида камида бир марта	ГОСТ 18659-2005 ГОСТ 33048-2014 ГОСТ 8269.0-2025 ГОСТ 33028-2014

QMMB: 10/26/3904/0763-son
21.07.2026-y.

	ҳамда материалларни лаборатория синовидан ўтказиш	чегаралари; • аралашманинг ёпишқоқлиги; • донадорлик таркиби; • сувга чидамлилиги.		ГОСТ 32818-2014
4.	Автомобиль йўлларини қуриш ва реконструкция қилишда асфальтбетон ва полимерасфальтобетон қопламалар ва асос ишларини лаборатория синовидан ўтказиш	Асосни қуриш ишларининг физик-маханик қўрсаткичлари: • қалинлиги; • зичлиги; • донадорлик таркиби.	Ҳар қатламда	ГОСТ 33133-2014 ГОСТ 9128-2013
		Асфальтбетон, иссиқ асфалтбетон ва полимерасфальтбетон қоплама ишларининг физик-маханик қўрсаткичлари: • қалинлиги; • сиқилишга бўлган мустаҳкамлиги; • сув шимувчанлиги; • равонлиги; • зичлиги; • илашишлилиги; • донадорлик таркиби; • битум миқдори; • қолдиқ ғовакдорлиги; • зичланганлик коэффициенти.	3-7 сутка ичида**	
5.	Автомобиль йўлларини қуриш ва реконструкция қилишда чақиқ тош-мастикали асфальтбетон ва полимер чақиқ тош-мастикали асфальтбетон қопламалар ишларини лаборатория синовидан ўтказиш	Чақиқ тош-мастикали асфальтбетон ва полимер чақиқ тош-мастикали асфальтбетон қоришмалари (олинган намуналар) физик-механик кўрсаткичлари: • қалинлиги; • битум миқдори;	3-7 сутка ичида**	O‘zDSt 3610-2022 ГОСТ 31015-2002 ГОСТ 12801-98

QMMB: 10/26/3904/0763-son
21.07.2026-y.

		• барқарорлаштирувчи қўшимча миқдори; • донадорлик таркиби; • боғловчининг минерал материал билан ёпишиши; • чидамлилиги; • қолдиқ ғовакдорлиги; • сув таъсирига бардошлилиги.		
6.	Автомобиль йўлларини қуриш ва реконструкция қилишда қуйма цемент-бетон қоплама ва асос ишлари ҳамда материалларни лаборатория синовидан ўтказиш	Цемент-бетон қопламалар ва асосларнинг физик-механик кўрсаткичлари: • қалинлиги, • сиқилишга бўлган мустаҳкамлиги; • эгилишдаги мустаҳкамлиги; • музлашга бардошлилиги; • сув ўтказувчанлиги; • равонлигини; • зичлиги; • илашишлилиги.	Ҳар иш кунида ишлатилган қопламадан 7-28 сутка ичида	ГОСТ 26633-2015 ГОСТ 30515-2013 ГОСТ 23732-2011 ГОСТ 8267-93 ГОСТ 8736-2014 ГОСТ 24211-2008 ГОСТ 30459-2008 ГОСТ 10180-2012
7.	Автомобиль йўлларини таъмирлашда асфальтбетон ва полимерасфальтобетон қоплама ишлари сифатини лаборатория синовидан ўтказиш	Асфальтбетон, иссиқ асфалтбетон ва полимерасфальтбетон қопламалар ва асосларининг физик-механик кўрсаткичлари: • қалинлиги; • сув шимувчанлиги; • донадорлик таркиби; • битум миқдори; • қолдиқ ғовакдорлиги; • зичланганлик коэффициенти.	3-7 сутка ичида**	ГОСТ 9128-2013

QMMB: 10/26/3904/0763-son
21.07.2026-y.

Изоҳлар:

*ҳар бир технологик қатламда камида 3 нуқтада, йўл пойининг ўқи бўйлаб ва қирғоқдан 0,5-1,0 метр масофада, йўл пойининг кенглиги 20 метрдан ортиқ бўлганда эса улар орасидаги оралиқларда, кўтарма баландлиги 3 метргача бўлганда камида 200 метр оралиқда ва кўтарма баландлиги 3 метрдан ортиқ бўлганда камида 50 метр оралиқда лаборатория синовлари амалга оширилади.

**қопламанинг четидан ёки йўл ўқидан камида 0,5 метр масофада жойлашган қисмидан, қопламанинг эни 7 метрдан кам бўлганда 1 метргача учта, қопламанинг эни 7 метрдан кенг бўлса ҳар 7000 m^2 майдондан учта намуна олинади ва лаборатория синовлари амалга оширилади.

синов натижалари бўйича учта намунанинг бирида (2 333 m^2 қопламада) лойиҳа ва йўл қурилишига оид ҳужжатларга мос келмаса, ушбу намуна олинган майдондан қўшимча учта намуна олинади. Лаборатория синов натижаларига мувофиқ ушбу майдондаги (2 333 m^2) қопламанинг сифатлилиги ёки сифатсизлигига баҳо берилади.

асфальтбетон қопламанинг зичланганлик коэффициенти (К) А ва Б турдаги қопламанинг пастки қатлами учун К - 0.98 дан, юқори қатлам учун К - 0.99 дан, В, Г ва Д турлари учун К - 0.98 дан, совуқ қоришмалардан тайёрланган асфальтбетон учун К - 0.96 дан, бошқа қопламалар (йўлаклар, тротуарлар, майдончалар, велосипед йўлаклари) учун - К 0.93 дан кам бўлмаслиги керак (чақиқ тош-мастикали асфальтбетон ва полимер чақиқ тош-мастикали асфальтбетон қоришмалари бундан мустасно).

QMMB: 10/26/3904/0763-son
21.07.2026-y.

Автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш
ва таъмирлашда лаборатория синовларини амалга
ошириш тўғрисидаги низомга
2-ИЛОВА

“ТАСДИҚЛАЙМАН”
Синаш лаборатория бошлиғи
_____ Ф.И.О.
_____
(имзо)
20___йил “___” _____

_____-сон
СИНОВ БАЁННОМАСИ

Лаборатория номи: _____
Лаборатория манзили: _____
Гувоҳнома рақами: _____
Синов ўтказиладиган жой номи: _____
Буюртма берган ташкилот номи: _____
Маҳсулот (иш) номи: _____
Намуна олиш далолатномаси рақами: _____
Намуна олиш санаси: _____
Намуна олинган жой номи: _____
Синов объектлари учун ҳужжатлар: _____
Синов усуллари учун ҳужжатлар: _____
Синов ўтказиш шароитлари (ҳарорат, намлик)**:** _____
Ўлчаш ноаниқлиги: _____
Синов усулига қўшимча киритиш, рад этиш ёки чиқариб ташлаш тўғрисидаги маълумот:
_____
Фикрлар ва талқинлар: _____

ЎЛЧАШ ВОСИТАЛАРИ ВА СИНОВ УСКУНАЛАРИ РЎЙХАТИ

Номи	Рақами, санаси

СИНОВ НАТИЖАЛАРИ:

Т/р	**Синов тури/ Аниқланаётган кўрсаткич номи**	**Ўлчов бирлиги**	**Кўрсаткич, ҳужжат бўйича (белгиси ва талаби)**	**Аниқланган кўрсаткич**	**Кўрсаткичларни мослиги (талабга мувофиқлиги)**
1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**

Хулоса: _____

_____

_____

_____

_____

_____

Синов ўтказилган сана: 20____йил “___” _____

Синов ишларини ўтказди:

Синаш лабораторияси ходими _____ _____
(имзо) *(Ф.И.О.)*
(лавозим кўрсатилади)

Синов баённомасини тузди:

Синаш лабораторияси ходими _____ _____
(имзо) *(Ф.И.О.)*
(лавозим кўрсатилади)